



D.A.NAZAROVA
Z.N.MAMARAJABOVA

SURDOPEDAGOGIKA



DARSLIK

“INNOVATSIYA-ZIYO”


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

D.A.NAZAROVA Z.N.MAMARAJABOVA

MAXSUS PEDAGOGIKA
Surdopedagogika

DARSLIK

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
5111900 – Defektologiya yo'nalishi bo'yicha darslik sifatida tavsiya
etilgan**



Y-8594/2

**TOSHKENT
"INNOVATSIYA-ZIYO"
2019**

UO'K: 376

KBK:74.32

M-19

Nazarova D., Mamarajabova Z.

Maxsus pedagogika/Surdopedagogika/ darslik. Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019, 420 b.

Mazkur darslik 5111900 – Defektologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha Oliy ta'lim o'quv muassasasida tahsil oluvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, «Maxsus pedagogika» fani namunaviy dasturi asosida yaratilgan. Darslikda surdopedagogika fanining umumiy asoslari; surdopedagogikaning rivojlanish tarixi; eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik tasnifi; kar bolalar va zaif eshituvchilar maktabi didaktikasi; eshitishida va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish mazmuni; eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasi nazariyasi; maxsus ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalar, maxsus ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning samaradorligi, maxsus ta'lim jarayonida interfaol darsni tashkil etish, surdopedagogikada integratsiya va inklyuziv ta'lim muammosi va yechimlari; eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ta'lim tizimida koxlear implantatsiyasining ahamiyati kabi masalalar yoritilgan.

Darslik 6 bo'limdan iborat bo'lib, unda ta'lim jarayonining eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarning nutqiy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda korreksion yo'nalishda tashkil etilishi yoritilgan. Darslikdan maxsus pedagogika sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida qo'shimcha manba sifatida ham foydalanilishi mumkin.

Taqrizchilar:

L.R.Muminova - Pedagogika fanlari doktori, professor

M.Y.Ayupova - Pedagogika fanlari nomzodi, professor

D.Nurkeldiyeva - Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGINING 2019-YIL 4-OKTABRDAGI 892-005- SONLI BUYRUG'GA
ASOSAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN**

ISBN 978-9943-6212-9-9

© NAZAROVA D., MAMARAJABOVA Z., 2019

© "INNOVATSIYA-ZIYO" - 2019

SO'ZBOSHI

O'zbekiston Respublikasidagi mustaqillik odimlari tufayli ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy o'zgarishlar yuz bermoqda. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim samaradorligiga erishish ustuvor vazifa qilib qo'yilmoqda. Uzluksiz ta'limni amalga oshirishga qaratilgan davlat hujjatlari qabul qilindi va ular hayotga tadbiq etilmoqda.

Xalq ta'limining barkamol shaxs tarbiyasini, malakali mutaxassislar tayyorlashni yuqori va jahon talablari darajasiga mos ravishda amalga oshirish maqsad va vazifalari belgilandi. Bu jarayon «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro'yobga chiqarishdagi zamonaviy bosqichda oliy ta'lim muassasalari mukammal ta'lim standartlari, o'quv metodik qo'llanmalar va darsliklarini yaratish kabi muammolarni hal etishni talab etmoqda. Xususan, «Maxsus pedagogika» (surdopedagogika) fanini o'qitishdan maqsad – maxsus pedagogika fakulteti talabalarida eshitishida muammosi bor bolalarni maxsus ta'lim-tarbiya jarayoni nazariyasi va amaliyoti, eshitishida muammosi mavjud bolalarning xususiyatlari, ularni rivojlantirish, korreksiya vositalarini yaratish, qo'llash, o'rganish masalalarini qamrab oladi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlari Defektologiya yo'nalishi talabalari maxsus pedagogikaning metodologik asoslari, xalq ta'limi hamda pedagogika fanining hozirgi zamon talablari, rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi nazariyasi va amaliyotining hozirgi zamon holati bilan tanishib borishadi. O'z mutaxassisliklariga binoan talabalar surdopedagogikaning metodologik asoslari, xalq ta'limi hamda pedagogika fanining hozirgi zamon talablari, eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi nazariyasi va amaliyotining hozirgi zamon holati bilan tanishib borishadi. Bunda "Surdopedagogika" kursi yetakchi o'rin egallaydi.

Oliy o'quv yurtlari bakalavriatida "Surdopedagogika" kursi quyidagilarni o'z ichiga oladi: eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash asoslarining nazariy bilimlari; amaliy kasbiy ko'nikmalarining shakllanishi; pedagogik qobiliyatlarining rivojlanishi; bo'lajak kasbiga qiziqish, o'z ustida ishlash hamda pedagogik ko'nikmasini takomillashtirish. Bu

borada, talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga, ularning mustaqil, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, kasbiy bilim va ko'nikmalarini egallashiga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur talablarga muvofiq ravishda darslikda nafaqat nazariy materiallar bayon etilgan, balki talabalarining mustaqil ishlashi uchun ham vazifalar ro'yxati berilgan. Mazkur vazifalar mazmun jihatdan turlichadir. Unga materialni ongli ravishda idrok etishga, eshitadigan va eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning o'qish jarayonining umumiy va xususiy tomonlarini ajratishga, materialni qayta guruhlashtirishga, sxema va jadvallar tuzishga doir vazifalar kiritilgan. Qator vazifalarni talabalar maktab-internatga borganidan so'ng, laboratoriya mashg'ulotlarida yoki pedagogik amaliyot davrida bajarishi nazarda tutilgan.

Taklif etilayotgan darslik surdopedagog olimlarning tadqiqotlarini ma'lum tizimga keltiradi. Mualliflar mazkur darslikni yaratishda yetakchi olimlarning ishlari va xorijiy adabiyotlardan, internet tizimidagi axborotlardan foydalanishgan. Ayrim mavzular ma'lum darajada zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yoritilgan. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlari xodimlarining ilg'or ish tajribasi natijalari keng miqyosida jalb etilgan.

«Maxsus pedagogika» (Surdopedagogika) darsligi olti bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'lim "Surdopedagogikaning umumiy masalalari" deb nomlanadi. Mazkur bo'lim surdopedagogika fanining mavzu bahsi, vazifalari va metodlari, nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, surdopedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlari, rivojlanish tarixi, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik tasnifi kabi masalalarni qamrab oladi.

Ikkinchi bo'lim "Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limining tashkil etilishi" deb nomlanib, eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim muassasalari tarmog'i, ta'limning mazmuni (o'quv reja, dastur va darsliklari, kompetensiyaviy yondashuvlar), o'qitish jarayonida ta'lim tamoyillarining qo'llanishi, ta'lim jarayonida qo'llanuvchi metodlar tavsifi, o'quv faoliyatining tashkiliy shakllari (dars, korreksion mashg'ulotlar, ularni tahlil qilish), maktablarda til o'qitish asoslari, maktablarda mehnat ta'limining asoslari va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanuvchi nutqiy

vositalar, ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kabi masalalar ochib beriladi.

Uchinchi bo'lim "Eshitishida va aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim va tarbiyasining tashkil etilishi" deb nomlanib, eshitishida va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish mazmuni, o'qitish xususiyatlari kabi masalalar yoritiladi.

To'rtinchi bo'lim "Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasining nazariy asoslari" deb nomlanib, mazkur bo'limda eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktab-internatlarida tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishidagi o'ziga xoslik, tarbiyalash metodlari, oilada tarbiyalash kabi masalalar ochib beriladi.

Beshinchi bo'lim "Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonida hamkorlik ishlarining tashkil etilishi" deb nomlanadi. Ushbu bo'limda ota-onalar o'rtasida psixologogik-pedagogik bilimlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda maktab va oila hamkorligi kabi masalalar yoritiladi.

Oltinchi bo'lim "Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasidagi zamonaviy yondashuvlar" deb nomlanib, pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari va rivojlanish, maxsus ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalar, maxsus ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar samarasi, maxsus ta'lim jarayonida interfaol darsni tashkil etish, surdopedagogikada integratsiya va inklyuziv ta'lim muammosi: mohiyati, muammo va yechimlari, eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasidagi zamonaviy yondashuvlar, koxlear implantatsiya – eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nogironligini olishning samarali vositasi kabi masalalarni qamrab oladi.

Har bir bo'lim talabalarning mustaqil ishlashi uchun vazifalar hamda adabiyotlar ro'yxati bilan yakunlanadi.

I BO'LIM. SURDOPEdagogIKANING UMUMIY MASALALARI

I BOB. SURDOPEdagogIKANING MAVZU BAHSI

Surdopedagogikaning mavzu bahsi, vazifalari

Surdopedagogika (lotincha "surdus" – soʻzidan olingan boʻlib, "karlik" degan maʼnoni bildiradi) eshitishida muammosi boʻlgan shaxslar taʼlimi, tarbiyasi va oʻqitilishi masalalarini tadqiq qiluvchi pedagogik fanlar qatoriga kiruvchi korreksiya pedagogikasining bir tarmogʻidir.

Surdopedagogikaning asosiy vazifalari eshitishida muammosi boʻlgan bolalarni pedagogik jihatdan har tomonlama oʻrganish, maxsus maktabda til oʻqitishni takomillashtirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzini shakllantirish ishlarini yuqori pogʻonaga koʻtarish; eshitishida muammosi boʻlgan bolalarga taʼlim-tarbiya berish qonuniyatlarini oʻrganish va uni takomillashtirish, eshitish idrokining rivojlanish tizimi samaradorligini oshirish, oʻz bitiruvchilarining maʼlum bir kasb yoʻnalishi boʻyicha mehnat qilishlariga erishish; oʻqitishning texnik vositalarini takomillashtirish; maktabgacha taʼlim muassasasining va maktab taʼlimining uzluksizligini taʼminlash; respublika boʻyicha meditsina hamda xalq taʼlimi tarmoqlari ishlarini muvofiqlashtirish, erta tashxis muammolarini oʻrganishdan iboratdir.

Surdopedagogika fan sifatida eshitishida muammosi boʻlgan shaxslar taʼlim-tarbiyasi amaliyoti bilan chambarchas holda, shuningdek, ushbu amaliyotni har tomonlama oʻrganish hamda umumlashtirish asosida rivojlanadi. U nuqsonning oldini olish va kompensatsiyalash (oʻrmini bosish)ning ilmiy asoslangan yoʻl va vositalarini ishlab chiqish, shaxsning rivojlanish sharoitlarini asoslab berish bilan eshitishida muammosi boʻlgan bolalar taʼlim-tarbiyasi amaliyotiga tubdan taʼsir koʻrsatadi. Ushbu holatdan kelib chiqqan holda oʻzbek surdopedagogikasi oʻz oldiga quyidagi vazifalarini hal qilishni qoʻymoqda:

- eshitishida muammosi boʻlgan bolalarni har tomonlama pedagogik oʻrganish;

- eshitishida muammosi boʻlgan bolalar taʼlim-tarbiyasi obyektiv

qonuniyatlarini o'rganish,

- maxsus tashkil etilgan ta'lim-tarbiyaning mohiyatini aniqlash;

- ilm asoslariga o'qitish tizimini nazariy asoslab berish hamda ishlab chiqish;

- eshitish idrokini rivojlantirish, ona tilini o'qitish, og'zaki nutq (talaffuz)ni shakllantirish tizimini takomillashtirish;

- maxsus ta'lim tizimi mazmuni (o'quv reja, ta'lim talab va dasturlari, darsliklar) ni ilmiy asoslagan holda takomillashtirish;

- maxsus muassasada korreksion-kompensator rivojlantiruvchi tavsifga ega o'qitish va tarbiyaning nizom, metod va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslagan holda takomillashtirish;

- o'quvchilar ta'limi, ijtimoiy foydali mehnat hamda kasb tayyorgarligi tizimini takomillashtirish;

- eshitish nuqsonini korreksiyalash (to'g'rilash) va kompensatsiyalash (o'rni bosish) texnik vositalarini yaratish va takomillashtirish;

- maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab-internati, oila va mahallaning eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi faoliyatidagi hamkorliklarini kuchaytirish;

- maxsus pedagogik bilim va yutuqlarni targ'ibot qilish, ommalashtirish;

- eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv ta'limni joriy etish orqali ijtimoiy hayotga erta uyg'unlashtirish masalalarini hal qilish.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida sodir bo'lgan qator ijobiy o'zgarishlar rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar taqdiri masalalarini hal qilishda turli soha vakillari yangi yo'nalishlardagi faoliyatlarining birlashuvi bilan chambarchas bog'liq. Bolaning rivojlanishidagi me'yordan chetga chiqishlarni erta tashxis qilish, muammo oqibatini bartaraf etish, qayta tiklash, rivojlanishida u yoki bu jihatdan muammosi bo'lgan ilk va erta yoshdagi bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish, ularni umumta'lim muassasalariga uyg'unlashtirish modellarini ishlab chiqish masalalari kun tartibida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimida so'nggi vaqtlarda inklyuziv ta'lim g'oyasi, respublikamiz sharoitida uni joriy etish masalalari tez-tez murojaat etilayotgan mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar eshitishining jarrohlik yo'li

bilan koxlear implantatsiya yordamida qayta tiklash bunday bolalarni «eshituvchilar» jamiyatiga qaytarish, ya'ni jamiyatga uyg'unlashtirishning yana bir samarali yo'li sanaladi. Koxlear implantatsiya (KI) – eshitish sezgilarini tiklash maqsadida jarrohlik yo'li bilan ichki quloqda (quloqning ichki bo'limida) joylashgan eshitish nervlarining afferent tolalariga bevosita elektr qo'zg'atuvchilik vazifasini bajaruvchi elektrod tizim (sistema)larni ulash. Hozirgi kunda eshitish muammosi turli darajada bo'lgan shaxslarning eshitishini tiklashda turli-tuman OKAlari (*eshitish apparat (uskuna)lari*)dan foydalanilmoqda. Yuqori darajadagi sensonevral zaif eshituvchilik va karlik holatida ba'zi texnik, fiziologik, patofiziologik sabablarga ko'ra OKAlar nutqiy tovush idrokini birozgina yaxshilaydi yoki umuman idrok etish imkonini bermaydi. Surdoaudiologiya (lotincha *surdus* – kar va *audio* – eshityapman so'zlaridan) sohasidagi izlanishlar, unga yangi texnologiyalarning joriy etilishi, bu jarayonda turli yo'nalishdagi olimlar faoliyatining birlashuvi eshitishida chuqur muammosi bo'lgan shaxslar eshitish idrokini yaxshilashning yangi usuli – ko'pkanalli koxlear implantatsiya metodining ishlab chiqilishi imkonini berdi. Koxlear implantatsiya qilingan shaxslar bilan olib boriluvchi surdopedagogik ishlar zaruriy ahamiyatga ega. Operatsiyadan so'ng surdopedagog, logopedlar tomonidan eshitish diqqatini rivojlantirish, ular nutqini o'stirish bo'yicha izchillik bilan amalga oshiriluvchi mashg'ulotlar bolalarning ijtimoiy hayotga uyg'unlashuvlarining muhim omili hisoblanadi. Ya'ni bunday shaxslar eshitishni, nutqni faqatgina surdopedagog va yaqinlarining yordamida egallab borib, ijtimoiy hayotga erta uyg'unlashadilar. Shu sababli bunday operatsiyadan so'ng bolalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni, tashkil etilishini respublikamiz shart-sharoitlariga bog'liq holda ishlab chiqish surdopedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Turli yoshda eshitish muammolari mohiyatining turlicha namoyon bo'lishi surdopedagogikani uch mustaqil yo'nalishda: maktabgacha, maktab hamda kattalar surdopedagogikasi sifatida tadqiq qilishni talab qiladi. Bir necha asrlar davomida jahon surdopedagogik nazariya va amaliyoti eshitishida muammosi bo'lgan bolalar rivojlanish xususiyatlari hamda bilish imkoniyatlari, shuningdek, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi bilim va tajribalarni to'pladi (Arastu, J.Kardano, P.Ponse, X.Bonet, Sh.M.Epe, S.Geynike, L.S.Vigotskiy,

S.A.Zikov, R.M.Boskis va b.). Respublikamizda maxsus ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, jumladan, eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotga uyg'unlashuvlarining «kaliti» sanalgan nutqni rivojlantirish tizimini, maxsus ta'lim muassasasining ota-onalar bilan hamkorlikda olib boruvchi ish jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va ularni sifat jihatdan yuqoriga ko'tarishni ta'minlashda milliy pedagogikamiz asoschilarining qoldirgan boy ilmiy, adabiy va pedagogik merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Surdopedagogika uchun til va taffakur birligi haqidagi ta'limot bosh mezon hisoblanadi. Til ijtimoiy hodisa bo'lib, u birgalikda mehnat qiluvchilarning muloqotga muhtojliklari ta'sirida yuzaga keldi. Til muloqot vositasi va fikrlash vositasidir. Til va taffakur birligining mohiyati fiziolog, psixolog, tilshunos, faylasuflar tadqiqotlari orqali tasdiqlangan.

Til mohiyatini tushunish. Kar va zaif eshituvchi bolalarga zamonaviy ta'lim berish til mohiyatini tushunish ta'limotiga tayanadi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim tizimini takomillashtirish ushbu toifa bolalarining ona tilini egallashlarining qonuniyatlari, karlik va zaif eshituvchilik patofiziologiyasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Surdopedagogika uchun L.S.Vigotskiy tomonidan taklif etilgan «nuqsonning murakkab tuzilishi» nazariyasi asos bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni, birlamchi muammolar (karlik, zaif eshituvchilik) ikkilamchi muammo («soqovlik») yoki faqat mustaqil holatda egallangan me'yordan chetga chiqqan uzuq-yuluq tovushlardan iborat nutqiy malakalarga ega bo'lish)ni yetaklab keladi. Ikkilamchi muammo esa, o'z navbatida, so'z-mantiqiy, abstrakt tafakkur rivojlanishini chegaralaydi. Natijada bunday bolalarning atrof olamni o'zgacha tushunishi, pirovardida dunyoqarashining tor darajada rivojlanishi holati sodir bo'ladi. Chunki aynan ikkilamchi muammo bolalarning me'yorida rivojlanishlariga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Surdopedagogika umumiy pedagogika, o'zbek xalqi etnopedagogikasining ma'lumotlaridan eshitmaydigan bolalar xususiyatlari, ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ijodiy foydalaniladi. Korreksiya pedagogikasining metodologik asoslari, umumiy bosh nazariy va amaliy vazifalari surdopedagogikaning barcha yondosh tarmoqlar bilan chambarchas holda rivojlanishini taqozo qiladi.

Surdopedagogika eshitmaydigan bolalar psixologik shaxsiy xususiyatlari qonuniyatlarini ochib beruvchi surdopsixologiya fani bilan ham izchil bog‘liq. Fiziologiya, anatomiya, otorinolaringologiya, audiologiya sohalaridagi bilimlardan surdopedagogika eshitmaydigan bolalarning tabaqalab o‘qitilishi, eshitish idroki va og‘zaki nutqini shakllantirish muammolarini hal qilishda foydalanadi. Xuddi shu muammolarni hal qilishda, shuningdek, surdotexnik vositalarini ham keng qo‘llash talab etilishi surdopedagogikaning surdotexnika bilan aloqadorligini asoslab beradi.

Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarning ta‘lim-tarbiyasi Yevropadagi qator mamlakatlarda olib borilgan. Kar bolalarni yakka o‘qitishda o‘sha vaqtning buyuk olimi Jerolamo Kardano (1501-1576) “karlik va soqovlikka” fiziologik tushuncha berdi. Olim tomonidan birinchi bo‘lib karlar bilan ishlash metodi ishlab chiqildi. XV-XVIII asrlarda karlarni yakka o‘qitishda 2 xil yondashuvga asoslangan yo‘nalishlar yuzaga keldi.

1-yo‘nalishga mansub – X.P.Bonet (Ispaniya), D.Bulver, D.Vallis (Angliya) va b. nutqning har xil turlari: so‘zli, yozma, daktil, imoishora nutqiaridan foydalanish g‘oyasini ilgari suradi.

2-yo‘nalishga mansub – F.M.Van Gelmont, I.K.Amman (Gollandiya), F.L.Terkiy (Italiya), V.Kerger, G.Rafelg (Germaniya)lar o‘qitish va muloqotda faqat so‘zli nutqdan foydalanish tavsiya etadi¹.

XVIII asrning 2-yarmida Fransiya, Germaniya, Angliya, Avstriyada karlar uchun maxsus o‘qishlar ochildi. Sharl Mishel epe (1712-1789) Parijda karlar uchun institut ochdi. Shu bilan bir qatorda, u “mimik metod” yaratuvchisi hamdir. 1778-yil Germaniyada ham karlar uchun institut ochildi, u yerda “sof og‘zaki metod”dan foydalanildi. Uning asoschisi Samuil Geynike (1727-1790) bo‘lib, bu tizim XIX asrning oxiriga kelib, G‘arbiy Yevropaning hamma shaharlariga tarqaldi. AQShda birinchi karlar uchun maktab 1817-yili tashkil qilindi².

Rossiyada ham karlar haqida ma‘lumotlar mavjud. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Rossiyada maxsus bilim yurtlar

¹ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

² M. Marschark, Harry G.Lang, John Albertini - Educating deaf students - Oxford University Press. 2006, 303p

Peterburg, so'ng Varshava, Riga va boshqa shaharlarda ochildi. XX asrning boshlariga kelib, eshitishida muammosi bor bolalarni o'qitishning yangi tizimi ishlab chiqildi. Unda rus surdopedagoglaridan V.I.Fleri (1800-1856), G.A.Gilkova (1778-1858), A.F.Ostrogradskiy (1853-1907), I.A.Vasilev (1867-1941), N.M.Logovskiy (1863-1933), F.A.Rau (1868-1957)lar faoliyat ko'rsatishdi. Ularning asosiy e'tibori eshitishida muammosi bor bolalarga kasbiy darajada ta'lim-tarbiya berishdir.

Surdopedagogika umumiy pedagogikaning tamoyillari, metodlari, ta'lim berish va tarbiyalash vositalaridan keng foydalanadi. Bu metodlardan eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning tarbiyasi, o'qishi va rivojlanishida qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda kar va zaif eshituvchilarning ta'limida to'g'ri talaffuz qilish, o'qitishning yanada rivojlanishida surdo texnikaviy asboblardan keng ko'lamli foydalanishni talab qilyapti. Shundan dalolat beradiki, surdopedagogika surdotexnika fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Surdopedagogika uchun buyuk psixolog defektolog L.S.Vigotskiyning "nuqsonning murakkab tuzilishi" haqidagi ta'limoti muhim ahamiyatga ega. Ushbu ta'limot bo'yicha, birlamchi nuqson, o'z navbatida, ikkilamchi nuqsonni yetaklab keladi. Mana shu ikkilamchi nuqson o'z ortidan ko'pgina nuqsonlarni yetaklab kelishi shaxsning me'yorda rivojlanishiga ma'lum to'sqinliklarni yuzaga keltiradi.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifasi aynan mana shu ikkilamchi nuqsonni bartaraf etishdan iborat. Surdopedagogika sohasida eshitishida muammosi bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitishning ko'plab metodikalari mavjud. Umumiy fanlar – tarix, matematika, tabiatshunoslik kabi fanlar bilan bir qatorda maxsus fanlar – eshitish qobiliyatini rivojlantirish, to'g'ri talaffuzni shakllantirish, nutq o'stirish, labdan o'qishga o'rgatish, predmet amaliy ta'limi kabi metodikalari yaratilgan¹.

Surdopedagogika fanining tizimiga surdopedagogika tarixi ham kiradi. Unda turli tarixiy davrlarda eshitish qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan qanday ish olib borilganligi yoritiladi.

Surdopedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Surdopedagogika umumiy pedagogikaning tamoyillari, metodlari,

¹ M. Marschark, Harry G.Lang, John Albertini - Educating deaf students - Oxford University Press, 2006. 303p

ta'lim berish va tarbiyalash vositalaridan keng foydalanadi. Bu metodlardan eshitishida muammosi bor bo'lgan bolalarning tarbiyasi, o'qishi va rivojlanishida qo'llaniladi. Surdopedagogika yana surdopsixologiya bilan ham chambarchas bog'langan.

Surdopsixologiya kar va zaif eshituvchi bolalarning ruhiy rivojlanishi va kar va zaif eshituvchi bolalar shaxsni shakllanishining xususiyatlarini ochib beradi. Surdopsixologiya fani kar va zaif eshituvchi bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlanishidagi nuqsonlarini bartaraf qilish, ya'ni korreksiya, kompensatsiya ishlarini qanday yo'nalishda olib borish yo'llarini aniqlab beradi. Maxsus maktablarda ta'lim-tarbiya berishning sifatini tekshirish, yaxshilash borasida maxsus surdopsixologik tadqiqotlar olib boriladi. Maxsus maktablarda tovushni kuchaytiradigan moslamalar, daktil tebranish uskunalaridan keng foydalaniladi. Hozirgi vaqtda surdopedagogika kar va zaif eshituvchilarning talaffuz qilish, o'qitish yanada rivojlanishida surdo texnikaviy asboblardan keng ko'lamli foydalanishni talab qilyapti.

Surdopedagogikaning tadqiqot metodlari

Surdopedagogikaning metodlari eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'rganish, ularni o'qitish jarayonini nisbatan yuqori pog'onaga ko'tarish, shuningdek, ushbu toifa shaxslarning kelgusi hayotda o'z o'rinlarini topishlariga xizmat qiladi. Buning uchun qator metod va yo'llardan foydalaniladi.

Ilmiy adabiyotlarni o'rganish. Surdopedagogikaning muammolaridan biri maxsus zamonaviy adabiyotlar darslik, metodik to'plamlar; ilmiy jurnallardagi maqolalar; ilmiy adabiyotlar pedagogika, psixologiya, surdopsixologiya va defektologiyaning boshqa tarmoqlari; maxsus adabiyot defektologiya lug'ati, pedagogika ensiklopediyasi; mashhur surdopedagoglar faoliyati; surdopedagogik muassasalarning ishlari ma'ruzalar, hisobotlarni o'rganish va rivojlantirishdir.

Surdopedagoglarning adabiyotlar bilan ishlashi eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlanish davrlarini o'rganishga imkon yaratadi. Ushbu metod o'z tarkibiga quyidagilarni oladi:

-surdopedagogikaga oid zamonaviy maxsus adabiyotlar

(monografiya, o'quv va metodik qo'llanmalar, maqolalar to'plami, darsliklar va b.);

- ommaviy axborot vositalari (matbuot, ilmiy jurnallardagi maqolalar);

- yondosh fanlarga oid ilmiy adabiyotlar (pedagogika, psixologiya, surdopsixologiya, audiologiya va korreksiya pedagogikasining boshqa jabhalari);

- turli sohalarga oid lug'at va ensiklopediyalar;

- surdopedagog – olimlarning asarlarini o'rganish.

Pedagogik sinov-tajriba (eksperiment) – o'quv-tarbiya jarayonida o'tkaziladigan ilmiy asoslangan tajriba. Uning asosiy maqsadi ilmiy farazlarni amaliy tekshirish (sinovi) bo'lib, o'quv-tarbiya ishining keng ko'lami, maqsadga yo'naltirilgan tadqiqotidan iborat. Eksperimentning natijalarini matematik metodlar orqali tahlil qilish sinov-tajriba samaradorligini aniqlash imkonini beradi hamda ilmiy farazni tasdiqlash, o'quv-tarbiya jarayoni va ta'lim metodikasiga o'zgartirish kiritishda qo'llanadi. Pedagogik nazoratni tashkil qilish muayyan maqsad asosida amalga oshiriladi. Jumladan, pedagogik jarayonlarning vazifasi, ish rejasi, nazorat jarayoni aniq va to'liq qamrab olinadi.

Kuzatish maqsadi tajriba to'plash va ilmiy-pedagogik tahlildir. Kuzatuvchi darsda o'quvchilarning darsdagi mavzuni qay darajada qabul qilishini, darsdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlarini kuzatib tahlil qilib boradi. Kuzatishda o'quv tarbiyaviy ishlarining natijasi aniqlanadi. Bu natija salbiy yoki ijobiy bo'lishi mumkin. Kuzatuv jarayonida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

Pedagogik kuzatish – eshitmaydigan bolalar maktab-internatlari o'quv-tarbiya jarayonini maqsadli, tizimli o'rganishni anglatadi. Kuzatishni tashkil etishda pedagogik jarayonning maqsadi, vazifalari, uni olib borish rejasi aniqlanadi. Kuzatish aniq va xolisona belgilab boriladi. Dalillarni to'plash, ularni tizimlashtirish va ilmiy-pedagogik tahlil qilish kuzatish vazifalari hisoblanadi. O'quv-tarbiya ishi holati va uning natijalarini o'rganishda ham ijobiy, ham salbiy dalillar asoslanadi. Dars va mashg'ulotlarni videotasmalarga tushurish haqiqiy ilmiy tahlil qilish imkonini beradi.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish. Ilgor pedagogik tajribani o'rganish o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tamoyil, metod,

metodikalar, pedagogik ta'sir, bilim, qobiliyat, o'quvchilar rivojlanishidagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Ko'pgina kuzatuvchi surdopedagoglar ilg'or o'qituvchi va tarbiyachilar tajribasidan foydalanadilar. Tajribali kuzatuvchilar ilg'or o'qituvchilar ish tajribasidan foydalanadi, yosh va boshqa o'qituvchilar ishi bilan taqqoslaydi. Ilg'or pedagoglarning tajribasini o'rganish uzoq muddatga rejalashtirilgan, aniq ishlab chiqilgan reja bo'yicha amalga oshiriladi. Pedagogik tajriba-o'quv yoki tarbiyaviy jarayondagi ilmiy muassaddir. Kuzatuvchi pedagogik jarayonni biror maqsadga yo'naltirilgan holda tuzadi yoki o'zgartiradi. Tajriba olib borishda kim bilimni, uning olib borilishini, tajriba natijasi va javoblarni bilishi kerak. Shu tajribadan olingan javoblarni tahlil qilishda matematik metodlardan foydalaniladi va bu pedagogik jarayonga aniqlik kiritiladi. Surdopedagogikaning tadqiqotlaridan biri maxsus maktab-internatlar ilg'or o'qituvchi va tarbiyachilarining tajribalarini o'rganish hisoblanadi. Pedagogik tajribani o'rganish keyinchalik uni ommalashtirishni nazarda tutib, aniq belgilangan reja hamda o'tkazish metodikasiga ega bo'lishi lozim. Pedagogik tajribani o'rganish va ommalashtirish maxsus o'quv-tajriba jarayonini takomillashtirish yo'l va vositalarini ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

So'rovnoma. Bolalarni o'rganishda keng qo'llaniladigan metodlardan biri so'rovnomadir. So'rovnoma yozma (testlar) yoki intervyu (so'zli) tarzida bo'lishi mumkin. Bu metod o'qituvchi yoki ota-onalar tomonidan o'rganilayotgan obyektning yoki shaxsning qiziqishlari hamda qarashlarini o'rganishda qo'llaniladi. So'rovnoma metodi so'rovnomalarni to'ldirish va intervyu (og'zaki javob) ko'rinishida olib boriladi. So'rovni o'tkazishda savollarning aniq bayon etilishi, ularning tadqiqot vazifasiga mos bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. So'rov metodi o'quvchi, o'qituvchi yoki ota-onalar qiziqish, dunyoqarash, layoqatlarini o'rganish va u orqali ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratiladi.

Suhbat. Suhbat metodi kar va zaif eshituvchi o'quvchilar va ularning ota-onalari, surdopedagoglardan ma'lumotlar olishda qo'llaniladi. Bunda pedagog kuzatilayotgan shaxsga oldindan aniq maqsadga yo'naltirilgan savollar tuzgan bo'lishi lozim. Suhbat metodi zaruriy ma'lumotlarni olishni nazarda tutib, uning samaradorligi tabiiy psixologik muhitni yarata olish, olib boruvchining suhbatdoshi bilan

majburiy bo'lmagan muloqotni o'rnatishga bog'liq. Pedagog avvaldan maqsadga yo'naltirilgan savollarni tayyorlab qo'yishi lozim. Suhbatning mazmuni qaydnomada aks ettiriladi.

Bolalar ishini o'rganish. Bolalar ishini o'rganish metodi bolalarning bilimlari va qobiliyatlarini aniqlashda yordam beradi. Bunda har xil rasmlar, har xil qog'ozlar, plastilinlardan foydalaniladi. Ularning ishi tahlil qilinganda, uning bajarish tezligi, bosqichma-bosqich bajarilishi, xatolari va hisobga olinadi. Ularning bilimlarini aniqlashda o'qituvchi yoki kuzatuvchi insho, bayon kabi yozma ishlar, o'tkazishi mumkin.

Bolalar ishlarini o'rganish. Ushbu metoddan foydalanish o'quvchilar bilim va malakalarini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar ishlarini o'rganish orqali o'qituvchi faoliyatining tizimi haqida ma'lumot ham olish mumkin. Bu metod orqali o'quvchilar ishlarining faqatgina natijasi o'rganilmay, balki uning bosqichlari ham tadqiq qilinadi.

Maktab hujjatlarini o'rganish. Pedagogik hujjatlarni o'rganish (dars konspekti, darsdan tashqari o'quv mashg'ulotlari, o'quv-tarbiyaviy reja, bayonnoma, pedagoglar yig'ilishining hisoboti, o'qituvchilarning metodik yig'ilishlari) o'quv-tarbiyaviy jarayoni, maktabdagi pedagoglarning erishgan yutuqlarini, tajribalarini o'rganish mumkin. O'quvchilarning shaxsiy hujjatlarini o'rganish, har bir o'quvchi ruhiyatini, qobiliyatini aniqlashda yordam beradi. Maktab hujjatlarini o'rganish: dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning ishlanmalari, o'quv-tarbiya jarayonining rejasi, pedagogik kengash va metod birlashmalar qaydnoma va hisobotlarini o'rganish maktab-internatda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilinishi, pedagogik jamoa faoliyati, erishgan natijalari haqida ma'lumot olishga imkoniyat yaratadi. Ushbu yo'nalishda ish olib borish ham nazariy bilimlar rivojiga, ham amaliyotning samaradorligini ko'tarishga xizmat qiladi.

Mavzuda yoritilgan qismlar haqida bilim va ma'lumotlarga ega bo'lish kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari o'quv-tarbiya jarayonini samarali isloh qilish va sifat ko'rsatkichi yuqorilashuvini ta'minlaydi. Chunki «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» amaliy yechimining ushbu bosqichida aynan o'qituvchilar faoliyati omili hal qiluvchi rolni egallaydi.

Surdopedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlari

Surdopedagogning asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarini amaliyotga tadbiiq etish, Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan surdopedagog, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir. Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. O'zbekiston Respublikasida surdopedagog kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'ymoqda.

O'qituvchi kadrlarni tayyorlashning sifatining ta'minlanishi xalq ta'limi tizimi muvaffaqiyatining omillaridan biridir. Pedagogik kadrlarni tayyorlashning sifatini oshirish negizida oliy ta'limning fundamental g'oyasi yotadi. Fundamental bilimlar uzoq vaqtgacha eskirmaydi, sekin-asta o'zgaradi. Nazariy umumlashtirish yuqori pog'onada xarakterlanadi. Ayni vaqtda bilimlarni professional aktualashtirish asosiy ma'noni bildiradi. Bu yangilanish va boyitilishda bo'lajak o'qituvchining psixologik ma'lumoti kerak bo'ladi. O'qituvchi fikrlash madaniyatiga ega bo'lishi kerak, bu uning tahlil qilish qobiliyatini aniqlaydi. A.V.Lunacharskiy shaxs sifatlarini ochib, bunday yozgan edi: "Pedagog insoniylik idealini o'zida shakllantirish lozim". Surdopedagog shaxsi qaysi talablarni qondirish kerak? O'qituvchi shaxsini sotsial faol shakllanishida ilmiy dunyoqarash asosiy rol o'ynaydi. O'qituvchi va tarbiyachining g'oyaviy ishonchi uning shaxsiy ichki sifatlari bilan uzviy bog'langan. Surdopedagog faoliyatidagi faoliyat uning pedagogik qobiliyati bilan aniqlanadi.

Pedagogik qobiliyat mahoratli pedagog darajasiga erishishdir. Pedagogik qobiliyatning tuzilishiga psixologo-pedagogik aniq taassurotga ega bo'lish va kuzatuvchanlik, tashkilotchilik qobiliyatlari kiradi. Pedagogik qobiliyat faoliyat jarayonida shakllanadi. Eruditsiya,

ya'ni chuqur o'zlashtirish-surdopedagogning shartli sifatlaridan biri hisoblanadi.

Rus surdopedagogi N.M.Lagovskiy: "Kar-soqovlar o'qituvchisining asosiy shartlaridan biri asosli pedagogik ma'lumot. Kar-soqov bolalarni o'qitadigan o'qituvchilar eng qobiliyatli asosli tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchilardir. Surdopedagog har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birgalikda o'z predmetini hamda surdopedagogikaning zamonaviy muammolaridan birini yaxshi bilishi kerak. Surdopedagogning professional malakasining asosiy belgilari: umumiy va maxsus psixologo-pedagogik tayyorgarlikning yuqori pog'onasi; anomal bola umumiy rivojlanishining xususiyatlari, shuningdek, yakka psixologik xususiyatlari; maqsad, metod va vazifalar tamoyillarini tushunish. Bu bilimlar surdopedagog eruditsiyasining maxsus tomonlarini tashkil qiladi. Lekin bilimlar qanchalik chuqur bo'lmasin surdopedagogika pedagogik faoliyatida muvaffaqiyat keltirmaydi, agarda u bolalarga bo'lgan munosabatida bir muncha sifatlarga ega bo'lmasa. Eng avvalo bu - bolalarni sevish.

Maxsus maktablarda ishlash eshitish qobiliyati buzilgan, ya'ni sust bo'lgan bolalarni ham yaxshi ko'rishni talab qiladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar o'zlarining ko'p vaqtlarini maktab internatlarida o'tkazadilar. Shuning uchun o'qituvchi ularning hayotida katta rol o'ynaydi. Bolalarga bo'lgan muhabbat va hurmat surdopedagogika bolalar bilan muloqotda bo'lish, ularning ishonchini qozonish, qiziqishlarini tushunish, ichki dunyosini tushunishga yordam beradi. V.A.Suxomlinskiy fikricha, bolaning pedagogga ishonchi tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro ishonchi "...bu elementar va eng murakkab, eng aqlli tarbiyalash qoidasidir". Pedagogning insoniyligi, bolalarga bo'lgan chuqur muhabbati talabchanlik va qat'iyatlik bilan birgalikda olib borilishi kerak.

Mutaxassislik pedagogik vazifalarni ko'ra bilishi, ularni mustaqil shakllantirishi va hal qilish vositalarini topishdir. Pedagogik faoliyatda Mutaxassislikni egallash uchun har bir pedagogda izlanuvchanlikni, konstruktiv, tashkilotchilik va kommunikativ faoliyatini shakllantirishi kerak.

Gnostik funksiya - psixologik-pedagogik va maxsus bilimlar saviyasini oshirish mahoratida; umumiy va maxsus adabiyot bilan ishlash; surdopedagogika, surdopsixologiya, maxsus metodika

bo'yicha bilimlarni bolalarning ta'lim va tarbiyasida ishlatishda; o'z ishlari natijalari va ish tajribalarini tahlil qilishda; ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirishda namoyon bo'ladi.

Izlanuvchanlik funksiya – maxsus adabiyotni tahlil qilish mahoratini, pedagogik jarayonda oddiy eksperimentlarni qo'yish mahoratini, muammoli masalalarni o'z ichiga oladi.

Surdopedagog nutqiy faoliyatning tiklanish xususiyatlarini o'rganishni bilishi kerak.

Proyektiv funksiya – o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish mahoratini; pedagogik faoliyatning perspektiv va kundalik rejalashtirishni amalga oshirish; nutqni shakllantirishni ratsional yo'llarini va eshitish qobiliyatini rivojlantirishni, har-xil turdagi eshitish apparatlaridan foydalanishni aniqlash; aniq o'quv-tarbiyaviy topshiriqlarni aniqlash bilan belgilanadi.

Konstruktiv-tashkiliy funksiya – pedagogik jarayonning natijaviy tuzilishiga qaratilgan:

- pedagog kar va zaif eshituvchi bolalar bilan alohida yondashib, o'quv tarbiyaviy ishlarni olib borish;

- surdopedagog-o'qituvchi, eshitish qobiliyatini rivojlantiruvchi o'qituvchi, sinf rahbari, fan o'qituvchisi, maktab-internat tarbiyachisi funksiyalarini bajarish;

- o'qitishning turli xil shakl va uslublarini qo'llash;

- har bir mashg'ulotga o'tgan darslar bilan bog'liq holda material tanlash;

- bolalarni qo'yilgan maqsadlarni bajarishini tashkil qilish;

- o'quvchilar orasida maktabni bitirgandan keyingi kasbga yo'naltirish ishlarni olib borish;

- ta'lim jarayonida ko'rgazmali va didaktik materiallarni tayyorlash va qo'llash;

- pedagogik jarayonda umumtexnikaviy va maxsus texnika vositalaridan foydalanish;

- o'z ish joyini kerakli jihozlar bilan tashkil qilish;

- talab qilingan hujjatlarni yuritish;

- ota-onalar orasida siyosiy va pedagogik ishlarni olib borish va hokazo mahoratlarga ega bo'lish lozim.

Diagnostik funksiya – bolalar jamoasi va o'quvchi shaxsini pedagogik o'rganishga qaratilgan.

Sinfni va har bir o'quvchini alohida o'rganish – har bir o'qituvchi, sinf rahbari, maxsus maktab-internet tarbiyachisi ishining asosiy qismidir.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni to'g'ri tashkil qilish uchun surdopedagog sinf va har bir o'quvchi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Buning uchun surdopedagog anamnestik ma'lumot yig'ish, shaxsiy varaqalar bilan tanishish uslublaridan foydalanadi.

Koordinal funksiya, ya'ni boshqarish funksiya – surdopedagogning o'quvchilarga pedagogik yo'nalishning ta'sirini mazmunini birlashtirishni bildiradi.

- maxsus maktablarda o'qituvchi va tarbiyachining kuchlarini birlashtirish;

- o'quvchilarning oilalari va hamkasblari orasidagi va ularning o'zaro munosabatlari haqida muloqot o'rnatish;

- ota-onalarni maxsus maktab ishlarida faol qatnashishga o'rgatish;

- o'quvchilar jamoasini boshqarishni o'rgatish kabi mahoratlar talab qilinadi.

Kommunikativ funksiya – surdopedagogning hamkasblari, bolalar, ota-onalar bilan birga olib borilgan ijodiy ishlarda namoyon bo'ladi.

Bu funksiya quyidagi mahoratlarni talab qiladi:

- bolalar bilan pedagogik munosabatlarni, (ya'ni hurmat, talabchanlik, ishonch, sabr-toqat kabilarni) shakllantirish;

- hamkasblar va o'quvchilarning ota-onalari bilan yaxshi munosabatlarni o'rnatish;

- daktil va test yordamida kar va zaif eshituvchi bolalar bilan muloqotda bo'lish;

- guruh bolalarining o'zaro munosabatlarini nazorat qilish;

- umumiy va maxsus adabiyot bilan ishlash;

- surdopedagogika, surdopsixologiya, maxsus metodika bo'yicha bilimlarni bolalarning ta'lim va tarbiyasida ishlatishda;

- o'z ishlari natijalari va ish tajribalarini tahlil qilishda;

- ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirishda namoyon bo'ladi.

Surdopedagog (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda surdopedagog qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak:

1)Surdopedagog jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohatlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim;

2)Surdopedagogning ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi;

3)Surdopedagog o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim;

4)Surdopedagog pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak;

5)Surdopedagog ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim;

6)Surdopedagog ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart;

7)Surdopedagog yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim;

8)Surdopedagog nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, Surdopedagogning nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish);

9) Surdopedagog kiyinish madaniyatiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi;

10) Surdopedagog shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

Surdopedagog pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq.

Muloqot jarayonida surdopedagogning so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrxohlik, samimiylik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur. Surdopedagog shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Pedagogik mahoratni egallash yo'llari. Surdopedagog barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo'lish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish asosida tarkib topadi. Yosh, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan surdopedagoglarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga ta'minlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

-mustaqil o'qib-o'rganish (pedagogika fanida ro'y berayotgan yangiliklar haqida ma'lumotlarni berruvchi yangi adabiyotlar, internet materiallari, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash);

-hamkasb tajribali surdopedagoglar faoliyatini o'rganish (ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt, shuningdek, iqtisodiy nuqtayi nazardan samarali sanaladi. Tajribali surdopedagoglar faoliyatini o'rganish ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir);

-pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurs (institut)larida kasbiy malakalarini oshirish;

-doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar)da faol ishtirok etish.

Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida ularning ish tajribalarini o'rganish pedagogik mahoratni egallashda guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni barataraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud. Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda surdopedagogning jamoadagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Buyuk mutaffakirlardan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, uning shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o'zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar¹. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini

¹ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan shaxs ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlari negizini bolani tushuna olish, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, pedagogik faoliyatning haqligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarning hayot mavjudligini ta'minlashda qudratli omil (vosita) ekanligiga ishonch kabilar tashkil etadi.

2018-yil 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to'xtalib: «Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan», - deya ta'kidladi («Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi»). Toshkent. 2018-yil 15-iyun).

2019-yilning 19-martida davlatimiz rahbari boshchiligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg'u berildi.

Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanligini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Shu bois, Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi

ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi.

Bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas'uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari – maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta'mirlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o'z samarasini beradi.

2017-yilning 1-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5270-sonli Farmon qabul qilindi. Mazkur Farmon 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ishlarning samarali yechimlarini nazarda tutadi. Mazkur chora-tadbirlar aholining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga, jamiyatimizda ahillik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, millatlararo do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga, xususan kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, boquvchisidan judo bo'lgan bolalar, maxsus yordamga muhtoj bolalarni moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash maqsadini ko'zlaydi.

Markaziy Osiyoda, qadimdan nogiron bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularga mehr-shafqat ko'rsatish, xayr-sahovat qilish ham diniy, ham insoniy udum bo'lib kelgan. Har qanday nogironligi bo'lgan inson, jamiyatning va uning har bir a'zosining himoyasida bo'lishi kerak.

Shu bois, hozirgi kunda respublikamizda ta'lim muassasalari zimmasiga o'z bitiruvchilariga jadal rivojlanib borayotgan davr uchun zarur bo'lgan mustahkam hamda tizimli bilim asoslarini berish, shuningdek, ona Vataniga muhabbat va sodiqlik, dunyo xalqlari va elatlariga hurmatda bo'lish kabi insonparvarlik g'oyalarini mujassamlovchi milliy g'oya ruhini singdirish, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish kabi muhim masalalarni hal qilish vazifalari yuklanmoqda. Ya'ni, bugungi kunga kelib, maktab nafaqat "bilim olish maskani", balki "ijtimoiy hayotga tayyorlovchi maskan" ekanligi tobora chuqur anglanmoqda. Mazkur

fikrlar ta'limda alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar uchun ham birdek taalluqlidir.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida erishilayotgan ijobiy natijalardan biri sifatida bolaning rivojlanishidagi "o'z-gachalik"ni erta tashxis qilish, uning oqibatlarini aniqlash, qayta tiklash, mazkur toifaga mansub ilk va erta yoshdagi bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish, shuningdek, mazkur toifaga mansub bolalarni umumta'lim muassasalariga uyg'unlashtirish ta'limimiz diqqat markazida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolayotganini e'tirof etishimiz lozim.

Komil inson va yetuk malakali mutaxassisni tarbiyalash maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida amalga oshirilgan ekan, ushbu jarayonda surdopedagoglarning o'rni beqiyosdir. Shu bois, ularning shaxsida bir qator ijobiy ma'naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo'la olishi maqsadga muvofiqdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Surdopedagogika fani nimani o'rgatadi?
2. Surdopedagogika qaysi fanlarga tayanadi?
3. Surdopedagogika qanday metodlardan foydalanadi?
4. Surdopedagogikaning boshqa fanlar bilan nazariy aloqadorligini sxematik tarzda ko'rsatib bering.
5. Eshitish nuqsoni nutq rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Biologik va ijtimoiy omillarning bog'liqligini ko'rsating.
7. Eshitish analizatorida nuqsonlarning paydo bo'lish sabablarini ayting.
8. Karlik va zaif eshituvchilikning bola rivojlanishida uning nutqiga va bilish faoliyatiga ta'siri nimalardan iborat?
9. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning asosiy rivojlanish qonuniyatlarini ayting.
10. Zamonaviy ta'lim sohasida «nuqson», «eshitish nuqsoni» atamaları o'rniga qanday atamalar qo'llanilmoqda? Nima uchun?
11. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi eshitmaydigan bolalar maktab-internati ta'lim-tarbiya jarayonida qanday o'zgarishlar yuzaga kelishini keltirib chiqardi?
12. O'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida nutqning rolini qanday tushunasiz?

13. Surdopedagoglik kasbining asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

14. Surdopedagog qanday sifatlarga ega bo'lishi zarur?

15. Surdopedagog kasbining asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

16. Surdopedagog kasbiga qanday pedagogik talablar qo'yilmoqda?

17. O'zbek surdopedagogikasining nazariy jihatdan asoslanishi qaysi olimlar faoliyati bilan bog'liq?

18. Korreksiya pedagogikasining surdopedagogika bilan bog'liq yo'nalishlarini sanab o'ting.

19. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini o'rganishga qaratilgan so'rov qaydnomasini ishlab chiqing.

20. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar qiziqishlarini o'rganishga qaratilgan so'rov qaydnomasini ishlab chiqing.

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim – bolalarni bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ongiga va xulqiga ta'sir etish, bilish faoliyatini rivojlantirish.

Tarbiya – bolalarga ilmiy bilimlar tizimini singdirish va buning natijasida har tomonlama shakllangan kishini tarbiyalash.

Korreksiya – tuzatish, yaxshilash degan ma'noni anglatadi. Nuqsonli bolalarning psixik va jismoniy taraqqiyotidagi kamchiliklarni pedagogik metod va chora-tadbirlar yordamida qisman yoki butunlay yo'qotish.

II BOB. SURDOPEDAGOGIKANING RIVOJLANISH TARIXI

Zamonaviy surdopedagogikaning shakllanishida muhim o‘rin tutgan g‘oya va yondashuvlar

Jamiyatda tilni o‘zlashtirish jarayoni kishilarning o‘zaro nutqiy faoliyati (kommunikatsiyasi) sharoitida amalga oshadi. Ushbu jarayonda insonning eshitish faolligi o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, u so‘zlashuv nutqining shakllanishi va rivojlanishidagi bosh omillardan biridir. Shunga ko‘ra ham ushbu masala jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida yashab o‘tgan olim va pedagoglarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Karlarni o‘qitish va tarbiyalash nazariya va tajribasining muammolari uzun tarixga ega bo‘lib, turli yondashuvlar bilan tavsiflanadi. Qadimgi Yunoniston va Rimda eshitishida muammosiga ega bo‘lgan bolalar o‘qitish tizimi mavjud emas edi. Antik davlatlarda kar-soqovlar jamiyatning to‘laqonli a‘zolari sifatida tan olinmagan hamda ular «o‘qitib bo‘lmaydiganlar» deb hisoblanganlar. Eramizdan avvalgi VI asrdagi Yustinian Kodeksida «to‘laqonli bo‘lmaganlar» ustidan vasiylik o‘rnatilishi lozimligi, tug‘ma karlar mustaqil faoliyat yurita olmaydiganlar sifatida qayd etilgan. Ya‘ni bunday shaxslar «gapira olmaydigan, fikrlarini esa yozma va og‘zaki bildirsa olmaydiganlar» bo‘lganlari uchun o‘z mulklarini boshqara olmaydiganlar, deb hisoblanganlar. Antik davr tibbiyot fanida karlik g‘ayrioddiy tabiatga ega hamda uni tuzatib bo‘lmaydi, degan fikr hukm surgan. Tarixiy manbalardan karlarga alohida munosabat eramizdan avvalgi IX–VIII asrlardan yuzaga kelganini kuzatamiz. Qadimgi yunon faylasufi Arastu (er.av. 384-322 y.y.) o‘zining «His etuvchilarning hissiyotlari» va «Hissiy idrok va uning obyektlari» kabi asarlarida sezgi organlarning o‘zaro tobelik sabablari haqida fikr yuritib, karlik va soqovlikni bolaning aqliy layoqatlariga salbiy ta‘sirini ochib berdi. Faylasufning inson sezgi a‘zolaridan birining mavjud bo‘lmasligi yoki uning buzilishi yaxlitlik va butunlikni izdan chiqarishini «kashf etishi» o‘zi bilmagan holda ilk surdopedagogik ta‘limotning yuzaga kelishiga asos bo‘ldi. Olim sezgi a‘zolaridan biri faoliyatining izdan chiqishi insonning umumiy rivojlanishiga yo‘l qo‘ymasligini alohida ta‘kidlaydi hamda eshitish analizatoriga quyidagicha baho beradi: «Tovush fikrlash vositasi bo‘lib, eshitish atrof olamni anglashning muhim organidir. Shu bilan

bog'liq ravishda aytish mumkinki, tug'ilgandan boshlab eshitmagan inson, tabiiyki, soqov bo'ladi». Arastu, shuningdek, karlik va soqovlikning bola aqliy faoliyatiga salbiy ta'sir etishi mohiyatini ochib berar ekan, soqovlikni tug'ma karlikning oqibati ekanligini qayd etadi. Nasroniylikning yuzaga kelishi bilan rivojlanishida muammolarga ega insonlarga nisbatan rahm-shafqatli munosabat shakllana boshlasada, bir vaqtning o'zida bunday shaxslar, ularning nogironligiga nisbatan turli salbiy diniy e'tiqodlar ham yuzaga kela boshladi. Masalan, ushbu qarashlarga ko'ra karlikka ega bo'lgan bolalar ota-onalarning qilgan gunohlari evaziga xudo tomonidan yuborilgan «Xudoning jazosi» sifatida qaraladi. O'rta asrlar boshidagi davr Yevropada rivojlanishida turli muammolarga ega shaxslarning huquqlarini chegaralash an'analari tarkib topa boshladi. O'rta asrlar dindor faylasuflari tomonidan tug'ma kamchiliklarga ega insonlarning to'laqonli insonlar emasligi nazariyasi isbotlana boshlagan bo'lsa, bu davr huquqshunosligi esa nogironlarga o'z xatti-harakatlariga javob bera olmaydiganlar sifatida qarab, qonun bunday shaxslarni o'zini boshqara oladigan shaxslar sifatida tan olmagan. Eshitishida muammosi bo'lgan shaxslarni o'qitish bo'yicha dastlabki urinishlar XV asrga to'g'ri keladi. G'arbiy Yevropada yuzaga kelgan karlarni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti o'sha davrdagi ko'pchilik olimlarni o'ziga jalb qilgan. Bunga Uyg'onish davrida karlarning bilish imkoniyatlariga nisbatan ilg'or (progressiv) qarashlarining yuzaga kelishi sabab bo'lgan. Niderlandiyalik olim Rudolf Agrikola (1443-1485) o'zining «Dialektika kashfiyoti haqida» nomli kitobida maxsus metod va usullar yordamida karlarni yozma nutqqa o'rgatish haqida fikr yuritadi va aniq misollar keltiradi. Karlarni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi hamda amaliyotida muhim o'rin egallagan yana bir yorqin serqirra faoliyat tajribasining egasi italyan professori Jerolamo Kardano edi. Olim «Nafisliklar haqida», «Sezgilar fiziologiyasi haqida», «Mening hayotim haqida» kabi asarlarida kar-soqovlikning fiziologik sabablarini tushuntirib berdi va karlik kasallik oqibatida yuzaga kelishi, soqovlik esa karlik oqibati ekanligi mohiyatini ochib berdi. Jerolamo Kardano farzandlarining kar-soqov bo'lib dunyoga kelishi va otaning ularni hayotga «qaytarishi»ga urinishlari natijasida karlikning dastlabki tasnifi yuzaga keldi. Ushbu tasnifga ko'ra karlar quyidagi toifalarga bo'linadi:

a) tug'ma karlar;

b) erta eshitishni yo'qotganlar (bola gapirishni o'rgangunga qadar) va kech eshitishni yo'qotganlar;

v) nutqi saqlangan holda kech eshitishni yo'qotganlar.

Olim, shuningdek, tarixda birinchi bo'lib karlik va soqovlikning fiziologik asoslarini ko'rsatib, sog'lom sezgi a'zolariga tayangan holda karlarni o'qitish imkoniyatlarini isbotlab berdi. U ilk bor eshitish qobiliyatining darajasi va nutqning rivojlanish darajalarini hisobga olgan holda o'qitishga tabaqlashgan holda munosabat g'oyasini ilgari suradi. J.Kardanoning nazariy qarashlari Ispaniyada o'zining amaliy isbotini topdi. Pedro Ponso De Leon (1520-1584) karlarni o'qitishning original metodini yaratadi va kibor oilalarning farzandlarini yakka tartibda o'qitish tajribasini muvaffaqiyatli tadbiq etadi. P.Ponso o'z metodikasida nutqning turli: og'zaki, yozma, daktil va imo-ishora ko'rinishlarini qo'llaydi. X.P.Bonet (1579-1633) o'zining 1620-yil yozilgan «Tovushlar tabiati va kar-soqovni gapirishga o'rgatish san'ati» asarida karlarni o'qitish va tarbiyalashning o'sha davrdagi maqsad va vazifalarini ko'rib chiqar ekan, ularni so'zlashuv nutqiga daktil va uning og'zaki shakli orqali o'rgatish lozimligi haqida so'z yuritadi. U maxsus o'qituvchi tomonidan savol-javob shaklidan foydalangan holda olib boriluvchi nutqni rivojlantirishga qaratilgan ishlar bolalarning aqliy rivojlanishlari ta'siriga alohida e'tiborli omil sifatida qaraydi. E.R.Karrion (1579-1652) o'z zamondoshlari boy tajribasidan ununli foydalangan holda ularning g'oyalarini rivojlantirar ekan, karlar ta'lim-tarbiyasida taktik-vibratsiya sezgilariga hamda eshitish qoldig'iga tayanadi. X.P.Bonnet g'oyalarining keyinchalik taraqqiy etishiga angliyalik Djon Vallis (1616-1703) va Dj.Bulver, shveysariyalik Dj.K.Amman (1669-1724), niderlandiyalik F.M.Van Xelmont (1614-1699), italiyalik F.L.Tersiy (1631-1687) kabi amaliyotchi olimlar karlarni o'qitishga alohida urinishlar sifatida o'z hissalarini qo'shdilar. Karlarni yakka tartibda o'qitishga urinishlar eshitish nuqsoniga ega farzandlari bo'lgan zadogonlar ijtimoiy buyurtmasining ob'yektiv sababi edi. Shu bois, yakka tartibda o'qitishlarning ijobiy tajribaga ega bo'lsada, ushbu toifa bolalari uchun o'quv muassasalarini tashkil etishga uzoq vaqt muvaffaq bo'linmadi. Faqat XVIII asrning 70-yillaridagina kar bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun maxsus muassasalar tashkil etish va rivojlantirish

bo'yicha urinishlar yuzaga kela boshladi. 1770-yilda Fransiyada dunyo tarixida birinchi bo'lib Sharl Mishel de Epe (1712-1789) tomonidan Parijda xususiy maktab – kar-soqovlar instituti ochildi. De Epe Volter, Deni Didro, Jan Jak Russo kabi fransuz ma'rifatparvarlarining g'oyalari bilan yo'g'rilgan mimika metodini yaratdi. Sharl Mishel de Epening g'oyalari uning shogirdi R.A.Sikar tomonidan rivojlantirildi. Amaliyotchi olim o'qitish tizimida asosiy e'tibor kar bolalarni har tomonlama aqlan va jismonan rivojlantirishga qaratiladi. Bu tizim kar bolani umumta'lim fanlariga oid bilimlarni o'zlashtirish, jamiyatda yashash va mehnat qilishga tayyorlaydi. Ammo ushbu vazifalarni hal etish uchun o'qitish davomida faqat nutqning imo-ishora shaklidan foydalaniladi hamda kar o'quvchilar uning asosida yozishni o'rganadilar. R.A.Sikar imo-ishoralar tilini «metodik belgilar» bilan boyitadi. Ya'ni ushbu metod asosida o'qitish jarayonida o'quvchilarga tildagi grammatik kategoriyalarni tasvirlash uchun ma'lum bir belgilar o'rgatib boriladi. Ma'lumki, tilda grammatik kategoriyalar juda ko'pchilikni tashkil etadi. O'quvchilar hajmi kundan kunga ortib borayotgan belgilarni o'zlashtira olmasliklari natijasida fanlarga oid bilimlarni ham o'zlashtirishga ulgurmay qoladilar hamda imo-ishora metodi asosida o'qitish tizimi takomillashtirilganiga qaramay, undan amaliyotda foydalanish ta'limning oldiga qo'yilgan vazifalarni to'laligicha hal etish imkonini bermasligini ko'rsatadi.

1778-yil 14-aprelda Germaniyaning Leypsig shahrida Samuil Geynike (1727-1790) tomonidan kar-soqovlar institutini tashkil etiladi. Samuil Geynike surdopedagogika tarixida muhim o'rin egallagan karlarni o'qitishning keyinchalik «sof og'zaki metod» deb nomlangan o'z o'qitish tizimini yaratadi. Bu metod og'zaki nuqtani karlarni o'qitishning asosiy vositasi va maqsadi sifatida tan oladi. Shuningdek, bu tizimda bolalar o'qish, yozish va arifmetikani ham o'rganadilar. Karlarga ta'lim berishning ushbu metodi asosida tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar va jummalarni talaffuz etishning mexanik mashqlari texnikasi yotadi. Ya'ni ta'limning dastlabki davrida kar bolalar talaffuzi malakalari ustida jadal ravishdagi ishlar olib boriladi. Umumta'lim fanlariga oid bilimlarni egallash talaffuz malakalarini o'rganishga tobe bo'ladi. Masalan, agar bolalar kunda ko'radigan, iste'mol qiladigan va foydalanladigan non, sut, choy, ruchka, daftar, kitob so'zlarini talaffuz qilishni o'rganmas ekanlar, o'qitish jarayoniga

bu soʻzlar «olib kirilmaydi». Bunday oʻqitish asosida karlar tomonidan tovush, boʻgʻin, soʻz va jumlar va hattoki, yirik matnlarni sof, ravon talaffuz qilishga oʻrganilishiga muvaffaq boʻlinsada, oʻquv fanlariga oid bilimlarni tabiiy holatda oʻrganishlariga erishilmaydi. Maktabni bitirgan oʻquvchilar atrofdagilarda «chiroyli soʻzlovchilar» sifatida taassurot qoldirsalarda, ular bilan toʻsiqlarsiz muloqot qilish imkoniyati yoʻqligi namoyon boʻladi. Buning asosiy sababi oʻqitishning hayot bilan aloqadorligi tamoyili bu oʻqitish tizimida oʻz aksini topmasligidadir.

Surdopedagogikaning umumiy va xususan, ushbu kundagi rivojlanishida muhim oʻrin egallagan boy tajribalardan yana biri XIX asrda Fransiyada yashab, faoliyat koʻrsatgan Aleksandr Blanshe nomi bilan bogʻliq. Amaliyotchi olim kar bolalarni eshituvchi bolalar bilan birgalikda oʻqitish eng samarali yoʻl ekanligini oʻz faoliyati davomida isbotlashga harakat qildi hamda birgalikda oʻqitishni tashkil etdi. Bu tizimda tashkil etilgan maktabda kar bolalar oddiy maktabda alohida sinfda oʻqitilsa, zaif eshituvchilar sogʻlom bolalar bilan birgalikda oʻqitilishlari yoʻlga qoʻyiladi. A.Blanshe oʻzining «Ustozga qoʻllanma» (1858) asarida uch asosiy qoidani taklif etadi va ularga erishish yoʻllarini batafsil yoritib berishga urinadi. Olim tomonidan taklif etilgan asosiy qoidalar quyidagilar edi:

- 1) karlarni bu yoʻl bilan oʻqitishda umumiy metodikaga rioya qilinishi;
- 2) oʻqitishda karlarning toifalari: kar-soqovlar va gapiruvchi karlarga alohida yondashish;
- 3) ogʻzaki nutqni mimika va daktil shakli orqali rivojlantirish yoʻllariga rioya qilish lozim.

Shuningdek, Fransiyada Jan Jak Valad-Gabel (1801-1879) tomonidan eshinish meʼyorda boʻlgan goʻdaklar nutqining rivojlanish yoʻllariga asoslangan «Intuitiv (onalik) metod» yaratiladi. Olim ushbu metod asosida kar bolalar taʼlimini tashkil etar ekan, oʻqitishda imoishora nutqidan foydalanishni inkor etgan holda ogʻzaki (jarangdor) nutqqa qoʻshimcha sifatida birinchi oʻrinda yozuv taxtachalarida aks ettirilgan yozma nutq shakli (yaxlit (global) oʻqish) dan foydalanish yuqori samara berishini isbotlashga urinadi. Shuningdek, taʼlim jarayonida daktil nutqiga katta eʼtibor qaratiladi. J.J.Valad-Gabel ogʻzaki nutq kar-soqovlar uchun oʻzlashtirib boʻlmaydigan nutq turi boʻlganligi bois soʻzlashuv nutqiga ular alfavit harflarni alohida emas,

yaratadi. Bunda nutqqa o'rgatish yaxlit so'zlar va jummalarni talaffuz etishni gugulash negizida yo'lga qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Boshqa nemis olimi K.Gepfert (1851-1906) kar bolalarni yozma nutqqa o'rgatishni yozuv mexanizmi asosida amalga oshiradi. Uning izdoshlari esa o'qitishning dastlabki davrida yozma nutqni qo'llash g'oyasini rivojlantirdilar.

Daniyalik olim Georg Forxgammer (1861-1948) tajribasi davomida yozma va og'zaki so'zlashuv metodlarini birlashtiradi hamda yozma mashqlarni asosida og'zaki nutqni idrok etish va talaffuz qilishga tayanuvchi «imitatsiya (taqlid qilish) metodi»ni yaratadi.

Rudolf Linder (1880-1964) uzoq yillik tajribalariga tayangan holda kar bolalarni tilga o'qitishda «yozma obrazlar metodi»ga asoslanishni taklif etadi. Muallif 1911-yilda «So'z va rasm» alifbosini yaratadi va unga ko'ra kar bolalar ko'rgazmalilikdan foydalangan holda o'qishga o'rgatish jarayonida yozma nutqni egallab boradilar.

Aleksandr Erlen keyinchalik «Belgiya metodi» deb nomlangan kar bolalarni tilga o'qitish tizimini yaratadi. Ushbu tizim asosida tilga o'qitishda o'quvchilar og'zaki nutqni yozma so'zlarni yaxlit o'qish va labdan o'qish orqali idrok etishga o'rgatilar edilar.

«Yozma metod»ning yana bir ko'rinishiga misol tariqasida E.Kernning «yaxlit metodi»ni keltirish mumkin. Ushbu metod bo'yicha ta'lim berish karlarni og'zaki nutqqa o'qitish jarayonida imo-ishora va daktil nutqini chiqarib tashlab, o'rniga yozuvdan foydalanish asosida olib borilar edi.

Otorinoloringologiya sohasining rivojlanishi bilan eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar ta'limi nazariyasi hamda amaliyotida ham ijobiy o'zgarishlar yuzaga kela boshladi. «Eshitish mashqlari metodi»ning muallifi V.Urbanchich eshitish qobiliyatini tadqiq etishda o'zi tomonidan yaratilgan maxsus moslama (Urbanchich garmonika) dan foydalanish samara berishini namoyish etadi.

Nemis olimi F.Betsold (1842-1908) F.Betsold ham kar bolalar ta'limida eshitish qoldig'iga tayanish lozimligi va bunda «kamertonlar tizimi»ga tayanish lozimligini ko'rsatib o'tadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tadqiqot obyekti sifatida o'rgangan rus pedagog va olimlaridan V.I.Fleri, J.Itar, Y.T.Speshnevlar bunday o'quvchilar orasida u yoki bu holda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan, qisman lug'at boyligiga ega bo'lgan,

ba'zan, hatto, sodda jumlar tuza oladigan bolalar borligini, agar nutq ularga qarata baland holda aytilsa, bunday bolalar ta'lim-tarbiyasining barcha muammolari hal etilishi mumkinligini ta'kidlab, eshinishi qisman buzilgan bolalarga, ular nutqining o'ziga xos rivojlanishiga alohida e'tibor qaratganliklariga guvoh bo'lamiz. V.I.Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofidagi yaqinlari va, ayniqsa, onasi alohida g'amxo'rlik, e'tibor ko'rsatishlari zarurligi hamda kar bola nutqining rivojlanishi uchun ilk yosh davri alohida o'rin tutishini ta'kidlagan holda: «Kar-soqov bola qancha kichik bo'lsa, uning o'zlashtirish layoqati shuncha yuqori bo'ladi», - deb yozadi. Olim, shuningdek, dastlabki so'zlarni bola ko'rish asosida taqlidan o'zlashtirishi lozimligini alohida qayd etadi.

1900-yil F.A.Rau va N.A.Raular tomonidan Rossiya va Yevropada ilk kar bolalar bog'chasi tashkil etilib, unda kar bolalar og'zaki nutqini shakllantirishga qaratilgan ishlar yo'lga qo'yildi.

1920-yil karlarni o'qitish va tarbiyalash tizimining davlat tasarrufiga o'tishi munosabati bilan eshinishida muammosi bo'lgan shaxslar ta'limi tizimini tubdan isloh qilish masalalariga muhim ahamiyatga molik ish sifatida yondashila boshlandi.

Eshinishida muammosi bo'lgan bolalar nutqiy rivojlanish masalalari bir necha asrlar mobaynida ko'plab o'qituvchi va metodistlarning e'tiborini jalb qilganiga qaramay, bu muammoning yechimiga, ya'ni maxsus maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha yondashuvlarning yangi yo'nalish olishiga L.S.Vigotskiyning maxsus ta'lim tizimi masalalarini yoritib bergan qator asarlari turtki berdi.

L.S.Vigotskiy 1924-yil bo'lib o'tgan Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy muhofazalash bo'yicha bo'lib o'tgan ikkinchi syezd qilgan ma'ruzasida anomal bolalar rivojlanishining o'ziga xosligini aniqlab berdi hamda nuqsonning tuzilishini yangicha yondashuv asosida tahlil qilish va uni korreksiya va kompensatsiyalash zarurligi mohiyatini ochib berdi (karlik - birlamchi nuqson, soqovlik uning oqibatida yuzaga keluvchi nuqson). Olim tomonidan ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishishda «Nuqsonning murakkab tuzilishi» hamda «Ta'lim-tarbiya va rivojlanish mutanosibli» psixologik ta'limotlariga tayangan holda ish ko'rish lozimligini aniq misollar bilan asoslab berildi.

Olim maxsus maktablardagi og'zaki nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan usul bolaning sermazzmun hayoti, uning qiziqishlari bilan bog'liq bo'lmagan sharoitda olib borilishiga e'tibor qaratib, nutqni ijtimoiy hayotda ishtirok etmagan holda egallash, qirg'oq bo'yida turib suzishni o'rganish holatiga qiyoslab, ijtimoiy muhit hamda uning tuzilishi har qanday tarbiya tizimining pirovard hamda hal qiluvchi omili ekanligini alohida qayd etadi: «Bola hayotini shunday tashkil etish lozimki, unga nutq zarur va qiziqarli bo'lsin. Ta'limni bola qiziqishlariga qarshi emas, ushbu qiziqishlar tomon yo'naltirish lozim. Umuminsoniy nutqqa nisbatan ehtiyojni yuzaga keltirish zarur, shundagina nutq paydo bo'ladi. Nutq muloqotga kirishish va fikrlash asosida, murakkab hayotiy sharoitlarga moslashish natijasida yuzaga keladi».

L.S.Vigotskiy ushbu sharoitni yaratishda sog'lom (me'yordagi) bolaning nutqiy rivojlanish bosqichlariga tayangan holda ish ko'rish lozim ekanligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Birinchii planga, eng avvalo, bolaning bola ekanligi va shundan so'nggina kar-soqov ekanligi holati qo'yiladi. Bu shuni anglatadiki, bola, eng avvalo, umumiy qiziqish, layoqat, shuningdek, me'yordagi bola yoshi qonuniyatlariga muvofiq holatda o'sishi, rivojlanishi va tarbiyalanishi hamda xuddi shu jarayonda nutqni egallab borishi lozim. Bolalar o'zlarining muayyan sifat va ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezishlari lozim. Ular o'zlarini boshqa ko'pchilik bolalar va kishilardan farqli ekanliklarini his qilmasliklari, ularga tenglasha olmasliklariga ishonch hosil qilmasliklari lozim».

Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish kabi masalalar ijtimoiy tarbiya zaminidagina o'zining to'g'ri yechimini topadi.

1938-yil karlar ta'limi va tarbiyasi masalalariga bag'ishlangan Butunrossiya anjumanida o'sha davrda o'qitishda «hukmronlik» qilib kelayotgan sof og'zaki metod asosida o'qitish tizimi qattiq tanqidga uchraydi. Ushbu anjumandan so'ng karlarni o'qitish va tarbiyalashni takomillashtirishga qaratilgan kengqamrovli tadqiqotlar boshlab yuboriladi.

XX asrning birinchi yarmida eshitishida muammosi bo'lgan shaxslarni tabaqalangan ravishda o'qitish va tarbiyalash tizimi tarkib

topdi va rivojlana boshladi (L.S.Vigotskiy, A.I.Dyachkov, R.M.Boskis, F.F.Rau, L.V.Neyman, YE.F.Rau, S.A.Zikov).

L.S.Vigotskiyning shogirdi R.M.Boskis eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi samaradorligiga erishishdagi dastlabki qadam ushbu toifadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tushunishdan boshlanishi lozim, deb hisoblab, I.P.Pavlovning «Analizatorlar faoliyatining birligi», L.S.Vigotskiyning «Nuqsonning murakkab tuzilishi» hamda «Ta'lim-tarbiya va rivojlanish mutanosibli» psixologik ta'limotlariga tayangan holda o'z tadqiqot ishlarni olib boradi. Ya'ni u eshitish va nutqning o'zaro aloqadorlikda rivojlanishini keng o'rgangan holda bunday bolalar rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni keltirib chiqaruvchi qator holatlarga asoslangan pedagogik tasnifni ishlab chiqdi. Bu tadqiqotning ijobiy natijasi sifatida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tabaqalashtirilgan holda o'qitish tizimi tarkib topdi.

1950-yil Butundunyo karlar federatsiyasi tashkil etildi. Shu davrdan boshlab eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga oid muammolar yechimiga bag'ishlangan surdopedagog va karlarning xalqaro anjumanlari o'tkazila boshlandi.

XX asrning ikkinchi yarmi va hozirgi davr surdopedagogikasi maxsus ravishda o'qitish va tarbiyalash ta'limotini yanada rivojlantirish, ya'ni eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar tasnifi hamda ularni tabaqalangan ravishda o'qitish tizimini rivojlantirish, surdopedagoglarni tayyorlash, oila bilan ishlash, maktablarda o'qitish tizimini yanada takomillashtirishni ilmiy ravishda asoslash bilan tavsiflanadi.

1960-yillarda L.V.Neyman tomonidan eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning tibbiy tasnifi yaratilgan bo'lsa, xuddi shu yillari F.F.Rau va N.F.Slezinalar tomonidan karlarni og'zaki nutqqa (talaffuzga) o'rgatishning konsentrik analitik-sintetik polisensor metodiga, B.D.Korsunskaya tomonidan kar va zaif eshituvchilarga ta'lim-tarbiya berishda uzviylik va uzluksizlikka ega bo'lish imkonini beruvchi maktabgacha ta'lim tizimiga asos solindi.

1970-yillar S.A.Zikov rahbarligi ostida karlarni boshlang'ich sinfda predmetli-amaliy faoliyatdan keng foydalangan o'qitish asosida ularda hayotiy tushunchalarni shakllantirish, nutqni muloqot, mehnat ko'nima va malakalarini shakllantirish vositasi sifatida

shakllantirishga asoslangan o'qitishning yangi tizimi amaliyotga keng joriy qilinishi bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy surdopedagogikaning nazariy asoschilari eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishlarining muhim omili – nutqni rivojlantirish ishlarining samaradorligi bevosita tarbiyalanuvchining oila a'zolari, xususan, ota-onalarning farzandlari bilan muntazam ravishda shug'ullanishlariga bog'liqligini alohida qayd etadilar. Jumladan, S.A.Zikov til o'qitishdagi yuqori muvaffaqiyatlar faqatgina maxsus muassasalarda tashkil etilgan nutqiy muhit orqali emas, balki bevosita ota-onalar va atrofda gilarning ishtiroki orqali ta'minlanishini uqtirsa, R.M.Boskis: «Nutqqa o'rgatish ishlarini o'qituvchi ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshirishi lozim», -deb ta'kidlaydi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasining turli yo'nalishlariga oid muammolarini tadqiq qilish K.G.Korovin, A.G.Zikeyev, V.A.Sinyak, B.D.Korsunskaya, A.P.Gozova, T.V.Rozanova, J.I.Shif, I.M.Solovyev, E.I.Leongard, N.G.Morozova, M.K.Sheremet, N.D.Shmatko, L.A.Golovchits kabi qator rus olimlarining ham diqqat markazida bo'lib keldi. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ham, xuddi sog'lom tengdoshlari kabi, ijtimoiy shaxs bo'lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanliklari hamda ulardagi mavjud kuchli imkoniyatlarni ishga solish nutqni rivojlantirish asosida amalga oshirilishi lozimligi isbotlandi. Bolalarning nutqni egallab borishlari sari ularda ijtimoiy (hayotiy) malakalarning shakllanishiga oid imkoniyatlar kengayib boraveradi. Aniqrog'i, faoliyat asosida rivojlantiriluvchi nutq ijtimoiy me'yorlarni egallashning zaruriy shartidir. Ushbu jarayonning jadallashuviga xizmat qiluvchi omillardan biri bolalar nutqini ilk, maktabgacha yoshda bo'lgan davrda shakllantirish sanaladi. B.D.Korsunskaya, M.K.Sheremetlar zaif eshituvchi bolalar nutqiy muammolarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar nechog'li erta boshlansa, ularning hayotga, ya'ni ijtimoiy moslashuviga shu qadar erta muvaffaq bo'lishini ta'kidlaydilar.

Aynan yangi davr surdopedagogikasida oila va maxsus ta'limning bola tarbiyasi borasidagi mushtarakligi zarurati anglandi: ota-onalar surdopedagoglar tomonidan belgilangan yo'l va ko'rsatmalarsiz farzandlarining tarbiyasida va xuddi shunday tarzda, surdopedagoglar

ota-onalar ishtirokisiz o'z faoliyatlarida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar (A.I.Dyachkov, F.F.Rau, B.D.Korsunskaya va b.). Ilk yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari asoschilari tomonidan yaratilgan maqola hamda metodik tavsiyalar kar va zaif eshituvchi bolalar ota-onalariga o'z farzandlarining tarbiyasini qanday tashkil etishlari, nutqini rivojlantirish yo'llari kabi masalalarni yoritib berdi.

A.I.Dyachkov oila va ijtimoiy tarbiya maqsadlarining mushtarakligi, oilaning maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi bilan hankorligi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasining majburiy sharti ekanligini ta'kidlasa, B.D.Korsunskaya kar bolani maktabgacha tarbiya muassasasiga tayyorlash va unga joylashtirilgandan so'ng ota-onalarga qo'yiladigan talablar, ta'lim-tarbiya borasida maslahatlar beradi. Olim bola nutqining rivojlanishida faoliyatning turli ko'rinishlari hamda harakatni shakllantirishning tutgan o'rni beqiyosligini alohida ta'kidlab, ushbu boradagi faoliyat tizimini yoritib berishda asosiy e'tiborini nutq o'stirish (rivojlantirish) masalalari: lug'at zaxirasini kengaytirish, so'zlar mazmuni ustida olib boriladigan ishlar; bolani aqliy va axloqiy rivojlanishini ta'minlovchi omil – daktil nutqiga atrofdagilar bilan muloqot o'rnatish quroli sifatida o'rgatish, shuningdek, bolaning og'zaki nutqini shakllantirish ishlariga qaratadi.

O'tgan asrning 70-yillaridan butun dunyoda karlar ta'limi va yashash, ijtimoiy ahvoliga nisbatan yangi ijobiy yondashuvlar shakllana boshladi. 1975-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan «Nogironlar huquqlari haqida» deklaratsiyasining qabul qilinishi bilan jamiyatni «to'laqonli ko'pchilik» va «noraso ozchilik» guruhlariga bo'lish yuridik jihatdan barham topdi.

Bu yillarda ta'lim sohasida sodir bo'lgan qator ijobiy o'zgarishlar rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar taqdiri masalalarini hal qilishda turli soha vakillari yangi yo'nalishlardagi faoliyatlarining birlashuvi zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bolaning rivojlanishidagi me'yordan chetga chiqishlarni erta tashxis qilish, muammo oqibatini bartaraf etish, qayta tiklash, rivojlanishida u yoki bu jihatdan muammosi bo'lgan ilk va erta yoshdagi bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish, ularni umumta'lim muassasalariga uyg'unlashtirish modellarini ishlab chiqish masalalari kun tartibida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida maydonga chiqdi.

Fan va texnikaning yuqori sur'atlar bilan taraqqiy etib borishi mahsuli sifatida kuchli sezgirlikka ega bo'lgan eshitish asboblari, koxlear implantatsiya hamda maxsus kompyuter dasturlarining yaratilishi karlarning jamiyatga to'siqlarsiz uyg'unlashuvlari imkonini yuzaga keltira boshladi.

Shu yillarda G'arbiy Yevropa va AQShda maxsus maktablarni yopish hamda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablariga o'tkazish holatlari kuzatila boshladi. Bu yondashuv meynstriming (inglizcha mainstreaming – umumiy to'daga qo'shish) yoki boshqacha integratsiya nomini oldi. 1980-1990-yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida maxsus maktablarni kamaytirish (ba'zi hollarda batamom yopish)ga hamda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni sog'lom bolalar jamoasiga integratsiyalashga qaratilgan qonuniy hujjatlar qabul qilinadi.

Xuddi shu davrda bu yo'nalishga qarama-qarshi sanalgan eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasiga bilingvistik yondashuv konsepsiyasi yaratildi. Bu g'oya tarafdorlari karlar o'zlarigagina xos bo'lgan madaniyat, ona tilisi sanalgan imo-ishora tiliga egadirlar va shu sababli bunday shaxslar hayotiga «aralashish» ular huquqlarini paymol qilish bilan tengdir, degan fikrda bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayoni imo-ishora nutqi asosida olib borilishi hamda ularning o'ziga xos madaniyatini ulug'lash lozimligini uqtiradilar.

G'arb mamalakatlarida karlarni o'qitishga bo'lgan bu ikki zamonaviy yondashuvlar biri ikkinchisiga qarama-qarshi, har ikkisinining o'ziga xos yutuq hamda kamchiliklari bo'lishiga qaramay, ikkisi ham mavjud bo'lish huquqiga ega ekanligi hamda bolalarni qaysi metodlar asosida o'qitish yo'nalishini tanlash ota-onagagina bog'liq ekanligi qayd etiladi.

Zamonaviy surdopedagogika sohasidagi qator yutuqlar so'nggi yillarda E.I.Leongard, YE.G.Samsonova (1991), N.D.Shmatko, T.V.Pelimskaya (2003), I.V.Koroleva, V.I.Pudov, O.V.Zontova (2001), A.D.Salaxova, N.V.Kochegarova (2001), V.N.Svodina (1998) kabi yetuk rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari bilan bog'liq. Ularning tibbiyot hamda pedagogika sohasidagi yutuqlardan keng foydalangan holda olib borgan izlanishlari eshitishida muammosi bo'lgan bolalar abilitatsiyasi va reabilitatsiyasi darajasining yuqorilashuviga, eshitish va nutq muammosining erta

korreksiya qilinishi orqali erta ijtimoiy moslashuviga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

E.I.Leongard, YE.G.Samsonova, N.D.Shmatko, T.V.Pelinskaya, A.Y.Xoxlovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ilk hamda maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar oilaviy tarbiyasi nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish, boyitishga katta hissa qo'shdi hamda bu yo'nalishning qudratli imkoniyatlarga ega ekanligini yana bir bor isbotlab berdi. Ota-onalar ishtirokida umumrivojlantiruvchi hamda korreksion ishlarning ilk yoshdan boshlanishi natijasida bolalar umumiy rivojlanishlarida katta yutuqlarga erishiladi. Oila sharoitida nutqiy muhitning tashkil etilishi, bola nutqining rivojlanishi (nutqning eshitish-ko'rish idroki, lug'at zaxirasining shakllanishi, so'zlashuv nutqi asosidagi muloqotni o'rnatish, talaffuz qilish malakalari)ga zamin bo'lib xizmat qiluvchi nutqiy eshituvning rivojlanishiga imkoniyat tug'diradigan to'g'ri tanlangan ovoz kuchaytirgich moslamalaridan foydalanish, eshitmaydigan bolani eshituvchi tengdoshlari jamoasiga olib kirish uning erta ijtimoiy uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Ushbu yo'nalish orqali eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ommaviy turdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga yoki maktabgacha tarbiya muassasalari qoshida tashkil etilgan maxsus guruhlarda kamol topadilar. Bu bolalar, shuningdek, ma'lum vaqtlarda ushbu metodika asosida ish olib boruvchi surdopedagog mutaxassislar tomonidan tashkil etiluvchi yakka mashg'ulotlarga ham qatnaydilar. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday tashkil etilgan tarbiyada «asosiy yuk» ota-onaning zimmasiga yuklanadi hamda surdopedagog yo'naltiruvchilik va yordam beruvchilik funksiyasini o'taydi. Shubhasiz, bu metodika ota-ona yoki bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi boshqa oila a'zolariga mas'uliyatli vazifani yuklash bilan birga, ulardan pedagogik uquv, ko'p vaqt hamda kuch-quvvatni talab qilishi sababli hozirgi kunda barcha oilalar ham bunday mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor emas.

O'zbekistonda eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning ilk yoshidan umumta'limga tayyorlash muammosi bilan bog'liq faoliyat olib boruvchi olimlardan U.Fayziyeva, D.Nazarovalarning ilmiy va amaliy faoliyatlarini alohida ko'rsatish mumkin. Ular tomonidan yaratilgan dasturlar, o'quv qo'llanmalar hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari mutaxassislari, tarbiyachilari, ota-onalarning

korreksiya ishlarining tashkillashtirilishida, bolalarning ilk yoshidan ijtimoiylashuviga erishishda katta ahamiyat kasb etadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar ta'limi tizimlarini yanada takomillashtirish, jadallashtirish jarayoni davom etmoqda.

Chet el surdopedagogikasi rivojlanishining bosqichlari

Respublikamiz Hukumati tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy islohatlarda yosh avlodning barkamolligiga erishish masalalari, xususan, alohida e'tiborga muhtoj shaxslar ta'lim-tarbiyasi muammolarini hal etishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar orasida u yoki bu darajada eshitishidan mahrum bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadi. Ushbu toifa bolalariga milliy qadriyat va hududiy shart-sharoitlarimizdan kelib chiqqan holda maxsus ta'lim muassasalarida korreksion yordam ko'rsatish (umumiy va xususiy maqsadlari, vazifalari, ta'lim-tarbiyalashning mazmun va tamoyillari, ushbu bolalar imkoniyatlariga mos bo'lgan ish metodlari)ning ilmiy asoslarini to'liq ishlab chiqish maxsus ta'lim tizimining kun tartibida turgan hamda o'zining tezkor yechimini kutayotgan bosh muammodir. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi zamonaviy tizimining mohiyati, uning o'ziga xosligini tushunish hamda maxsus ta'lim, xususan, maxsus ravishda tilga o'rgatish tizimining samaradorligiga erishish, uni takomillashtirishda surdopedagogikaning rivojlanish tarixini: turli davrlarda yashab o'tgan ilg'or surdopedagog va olimlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar, yondashuvlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, taniqli olim va pedagog F.F.Rau ta'kidlaganidek: «O'tmish surdopedagoglarning tajribasi, ya'ni surdopedagogikaning rivojlanish tarixi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lgan surdopedagoggina o'tmish xatoliklarini takrorlash, shuningdek, kulgili ravishda «yangitdan Amerikani kashf qilish»dan kafolatlanadi hamda ishiga ijodiy yondasha olish va o'z g'oyalarini ishonchli tarzda olg'a sura olish imkoniga ega bo'ladi»¹.

Olim sezgi a'zolaridan biri faoliyatining izdan chiqishi insonning umumiy rivojlanishiga yo'l qo'ymasligini alohida ta'kidlaydi hamda eshitish analizatoriga quyidagicha baho beradi: «Tovush fikrlash

¹ M. Marschark, Harry G.Lang, John Albertini – Educating deaf students – Oxford University Press, 2006, 303p

vositasi bo'lib, eshitish atrof olamni anglashning muhim organidir. Shu bilan bog'liq ravishda aytish mumkinki, tug'ilgandan boshlab eshitmagan inson, tabiiyki, soqov bo'ladi». Faylasufning aynan mana shu fikrlari, uning o'zi bilmagani holda, surdopedagogik ta'limotning yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Eshitishida muammosi bo'lgan shaxslarni o'qitish bo'yicha dastlabki urinishlar XV asrga to'g'ri keladi. Uyg'onish davrida karlarning bilish imkoniyatlariga nisbatan ilg'or (progressiv) qarashlarning yuzaga kelishi bilan G'arbiy Yevropada yuzaga kelgan karlarni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti o'sha davrdagi ko'pchilik olimlarni o'ziga jalb qila bordi. Niderlandiyalik olim Rudolf Agrikola (1443-1485) o'zining «Dialektika kashfiyoti haqida» nomli kitobida maxsus metod va usullar yordamida karlarni yozma nutqqa o'rgatish haqida fikr yuritadi va aniq misollar keltiradi¹. Karlarni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi hamda amaliyotida muhim o'rin egallagan italiyalik professor Jerolamo Kardano «Nafisliklar haqida», «Sezgilar fiziologiyasi haqida», «Mening hayotim haqida» kabi asarlarida tarixda birinchi bo'lib karlik va soqovlikning fiziologik asoslarini ko'rsatib, uning sabablarini va karlik kasallik oqibatida yuzaga kelishi, soqovlik esa karlik oqibatida yuzaga kelishini ko'rsatib o'tdi. Olim o'z farzandlari bilan o'tkazgan uzoq yillik tajribalari asosida karlarni o'qitishda sog'lom sezgi a'zolariga tayangan holda ish olib borilsa, yuqori natijalarga erishish mumkinligini isbotlab berdi. U ilk bor o'qitishga eshitish qobiliyatining darajasi va nutqning rivojlanish darajalarini hisobga olgan holda tabaqalashgan yondashuv g'oyasini ilgari surdi. J.Kardano, shuningdek, tarixda karlikning dastlabki tasnifini ishlab chiqqan olim sifatida nom qoldirdi². Ushbu tasnifga ko'ra karlar quyidagi toifalarga bo'linadi: tug'ma karlar; gapirishni o'rgangunga qadar eshitishni erta va kech yo'qotganlar; nutqi saqlangan holda eshitishni kech yo'qotganlar. J.Kardano tomonidan ilgari surilgan g'oyalarning keyingi rivojiga ispan olimi Pedro Ponso De Leon (1520-1584) o'z hissasini qo'shdi. U karlarni o'qitishning original metodini yaratadi va kibor oilalarning farzandlarini yakka tartibda o'qitish tajribasini muvaffaqiyatli tadbiiq etadi. P.Ponso o'z metodikasida nutqning turli: og'zaki, yozma, daktil va imo-ishora

¹ M. Marschark, Harry G.Lang, John Albertini - Educating deaf students - Oxford University Press, 2006, 303p

² Шматко Н.Д. Коррекционная работа с глухими и слабослышащими детьми раннего возраста // Всесоюзный институт переподготовки и повышения квалификации кадров образования М., 1991

ko'rinishlarini qo'llaydi. X.P.Bonet (1579-1633) o'zining 1620-yil yozilgan «Tovushlar tabiati va kar-soqovni gapirishga o'rgatish san'ati» asarida karlarni o'qitish va tarbiyalashning o'sha davrdagi maqsad va vazifalarini ko'rib chiqar ekan, ularni so'zlashuv nutqiga daktil va og'zaki nutq orqali o'rgatish lozimligi haqida so'z yuritadi¹. U kar bolalarni maxsus ravishda tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchi o'qitishi, ta'lim jarayonida nutqni va aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan ishlar savol-javob shaklidan foydalangan holda olib borilishi alohida e'tiborli omil sifatida qaraydi. X.P.Bonnet g'oyalarining keyinchalik taraqqiyotiga Angliyalik J.Vallis (1616-1703) va J.Bulver, Shveysariyalik J.K.Amman (1669-1724), Niderlandiyalik F.M.Van Xelmont (1614-1699), Italiyalik F.L.Tersiy (1631-1687) kabi amaliyotchi olimlar karlarni o'qitishga alohida urinishlar sifatida o'z hissalarini qo'shdilar. Ye.R.Karrion (1579-1652) o'z zamondoshlari boy tajribasidan umumli foydalangan holda ularning g'oyalarini rivojlantirar ekan, karlar ta'lim-tarbiyasida taktil-vibratsiya sezgilariga hamda eshitish qoldig'iga tayangan holda ish olib boradi.

Yuqorida bayon etilgan karlarni yakka tartibda o'qitishga urinishlar eshitish nuqsoniga ega farzandlari bo'lgan zadogon oilalar ijtimoiy buyurtmasining mahsuli edi. Shu bois ta'limning bu turi ijobiy tajribaga ega bo'lsada, ushbu toifa bolalari uchun o'quv muassasalarining tashkil etilishiga uzoq vaqt muvaffaq bo'linmadi. Faqat 14 asrning 70-yillaridagina kar bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun maxsus muassasalar tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha urinishlar yuzaga kela boshladi. 1770-yil Fransiyada dunyo tarixida birinchi bo'lib Sharl Mishel de epe (1712-1789) tomonidan Parijda xususiy maktab – kar-soqovlar instituti ochildi. De epe tarixda Volter, Deni Didro, Jan Jak Russo kabi fransuz ma'rifatparvarlarining g'oyalari bilan yo'g'irtirilgan mimika (imo-ishora) metodining muallifi sifatida nom qoldirdi². Amaliyotchi olim o'qitish jarayonida asosiy e'tibor kar bolalarning har tomonlama: aqliy va jismoniy rivojlanishiga qaratish hamda ushbu tizim kar bolani umumta'lim fanlariga oid bilimlarni o'zlashtirish, jamiyatda yashash va mehnat

² Сборник научно-методических материалов. Коррекционная педагогика вчера, сегодня, завтра. Москва, 1997. С.3-9. Пузанов Е.П.

qilishga tayyorlashi lozimligi masalalariga alohida ahamiyat qaratadi. Ammo ushbu vazifalarni hal etish uchun o'qitish davomida faqat nutqning imo-ishora shaklidan foydalaniladi hamda kar o'quvchilar uning asosida yozishni o'rganadilar. Uning shogirdi R.A.Sikar Sharl Mishel de epening g'oyalarini rivojlantirib, imo-ishoralar tilini «metodik belgilar» bilan boyitadi. Ya'ni ushbu metod asosida o'qitish jarayonida o'quvchilarga tildagi grammatik kategoriyalarni tasvirlash uchun ma'lum bir belgilar o'rgatib boriladi. Ma'lumki, tilda grammatik kategoriyalar juda ko'pchilikni tashkil etadi. O'quvchilar hajmi kundan kunga ortib borayotgan belgilarni o'zlashtira olmasliklari natijasida fanlarga oid bilimlarni ham o'zlashtirishga ulgurmay qoladilar hamda imo-ishora metodi asosida o'qitish tizimi takomillashtirilganiga qaramay, undan amaliyotda foydalanish ta'limning oldiga qo'yilgan vazifalarni to'raligicha hal etish imkonini bermasligini ko'rsatadi. 1778-yil 14-aprelda Germaniyaning Leypsig shahrida Samuil Geynike (1727-1790) tomonidan kar-soqovlar instituti tashkil etiladi. Samuil Geynike surdopedagogika tarixida muhim o'rin egallagan karlarni o'qitishning keyinchalik «sof og'zaki metod» deb nomlangan o'qitish tizimining muallifi edi. Bu metod og'zaki nutqni karlarni o'qitishning asosiy vositasi va maqsadi sifatida tan oladi hamda bu tizimda bolalar o'qish, yozish va arifmetikani ham o'rganadilar. Karlarga ta'lim berishning ushbu metodi asosida tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar va jumalarni talaffuz etishning mexanik mashqlari texnikasi yotadi. Ya'ni ta'limning dastlabki davrida jadal ravishda kar bolalarning talaffuz malakalari ustidagi ishlar olib boriladi. Umumta'lim fanlariga oid bilimlarni egallash talaffuz malakalarini o'rganishga tobe bo'ladi. Masalan, agar bolalar kunda ko'radigan, iste'mol qiladigan va foydalanadigan non, sut, choy, ruchka, daftar, kitob so'zlarini talaffuz qilishni o'rganmas ekanlar, o'qitish jarayoniga bu so'zlar «olib kiritilmaydi». Bunday o'qitish asosida karlar tomonidan tovush, bo'g'in, so'z va jumalar va hattoki, yirik matnlarni sof, ravon talaffuz qilishga o'rganilishiga muvaffaq bo'linishi bilan birga o'quv fanlariga oid bilimlarni tabiiy holatda o'rganishlariga erishilmaydi. Maktabni bitirgan o'quvchilar atrofda gilarida «chiroyli so'zlovchilar» sifatida taassurot qoldirsalarda, ular bilan to'siqlarsiz muloqot qilish imkoniyati yo'qligi namoyon

bo'ladi¹. Buning asosiy sababi o'qitishning hayot bilan aloqadorligi tamoyili bu o'qitish tizimida o'z aksini topmaganligidadir. Surdopedagogikaning umumiy va xususan, ushbu kundagi rivojlanishida muhim o'rin egallagan boy tajribalardan yana biri XIX asrda Fransiyada yashab, faoliyat ko'rsatgan Aleksandr Blanshe nomi bilan bog'liq. Amaliyotchi olim o'z tajribalari asosida kar bolalarni eshituvchi bolalar bilan birgalikda o'qitish eng samarali yo'l ekanligini isbotlashga urindi. Bu tizimda tashkil etilgan maktabda kar bolalar oddiy maktabda alohida sinfda o'qitilsa, zaif eshituvchilar sog'lom bolalar bilan birgalikda o'qitilishlari yo'lga qo'yilgan edi. A.Blanshe o'zining «Ustozga qo'llanma» (1858) asarida quyidagi uch asosiy qoidani taklif etadi va ularga erishish yo'llarini batafsil yoritib berishga urinadi²: karlarni bu yo'l bilan o'qitishda umumiy metodikaga rioya qilinishi; o'qitishda karlarning toifalari: kar-soqovlar va gapiruvchi karlarga alohida yondashish; og'zaki nutqni mimika va daktil shakli orqali rivojlantirish yo'llariga rioya qilish lozim. Shuningdek, Fransiyada Jan Jak Valad-Gabel (1801-1879) tomonidan eshitishi me'yorda bo'lgan go'daklar nutqining rivojlanish yo'llariga asoslangan «Intuitv (onalik) metod» yaratiladi. Olim ushbu metod asosida kar bolalar ta'limini tashkil etar ekan, o'qitishda imo-ishora nutqidan foydalanishni inkor etgan holda og'zaki (jarangdor) nutqqa qo'shimcha sifatida birinchi o'rinda yozuv taxtachalarida aks ettirilgan yozma nutq shakli (yaxlit (global) o'qish) dan foydalanish yuqori samara berishini ko'rsatadi. J.J.Valad-Gabel og'zaki nutq kar-soqovlar uchun o'zlashtirib bo'lmaydigan nutq turi bo'lganligi bois so'zlashuv nutqiga ular alfavit harflarni alohida emas, balki yaxlit (global) o'qish asosida o'rgatishlari eng samarali yo'l ekanligini isbotlashga urindi hamda ta'lim jarayonida daktil nutqiga katta e'tibor qaratadi. 1779-yil Venada kar-soqovlar instituti ochiladi hamda unda I.May (1754-1874) va F.Shtork (1746-1820) tomonidan mimika o'qitish metodi takomillashtirilgan holda qayta tuziladi: ta'lim jarayonida daktil alfaviti keng qo'llana, imo-ishora nutqidan esa yordamchi vosita sifatida foydalana boshlanadi³. Ikki amaliyotchi-

¹ M. Marschark, Harry G.Lang, John Albertini – Educating deaf students – Oxford University Press, 2006, 303p

² Шматко Н.Д. Коррекционная работа с глухими и слабослышащими детьми раннего возраста // Всесоюзный институт переподготовки и повышения квалификации кадров образования М., 1991.-56 с.

olim ishlari M. Menus (1774-1850) tomonidan davom ettiriladi hamda u bu metodni to'ldirgan holda o'qitish jarayoniga karlarni og'zaki nutqqa o'rgatishni kiritadi. Bu davrga kelib, keng qo'llanilayotgan sof og'zaki metod asta-sekin o'z ko'rinishini o'zgartirib boradi. Masalan, F.M. Gil (1805-1874) tomonidan kar-soqovlarni og'zaki nutq, labdan o'qish, yozuv va o'qitishga o'rgatish bo'yicha qator qo'llanmalar yaratiladi. Olim tomonidan yaratilgan o'qitish tizimining yangiligi karlarni o'qitish jarayonida umumta'lim fanlari doirasini kengaytirish bilan tavsiflanadi. F.M. Gil o'qitishda bola idrokining tabiiyligi hamda o'ziga xosligi tamoyillariga tayangani sababli keyinchalik u tomonidan yaratilgan o'qitish tizimi «kar bolalarni o'qitishning tabiiy metodi» deb yuritila boshladi¹. Iogann Fatter (1842-1916) esa, aksincha, o'qitishda og'zaki nutqni o'zlashtirishga o'rgatishni asosiy maqsad qilib oladi. Karlarni og'zaki nutqqa o'rgatishni nutq tovushlariga o'rgatishga asoslantiradi. Keyinchalik I. Fatter sistemasi «tovush metodi» degan ikkinchi nomni oladi. AQShda karlarning dastlabki instituti (maktabi) 1817-yili Tomas Gallode (1787-1851) tomonidan ochiladi. Ushbu o'quv dargohida o'qitish fransuz metodi asosida yozuv, imo-ishora va daktilologiyani qo'llagan holda olib boriladi. Keyinchalik shaxsiy hamda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida xizmat safarida qator maktablar tajribalarini o'rganish, tahlil qilish imkoniga ega bo'lgan Xoras Man (1796-1859) va Edvard Gallode (1837-1907) turli metodlarning chatishmasi asosida «Kombinatsiyalashtirilgan (chatishtirilgan) metod» ni yaratdilar. Bu tizim o'z tarkibiga turli metodlar, jumladan, og'zaki nutqqa o'qitishni ham qamrab olgan edi. Kar bolalarni og'zaki nutqqa o'rgatish muammolarining yechimini hal qilish yo'llari bilan Aleksandr Melvil Bell (1815-1905) ham shug'ullangan bo'lib, u o'qitishda «ko'rinarli nutq» tizimiga asoslanish lozimligini taklif etadi. Bu tizimga ko'ra har bir tovush artikulyatsiyasi o'z belgisiga ega bo'ladi. Tarixda telefon ixtirochisi sifatida nom qoldirgan o'z otasi A.M. Bell ishlarining davomchisi bo'lgan Aleksandr Grexem Bell (1847-1922) shunigdek, Fiziologo-fonetik institut va Karlarni og'zaki nutqqa o'rgatishga ko'maklashish jamiyatiga asos solgan bo'lib, amaliyotda karlarni kichik yoshdan o'qitish masalalariga katta e'tibor qaratgan. 1879-yil Fransiya poytaxti Parij va 1880-yil Italiyaning Milan shaharlarida

¹ Бенин В.Л. Теоретико-методологические основы формирования развития педагогической культуры: Автореф. дис. д-ра пед. наук. / Урал. гос. профессионально-пед. ун-т. Екатеринбург, 1996.-39 с.

karlarni o'qitish masalalariga bag'ishlangan dastlabki anjumanlar bo'lib o'tadi. Milan anjumani qarorida «Sof og'zaki metod» tizimi karlarga eshituvchilar bilan muloqot qilishga yordam berishi tufayli bu tizim universal (qulay, eng samarali) deb tan olinadi¹. Bu davrning oxiridagi yutuqlar shundan iborat bo'ldiki, har bir mamlakatda karlarni o'qitish masalasiga ijobiy munosabatning shakllanishi yuzaga kelib, «bepul, majburiy umumiy boshlang'ich ta'lim» haqidagi qonunlar qabul qilindi. Ya'ni ushbu davr kar-soqovlar uchun davlat muassasalarining tashkil etilishiga asos solinishi, qonunlarning qabul qilinishi, maxsus ta'lim moddiy ta'minoti manbalarining aniqlanishi, o'qitishning maqsad va metodlarining ishlab chiqilishi bilan tavsiflanadi. Maxsus ta'lim Yevropa va Amerika qit'alarining tobora katta hududlarini qamrab ola boshlagan bo'lsa, nodavlat tashkilotlarining shakllanishi esa karlarni o'qitish va tarbiyalash tizimining kelajakdagi rivojiga turtki beradi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Yevropa va Amerika surdopedagoglari «sof og'zaki metod» tizimida mavjud yuzakilikni bartaraf etish hamda uni takomillashtirishga harakat qildilar. Chunki bu tizim karlarni og'zaki nutqqa o'rgatishni asosiy maqsad qilib olgan holda, bolalarning umumta'lim fanlarini o'zlashtira olishlari imkonini bermas edi. Nemis karlar o'qituvchisi I.Geydzik (1851-1942) «sof og'zaki metod»ni eshitishida muammosi bo'lgan bolaning tabiatiga to'g'ri kelmaydigan metod sifatida tanqid qiladi. Dastlab u «imo-ishora metodi»ga qaytish taklifini bergan bo'lsa, keyinchalik kar bolalarni nutqqa o'rgatishni daktilologiyadan foydalanish asosida olib borishni taklif etadi. Konstantin Malish (1860-1925) karlarni og'zaki nutqqa o'rgatish dastlabki davri uchun global (yaxlit (butun) so'z) sintetik metodini yaratadi. Bunda nutqqa o'rgatish yaxlit so'zlar va jummalarni talaffuz etishni gugulash negizida yo'lga qo'yish orqali amalga oshiriladi. Yana bir nemis olimi K.Gepfert (1851-1906) kar bolalarni yozma nutqqa o'rgatishni yozuv mexanizmi asosida amalga oshiradi. Uning izdoshlari esa o'qitishning dastlabki davrida yozma nutqni qo'llash g'oyasini rivojlantirdilar. Daniyalik olim Georg Forxgammer (1861-1948) tajribasi davomida yozma va og'zaki so'zlashuv metodlarini birlashtiradi hamda yozma mashqlar asosida og'zaki nutqni idrok etish va talaffuz qilishga tayanuvchi «imitatsiya (taqlid qilish) metodi»ni

¹ Сурдопедагогика / Под ред. Е.Г Речицкой. М., 2004. - 96 с

yaratadi¹. Rudolf Linder (1880-1964) uzoq yillik tajribalariga tayangan holda kar bolalarni tilga o'qitishda «yozma obrazlar metodi»ga asoslanishni taklif etadi. Muallif 1911-yil «So'z va rasm» alifbosini yaratadi va unga ko'ra kar bolalar ko'rgazmalilikdan foydalangan holda o'qishga o'rgatish jarayonida yozma nutqni egallab boradilar. «Belgiya metodi» deb nomlangan tizimning muallifi Aleksandr Erlen tilga o'qitishda o'quvchilar og'zaki nutqni yozma so'zlarni yaxlit o'qish va labdan o'qish orqali idrok etishga o'rganishlarini yo'lga qo'ygan edi. E.Kern tomonidan taklif etilgan «yaxlit metod» «yozma metod»ning bir ko'rinishi bo'lib, ta'limning ushbu turi karlarni og'zaki nutqqa o'qitish jarayonida imo-ishora va daktil nutqini chiqarib tashlab, o'rniga yozuvdan foydalanish asosida olib borilar edi².

Rossiya surdopedagogikasining rivojlanish bosqichlari

Otorinoloringologiya sohasining rivojlanishi bilan eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar ta'limi nazariyasi hamda amaliyotida ham ijobiy o'zgarishlar yuzaga kela boshladi. «Eshitish mashqlari metodi»ning muallifi V.Urbanchich eshitish qobiliyatini tadqiq etishda o'zi tomonidan yaratilgan maxsus moslama (Urbanchich garmonikasi) dan foydalanish samara berishini namoyish etgan bo'lsa, nemis olimi F.Besold (1842-1908) ham kar bolalar ta'limida eshitish qoldig'iga tayanish lozimligi va bunda «kamertonlar tizimi»ga tayanish lozimligini ko'rsatib o'tgan edi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tadqiqot obyekti sifatida o'rgangan rus pedagog va olimlari V.I.Fleri, J.Itar, Y.T.Speshnevlar bunday o'quvchilar orasida u yoki bu holda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan, qisman lug'at boyligiga ega bo'lgan, ba'zan, hatto, sodda jumlar tuza oladigan bolalar borligini, agar nutq ularga qarata balandlatilgan holda aytilsa, bunday bolalar ta'lim-tarbiyasining barcha muammolari hal etilishi mumkinligini ta'kidlab, eshitishi qisman buzilgan bolalarga, ular nutqining o'ziga xos rivojlanishiga alohida e'tibor qaratganliklariga guvoh bo'lamiz. V.I.Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofidagi yaqinlari va, ayniqsa, onasi alohida

¹ M. Marschark, Harry G.Lang, John Albertini - Educating deaf students - Oxford University Press, 2006, 303p

² Вопросы обучения и воспитания детей с нарушениями слуха / Под ред. М.И. Кузьмицкой. М., 1994. - 135 с.

g'amxo'rlik, e'tibor ko'rsatishi zarurligi hamda kar bola nutqining rivojlanishi uchun ilk yosh davri alohida o'rin tutishini ta'kidlagan holda: «Kar-soqov bola qancha kichik bo'lsa, uning o'zlashtirish layoqati shuncha yuqori bo'ladi», - deb yozadi. Olim, shuningdek, dastlabki so'zlarni bola ko'rish asosida taqlidan o'zlashtirishi lozimligini alohida qayd etadi. 1900-yil F.A.Rau va N.A.Raular tomonidan Rossiya, xususan, Yevropada ilk bor kar bolalar bog'chasi tashkil etilib, unda kar bolalar og'zaki nutqini shakllantirishga qaratilgan ishlar yo'lga qo'yildi. 1920-yil karlarni o'qitish va tarbiyalash tizimining davlat tasarrufiga o'tishi munosabati bilan eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalalariga ahamiyatga molik ish sifatida yondashilishi yuzaga keldi¹. Tarixan barham topgan o'qitish tizimlari zamonaviy surdopedagogikaga muhim bo'lgan muammolar majmuasini meros qilib qoldirdi-ki, ularning yechimiga o'tmishda bo'lgan turli-tuman yondashuvlar haqida ma'lumotga ega bo'lgandagina hal etish mumkin. Har bir yondashuvlar o'zining mazmuniga ega bo'lishi, hal etish yo'llarining turli-tuman bo'lishiga qaramay, barchasining diqqat markazida kar bolalarni tilga o'qitish jarayonini qanday qilib ularning umumiy rivojlanishlari bilan bog'lash, ularning aqliy rivojlanishini to'xtatmay turib, nutq shakllaridan qay tarzda va qanday ketma-ketlikda foydalanish orqali so'zlashuv nutqiga, atrofdagilar bilan muloqot qilishga, o'qish va yozishga o'rgatish kabi muammolarning yechimini topish muhim o'rin egallagan edi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nutqiy rivojlanish masalalari bir necha asrlar mobaynida ko'plab o'qituvchi va metodistlarning e'tiborini jalb qilganiga qaramay, bu muammoning yechimiga, ya'ni maxsus maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha yondashuvlarning yangi yo'nalish olishiga L.S.Vigotskiyning maxsus ta'lim tizimi masalalarini yoritib bergan qator asarlari turtki berdi. L.S.Vigotskiy 1924-yil "Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy muhofazalash bo'yicha" bo'lib o'tgan ikkinchi syezdda qilgan ma'ruzasida anomal bolalar rivojlanishining o'ziga xosligini aniqlab berdi hamda nuqsonning tuzilishini yangicha yondashuv asosida tahlil qilish va uni korreksiya va kompensatsiyalash zarurligi mohiyatini ochib berdi (karlik – birlamchi nuqson, soqovlik uning oqibatida

¹ Зайцева Г.Л. Диалог с Л.С. Выготским о проблемах современной сурдopedagogики // Дефектология. - 1998. -№2 - 22.с.

yuzaga keluvchi nuqson). Olim tomonidan ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishishda «Nuqsonning murakkab tuzilishi» hamda «Ta'lim-tarbiya va rivojlanish mutanosibligi» psixologik ta'limotlariga tayangan holda ish ko'rish lozimligini aniq misollar bilan asoslab berildi¹. Olim maxsus maktablardagi og'zaki nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan usul bolaning sermazmun hayoti, uning qiziqishlari bilan bog'liq bo'lmagan sharoitda olib borilishiga e'tibor qaratib, nutqni ijtimoiy hayotda ishtirok etmagan holda egallash, qirg'oq bo'yida turib suzishni o'rganish holatiga qiyoslab, ijtimoiy muhit hamda uning tuzilishi har qanday tarbiya tizimining pirovard hamda hal qiluvchi omili ekanligini alohida qayd etadi: «Bola hayotini shunday tashkil etish lozimki, unga nutq zarur va qiziqarli bo'lsin. Ta'limni bola qiziqishlariga qarshi emas, ushbu qiziqishlar tomon yo'naltirish lozim. Umuminsoniy nutqqa nisbatan ehtiyojni yuzaga keltirish zarur, shundagina nutq paydo bo'ladi. Nutq muloqotga kirishish va fikrlash asosida, murakkab hayotiy sharoitlarga moslashish natijasida yuzaga keladi». L.S.Vigotskiy ushbu sharoitni yaratishda sog'lom (me'yordagi) bolaning nutqiy rivojlanish bosqichlariga tayangan holda ish ko'rish lozim ekanligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi²: «Birinchi planga, eng avvalo, bolaning bola ekanligi va shundan so'nggina kar-soqov ekanligi holati qo'yiladi. Bu shuni anglatadiki, bola, eng avvalo, unumiy qiziqish, layoqat, shuningdek, me'yordagi bola yoshi qonuniyatlariga muvofiq holatda o'sishi, rivojlanishi va tarbiyalanishi hamda xuddi shu jarayonda nutqni egallab borishi lozim. Bolalar o'zlarining muayyan sifat va ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezishlari lozim. Ular o'zlarini boshqa ko'pchilik bolalar va kishilardan farqli ekanliklarini his qilmasliklari, ularga tenglasha olmasliklariga ishonch hosil qilmasliklari lozim». Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish kabi masalalar ijtimoiy tarbiya zaminidagina o'zining to'g'ri yechimini topadi. 1938-yil karlar ta'limi va tarbiyasi masalalariga bag'ishlangan Butunrossiya anjumanida o'sha davrda o'qitishda «hukmronlik» qilib kelayotgan sof og'zaki metod asosida

¹ Бенин В.Л. Теоретико-методологические основы формирования развития педагогической культуры: Автореф. дис. д-ра пед. наук./Урал. гос. профессионально-пед. ун-т. Екатеринбург, 1996.-45 с.

² Зайцев Г.Л. Диалог с Л.С. Выготским о проблемах современной сурдопедагогики // Дефектология. - 1998. -№2 - 23 с.

o'qitish tizimi qattiq tanqidga uchraydi. Ushbu anjumanidan so'ng karlarni o'qitish va tarbiyalashni takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqotlar boshlab yuboriladi. XX asrning birinchi yarmida eshitishida muammosi bo'lgan shaxslarni tabaqalangan ravishda o'qitish va tarbiyalash tizimi tarkib topdi va rivojlana boshladi (L.S.Vigotskiy, A.I.Dyachkov, R.M.Boskis, F.F.Rau, L.V.Neyman, Ye.F.Rau, S.A.Zikov). L.S.Vigotskiyning shogirdi R.M.Boskis eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi samaradorligiga erishishdagi dastlabki qadam ushbu toifadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tushunishdan boshlanishi lozim, deb hisoblab, I.P.Pavlovning «Analizatorlar faoliyatining birligi», L.S.Vigotskiyning «Nuqsonning murakkab tuzilishi» hamda «Ta'lim-tarbiya va rivojlanish mutanosibligi» psixologik ta'limotlariga tayangan holda o'z tadqiqot ishlarni olib boradi. Ya'ni u eshitish va nutqning o'zaro aloqadorlikda rivojlanishini keng o'rgangan holda bunday bolalar rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni keltirib chiqaruvchi qator holatlarga asoslangan pedagogik tasnifni ishlab chiqdi. Bu tadqiqotning ijobiy natijasi sifatida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tabaqalashtirilgan holda o'qitish tizimi tarkib topdi¹. 1950-yil Butun dunyo karlar federatsiyasi tashkil etildi. Shu davrdan boshlab eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga oid muammolar yechimiga bag'ishlangan surdopedagog va karlarning xalqaro anjumanlari o'tkazila boshlandi. XX asrning ikkinchi yarmi va hozirgi davr surdopedagogikasi maxsus ravishda o'qitish va tarbiyalash ta'limotini yanada rivojlantirish, ya'ni eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar tasnifi hamda ularni tabaqalangan ravishda o'qitish tizimini rivojlantirish, surdopedagoglarni tayyorlash, oila bilan ishlash, maktablarda o'qitish tizimini yanada takomillashtirishni ilmiy ravishda asoslash bilan tavsiflanadi. 1960-yillarda L.V.Neyman tomonidan eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning tibbiy tasnifi yaratilgan bo'lsa, xuddi shu yillari F.F.Rau va N.F.Slezinalar tomonidan karlarni og'zaki nutqqa (talaffuzga) o'rgatishning konsentrik, analitik-sintetik polisensor metodiga, B.D.Korsunskaya tomonidan kar va zaif eshituvchilarga ta'lim-tarbiya berishda uzviylik va uzluksizlikka ega bo'lish imkonini beruvchi maktabgacha ta'lim tizimiga asos solindi.

¹ Зайцева Г.Л. Диалог с Л.С. Выготским о проблемах современной сурдопедагогике // Дефектология. - 1998. - №2 - 36 с.

1970-yillar S.A.Zikov rahbarligi ostida karlarni boshlang'ich sinfda predmetli-amaliy faoliyatdan keng foydalangan o'qitish asosida ularda hayotiy tushunchalarni shakllantirish, nutqni muloqot, mehnat ko'nima va malakalarini shakllantirish vositasi sifatida shakllantirishga asoslangan o'qitishning yangi tizimi amaliyotga keng joriy qilinishi bilan tavsiflanadi.¹ Zamonaviy surdopedagogikaning nazariy asoschilari eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishlarining muhim omili – nutqni rivojlantirish ishlarining samaradorligi bevosita tarbiyalanuvchining oila a'zolari, xususan, ota-onalarning farzandlari bilan muntazam ravishda shug'ullanishlariga bog'liqligini alohida qayd etadilar. Jumladan, S.A.Zikov til o'qitishdagi yuqori muvaffaqiyatlar faqatgina maxsus muassasalarda tashkil etilgan nutqiy muhit orqali emas, balki bevosita ota-onalar va atrofda qilayotgan ishtiroki orqali ta'minlanishini uqtirsa, R.M.Boskis: «Nutqqa o'rgatish ishlarini o'qituvchi ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshirishi lozim», - deb ta'kidlaydi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasining turli yo'nalishlariga oid muammolarini tadqiq qilish K.G.Korovin, A.G.Zikeyev, V.A.Sinyak, B.D.Korsunskaya, A.P.Gozova, T.V.Rozanova, J.I.Shif, I.M.Solovev, E.I.Leongard, N.G.Morozova, M.K.Sheremet, N.D.Shmatko, L.A.Golovchis kabi qator rus olimlarining ham diqqat markazida bo'lib keldi. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ham, xuddi sog'lom tengdoshlari kabi, ijtimoiy shaxs bo'lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanliklari hamda ulardagi mavjud kuchli imkoniyatlarni ishga solish nutqni rivojlantirish asosida amalga oshirilishi lozimligi isbotlandi. Bolalarning nutqni egallab borishlari sari ularda ijtimoiy (hayotiy) malakalarning shakllanishiga oid imkoniyatlar kengayib boraveradi. Aniqrog'i, faoliyat asosida rivojlantiriluvchi nutq ijtimoiy me'yorlarni egallashning zaruriy shartidir. Ushbu jarayonning jadallashuviga xizmat qiluvchi omillardan biri bolalar nutqini ilk, maktabgacha yoshda bo'lgan davrda shakllantirish sanaladi. B.D.Korsunskaya, M.K.Sheremetlar zaif eshituvchi bolalar nutqiy muammolarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar nechog'li erta boshlansa, ularning hayotga, ya'ni ijtimoiy moslashuviga shu qadar erta muvaffaq bo'lishini

¹ Сурдопедagogика / Под ред. Е.Г.Речницкой.-М., 2004. - 386 с

ta'kidlaydilar. Aynan yangi davr surdopedagogikasida oila va maxsus ta'limning bola tarbiyasi borasidagi mushtarakligi zarurati anglandi: ota-onalar surdopedagoglar tomonidan belgilangan yo'l va ko'rsatmalarsiz farzandlarining tarbiyasida va, xuddi shunday tarzda, surdopedagoglar ota-onalar ishtirokisiz o'z faoliyatlarida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar (A.I.Dyachkov, F.F.Rau, B.D.Korsunskaya va b.). Ilk yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari asoschilari tomonidan yaratilgan maqola hamda metodik tavsiyalar kar va zaif eshituvchi bolalar ota-onalariga o'z farzandlarining tarbiyasini qanday tashkil etishlari, nutqini rivojlantirish yo'llari kabi masalalarni yoritib berdi.¹ A.I.Dyachkov oila va ijtimoiy tarbiya maqsadlarining mushtarakligi, oilaning maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi bilan hamkorligi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasining majburiy sharti ekanligini ta'kidlasa, B.D.Korsunskaya kar bolani maktabgacha tarbiya muassasasiga tayyorlash va unga joylashtirilgandan so'ng ota-onalarga qo'yiladigan talablar, ta'lim-tarbiya borasida maslahatlar beradi. Olim bola nutqining rivojlanishida faoliyatning turli ko'rinishlari hamda harakatni shakllantirishning tutgan o'rni beqiyosligini alohida ta'kidlab, ushbu boradagi faoliyat tizimini yoritib berishda asosiy e'tiborini nutq o'stirish (rivojlantirish) masalalari: lug'at zaxirasini kengaytirish, so'zlar mazmuni ustida olib boriladigan ishlar; bolani aqliy va axloqiy rivojlanishini ta'minlovchi omil – daktil nutqiga atrofdegilar bilan muloqot o'rnatish quroli sifatida o'rgatish, shuningdek, bolaning og'zaki nutqini shakllantirish ishlariga qaratadi. O'tgan asrning 70-yillaridan butun dunyoda karlar ta'limi va yashash, ijtimoiy ahvoliga nisbatan yangi ijobiy yondashuvlar shakllana boshladi. 1975-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan «Nogironlar huquqlari haqida» deklaratsiyasining qabul qilinishi bilan jamiyatni «to'laqonli ko'pchilik» va «noraso ozchilik» guruhlariga bo'lish yuridik jihatdan barham topdi.

Bu yillarda ta'lim sohasida sodir bo'lgan qator ijobiy o'zgarishlar rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar taqdiri masalalarini hal qilishda turli soha vakillari yangi yo'nalishlardagi faoliyatlarining birlashuvi zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bolaning rivojlanishidagi

¹ Сборник научно-методических материалов. Коррекционная педагогика вчера, сегодня, завтра. Москва, 1997. С.3-9. Пузапов Б.П.

me'yordan chetga chiqishlarni erta tashxis qilish, muammo oqibatini bartaraf etish, qayta tiklash, rivojlanishida u yoki bu jihatdan muammosi bo'lgan ilk va erta yoshdagi bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish, ularni umumta'lim muassasalariga uyg'unlashtirish modellarini ishlab chiqish masalalari kun tartibida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida maydonga chiqdi. Fan va texnikaning yuqori sur'atlar bilan taraqqiy etib borishi mahsuli sifatida kuchli sezgirlikka ega bo'lgan eshitish asboblari, koxlear implantatsiya hamda maxsus kompyuter dasturlarining yaratilishi karlarning jamiyatga to'siqlarsiz uyg'unlashuvlari imkonini yuzaga keltira boshladi. Shu yillarda G'arbiy Yevropa va AQShda maxsus maktablarni yopish hamda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablariga o'tkazish holatlari kuzatila boshladi. Bu yondashuv meynstriming (inglizcha mainstreaming – umumiy to'daga qo'shish) yoki boshqacha integratsiya nomini oldi. 1980-1990-yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida maxsus maktablarni kamaytirish, ba'zi hollarda batamom yopishga hamda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni sog'lom bolalar jamoasiga integratsiyalashga qaratilgan qonuniy hujjatlar qabul qilinadi.

Xuddi shu davrda bu yo'nalishga qarama-qarshi sanalgan eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasiga bilingvistik yondashuv konsepsiyasi yaratildi. Bu g'oya tarafdorlari karlar o'zlarigagina xos bo'lgan madaniyat, ona tili sanalgan imo-ishora tiliga egadirlar va shu sababli bunday shaxslar hayotiga «aralashish» ular huquqlarini paymol qilish bilan tengdir, degan fikrda bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayoni imo-ishora nutqi asosida olib borilishi hamda ularning o'ziga xos madaniyatini ulug'lash lozimligini uqdiradilar.¹ Rivojlangan mamlakatlarda karlarni o'qitishga bo'lgan bu ikki zamonaviy yondashuvlar biri ikkinchisiga qarama-qarshi, har ikkisinin o'ziga xos yutuq hamda kamchiliklari bo'lishiga qaramay, ikkisi ham mavjud bo'lish huquqiga ega ekanligi hamda bolalarni qaysi metodlar asosida o'qitish yo'nalishini tanlash ota-onagagina bog'liq ekanligi qayd etiladi. Zamonaviy surdopedagogika sohasidagi qator yutuqlar so'nggi yillarda E.I.Leongard, Ye.G.Samsonova (1991), N.D.Shmatko, T.V.Pelimskaya (2003), I.V.Koroleva, V.I.Pudov, O.V.Zontova (2001), A.D.Salaxova, N.V.Kochegarova

¹ Бенин В.Л. Теоретико-методологические основы формирования развития педагогической культуры. Автореф. дис. д-ра пед. наук // Урал. гос. профессионально-пед. ун-т. Екатеринбург, 1996.-66 с.

(2001), V.N.Svodina (1998) kabi yetuk olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari bilan bog'liq. Ularning tibbiyot hamda pedagogika sohasidagi yutuqlardan keng foydalangan holda olib borgan izlanishlari eshitishida muammosi bo'lgan bolalar abilitatsiyasi va reabilitatsiyasi darajasining yuqorilashuviga, eshitish va nutq muammosining erta korreksiya qilinishi orqali erta ijtimoiy moslashuviga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. E.I.Leongard, Ye.G.Samsonova, N.D.Shmatko, T.V.Pelinskaya, A.Y.Xoxlovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ilk hamda maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar oilaviy tarbiyasi nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish, boyitishga katta hissa qo'shdi hamda bu yo'nalishning qudratli imkoniyatlarga ega ekanligini yana bir bor isbotlab berdi¹. Ota-onalar ishtirokida umumrivojlantiruvchi hamda korreksion ishlarning ilk yoshdan boshlanishi natijasida bolalar umumiy rivojlanishlarida katta yutuqlarga erishiladi. Oila sharoitida nutqiy muhitning tashkil etilishi, bola nutqining rivojlanishi (nutqning eshitish-ko'rish idroki, lug'at zaxirasining shakllanishi, so'zlashuv nutqi asosidagi muloqotni o'rnatish, talaffuz qilish malakalari)ga zamin bo'lib xizmat qiluvchi nutqiy eshituvning rivojlanishiga imkoniyat tug'diradigan to'g'ri tanlangan ovoz kuchaytirgich moslamalaridan foydalanish, eshitmaydigan bolani eshituvchi tengdoshlari jamoasiga olib kirish uning erta ijtimoiy uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Ushbu yo'nalish orqali eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ommaviy turdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga yoki maktabgacha tarbiya muassasalariga qoshida tashkil etilgan maxsus guruhlarda kamol topadilar. Bu bolalar, shuningdek, ma'lum vaqtlarda ushbu metodika asosida ish olib boruvchi surdopedagog mutaxassislar tomonidan tashkil etiluvchi yakka mashg'ulotlarga ham qatnaydilar. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday tashkil etilgan tarbiyada «asosiy yuk» ota-onaning zimmasiga yuklanadi hamda surdopedagog yo'naltiruvchilik va yordam beruvchilik funksiyasini o'taydi. Shubhasiz, bu metodika ota-ona yoki bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi boshqa oila a'zolariga mas'uliyatli vazifani yuklash bilan birga, ulardan pedagogik uquv, ko'p vaqt hamda kuch-quvvatni talab qilishi sababli hozirgi kunda barcha oilalar ham bunday mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor emas. Eshitishida

¹Сборник научно-методических материалов. Коррекционная педагогика вчера, сегодня, завтра. Москва, 1997. С.3-9. Пузанов Б.П.

muammosi bo'lgan shaxslar ta'limi tizimlarini yanada takomillashtirish, jadallashtirish jarayoni davom etmoqda.

O'zbekistonda surdopedagogik nazariya va amaliyotning taraqqiy etishi

Boy ma'naviy qadriyatlar va madaniyatga ega xalqimizda asrlar davomida bolaning tarbiyasi masalalariga e'tiborga olinishi lozim bo'lgan omillar, uning maktab hamda oiladagi tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelingan. Bu boradagi fikrlar milliy surdopedagogikaning rivojlanishida muhim manbalar vazifasini o'tagan bo'lishi, shubhasiz. Abu Nasr Farobiy axloq, odob, rasm-rusum, kasb-hunar, odat hamda irodaning tarkib topishida ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyosligi, shu bilan birga, har bir bolada yoshligidanoq tushunish, fahmlash, muhokama qilish, o'ylab topish, fikrlash layoqati mavjud bo'lishini alohida ko'rsatib o'tgan bo'lsa, milliy pedagogikamiz asoschisi A.Avloniy yosh avlod, uning tarbiyasiga jamiyat, millatning kelajagi sifatida alohida e'tibor berib, bu ishni ilk yoshdan boshlash zarurligini alohida ta'kidlaydi hamda ta'lim bilan tarbiya bir-biri bilan bog'liq bir butun jarayon ekanligi, muallimga ushbu omilga alohida ahamiyat berish lozimligini uqtiradi. Olim til shaxs tafakkurining rivojlanishi, uning ijtimoiy hayotda o'z o'rmini topishida muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlagan. A.Avloniy tarbiya masalasiga doir: «Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga: «Birinchi – uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir», - kabi fikrlarni bildirgan holda, ta'lim-tarbiyada bola yashab turgan sharoit, muhit, jamoatchilikning roli katta ekanligini ko'rsatadi. Bu borada oila, maktab hamkorligi zaruratini, oilada bolaning sog'lig'iga alohida ahamiyat qaratilishi lozimligi, kasallangan farzandni darhol shifokorlarga ko'rsatish, kasallikning oldini olish, vaqtida davolash muhimligini ota-onalarga uqtiradi.

O'zbek surdopedagogikasining rivojlanishi Toshkentda 1919-yildan faoliyat yurita boshlagan O'rta Osiyoda dastlabki barcha nuqsonli bolalar birgalikda ta'lim olishlari uchun mo'ljallangan maktabdan 1922-yil ilk kar bolalar maxsus maktab-internatining ajrab chiqishi bilan bog'liq. Maxsus tizim amaliyoti stixiyali ravishda tizimdagi ishning rus

maxsus kar bolalar maktablari o'quv dasturlari hamda umumta'lim maktablari darsliklari asosida olib borilishi orqali rivojlana bordi. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni tabaqalab o'qitish (kar va zaif eshituvchilar) Respublikamizda 1965-yildan boshlandi. Ushbu yildan Toshkentda rus va o'zbek bo'limlaridan iborat 102-sonli zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar maxsus maktab-internati faoliyat ko'rsata boshladi. Shuni aytish joiz-ki, o'sha vaqtlarda maktablarda o'qitish jarayoni original dastur va darsliklar asosida olib borilmay, Rossiya maxsus maktablari yoki O'zbekistondagi umumta'lim maktablari, ba'zan aqli zaif bolalar maktablari dastur va darsliklarini biroz o'zgartirib ishlash asosida tashkil etilar edi. Tabiiy-ki, bir tomondan til tizimining to'g'ri kelmasligi, ikkinchi tomondan me'yorda rivojlanayotgan bolalar xususiyatlariga tayangan holda tuzilgan darsliklar asosida ishni tashkil qilish eshitishida muammolari bo'lgan bolalar maktablari oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini bermas edi. Faqat ilg'or amaliyotchi pedagoglar o'z faoliyatlari bilan nomutaxassis pedagoglar bilan ta'minlangan maxsus kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining ishini asta-sekin olg'a siljita bordilar. 1968-yil nashr etilgan «Alifbe» darsligi kar bolalarni o'qitish amaliyotining sifat jihatidan biroz yuqorilashini ta'minladi¹ (A.Do'stmuhammedov). Nizomiy nomli TDPI defektologiya fakulteti qoshida 1983-yil o'zbek tilida ilk bor «Surdopedagogika» bo'limining ochilishi sohaning nazariy, metodik jihatdan asoslab berilishini taqozo etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan maxsus ta'lim tarmog'i rivojining ixtisoslashgan malakali surdopedagog-mutaxassislar bilan ta'minlanishi orqali jadallashuvini keltirib chiqardi. Kar va zaif eshituvchi bolalarni o'qitish dastur va darsliklari, metodik qo'llanmalarining yaratilishi surdopedagogikaning olg'a ildamlanishiga omil bo'ldi. Respublika kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari ilk bor ilmiy-amaliy tadqiqot mahsuli hisoblangan hududiy, milliy mentalitet, o'zbek tili qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda yaratilgan o'quv dasturlari hamda darsliklari bilan ta'minlandi² (U.Fayziyeva «Alifbe», «Nutq o'stirish», N.Dadaxo'jayeva «Matematika» va b.) (1989-y.). Istiqloлга qadar Respublikamizning

¹ Fayziyeva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: ped.fan.nomz.dis... avtoref. -T.: TDPI. 1994. - 18 b.

¹ Qodirova F.U. Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped.fan.nomz.dis.avtoref... - T.: TDPU, 2006. - 20 b.

² Qodirova F.U. Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped.fan.nomz.dis.avtoref... - T.: TDPU, 2006. - 20 b.

eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni original dastur va darsliklar asosida olib borilmay, Rossiya maxsus muassasalari yoki O'zbekistondagi umumta'lim, ba'zan esa, aqli zaif bolalar muassasalari uchun mo'ljallangan dastur va darsliklarni biroz o'zgartirib ishlash asosida tashkil etilar edi. Maxsus tizim amaliyoti stixiyali ravishda tizimdagi ishning shu yo'nalish asosida olib borilishi orqali rivojlana bordi. Tabiiy-ki, bir tomondan til tizimining to'g'ri kelmasligi, ikkinchi tomondan me'yorda rivojlanayotgan bolalar, uchinchi tomondan aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar xususiyatlariga tayangan holda tuzilgan dastur hamda darsliklar asosida ishni tashkil qilish eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini bermas edi.

Respublikamizda surdopedagogikaning ilmiy asoslanishi o'tgan asrning 80-yillaridan boshlandi. Milliy surdopedagogikamizda olib borilgan qator tadqiqotlar (N.Sh.Bekmurodov (1989-y.), X.M. Gaynutdinov (1990-y.), F.J.Alimxodjayeva (1992-y.), U.Y.Fayziyeva (1994-y.), N.X.Dadaxo'jayeva (1995-y.), F.U.Qodirova (2006-y.), D.A.Nazarova (2009-y.), R.Rustamova (2010-y.), D.B.Yakubjanova (2018-y)) mamlakatimizda mavjud eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maxsus maktab-internatlar ta'lim-tarbiya jarayonini hududiy sharoitlar, o'zbek tili xususiyatlariga mos holda takomillashtirish yo'l va vositalarini ilmiy jihatdan asoslab berishga yo'naltirildi.

Surdopedagogika sohasida ilk bor N.Sh.Bekmurodov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida hududimizga mos ravishda maxsus maktab-internatlar kun tartibi, o'quv jarayonini tashkil qilishda hisobga olinishi lozim bo'lgan talablar ishlab chiqilgan bo'lsa, X.M.Gaynutdinovning ilmiy izlanishlari natijasida ilk bor O'zbekiston sharoitida eshitishida muammosi bo'lgan shaxslarni kasbiy – mehnatga tayyorlash, keyingi mehnat faoliyatlari jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar, bunday shaxslar ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko'tarish yo'llari ochib berildi.

F.D.Alimxodjayevanning uzoq yillik amaliy tajribasi maxsus o'qitish jarayonida didaktik materiallardan foydalanishning tabaqalangan metodikasini ishlab chiqish hisobiga zaif eshituvchi

o'quvchilar eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslab berishiga asos bo'ldi¹.

U.Y.Fayziyevaning ilmiy-tadqiqot ishi zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o'rgatish muammolarini hal qilishga qaratilgan ilk tadqiqot bo'lib, unda maktabga tayyorgarliksiz kelgan zaif eshituvchi bolalarning dastlabki nutqiy imkoniyatlari (so'z boyligi: faol va nofaol nutqi), eshitishining yo'qolish sabablari va vaqti o'rganildi, bunday bolalarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish metodikasi ilk bor nazariy jihatdan asoslab berildi. Ya'ni tadqiqotchi zaif eshituvchi o'quvchilarga savod o'rgatish davrida zarur sanalgan omil – harflarni o'tish ketma-ketligini ishlab chiqib, ushbu nazariy xulosalari asosida «Alifbe» darsligini yaratdi².

N.X.Dadaxo'jayeva ilk bor zaif eshituvchi o'quvchilarning ko'p xonali sonlar ustida arifmetik amallarni bajarishlaridagi xususiyatlar, ushbu jarayonda o'quvchilarning nutqi va fikrlashlariga oid tayyorgarlik holatini o'rganib, ko'p xonali sonlar ustida arifmetik amallar bajarishga o'rgatish bo'yicha ish usullari hamda metodlarni nazariy jihatdan asoslab berdi.

F.U.Qodirova ilmiy izlanishlari (2006-y.) «Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar so'zlashuv nutqini shakllantirish» mavzusida bo'lib, tadqiqotda eshitmaydigan bolalar ta'lim-tarbiyasi amaliyotidagi kamchiliklar tahlili orqali ularni bartaraf etishning samarali usul va yo'llari aniqlandi, so'zlashuv nutqini shakllantirish omillari va bosqichlari belgilab berildi³.

D.A.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqotda (2009-y.) surdopedagogikada maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqiy rivojlanishi ilmiy-metodik jihatdan ilk bor o'rganildi, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqiy rivojlanish darajasini tadqiq qilish metodikasining moslashtirilgan varianti ishlab chiqildi, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirishning mazmuni, yangi interfaol usullari hamda shakllari ishlab chiqildi, nuqson va uning oqibatida bolalar umumiy rivojlanishida kelib chiquvchi muammolarni hisobga olgan holda ular

¹ Alimxo'jayeva F.J. Zaif eshituvchi bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish. P.f.n. diss... avtoref. –M., 1992.

² Fayziyeva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish. : ped.fan.nomz.dis.... avtoref. -T.: TDPI. 1994. – 18 b.

³ Qodirova. F.U. Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini shakllantirish. : Ped.fan.nomz.dis. avtoref... – T.: TDPU, 2006. – 20 b.

nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni tashkil etish tamoyillari, mazmuni hamda usullari asoslab berildi.

R.Rustamova o'z tadqiqotida zaif eshituvchi bolalar nutqining grammatik qurilishini shakllantirishga mo'ljallangan korreksion-pedagogik tizimni ishlab chiqish borasida ish olib borgan bo'lib, zaif eshituvchi bolalarning eshituv imkoniyati turg'un pasayganligi tufayli ularning nutqida bir qator kamchiliklar: lug'atining kambag'alligi, grammatik komponentlarning rivojlanmaganligi, gap ichida so'zlarni tashlab ketishi, so'zlardagi tovushlarni tushirib talaffuz qilishi, so'zlarni o'zaro bog'lay olmasligi, kelishik, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmasligi, tovushlarni noto'g'ri talaffuz etishi, o'xshash jarangli-jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirishi kabi holatlar kuzatilishi natijasida o'quvchilar gapiruvchini suhbatdoshdan va so'z yuritilayotgan shaxsdan ajrata olmaydilar, ya'ni olmoshlar ayni shu shaxslarni anglatishini farqlamasliklarini ta'kidlaydi.

Olima «Tilning grammatik qurilishini shakllantirish» dasturida ham zaif eshituvchi bolalarga til o'qitishda so'z birikmalari ustida ishlashga katta e'tibor berilish, darslarda so'z birikmalari butun o'quv materialini tuzishdagi boshlang'ich tayanch birligi bo'lishi lozimligini, grammatik qurilishni shakllantirish tizimida birinchi navbatda ayrim grammatik qonuniyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni izchil joylashtirish bilan belgilash muhimligini isbotladi.

D.B.Yakubjanova «Bo'lajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyasi» pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi ishida ilk bor: bo'lajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishning ehtiyoj-rag'bat, kognitiv-hissiy va ma'naviy-ruhiy komponentlardan iborat modeli kasbiy-muammoli va korreksion vaziyatlarni loyihalashga yo'naltirilgan ta'lim muhiti tuzilmasi asosida takomillashtirilgan jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim olish tamoyillari asosida bo'lajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, rag'batlantiruvchi va aks ta'sir omillari aniqlanib, "Matematika o'qitish maxsus metodikasi" fani bo'lajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishga

yo'naltirilgan korreksion va hamkorlikda o'qitish yondashuvlarini integratsiyalash asosida takomillashtirildi.

Har bir inson hayotining o'ziga xosligi va qadriyatlarining tan olinishi, bolaning rivojlanish huquqlari, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishini kafolatlash zaruriyati kabi insonparvarlik g'oyalari zamonaviy jamiyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim ekanligi tobora keng anglanmoqda. Qayd etilgan g'oyalar O'zbekiston Respublikasi hukumati va xalqaro miqyosda qabul qilinayotgan qator me'yoriy hamda huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topmoqda. Mamlakatimizda eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning, barcha sog'lom tengdoshlari qatori, milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyatdagi ijtimoiy hayotga mustaqil yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ushbu vazifalarni hal etishda so'zlashuv nutqi markaziy o'rinni egallaydi. Ma'lumki, til vositasi yordamida inson muloqotga kirishadi, ushbu jarayonda axborot oladi, fikr almashadi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Kishilik jamiyatida ana shunday zaruriy ahamiyatni kasb etuvchi tilni o'zlashtirish faqat kishilarning o'zaro nutqiy muloqoti (kommunikatsiyasi) sharoitidagina amalga oshiriladi. Nutqiy muloqotning yetarli darajada amalga oshishida eshitishning o'rnini beqiyos bo'lib, uning asosiy vazifasi nutqni idrok etish sanaladi. To'laqonli eshitish nutq shakllanishining omili hisoblanib, u orqali insonning so'z-mantiqiy tafakkuri, umumiy va ruhiy rivojlanishi sodir bo'ladi. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, bular in'ikosicha so'z shaklida ifodalanadi, til hodisalari vositasida namoyon bo'ladi. Inson o'zi ko'rgan va ta'sirlangan buyum va hodisalarni so'z yordamida nomlab, mazmuni haqidagi taassurotlarini obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko'rinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Har qanday buyum-hodisaning miyada aks etishi va ongda mustahkam o'mashib qolishida nutq yetakchi vosita hisoblanadi. Modomiki shunday ekan, nutq, muloqot jarayonida tafakkur quroli bo'lib xizmat qiladi; fikr bildirish, o'zgaralarga ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyati nutq rivojlanishi zahirida paydo bo'lishi sababli nutq kishi tafakkurining rivojlanish darajasini ham belgilab beradi. Eshitish idrokining buzilishi tufayli insonning nutqiy muloqotga kirisha olmasligi oqibatida boshqalardan ajralib qolishi uning keyingi hayoti,

umumiy rivojlanishida qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu o'ziga xos muammolarning yuzaga kelishini zamonaviy maxsus ta'lim tizimining nazariy asoschisi L.S.Vigotskiy o'zaro bir-biriga tobe bo'lgan quyidagi sabablar bilan bog'laydi¹: «Ijtimoiy tarbiya nutqning rivojlanmaganligiga, nutqning rivojlanmasligi jamoa (kollektiv)dan ajralib qolishga, jamoa (kollektiv)dan ajralib qolish esa bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy tarbiyani, ham nutq rivojlanishini tormozlaydi. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini rivojlantirish kabi masalalar ijtimoiy tarbiya zaminidagina o'zining to'g'ri yechimiga ega bo'ladi». Olimning fikricha, jismoniy va ruhiy nuqson oqibatida rivojlanishi qiyinlashgan bola kam rivojlangan bo'lmay, balki o'zgacha rivojlangan bola bo'lgani sababli bunday bolalar ta'lim-tarbiyasini amalga oshirishda umumiy pedagogikada qo'llanuvchi metod va vositalardan «boshqacha» yo'llar bilan foydalanish lozim.

Respublikamiz Hukumati rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning barcha sog'lom tengdoshlari qatori milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, ijtimoiy hayotga mustaqil yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimida so'nggi vaqtlarda inklyuziv ta'lim g'oyasi, respublikamiz sharoitida uni joriy etish masalalari tez-tez murojaat etilayotgan mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar eshitishining jarrohlik yo'li bilan koxlear implantatsiya yordamida qayta tiklash bunday bolalarni "eshituvchilar" jamiyatiga qaytarish, ya'ni jamiyatga uyg'unlashtirishning yana bir samarali yo'li sanaladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi rahbarligida Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi xodimlari, "Med-el" firmasi mutaxassisi va prof. V.Bereznyuk (Ukraina) ishtirokida Toshkent va Navoiy shaharlarida istiqomat qiluvchi zaif eshituvchi va kar bolalar eshitishi jarrohlik yo'li bilan qayta tiklandi. Surdopedagogika yo'nalishi uchun dolzarb muammolardan biri bunday yo'l bilan eshitishi qayta tiklangan bolalarning operatsiyadan so'nggi reabilitatsiyasi sanaladi. Seminar koxlear implantatsiya qilingan bolalarning operatsiyadan so'nggi

¹ Сборник научно-методических материалов. Коррекционная педагогика вчера, сегодня, завтра. Москва, 1997. С.3-9. Пузанов Б.П.

reabilitatsiyasi masalalariga bag'ishlandi. Anjumanda eshitish reabilitatsiyasi bilan shug'ullanuvchi shifokorlar, surdopedagoglar, logopedlar ishtirok etib, dolzarb muammoga bag'ishlangan ma'ruzalar tinglashdi va munozarali savollar yuzasidan fikr almashdilar. Bunday toifadagi bolalarga milliy qadriyat va hududiy shart-sharoitlarimizdan kelib chiqqan holda maxsus ta'lim muassasalarida korreksion yordam ko'rsatishning (umumiy va xususiy maqsadlari, vazifalari, ta'lim-tarbiyalashning mazmun va tamoyillari, ushbu bolalar imkoniyatlariga mos bo'lgan ish metodlari) ilmiy asoslarini to'liq ishlab chiqish maxsus ta'lim tizimining kun tartibida turgan, o'zining tezkor yechimini kutayotgan bosh muammodir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda korreksion-pedagogik yordamni rivojlantirish tizimi mavjud bo'lib, 86 ta maxsus maktab va maktab internatlarda 21153 nafar bola ta'lim-tarbiya olmoqda. Jumladan, 13 ta kar bolalar maktab-internatlarida 3611 nafar, 5 ta zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar maktab-internatlarida 1292 nafar bolalar kamol topmoqda. Shu bilan birga 21 ta sanatoriya turidagi maktab-internatlarda 6131 nafar, aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar uchun mavjud 1 ta maxsus Mehribonlik uyida 95 nafar, kasalligi sababli uyda yakka tartibda 13272 nafar bolalar ta'lim-tarbiya olmoqdalar.

Ma'lumki, u yoki bu yo'nalishdagi faoliyatni amalga oshirish uning qonuniy negiziga tayanishni talab etadi. O'zbekistonda korreksion-pedagogik yordamni rivojlantirish orqali nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimida voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha qator yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirilgan loyihalarini tayyorlash nazarda tutilgan bo'lib, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan bu borada quyidagi ishlar amalga oshirildi: "Bolalar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun loyihasi Xalq ta'limi vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, Sog'liqni saqlash, Moliya vazirliklari, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv Markazi, «Sen yolg'iz emassan» jamg'armasiga yuklatilgan bo'lib, bu vazifani amalga oshirish yuzasidan yuqorida ta'kidlangan tashkilotlar hamda Adliya vazirligi, Inson huquqlari Milliy markazi, Respublika Bosh Prokraturasi, YUNISEF, YUNESKO, Bolalar jamg'armasi kabi tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda ishlab chiqildi. Qonun loyihasi Vazirlar Mahkamasi hamda Prezident Devoni

tomonidan ko'rib chiqilib, o'ratilgan tartibda Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasida uch o'quvdan o'tkazilib, Oliy Majlis Senatida ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan 2008-yilning 7-yanvarida imzolandi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni boshqa barcha fuqarolar bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash, ularning turmush faoliyatidagi cheklanishlarni bartaraf etish, to'laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy turmushida faol qatnashishlariga, shuningdek, o'zlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart-sharoitlar yaratish davlatimiz insonparvarlik siyosatining asosiy mazmunini tashkil etadi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishni beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning to'rtinchi ustuvor yo'nalishida "aholini ijtimoiy himoya qilish, nogiron, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi"ni kuchaytirishga alohida e'tibor berildi¹.

2017-yil 1-dekabrda "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5270-farmoni nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni to'laqonli ta'lim olishi, jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, ularni sog'lomlar qatorida jamiyatga uyg'unlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishiga oid chora-tadbirlarni takomillashtirishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonida ham mamlakatimizda umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida nogironligi bo'lgan bolalar ta'limini sifat jihatdan ko'tarish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish belgilanganini alohida qayd etish lozim.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tegishli idoralar vakillari ishtirokida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan tashkil etilgan ishchi guruh

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017 – B.39

tomonidan Qonunning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi. Qonun loyihasini ishlab chiqishda ishchi guruhi tomonidan alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi uchun yaratilishi lozim bo'lgan masalalarga muhim ahamiyat qaratilmoqda. Qonunda inklyuziv ta'lim masalasiga alohida ahamiyat berildi. O'zbekistonda korreksion-pedagogik yordamni rivojlantirish tizimini rivojlantirish bo'yicha alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasining samarali rivojlanishini ta'minlab beruvchi muhim hujjatlar - «Maxsus ta'lim to'g'risida»gi Nizom, «Tibbiy-pedagogik-psixologik Komissiya to'g'risida»gi Nizomlarga o'zgartirishlar kiritish, «Inklyuziv ta'lim to'g'risida»gi Nizomni ishlab chiqish amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalardan birini tashkil etadi.

Xalq ta'limi tizimida alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarni umumta'lim muassasalarida uyg'un holda ta'lim-tarbiya olishlari borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Nogironligi bo'lgan bolaning rivojlanishidagi me'yordan chetga chiqishlarni erta tashxis qilish, muammo oqibatini qayta tiklash, rivojlanishida u yoki bu muammolari bo'lgan ilk va erta yoshdagi bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish, ularni umumta'lim muassasalariga uyg'unlashtirish modellarini ishlab chiqish masalalari kun tartibida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda maxsus pedagogikada yaratilgan barcha yangiliklar bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, zaif eshituvchi bolalar nutqining grammatik qurilishini shakllantirish, ularga grammatika haqida ma'lumot berish muammolari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmagan. Eshitish idroki buzilgan bolalarga tilni o'rgatish yuzasidan xorij va respublikamizda olib borilgan tadqiqotlar kar va zaif eshituvchi bolaga ona tilini o'rgatish maxsus tashkil etilishi va egallayotgan tili qonuniyatlariga asoslangan korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik tizim va metodik vositalarning qo'llanilishi asosida amalga oshirilishi lozim ekanligini ko'rsatdi.

Nogironlikka bo'lgan zamonaviy yondashuvlar Respublikamiz maxsus ta'lim tizimi xodimlarini alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim olish muammolarini ilmiy-metodik jihatdan asoslab berish masalalariga jiddiy e'tibor bilan yondashishlariga undamoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Zamonaviy surdopedagogikaning shakllanishida muhim o'rin tutgan g'oya va yondashuvlar bo'yicha ma'lumot bering.

2. Zamonaviy surdopedagogikaning shakllanishida muhim o'rin tutgan yondashuvlarga misol keltiring.

3. Chet el surdopedagogikasining rivojlanishining bosqichlarini tavsiflang?

4. Rossiya surdopedagogikasining rivojlanishining bosqichlari tavsiflang?

5. O'zbekistonda surdopedagogik nazariya va amaliyotning taraqqiy etishi bo'yicha ma'lumot bering.

6. O'zbekistonda korreksion-pedagogik yordamni rivojlantirish tizimini tashkil etish mazmuni bo'yicha ma'lumot bering.

Tayanch tushunchalar:

Ko'rinarli nutq – imo-ishora nutqi.

Kommunikatsiya – o'zaro nutqiy muloqot.

His etuvchilarning hissiyotlari – karlik va soqovlikni bolaning aqliy layoqatlariga salbiy ta'siri.

Hissiy idrok va uning obyektlari – sezgi organlarning o'zaro tobeligi.

III BOB. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFNOMASI

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ruhiy rivojlanishining o'ziga xosligi

Ruhiy rivojlanish – ruhiy jarayonlarning ma'lum qonuniyatlarga mos ravishda rivojlanishi bo'lib, u davriy munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bolalarning rivojlanishi turlicha bo'lib, bunday turfaalik har bir bolaning bosh miyasidagi bo'limlarning rivojlanish davrlari va xususiyatiga bog'liqligidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra bolalarning ruhiy jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishi har xil yoshida turli darajada bo'lishi kuzatiladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishidagi o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish: kar va sog'lom bola ruhiy rivojlanishidagi umumiy va xususiy tomonlarini aniqlash; kar bolalar bilish jarayonining alohida shakllarining rivojlanishidagi o'ziga xosligini o'rganish va aniqlash – sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq hamda uning shaxs sifatida shakllanish qonuniyatlarini o'rganish; rivojlanishi nuqsonli bo'lgan bola shaxsining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadigan metodlar va yo'llarni psixologik jihatdan asoslab berish kabi eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'limi orqali ularni barkamol tarbiyasini amalga oshirishga qaratilgan ishlar rejalashtiriladi¹. Eshitish sezgisi va idroki ayniqsa nutqni egallashda muhim rol o'ynaydi. Nutqning aktiv va passiv shakllari aynan eshitish sezgisi va idroki asosida amalga oshadi. Atrofdagilar nutqini eshitib, unga taqlid qilish orqali dastlabki so'zlarni ayta boshlaydi. Nutqni eshitib, u orqali asosiy ma'lumotlarni oladi, kattalar bilim va tajribalarini egallaydi. Chunki kattalarning bilimi, tajribalari bolalarga og'zaki yoki yozma nutq orqali kattalar tomonidan etkaziladi. Atrofdagilar nutqini idrok qilish imkoniyatining buzilishi faol nutqning shakllanish imkoniyatini yo'qotadi. Eshitishi buzilgan bola hech qachon o'zi mustaqil ravishda nutqni egallay olmaydi. Agar bunday bola maxsus sharoitda maxsus yondoshish va maxsus uslublar bilan o'qitilmasa soqov bo'lib qoladi. Eshitmaydigan bola butun axborotni eshitish apparati analizatorining ishtirokisiz oladi, u hamma

¹M. Marschark, Harry G.Lang, John Albertini - Educating deaf students - Oxford University Press, 2006. 303p

narsalarni predmetlar, voqea va hodisalarni ko'rgani holda ular haqida hech qanday inshakltsiya olish imkoniyati yo'q. Bu esa o'z navbatida ikkilamchi nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Me'yorda, bola kattalar va atrofdagilar nutqini takror-takror eshitib, ularga taqlid qilib, uni egallaydi. Eshitmaydigan bola ko'rgan narsalarining nomlarini va hodisalarni so'z orqali ifodalay olmaydi, munosabat bildira olmaydi. Bunday holat bolani ruhiy jihatdan to'g'ri rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Karlik tufayli bolada ikkilamchi nuqsonlar vujudga keladi: soqovlik, ruhiy rivojlanishining orqada qolishi va hokazo. Chunki bu ikkilamchi nuqsonlar eshitmaslik tufayli vujudga keladi, barcha psixik jarayon, tafakkur, xotira, idrok, diqqat va butun bilish jarayoniga ta'sir kiladi. Eshitishni korreksiyalash qanchalik erta tashkil qilinsa, nutqdagi kamchiliklar shunchalik erta to'g'rilanadi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning asab tizimining faoliyatini egiluvchanligi tufayli ularda kompensatorlik imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bunday bolalar atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishda qiyinaladi, shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi, o'zligini anglai sog'lom bolalardan farqlanadi. Eshitishdagi buzilishning har qanday holatida ham axborotni qabul qilish, uni tahlil qilish va munosabat bildirish, uni saqlash imkoniyati mexanizmi qiyinlashgan yoki buzilgan bo'ladi. Barcha imkoniyati cheklangan bolalarda tushunchalarning shakllanish jarayoni sekinlashgan holda korreksiyalanadi, eshitmaydigan bolalarda bu jarayon vaqtinchalik sekinlashgan bo'ladi va o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega bo'ladi. Eshitmaydigan bolaning rivojlanishida ikkita o'zaro bir-biriga bog'liq muhim holat kuzatiladi. Eshitmaydigan bolaga ta'sir etuvchi tashqi omil nihoyatda tor, tashqi muhit bilan muloqoti cheklangan, atrofdagilar bilan muomalada bo'lish imkoniyati chegaralangan bo'ladi. Buning natijasida bunday bolalarning ruhiy jarayonlarining rivojlanishi nihoyatda oddiy tusda bo'lib, tashqi ta'sirlarga reaksiyasi sodda, doimiy bir xillik kuzatiladi. Shu sababli eshitmaydigan bolalarning analizatorlar faoliyatida o'zaro bog'lanishlar sog'lom bolalardan farqlanadi va ularning o'z fikrini bayon qilish shakllari farqli kechadi. Masalan: ko'rgazmali – obrazli, so'z mantiqiy tafakkuri; yozma nutqning ikkala shakli impressiv (o'qish) va ekspressiv (yozma) shakllari og'zaki nutqdan ilgariroq rivojlanadi va ustunlik qiladi, katta rol o'ynaydi; nutqning impressiv shakli ekspressiv nutqdan ilgarilab rivojlanadi. Ta'lim jarayonida aynan

mana shu holatning inobatga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi bilan me'yordagi bolani ruhiy rivojlanishidagi farq asosan uning jadalligi va sifatida namoyon bo'ladi. Har qanday bolaning ruhiy rivojlanishi uning analizatorlarining sog'lomligi, umumiy salomatligi, o'sayotgan muhitiga bog'liq. Sog'lom va eshitmaydigan bolaning antogenezdagi rivojlanishida kam farqlanadi, farqlanish rivojlanishning keyingi bosqichlarida ortib boradi. Bolaga ilk yoshidan surdopedagogik yordam tashkil qilinib uning kompensatorlik imkoniyati rivojlantirilib borilsa bu farq katta bo'lmasligi mumkin. Bolaning imkoniyatini rivojlantiruvchi ta'sir va muhit qanchalik o'z vaqtida va izchillik bilan amalga oshirilsa farq shunchalik sezilmaydi. Aynan mana shu shart-sharoitlar eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limining mazmuni, davomiyligi va zaruriy tashkiliy shakllarini belgilashda hisobga olinadi. Bu bolalarning umumiy kamchiligining tarkibiy tuzilishi haqidagi tasavvurdan kelib chiqqan holda uni tahlil qilishda birinchi o'rinda ularning nutqini rivojlanish xususiyatida boshlash maqsadga muvofiqdir. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar dastlab nutqni bevosita emas balki, maxsus tashkillashtirilgan sharoitda alohida vositalar orqali, majburiy muloqot vositasi sifatida egallaydi. Bunda bolaning ruhiy rivojlanishini kechiktirilmassligini ko'zlab nutqning qo'shimcha kompensator vositasi bo'lgan daktil va imo-ishora shaklidan foydalaniladi. Lekin to'g'ri tashkillashtirilgan pedagogik jarayon natijasida eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ma'lum vaqtdan keyin bunda nutqiy imkoniyatdan qoniqmaydilar, natijada muloqotning yangi, to'liq nutqiy muloqot shakliga o'tiladi. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning nutqiy muloqoti turli faoliyatlar jarayonida shakllanib boradi. Ular bu davrda nutqning turli shakllaridan (og'zaki, yozma) foydalanadilar, va nutqning ikkala tomoni impressiv (nutqni ko'rib qabul qilish) va ekspressiv tomoni (gapirish, daktillab aytilish, yozuv orqali fikr bildirish)dan foydalanadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar psixologik-pedagogik tasnifi

Zamonaviy maxsus ta'lim muassasalarining tabaqalashtirilgan holda tashkil etilishi, shuningdek, ulardagi ta'lim-tarbiya mazmunini

belgilashda asosiy omil bo'lib R.M.Boskisning eshitishida muammolari bo'lgan bolalar pedagogik tasnifi xizmat qiladi:

Karlik – eshitishning turg'un yo'qolishi bo'lib, unda mustaqil holda nutqni egallash, hattoki quloqqa yaqin bo'lgan masofada bo'lgan nutqni aniq idrok etish imkoniyati bo'lmaydi. Total (to'liq) karlik juda kam uchraydi. Ko'pincha karlikda baland nonutqiy tovushlar, quloq suprasiga yaqin masofadagi ba'zi nutqiy tovushlarni idrok etish darajasida bo'lgan eshitish qoldiqlari saqlanib qoladi. Audiometr tekshiruvni eshitishning 80 dBdan yuqori darajada yo'qolganligini ko'rsatadi.

Zaif eshituvchilik – eshitishning turg'un pasayishi bo'lib, unda ushbu eshitish qoldig'i asosida nutqiy zaxirani minimal holatda mustaqil ravishda egallash, murojaat etilgan nutqni quloq suprasiga yaqin masofada idrok etish imkoniyati bo'ladi¹. Audiometr tekshiruvni eshitishning 80 dB kam bo'lmagan pasayishini ko'rsatadi.

Birinchi tasniflash 16-asrga to'g'ri keladi. Italiya olimi D.Kardano 3 guruh karlarni ajratishda karlikning vujudga kelish vaqtiga bog'liqligi va nutqiy rivojlanish darajasiga asoslangan: Tug'ma karlar. Erta kar bo'lganlar (nutqi rivojlangunga qadar); Kech kar bo'lganlar (nutqi saqlanib qolganlar). 18-asr Fransuz pedagogi R.A.Sikar eshitish nuqsoni har xil bo'lgan bolalarni guruhlariga bo'lishni va ularni bo'lak holda o'qitishni taklif qilgan. 19-asrning birinchi yarmida Rus surdopedagogi V.I.Fleri kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni, kech kar bo'lib qolganlarni va zaif eshituvchilarni bo'lak holda o'qitish kerakligini taklif qilgan. Parijdagi kar va zaif eshituvchi o'quvchilar instituti vrachi J.Itar besh guruh karlarni ularning tovushlar va nutqlar eshitishiga qarab ajratgan: yuqori nutq va tovushlarni qulog'ining yaqinida eshituvchilar; unli va undoshlarni ajratuvchilar; ayrim unli va undoshlarni ajratuvchilar; nutqlarni eshitmaydigan, lekin baland tovushlarni eshituvchilar; umuman eshitishida muammosi bo'lganlar. Biroq kar bolalarning differensiyasi, faqat turli darajadagi eshitish qobiliyatini yo'qotganlarni o'qitish bilan ijobiy natijalar bermadi. 19-asrning ikkinchi yarmida Peterburg kar va zaif eshituvchi o'quvchilar bilim

¹ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy, 75332 Paris 07 SP, France. (ushbu kitobning 27-42-betlaridan olindi).

yurtida Y.T.Speshnev ikkita bo'linma tuzdi: turli xildagi nutqlarga ega bo'lgan kar bolalar uchun; imo-ishora asosida muloqot qiluvchilar uchun. Y.T.Speshnev tomonidan eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nutq saviyasini yaxshilash bo'yicha differensiallanadi, asosiy nuqson darajasi hisobga olinmaydi. Bunday hol ularni o'qitish mobaynida kerakli samara bermadi. Eshitish qobiliyati juda nuqsonli bo'lgan bolalarning yuqori o'zlashtiruvchanliklari boshqa tomondan eshitish qobiliyati saqlangan bolalarning nuqsonli bo'lgan o'zlashtiruvchanliklari kuzatiladi. Bunday hol esa o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarni aqliy rivojlanishi bo'yicha ajratib o'qitishga majbur qiladi¹. L.V.Neyman bolalik davrida eshitish qobiliyatining buzilishini o'rganish va tasnifini yaratish tarixida uch bosqichni belgilaydi: kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda eshitish qobiliyatini tekshirishni tizimlashtirish boshlang'ich urinishidan, toki amaliyotda eshitishni o'lgachigich uskunasi kamerton to'plamidan foydalanishni amaliyotda qo'llash; kamertondan to audometrgacha bo'lgan davr; hozirgi talabga javob beradigan amaliyotga kiritilgan audiometr L.V.Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilish diapazoniga asoslanib, karlarni to'rtta guruhga ajratadi.

Tibbiy tasnif (L.V. Neyman bo'yicha).

Karlar:

I guruh- eng past chastotalarni qabul qilish (125-250 Gs.);

II guruh- 500 Gsgacha chastotalarni qabul qilish;

III guruh- past va o'rta chastotalarni qabul qilish (1000 Gsgacha)

IV guruh- 2000 Gsgacha chastotalarni qabul qilish.

Zaif eshituvchilar:

1-daraja. Eshitishni 50 Db. gacha yo'qotish. Bunday bola 1m.dan ortiq masofadagi nutqni farqlaydi;

2-daraja. Eshitishni 50-70 Db.gacha yo'qotish. Bunday bola 1m.gacha masofadagi nutqni farq qiladi;

3-daraja. Eshitishni 70 Db.dan yuqori yo'qotish. Bunday bola quloq oldida va quloq suprasiga aytilgan nutqni ham farqlashi qiyin.

Eshitish kamchiligidagi nutqiy rivojlanishlarning darajasi va xarakteri bir qator sabablar asosida yuzaga keladi. R.M.Boskis nutqiy rivojlanish darajasining quyidagi to'rt omil bilan aloqadorligini ko'rsatib o'tgan. Zaif eshituvchi bolalarni eshitish chastotasi

¹ M. Marschark, Harry G.Lang, John Albertini - Educating deaf students - Oxford University Press, 2006, 304

hajmiga qarab kar bolalarnikidek guruhlash to'g'ri kelmaydi. Chunki ko'pchilik zaif eshituvchilar keng diapazondagi 4000Gs va yuqori chastotani qabul qiladilar. Har bir guruh zaif eshituvchilar tomonidan ayrim gaplarni eshitish imkoniyatlari bo'yicha belgilanadi. 1-darajali zaif eshituvchilarda tovush diapazonida eshitishning pasayishi 50dBdan oshmaydi. Ularning chastotalarni qabul qilishi 125-8000Gs atrofida. 1mdan ortiqroq masofada so'zli tovush balandligida gaplarni ajratish imkoniyati bor. Ular bilan muloqotda bo'lish mumkin. 2-darajali zaif eshituvchilarda tovush diapazonida eshitishning pasayishi 70dBgacha. 1mdan kamroq masofada so'zli tovush balandligidagi gaplarni ajratish imkoniyati bor. Ular bilan muloqotda bo'lish birmuncha qiyinroq. 3-guruh tovush dipozonida eshitishning pasayishi 70dBdan yuqori. So'z tovushlari balandligida gaplarni ajratish quloq oldida ham qiyinlashadi; muloqot qilish faqat baland tovushda quloq yaqinida amalga oshiriladi. Zaif eshituvchilarda mustaqil nutq jarayonining qiyinlashuvi, eshitish qobiliyatining pasayishi 15-20dBda hosil bo'ladi. Buni L.V.Neyman yaxshi eshituvchilar bilan zaif eshituvchilar o'rtasidagi taxminiy chegara deb qabul qilishni taklif etadi. Zaif eshituvchilar bilan karlar o'rtasidagi taxminiy chegara esa 80dBdir. Pedagogik tasniflashni har bir surdopedagog uchun puxta bilish, har bir toifa bolalarni keng ma'noli, maxsus bir maqsadga yo'naltirgan ishlarni olib borishga asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tasnif bo'yicha bolalar maxsus muassasalarga yo'llanma oladilar. Eshitish nuqsonini tasniflash va u asosida har bir toifa bolalariga mos bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun avvalo, eshitish jarayonining mexanizmi haqida ma'lumotga ega bo'lish kerak. Quloq insonning tashqi muhit bilan aloqa qilishida vosita bo'ladigan sezgi a'zolari (organi)dan biridir. Eshitish organining vazifasi tovushlarni baland, yuqori va yoqimliga ajratishdan iborat. Tovush muhitning tebranishli harakati. Yuqori tovush jismning tebranish tezligini aniqlash bilan o'lchanadi va u «Gs»(gers) bilan belgilanadi. Muhit – havo, suv, tuproq va h.z. Tovush manbayi – tebranuvchi tana, ya'ni kamerton, ovoz paychalari. Tovush to'lqinining yoyilishi 0⁰ havoda 333 m.sek., suvda 1450 m.sek.ga teng. Tovush amplitudasi bu – tebranish kuchi, silkinish davri va to'la tebranish davri. Tovush chastotasi esa –tovushning 1 sek. tebranish soni. Tebranishlar xarakteri (tavsifi)ga ko'ra tovushlar 2 guruhga

bo'linadi: Ton – ovoz – sado. Shovqin. Agar tebranishlar ritmik bo'lsa, ya'ni aniq muddatdan so'ng bir xil tovush to'liqlari fazasi takrorlansa, bu musiqaviy ton – ovoz – sado hisoblanadi. Tonning oddiy turi – garmonik tebranish, ya'ni sof ton – ovoz hisoblanadi. Tovush 3 asosiy xususiyat, ya'ni kuchi, balandligi va tembriga ega. Tovush kuchi amplitudaga bog'liq. Qanchalik amplituda, ya'ni tebranish kuchli silkinish asosida bo'lsa, tovush shuncha kuchli bo'ladi. Aksincha bo'lsa- kuchsiz bo'ladi. Tovush kuchi «D.b.» (detsibel) bilan belgilanadi. Tovush balandligi – manbaning tebranish chastotasiga bog'liq bo'lib, 1 sek.da to'la tebranish soni bilan o'lchanadi. Sekundiga 200-300 gacha tebranishlar «past», ya'ni kuchsiz, 2000 dan yuqorisi «kuchli» deb yuritiladi. Tembr – tovush bezagi. U orqali turli manbalardan chiqayotgan bir xil balandlik va kuchdagi tovushlar farqlanadi. Inson 16 dan to 20000 Gs.gacha bo'lgan tovushni qabul qila oladi. U 16 Gs.dan past (infratovush) va 20000Gs.dan yuqori bo'lgan tebranishli tovushlarni qabul qila olmaydi.

Inson qulog'ining tovushlarni eng sezuvchanlik chegarasi 1000-4000 Gs.gachadir. Tovushning yo'nalishini aniqlash qobiliyati «otoptika», ya'ni ikkala quloqning eshitish qobiliyatiga bog'liq. Bir qulog'i eshitmaydigan kishida ushbu faoliyat buziladi. Shu sababli u tovush chiqqan joyni aniqlash uchun sog' qulog'i bilan turli tomonga aylanishga majbur bo'ladi. Sog'lom kishilar esa tovush chiqqan joyni osonlik bilan topadilar. Eshituv vazifasining amalga oshishida tovush o'tkazish va tovushni idrok (qabul) qilish jarayoni kuzatiladi. Tovushlar quloqqa havo orqali, shuningdek, boshqa yo'l bilan o'tishi mumkin. Bosh suyaklari orqali tovush idroki «suyak o'tkazuvchanligi» deb yuritiladi. Ayniqsa, baland tovushlar bosh suyaklari orqali o'tadi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nutqiy rivojlanish masalalari bir necha asrlar mobaynida ko'plab o'qituvchi va metodistlarning e'tiborini jalb qilganiga qaramay, bu muammoning yechimiga, ya'ni maxsus maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha yondashuvlarning yangi yo'nalish olishiga L.S.Vigotskiyning maxsus ta'lim tizimi masalalarini yoritib bergan qator asarlari turtki berdi. Olim maxsus maktablardagi og'zaki nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan usul bolaning sermazzmun hayoti, uning qiziqishlari bilan bog'liq bo'lmagan sharoitda olib borilishiga e'tibor qaratib, nutqni ijtimoiy hayotda ishtirok etmagan holda egallash,

qirg'oq bo'yida turib suzishni o'rganish holatiga qiyoslab, ijtimoiy muhit hamda uning tuzilishi har qanday tarbiya tizimining pirovard hamda hal qiluvchi omili ekanligini alohida qayd etadi: «Bola hayotini shunday tashkil etish lozimki, unga nutq zarur va qiziqarli bo'lsin. Ta'limni bola qiziqishlariga qarshi emas, ushbu qiziqishlar tomon yo'naltirish lozim. Umuminsoniy nutqqa nisbatan ehtiyojni yuzaga keltirish zarur, shundagina nutq paydo bo'ladi. Nutq muloqotga kirishish va fikrlash asosida, murakkab hayotiy sharoitlarga moslashish natijasida yuzaga keladi» L.S.Vigotskiy ushbu sharoitni yaratishda sog'lom (me'yordagi) bolaning nutqiy rivojlanish bosqichlariga tayangan holda ish ko'rish lozim ekanligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Birinchi planga, eng avvalo, bolaning bola ekanligi va shundan so'nggina kar-soqov ekanligi holati qo'yiladi. Bu shuni anglatadiki, bola, eng avvalo, umumiy qiziqish, layoqat, shuningdek, me'yordagi bola yoshi qonuniyatlariga muvofiq holatda o'sishi, rivojlanishi va tarbiyalanishi hamda xuddi shu jarayonda nutqni egallab borishi lozim. Bolalar o'zlarining muayyan sifat va ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezishlari lozim. Ular o'zlarini boshqa ko'pchilik bolalar va kishilardan farqli ekanliklarini his qilmasliklari, ularga tenglasha olmasliklariga ishonch hosil qilmasliklari lozim. Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish kabi masalalar ijtimoiy tarbiya zaminidagina o'zining to'g'ri yechimini topadi.

Zamonaviy maxsus ta'lim muassasalarining tabaqalashtirilgan holda tashkil etilishi, shuningdek, ulardagi ta'lim-tarbiya mazmunini belgilashda asosiy omil bo'lib R.M.Boskisning eshitishida muammolari bo'lgan bolalar pedagogik tasnifi xizmat qiladi. Olim eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi samaradorligiga erishishdagi dastlabki qadam ushbu toifadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tushunishdan boshlanishi lozim, deb hisoblab, I.P.Pavlovning «Analizatorlar faoliyatining birligi», L.S.Vigotskiyning «Nuqsonning murakkab tuzilishi» hamda «Ta'lim-tarbiya va rivojlanish mutanosibligi» psixologik ta'limotlariga tayanadi:

1. Yosh boladagi eshitish analizatori faoliyatining buzilishi katta yoshdagilarning nuqsonlaridan farqli ravishda namoyon bo'ladi. Kattalarda nuqson paydo bo'lgunga qadar nutq, mantiqiy tafakkur va

shaxsiy xislatlar shakllangan bo'ladi. Ilk yoshda orttirilgan nuqson esa bolaning me'yorda rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

2. Eshitishda muammolari bo'lgan bolalarning o'ziga xos rivojlanishlarini to'g'ri tushunish uchun ushbu holatda nutqni mustaqil egallay olish imkoniyatini, ya'ni eshitish va nutqning o'zaro tobeligini inobatga olish katta ahamiyatga ega. Bir tomondan, eshitishning buzilishi nutqning me'yorida rivojlanishiga to'sqinlik qilsa, ikkinchi tomondan eshitishning me'yordagi faoliyati bolaning nutqiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Bolaning nutqiy darajasi qancha yuqori bo'lsa, eshitish qoldig'idan foydalanish imkoni shuncha yuqori bo'ladi. Til, uning lug'at zaxirasi va grammatik tuzumini inson qancha yaxshi egallagan bo'lsa, uning eshitishdan foydalanish tajribasi shunday darajada ko'p bo'ladi. Nutqiy muloqot tajribasiga ega bo'lgan bolalar tanish bo'lgan so'z va jummalarni ma'nosiga ko'ra tushuna olishlari sababli murojaat etilgan nutqni yaxshiroq idrok etish imkoniyatiga egalar. Nutqiy rivojlanishlari yaxshiroq bo'lgan bolalar yaxshi eshituvchi sifatida taasuroot qoldirishlari mumkin. O'z navbatida, bolaning eshitish qoldig'i qancha yaxshi saqlangan bo'lsa, unda atrofdegilar nutqiga taqlid qilishi asosida mustaqil ravishda nutqni egallab borish imkoniyati shuncha yuqori bo'ladi.

3. Eshitish qoldig'idan nutqni egallash uchun foydalanish imkoniyati bolaning eshitish nuqsonini baholash mezonini hisoblanadi. Shuning uchun ham total (to'liq) eshitishi yo'qolgan bolalar bilan eshitishi qisman buzilgan bolalarni chegaralashda aynan eshitish va nutqiy rivojlanish omillari hisobga olinadi.

Eshitish muammolari holatidagi nutqning rivojlanish darajasi va tavsifi qator sabablar bilan bog'liq bo'lib, R.M.Boskis 4 omilni ajratadi:

Eshitishning buzilish darajasi;

Eshitish muammosining kelib chiqish vaqti;

Eshitish muammosi yuzaga kelgandan so'ng bola uchun yaratilgan pedagogik sharoit;

Bolaning individual (yakka) xususiyatlari.

Yuqoridagi omillardan kelib chiqqan holda eshitish qoldiqlari bir xil bolalarning nutqiy rivojlanishlari turlicha ko'rinishga ega bo'lishi kuzatiladi. Ushbu mezonlarga tayangan holda R.M.Boskis har ikki guruhdagi eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni o'z navbatida yana ikkitadan guruhga bo'ladi:

Karlar: Tug'ma yoki erta kar bo'lib, nutqi bo'lmagan karlar. Kech kar bo'lib, nutqi saqlangan karlar.

Zaif eshituvchilar: Nutqida qisman chetga chiqishlari (nutqning grammatik tuzumida ba'zi chetga chiqishlari, ya'ni qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llash yoki tushurib qoldirish, ba'zan talaffuz muammolari) bo'lgan zaif eshituvchilar; chuqur nutqiy muammolari bo'lgan, ya'ni lug'at zaxirasi o'ta chegaralangan (nutqi qisqa, noto'liq so'zlardan, grammatik tuzumi so'z-gapdan, bo'g'in-so'zlar qatoridan iborat) zaif eshituvchilar.

Shunga ko'ra, R.M.Boskis va S.A.Zikov eshitmaydiganlar ta'lim-tarbiyasi ularning nuqsonlariga moslab emas, balki ushbu nuqsonni yengish yoki zaiflashtirishga qaratilgan sharoitlarni yaratishga yo'naltirilishini ta'kidlaydi (S.A.Zikov 1938-y, 1970-y.).

Eshitishda muammolari bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasida nutqni shakllantirish jarayoni muhim o'rin egallaydi. Tilning lug'at zaxirasi, uning grammatik qonuniyatlarini egallash, tilni muloqot vositasi sifatida o'zlashtirish ushbu toifa shaxslarining ijtimoiy hayotga uyg'unlashuvlari va shaxsiy hayotlarida o'z o'rinlarini topishlaridagi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Tashxis markazlariga bola maxsus surdologik tekshiruvdan o'tkazilib, yakuniy xulosa bilan keladi. Tashxis markazi xodimlari har bir bolaning surdologik xulosasiga binoan tibbiy-pedagogik-psixologik komissiyaga yo'llaydilar. TPPKda bola chuqur psixologik-pedagogik jihatdan o'rganiladi va shundan so'ng, yakuniy xulosa chiqarilib, eshitish imkoniyatiga baho beriladi hamda yakuniy tashxis qo'yilib, ta'lim turi belgilanadi. Quyida eshitishda muammolari bo'lgan bolalarni surdopedagogik tashxis qilish metodikasi beriladi.

Eshitish nuqsonini tashxis qilish

Eshitish nuqsonini tashxis qilishda quyidagi omillarni oydinlashtirish lozim:

- oila yoki qarindoshlarida eshitishda muammosi bo'lgan shaxslarning bor-yo'qligi;
- bolada eshitish pasayishining taxminiy sabablari (tug'ilish davriga qadar hamda tug'ilish vaqtidagi noqulay omillar, og'rikan kasalliklari);

- o'tkir yiringli yallig'lanishlar, onaning homiladorlik davridagi infeksiyon va virus kasalliklari (qizamiq, gripp, herpes, toksoplazmos, sitomegalovirus), giperbilivubinemiya, chaqaloqning gemolitik kasalligi, ototoksik vositalar (furosemid, aspirin, xininlarning bola yoki onaga xomiladorlik davrida tavsiya etilganligi)ning qo'llanilishi;

- bolalar bog'chasiga qatnagani yoki maktabda ta'lim olganligi hamda maxsus mashg'ulotlarning davomiyligi haqida ma'lumotlar;

- agar mavjud bo'lsa, so'nggi audiogramma bo'yicha eshitishning holati.

Bolada eshitishini yo'qotish davriga qadar egallagan nutqining holatini aniqlashda quyidagilarni inobatga olish lozim:

- nutqqa qadar bo'lgan vokalizatsiyalar (guvranish va b.);

- noaniq so'zlashning boshlanishi va tavsifi (guvranish boshlanib, to'xtab qolganligi, dastlab ravon, so'ng noaniq bo'lganligi, noma'lum);

- lug'at zaxirasida alohida so'zlar: ko'p, bir nechta.

Ushbu ma'lumotlar bola eshitishining yo'qolishi yoki pasayishi davrini aniqlashga imkon yaratishi mumkin.

Ekspressiv (faol) nutqni tekshirish

Bolaning atrofdagilar bilan muloqot qilish shakli (og'zaki, og'zaki-daktil, og'zaki-daktil-imo-ishora) tadqiq qilingandan so'ng:

- guvranishli nutq;

- tovush talaffuzi;

- alohida so'zlar;

- so'z birikmalari;

- gaplardan foydalanishi o'rganiladi.

Nutqning aniqligi: atrofdagilarga tushunariligi, qisman tushunariligi, tushunarsizligi aniqlanadi.

So'zlarni talaffuz qilish tavsifi

Tovushlarni talaffuz qilish holati o'z tarkibiga quyidagi asosiy bo'limlarni:

- tovush talaffuzi holatining alohida tekshirilishini (aynan qaysi tovush nuqsonli talaffuz qilinadi hamda nuqsonning tavsifi);

- talaffuz to'g'riligining bog'lanishli nutqda tekshirilishi;

- artikulyatsiya organlari tuzulishi yoki harakatidagi nuqsonlariga bog'liq bo'lgan tovush talaffuzi motor shakl buzilishlarining mavjudligi (dizartriya, dislaliya).

- ovozining tavsifi (past, me'yorda, baland, shovqin) oladi.

Lug'at zaxirasining hajmi, uning yosh va dastur talablariga muvofiqligi tekshiriladi.

Impressiv (passiv, ya'ni ichki) nutqni tekshirish

Bunda bolaning so'z, gap, matnlarni tushunishiga e'tibor beriladi.

Keyingi bosqichda quyidagilar o'rganiladi:

Bolaning eshitish apparati bilan ta'minlanganligi hamda undan foydalanishi. Eshitish apparatidan foydalanishdagi muammolarning mavjudligi. Bolaning eshitish apparatini taqqanda eshitishini tekshirish;

Bolani tonal audiometriya metodi orqali eshitishini tekshirishga tayyorlash (zaruratga ko'ra yoshi, psixomotor rivojlanish xususiyatlarini ko'rsatish).

Xulosa:

Tavsiyalar:

Eshitishni pedagogik tekshirish hamda bolani tonal o'yin audiometriya metodi orqali tekshirishga tayyorlash bo'yicha tavsiyalar:

1. Bunda, eng avvalo, bolaning tovush chiqarayotgan o'yinchoqlar ohangini idrok qilish layoqati (berilayotgan tovushlarning ketma-ketligi, childirma, nay, baraban ovozini idrok qilish);

2. Shivirlashni idrok etish layoqati;

3. So'zlashuv nutqi balandligidagi ovozni idrok etish layoqati;

4. Eshitish qoldig'ini aniqlashda baland ovozni idrok etish layoqati;

5. Uning:

- unli tovushlar:

- undosh tovushlarning unli tovushlar bilan idrok eta olish layoqati tekshiriladi.

Surdopedagogik tekshiruvni o'tkazish uchun tavsiya etiluvchi metodikalar ro'yxati:

1. Musiqiy o'yinchoqlar to'plami va rezina chiyildoqlar;

2. Tovush signaliga harakat reaksiyasini ishlab chiqish uchun o'yinchoqlar to'plami;

3. Asosiy va yordamchi so'zlar ro'yxatiga mos bo'lgan predmetga oid rasmlar (so'zlashuv nutqi mavjud bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun);

4. So'zlar ro'yxati (so'zlashuv nutqi mavjud bo'lgan bolalar uchun);

5. Holat, harakatlar aks ettirilgan rasmlar;
6. Yakka tartibdagi ovoz yozib olish apparaturasi.

Tekshirish shovqinsiz, tinchlik, osudalik sharoitida, tashqaridan izolyatsiyalangan xonada olib boriladi.

Bola tovushlarning tebranishi (vibratsiyasi)ni sezmasligi uchun oyog'i tagiga yumshoq mato tashlanadi. Uning qarshisida oyna yoki boshqa aks etuvchi predmet bo'lmasligi lozim.

Bolalarning bu muhit bilan notanishligiga reaksiya berishni kamaytirish kerak va u bilan tez muloqotga kirishish uchun tekshirish ota-ona yoki pedagog ishtirokida o'tkazilishi tavsiya qilinadi.

Bolaga eshitilgan tovushga qanday javob berishi tushuntiriladi (qo'lini ko'taradi, o'girilib qaraydi, audiometr tugmasini bosadi).

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanish ma'lumotnomasini tuzish.

Insoniyat sivilizatsiyasiga o'zining bebaho hissalarini qo'shgan buyuk mutaffakkirlarimiz – Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Abdulla Avloniy insonning shaxs sifatida shakllanishida, shuningdek, ijtimoiy hayotda munosib tarzda o'z o'rnini topishida uning ilk yosh davri muhim o'rin egallashini ta'kidlab o'tgan edilar. Qator tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda ham ana shu senzitiv – sipqorib oluvchi davrda inson umri davomida egallaydigan tushuncha, bilim, ko'nikma hamda malakalarning to'qson foizga yaqinini o'zlashtirishi o'z tasdig'ini topgani ma'lum.

Shu sababli so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim-tarbiya, shuningdek, maktabgacha va maktab ta'limining uzluksizligi masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Agar maxsus ta'lim yo'nalishida bu masalalarning yechimiga hududiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda endigina yondasha boshlanganini e'tiborga oladigan bo'lsak, ushbu masalaning dolzarbligi yanada yaqqol ayon bo'ladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktab-interantlari qoshida tashkil etiluvchi maktabgacha tarbiya guruhlarida olib boriluvchi ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarni har tomonlama kamol toptirish, maktab ta'limiga tayyorlash, eshitishning buzilishi oqibatida yuzaga keluvchi ikkilamchi muammolarini korreksiya va kompensatsiyalashdan iborat qilib belgilangan. Bunday murakkab vazifalarni amalga oshirishning asosiy omili so'zlashuv

nutqi hisoblanadi. Zero, bolaning nutqiy va umumiy rivojlanish jarayonlari uzviy bog‘liq bo‘lib, uning nutqiy rivojlanishi zaminida umumiy kamoloti masalalari hal etib boriladi. Shu sababli ham maxsus ta‘lim-tarbiya muammolarini hal qilishda bolalar so‘zlashuv nutqini fikrlash va muloqot qilish vositasi sifatida rejali ravishda rivojlantirish jarayoni markaziy o‘rinni egallaydi.

Maktabgacha tarbiya guruhleri ta‘lim dasturlarida barcha bo‘limlari bo‘yicha materiallar tarbiyalanuvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan muayyan bilim va malakalar bilan birgalikda, bolalarning turli faoliyati jarayonida muloqotda bo‘lish ehtiyojlarini hisobga olgan holda ular tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan nutqning barcha ko‘rinishlari: lug‘at boyligi, so‘zlar, so‘z birikmalar hamda matnlarni ham qamrab olgan. Ya‘ni, dasturda faqatgina mashg‘ulotlar bo‘yicha emas, balki kun tartibining boshqa vaqtlarida ham qo‘llanadigan nutq materiali belgilab berilgan.

Nutq ustidagi ishlar kengqamrovli bo‘lib, ilgari egallangan nutqiy malakalarga tayangan, asta-sekin murakkablashuv tamoyiliga asoslangan holda olib boriladi. Shu bois nutq rivojlantirish bo‘yicha olib boriluvchi ishlarning har bir yosh davri yakunida bolalarning so‘zlashuv nutqini egallashdagi yutuqlari hamda o‘ziga xosliklarining tahlili, bu boradagi maxsus ta‘lim metodlari yordamida bartaraf etilgan qiyinchiliklar, tilni egallash bo‘yicha olib boriluvchi ishlarning istiqboli hamda bolaning imkoniyatlariga mos keluvchi ta‘lim sharoitlari aniqlab borilishi muhim sanaladi. Ushbu ma‘lumotlar majmuasi nutqiy rivojlanish ma‘lumotnomasi deb nomlanadi hamda u eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar umumiy psixologik-pedagogik tavsifnomasining tarkibiy qismini tashkil etadi. Nutq barcha psixik jarayonlar rivojlanishining markazini, shaxsiy rivojlanishning asosini, hal qiluvchi yadrosini tashkil etishi sababli tavsifnomada eng ko‘p e‘tibor bolani muloqotning tabiiy bo‘lgan verbal vositalariga (so‘zli, so‘zlar vositasida bayon etilgan) jalb qilinishini tahlil qilishga qaratiladi. Bu bo‘lim uch banddan iborat bo‘lib, ularda nutq rivojlanishining muhim tomonlarini yoritib beruvchi qator savollarga javoblar aks ettirilgan bo‘lishi lozim.

Nutqiy layoqat (so‘zlashish layoqati)ning rivojlanish holati:

- Nutqiy xatti-harakatlarning umumiy tavsifi (muloqotga kirishuvchanligi, nutqqa qiziquvchanligi, diqqatining nutqiy

vositalarni eslab qolishga yo'naltirilganligi). Nutqiy faoliyat motivatsiyasi. Muloqot jarayonidagi nutqiy faollik;

- Ta'limning avvalida bolada nutqni egallashga oid qanday poydevor (zamin) mavjud bo'lgan (ovoz reaksiyalari, taqlid asosidagi artikulyatsiya, g'udurlash, so'z yoki jumallar konturi, alohida so'zlar, predmet yoki nutqiy harakatlarning kuzatilishi va muvofiqligi, elementar imo-ishoralar, so'zlovchining yuzi hamda imo-ishoralariga ko'ra harakat yoki yo'nalish olishi);

- Bolada nutqiy murojaatning qaysi usulini idrok etishi ustunlik qiladi (yuz orqali, qo'l orqali ko'rish asosida, eshitish-ko'rish asosida, eshitish asosida – ovozkuchaytirgich asbobi asosida yoki ushbu asbobdan foydalanmagan holda ("yalang'och quloq" asosida);

- Murojaat etilgan nutq qanday asosda tushuniladi (real holat asosida, predmet yoki tasviriy vositalar yordamida, ko'rsatuvchi yoki tasviriy imo-ishoralar asosida, boshqa bolalarga taqlid qilish asosida, tayanch nutq birliklari asosida);

- Bola nutqiy xatti-harakatlarni qaysi usul orqali amalga oshiradi (taqlid asosida, kattalar tomonidan bir necha bor namuna ko'rsatilishi asosida takrorlash, yozuvli kartochka (tablichka)ga tayangan holda, kattalar tomonidan esga solish asosida, mustaqil ravishda).

Nutqiy faoliyat turli ko'rinishlarining egallanganlik holati:

- Bola impressiv nutqning rivojlanish holati (nutq materialini so'zlovchining yuziga ko'ra, yozuvli kartochka (tablichka)dan (yaxlit yoki analitik), qo'l harakatlaridan: xatti-harakatlarga taqlid yoki daktillangan belgilardan, eshitish asosida, eshitish-ko'rish asosida idrok etish);

- Bola tomonidan ekspressiv nutqni egallab borish holati (dinamikasi) (so'zlash: tovush talaffuzi, uyg'unlik, ritmik tuzilishi, intonatsiya qilish, nutq ravonligi; yozuv: harflarni bilish va ularni tanish so'zlarda topib aytish, so'z yoki jumalarni yozishdagi yo'nalish, namunaga ko'ra yoki mustaqil ravishda bosma harflar bilan yozish; daktillash: barmoq harakatlarini bajarishdagi aniqlik, daktillash tezligi; kesma alifbodan tanish so'zlarni tuzish, og'zaki talaffuz o'rniga zaruriy kartochka (tablichka)ni tanlay olishi).

So'zlashuv nutqining tizimli tuzumini o'zlashtirish holati:

- Dastur talablariga muvofiq holda ta'limning ma'lum bir davrida egallangan lug'aviy (leksik) yoki jumlati materialning hajmi (faol va nofaol lug'atidagi nutqiy vositalarning taxminiy miqdori);

- Tayyor holda berilgan jumlar yoki o'zlashtirilgan modellar asosida tuzilgan jumalarning nisbatining tavsifi (o'zaro bog'liqlik shakli nuqtayi nazardan ularning struktur tavsifi; yoyiqligi (gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarining mavjudligi); ularning semantik xilma-xilligi, ularning kundalik turmush sharoitida qo'llanish tavsifi; mantiqiy tuzumlar: savol, xabar, undash, inkorlarning o'rinli qo'llanishi);

- Bolaning nutqida so'zlarning lug'aviy (leksik) ma'nosi va fikr bildirishlar ma'noli mazmunlarining bosqichli rivojlanishi kuzatiladimi (ma'nolarning rivojlanishi umumlashmalarning shakllanishi hisobiga ro'y beradimi yoki til tizimidagi bog'liqlar asosida ro'y beradimi?).

Nutqiy yutuq va imkoniyatlarining baholanishi tarbiyalanuvchining har bir yosh davri uchun eshitish muammosining sodir bo'lish vaqti, sababi va darajasini, oila sharoitida so'zlashuv nutqini shakllantirish hamda surdopedagogik yordamni tashkil etish metodlaridan foydalanishni, shuningdek, ta'limning aniq (real) muddatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Bolaning nutqiy ko'nikmalari haqidagi tavsifnoma guruh pedagogi tomonidan tuziladi. Unda, shuningdek, bolaning nutqiy yutuqlarini kuzatib borishda ishtirok etgan tarbiyachilar, psixolog, otionalardan olingan ma'lumotlar, bolaning nutqiy faoliyatga jalb qilish uchun qulay bo'lgan dalillar, barcha ijobiy hamda ta'limning aniq natijalariga olib keluvchi yo'l va vositalar o'z aksini topishi zarur sanaladi.

Yuqorida ko'rsatilgan tartib asosida tuzilgan nutqiy rivojlanish ma'lumotnomasi maktabga tayyorgarlikning nihoyasida bolaning psixologik-pedagogik tavsifnomasiga kiritilib, tarbiyalanuvchining shaxsiy hujjatlari bilan maktabga taqdim etilishi lozim.

Savol va topshiriqlar:

1. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning asosiy rivojlanish qonuniyatlarini izohlang.

2. Karlik tufayli bolada qanday ikkilamchi nuqsonlar vujudga keladi?

3. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar dastlab nutqni bevosita emas balki, maxsus tashkillashtirilgan sharoitda alohida vositalar orqali qanday muloqot vositasi sifatida egallaydi?

4. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning imkoniyatini rivojlantiruvchi ta'sir va muhit qanchalik o'z vaqtida va izchillik bilan amalga oshirilsa qanday natija beradi?

5. Pedagogik tasniflash tushunchasi nimani anglatadi?

6. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik tasnif ahamiyati?

7. Pedagogik tasniflashda biologik va ijtimoiy omillarning bog'liqligini ko'rsating.

8. L.V.Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilish diapazoniga asoslanib, karlarni necha guruhga ajratadi?

9. M.Boskis nutqiy rivojlanish darajasining qaysi omillar bilan aloqadorligini ko'rsatib o'tgan?

10. Eshitish nuqsonini tashxis qilishda qaysi omillarni oydinlashtirish lozim?

Tayanch tushunchalar:

Pedagogik tasnif - eshitish qobiliyatining pasayishiga ko'ra bolalarni guruhlariga jamlash.

Audiometriya – audiometr yordamida turli chastotali tovushlarni idrok etish chegarasini aniqlash orqali eshitish o'tkirligi va holatini tekshirish yordamida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning eshitish darajasi aniqlanadi.

Kompensatsiya – ta'lim-tarbiya jarayonida sog'lom sezgi a'zolariga tayanish yoki qisman buzilgan funksiyalarni qayta qurish orqali me'yordan chiqqan analizator o'rnini to'ldirish (qoplash).

Korreksiyalash – aqliy yoki jismoniy, nutqiy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning psixik va jismoniy taraqqiyotidagi me'yordan chetga chiqishlarni pedagogik usul va chora-tadbirlar yordamida qisman yoki butunlay bartaraf etish.

Audiometriya – audiometr yordamida turli chastotali tovushlarni idrok etish chegarasini aniqlash orqali eshitish o'tkirligi va holatini tekshirish yordamida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning eshitish darajasi aniqlanadi.

Gers (Gs) – tebranishlar chastotasini o'lchash uchun qabul qilingan xalqaro atama. Nemis olimi Genrix Gers nomiga atalgan. Tovush to'lqinlari, radioto'lqinlar, elektr toki tebranishlarining chastotalarini o'lchash uchun qo'llanadi. Sekundiga bir marotabalik tebranishga teng.

Desibel (Db) – tovush kuchi (jadalligi)ning o'lchov birligi bo'lib, karlik va zaif eshituvchilik o'rtasidagi eshitish chegaralarini aniqlashda foydalaniladi.

Ruhiy rivojlanish – bu ruhiy jarayonlarning ma'lum qonuniyatlarga mos ravishda rivojlanishi bo'lib, u davriy munosabatlar biln chambarchas bog'liqdir.

Kompensatsiya – ta'lim-tarbiya jarayonida sog'lom sezgi a'zolariga tayanish yoki qisman buzilgan funksiyalarni qayta qurish orqali me'yordan chiqqan analizator o'rnini to'ldirish (qoplash).

II BO' LIM. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO' LGAN BOLALAR TA' LIMINING TASHKIL ETILISHI

I BOB. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO' LGAN BOLALAR TA' LIM-TARBIYASI MAZMUNI, TASHKIL ETILISHI

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim muassasalari tarmog'i

✓ Mamlakatimizda eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar uchun samarali uzluksiz ta'lim tizimi yaratilgan bo'lib, bu tizim kar va zaif eshituvchi shaxslarning ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasining zaruriy sharti hisoblangan birlamchi muammo oqibatlarini bartaraf etishga hamda jamiyatning barcha sog'lom a'zolari bilan teng darajada ma'lumot olishiga imkoniyat beradi.

Hozirgi bosqichda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga hayotining ilk paytlaridan (eshitishi pasayganligi aniqlangan vaqtdan) boshlab psixologik-tibbiy-pedagogik korreksiya yordami ko'rsatib kelinmoqda. Maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida hamda sog'lom bolalar bilan teng holda umumiy maktabgacha ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan sharoitlarda ta'lim olish, shuningdek, eshitishni qayta tiklash va rehabilitatsiya (surdologik) markazlarida qisqa vaqtli guruhlarda konsultativ yordam olish imkoniyatlari yaratilgan.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga hayotining dastlabki oylaridan boshlab yordam berish tizimining rivojlanishi maktab yoshidagi yaxshi tayyorgarlikka ega zaif eshituvchi va eshitmaydigan bolalar qismiga umumiy tipdagi umumta'lim maktablarida o'qishga imkon beradi. Tug'ma yoki orttirilgan (nutqgacha davrda) kar bo'lgan o'quvchilarning asosiy qismi kar bolalar uchun maxsus (korreksion) ta'lim muassasalarida ta'lim oladilar, bunda ularning eshitadiganlar bilan teng ma'lumot olish huquqlari amalga oshiriladi.

Maxsus maktablardagi ta'lim jarayonida ta'limning korreksion yo'nalishi ta'minlanadi. Korreksion-tiklash ishi barcha pedagogik jarayonni qamrab oladi va maxsus ravishda tashkil qilingan, elektr akustika apparaturasidan keng foydalanishni ko'zda tutadigan, eshitish-nutq muhiti sharoitida amalga oshiriladi.

Maxsus ta'lim jarayonida shaxsiy-faoliyatli yondashuv asosiy hisoblanadi.

O'quvchilarning og'zaki nutqini, ularning eshitish idrokini intensiv rivojlantirish sharoitlarida shakllantirishga jiddiy ahamiyat beriladi.

Bu yo'nalishdagi ta'limning kelgusidagi tabaqalashtirilishiga misol sifatida nuqsonning murakkab strukturasi (karlik + RRS, ko'rish, aqli zaif nuqsonlari) bo'lgan bolalar uchun ta'limning yangi modeli misol bo'la oladi. Bu holda maktabda alohida ijtimoiy madaniy pedagogik muhit yaratilgan bo'lishi lozim. Ta'limning boshlanishida tibbiy – psixologik – pedagogik konsilium o'tkaziladi, unda har bir o'quvchi uchun sog'lomlashtirish, ta'lim berish, psixologik korreksiya, pedagogik qo'llab-quvvatlash dasturlari tanlanadi. Maktabda tabaqalashtirilgan o'quv dasturlarining har xil turlari yaratiladi, bu dasturlar bazaviy ta'lim – asosiy umumiy ta'lim hajmida ham va RRSli kar bolalar sinflarida, yordamchi sinflarda, uyda o'qitish uchun kompleks turida ham yaratiladi.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilar o'rta maktabni bitirgandan keyin asosiy maktab fanlari bo'yicha imtihonlar topshiradilar. Shunday qilib, yagona ta'lim muhitini shakllantiriladi – go'dak yoshidan boshlab yasli, maktabgacha, o'quvchilar, boshlang'ich va asosiy umumiy ta'lim ta'minlanadi hamda eshitmaydigan yoshlarning kelgusida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, so'ngra esa oliy o'quv yurtlarining ta'lim markazlarida o'qishlari imkoniyati yaratiladi.

So'ngi yillarda karlarning umumiy o'rta ta'lim oliy texnika va gumanitar ta'lim tizimi shakllanishiga asos solinmoqda.

Karlar oliy kasbiy ta'limi bo'yicha yaratilgan modelning yetakchi tamoyili-insonparvarlik yo'nalishidan iborat bo'lnazarda tutilmoqda.

Insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning tizim hosil qiluvchi omili har bir, shu jumladan eshitishida muammosi bor odamning o'z qobiliyatlari, o'zining potensial imkoniyatlarini ochish va namoyon qilish huquqi hisoblanadi. Insonparvarlashtirishning eng jiddiy aspekti talabalarning umumiy madaniy, ma'naviy rivojlanishi, ularning umuminsoniy qadriyatlar olamida keng yo'naltirilishi hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlarida eshitishida muammosi bor shaxslar ta'limi jarayonida ta'lim dasturlarini fundamentallashtirish tamoyili amalga oshiriladi, bu esa zarur hollarda mutaxassislarni qaytadan moslashtirishni, ularning hozirgi jamiyatdagi mehnat sharoitlari

o'zgarishlariga tez munosabat bildirishlarini ta'minlaydi. Bu esa imkoniyati cheklangan shaxslar uchun alohida ahamiyatga ega.

Eshitishida muammosi bor shaxslar oliy ta'limi asoslarini ishlab chiqishda tizimli-modulli yondashuv amalga oshiriladi, bunda ta'lim spiralsimon yo'nalish bo'yicha olib boriladi va ilgarigi modullardagi bilimlarni keyingilarini o'rganishga mos ravishda joriy qilish, bo'lajak mutaxassisning o'quv, ilmiy, kasbiy faoliyatining integrativ o'zaro bog'liqligini aks ettirish imkoniyatini beradi.

Eshitishida muammosi bor shaxslar ta'limida o'quv reja quyidagi bloklarni o'z ichiga oladi: umumta'lim-gumanitar va kasbiyning o'zi, bu esa, masalan, tibbiy, psixologik-pedagogik, maxsus pedagogik va metodik fanlardan tarkib topgan. Fundamental umummadaniy va kasbiy tayyorgarlik har xil qo'shimcha mutaxassisliklar va ixtisoslashuvlarni (maxsus psixologiya, ijtimoiy ish, oilaviy tarbiya va b.) olish imkoniyatlari bilan qo'shib olib boriladi. Universitet talabalari fundamental umumkasbiy va maxsus – kasbiy bilimlarni oladilar, bu oliy o'quv yurti ta'limi standartining zamonaviy umumiy tendensiyalariga mos keladi.

Shu bilan birga eshitishida muammosi bor shaxslarni tayyorlash tizimiga eshitish - nutq reabilitatsiyasi bo'yicha maxsus mashg'ulotlar ham kiritiladi.

Ta'lim jarayonida eshitishida muammosi bor talabalar rivojlanishining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi, bu mustaqil rivojlanish uchun sharoitlar yaratishni hamda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Rivojlangan davlatlarda eshitmaydigan talabalardan mutaxassislar tayyorlash tajribasi ko'rsatadiki, faoliyatning muvaffaqiyatlilikligi ko'p jihatdan faqat bilimlarning yuqori darajasi, bilim olish va faoliyatning unumli metodlarini egallaganlik bilan emas, kasbiy ishga kompleks tayyorgarlik bilan ham belgilanadi.

Eshitishida muammosi bor shaxslarning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati faqatgina o'qish va o'rganishning yuqori darajadali bilan emas, balki ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik, maxsus texnologik axborot (moslashtiruvchi va kompensatsiyalovchi) va muloqot madaniyati bilan ham belgilanadi. Ta'limda eshitishida muammosi bor shaxslarning hayotiy makoni to'siqlarsiz shakllanishiga (imkoniyat darajasida) va atrofdagi normal eshituvchilarni eshitmovchilar bilan

kasbiy va ijtimoiy sohalarda faol sheriklik munosabatlariga tayyorlashga katta e'tibor qaratiladi.

Hozirgi jamiyat nogironligi bo'lgan shaxslarni, shu jumladan eshitishida muammosi bo'lgan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydi, bu esa ularning har biriga ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, hayot yo'llarini ongli tanlashlari imkoniyatini beradi.

Ilk yoshdagi kar va zaif eshituvchi bolalar bilan korreksion-rivojlantirish ishlarining tashkil etilishi.

Hozirda eshitish nuqsonlarini ilk aniqlash va eshitishni erta tiklash (protezlash) sharoitlarida kar va zaif eshituvchi bolalarda korreksion ish ilk yoshdan boshlanadi (YE.I.Isenina, T.V.Pelinskaya, N.D.Shmatko va b.). Eshitish qoldig'idan foydalanish eshitishida muammosi bor ilk yoshdagi bolaning psixologik rivojlanishida jiddiy rol o'ynaydi. U ovozlar olamiga qancha ilgari kirsam, uning bilish faoliyati shakllanishi jarayoni shunchalik tabiiy yo'l bilan boradi. U bilan maxsus ishlarni olib borish jarayonida unda nonutqiy eshitish shakllanadi. Rivojlantiruvchi eshitish idroki eshitishida muammosi bor bolada talaffuz hosil bo'lishi jarayonini, normal eshituvchi bolalarda bo'ladigandek, yaqinlashtirishga imkon beradi.

Bir yoshgacha bolalar bilan korreksion mashg'ulotlarni surdologiya kabineti o'qituvchi-defektologi, eshitishida muammosi bor bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi yoki bir yoshga to'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan reabilitatsiya markazi surdopedagogi rahbarligida ota-onalar olib boradilar. Bundan tashqari, reabilitatsiya markazining o'zida surdologiya kabineti pedagogi bilan tizimli mashg'ulotlar tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Korreksion mashg'ulotlarning erta boshlanishi bolaning eshitish idrokini uning eshitish analizatorining jismoniy yetilishi ro'y beradigan yosh davrida rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Analizatorlarning, shu jumladan eshitish, rivojlanishi faqat tashqi dunyodan axborot muntazam kelib turgan sharoitdagina mumkin. Eshitishda nuqson bo'lganda, eshitish analizatori ishlay boshlashi va rivojlanishi uchun shaxsiy eshitish apparatlaridan doimiy foydalanilgan sharoitda intensiv pedagogik ta'sir zarur.

Kar yoki zaif eshituvchi go'dak bilan uni parvarishlash jarayonida faqatgina to'g'ri munosabatda bo'lish, uning faoliyatini tashkil qilish, tarbiyalash bo'yicha tavsiyalarni bajarish emas, balki uning og'zaki

nutqini shakllantirish bo'yicha maxsus ish olib borish ham talab qilinadi.

Bularning hammasi bola unga aytilayotgan nutqni eshita oladigan sharoitlar yaratishni talab qiladi. Bunga ayrim hollarda gapiruvchining bola qulog'iga oddiy yaqinlashuvi bilan erishiladi, ammo eshitishni protezlashni sifatli amalga oshirish zarur.

Eshitishni protezlash vrach-surdolog tomonidan otiotrik va audiologik tekshiruvlar natijalari asosida amalga oshiriladi. Bir yoshgacha bolalarni quloq orqasiga o'rnatiladigan tipdagi ikkita apparatlar bilan protezlash maqsadga muvofiq.

Apparatning tipi vrach-surdolog tomonidan tanlanadi. Apparatni ishlatishning individual rejimi o'qituvchi-defektolog tomonidan korreksion mashg'ulotlar jarayonida aniqlanadi.

Apparatning rejimi tanlangan vaqtdan boshlab, bolani undan butun kun davomida foydalanishga o'rgatish kerak. Apparatlarni ertalab yuvinib bo'lgan zahoti taqiladi va faqat uyquga yotish yoki cho'milish oldidan olinadi. Apparatlar bilan sayr qilishning ahamiyati katta, chunki ko'chada go'dak qulog'iga eshitiladigan ovozlarning ko'p bo'ladi. Bola bezovtalansa, apparatni olib qo'yishga intilsa, bunday bezovtalikning sababini aniqlash lozim. Bolaning apparatga ko'nikish davri, odatda, bir haftaga yaqin davom etadi.

Korreksion ishni o'z vaqtida boshlash va uni tizimli hamda to'g'ri olib borish, bolalarning bir qismi, og'ir eshitmasligi yoki hattoki karligiga qaramasdan, 3-5 yillardayoq keng iborali, eshinishi normalga yaqin bo'lgan nutqni egallalashlariga; ularning faqat umumiy darajasi emas, nutqiy rivojlanishi ham shu yoshdagi eshitadigan bolalardagiga yaqinlashuviga olib keladi.

Qoldiq eshitishni rivojlantirish bo'yicha ishning mazmuni va metodikasi, bola bilan mashg'ulotlarni qaysi yoshdan boshlanganiga bog'liq.

1-3 oylik bolada eshitish va ko'rishni yo'naltirish rivojlanadi. Korreksion ishni olib borishda go'dakni har xil ko'rish, eshitish va sezish taassurotlari bilan ta'minlash zarur. Bola u bilan gaplashayotgan katta yoshdagi odamning yuziga tikilib qarashni, rangli va yaltiroq o'yinchoqlarga qarab turishni, harakatlanayotgan predmetlarni kuzatishni o'rganadi. Unda turli ovozlarga: nutq, ashula, o'yinchoqlarning jaranglashi va shu kabilarga quloq solish qobiliyati rivojlanadi. Shu maqsadda katta yoshdagilar go'dak bilan erkalatib

gaplashadilar, uning ismini aytib chaqiradilar, biroz vaqt u bilan o'z yuzlariga e'tiborini tortgan holda, suhbatlashadilar.

2-3 oylikdan boshlab, bola tinch holatda o'zi ovoz chiqara boshlaganda, katta yoshdagi uning ovozi takrorlash bilan, uni taqlid qilishga undaydi. Bunda faqatgina bola o'zlashtirgan tovushlarni taklif qilmasdan, boshqa yangi, turli intonatsiya ritmi bilan talaffuz qilinadigan tovushlarni ham taklif qilish lozim.

Eshitishni yo'naltirishni shakllantirishda ovozdan tashqari, bola qulog'iga eshitiladigan ovozlar chiqaruvchi o'yinchoqlardan foydalaniladi. Uni o'yinchoq ovoz chiqarayotgan vaqtda unga ko'z bilan qarashga o'rgatiladi. Ba'zan bolani tovush qaysi tomondan kelayotganini bilishga undaladi.

3-6 oylik zaif eshituvchi bolaga ta'sir o'tkazishning asosiy usuli uni har turli eshitish, ko'rish, sezish taassurotlari bilan ta'minlash hisoblanadi. Eshitishga eng asosiy ta'sir katta yoshdagi odamning nutqi hisoblanadi. Bola bilan nutqiy muloqot u uxlamayotgan faol vaqtining hammasida analga oshiriladi. Katta yoshdagilar go'dak bilan, uni qo'llariga olib turli intonatsiyalarda gaplashadilar, unga oddiy, lekin ritmi va tempi bo'yicha har turli ashulachalarni, u bilan birga ovoz taktiga mos harakatlangan holda, aytib beradilar.

Bu bosqichda eshitish funksiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlarni o'tkazishni boshlaydilar. Bularga turli yo'nalishlarda va muntazam uzoqlashib boradigan masofalarda joylashgan ovoz manbalari joylashgan joyni aniqlay olishni rivojlantiruvchi mashqlar kiradi.

O'yinchoqlar jaranglashini farqlay olish qobiliyatini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Go'dakni predmetlardan biri jaranglayotgan vaqtda o'ng tomonga va boshqasi jaranglayotgan vaqtda chap tomonga qarashga undaladi. Natijada ovozga va uning yo'nalishiga nisbatan shartli farqlovchi refleks hosil qilinadi. Jaranglash uning manbayi bilan bog'liqligi qanchalik mustahkam ekanligini tekshirib ko'rish uchun, 1-2 marta ovozni boshqa tomondan eshittirish mumkin. Agar bola ilgari gidek ovoz doim kelgan tomonga boshini bursada, bu farqlovchi refleks hosil qilinganligini va go'dak ovozlarni farqlayotganligini bildiradi.

Birinchi yilning 2-yarmi eshitadigan bola passiv idrok qilishdan katta yoshdagilar bilan faol hamkorlikka o'tishi bilan xarakterlanadi. U bilan hamkorlikdagi faoliyat jarayonida, turli predmetlar bilan

harakatlarni ham nazarda tutgan holda, oddiy soʻzlarni tushuna boshlaydi.

Bola tomonidan soʻz yaxlit vaziyatning komponenti, uning ajralmas qismini tashkil qiluvchi sifatida idrok etiladi.

Maxsus ishning boshlanish vaqti yakka tartibda nutqni tushunish shakllanishiga muvofiq belgilanadi. Bolada soʻzga farqlovchi refleksi hosil boʻlishi va u doimiy joyida turgan predmet tomoniga boshini buradigan boʻlishi bilan faqat eshitish orqali idrok qilinadigan soʻzlarni farqlashga oʻrgatish boʻyicha ishni boshlash lozim.

Eshitish idroki koʻnikmalarini shakllantirish boʻyicha mashqlarni nutqni rivojlantirish mashgʻulotlari jarayonida olib boriladi. Bu bosqichda, goʻdak onasining “Qani vov-vov?” savoliga nomi aytilgan predmet tomonga qarab boshini burganida, unga faqat eshitishi asosidagi ovozga taqlid qilishni maxsus undash kerak. Soʻngra goʻdak nomi aytilgan predmet tomonga boshini ishonch bilan buradigan boʻlganida, uni boshqa oʻyinchoqning nomini ham xuddi shunday eshitishga oʻrgatishni boshlash lozim. Shunday qilib, bolani faqat eshitish asosida ikkita ovozga taqlidni idrok qilishga ketma-ket oʻrgatiladi. Keyin ularni faqat eshitish orqali farqlash qobiliyati shakllantiriladi. Undan keyin katta yoshdagi odam soʻragan u yoki bu oʻyinchoqni olib berishga oʻrgatiladi.

Birinchi yilning oxirida bolada maʼlum 5-10 nutq birligi: ovozga taqlid qilish va oʻyinchoqlarning nomini gu-gulab aytishdan iborat eshitish lugʻati toʻplanadi.

Ikkinchi-yil eshitadigan bolaning psixik hayotida nutq alohida oʻrin tuta boshlaydi.

Korreksion ish mazmuni murakkablashadi: eshitish lugʻati kengayadi, bolaning faol ishtirokini nazarda tutadigan faoliyat turlari kiritiladi.

Eshitish lugʻatini kengaytirish toʻliq soʻzlarni - oʻyinchoqlar, real predmetlar, harakatlar nomlarini kiritish hisobiga amalga oshadi. Ovozga taqlid qilish asta-sekin tegishli toʻliq soʻzlar bilan almasha boshlaydi.

Ikkinchi yilning oxirida eshitish lugʻatiga ikkita soʻzli iboralar: “Qoʻgʻirchoq (ni-ni)ni ber”, “Miyov uxlayapti (ux-ux qilayapti)” va boshqalar kiradi.

Shunday qilib, eshitib idrok qilinadigan nutq birliklari soni asta-sekin o'sa boshlaydi. Shuningdek, mikrofondacha, apparatgacha yoki bolaning qulog'igacha masofa ham uzaytirib boriladi.

Nutq materialini eshitib farqlash bo'yicha mashqlarni o'tkazishda bolaning faoliyati emotsional jihatdan rang-barang bo'lishi lozim. Bolaga u yoki bu predmetni, o'yinchoqni katta yoshdagi odamning yo'riqnoma bo'yicha tanlab olish vazifasi beriladigan vaziyat hosil qilinadi. Yo'riqnoma eshittirish-ko'rsatishni ko'zda tutadi, ayrim hollarda tabiiy imo-ishora bilan ko'rsatiladi, va faqat so'zni, ya'ni eshinishni mashq qildirish materialini, doimo eshinish uchun talaffuz qilinadi. Materialni eshitib farqlash avval o'yin jarayonida, keyin o'yinchoqlarni yig'ishtirishda amalga oshiriladi. Ikkinchi yilning oxirida pedagog nutq materialini farqlash bo'yicha stolda ko'rgazmali material sifatida faqat o'yinchoqlar va real predmetlarni emas, balki ularning tasvirlaridan ham foydalangan holda ishlashni boshlaydi.

Bola faoliyatini shunday tashkil qilish kerakki, uning qiziqishi so'nib qolmasin.

Eshitish lug'ati 4-5 so'zga yetgandan keyin nutq materialini tanib olish, ya'ni tanish so'zlarni faqat eshinish bilan, ko'rgazmali namunaga tayanmagan holda bilib olish qobiliyatini shakllantirish bo'yicha ish boshlanadi.

Bu turdagi ishni tashkil qilishda bola taklif qilinayotgan vaziyatga muvofiq harakat qilishi jiddiy ahamiyatga ega. Bolaning faol nutqi shakllanib borishi bilan undan o'yinchoqlarning nomini albatta aytish talab qilinadi. Asta-sekin mashqlarda ilgari eshinish mashqiga kiritilmagan so'zlardan foydalaniladi. Ammo bu mashqlar hozircha tizimli xarakterga ega bo'lmaydi. Keyinchalik bolaning eshinish lug'ati kengayadi, unga bolaning nutqi rivojlanishi davomida o'zlashtiradigan yangidan-yangi so'zlar, so'z birikmalari va iboralar kirib keladi. Bunda bola nutqni eshitadigan masofani uzaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Tanlab olish uchun 4 - 5 tagacha oshirilgan sondagi so'zlardan taklif qilinadi.

Bu ishni olib borishda asosiy metodik usul sifatida eshitalayotgan so'zning ma'lum predmetga tegishlilikini bilishni o'rgatish hisoblanadi. Ma'lum so'zning eshinishi u yoki bu o'yinchoq bilan bog'lanadi, masalan, baraban ovozi doimo quyonning paydo bo'lishi bilan, surnay ovozi qo'g'irchoqning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda eshittiriladi va sh.k. Bola eshitalayotgan ovozga muvofiq bo'lgan

o'yinchoqmi tanlashi kerak. Uni so'zni og'zaki aytishga undash (bu so'zning fonetik jihatlari go'dakning talaffuz qilish ko'nikmalariga mos bo'lishi zarur) shart hisoblanadi. M.D.Shmatko va T.V.Pelinskayalar taklif qilgan ish tizimi korreksion mashg'ulotlar hayotining birinchi yarmidan boshlab olib borilgan bolalarga mo'ljallangan. Mashg'ulotlarni 6-12 oylardan boshlangan hollarda ular yosh xususiyatlariga muvofiq tashkil qilinadi, bunda 1 yoshlik bolalar bilan ishlashning alohida usullaridan, lekin, bu holda bolaning katta yoshdagi odam bilan hamkorlik faoliyatida faol ishtiroki darajasi sezilarli yuqori ekanligini hisobga olgan holda foydalaniladi.

Agar bola bilan korreksion mashg'ulotlar ikkinchi-yil davomida boshlansa, ularning mazmuni va o'tkazish metodikasi go'dakning o'sgan imkoniyatlariga muvofiq ravishda o'zgartiriladi. Birinchi navbatda uni qulog'iga eshitilayotgan ovozlarni eshitishga o'rgatiladi. Bolani har xil maishiy shovqinlar: eshik taqillashi, maishiy texnika ishlayotgandagi shovqin, tushib ketgan predmetning zarbasi, transport shovqini va signallari va shu kabilarga e'tibor qaratishga o'rgatiladi. Bu ish maxsus mashg'ulotlarni talab qiladi, u butun kun davomida olib boriladi. Bolaning reaksiyalarini diqqat bilan kuzatish jiddiy ahamiyatga ega. Shaxsiy eshitish apparatida u ko'plab ovozlarni eshitadi. Bola eshitayotib tang qoladi, ko'zlarini pipiratadi, kamroq hollarda esa ovoz manbayini topishga harakat qiladi. Katta yoshdagilarning vazifasi nima ovoz chiqarayotganini go'dakka doimo ko'rsatishdan iborat. Idrok etish mumkin ovozlarni qiziqarli va ahamiyatga ega qilish lozim. Lekin bu kamlik qiladi. Bolani nonutqiy ovozlardan aniq maqsadli tanishtirish zarur.

Bolani uning qulog'iga eshitiladigan ovozlarga quloq solishga o'rgatish uchun go'dakda ovozga nisbatan shartli harakat reaksiyasini hosil qilish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bunday reaksiya yordamida uning eshitishi ahvolini aniqlash mumkin bo'ladi.

Bola 1 yosh 4 oylik – 1 yosh 6 oylik bo'lganda, uni katta yoshdagi odamning signali bo'yicha biron-bir harakatni: to'pni dumalatish, parovozni g'ildiratish va shu kabilarga o'rgatish kerak. Katta yoshdagining signali bolaga ko'rinadigan bo'lishi lozim. Ikki nafar katta yoshdagilar ishtirok etgani maqsadga muvofiq: birinchisi go'dakdan 1-2 metr masofada signal beradi, ikkinchisi bola bilan birgalikda harakat qiladi. Bayroqchani silkitganda bola katta yoshdagiga to'pni dumalatadi. U signalni kutishi, ungacha harakatni

boshlamasligi zarur. Mashqlar qiziqarli bo'lishi uchun signal bo'yicha bajariladigan harakatlarni almashtirib turish kerak: masalan, 2-3 kun go'dak to'pni dumalatadi, undan keyin mashina, parovozni g'ildiratadi. Bola bilan rollarni almashish mumkin. U o'yinga o'rganganidan keyin, u bilan rollarni almashish va ko'rinadigan harakatli nutq signaliga reaksiyasini hosil qilishga o'tish maqsadga muvofiq.

Buning uchun katta yoshdagi odam go'dak bilan bir stol atrofida unga qarama-qarshi tomonda o'tirib, qo'llarini stolga qo'yadi, ularning oldiga esa kattakon tugmachani qo'yadi. U bolaning diqqatini o'zining lablariga qaratib, gaplashish balandligidagi ovoz bilan "ta-ta-ta-ta", "tu-tu-tu-tu" turidagi ovozlarni talaffuz qiladi. Talaffuz qilishni boshlash vaqtida u go'dakning qo'li bilan tugmachani oladi va uni bankachaga tashlaydi. Bu mashqni bola uni o'zi, aytib berishlarsiz, bajaradigan bo'lgunicha o'tkaziladi. Bunga odatda 8-10 ta mashg'ulot talab qilinadi. Unlilar orasidagi pauzalarning cho'ziqligini, bola signallarning berilish ritmiga emas, balki ovozga e'tibor berishi uchun, doimo o'zgartirib turish kerak.

Bola vazifani yaxshi bajara boshlaganda, katta yoshda odam u bilan yonma-yon o'tirib, gaplashish balandligidagi ovoz bilan bo'g'inlarni uning qulog'i oldida talaffuz qiladi. Go'dak ovoz chiqarilayotgandagi havo oqimini his qiladi va tugmachani bankachaga tashlaydi. Bunga 1-2 ta mashg'ulot talab qilinadi.

Oxirida katta yoshdagi odam ishning asosiy qismiga kirishadi: u bolaning gaplashish balandligidagi ovozni eshitayotganligini va qancha masofadanligini aniqlashi kerak. Buning uchun o'sha mashqning o'zini, lekin havo oqimini bekitadigan ekrandan foydalangan holda, bajariladi. Go'dak qulog'i chig'anog'i oldida (ekran bilan) gaplashish balandligidagi ovoz bilan talaffuz qilinayotgan bo'g'inlarning eshutilishiga e'tibor qaratishni o'rganganidan keyin, bolaning qulog'idan masofani asta-sekin 5, 10, 20, 50 sm. va shu kabi oshirib borish lozim. Agar bola gaplashish balandligidagi ovozga 1 metr va undan ortiq masofadan e'tibor qaratsa, u shivirlashni eshitadimi, yo'qmi ekanligini avval quloq chig'anog'i oldida, keyin uzoqdan tekshirib ko'rish kerak. Bu ish yuqorida bayon qilinganga o'xshagan holda amalga oshiriladi.

Go'dakda nutqiy signalga shartli harakat reaksiyasi hosil qilish bo'yicha ish bilan bir vaqtda, go'dakni o'yinchoqlarning jaranglashini

idrok qilishga o'rgatiladi. O'rgatishni hamma bolalar uchun mos bo'lgan baraban ovozidan boshlanadi. Katta yoshdagi odam boladan baraban chalinayotgan vaqtda u yoki bu harakatni bajarishni so'raydi - bola avval katta yoshdagi odam qanday chalayotganligini ko'radi, shundan keyingina uning orqasida 0,5 metr masofada chalinadigan baraban ovozini eshitadi.

Ovozga shartli-harakatli reaksiyani hosil qilish bo'yicha mashqlar har kuni 3-5 minutdan o'tkaziladi. Bu mashqlar uchun materialni muntazam almashtirib turiladi.

Hosil qilingan ovozga shartli-harakatli reaksiya vrach-surdolog uchun shaxsiy eshinish apparatini ishlatish rejimini tanlash imkoniyatini beradi. Eshinish apparatining ishlash rejimini bir-yil 2-3 marta aniqlanadi.

Ovozga shartli-harakatli reaksiyani hosil qilish bilan bir vaqtda bolani nutqiy materialni eshinish orqali farqlashga o'rgatiladi.

Ovoz taqlidlarini eshinish orqali farqlashga o'rgatishda katta yoshdagi odam ichidagi narsa ko'rinmaydigan qopchaga 3-5 ta o'yinchoq kuchukcha va otlarni soladi. U bitta o'yinchoqni, masalan, kuchukchani qopchadan oladi va uni lablari oldiga keltirib, "vov-vov-vov" deb talaffuz qiladi, keyin uni stolga qo'yadi, boshqa o'yinchoqni, masalan otni oladi va uni "chu-chu" deb talaffuz qiladi va uning qanday yugurishini namoyish qiladi, so'ngra uni stolning boshqa chekkasiga qo'yadi. O'yinchoqlarni turli ketma-ketlikda qopdan olish bilan katta yoshdagi odam go'dakni kuchukchalarni kuchukchalar bilan, otlarni otlar bilan to'plashga o'rgatadi. Shundan keyin eshinish orqali farqlashga o'tish mumkin. Avval katta yoshdagi odam taqlid qilinadigan ovozlar namunalarini namoyish qiladi. Buning uchun u o'yinchoqni olib ekran orqasidan gaplashish balandligidagi ovoz bilan taqlid qilinayotgan ovozni talaffuz qiladi. Keyin go'dak shu ovozlarni farqlashni o'rganadi, u ovozlarga javoban ma'lum harakatlarni bajarishi kerak.

Bir juft taqlid qilinadigan ovozni o'zlashtirish ikki-uch kunga mo'ljallangan. Apparatning to'g'ri tanlangan rejimida hatto kar bolalar ham kamida 1,5-2 metr masofadan taqlid qilinadigan ovozni farqlay oladilar.

Bolaning eshinish lug'ati 8-10 ta nutqiy birlikdan iborat bo'lganda, eshitib farqlash uchun turli guruhlarga: o'yinchoqlar, ovqatlar, kiyim va shu kabilarga tegishli so'zlarni tanlash kerak.

Agar bola eshitish orqali tanlangan 4 ta birlikdan 4 ta nutqiy materialni farqlay olsa, ishda “Lyalya uxlayapti”, “Oyisi ovqatlanayapti” va shu kabi turdagi iboralardan foydalaniladi. Bu iboralariga tegishli suratlar va fotolar tanlanadi. Bolaning oldiga suratlar yoki predmetlar: uy, tarelka, uxlayotgan bola qo‘yiladi. Katta yoshdagi odam go‘dakni suratlarni to‘g‘ri tartibda qo‘yishga o‘rgatadi, keyin so‘zlar va iboralarni eshitib farqlashni taklif qiladi. Avval bolaga har bir so‘z va iboraning eshilitilishi namunasi beriladi, u eshitganini takrorlaydi, suratni yoki predmetni ko‘rsatiladi. Keyin katta yoshdagi odam, suratlarni ko‘rsatmagan holda, so‘zlar va iboralarni har xil ketma-ketlikda talaffuz qiladi. Go‘dak tanish so‘zlar yoki iboralarni tanib olishi lozim.

Bola 2-2,5 yoshda o‘ziga yaxshi tanish bo‘lgan 4-5 nutqiy birlikdan iborat materialni, tegishli predmetlar va suratlariga tayangan holda, eshitish orqali farqlashga o‘rganadi.

U eshitish orqali faqat taqlid qilinadigan ovozlarni emas, balki gulash va to‘liq so‘zlarni, so‘ngra esa iboralarni farqlashga o‘rganib borishi bilan, bu materialni eshitish orqali tanib olish uchun taklif qilinadi. Eshitish orqali tanib olishga o‘rgatish bo‘yicha ishni eshitish orqali farqlashga o‘rgatish bilan parallel olib boriladi. Eshitish orqali tanib olish uchun materialni har bir mashg‘ulotda o‘zgartirish kerak.

Nutqiy materialni eshitish orqali tanib olish va farqlashga o‘rgatishni shaxsiy eshitish apparati bilan ham, hamda usiz ham o‘tkazish lozim. Bola apparat bilan va usiz eshitganini bilib oladigan masofani asta-sekin oshirib borishga katta e‘tibor qaratiladi. O‘rgatish qiziqarli va jozibali shaklda o‘tkazilishi kerak.

Qoldiq eshitishni rivojlantirish bo‘yicha ishning yo‘nalishlaridan biri bolalarni nonutqiy ovozlarning xarakteri bilan tanishtirish hisoblanadi. Maxsus mashg‘ulotlarda har xil jaranglaydigan o‘yinchoqlar: baraban, surnaycha, garmoshka va shu kabilardan foydalaniladi. Bolada ovozga shartli - harakatli reaksiya hosil bo‘lgandan keyin, uni o‘yinchoqning ovozini biron-bir harakatga bog‘lashga o‘rgatiladi, keyin esa ikkita o‘yinchoqning, masalan, baraban va surnaychanning, baraban va garmoshkaning ovozlarini farqlash taklif qilinadi. Bola avval nonutqiy ovozni eshitish – ko‘rish bilan idrok qiladi va faqat shundan keyingina ularni eshitish orqali farqlashga o‘rganadi. Bola har bir o‘yinchoq ovozini yaxshi eshitadigan masofani tanlanadi.

O'yinchoqlar ovozini farqlash bilan bir vaqtda bolani ularning davomiyligini, tempi, bog'liqligini va balandligini farqlash hamda qayta takrorlashga o'rgatiladi.

Turli ovozlarni eshitib farqlash bo'yicha ishni asosan shaxsiy eshitish apparati bilan o'tkaziladi. Agar bola kamida 0,5-1 metrdan ovozni apparatsiz eshitsa, bunda uni bu ovozlarni apparatsiz farqlashga o'rgatish kerak. Ovozlarni pedagog tomonidan bola ularni qaysi masofadan eshitsa, shu masofadan eshittiriladi.

Bayon qilingan go'dak yoshidagilar bilan ishlash metodikasi go'dakning maktabgacha yoshda muvaffaqiyatli nutqiy va umumiy rivojlanishi hamda uning rivojlanishini normal eshitadigan tengdoshlari rivojlanishining tabiiy borishiga yaqinlashtirish garovidir.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim tizimi. Eshitishida muammosi bo'lgan shaxslarning uzluksiz ta'lim tizimida maxsus maktabgacha muassasalar jiddiy ahamiyatga ega. O'zbekistonda ilk va maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun tabaqalashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalari tizimi mavjud. Eshitish va nutq holatini hisobga olgan holda kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qilinadi. Ularning faoliyati "Maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risidagi namunaviy Nizom" (1995) bilan boshqariladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar har turli ta'lim muassasalarida tarbiyalanishi va o'qishi mumkin:

1. Kar yoki zaif eshituvchi bolalar uchun kompensatsiyalovchi turdagi bolalar bog'chasi.

Kar yoki zaif eshituvchi bolalar uchun kompensatsiyalovchi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim organlari tomonidan kar yoki zaif eshituvchi bolalar soni yetarlicha bo'lganda ochiladi. Kar yoki zaif eshituvchi bolalar uchun kompensatsiyalovchi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida guruhlar tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya qarori bo'yicha to'ldiriladi.

Kompensatsiyalovchi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni 1,5-2 yoshdan qabul qilinadi. Tarbiya va ta'lim jarayoni bolalar bog'chasiga kelgan muddatlarga (2-3 yoshdan) bog'liq ravishda besh-yil yoki to'rt yilga mo'ljallanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi (guruh)ning kunduzi va tungi vaqtda hamda butun sutka davomida, dam olish va bayram kunlarida

faoliyat olib borishiga yo'l qo'yiladi. Bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasida erkin qatnashlari ham ko'zda tutiladi.

Kar yoki zaif eshituvchi bolalar uchun kompensatsiyalovchi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida murakkab (ikkita yoki undan ko'p) nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun guruhlar ochilishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayoni mazmunini belgilashda pedagoglar jamoasi maktab yoshigacha bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha mavjud dasturlarni qo'llashi, shu bilan birga, tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xususiyatlari (yoshi, eshitishi, nutqi, intellekti ahvoli va sh.k.)larga muvofiq ravishda variativ umumiy rivojlantiruvchi va korreksion dasturlar kompleksidan tanlab olishi mumkin.

2. Kombinatsiyalashtirilgan turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari.

Bunday maktabgacha ta'lim muassasalari tarkibiga umumiy rivojlantiruvchi guruhlar bilan bir qatorda eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun kompensatsiyalovchi guruhlar ham kiradi. Odatda eshitishi va nutqi ahvoliga bog'liq ravishda maktabgacha ta'lim muassasalari qoshida kar yoki zaif eshituvchi bolalar uchun guruhlar tashkil qilinadi. Kar va zaif eshituvchi bolalarni birgalikda bitta guruhda tarbiyalash va ta'lim berish tavsiya qilinmaydi. Guruhlar bir xil yoshdagi yoki yaqin yoshdagi bolalardan tarkib topadi.

3. Umumiy rivojlantiruvchi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari (guruhlari).

Ularda kar, zaif eshituvchi yoki kech kar bo'lgan maktabgacha yoshdagilarning eshitadiganlar bilan integratsiyalashgan ta'limini amalga oshirish mumkin. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun o'qituvchi-defektolog (surdopedagog, logoped), pedagog-psixolog bilan yakka korreksion – rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil qilinishi mumkin.

4. Kar, zaif eshituvchi yoki kech kar bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus (korreksion) maktablar, maktab-internatlardagi maktabgacha guruhlar, bo'limlar.

Eshitmaydigan, zaif eshituvchi yoki kech kar bo'lgan bolalar uchun maktabgacha guruhlar ularni rivojlantirishni va maktabga tayyorlashni ta'minlashga mo'ljallangan. Maktabgacha bo'limlar (guruhlar)ga bolalarni 2-3 yoshdan mavjud sharoitlarni hisobga olgan

holda qabul qilinadi. Turli sabablarga ko'ra (eshitish nuqsonlari kech aniqlangan, bolaning kundalik kasalliklari va b.) sababli maxsus ta'lim berish kechiktirilgan muddatlarda boshlanadigan zarur hollarda maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun guruhlar tashkil qilinadi. Ikki yillik davr davomida maktabgacha yoshdagilarni kar yoki zaif eshituvchi bolalar uchun maktabning birinchi sinfida o'qishga tayyorlashga yo'naltirilgan umumiy rivojlantiruvchi va korreksion ish amalga oshiriladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishni tashkil qilish va mazmunini aniqlashda pedagoglar eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun maktablardagi maktabgacha ta'lim guruhlarining tarbiya va ta'lim dasturlarini qo'llashlari mumkin. Dastur ikki yillik korreksion-rivojlantiruvchi ishga mo'ljallangan. Shuningdek, kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalariga tavsiya qilingan dasturlardan foydalaniladi, bundan tashqari, variativ korreksion va umumiy rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqilishi mumkin.

5. Kar yoki zaif eshituvchi bolalar uchun kompensatsiyalovchi maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar uchun "boshlang'ich maktab-bolalar bog'chasi" turidagi ta'lim muassasalari.

Ushbu ta'lim muassasasi tarkibida zaif eshituvchi yoki kar bolalar uchun ilk maktabgacha yoshdagi bolalar, bolalar bog'chasi guruhleri hamda boshlang'ich maktab sinflari bo'lishi mumkin. "Boshlang'ich maktab-bolalar bog'chasi" turidagi ta'lim muassasalarida kar yoki zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar uchun ikkita ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim maktabi dasturlari joriy qilinadi.

Korreksion ishda uzviylikni ta'minlashning asosiy vositalari sifatida eshitishida muammosi bor bolalarning psixofiziologik rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan uzluksiz korreksion tarbiya va ta'lim texnologiyalari hisoblanadi.

6. Surdologik markazlar va kabinetlar. Diagnostika va konsultatsiya, psixologik – tibbiy – pedagogik reabilitatsiya va korreksiya markazlari.

Eshitishida muammosi bo'lgan maktabgacha yoshdagilarga psixologik-pedagogik yordam surdologiya kabinetlari va markazlarida ko'rsatiladi. Surdopedagoglar bolalar bilan korreksion – rivojlantiruvchi mashg'ulotlar olib boradilar, ota-onalarga bolalarni

oilada tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalari bo'yicha konsultatsiyalar beradilar, maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilingan bolalarning rivojlanishi ustidan nazorat olib boradilar.

So'nggi yillarda eshitishda muammosi bo'lgan bolalarga tibbiy va psixologik-pedagogik yordamni tashkil qilish maqsadida Rossiyaning turli hududlarida eshitish va nutq rehabilitatsiyasi Markazlari tashkil qilina boshlandi, ularda SUVAG (Zagreb, Xorvatiya) poliklinikasida ishlab chiqilgan verbotonal metodikadan foydalaniladi, eshitish nuqsonlari diagnostikasini, bolalarni tibbiy-psixologik-pedagogik o'rganishni olib boriladi, tibbiy yordam ko'rsatiladi, shaxsiy eshitish protezlashni tashkil qilinadi, maxsus rehabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqiladi. Ushbu muassasalar tarkibida odatda, kar va zaif eshituvchi maktabgacha yoshdagilar uchun bolalar bog'chasi yoki guruhlar mavjud.

Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari eshitmaydigan bolalarni jamiyatga integratsiyalash, ularda jamiyatga kirishishning atekvat usullarini shakllantirish va bu jarayonda bolani va uning oilasini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash uchun optimal sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan kompleks ijtimoiy ahamiyatli masalalarni hal etadilar.

Eshitishda muammolari bo'lgan bolalarni maktabgacha tayyorlashning asosiy maqsadi har bir bolaning to'liq, har tomonlama rivojlanishi, unda ijobiy shaxsiy sifatlarining shakllanishi uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida diagnostika, tarbiyaviy-ta'limiy va korreksion-rivojlantiruvchi masalalar hal etiladi.

Yetakchi diagnostik masala bolani korreksion-ta'limiy jarayon sharoitida dinamik kuzatish orqali diagnozni aniqlash hamda uni shaxsiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish maqsadlaridagi kompleks tibbiy-psixologik-pedagogik o'rganish hisoblanadi.

Ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarni hal qilish maktabgacha yoshdagi bolada ijobiy shaxsiy sifatarni tarbiyalashga, bolalarning har xil turdagi faoliyati (loy va plastlindan qurish-yasash, applikatsiya, rasm chizish, konstruksiyalash, qo'l mehnati, kundalik turmushdagi mehnat, hamda o'yinlar: didaktik, harakatli, syujetli-rolli)dan foydalanish sharoitlarida bolaning rivojlanishini boyitishga (amplifikatsiyaga),

elementar o'quv faoliyatini, bilim olish faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Ta'limiy-tarbiyaviy masalalarni hal qilib borishda maktabda o'qishga tayyorlash uzviylikka, eng avvalo, til o'rgatish, eshitish – nutq rehabilitatsiyasi va shu kabilar tamoyillariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Korreksion-rivojlantiruvchi ish eshitish idrokini rivojlantirishga va og'zaki nutqni o'rgatishga, rehabilitatsiyaga (korreksion ishni erta – 1 yoshgacha davrda boshlangan holda) va bolada uning bilish sohasi, xulqi, qadriyatli – shaxsiy oriyentirlari rivojlanishidagi, har bir yosh davri uchun yetakchi bo'lgan faoliyat turlarining: go'daklik davridagi emotsional – shaxsiy muloqot, ilk bolalik (1dan 3 yoshgacha) davridagi predmetli faoliyat, maktabgacha yoshdagi (3 dan 7 yoshgacha) bolaligidagi – o'yin faoliyati shakllanishida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlarni yengib o'tishga yo'naltirilgan. Agar o'yin haqida gapiradigan bo'lsak, eshitmaydigan bolalarda o'yin mexanizmlarining o'zini: rolli xatti-harakatlarni, boshqaning o'rni bo'lishni, o'yinning g'oyasini ijodiy rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratilgan bo'lishi lozim.

Kar va zaif eshituvchi maktabgacha bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish dasturlari ular rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va psixik jarayonlar rivojlanishidagi senzitiv davrlar asosida tuziladi.

Dasturlar mazmuni tarbiyalash va ta'lim berishning quyidagi tamoyillarini amalga oshirishga yo'naltirilgan:

- maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning yosh psixofiziologik imkoniyatlarini o'rganish va ularni eshitadigan tengdoshlariga mumkin bo'lgan hamma narsalar bilan tanishtirish asosida umumiy har tomonlama rivojlantirishni ta'minlash;

- bolalarning shaxsiy xususiyatlari va nuqsonlarining tarkibini hisobga olgan holda maxsus korreksion-tarbiyaviy ishni tashkil qilish;

- kar va zaif eshituvchi bolalar tarbiyasiga faoliyatli yondashuvni, ya'ni tarbiyaviy ishning hamma turlarini (ta'limiy va korreksion) bolalar faoliyatining asosiy turlari o'zanida o'tkazishni amalga oshirish;

- eshitish qoldig'idan keng foydalanish va rivojlantirish hamda barcha mashg'ulotlarda va rejimli vaqtlarda jamoaviy va shaxsiy

foydalaniladigan zamonaviy ovoz kuchaytiruvchi apparatlarni qo'llash;

- nutqiy vositalardan bolalar bilan muloqotning tabiiy va maxsus uyushtirilgan vaziyatlarida foydalanish;

- maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi bilan tegishli turdagi maktab o'rtasida uzviy aloqalarni amalga oshirish.

Dasturning o'quv materiali har xil bo'limlarda maktabgacha ta'limning boshdan oyoq davrida umumiy bo'lgan va turli tuman faoliyat turlari jarayonida yagona nutq vositalari bilan ishlab chiqiladigan mavzular bo'yicha guruhlashtirilgan.

Dastur talablarini va atrofda olam haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish uchta usullar bilan: faoliyat, tasvirlash, nutq (og'zaki, yozma, daktil) ularning ta'lim bosqichi va muloqot sharoitlariga bog'liq holdagi turli nisbatlarida amalga oshiriladi.

Sanab o'tilgan tamoyillar maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar rivojlanishidagi muammolar, nuqsonlar va korreksiyalash yo'llarining hozirgi tushunilishini aks ettiradi.

Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida kamida 4-yil davomida bo'lgan hamda zarur moddiy baza va pedagoglarning tegishli malakasi (maxsus oliy ma'lumotli o'qituvchi-defektolog, oliy yoki o'rta ma'lumotli maktabgacha ta'lim tarbiyachisi – maxsus pedagogika va maxsus psixologiya sohasida muntazam malaka oshirgan holda) bo'lgan sharoitda dasturning barcha talablari to'liq hajmda bajarilishi mo'ljallangan.

Dasturning har bir bo'limidan o'rin olgan tarbiyaviy-ta'limiy ishning aniq vazifalarini hal qilish faqat tarbiyaga kompleks yondashuv, o'qituvchi-defektolog bilan tarbiyachining ishida uzviy o'zaro bog'liqlik hamda ota-onalarning bolalar tarbiyasidagi, ular bilan ishlash bo'yicha yagona talablarni joriy qilishdagi ishtiroki bo'lgan sharoitlardagina mumkin. Dasturni bajarish uchun mas'uliyat maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlariga to'liq yuklatiladi.

Dastur to'qqizta bo'limdan iborat bo'lib, ularning jami turli yo'nalishlar bo'yicha pedagogik ishni (aqliy rivojlanish, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiya, mehnat, so'zlashuv nutqiga o'rgatish, qoldiq eshitishni rivojlantirish) ta'minlash imkonini beradi. Dastur bo'limlari eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalash xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lum ketma-ketlikda joylashtirilgan. Ayrim bolalar maktabgacha ta'lim muassasasiga o'qishlarining ikkinchi

yilidan keladilar. Shuning uchun birinchi-yil o'qitish ishining mazmuni, dasturiy talablari ma'lum ma'noda ikkinchi-yil takrorlanadi.

Avval maktabgacha yoshdagilarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishning asosiy vazifalarini: jismoniy rivojlantirish, asosiy harakatlarni rivojlantirish, bolalar sog'lig'ini saqlash va ularning maxsus maktabgacha ta'lim muassasasidagi maishiy sharoitlarini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'limlar o'rin olgan. Shundan keyin maktabgacha yoshdagi bola faoliyatining asosiy turlari bo'yicha ishning mazmuni va unga talablar bayon qilinadi. O'yin, produktiv va elementar mehnat faoliyatini rivojlantirish bo'yicha materiallarni beruvchi bo'limlardan keyin "Atrofdagi olam bilan tanishtirish", "Nutqni rivojlantirish" va "Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish" bo'limlari o'rin olgan.

"Eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzga o'rgatish" korreksion ishi dasturning mustaqil bo'limi sifatida berilgan.

"Musiqaviy tarbiya" - dasturning so'nggi bo'limi bo'lishiga qaramay, o'zining korreksion ahamiyati, bolalarni estetik tarbiyalash va rivojlantirish vazifalari bo'yicha, bu bo'lim hech ham ikkinchi darajali yoki kam ahamiyatli hisoblanmasligi lozim.

Maxsus bolalar bog'chasining rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiya dasturlari, umuman, bolani rivojlantirishni boyitish (amplifikatsiya)ga, uni rivojlantirish davomida nuqsonini korreksiyalashga, bolalarni maktab ta'limiga, ijtimoiy moslashuvga muvaffaqiyatli tayyorlashga yo'naltirilgan.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning maktabgacha tarbiyasidagi muvaffaqiyatlar barcha mutaxassislarining bir-birini o'zaro tushunishi va kasbiy hamkorliklari darajasi, korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik ta'sirning natijaviyligi, puxta o'ylab chiqilganligi, tarbiyalanuvchilar oilalaridagi mikroiklimning yaxshilanishi, eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarining jamoatchilik va oilalar bilan uzviy o'zaro aloqasi darajasi bilan belgilanadi.

Maktab yoshidagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limining zamonaviy tizimi. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ravishda aqliy va jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan o'quvchilar boshqa bolalar bilan teng huquqlarga ega. Salomatliklari tufayli

imkoniyatlari cheklangan bolalar ta'limi ular uchun eshitadigan bolalar bilan teng rivojlanish nuqsonlarini korreksiyalash, davolash va sog'lomlashtirish, ijtimoiy moslashtirish uchun adekvat sharoitlarni, maxsus korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim tizimini yaratishni ko'zda tutadi.

Hozirgi bosqichda ta'limning turli tashkiliy shakllari ko'zda tutilgan: eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maxsus ta'lim muassasalarida, integratsiyalashtirilgan ta'limning turli sharoitlarida, umumiy umumta'lim muassasalarida, uyda, statsionar davolash muassasalari sharoitlarida ta'lim olishlari mumkin.

Maxsus ta'lim jarayonida salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolalarni o'qitish va ularni ijtimoiy moslashtirishning adekvat sharoitlari yaratiladi, davolash – profilaktika va sog'lomlashtirish ishlari, rivojlanish nuqsonlarini korreksiyalash, umumta'lim tayyorgarligi, mehnat va boshlang'ich kasbiy tayyorarlik amalga oshiriladi. Ta'limning variativ shakllarini kiritishda zarur maxsus ta'lim sharoitlari ta'minlanishi lozim.

Har bir maxsus ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim olayotgan aqliy va jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan tarbiyalanuvchilar reabilitatsiyasi bo'yicha faoliyat yo'nalishi hamda amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlari darajasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan tarbiyalanuvchilar ta'limi uchun davlat, munitsipal maxsus ta'lim muassasasi korreksion ta'lim muassasasining turiga bog'liq holda maktabgacha, umumiy boshlang'ich, asosiy umumiy, o'rta (to'liq) umumiy va boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturlarini joriy qiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchining hayoti va fuqarolarning bepul ta'lim olish konstitusion huquqini amalga oshirish uchun javobgar. Muassasa o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, farmoyishlari, bola huquqlarini himoyalash sohasidagi xalqaro hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, tegishli ta'lim boshqaruvi organi qarorlari, umumta'lim muassasalari, boshlang'ich kasbiy ta'lim muassasalari to'g'risidagi namunaviy nizomlarga asoslanadi. Ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasi faoliyati O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 13 sentyabrdagi 256-son Qarori bilan tasdiqlangan “Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq tashkil qilinadi.

Hozirgi bosqichda mamlakatda nodavlat maxsus ta’lim muassasalari ham tashkil qilinmoqda, ularning faoliyati ham Nizomni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasa ro‘yxatga olingan vaqtdan boshlab yuridik shaxs huquqiga, mustaqil balansga, bank va boshqa kredit muassasalarida hisob schetiga, joriy va boshqa schetlarga ega bo‘ladi. Korreksion muassasa O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va tegishli me‘yoriy hujjatlarga muvofiq attestatsiyadan o‘tkaziladi.

Maxsus ta’lim jarayonida salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolalar ta’limi va ularning ijtimoiy moslashuvi uchun moslashuvchan sharoitlar yaratiladi, davolash-profilaktika va sog‘lomlashtirish ishlari, rivojlanish nuqsonlarini korreksiyalash, umumta’lim tayyorgarligi, mehnat va boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasada sinflar (guruhlar) soni ta’lim jarayonini amalga oshirish uchun zarur sanitar me‘yorlar va sharoitlarga bog‘liq holda muassasa ustavi bilan belgilanadi. Sinf (guruh)dagi o‘quvchilarning eng ko‘p soni ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasaning turiga bog‘liq.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasada ta’lim mazmuni tarbiyalanuvchilarning psixofiziologik rivojlanishi va shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasa tomonidan mustaqil qabul qilinadigan va amalga oshiriladigan ta’lim dasturlari bilan belgilanadi. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasada mehnat ta’limi hududiy, mahalliy, etnomilliy sharoitlardan kelib chiqqan, u yoki bu kadrlarning ehtiyojiga yo‘naltirilgan, tarbiyalanuvchilarning psixofiziologik rivojlanishi, sog‘lig‘i, imkoniyatlari, shaxsiy xususiyatlari hamda ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) manfaatlarini hisobga olgan holda, tarbiyalanuvchilarni shaxsiy yakka mehnat faoliyatiga tayyorlashni o‘z ichiga olgan mehnat yo‘nalishini tanlash asosida amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan muassasada ta'lim jarayonini tashkil qilish Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlanadigan o'quv rejasi asosida, muassasa rahbari tomonidan tasdiqlangan yillik reja va mashg'ulotlar jadvali bilan boshqariladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 13 ta kar bolalar maktab-internatlarida 3611 nafar, 5 ta zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar maktab-internatlarida 1292 nafar bolalar ta'lim-tarbiya olmoqdalar.

Davlat akkreditatsiyasiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan muassasalarning bitiruvchilariga ta'lim darajasi va (yoki) malaka to'g'risidagi yoki shu korreksion muassasani bitirganligi haqida o'rnatilgan tartibda davlat namunasidagi hujjat beriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasaning pedagoglari va tibbiy xodimlari, tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) ta'lim jarayoni ishtirokchilari hisoblanadi. Bolalarni maxsus (korreksion) ta'lim muassasasiga yo'llash ta'limni boshqaruv organlari tomonidan, faqat ota-onalarning (qonuniy vakillarning) roziligi bilan va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasaning yordamchi sinfi (guruhi)ga tarbiyalanuvchilar ota-onalarning (qonuniy vakillarning) roziligi bilan va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasi asosida faqat korreksion muassasada birinchi-yil o'qiganidan keyin o'tkaziladilar. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasada murakkab tarkibli nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun sinflar (guruh)lar shunday tarbiyalanuvchilarning ta'lim jarayoni sharoitlaridagi psixologik – tibbiy-pedagogik kuzatuv davomida aniqlanishiga qarab tashkil qilinadi.

Tarbiyalanuvchini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasadan boshqa ta'lim muassasasiga o'tkazish ta'limni boshqarish organlari tomonidan ota-onalar (qonuniy vakillar)ning roziligi bilan va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasi asosida amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda "Aqliy va jismoniy nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni maxsus ta'lim muassasasidan boshqasiga yoki inklyuziv sharoitlarida ta'lim olish uchun umumta'lim muassasasiga o'tkazish to'g'risida"gi Nizomiga amal qilinadi (Xalq ta'limi vazirligi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2685-raqamli hujjati. 2015 y.17 iyun).

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasada ta'lim jarayoni korreksion pedagogika sohasidagi mutaxassislar hamda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasa faoliyati yo'nalishida qayta tayyorlashdan o'tgan o'qituvchilar, tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasadagi ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini psixologik qo'llab-quvvatlashni uning shtatidagi psixolog amalga oshiradi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasada tibbiy ta'minotni shtatdagi tibbiy xodimlar amalga oshiradilar, ular ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasa ma'muriyati bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish va ularning psixofiziologik ahvollarini mustahkamlash, dispanserizatsiyalash, profilaktik tadbirlarni o'tkazishni amalga oshiradilar va sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi rejimga rioya qilinishi, jismoniy tarbiya va chiniqtirish, ovqatlanish, shu jumladan parhezli ovqatlanishning tashkil qilishini nazorat qiladilar.

Barcha turdagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarda medikamentoz va fizioterapevtik davolash, iqlim bilan davolash va chiniqtirish, davolash jismoniy tarbiyasi, massaj va psixoterapiya amalga oshirilishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasada yashovchi va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan tarbiyalanuvchilar o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq ovqatlanish, kiyim-kechak, poyafzal, jihozlar bilan ta'minlanadi.

Amaldagi psixologik-pedagogik tasnif va tibbiy differensial-diagnostik mezonlarga muvofiq zaif eshituvchilar toifasiga eshinishi pasayganligi darajasi ularga nutqiy faoliyatni mustaqil, maxsus ta'limsiz, kamida eng kam hajmda egallash imkonini beradigan bolalar kiritiladi. Zaif eshituvchi bolalar nutqi shakllanganligi darajasidagi farqlar diapazoni yetarlicha keng: nutqning ilk belgilaridan (o'ta kambag'al, ko'pincha so'zlarning parchalaridan iborat lug'at, nutqning talaffuz va grammatik jihatlari shakllanmaganligining ko'plab holatlari bo'lgan) dan nisbatan shakllangan, ayrim leksik-semantik, fonetik va grammatik nuqsonlari bo'lgan nutqgacha.

Kech kar bo'lgan bolalar zaif eshituvchi bolalar bilan bitta maktabda ta'lim oladi. Kech kar bo'lgan bolalarda eshinish nuqsoni ularning nutqi shakllanib bo'lgan davrda hosil bo'lgan. Kech kar

bo'lganlar uchun eng jiddiy muammo og'zaki nutqni kelgusida rivojlantirish va uning buzilib ketishi oldini olish maqsadlarida idrok etishning yangi usullariga (ko'rish, taktil – tebranishli va b.)ga, o'tish zarurati hisoblanadi. Kech kar bo'lganlarda muloqotning to'laqonli vositasi va bilish faoliyatining asosi sifatida shakllangan nutqning mavjudligi, ularni nisbatan saqlangan nutqga ega bo'lgan zaif eshituvchi bolalar bilan birlashtirib maxsus ta'lim berish imkoniyatini beradi.

Zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar uchun maktabning tarkibiy tuzilishi tabaqalashtirilgan ta'lim tamoyillaridan kelib chiqqan holda, eshitish nuqsoni emas, nutqiy rivojlanish xususiyatlariga va bilim olish faolligiga taalluqli ikkilamchi holatlar asosida belgilandi. Aynan shuning uchun maktabning tarkibiy tuzilishida ikkita bo'lim faoliyat ko'rsatadi: 1-bo'lim–biroz grammatik va talaffuz nuqsonlari bo'lgan mustaqil, keng nutqqa ega bolalar uchun; 2-bo'lim chuqur nutqiy rivojlanmagan bolalar uchun bo'lib, ularga birinchi navbatda, ularning maktabga kelguncha tarbiya olgan sharoitlarini, maktabgacha tayyorgarlik olganligi yoki yo'qligini (bu qanday shakllarda – maxsus maktabgacha muassasada yoki oilada bo'lganligidan qat'i nazar) hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan yondashuvni qo'llaymiz. Maktabgacha tayyorgarlik olmagan zaif eshituvchi bolalar uchun maktabning 2-bo'limi tarkibida tayyorlov sinfi ko'zda tutilgan. Ikkita birlamchi nuqsonga ega zaif eshituvchi bolalar: karlik va aqliy zaiflik; karlik va psixik rivojlanish sustlashgan va boshqalarni alohida guruhlarga ajratiladilar.

Hozirgi bosqichda mamlakatda eshitishida muammosi bor bolalarga nuqson ma'lum bo'lgan vaqtdan, go'dak yoshdan boshlab korreksion yordam ko'rsatiladi: Qoraqalpog'iston Respublikasi va har bir viloyatda erta diagnostika va yordam ko'rsatish markazlari faoliyat ko'rsatib, eshitishida muammosi bo'lgan shaxslarga erta korreksion yordam ko'rsatish tizimi yaratilganligi haqida gapirish imkonini beradi. Bunday ish maxsus maktabgacha va maktab muassasalarida, surdologiya va rehabilitatsiya markazlarida olib boriladi va eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning erta har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirilgan.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish tajribasi va ishlab chiqilgan pedagogik ta'sirning korreksion yo'llari, maxsus tashkil qilingan korreksion-rivojlantiruvchi ishni amalga oshirilganda,

asosiy nuqson asoratlarini yengillashtirishi va eshitmaydigan bolalarning eshitadiganlar bilan teng darajadagi umumiy ta'lim olishi imkoniyatini isbotladi. Ulardan ko'pi umumiy o'rta va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishni davom ettirishga intiladilar.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim mazmunini belgilashda o'quvchilar ta'lim va tarbiyasining umumiy vazifalari hamda maxsus vazifalar hisobga olinadi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi asosiy hisoblanadi, ya'ni zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan o'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim umumta'lim maktabining asosiy bosqichi hajmida ta'lim olish ta'minlanadi. O'quv rejalari va dasturlarida fanlarni o'rganish ketma-ketligi ularning xususiyatlari va fanlararo aloqalarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Maxsus maktabda o'qitish mazmuni, umumiy o'rta ta'lim maktabdagidek, uzluksiz ta'lim g'oyasining real amal qilishini ta'minlovchi yagona ta'lim tizimi tamoyiliga muvofiq ishlab chiqiladi. Dasturlarning tuzilishi asosiy didaktik tamoyillarga mos keladi.

Pedagogik jarayon o'quvchi shaxsining barcha jihatlarini shakllantirishga, ya'ni uning komil inson bo'lib shakllanishiga yo'naltirilgan. Ta'lim jarayonida bola uchun eng ahamiyatli bo'lgan psixik funksiyalar, ularning sifatlari va xususiyatlari shakllanadi hamda korreksiyalanadi. Maxsus ta'lim natijasida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarda tafakkur va nutq, so'zlar xotirasi shakllanadi, nuqsonning o'rnini bosish imkoniyatlarini, maxsus ta'lim jarayonida rivojlanib boradigan eshitish idrokini rivojlantirish va foydalanish hisobiga ham, shu bilan birga, boshqa saqlangan analizatorlar va kompensator imkoniyatlar hisobiga ham kengaytirish uchun sharoitlar yaratiladi.

So'zlashuv nutqini rivojlantirishdagi, filni o'rganish jarayonida bo'lib o'tadigan, har qanday chetga chiqishlar atrofdegilar bilan muloqotni cheklaydi, ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanishida asorat qoldiradi. Shuning uchun maxsus maktabdagi korreksiya-tiklash ishi barcha pedagogik jarayonni qamrab oladi va bolalarning to'liq maktab bilimlari hajmini o'zlashtirishlari davomida olib boriladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitishdagi korreksion yo'nalganlik alohida korreksion predmetlar, maxsus ta'lim metodlari, bilimlarni yetkazish va ishlab chiqishning alohida sharoitlarini yaratish, fanlararo

aloqalar va bolalarning bilim olishga qiziqishini, ijtimoiy munosabatlari va ehtiyojlarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim har xil turdagi elektr akustik ovoz kuchaytiruvchi apparaturadan (stasionar jamoaviy va shaxsiy foydalaniladigan va shaxsiy eshitish apparatlaridan) muntazam ravishda foydalanish sharoitlarida olib boriladi.

Eshitish va eshitish-ko'rish idrokini rivojlantirishga, nutqning talaffuz jihatlarini shakllantirishga, maxsus e'tibor qaratiladi, bu esa o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish va takomillashtirish hamda ularning atrof-olamdagi nonutqiy ovozlarni to'g'risidagi tasavvurlarini boyitishning prinsipial yangi eshitish ko'rish asosini yaratish imkonini beradi. Kech kar bo'lganlar uchun (yoshidan qat'i nazar), eshitishning og'ir nuqsoni sababli, butun o'quv-tarbiya jarayoni davomida, og'zaki nutqni ko'rish (lablardan o'qish) asosida idrok qilishga o'rgatish hamda ularning eshitadiganlar bilan og'zaki muloqotlarini tiklash maqsadida eshitish-ko'rish, ko'rish-tebranish asosida idrok qilishga o'rgatish bo'yicha yakka va guruhli mashg'ulotlarni ham qo'shgan holda, maxsus yakka yordam tashkil qilinadi. Musiqani idrok qilishni rivojlantirishga, tarbiyalanuvchilarni jamiyatning musiqaviy madaniyati bilan tanishtirishga, musiqaviy vositalardan foydalangan holda korreksion-rivojlantiruvchi ishni amalga oshirishga jiddiy ahamiyat beriladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning maxsus ta'limi o'ziga xos vositalardan ham, shuningdek umumiy o'rta ta'lim umumta'lim maktabida qo'llaniladigan vositalardan ham foydalanishni o'z ichiga oladi. Maxsus vositalarga daktitologiyani kiritish mumkin, undan nutqni idrok qilishni, so'zlarning tovush tarkibini o'zlashtirishni yengillashtiruvchi yordamchi vosita sifatida foydalaniladi. Bu vositalarga ovoz kuchaytirgich apparaturasi, shaxsiy eshitish apparatlari ham kiradi. Ikkinchi guruhdagi vositalarga yozma nutq kiradi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun yozish va o'qish faqatgina bilimlarni o'zlashtirishning mumkin bo'lgan usuli bo'lib qolmay, shu bilan birga ular tilni o'zlashtirishdagi eng to'laqonli manbalar ham hisoblanadi. Yozma nutqning, o'quvchilarning umuman nutqiy va bilish faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatidagi ahamiyati, o'ziga xosdir. Tasavvurlar va tushunchalarni, u yoki bu hodisalarning sabab-oqibat munosabatlarini, fanlararo aloqalarni ko'rgazmali ifodalashni shakllantirishga yordam beruvchi

ko'rgazmali-amaliy vositalar va usullar alohida ahamiyatga ega. Bu vositalarning hammasi o'quvchilarga o'z darajalarida tushunarli va motivli bo'lgan fikrlarni ifodalashning so'zlardan foydalaniladigan usullari bilan qo'shib qo'llaniladi; ularning yordamida o'quvchilarni muloqotga undash mumkin bo'ladi, bu esa nutqiy ko'nikmalar va umumlashmalarning shakllanishiga imkon beradi.

Mehnat (texnologiya) ta'limi va tarbiyasi ta'limiy-korreksion ishning jiddiy bo'lagi hisoblanadi. Mehnat ta'limi (texnologiya fani) milliy sharoitlar va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tashkil qilinadi. U dastlabki mehnat tayyorgarligini (1-4-sinflar), umumiy mehnat tayyorgarligini (5-9-sinflar), ilk kasbiy tayyorgarlikni (10-sinf) (10-12-sinflar)ni o'z ichiga oladi. İlk kasbiy tayyorgarlik mehnat ta'limi tashkil qilingan sanoat korxonalarida yoki maktab ustaxonalarida amalga oshiriladi va pirovardida o'quvchilar tomonidan ishlab chiqarish topshirig'ini boshlang'ich malaka razryadi darajasida mustaqil bajarishlariga mo'ljallanadi.

Murakkab tarkibdagi nuqsonli (aqliy, ko'rish va boshqa nuqsonlari bo'lgan) bolalar uchun amaldagi qoidaga ko'ra yordamchi sinflar, RRS bo'lgan bolalar uchun sinflar, eshitishida va ko'rishida nuqsoni bo'lgan va sh.k. bolalar uchun sinflar tashkil qilinadi. Shuningdek, bolalar soni sinflarda kam bo'lib, ularni aslida yakka yondoshuvni talab qiladigan alohida dasturlar asosida o'qitiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida olib borilgan ko'p yillik tajriba-sinovlar, tadqiqotlar asosida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quv rejasi va dasturlari ishlab chiqilib, zamonaviy talablar asosida takomillashtirib borilmoqda.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim ta'lim muassasalarining boshlang'ich va asosiy maktabida o'qish davomiyligi 10-11-yil (tayyorlov, 1-10-sinflar), 1-dan 12-sinfgacha o'qish davrida bolalar o'rta ma'lumot oladilar.

Asosiy maktabdagi ta'lim 4 bosqichga bo'linadi, bu bosqichlar ta'lim mazmunining izchil rivojlanib va murakkablashib borishi bilan xarakterlanadi:

- dastlabki davr (tayyorlov sinfi);
- boshlang'ich bosqich (1-3-sinflar);
- 1-asosiy bosqich (4-7-sinflar);
- 2-asosiy bosqich (8-12-sinflar).

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida tayyorlov sinfidan boshlab 7-sinfgacha hamma dasturlar original hisoblanadi. Bu davr uchun asosiy umumta'lim sohalari ona tili va adabiyot, matematika, tabiatshunoslik, tarix, san'at (rasm chizish), chizmachilik, jismoniy tarbiya, mehnat tayyorgarligi hisoblanadi. Maxsus korreksion kurslar ham mavjud bo'lib, ular atrof olam bilan tanishish, predmetli-amaliy ta'lim, nutqiy eshitishni va nutqning talaffuz jihatlarini rivojlantirish, musiqiy-ritmik mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. 8-10-sinflarda o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim (eshituvchilar uchun) umumiy o'rta ta'lim maktabi dasturlari bo'yicha ta'lim oladilar. Tayanch korreksion kurslar nutqiy eshitishni va nutqning talaffuz jihatlarini, nutqni va muloqot madaniyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar ta'limi mazmunining xususiyatlari o'quvchilar nutqini shakllantirish va korreksiyalashga bo'lgan o'ziga xos talablardan, atrofda olam to'g'risidagi ma'lumotlar zaxirasidagi bo'shliqlarni to'ldirish va bilim olish faoliyatining zarur darajasini ta'minlash zaruratidan kelib chiqadi. 1-bosqichdagi til o'rgatish bo'yicha ta'lim mazmuni eng ko'p o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, bu eng avvalo, nutqni va so'z-mantiqiy tafakkurni shakllantirish vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'limlarga tegishli. Matematika, tabiatshunoslik va boshqa fanlar asoslari bo'yicha dasturlarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ularning har birida tegishli predmetni o'rganish propedevtikasi (kirish qismi)ni (borliqning tegishli jihatlarini to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish, har xil faoliyat turlaridagi amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash)ni ta'minlaydi, o'rganilayotgan material bilan bog'liq nutqiy rivojlantirishni ko'zda tutadi, o'quv yillari bo'yicha o'quv materialini umumiy o'rta ta'lim maktabga nisbatan boshqacha taqsimot qilinadi.

Zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar uchun maxsus umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun dasturlar o'quv materialining hajmi bo'yicha umumiy o'rta ta'lim umumta'lim maktabining boshlang'ich (1-4-sinflar) o'quv kursi mazmuniga mos keladi. Bu dasturlar o'zining korreksion yo'nalganligi bilan farqlanadi va amaliy nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishni, eshitish idrokini rivojlantirishni ta'minlaydi. Bu, birinchi navbatda, dasturning "Rus tili", "Atrofdagi olam bilan tanishish", "Eshitish idrokini rivojlantirish", "Talaffuzga o'rgatish" bo'limlariga tegishli bo'lib,

ular da ta'limning bilim berish – rivojlantirish yo'nalishi mantiqiy jihatdan amaliy ko'nikma va malakalarni egallash bilan qo'shib olib boriladi.

Zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalarning keyingi ta'limi 2-bosqich (to'liqsiz o'rta maktab) va 3-bosqich (o'rta maktab) sinflarida umumiy o'rta ta'lim umumta'lim maktabi dasturi bo'yicha amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning erishgan darajalari o'qitishning butun davri davomida baholanadi. Bu maqsad uchun o'qitishning butun davri davomida asosiy fanlar bo'yicha nazorat-tekshiruv ishlari uchun vazifalar, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlaydigan ijodiy mustaqil ishlar, ta'lim bosqichlari bo'yicha erishilgan darajani o'rganish yuzasidan test topshiriqlari, og'zaki nutqni idrok qilishning rivojlanishi darajasini va talaffuz ko'nikmalari ahvolini tekshirish bo'yicha maxsus topshiriqlar va boshqalardan foydalaniladi.

Ta'limning barcha asosiy bosqichlarida (tayyorlov sinfi, 1-3-, 4-7-, 8-10-sinflar)da o'quvchilarning erishgan darajalari quyidagi parametrlar bo'yicha baholanadi: fan bo'yicha dasturdagi mazmuni bilishi, bilimlarni nutqiy (og'zaki-daktil, yozma, og'zaki nutq) ifodalash darajasi, bilimlarni izlab topish va o'zlashtirish qobiliyati (ta'lim oluvchanligi), bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyati. O'quvchilarni navbatdagi bosqichga ko'chirish maktab ma'muriyati tomonidan tuziladigan yakuniy nazorat ishlari natijalari bo'yicha amalga oshiriladi. Maxsus maktabni bitiruvchilar uchun umumta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan imtihon biletlaridan foydalaniladi. O'quvchilar asosiy maktab fanlari bo'yicha imtihonlar topshiradilar.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar bilan maxsus ta'limiy-korreksion ishni olib borish sharoitlari hayot faoliyatining adekvat muhitini yaratishni o'z ichiga oladi, bular: eshitish xonalari, sinflar, o'quv xonalari, musiqiy-ritmik mashg'ulotlar uchun zal, o'quv ustaxonalari, o'yinlar xonalari, oshxona, hojatxonalar, dush xonalari, psixologik dam olish uchun xonalar, sport zali, kino sinfi, kutubxona, kompyuter sinfi, maktab oldi yer maydoni, tibbiy blok, izolyatordan iborat. Maktab binosi maxsus loyiha bo'yicha quriladi. O'qitishning majburiy sharti ovoz kuchaytirish apparaturasidan, shaxsiy eshitish

apparatlaridan, musiqa asboblariidan, videotexnikadan, kompyuter texnikasidan foydalanish hisoblanadi. Maktab hovlisi turli yoshdagilar uchun zarur bo'lgan sport-o'yin jihozlari bilan jihozlangan.

Maktablarda bolalarga tizimli tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Maktabda davolash – tiklash ishini tashkil qilish bolalarning o'qishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaruvchi quyidagi klinik xususiyatlari mavjudligidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi: asosiy nuqson (eshitish nuqsoni); asab tizimi funksiyalarining umumiy yetishmovchiligi (yuqori ozg'inlik, emotsional so'lg'inlik yoki chidamsizlik, vegetativ – tomir distoniyasiga moyillik); tananing ko'pincha asabni boshqarishning umumiy nuqsoni va asosiy nuqsonning ta'siridan kelib chiqadigan zaiflashganligi. Bu, o'z navbatida, sanitariya-gigiyena rejimi va davolash-profilaktika tadbirlarini (asosiy nuqsonning o'ziga xos metikamentoz, tabiiy iqlim terapiyasi, maxsus davolash jismoniy tarbiyasini o'z ichiga oladigan tibbiy korreksiyasi) tadbirlarini moslashtirilgan ravishda boshqarishni ta'minlaydi. Turli elektr akustik apparaturadan muntazam foydalanish sharoitlaridagi eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha jadal ish muntazam ravishda o'quvchilarning audilogik tekshiruvini va eshitish protezlashini amalga oshiradigan vrach-surdologlarning aniq maqsadli kuzatish olib borishlarini talab qiladi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasida salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolalarni kompleks tizimli o'rganishni, ular uchun ma'lumot olishning moslashuvchan yo'llarini aniqlashni, ota-onalar va pedagoglarga maslahatlar berishni amalga oshiradigan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar tarmog'ini rivojlantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining tabaqalashtirilgan tarmog'ini takomillashtirish davom etmoqda, ularning innovatsion modellari yaratildi va tarqaldi, salomatlik imkoniyatlari cheklangan shaxslarga turli, shu jumladan, kasbiy ta'lim muassasalarida o'qitishning har xil integratsion shakllari paydo bo'ldi.

Hozirgi bosqichida rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limiga integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirishga maxsus ta'lim tizimining kelgusi rivojlanish istiqbollari va imkoniyatlari asosida qarash zarur. Bunda, ta'lim jarayonida qisman amalga oshirilayotgan integratsiya-rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni rivojlantirish, kelgusi mustaqil hayotga tayyorlash va jamiyatga

moslashtirish tayyorgarligining jiddiy yo'nalishlaridan biri ekanligini nazarda tutish lozim. Shu bilan birga, bolalarning rivojlanishda og'ir nuqsonlari bo'lgan qismi uchun integratsiyalashtirilgan ta'limni amalga oshirib bo'lmaydi. Angliyalik mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, muvaffaqiyatli integratsiyalash mumkin bo'lgan bolalar soni maktab yoshidagi barcha bolalarning 2 % ini tashkil qiladi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitish ularning kelgusida jamiyatga moslashuvining bitta muhim yo'nalishi – kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishni qiyinlashtiradi, chunki umumiy o'rta ta'lim maktab o'z oldiga bunday vazifalarni qo'ymaydi va buning uchun zarur moddiy negizga ega emas. Integratsiyalashtirilgan bitiruvchilarni maktabdan keyin maxsus kasbiy tayyorlash zarurati kelib chiqadi. Ushbu holatlar xorijiy mutaxassislarga ma'lum bo'lgan holatni, ya'ni integratsiyalashtirilgan ta'lim tabaqalashtirilgan (maxsus) ta'limga nisbatan qimmatroq turishini tasdiqlaydi. Shunga qaramay, integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirish zarur, chunki u nogiron bolalar va rivojlanishida nuqsoni bor bolalar bir qismi uchun samarali.

Hozirgi bosqichda O'zbekiston Respublikasida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning bir qismi umumiy o'rta ta'lim muassasalariga qatnaydilar. Bu bolalar toifalari har turli va ular normal rivojlanayotgan tengdoshlari muhitiga turli sabablar bo'yicha "integratsiyalashtirilgan". Bunday bolalarni shartli ravishda to'rtta guruhga ajratiladi.

1. "Integratsiyalashtirilganligi" rivojlanishda nuqsoni borligi bilan bog'liq ekanligi hali aniqlanmagan bolalar.

2. Ota-onalari bolaning nuqsoni to'g'risida bilganlari holda, turli sabablarga ko'ra, uni oddiy bolalar bog'chasida yoki maktabda o'qitishni xohlaydilar; ta'limning bu shaklini faqat bolalarning bir qismi uchun samarali deb hisoblash mumkin, lekin ulardan ko'plari bir necha-yil davomida o'zlarining nuqsonlari va ahvollariga mos bo'lmagan "ta'lim olganlaridan" keyin maxsus ta'lim muassasalariga boradilar yoki ta'lim tizimidan to'liq "tushib qoladilar".

3. O'qituvchi-defektologlar va ota-onalari tomonidan uzoq vaqt davomida olib borilgan korreksion ish natijasida yosh tengdoshlari muhitida o'qishga tayyorlangan bolalar, bunday hol ular uchun

mutaxassislar tomonidan integratsiyalashgan ta'limni tavsiya etish imkoniyatini beradi; odatda, bu bolalar kelgusida faqat epizodik korreksion yordam oladilar, bunda o'qituvchi-defektologlar va pedagoglar bilan aloqa asosan faqat ota-onalar orqali amalga oshiriladi.

4. Oddiy maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablardagi maxsus maktabgacha guruhlar va sinflar tarbiyalanuvchilari: bunday bolalar ta'limi va tarbiyasi ularning rivojlanishidagi nuqsonlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi, lekin maxsus guruhlar va sinflar ko'pincha alohida, ajralgan holda bo'ladi.

Hozirda mamlakatimizda eshitishida muammosi bo'lgan bolalar integratsiyalashgan ta'limining turli shakllaridan foydalanilmoqda: bola umumiy o'rta ta'lim maktab sinfida o'qishi mumkin, ayrim bolalar kunning bir qismini, masalan, ikkinchi yarmini oddiy sinflarda o'tkazishi mumkin, maxsus va umumiy o'rta ta'lim sinflar bolalari turli tarbirlarni o'tkazish uchun sayrlarda, bayramlarda, musobaqalarda, ayrim mashg'ulotlarda birlashishlari mumkin. Mutaxassislar va ota-onalar tomonidan surdopedagoglar rahbarligida amalga oshiriladigan korreksion ishni albatta o'tkazish nazarda tutiladi.

Shuni qayd etish lozim-ki, hozirgi kunda eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda ilg'or horij tajribalaridan milliy va hududiy shart-sharoitlamizdan kelib chiqqan ravishda foydalanilmoqda. Ya'ni ta'limning milliy tizimi o'zining samaradorligini ko'rsatgan xorijiy metodikalarni ham qo'llashni nazarda tutmoqda. Rossiyada 20 yildan ortiq davrda 20 taga yaqin maxsus (korreksion) ta'lim muassasalari (Moskva, Neryungri, Xabarovsk, Vladivostok, Tolyatti, Astraxan va boshqa shaharlarda) o'z ishlarida verbotonal metoddan foydalanmoqdalar. Bu metod jahonda tan olingan: turli milliy tillarga ega bo'lgan 70 ta mamlakatlardagi 600 dan ortiq markazlarda (AQSH, Fransiya, Braziliya, Rossiya, Yaponiya, Xitoy va b.) verbotonal tizimini qo'llanmoqda.

Rossiyada 1991-yildan boshlab kar bolalar ta'limida bilingvistik metoddan foydalanish bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borilmoqda. Moskva bilingvistik gimnaziyasi – hozircha karlar uchun maxsus ta'lim tizimidagi bilingvistik metod bo'yicha ishlaydigan Rossiyada yagona ta'lim muassasasi hisoblanadi.

“Bilingvistik metod” – hozirda karlarni o‘qitish xalqaro amaliyotida borgan sari keng tarqalayotgan ta’lim tizimlaridan biri. “Bilingvistik metod”da pedagogik ta’sir vositasi sifatida ikkala til: milliy so‘zlashuv tili va karlarning milliy imo-ishora tili teng huquqli hisoblanadi.

Karlar va zaif eshituvchilarning maxsus maktab sharoitlarida tayanch ta’lim olishlarining hozirgi bosqichi ularga o‘rta va oliy kasbiy bilim yurtlarida ta’lim olishni davom ettirishlari imkoniyatini beradi.

Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar ta’limining mazmuni

Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar maktabida ta’lim mazmuni deganda ta’lim jarayonida o‘quvchilar egallab olishlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning ma’lum bir hajmi va tizimi tushuniladi. Ta’lim mazmunini takomillashtirish o‘rganilayotgan fanlarning ro‘yxati, har bir o‘quv fani bo‘yicha material hajmini aniqlash o‘quv dasturlari va darsliklarda ortiqchalarini chiqarib tashlash, asosiy tushuncha va g‘oyalarni aniq yoritib berish, o‘quvchilar egalashi lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalarning eng muvofiq hajmini belgilash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ta’lim mazmuni o‘quv rejasi, o‘quv dasturlari va darsliklarda yoritilgan.

Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar maktabining o‘quv rejasi. O‘quv reja davlat tomonidan tasdiqlangan hujjat bo‘lib, asosiy o‘quv fanlari belgilanadi. Unda o‘quv yillari bo‘yicha fanlarni o‘qitish tartibi, ketma-ketligi, har bir o‘quv faniga ajratilgan soatlar soni ko‘rsatilgan bo‘ladi. O‘quv rejasini tuzishda kar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning umumiy va nutqning rivojlanish darajasi e’tiborga olinadi, o‘quv rejasida kar bolaning umumiy va mehnat ta’limining o‘zaro bog‘liqligi nazarda tutiladi.

Respublikamizda karlar maktabida fanlar umumta’lim maktablaridagidek bo‘lib, faqat musiqa va chet tili darslari o‘tilmaydi. Boshlang‘ich sinflarda esa maxsus o‘quv fani – predmet-amaliy ta’lim kiritilgan. Umumta’lim maktablaridan farqli karlar maktabining o‘quv dasturida umumiy soatlar soni va ularning o‘quv fanlariga ajratilishida tafovutlar mavjud. Har bir o‘quv fanini o‘rganishga vaqtni taqsimlashda ushbu fanning karlarga umumiy ta’limi berish tizimidagi ahamiyati va o‘rni, shu kurs bo‘yicha nazariy ma’lumotlar

va amaliy ishlar hajmi, shuningdek, ularni kar o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish xususiyatlari e'tiborga olinadi. Kar bolalar maktabining o'quv rejasi maxsus bo'lib, eshitishni rivojlantirish bo'yicha talaffuzni shakllantirish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar kiritilganligi bilan xarakterlanadi¹ Maxsus korreksiyalash mashg'ulotlari 0-5 sinflarida har bir o'quvchi bilan yakka holda, 6-10-sinflarda kichik guruhlarda olib boriladi(2-3 bola bilan). Kar bolalar maktabining o'quv rejasi tushuntirish xati va o'quv soatlarining taqsimlanishidan iborat. Tushuntirish xatida o'quv yilining tuzilishi belgilanadi (choraklar va ta'tillarning ketma-ketligi, muddati), shuningdek, tashkiliy masalalar yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktabining o'quv dasturlari. O'quv dasturlari o'quv rejasi asosida har bir fan uchun tuziladi. Dasturlarda har bir fanni o'qitishdan maqsad, uning mazmuni, bolalar egallash kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar yoritib beriladi, o'quv yillari bo'yicha fanni o'rganish tartibi ko'rsatiladi. Kar bolalar maktabining boshlang'ich va o'rta sinflari maxsus dasturlar bo'yicha, yuqori sinflari umumta'lim maktablari dasturlari bo'yicha ishlaydi. Kar bolalar dasturlari umumiy pedagogik talablar asosida tuziladi. Shu bilan birgalikda, kar bolalar tomonidan har bir o'quv fani bo'yicha bilimlarni egallash va amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish xususiyatlari e'tiborga olinadi. Dasturlarda u yoki bu bo'limni o'rganish jarayonida kar bolalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan nutq materialining hajmi va xarakteri ko'rsatiladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktablari darsliklari. O'quv rejasi asosida va o'quv dasturlariga muvofiq har bir fan bo'yicha darsliklar tuziladi va ularda tizimli tarzda o'quv fani mazmuni bayon etiladi. Darslikning asosiy vazifasi – kar o'quvchilarning darsda olingan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishdir. Kar bolalar uchun maxsus maktablarning darsliklarini tuzishda umumiy pedagogik va maxsus talablarni e'tiborga olish zarur. Maktab darsliklarining mazmuni ta'lim maqsadlari, maktab vazifalari, o'quv dasturlariga, ilm-fan, texnikaning zamonaviy yutuqlari, fanlararo bog'lanishlariga mos kelishi lozim.

¹ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

Unda asosiy ilmiy g'oyalarning, nazariya, qonun tushunchalarining mohiyati yoritilishi, hayot bilan bog'liqligi ochib berilishi kerak.

Darslikning metodik apparati kar o'quvchilarda o'rganilayotgan materialga qiziqish uyg'onishini rivojlantirishga, ularni ijodiy faollashtirishga, nazariy va amaliy malakalarni shakllantirishga qaratilishi lozim. Metodik apparatda asosiy matnga kiritilgan yangi so'zlar yuzasidan olib boriladigan lug'at ishlari berilgan.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonida ta'lim tamoyillarining qo'llanishi

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar zamonaviy umumta'lim maktablari umumiy pedagogikada asoslab berilgan didaktik tamoyillar tizimi, ilmiylik, ongllilik va faollik, tushunarlilik, ko'rgazmalilik, puxtalik, yakka yondashish, izchillik va muntazamlilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi va boshqa tamoyillari bo'yicha ish olib boradi.

Ilmiylik tamoyili. Ilmiy bilimlarning egallab olinishini ta'minlash uchun kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining idrok qila olish imkoniyatlarini hisobga olgan holda eng muhim ilmiy ma'lumotlarni tanlab olish kerak. O'quvchilarning idrok qila olish imkoniyatlari jismoniy kuch va aqliy kuchlanish talab qiluvchi o'quv mavzulari va amaliy masalalarni izchillik bilan murakkablashib borish jarayonida kengayib boradi. O'quv materialining ilmiyliligi tushunarli bo'lish bilan uyg'unlashishi kerak. Bunga uni o'quvchilarning aqliy va ruhiy rivojlanishiga, shuningdek, ularning tayyorgarligiga moslashtirish bilan erishiladi. Bilimlar mazmunining tushunarlilik kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida o'qishga qiziqish uyg'otadi, aqlga ozuqa beradi, mantiqiy fikrlashga, taqqoslash va xulosalar chiqarish, amaliy masalalarni yechishga majbur qiladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni o'qitish jarayonida nazariyani amaliyot bilan bog'lash tamoyili. Nazariyani amaliyot bilan bog'lash o'quvchilarni amaliy masalalarni hal qilishda nazariyaning ahamiyatini tushunishga olib keladi. Bu o'quv materiallarini o'zlashtirishda uning sifatini ko'taradi. Bu tamoyil mehnat ta'limi va o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash vazifalarini hal qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'lanish xarakteri o'quv fanining mazmuni bilan taqozo qilinadi.

O'qitishda nazariy bilimlar o'quvchilarni tabiatning u yoki bu hodisalari bilan amaliy tanishtirish jarayonida puxtaroq o'zlashtirib olinadi. Bunda amaliyot o'quvchilarni nazariyani o'zlashtirishga qiziqtirish uchun undan oldinroq kelishi mumkin. O'quvchilarning jonli tabiat burchagidagi, shuningdek, o'simliklarning suvga, issiqlikka, yorug'likka ehtiyojini, gul, manzarali o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga organik va mineral o'g'itlarning ta'sirini, pomidorning pishishi va hosildorligini aniqlash bo'yicha tajribalar o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan o'quv-tajriba maydonchasidagi mehnat jarayonida nazariya bilan amaliyot bog'lanishi yaxshi amalga oshiriladi. Darslarda nazariyaning amaliyot bilan bog'lanishini amalga oshirib borishda shuni yodda tutish kerakki, o'quvchilarning amaliy faoliyati ularning nazariy bilimlarni o'zlashtirib olishga bo'lgan intilishlarini bo'shashtirmasligi lozim. Karlarni o'qitishda nazariyaning amaliyot bilan bog'lanishi uning barcha bosqichlarida amalga oshirilmog'i, nazariy bilimlarning chuqurlashishiga va amaliy faoliyatga tayyorlashga yordam berishi kerak. O'rganiladigan nazariy bilimlarning mazmuniga qarab, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning har xil shakllari mavjud.

Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni o'qitishda onglilik va ijodiy faollik tamoyili. O'quvchilarning bilimini ongliligi va ijodiy faolligi qoidasi: o'quvchilarning o'qishga ongli va ijodiy munosabatda bo'lishlarini; o'rganilayotgan materialni tushunib olishlari va tushunganlarini ifodalay olishlarini; o'qish faoliyatini ijodiy xarakterda bo'lishini; bilimlarning amaliyotda ongli qo'llanilishi va ularning ishonchga aylanishini o'z ichiga oladi. Onglilik tamoyilini amalga oshirishda bosh rol o'qituvchiga taalluqlidir. U o'quvchi oldida turgan vazifalarni aniq qilib ifodalashi va ularni yaxshilab bajarishga qiziqish uyg'otishi kerak. O'qitishda onglilikning namoyon bo'lishining oliy shakli o'quvchilarning ijodiy faolligidir. Bilimni egallashda onglilik mavjud bo'lsa, o'quvchilarda ijodiy faollik shakllanishi ijobiy samara beradi.

O'qitishning ko'rgazmalilik tamoyili. Ko'rgazmalilik qoidalaridan foydalanishning asosiy vazifasi o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirishdir. Bu tamoyil atrof-olamni bevosita qabul qilib olish asosidagi o'qitishni nazarda tutadi. Ko'rgazmalilik tamoyiliga rioya qilish tabiatni o'rganishning dastlabki bosqichlarida, ayniqsa, muhimdir. Chunki kichik yoshdagi maktab o'quvchilar

ko'rganlarida hosil qilgan xususiy taassurotlari asosida to'g'ri tushuncha va xulosalar hosil bo'lishiga yordam beruvchi to'la qimmatli bilimlar olishlari kerak. Tabiatshunoslikni o'qitishdagi ko'rgazmalilikni mashg'ulotlar jarayonida faqat tabiiy jismlar foydalaniladigan yoki tajriba ko'rinishidagi hodisalarni eslatuvchi fanli ko'rgazmalilikka va tabiat jismlari yoki hodisalarining jadval, doskadagi rasm, model, mulyaj, diapozitiv, kinofilm, xarita, sxema va boshqalardan foydalaniladigan tasviriy ko'rgazmalilikka ajratish maqsadga muvofiqdir. Fanli va tasviriy ko'rgazmalilikni amalga oshirish asosida o'qitish, ayniqsa, bolalar rivojining dastlabki bosqichlarida, tafakkurni, kuzatuvchanlikning faollashishiga yordam beradi, o'rganilayotgan masalalarga qiziqishini oshiradi. Ularni oddiy tadqiqotlar olib borishga o'rgatadi, bilimlarni faol qabul qilishga yordamlashadi, ularni o'zlashtirib olish jarayonini osonlashtiradi, bilimlarning mustahkamligini ta'minlaydi.

Bilimlarni puxta o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil olingan bilimlarni, shakllantirilgan o'quv ko'nikmalari o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanishini nazarda tutadi. O'quvchilar bilimining puxta bo'lishi ko'rsatib o'tilgan tamoyillardan o'quvchilarning saviyasi hamda qiziqishiga qanchalik muvofiq tarzda foydalanilishiga bog'liq. Bilimlarning puxta bo'lishiga erishish uchun, avvalo, o'quv yili boshlanishida ilgari o'tilgan materialni yangi bilimlarning o'zlashtirilishini ongli bo'lishi uchun tiklash zarur. Birinchi navbatda, dasturning yangi material bilan ko'proq bog'liq bo'limlarini takrorlash lozim. Bunda yangi bilimlarini o'zlashtirishning birinchi bosqichida o'qituvchi o'quvchilar yangi materialni asosli ravishda tushunishlari va o'zlashtirib olishlari uchun uning barcha hajmini emas, balki asosiy mazmunini berishi kerak. Chunonchi, "Vatanimiz tabiatining xilmaxilligi" mavzusini o'rganishda o'quvchilarda avval o'lkadagi tabiiy sharoitning turli-tumanligi, keyin har bir hudud bilan tanishadilar. Bu yangi axborotlarni kiritib borish imkoniyatini beradi. Ular yordamida har bir hudud uchun xos bo'lgan xususiyatlarni, jumladan, o'simlik va hayvonot dunyosi aniqlanadi, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtiruvchi qo'shimcha ma'lumotlar berib boriladi. Puxta bilimlarga erishishda ularni o'quvchilarning faol fikr yuritishlari asosida tizimlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar yangi bilimlarni, ilgari o'rganilgan material bilan bog'lab, yaxshiroq o'zlashtiradilar.

O'qitishda muntazamlilik va izchillilik tamoyili. Atrofdagi olam haqida juda ko'plab ma'lumotlardan kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni, vatanimiz tabiatining xilma-xilligini, jonajon o'lka tabiatini va boshqalarni ochib beruvchi, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan ancha qimmatli o'quv materialini tanlanadi.

Materialning bunday berilishi shu bilan izohlanadiki, kichik yoshli maktab o'quvchilarining tabiat to'g'risidagi fan asoslarini faqat atrof-olamning jism va hodisalarini aks ettiruvchi va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beruvchi dastlab oddiy tabiiy obyektlar bilan, keyin esa murakkabrog'i bilan izchil tanishtirib borish jarayonida egallab olishlari mumkin. Bu bilan o'qitishda muntazamlilik tamoyili amalga oshiriladi.

O'qitishning muntazamliligi, ya'ni tizimlilik bilimni bayon qilishda muayyan tizimga amal qilishdan tashqari amaliyot bilan bog'lanishning xilma-xil shakllari amalga oshirilishini, jumladan, nazariy bilimlarini kuzatishlar va bilib olishga qaratilgan qiziqarli o'yinlar bilan; atrofdan hayot va qurilish amaliyoti bilan; mehnat ta'limi va ijtimoiy-foydali mehnat bilan; maktab oldi uchastkasidagi ish va unumli mehnat bilan bog'lanishini nazarda tutadi¹.

Yakka yondashish tamoyili. O'rta ta'lim tizimini qayta qurish sharoitida bolalarning yakka xususiyatlarini o'rganish tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Maktabga kirayotgan har bir bola muayyan axborot yig'indisiga va yakka xususiyatlarga ega, ular bilimlarni o'zlashtirish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Biroq o'qitish jarayonida bolalar guruhida bilimlarni o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lishi mumkin. Binobarin, bolalar rivojida to'g'ri keladigan umumiylikni aniqlash mumkin. U rivojlanish darajasi, bilim zaxirasi, fikrlash xarakteri, faoliyat va xulq-atvor baholarining o'xshashligi bo'lishi mumkin.

Ammo umumiylik bilan bir qatorda, har bir o'quvchi uchun o'zining yakka xususiyatlari: diqqatining rivojlanishi, darsdagi xulq-atvorining xarakteri, fanga munosabati, ko'rgazmali va og'zaki materialni qabul qilishining tezligi va aniqligi; o'quv materialini

¹ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

tushunib olishi va fikrlash xarakteri; tabiat to'g'risidagi bilimlarining sifati va og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojlanish darajasi o'ziga xosdir.

O'qituvchi, sinfda ish olib bora turib, har bir o'quvchi bilan yakka tarzda ishlash, ijobiy hislarni rivojlantirish va salbiylarini bartaraf qilish, sinfni jamoa ishiga tortish maqsadida har bir bolaning shaxsiy qobiliyatini o'rganish va hisobga olish zarurligini unutmashligi kerak.

Korreksion yo'nalganlik tamoyili. Korreksion yo'nalganlik tamoyili bolaning sog'lomligiga tayanishni, kar bolaning rivojlanishida kompensator imkoniyatlarini ta'minlashni nazarda tutadi. Kar bola sog'lom miyaga ega bo'lib, ko'rgazma-harakatli va ko'rgazma-obrazli darajada atrof dunyoni aks ettirib anglay oladi. Ifodali harakatlar tizimini – imo-ishorali nutqni egallab, muloqotga kirishish ehtiyojini qidiradilar. Karlarda yo'qolgan, buzilgan eshitish funksiyasini qisman ko'rish, kinestetik va boshqa analizatorlar faoliyati egallaydi. Saqlanib qolgan ko'rish idrokiga tayanish karlarda nutq a'zolarining ko'rinadigan harakatlari orqali og'zaki nutqni idrok etishning maxsus metodi – labdan o'qishni shakllantirishga imkon beradi. Bunda labdan o'qishning sifati tinglovchining faolligiga bog'liq. Bunday qarama-qarshi faollik, eng avvalo, kutilayotgan xabarni ehtimollashda, so'zlarni aks ettirib talaffuz etishda, berilayotgan barcha ma'lumotlarni qayta ishlashda namoyon bo'ladi. Kar bolalar maktabining o'quv rejasi ham korreksion yo'nalganlik tamoyilini e'tiborga olgan holda tuzilib, unga talaffuzni shakllantirish va eshitish idrokini rivojlantirish, tevarakatof bilan tanishtirish, predmetli-amaliy o'qitish fanlari kiritilgan. Korreksion yo'nalganlik tamoyili har bir darsda amalga oshiriladi. Surdopedagog bolalarda og'zaki nutqni shakllantirishga, bilish faoliyatini rivojlantirishga harakat qiladi, yangi tushunchalarni hosil qilayotib o'qituvchi saqlangan barcha analizatorlarning ishini faollashtiradi. Korreksion yo'nalganlik tamoyili og'zaki metodlar bilan birgalikda ko'rgazmali va amaliy metodlarni qo'llashni nazarda tutadi.

Fan asoslarini va so'zlashuv nutqni o'zlashtirish jarayonining birligi tamoyili. Umumta'lim maktab o'quvchilari fan asoslarini maktabgacha yoshda saqlangan eshitish asosida kattalar va tengdoshlari bilan aloqa qilishda shakllangan nutq yordamida o'zlashtirib olsalar, kar o'quvchilarda esa fan asoslarini va so'zlashuv

nutqni egallash jarayonlari o'zaro aloqadordir. Lug'at zaxirasini boyitish va grammatik ko'rilishini shakllantirish karga fan asoslarini egallash jarayonini osonlashtiradi va aksincha, fan asoslarini egallash o'quvchilar lug'atini yanada boyitib, og'zaki nutqni rivojlantiradi. Kar bolalar maktabining dasturlarida o'quv fani bo'yicha dastur mazmunini o'zlashtirish ishlari bilan parallel ravishda nutqni rivojlantirish ishlari zarurligi maxsus ta'kidlab o'tilgan.

Fan asoslari va og'zaki nutqni o'zlashtirish jarayonining birligi tamoyili boshlang'ich sinf o'qituvchisi va fan o'qituvchisidan kar o'quvchilar nutqining barcha tomonlarini (fonetik, grammatik, leksik) korreksiyalashni talab etadi. Bu, o'qituvchidan sinfning va har bir o'quvchining nutq imkoniyatlarini bilishni, o'quvchining nutqiga yakka ish mazmunini e'tiborga olgan holda talablar qo'yishni nazarda tutadi. Ushbu tamoyilga asoslanib, fan o'qituvchisi o'z fani bo'yicha atamaologiyani o'zlashtirishdan tashqari bolalar tomonidan boshqa fanlarni o'rganishda to'plagan lug'atini faollashtirishni amalga oshiradi. O'quvchilarni sinonimlar, antonimlar turli umumlashtiruvchi so'zlardan faol mashq qildirish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarda bog'langan nutqning og'zaki va yozma shakllarini dialogik va monologik nutq malakalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berishi kerak.

Ta'limda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili. Ta'limda eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili kar bolalarni atrofidagi odamlar nutqini eshitish, ko'rish asosida, apparat yordamida aniq va to'liq idrok etish maqsadida qoldiqli eshitish ehtiyojini imkoni bor darajada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ushbu tamoyil asosida kar bolalar uchun umumta'lim maktablarining o'quv rejasi tuzilgan bo'lib, unda eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish bo'yicha yakka mashg'ulotlarga alohida vaqt ajratilgan.

"Eshitish idrokini rivojlantirish" predmeti dasturida eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha ishlarning vazifalari, mazmuni va tashkiliy shakllari ko'rsatib berilgan. Asosiy talab ta'limni nutq eshitish sharoitida ovozni kuchaytiruvchi asboblardan keng foydalanish orqali amalga oshirishdir.

Eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili eshitishni mashq qilish va sensor bazani kengaytirishning shunday didaktik sharoitlarini

hosil qilishga yo'naltiradiki, unda har bola faqatgina eshitish, ko'rish, kinestetik, daktil-tebranuvchi(vibrasion) sezgilaridan bir vaqtning o'zida foydalanib borayotgan akustik ma'lumotlarni interpretatsiya qilishgagina o'rganmasdan, balki unda ijobiy motivatsiya, nutqni eshitishida foydalanish ehtiyojini ishlab chiqadi. E.P.Kuzmicheva, F.Alimxo'jayevaning ma'lumotiga ko'ra, eshitish mashqlari natijasida 1-sinf o'quvchilari 150 tagacha, 2-sinf o'quvchilari qo'shimcha 200 ta so'z, 3-sinf 300 ta yangi so'zni ajrata oladi.

Predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyili. Predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyili kar bolani har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda, o'quvchilarni umumta'limga tayyorlash va kasbiy yo'naltirishda predmetli-amaliy faoliyatining turli ko'rinishlaridan maxsus korreksiya vositasi sifatida keng foydalanishni nazarda tutadi. Predmetli-amaliy faoliyat sharoitida kar o'quvchilarning bilim faoliyati takomillashadi. Fanlardan amalda foydalanish (ko'zdan kechirish, paypaslab, ushlab ko'rish, qilish-yasash) obyektlarning turli xususiyatlari va sifatlarini, ular orasidagi ba'zi muhim munosabatlarni eshitishni rivojlantirishga yordam beradi. Predmetli-amaliy faoliyatning turli xillari kar o'quvchida hayotiy tushunchalarni shakllantirish, fikrlash operatsiyalarni, mantiqiy bog'lanishlarni o'zlashtirib olish jarayonini osonlashtiradi. Bunday faoliyat jarayonida kar o'quvchilar atrofda hodisa va voqealarning mantiqiy aloqadorligini o'rnatish ko'nikmasini tezroq egallaydilar. Predmetli-amaliy faoliyat harakat, obyekt xususiyatlari va sifatleri nomlarini beixtiyor eslab qolishini ta'minlaydi va so'z mantiqiy hodisalarini rivojlantirishga yordam beradi. Predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyilini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish o'quvchilarning darsda turli ish shakllarini tashkillashtirish bilan bog'liq (jamoali, guruhli, juft bilan, yakka holda).

Nutqiy muloqotni jadallashtirish tamoyili. Tilni o'rganish, nutqiy aloqa karlar uchun korreksiya va kompensatsiyaning muhim vositasi sifatida ahamiyatga ega. Nutqiy muloqotni jadallashtirish tamoyili tilning kommunikativ funksiyasini amalga oshirish, karlarda nutq asosida aloqa qilish ehtiyojini shakllantirish, o'quv-tarbiyaviy jarayonning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarning keng nutqiy amaliyotini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Nutqiy aloqani jadallashtirish tamoyili nutqni daktil, og'zaki va yozma shakllarda shakllantirishni nazarda tutadi. Daktil nutqi

muloqotning boshlang'ich shakl sifatida kar bolaga so'zlarni og'zaki va yozma shakllari o'zlashtirilmagan vaqtda taqlid orqali daktil belgilar yordamida ifoda etishni ta'minlaydi. Daktil nutq og'zaki va yozma nutqning shakllarini o'zlashtirib olishni tezlashtirish vositasidir.

Yozma nutqni o'zlashtirish bolaning nutqiy muloqotni jadallashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Bunda nutqiy kommunikatsiyaning hisobot, ariza, xat va hokazo shakllariga alohida ahamiyat beriladi¹.

Og'zaki nutq daktil bilan bir vaqtda shakllanadi. Asosiy tovushlarni o'rganib olib, (fonemalarning qisqartirilgan tizimi) bolalar atrofdegilar bilan aloqa qilish uchun daktil shaklda o'zlashtirib olgan zarur nutqiy materiallardan foydalana oladilar.

Tilning alohida nutq vositasi sifatida o'rganib olish og'zaki nutqni to'g'ri idrok etish, tushunarli talaffuzsiz iloji yo'q. Ularning sifatini oshirish uchun bolada rivojlanayotgan eshitishiga tayanish lozim. Nutqiy muloqotni eshitishni rivojlantirish bo'yicha ishlar barcha o'quv va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda zarur komponent-nutqiy aloqani jadallashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

Nutqiy muloqotni jadallashtirish tamoyilini amalga oshirish kar o'quvchilarda nutq ko'nikmalarining kompleksini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Ularga barcha fanlar bo'yicha darslarda rivojlantiradigan savollarga javob berish, savol tuzish, o'z munosabatini, faoliyatini, topshiriqni bajarganligini ifodalovchi nutqiy ko'nikmalar kiradi. Nutqiy aloqani jadallashtirish tamoyiliga sinfdan tashqari vaqtda pedagogik jihatdan tashkil etilgan turli kommunikativ sharoitda amalga oshiriladigan nutqni rivojlantirish ishlari ham kiradi. Ushbu tamoyilni amalga oshirishning yana bir yo'li maktabda yagona nutq tartibini tashkil etish. Pedagogik jarayon tomonidan o'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talabning yagonaligi o'quvchilarning aloqa qilish sharoitini yaratib berishdan, moyilligini mohiyatli ravishda amalga oshirish o'quvchilarning darsdagi turli ish shakllaridan: jamoali, guruhli, yakka holdagilardan iborat.

¹ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ta'limi jarayonida qo'llanuvchi metodlar tavsifi

O'qitish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Bu metodlar, birinchi navbatda, kar o'quvchilarning fiziologik va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Kar bolalarni o'qitish jarayonida foydalaniladigan metodlarni shartli ravishda 3 guruhga bo'lamiz: umumiy, maxsus va xususiy.

Umumiy metodlar. Bu metodlarga barcha tipdagi o'quv muassasalarida o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlar kiradi. Bunda ommaviy maktablarda o'qitiladigan barcha fanlarda bu metodlardan foydalaniladi.

Maxsus metodlar. Bunda kar bolalar maxsus maktabida o'quv rejasida ko'zda tutilgan ma'lum bir o'quv fanini o'zlashtirish, o'qitishda qo'llaniladigan metodlar tushuniladi. O'quv materialining ahamiyatli tomonlari va shu o'quv materialining kar bolalar tomonidan o'zlashtirish xususiyatlariga tayaniladi, muhim metodologik metodlar, o'qitishning tashkiliy shakllaridan foydalaniladi.

Xususiy metodlar. Xususiy bo'limlar ustida ish olib boruvchi surdopedagoglar tomonidan qo'llaniladigan metodlar, ya'ni kar bolalarning so'zli nutqini muomala vositasi sifatida shakllantirish, talaffuz va labdan o'qishga o'rgatish kabi ishlarda qo'llaniladigan metodlar.

Fan asoslarini o'qitishning ko'rgazmali metodlari. *Kuzatish metodi* – atrof-olamni hissiy bilishning faol shakli bo'lib, fan va hodisalarning obyektiv faoliyati haqida dastlabki tasavvurlarni paydo qiladi. U kar bolalarning aqliy rivojlanishining muhim manbayidir. Bu ishga asosiy diqqat kar bolalarni o'qitishning dastlabki bosqichlarida ajratiladi. Atrof olamni o'rganish kuzatuv metodidan foydalanish uchun katta imkoniyatlar ochib beradi.

Namoyish metodi – o'rganilayotgan fanlar, hodisalar bilan hissiy-ko'rgazmali tanishtirishdir. Bunda o'quvchilarda obrazli tasavvurlar shakllanadi. Kar bolalar maktabida namoyishning turli shakllari (tabiatda mavjud bo'lgan narsalar namoyishi, ularning tasviri, kinofilm va diafilmlar ko'rsatish, sxemalar, jadvallar, xaritalar ko'rsatish va hokazolar)dan foydalaniladi.

Fan asoslarini o'qitishning so'zlashuv metodlari. *Hikoya* – kar o'quvchilarning bilimlarni muayyan tizimda o'zlashtirishlariga ko'maklashadigan amaliy materialni jonli, obrazli, emotsional bayon qilishdir. Surdopedagog so'zi kar o'quvchilar bilimlarining muhim manbayidir. Hikoyaning qimmatliligi shundaki, qisqa vaqt ichida o'qituvchi kattagina hajmli ma'lumotlarni berishi mumkin. O'qitish metodi sifatida hikoya o'quvchilarning bilimlarini yangi amaliy material bilan to'ldirish zarur bo'lganida qo'llaniladi. Ushbu metod barcha sinflarda jami o'quv fanlarini o'qitishda ishlatiladi. O'qituvchining nutqiga qo'yiladigan talablar nihoyatda muhimdir. U artikulyatsiyaga zo'r bermasligi, yuzi yaxshi yoritilgan, nutqi aniq; ifodali, ravon, barcha orfoepiya me'yorlariga rioya qilingan bo'lishi kerak. O'qituvchining nutq sur'ati nutqiy material xususiyati va o'qitish bosqichiga bog'liq bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalar sinflarida hikoyadan foydalanilganda surdopedagogning nutqi me'yordan sekinlashgan, aniq, lekin tabiiy artikulyatsiyali bo'lishi darkor. O'quvchilarning ko'rib, eshitib qabul qilish ko'nikmalari rivojlanib borgan sayin o'qituvchining nutqi so'zlashuv sur'atiga ega bo'la boradi.

Tushuntirish – *so'zlashuv metodi* ishlatilishi jarayonida hodisalar qonuniyatlari ochib ko'rsatiladigan, sabab-oqibat bog'lanishlari aniqlanadigan so'zli metoddir. O'qituvchining tushuntirishida hamisha mulohaza, isbot va xulosalar ko'p bo'ladi. Uning tushuntirishi o'qitilayotgan hodisalar va qonun-qoidalar mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Tushuntirish o'quvchilarning faol fikrlash faoliyatini nazarda tutadi. Bunda o'quvchilarning mustaqilligi, ularning kitob bilan, ko'rgazmali va didaktik material bilan ishlay olishi muhimdir. Pedagog vazifasi – zaruriy yordam ko'rsatgan holda karlarning amaliy va fikrlash faoliyatiga mohirlik bilan boshchilik qilishdir. Tushuntirish fan asoslarini o'qitish metodi sifatida maktab amaliyotida hikoya, suhbat, ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan birga ko'riladi.

Suhbat. Monologik bayondan farqli o'laroq, suhbat dialogik so'zlashuv metodidir. Uning qimmatliligi shundaki, u surdopedagogga o'quvchilar faoliyatini ancha faollashtirishga imkon beradi. Muloqotning savol-javob shakli kar o'quvchilarda dialogik nutqni shakllantirishga ko'maklashadi. Suhbat turlicha pedagogik maqsadlar bilan o'tkazilishi mumkin. Shunga ko'ra, uning xususiyati va o'tkazish uslubi yati o'zgaradi. Jumladan, surdopedagog amaliyotida

kirish suhbatini keng qo'llaniladi. Shu jarayonda surdopedagog kar bolalardagi bilimlar darajasi, hajmi va xususiyatlarini aniqlaydi. Bunday qilish keyingi ishlar uchun va materiallarni o'qitish metodlarini belgilash uchun boshlang'ich nuqta bo'ladi. Kirish suhbatini kar o'quvchilarning ilgari o'zlashtirgan bilimlarini dolzarblashtirish va ularni yangi materialni qabul qilishga tayyorlashga yordam beradi. Suhbat o'tkazishda surdopedagogning savollarni tanlashi va ta'riflashi eng qiyini hisoblanadi. Savollar kar o'quvchilar haqiqiy bilimlarini aniqlashgagina emas, balki hodisalarning sababiy bog'lanishini, o'zaro aloqadorligini tushunib olishga, ularning mohiyatini anglashga qaratilishi lozim. Bu esa o'quvchilarni evristik izlanishga rag'batlantiradi. Suhbat boshqa metodlar: suhbatga kiritisa bo'ladigan hikoya, suhbatga qo'shimcha qilinadigan namoyish va hokazolar bilan uzviy bog'langandir. Xususiyatiga ko'ra suhbat axborot – reseptiv, reproduktiv yoki izlanish metodlariga kiritilishi mumkin. Uni o'tkazishning mantiqiy yo'li ham turlicha bo'lishi mumkin. Suhbat usulidan foydalanganda kar bolalar fikrlash faoliyatining kuchayishi bilan bir qatorda ularda nutqni ko'rib qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish, eshitib qabul qilishni rivojlantirish, shuningdek, nutqning to'g'ri talaffuzi ustida ishlash uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Fan asoslariga o'qitishning amaliy metodlari. *Darslik va kitob bilan ishlash* – kar o'quvchilar uchun muhim bilim o'chog'i hisoblanadi. Kar o'quvchilarning kitob bilan ishlashi birinchi o'quv yilidan boshlanadi. Sinf dan sinfga ko'chgan saralash faoliyatlarini murakkablashadi. Bundan tashqari, surdopedagog darslik bilan ishlashgagina emas, kar o'quvchilarni turli toifadagi lug'atlar va ma'lumotnomalardan foydalanishga ham o'rgatadi.

Amaliy ishlar – o'quvchilar bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlashga, shuningdek, bilimlarni amaliyotda qo'llash, nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi aloqani o'rnatishga qaratiladi. Amaliy ishlar bilim va malakalarni shakllantirishda kar o'quvchilarning mustaqilligini va bilish faolligini rivojlantirishda, ularni hayot va mehnat faoliyatiga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Amaliy ishlar barcha sinflarda, barcha o'quv fanlarini o'zlashtirishda qo'llaniladi. Karlar maktabining quyi

sinflarida amaliy ishning o'ziga xos ko'rinishi o'quvchilarning ko'rgazmali amaliy faoliyatidir. Bunga quyidagilar kiradi: predmetli-amaliy faoliyat, o'lchov ishlari faoliyati va boshqalar. Kar o'quvchilarning quyi sinflarida predmet amaliy ta'lim (predmetli-amaliy ta'lim) faoliyatining qurish-yasash, applikatsiya modellash, konstruktorlash ishlari keng tarqalgan.

Mashq – o'qitishning muhim metodlaridan biridir. Bu metod kar bolalar maktabining barcha o'quv fanlarini o'qitishda keng qo'llaniladi. Mashqning metodikasi va xarakteri o'quv fanining xususiyatlariga, aniq materialga va o'zlashtirilayotgan savolga bog'liq. Mashq qoida bo'yicha qayta tiklovchi (reproduktiv) metodga tegishlidir. Mashqlarni rejalashtirish asosida surdopedagog sinf rejasini va har bir o'quvchining yakka xususiyatlarini inobatga olishi lozim.

O'qitishning o'ziga xos xususiy metodlari. Surdopedagoglarga ushbu metodlarning ilmiy-nazariy asosi va tavsifi berilgan. Ulardan biri kar o'quvchilarning so'zlashuv nutqini shakllantirish hisoblanadi. Shuningdek, kar o'quvchilarning eshitish idrokini shakllantirish ishlari o'quv-tarbiya jarayonining o'ziga xos jihati hisoblanadi. Uning vazifasiga kar bolalarning saqlangan qoldiq eshituvini maksimal darajada rivojlantirish, nutqiy ovozlar olami haqidagi tasavvurlarini boyitish kiradi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktablarida til o'qitish asoslari

Tilga o'rgatish – zaif eshituvchilar maktabida muloqotning to'liq vositasini shakllantirish vazifasini ko'rib chiqadi. Nutqiy rivojlanmaslikni bartaraf etish nafaqat maxsus fan sifatidagi tilga o'rgatishning zarur sharti, balki mehnatga tayyorgarlikning asosi hisoblanadi.

Nutqni shakllantirish va uni tuzatish bir-biriga bog'liq vazifalarni yechishni taqozo qiladi.

Bolalarda nutqni tushunishni rivojlantirish yo'nalishidagi ish o'qituvchining sinfga va alohida o'quvchiga qarata aytgan topshirig'i, buyrug'i, aniq vaziyatni o'z ichiga olgan sodda murojaatini tushunishni o'rgatishdan boshlanadi. Keyinchalik ularni faol nutqda qo'llashni boshlaydilar. Yangi nutqiy materialni tushunishni rivojlantirish

doimo birinchi darajada turadi. Zaif eshituvchilarning og'zaki nutqi eshituv-ko'ruv asosida qabul qilinadi.

Labdan o'qish malakasini shakllantirish ikki xil yo'nalishda olib boriladi: dars va darsdan tashqari paytidagi nutqiy muloqot jarayonida va maxsus mashqlarni bajarish paytida. Labdan o'qishning muvaffaqiyatli bo'lishi nutqning tuzilishi va talaffuzini o'rganish bilan belgilanadi.

Og'zaki nutqni samarali shakllantirish o'qituvchining nutqini qabul qilishdan boshlanadi. So'ngra o'quvchilarni turli so'zlardan ibora qurishga, fikrni mustaqil ifodalashga o'rgatiladi.

Og'zaki nutq ta'limning birinchi bosqichida iboralardan, keyinchalik darak va so'roq gaplardan foydalaniladi.

Og'zaki nutqning leksik-grammatik tomonlarini shakllantirish talaffuz malakalarini rivojlantirish va korreksiyalash bilan uzviy bog'liq. To'g'ri, aniq, ifodali og'zaki nutqni shakllantirish vazifasi ta'limning birinchi uch yilligida hal qilinadi. Keyinchalik talaffuz ustida ishlash korreksion xarakterga ega bo'ladi. Talaffuz malakalarini rivojlantirish yakka mashg'ulotlarda, maxsus darslarda, shuningdek, o'quv-tarbiya ishi jarayonida olib boriladi.

Dialogik va monologik nutqqa o'rgatish. So'zlashuv nutqi malakasini rivojlantirish o'quv mashg'ulotlarida, o'yin, mehnat, tasviriy faoliyat jarayonida olib boriladi. Bu ishda o'quvchilar dialogik nutqning turli ko'rinishlarini o'zlashtiradilar (iltimos, savol-javob, bajarilgan topshiriq haqida ma'lumot). Suhbat mavzulari doimo murakkablashadi. Monologik nutq qurilishidagi mashqlar tilning barcha komponentlarini rivojlantirishni nazarda tutadi va o'quvchilardan nutqiy materialni mobilizatsiyalashni talab qiladi.

Yozma nutqqa o'rgatish zaif eshituvchilar maktabida nafaqat asosiy didaktik masala, balki nutqni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Zaif eshituvchilarning nutqi va fikrlashini rivojlantirishda yozma ishlar muhim o'rin tutadi. Bu ishlar o'quvchilarning nutqiy imkoniyatlarini faollashtiradi, nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Mustaqil insholarda yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishlash, mashg'ulotlarning turli ko'rinishlarida nutqni rivojlantirish mashqlarining asosiy qismi hisoblanadi.

Nutqning lug'at asosini shakllantirish. Nutqni shakllantirish bo'yicha ish tizimi, bolalardagi so'zlarni korreksiyalash, lug'atini boyitishni nazarda tutadi. Lug'at ishida asosiysi – og'zaki va yozma

nutqda soʻzdan toʻgʻri foydalanishga oʻrgatish, nutqning grammatik qurilishini shakllantirish, oʻqish mashgʻulotlari. Bundan tashqari, lugʻat ishi bolalarda soʻz muloqotini shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Nutqning grammatik qurilishini shakllantirish. Grammatik mashgʻulotlarning asosiy maqsadi tilga oʻrgatishning boshlangʻich bosqichida soʻzlar oʻrtasidagi munosabatni ifodalashdan iborat. Nutqning grammatik qurilishi lugʻat ustida ish bilan bogʻliq holda olib boriladi. Amaliy grammatik malakalar morfologiya va sintaksis qonunlari asosida rivojlanadi. Grammatik kategoriyalar nutqiy amaliyotda oʻzlashtiriladi. Ularning har birini oʻzlashtirish uchun bolalarga yordam beriladi.

Til tizimi bilan boshlangʻich tanishuv. Til birliklari, uning strukturalari oʻquvchilar oddida til vositalarini bilish imkoniyatlarini ochib beradi. Bu esa, ularning nutqiy malakasini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib beradi. Tilga oʻrgatish jarayonida oʻquvchilar kuzatishga, tahlil qilishga oʻrganadilar. Bu esa, ularga oʻz nutqini tekshirishga yordam beradi. Grammatika darslardagi bilimlar soʻzlarning leksik maʼnosining kengayishi va chuqurlashishini taʼminlaydi.

Til mashgʻulotlari – oʻrganish obyekt sifatida atrofda olamni anglashga, fonetika, grammatika, toʻgʻri yozish malakasini rivojlantirishga, turli mashqlarni bajarish usullarini egallashga, darslik va javdallar bilan ishlashga oʻrgatadi.

Tilga oʻrgatish boʻyicha ishni tashkil etish tamoyillari. Zaif eshituvchilarni tilga oʻrgatish oʻqituvchidan ularning nutqini koʻp tomonlama va sistematik oʻrganishni talab qiladi. U zaif eshituvchilar nutqi xususiyatlarini ajratishga qaratilgan. Nutqni oʻrganish talaffuz, lugʻat, grammatik malaka ustida ishlash bilan olib boriladi.

Zaif eshituvchilarni tilga oʻrgatishda mashgʻulotlarning kommunikativ yoʻnalganlik tamoyili tashkil etiladi. Bu tamoyil hamkorligida tilga oʻrgatish maxsus taʼlim jarayonini oʻquvchilar nutqiy amaliyotining maxsus ishlab chiqilgan tizimi kabi ifodalash mumkin. Nutqni shakllantirish vazifasi muloqot vositasi sifatida oʻquvchilar faoliyatidan kelib chiqib hal qilinadi. Maktab-internatda bolalar jamoasining turli faoliyatlari orasida aloqa oʻrnatish uchun imkoniyat yaratiladi. Oʻquv jarayoni, oʻyin, ekskursiya, bolalar

mehnati – bularning barchasi tevarak hayotni anglash va nutqni rivojlantirish orasida aloqa oʻrnatishni hisobga olib rejalashtiriladi.

Oʻqituvchi, tarbiyachi, kutubxonachi bir-biri bilan aloqaga kirishish, nutqiy muloqotni tashkillashtirishda oʻzining vazifasini belgilab oladi.

Zaif eshituvchilarda nutqni shakllantirish va uni tuzatish ularning barcha ruhiy jarayonlarni rivojlantirish bilan bogʻliq holda olib boriladi. Bu qoidagi asoslanib, oʻqituvchi oʻzining eʼtiborini bolalarning sensor rivojlanishiga qaratadi.

Talaffuzga oʻrgatish, eshituv-koʻruv qobiliyatini rivojlantirish, eshitish qoldigʻidan foydalanish nutqning sensomotor asosini takomillashtirishni nazarda tutadi. Maxsus taʼlimda foydalanuvchi turli mashqlar, ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotirani tarbiyalashga qaratiladi. (masalan, oʻyinlarda). Oʻquvchilar mustaqil nutqining sistematik, maxsus rejalashtirilgan xatolar ustida olib boriladigan ishlar nutqiy rivojlanmaganlikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi va u nutqiy amaliyotning koʻrinishlaridan biridir. Xatolar va ularni tuzatishga eʼtiborni qaratish lugʻatni boyitishga, grammatik malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zaif eshituvchi bolalar taʼlimida nutq koʻrinishlari va shakllari maxsus rol bajaradilar.

Bu vazifaning belgilanishi nutqning lingvistik, psixologik, didaktik xususiyatlari bilan bogʻliqdir.

Nutqning turli shakllari va koʻrinishlaridan differensial foydalanish tamoyili bilan hamkorlikda oʻqituvchi sinf bilan muloqot oʻrnatadi. Nutqning turli shakllari oʻquvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. Yangi leksika, grammatikani mustaqil oʻzlashtirish zaif eshituvchi bolalarning nutqiy rivojlanishi uchun asosiy omil boʻlib hisoblanadi. Shuning uchun oʻquv jarayonida qoʻllaniluvchi nutqiy zaxirani bartaraf qilish va korreksiyalash tilga oʻrgatishning muhim tamoyili hisoblanadi. Zaif eshituvchilar maktabida ona tiliga oʻqitish boʻyicha dastur oʻquvchilar nutqiy rivojlanishning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Nutqiy faoliyatda til materiali va til sistemasini oʻrgatish fikrlashning mazmunini ifodalovchi tushunchalar qiymatini oʻzlashtirish uchun yordam beradi¹.

¹ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

✓

Kuzatishlar bo'yicha, maxsus maktablarda tilga o'rgatishning mazmuni zaif eshituvchi o'quvchilarning aqliy rivojlanish dasturi bo'lib hisoblanadi. Dasturda tilga o'rgatishning vazifalari ham belgilab berilgan. Bu ikki usulda olib boriladi: birinchidan, amaliy talablarni o'zlashtirishda o'quvchilarga til manbalari haqida ma'lumot beriladi (2-4-sinflar), ikkinchidan, 4-sinfdan boshlab "Grammatika va to'g'ri yozish" bo'limi kiritiladi.

Ona tiliga o'rgatish dasturi bir nechta bo'limlarni o'z ichiga oladi.

Savod o'rgatish. Bu bo'limning mazmuni o'z ichiga o'qish va yozish malakalariga bo'lgan talablarni oladi. Ularda ko'nikmalar aniqligi belgilanadi, shuningdek, zaif eshituvchilarda shakllanayotgan asosiy sharoitlar belgilab berilgan. Talablarga muvofiq holda savodga o'rgatish dasturi og'zaki nutqda korreksion-rivojlantiruvchi vazifani bajaradi.

"Savodga o'rgatish" bo'limi bo'yicha ishning mazmuni "Nutqni rivojlantirish", "Eshituv qobiliyatini rivojlantirish", "Talaffuzga o'rgatish", "Nutqning grammatik tomonini shakllantirish" bo'limlari bo'yicha olib boriladigan ish mazmuni bilan bog'liq.

O'qish. Bu bo'lim qator talablarni o'z ichiga oladi va to'g'ri, ifodali o'qishni tarbiyalaydi. O'qish mashg'ulotlari bolalar nutqini shakllantirish va korreksiyalashda muhim o'rin egallaydi. Ular o'quvchilarning tevarak olam haqidagi boy imkoniyatlarini ochib beradi.

Matn bilan ishlashda o'quvchilar o'qilgan matnni mustaqil baholashni, mant mazmunini o'zining hayot malakasi bilan bog'lashni o'rganadilar. Bu bo'lim to'rtta qismni o'z ichiga olgan: "O'qish tematikasi", "O'qish malakasi", "Matn bilan ishlash", "Sinfdan tashqari o'qish".

Nutqni rivojlantirish. Bu bo'lim ona tili darslaridagi nutqiy muloqotning maxsus tashkil etilgan amaliyoti asosiy qismining bajarilishini talab qiladi. Bu bo'limda o'quvchilar nutqiga kiritilishi kerak bo'lgan so'zlarning leksik-semantik guruhlari ko'rsatib o'tilgan. Bo'limda o'quvchilarning nutqiy ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar murakkablashib boradi. Dasturda ko'rsatilgan nutqiy ko'nikma va malakalar, til materiallari orasida bo'lim mavzulari alohida o'rin tutadi. "Yozish va nutqni rivojlantirish", "Tevarak olam bilan tanishtirish". Sinflar bo'yicha mavzular taqsimlanishi turlichadir.

Yozma nutqqa o'rgatish ta'limida o'quvchilar gap tuzishga, rasmlarni ta'riflashga, xat yozishga, insho yozishga, badiiy adabiyot qahramoniga xarakteristika berishga o'rganadilar.

Nutqning grammatik qurilishni shakllantirish. Bu bo'limning talabi o'quvchilarning faol nutq va grammatik nutq vositalarini egallashini ta'minlashi kerak.

Grammatik kategoriyalar shakli va mazmunining birligi tamoyili boshlang'ich bosqichda grammatik mohiyati va ikkilamchi sifatda – ifodalashning til vositalari bo'lib hisoblanadi.

O'quvchilarning o'z fikrini ifodalashning grammatik vositasini o'zlashtirish bo'yicha dasturning ushbu bo'limi talablarning alohida sistemasining yaratishni nazarda tutadi. Ushbu talablarning tashkil etilishi dastlab alohida grammatik qonuniyatlarni o'zlashtirishni, keyinchalik esa ularni sistemalashtirishni ta'minlaydi.

Grammatika va to'g'ri yozish. Bo'limning nomi maktab an'anasida mustahkamlangan. U ko'p rejalashtirilgan ishning bir qismini tashkil etadi. Bu bo'lim bo'yicha olib boriladigan ish nutqni rivojlantirishda grammatik qonuniyatlarni mustahkamlashga, til sistemasi bilan tanishtirishga qaratiladi. Grammatikaning boshlang'ich kursi yuqori sinflarda sistematik kursni o'zlashtirish uchun baza bo'lib hisoblanadi.

Talaffuzga o'rgatish ta'limi ona tili dasurining barcha bo'limlari bilan uzviy bog'langan. O'quvchilar og'zaki nutqining talaffuziga qo'yilgan talablar "Eshituv qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzga o'rgatish" dasturida o'z ifodasini topgan.

Ta'lim va tarbiyaning u yoki bu sharoitlarida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning psixik rivojlanish qonuniyatlari o'rganilgan, nutqning shakllanish, sezgi va idrokning, xotira, tasavvur va tafakkurning rivojlanish, shaxs qirralarining tiklanish bosqichlari kuzatilgan (R.M.Boskis, L.V.Zankov, A.G.Zikeyev, K.G.Korovkin, N.G.Morozova, M.M.Nudelman, T.V.Rozanova, I.M.Solovyev, L.I.Tigranova, J.I.Shif, N.V.Yashkova, U.Fayziyeva, F.Qodirova, D.Nazarova, Z.Mamarajabova va b.).

Nutqni shakllantirish ko'p qirrali jarayon sanaladi. Uning turli shakllarini, avvalo muloqot asosini tashkil etadigan og'zaki nutqni rivojlantirish zarur. Kar va zaif eshituvchi bolalarda talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish avvalo katta odamga taqlid shaklida, eshitish apparatlaridan foydalanilgani holda amalga oshiriladi.

Go'dakning ovoz reaksiyalarini faollashtirish bu reaksiyalarni qo'llab-quvvatlash va yangi tovushlar hosil qilishga qaratilgan mashqlarni o'tkazish jarayonida amalga oshiriladi. Bu mashqlar muloqot jarayonida, katta odam bola bilan turli tovush va tovush birikmalaridan foydalanib, ularni gimnastika elementlari bilan birga qo'llab «gaplashganida» amalga oshiriladi. Bir yarim ikki yoshli bolaning og'zaki nutqi ustida ishlashning muhim vazifasi bolada og'zaki nutq ehtiyojini shakllantirish sanaladi. Eng muhimi – bolaning katta odamga ergashib tovush, bo'g'in, so'zlarni talaffuz qilishga urinishi. Nutqqa taqlid harakatlarga taqlid bilan uzviy bog'liq. Shu sababli gavda harakatlariga taqlidga o'rgatishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Kattalarga bu kabi taqlidni o'zlashtirgani sari bola harakatlarni tovushlar, bo'g'inlar, so'zlarni go'ldirab talaffuz qilish bilan to'ldirib boradi. Shu davrdan fonetik ritmika mashg'ulotlari boshlanadi. Fonetik ritmika – maktabgacha yosh oldidan va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ularning talaffuzi ustida olib boriladigan ishlarning asosiy usullaridan biri.

Fonetik ritmikani olib borishda tovush, bo'g'in, so'z, jumalarni talaffuz qilish ma'lum harakatlar bilan birga bajariladi. Fonetik ritmikadan foydalanish metodikasi turli qo'llanma, dasturlarda (E.I.Leongard, 1991; T.A.Vlasova, A.N.Prafenrodt, 1989, 1998; N.D.Shmatko, T.V.Pelimskaya, 1991, 1993, 1995, U/Fayziyeva) bayon qilingan. Ota-onalar va adabiyotlardan fonetik ritmikaning vazifasi va uni amalga oshirish metodikasi bilan tanishish uchun foydalanishlari mumkin.

Eshitib idrok etishni rivojlantirish bolaning bilish faoliyati, nutq va talaffuzni idrok etish mexanizmlari shakllanishi uchun katta ahamiyatga ega. Qoldiqli eshitishni rivojlantirish bo'yicha ishlarni erta boshlash alohida muhim ahamiyat kasb etadi, shu sababli eshitish funksiyasini rivojlantirish bola hayotining birinchi yillarida tobora sezitiv davrda amalga oshiriladi, bunda eshitish analizatori fiziologik jihatdan yetiladi, bu pedagogik ish samaradorligini ta'minlaydi. Dastlabki oylar davomida bolada katta odamning tovushi, ovozli o'yinchoqlarga kompleks ko'rish-eshitish e'tiborini jamlash shakllantiriladi. Eshitish apparatlaridan erta foydalanish bolaning eshitish qobiliyatini rivojlantirishning eng muhim sharti sanaladi. Ulardan foydalanar ekan, bola ayrim baland maishiy tovushlarni, ayniqsa katta odam ularga e'tiborni qaratganida idrok

eta oladi. Apparatni taqib yurish kattalarning u bilan muloqoti chog'ida g'o'ldirash, shivirlashni yaxshilaydi. Kichkintoylar bilan maxsmus mashqlar ham bajariladi, ular o'yinchoqlarning ovozig, o'z ismiga reaksiya qilish, ovoz yo'nalishini aniqlash (ovoz tomonga boshini qaratish), o'yinchoqlar nomini ifodalaydigan tovush va tovushga taqlidlarni eshitishga qaratiladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nutqini shakllantirish muammolari I.M.Solovyeva, F.F.Rau, N.I.Shif, S.A.Zikov, T.V.Rozonov, N.G.Morozoav, R.M.Boskis, U.Fayziyeva, F.Qodirova, D.Nazarova, R.Rustamovalar ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Og'zaki nutq inson jamiyatida ilk nutq shakli sifatida namoyon bo'lgan. Dastlabki so'zlar tovush kompleklar shaklida bo'lib, tarixiy rivojlanish davrida ma'lum tushunchalar sifatida aniqlanib, mustahkamlanib borgan. Lekin dastlab imo-ishora nutqi mavjud bo'lgan degan fikr ham mavjud. Bu ma'lumotga ko'ra, og'zaki nutq keyinroq paydo bo'lgan. Imo-ishora va mimikalar orqali o'z fikrini ifodalashda tovush taqlid so'zlarni ham qo'llaganlar. Keyinchalik tovush bo'linmalar imo-ishoralardan ajralib, mustaqil ma'noga ega bo'la boshlagan. Lekin tadqiqot natijalari tahliliga ko'ra bu ta'limot tanqidga uchragan va mustaqil emas deb tan olingan. Og'zaki nutq psixologik nuqtayi nazardan jaranglanishga ko'ra faoliyat ko'rsatadi. So'zning tovush qobig'i uning, material qobig'i sanaladi. Tilning tovush tarkibi turlicha bo'ladi. O'zbek tilida fonemalar tavsiflanadi. Bunda jarangli – jarangsiz tovush variantlari ham farqlanadi. Fonema nutqning eng kichik birligi bo'lib, so'z ma'nosi va ahamiyatini farqlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Har bir tilda o'ziga xos tovush tarkibi bo'lib, buni bola nutqiy amaliyot jarayonida egallab boradi. Biz kattalar tomonidan so'zlarni bir necha marta takrorlanishi hamda uni bolalar tomonidan idrok etilishi asosida amalga oshadi.

○ Og'zaki nutqni idrok etish eshituv analizatori asosida yozma nutqni idrok etish ko'ruv analizatori asosida amalga oshadi. Ularning ifoda vositalari ham turlichadir. Og'zaki nutqda bu mimika, imo-ishora, urg'u, yozma nutqda – bu uslub, so'zlarni alohida tanlash usullari hisoblanadi. Og'zaki nutq, yozma nutq ham monologik va diologik shaklda bo'ladi. Diologik nutq psixologik nuqtayi nazardan murakkab savol-javob tarzida bo'ladi va auditoriyaning hisobga olishi tayyorgarligini talab qiladi. Monologik nutq yengilroq bo'ladi. Uni tuzilishiga, u davom etayotgan sharoit va muhit yordam beradi.

Bolada og'zaki nutq atrofdagilar bilan muloqotda rivojlanadi. Eshituv idroki yordamida bola atrofdagilar og'zaki nutqini idrok etadi, 5-6 yoshlarda eshituvchilar tovushlarni to'g'ri talaffuzini, lug'at boyligi va gap grammatik qoidalarini amaliy egallaydi. Kar bola bu yo'l bilan nutqni egallay olmaydi, chunki u atrofdagilar nutqini eshitmaydi. Agar eshituvchi bola bog'chaga maktabga shakllangan nutq bilan borsa, kar bola og'zaki nutqi mavjud bo'lmagan holda boradi. Unda nutqni boshidan boshlab shakllantirish kerak. Buning uchun kar bolaning artikulyatsion nafas olish va ovoz apparatini tayyorlash kerak. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, kar bolada eshituvchi bolaga nisbatan nutqiy nafas olish bir qator xususiyatlari egadir. U bo'lingan havo oqimidan foydalana olmaydi va frazalarni qismlarga bo'la olmaydi. Maxsus mashqlar davomida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarda nutqiy nafas olish shakllanadi. Ularning ovozi ustida ham ish olib boriladi. Ko'p miqdordagi karlarda ovoz bo'g'iq, modullashmagan bo'ladi. Maxsus mashqlar jarayonida o'qituvchi kar o'quvchi ovozini eshituvchi bola ovoziga yaqinlashtirishga harakat qiladi, lekin bu har doim ham kerakli natijalarga olib kelmaydi. Kar bola nutqi ovozi butun hayoti davomida o'ziga xos otenkaga ega bo'ladi. Kar o'quvchilarni og'zaki nutqqa o'rgatishning muhim qismi ularda turli talaffuzni shakllantirishdir. O'zbek tilidagi har bir fonema kar bolada maxsus usullar bilan qo'yiladi. Saqlangan analizatorlar ko'ruv, sezgi, harakat analizator faoliyatini qo'llab, o'qituvchi oyna oldida tovush talaffuzini ko'rsatadi va taqlid asosida talaffuz qilishni boladan so'raydi. Avvalo oson talaffuz etiluvchi tovushlar "p", "b", "m" qo'yiladi, so'ng bo'g'in, so'z birikmalariga o'tiladi. Shu tartibda boshqa nutqiy tovushlar talaffuziga o'tiladi. Bu jarayonni amalga oshirishda eshituv qoldig'iga tayaniladi. Kar bolada og'zaki nutqni shakllantirishda ko'ruv, harakat va sezgi analizatorlari yordamida bilan maydonga chiqadi. Eshituvchi bola o'z talaffuzini eshitish orqali nazorat qiladi, xato qilsa bu xatoni eshitib so'ng to'g'rilaydi. Kar bola talaffuzini dastlab oyna oldida, so'ng ko'ruv va harakat sezgilari orqali nazorat qiladi. Tovush artikulyatsiyasi qanchalik aniq va yaxshi bo'lish kinestik sezgilar shunchalik differensiyalashgan bo'ladi. Bu sezgi turi kar bola talaffuzini shakllantirishda muhim o'rin hisoblanadi. Kar bolaning og'zaki nutqini shakllantirishda eshitish qoldig'i ham katta ahamiyat kasb etadi. Eshitish qoidalaridan foydalanish unli tovushlar differensatsiyasi, to'g'ri mantiq va so'zli

urg'ularni qo'llash imkonini beradi. Karlarni og'zaki nutqqa o'rgatishda teri va taktil vibratsion sezgilardan keng foydalaniladi. Masalan, o'qituvchi artikulyatsiyasi o'xshash tovushlarni (p - b, t - d) kar o'quvchi diqqatini ayrim holda bu jarangsiz tovushli vibratsiyasi yo'q, ikkinchi holatda qo'yib xalqum yoki ko'proq qafasiga qo'yib vibratsiyasini sezish mumkin. Taktil vibratsiyatsion sezgilarni maxsus asboblari yordamida ta'limda qo'llash kar o'quvchilarni 38 % darajada og'zaki nutqni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu M.G.Abramov va M.N.Moginshinskiy tadqiqotlarda aniqlangan. Oxirgi yillarda mutaxassis defektologlar tomonidan eshitishida muammosi bo'lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirishga bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni talaffuzga o'rgatishning samarali usullarini tadqiq etmoqda.

Nutqiy muloqot jarayonida eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nutqini shakllantirish va qisqartirilgan fonemalar tizimi asosida talaffuzga o'rganish tamoyilini ko'rib chiqamiz. S.A.Zikov tadqiqotlariga ko'ra eshitishida muammosi bo'lgan bolalarda nutqni ularning hayotiy ehtiyojlarini hisobga olib, shakllantirish kerak. Til insonlarning mehnat faoliyati yuzaga kelib, shakllana borgan. U insonlarning fikr almashinuvi, ong quroli sanaladi.

Chunonchi, eshitishida muammosi bo'lgan bolalar pedagogik ta'limi ularda so'zlashuv nutqini shakllantirish asosida tashkil etiladi. Agar oldin nutqiy ta'limotdan amaliyotga o'tsa, so'zlashuv nutqini shakllantirish muloqotni shakllantirishga o'tiladi, lekin bu amaliyot grammatik jihatdan tashkil etilgan. Qisqartirilgan fonemalar tizimi asosida og'zaki nutqqa o'rgatishda tezroq maqsadga erishish uchun talaffuzi yengil bo'lgan, hosil bo'lish o'mniga ko'ra o'xshash fonemalar o'zaro almashtirib o'rgatiladi. Bu lug'at boyligi oshirish so'zlarni muloqotga kiritish, kar bola nutqiy amaliyoti imkonini oshiradi. Bunday psixologik yondashuv eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tilga o'qitishning boshlang'ich etapida saqlangan bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash holat eshituvchi bolani nutqiy rivojlanishida ham kuzatiladi. Eshituvchi bola 2-5 yoshlar o'rtasida ma'lum tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olmaydi. Bu bosqich bolaning nutqiy apparati to'liq shakllanmaganligi va hosil bo'lishga ko'ra murakkab bo'lgan tovushlar talaffuziga tayyor emasligi bilan asoslanadi. Shuning uchun bola tovushlarni boshqalari bilan almashtiradi, tushirib qoldiradi. Bunda so'zning tovush tarkibi

o'zgarsa ham u o'zining mazmunini o'zgartirmaydi. Vaqt o'tishi bilan bu xatolik o'z-o'zidan yo'qolib ketadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ogzaki nutqni muloqot quroli sifatida shakllantirish maxsus tashkil etilgan ta'lim tarbiya tizimining bosh maqsadi sanaladi.

Daktil nutqi – kar bolalarni o'qitishning qudratli vositasi, u lug'at boyligi va nutqni o'zlashtirish sifatini, shuningdek kar bolalarning umumiy rivojlanish darajasini bir necha barobar oshirishi mumkin. Kar bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar va boshqa kishilar uni bola bilan muloqotda to'g'ri qo'llash uchungina emas, balki fikrlari, aniqrog'i, bilib-bilmay chiqaradigan hukmlari bolaning to'laqonli tarbiyasiga xalal beradigan kishilarga uning ahamiyatini tushuntirib berish uchun ham daktil nutqning ahamiyatini tushunib yetishlari kerak. Daktil nutq nima? Daktil nutqni ba'zilar mimika (mimina yoki imoishora nutqi) bilan qorishtirishadi, mutaxassislar esa daktil nutqni savodi chiqmagan kar bolalarda og'zaki nutq o'rniga mimika nutqining intensiv rivojlanishining oldini olish uchun keng qo'llashni tavsiya qilishadi.

Daktilologiya – kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o'ziga xos shaklidir. U so'zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma xarakterga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo'l, barmoq harakatlari hisoblanadi. O'zbek tilining har bir harfi o'zining harakatli ifodasiga egadir. Daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin:

1. Chizuvchi harflar (z, b, d);
2. Harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, t);
3. Shartli belgilar (v, j, n).

Daktil nutqi so'zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko'ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. Bog'cha davrda kar bola daktilologiyaga savod o'rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko'rsatishicha, daktilologiya eshitishida muammosi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Y.N.Marsinovskaya tadqiqot natijalariga ko'ra, bu nutq shaklsining quyidagi belgilarini ochib beradi. Eshituvchi bolalarda daktillash 2,5 marta og'zaki nutqni bayon qilishga nisbatan orqada qoladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni bayon etish va daktillash tempi bir xil bo'ladi, ba'zan daktillash og'zaki

nutqni bayon etishda oldindan o'tib ketish hollari ham ko'zatladi. Daktilologiya og'zaki nutqni o'zida namoyon qiladi, lekin suhbat jarayonida eshitishida muammosi bo'lgan bolalar daktil nutqiga nisbatan imo-ishora nutqidan keng doirada qo'llaniladi. L.A.Novikova va Y.N.Marsinovskaya tomonidan o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko'ra daktilologiya ham og'zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosiga qo'riladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar fikrlash operatsiyalarida faqat artikulyator apparatlarda, balki qo'l, barmoq muskullarida ham impulslar yuzaga kelgani kuzatilgan. Lekin, artikulyator apparatdagi nutqiy kinestiziyalar, qo'l kinesteziyalariga nisbatan puxta bo'lib, tadqiqot obyekti sifatidan o'rganish talab etiladi. Y.N.Marsinovskiy daktillash tempi og'zaki nutq talaffuzi yaxlitligiga ta'sirini o'rgatgan. Bu tajribalar ko'rsatishicha kar bola daktillash texnikasini yaxshi o'rganganda daktilologiya og'zaki nutq tempi va yaxlitligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Daktillash texnikasini yaxshi darajada egallamaslik, talaffuz to'g'riligi, nutqni tushunarligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Daktilologiyani yaxshi egallagan o'quvchilar so'zning tovush sostavini to'liq egallaydi. Ularda so'zning tovush va daktil obrazi o'rtasida shartli aloqalar o'rnatiladi. Lekin so'zning talaffuzi yozilishdan uzoqlashsa tovush tarkibini o'rganishda daktilologiya ta'sir ko'rsatdi. Daktilologiyani va yozma nutqning o'zaro munosabati juda murakkabdir. S.A.Zikov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda, bu muammo tadqiq etilgan. Eshituvchi bola savodga o'rgatishning boshlang'ich etapida nutqni akustik va harakat obrazlariga tayanadi. Bolani so'zli yozishidan avval uni ichida yoki ovoz chiqarib o'qishini ko'rish mumkin. Kar bola og'zaki nutqqa ega bo'lganligi uchun savodga o'rgatish davrida daktilologiyaga tayanadi. So'ng bu jarayon bir vaqtda amalga oshadi, bola ham yozadi va daktillaydi. So'zlashuv nutqini egallash darajasiga ko'ra daktil kinesteziyalari asta-sekin siqilib, artikulyator kinesteziyalar bilan almashinadi. U ham bola singari so'zni talaffuz etib, so'ng yozadi. Chunonchi, og'zaki nutqni mustaqil qo'llashga o'rgatish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Birinchi yo'l, butun o'quv tarbiyaviy jarayon davomida o'qituvchi nutqini eshitish va eshituv – ko'rish asosida idrok etish bilan amalga oshadi. Bu holatda talaffuz malakalarini shakllantirish maxsus o'qitishlarsiz inshakll tarzda amalga oshiriladi. Talaffuzga o'rgatish inshakll yo'li – nutq xarakter organlarini faollashtirishga xizmat qiladi,

ba'zi talaffuz malakalarini egallashga zamin yaratadi. O'qituvchi o'z diqqatini nafaqat bolaning nutq tovushlari talaffuziga emas, balki ovozigacha, bolalar nafasiga, nutqning bog'liqligiga qaratadi. Ushbu ishda katta yordamni ovoz kuchaytirgich apparatlari ko'rsatadi, ular o'quvchilarga o'qituvchi nutqni qabul qilish imkonini beradi. O'qituvchi bilan birga yoki uning ortidan barcha materialni ko'rish, eshitish orqali qabul qilib bolalarni gapirishga doimiy undash nafaqat ularning nutqiy apparatini faollashtiradi, balki ularda ogzaki nutqni qo'llashning doimiy malakasini tarbiyalaydi.

Biroq nutqning talaffuz tamoyilini shakllantirish uchun birgina inshakll yo'lining o'zi kifoya emas. Ikkinchi yo'l ham darkor – talaffuz malakalarini maxsus, rejali shakllantirish. Ushbu ish og'zaki nutq darslarida, yakka mashg'ulotlarda, fonetik mashqlar davomida amalga oshiriladi va o'z ichiga tovushlarni, so'z iboralarni ishlab chiqishni normal ovoz va to'g'ri nutqiy nafasni ishlab chiqishni qamrab oladi. Talaffuzni shakllantirish nutqni ifodalashning aniqligini rivojlantirishda katta o'rni musiqiy – ritmik mashg'ulotlarga ajratiladi.

Eshitish buzilganda nutqning rivojlanish darajasi bir xil bo'lmaydi va quyidagi omillarga bog'liqdir: eshitishning buzilganlik darajasi; eshitish analizatori nuqsonining yuzaga kelish vaqti; eshitish analizatori faoliyati buzilganidan keyin bolaning qanday pedagogik sharoitlarda bo'lgani; bolaning individual xususiyatlari. Sanab o'tilgan omillarning har biri bolalar nutqini baholashda katta ahamiyatga ega. Eshitishning pasayish darajasi va nutqning rivojlanishi bevosita bog'liqdir. Bolaning eshitishi qanchalik pasaygan bo'lsa, nutq shuncha ko'p zarar ko'radi. Eshitish pasayish darajasi sezilarli bo'lmasa, nutqdagi buzilishlar yorqin ifodalanmaydi. Eshitish pasayishining yuqori darajasida bola maxsus ta'limning boshlanishigacha soqov bo'lib qolaveradi. Eshitish pasayishining o'rta darajasida nutqning fonetik, leksik, grammatik tomonida buzilishlar kuzatiladi. Eshitish bola hayotining turli bosqichlarida buzilishi mumkin. Nuqsonning ikkilamchi ko'rinishlari mavjud yoki mavjud emasligi vaqt omili bilan bog'liq. Nuqson qancha erta yuzaga kelsa, u nutqiy funksiyaning shakllanganligiga shuncha ko'p ta'sir o'tkazadi. Ikki yoshgacha bo'lgan, nutq shakllanmagan davrda kar bo'lib qolish nutqning mavjud bo'lmasligiga olib keladi. 3-3,5 yoshgacha davrda eshitishning yo'qotilishi shakllangan nutqning yo'qotilishiga olib keladi. 4-5 yoshda eshitish to'lig'icha yo'qotilsa, maxsus ta'lim o'z

vaqtida boshlanmasa, nutq deyarli to'liq boy beriladi. 6-7 yoshda eshitishni yo'qotish bola nutqining keskin buzilishiga olib keladi, maxsus pedagogik yordamsiz esa bolaning nutqi asta-sekinlik bilan yomonlashib boraveradi. Bola 7 yoshdan keyin eshitmay qolsa, savol egallash ko'nikmalari bo'lsa, nutq saqlab qolinishi mumkin, buning uchun tizimli korreksion ish olib borish talab qilinadi.

Eshitish qisman boy berilganda bolalarda vaqt omili shuningdek muhim sanaladi – u nutqning rivojlanish darajasini belgilaydi. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda eshitishning sezilarsiz pasayishi nutqning kechikishi yoki yetarlicha rivojlanmasligiga olib keladi. 3 yoshdan keyin eshitishning pasayishi nutqiy rivojlanishda u qadar jiddiy nuqsonlarni keltirib chiqarmaydi. Eshitishning pasayishi oqibatlarini bartaraf qilishga qaratilgan ham tibbiy, ham pedagogik chora-tadbirlar qanchalik erta ko'rilsa, bola shuncha muvaffaqiyatli rivojlanadi. Oilada nutqiy muhitning shakllantirilishi, eshitishni erta protezlash, nutqiy idrok va nutqni rivojlantirish bo'yicha maxsus ishlarni tashkil etish bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishini belgilaydi.

Individual xususiyatlar ham nutqning rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi. Nutq egallash jarayonida bola shaxsining faolligi, tafakkur jarayonlarining harakatchanligi katta rol o'ynaydi. Barqaror ko'rish diqqati va xotira nutqiy nuqsonni kompensatsiyalash va nutqni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Kar bolalarda nutqni shakllantirish maxsus o'qitish sharoitida qoldiqli analizatorlardan foydalanishga asoslanadi. Ko'rib va eshitib idrok idrok etish, kinestetik sezgi, taktik vibratsiyali sezgirlik faol jalb qilinadi. Surdopedagog kar bolaga nutqiy apparat harakatlarini egallash, eshitib idrok etishni rivojlantirishda (ovoz kuchaytirish apparaturasidan majburiy foydalanish bilan) ko'maklashadi.

Zaif eshituvchi bolalarning nutqini rivojlantirish tabiiy yoritish sharoitida qoldiqli eshitish asosida amalga oshiriladi. Hatto og'zaki nutqni idrok etish to'liqsiz bo'lsa-da, bola og'zaki nutqni mustaqil, biroq turli buzilishlari bilan, egallashga qodir. Intensiv rivojlanish va eshitishdan foydalanish uchun sharoit yaratilganida nutqning grammatik qurilishini mustaqil o'rganish imkoniyati tezkorlik bilan ortadi.

Keyinchalik kar bo'lib qolgan bolalar shakllangan, rivojlangan nutqqa ega. Ularda nutq saqlanganligining turli darajasini kuzatish mumkin. Eshitish yo'qotilguniga qadar keyin kar bo'lib qolgan bolada

nutqning rivojlanishi va lisoniy tafakkurning shakllanishi eshitish asosida tabiiy nutqiy muloqot sharoitida kechadi. Keyinchalik kar bo'lib qolganlarning ko'pchiligi og'ir darajadagi eshitish nuqsoniga ega. Korreksion ta'limda nutqni ko'rish yoki ko'rish-eshitish asosida (ovoz kuchaytirish apparaturasi yordamida) idrok etishni shakllantirish vazifasi birinchi planga qo'yiladi. Keyin kar bo'lib qolgan bolalar og'zaki nutqni ko'rib idrok etish ko'nikmalarini nutqni egallash vaziyatining o'zidan keyin egallashlari lozim. Shu bilan ular eshitishida muammosi bo'lgan boshqa bolalardan farq qiladi.

Nutqiy rivojlanish bolaning shaxs sifatida rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Eshitishning pasayishi ijtimoiy muloqotning cheklanishini belgilaydi. Bu cheklanish bola psixikasining shakllanishiga ta'sir etadi. Bilish faoliyatining barcha sohalari defitsitga uchraydi (qiyinlashadi). Nutq, idrok, xotira, diqqat, tasavvur, tafakkur zarar ko'radi.

Hayotining dastlabki 2-3 oyida kar va eshitadigan bola o'rtasidagi tafovut deyarli ko'zga tashlanmaydi (Y.F.Rau, F.F.Rau). kar bolaning baqirig'i va g'o'ldirashi eshitadigan bolanikidan u qadar farq qilmaydi. Kar bolalarda g'o'ldirash paydo bo'ladi, ammo o'z talaffuzini nazorat qilish imkoni yo'qligi sababli u asta-sekin yo'qolib boradi.

Maktabgacha yoshda kar bolalarda ta'lim olib borilmasa, nutq shakllanmaydi. Turli ovoz reaksiyalari, tovush birikmalari, g'o'ldirash kuzatiladi. Ta'limsiz ovoz reaksiyalari soni kamayib boradi, ular tobora bir xillashib boradi, 5-6 yoshga kelib butkul yo'qoladi. Ba'zan katta maktabgacha yoshdagi, nutqqa o'rgatilmagan, bolalar o'zining nutqiy muammolarini anglab yetadi, kishilar bilan muloqotga kirishni unchalik istamaydi, kattalar va eshitadigan bolalar bilan aloqadar o'zini olib qochadi. Muloqotning nolisoniy vositalari miqdori bola kattalashgani sari kengayib boradi. Tabiiy imo-ishoralar ko'payadi, bolalar bularni kattalardan nusxa oladi yoki o'zi o'ylab topadi. Ularning emotsional holatini tavsiflovchi bir xildagi qarashlar rivojlanadi.

To'rt yoshdan keyin kar va og'ir darajali zaif eshituvchi bolalar nutqida tafovutlar yanada sezilarli bo'ladi. Zaif eshituvchi bolalarda hatto maxsus o'qitishsiz ham talaffuz qilinadigan so'zlar miqdori ortib boradi. Ayrim bolalar «Oyi, te (Oyi, keling), oyi be (Oyi, bering)» tipidagi qisqa, agrammatik jummalarni o'zlashtiradi.

Nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlarni olib borishning asosiy shartlaridan biri eshitish-nutqiy muhitni yaratish sanaladi. U bola bilan eshitish apparatlaridan foydalanib, doimiy nutqiy muloqot qilishni ko'zda tutadi. Go'dak yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish ishlari kattalarning yuzi, nutqi, predmetlarga ko'rish va eshitishni jamlashga qaratiladi. Bu ish bola bilan kun davomidagi muloqot jarayonida, shuningdek, tizimli maxsus mashg'ulotlarda uzoq muddat olib boriladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar hayotining 2-3-yilida nutqiy rivojlanish nisbatan yuqori sur'atga ega bo'ladi. Turli predmet, hodisalarni bilgani tufayli bolada ularning nomlari lug'ati, predmetlar bilan harakatlar shakllanadi. Tuzilishiga ko'ra sodda jumalardan doimiy foydalanish ularning ayrimlari, tobora ko'p takrorlanadigani tushunarli bo'lishiga olib keladi. Bolani fe'llarning ma'nosini tushunishga o'rgatish muhim, zero bu jumalarni tushunish va qo'llash uchun zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ilk yosh davrida boshlangan ishlar davom ettiriladi. Eshitishida muammosi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan oilada olib boriladigan ishlarni tashkil qilish va ularning mazmuniga talablar ilk yoshdagi bolalar bilan ishlarga qo'yiladigan talablardan farq qilmaydi. Biroq turli yo'nalishlardagi ishlar mazmuni kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Turli xil ishlarni o'z ichiga oladigan mashg'ulotlar har kuni olib boriladi. Bola bilan ishlar davomida eshitish apparatidan foydalaniladi.

Bolaning har tomonlama barkamol rivojlanishi jismoniy, mehnat tarbiyasi, atrof olam bilan tanishtirish, o'yin faoliyati, tasviriy faoliyatni rivojlantirish, nutqni rivojlantirish ishlari, boshlang'ich matematik tasavvurlarni shakllantirish, shuningdek o'qishni o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bola maktabga qabul qilinganda nutqni, idrokni, xotirani va umuman, tafakkurni rivojlantirish ishlari davom ettiriladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning potensial imkoniyatlari favqulodda keng. Tibbiyot bu kabi bolalarning eshitish qobiliyatini qaytarishga qodir emas. Biroq eshitishida muammosi bo'lgan bolalar umumiy va nutqiy rivojlanish darajasi bo'yicha eshitadigan tengdoshlariga yaqin kela oladi.

Agar bolalar rivojlanishda qo'shimcha nuqsonlarga ega bo'lmasa, adekvat va maqsadli korreksion ishlar esa bola hayotining dastlabki

oylaridan boshlansa, 3-6 yoshiga kelib, umumiy va nutqiy rivojlanish darajasini yosh normalariga yaqinlashtirish mumkin (hatto og'ir darajadagi zaif eshitish holatida ham). Bunday bolalar keng jumlati (frazali) nutqqa ega, bolalar kabi kattalar bilan ham erkin muloqot qiladi, ko'rganlari va hayotidagi ayrim voqealar haqida hikoya qila oladi, ularga qaratilgan nutqni yaxshi tushunadi (ko'rib-eshitib idrok etadi), she'rni yoddan aytib va hatto qo'shiq xirgoyi qilib bera oladi. Ularning o'z nutqi jarangi odatda eshitadigan bolalar nutqidan u qadar farq qilmaydi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar eshitish apparatlaridan foydalanadi. Keyinchalik ya'ni hayot davomida kar bo'lib qolgan bolalar (4-5 yoshida eshitmay qolgan va bungacha nutqi saqlangan bolalar) ishlar o'z vaqtida boshlangan va maqsadli olib borilgan sharoitda shunday yuqori natijalarga erishishi mumkin. Mavjud nutqiy ko'nikmalarni saqlab qolish va ularni takomillashtirishga, shuningdek. Qisqa muddatlarda og'zaki kommunikatsiyani boshqa sensor (ko'rish-eshitish, ko'rish, ko'rish-vibrotaktil) asosda tiklashga erishilsa, keyin kar bo'lib qolgan maktabgacha yoshdagi bola hatto eshitish qobiliyatini yo'qotguniga qadar tarbiyalangan muassasasida qoldirilishi va ommaviy maktab sharoitida og'zaki o'qitishga tayyorlanishi; keyin kar bo'lib qolgan maktab o'quvchisi esa kasallikkacha o'zi o'qigan sinfda ta'limni davom ettirishi mumkin.

O'qitish kech boshlangan kech kar bo'lib qolgan bolalar 2-3 yoshga kelib qator ijobiy omillar o'rin tutgani holda umumiy va nutqiy rivojlanishda yuqori darajaga erisha oladi. Bunday omillarga bolaning o'zining yuksak potensial imkoniyatlari, uning shaxsiy xususiyatlari (kommunikabelligi, faolligi, jismoniy chidamliligi, ishchanlik qobiliyati), shuningdek sistemali, intensiv, adekvat o'qitishni kiritish mumkin. Mashg'ulotlar yakka tartibda, kichik guruhlarda (6-8 bola), qo'shimcha yordam ko'rsatilgan holda (nutqiy ritmika va sh.k.), oilaning bola ta'limi va tarbiyasida faol ishtiroki sharoitida olib boriladi.

Vatanimiz surdopedagogikasiga eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni har tomonlama rivojlantirishning mumkinligi masalasida optimistik qarashlar xos. Vatanimiz psixologiyasida mavjud, individ psixikasi rivojlanishini uning tabiiy va ijtimoiy muhit bilan o'zaro hamkorligi sifatida tushunish bilan bog'liq qoidalarga muvofiq, surdopedagogika bola nuqsonining oqibatlarini muvaffaqiyatli

bartaraf qilish va uni har tomonlama rivojlantirish uchun maqbul ijtimoiy, jumladan maxsus amaliy shart-sharoitlarning hal qiluvchi roli haqidagi qoidani ilgari suradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda qabul qilingan majburiy umumiy ta'lim sharoitida karlar uchun maktab unda ta'lim olayotgan bolalarning turli toifalari uchun mumkin bo'lgan ta'lim darajalarini differentsiyalashni ta'minlashi, ishning ustivor yo'nalishlarini, eshitmaydiganlar uchun ta'limning yangi vazifalarini belgilab berishi zarur.

Maxsus (korreksion) maktab bolalarni bilimlarning tayanch darajasi bilan qurollantirish bilan birga bitiruvchilarning ijtimoiy adaptatsiyasi, ularning mehnat faoliyatiga kirishishi va munosib hayot darajasini ta'minlash; ularda turli sharoitlarda, stress vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, kerakli axborotni olish va o'z bilim hamda ko'nikmalaridan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga chaqirilgan. Bu vazifalarni maktabda o'qiyotgan bolalarning turli guruhlarini xususiyatlarini hisobga olgan holda hal qilish nazariya, amaliyot va eksperimental ta'limning o'zaro birligini talab qiladi.

Fan, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini qayta qurishni, e'tiborni bolalarning rivojlanishi, ularning o'qishga, bilimlarni to'ldirib borishga bo'lgan istagida jamlash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Kar va zaif eshituvchi bolalar muammolarini tadqiq qilgan ko'p sonli mutaxassislar ta'kidlaydiki, bolalarning ko'pchiligi ham jismoniy, maxsus mashg'ulotlar olib borilmagan holda esa ham intellektual rivojlanishda orqada qoladi. Bu holat korreksion mashg'ulotlarni maktabgacha yosh davridayoq boshlash zaruratini belgilaydi. Jismoniy orqada qolish borasida, N.A.Rau fikricha, kar va zaif eshituvchi bolalarda yurishning mustahkam emasligi, oyoqlarini sudrab bosishi, harakatlarning qo'polligi kuzatiladi. Vestibulyar apparatning buzilganligi ko'pincha muvozanatning beqarorligi va yo'qolishiga olib keladi. Karlik va zaif eshituvchilik nutqning shakllanmaganligiga sabab bo'ladi, bu o'z navbatida bilish faoliyati va lisoniy-mantiqiy tafakkurning tormozlanishiga olib keladi. Aynan shuning uchun pedagoglar maktabgacha yoshdagi kar va zaif eshituvchi bolalar tarbiyasiga katta e'tibor qaratadi. Korreksion ishlar

qanchalik erta boshlansa, ularning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda barcha psixik jarayonlar, jumladan, tafakkur, xotira, idrok va sh.k. larning kuchli rivojlanishi kuzatiladi. Nuqsoni tufayli eshitishida muammosi bo'lgan bolalar o'z tengdoshlaridan ortda qoladi, shuning uchun ham bu hollarda maqsadli tizimli tarbiya-ta'lim talab etiladi.

Kundalik hayotda jonli ishtirok etadigan, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilgan bola faol rivojlanadi. Uning nutqi shakllanadi, atrof olam haqidagi tasavvurlari yuzaga keladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida kar va zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar ularning yoshiga mos bilim va ko'nikmalarni egallashi, maktabga tayyorlanishida ko'maklashadi, intellektual faoliyatini rivojlantiradi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar muammolari bilan ko'plab tadqiqotchi-pedagoglar shug'ullanishgan. Bunday bolalarga ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalarida maxsus ta'lim va tarbiya talab etiladi, garchi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar rivojlanishining umumiy yo'nalishlari sog'lom bolalarniki bilan umuman mos keladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar qator xususiyatlarga ega. Ularda:

- ko'rib idrok etish borasida yetarlicha rivojlanmaganlik, jumladan, predmetlarni idrok etish va tanib olish tezligi past ekani;

- taqlidning sekin shakllanishi, shuningdek namunaga qarab tanlashda qiyinchiliklar;

- nutqning yo'qligi va nutqgacha muloqotning kamligi kuzatiladi.

Bu bilish faoliyati va lisoniy-mantiqiy tafakkurning rivojlanishidagi kechikishga olib keladi. Aynan shuning uchun zaif eshituvchi bolalarning aqliy rivojlanishiga katta e'tibor qaratish talab etiladi.

Maxsus mashg'ulotlarda bolalar atrof olamdagi predmet va hodisalar, predmetlarning tuzilishi va ularning vazifalari haqida tasavvurlarga ega bo'ladi. Bundan tashqari, inson va hayvonlarning hayotiy faoliyati haqida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Mashg'ulotlar ko'rgazmalilik, tabiiy narsalardan keng foydalangan holda olib boriladi. Ekskursiyalar, kino va videofilmlar namoyishi uyushtiriladi. Parallel ravishda nutq o'stirish bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi, ularda maktabgacha yoshdagi bolalar turli predmetlar bilan manipulyatsiya jarayonida egallagan lug'atini mustahkamlaydi.

Ma'lumki, atrof olamni bilish asosida hissiyot va idrok yotadi. Ko'rish, his qilish, eshitish, kinesteziya, hid bilish, ta'm bilish bolalarga atrofda voqelikning ma'lum manzarasini tuzish imkonini beradi. Boshqa tomondan, idrok va hislar kabi psixik jarayonlarning rivojlanishi bolaning intellektual rivojlanishiga ham olib keladi.

Birinchi mashg'ulotlardayoq eshitishida muammosi bo'lgan bolalar sensorikani rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlarni bajaradi. Buning uchun turli ko'rgazmali qurollar: yorqin o'yinchoqlar, tabiiy buyumlardan foydalaniladi. Bolalar predmetlarni qarab chiqish, predmetlarning u yoki bu xossalarini aniqlash, predmetlarni o'zaro qiyoslashga o'rganadi. Samaradorlikni oshirish uchun bola o'rganilayotgan narsani o'z qo'lida tutib ko'rish, aylanma harakatlar bilan uni ko'rsatishi kerak. Ayni paytda yangi so'z jadval bo'yicha qayta yaratiladi.

Mayda motorikani rivojlantirish bolalarning o'qituvchining qo'l harakatlariga taqlidi jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, predmetlar bilan manipulyatsiyalash oldidan bola: yuvinish, kir yuvish, mix qoqish va sh.k. harakatlarni imitatsiyalaydi. Natijada harakatlar murakkablashadi. Bola bilan daktil alifbo belgilari o'rganiladi. Taqlid qilish malakasi bolalarda ma'lum o'yinlar: ko'zgu, mozaika, namuna asosida tayoqchalardan naqsh tuzish yordamida shakllantiriladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning sensor tarbiyasiga, ayniqsa, eshitish idrokini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Nutq va nolisoniy tovushlarni farqlashga mashqlar bajariladi. Mashg'ulotlar jarayonida bolada tovushlar olami haqida ma'lum tasavvurlar shakllanadi, bu og'zaki nutq sifatiga ijobiy ta'sir qiladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun, ayniqsa, lug'aviy nutqni erta o'rganish juda muhim. Normal eshitadigan bolada nutqni egallash uchun sensitiv davr uch yoshgacha bo'lsa, eshitishida muammosi bo'lgan bolada shu nuqson tufayli orqada qolish kuzatiladi. Nutqning shakllanmaganligi intellektual rivojlanishning kechikishiga olib keladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni maktabgacha o'qitish normal eshitadigan bolalar bilan ortib boradigan tafovutlarni bartaraf qilish imkonini beradi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bola nutqni egallashi uchun zaruriy shart bolalar muassasasida nutqiy muhitning yaratilganligidir. Bola o'zlashtirishi zarur bo'lgan nutqiy material o'xshash vaziyatlarda

kattalar nutqida doimiy qo'llanishi, natijada, bolalar tomonidan takrorlanishi lozim.

Nutqning rivojlanishi nafaqat mashg'ulotlarda, balki maishiy turmush sharoitida, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot jarayonida, shuningdek, amaliy faoliyat davomida amalga oshadi. Kichkintoylar nutqiy muhitga har bevosita bir bolaga yakka tartibda murojaat qilish bilan kiritiladi. So'zlarning minimal to'plami nashr qilingan jadvallar va kartochkalar ko'rinishida beriladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nutqiy materialni eshitib-ko'rib idrok etadi. Ta'limning ikkinchi yilida bola jadvalda keltirilgan so'z va jummalarni pedagog yordamida og'zaki-daktil gapirishi amalga oshiriladi. Muloqot jarayonida bolalar nutqning daktik shaklidan faol foydalana boshlaydi.

Bola yo'l qo'yadigan og'zaki nutqdagi xatoliklar kattalar tomonidan, albatta daktil nutq yordamida to'g'rilab boriladi. Bu eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga o'z nutqini tahlil qilishda yordam beradi.

Bolaning og'zaki nutqni egallashi asosida taqlid yotadi. Kattalar ortidan ayni bir materialni turli vaziyatlarda ko'p marta takrorlab, bolalar uni eslab qoladi. Asta-sekinlik bilan ko'p qo'llanadigan so'zlar bolaning faol lug'ati tarkibiga qo'shilib boradi. Bundan tashqari, bolalarda zaruriy nutqiy materialni ovoz chiqarib gapirish ko'nikmasi yuzaga keladi, nutqiy tafakkur rivojlanadi.

Tadqiqotlar ko'rsatdiki, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarda og'zaki nutq syujetli-rolli o'yinlar davomida tobora samarali shakllanadi. Shu maqsadda nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarga tanish ertaklar sahnalashtiriladi, syujetli-rolli o'yinlar o'ynaladi, bunda bolalar o'z roliga muvofiq tarzda bir-biri bilan hamkorlik qiladi va muloqotga kirishadi. Bunda so'zning tabiiy sur'ati, ritmik strukturasi, intonatsiyaga alohida e'tibor qaratiladi. Aynan shuning uchun pedagog va tarbiyachilar nutqi ham tabiiy, odatiy sur'at va intonatsiyaga ega bo'lishi lozim. Katta yoshdagi ayrim kishilar eshitishida muammosi bo'lgan bolalar bilan har bir bo'g'inni sekin aytib gaplashashga urinadi. Natijada, bola muloqotning shu kabi uslubini o'zlashtiradi. Ularning nutqi g'ayritabiiy va atrofdagilar uchun tushunarsiz bo'lib qoladi.

Mashg'ulotlarda nutq o'stirish ishlari uchta yo'nalishda olib boriladi:

- mavzular bo'yicha taqsimlangan nutqiy materialni o'zlashtirish va mustahkamlash;

- nutqiy faoliyat turlarini (og'zaki nutq, o'qish, yozish, eshitib-ko'rib idrok qilish, daktillash, tinglash) shakllantiriladi;

- so'z ma'nolarini bilish uchun tilga oid maxsus kuzatuvlar, so'zning tovush-harf tahlili, so'zning butun gap strukturasiidagi grammatik shakllari ustida ishlash.

Og'zaki nutq darslarining mazmuni nafaqat talaffuz ustidagi ishlarni, balki ushbu nutq shaklidan muloqotda foydalanishga o'rgatishni nazarda tutadi. O'qitish materiali og'zaki nutq dasturiga ko'ra ajratilgan va Rau, Slezinalar tomonidan ishlab chiqilgan talaffuzni o'rgatishni ishlab chiqishning ma'lum izchilligini hisobga oladi.

Og'zaki nutq darslarida so'zning tovush tarkibi ustida ish olib boriladi. Shuning o'zida (yerda) so'zining ma'nosi yoritiladi, bolalar uni talaffuz qilishni, muloqotda qo'llashni o'rganishadi. Talaffuz ustidagi ish uning ma'nosini yoritib berilgandan so'nggina boshlanadi. Shu maqsadda og'zaki nutq darslarida daktil nutqiga o'rgatish metodik usullarida qo'llaniladi. Bu sharoitlarda kerakli so'z qo'llanilishi shart.

Aniq (konkret) ahamiyatga ega so'zlar ma'nosini (F.F.Rau va boshqalar) darsligida keng yoritilgan turli ish turlarini qo'llash yo'li bilan ochiladi. Predmetning rasmini ko'rsatish, rasmni nomlash, so'zning grafik elementlariga ko'ra so'zni og'zaki shaklda ifoda etish (harf, bo'g'in, so'zlarni o'qish, harakatga ko'ra so'zni ifodalash). So'zni berish uslubiyati (metodikasi) quyidagicha:

O'qituvchi predmetni (rasmni) ko'rsatadi, uni og'zaki daktilda nomlaydi, bolalarni birgalikda talaffuz etishga undaydi. Bolalar uni eshituv-ko'ruv orqali idrok etadilar, og'zaki-daktilda ifodalaydilar. So'ng har bir o'qituvchiga so'zni mikrafon orqali talaffuz etish imkoni beriladi va o'qituvchi ishlab chiqilayotgan tovushning talaffuzini baholaydi. Bolalar tovush tarkibini o'zlashtirib olganlaridan so'ng ular so'zni daktillashsiz talaffuz etadilar. Talaffuz malakalari yakka mashg'ulotlarda mustahkamlanadi. Shunday qilib, tovush talaffuzi ustidagi ishning boshlang'ich materiali uchun butun so'z xizmat qiladi. U, avval butunligicha, so'ng qismlarga bo'lib talaffuz qilinadi. O'qituvchi bolalar diqqatini fonemalarni bo'g'inlarda va yakka talaffuz etishga qaratadi. Bunday analizdan so'ng so'zni sintez qismi

ustida ish boshlanadi, ya'ni fonemalarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni so'zlarga bog'lash. Talaffuz ustida ishlashning bunday yo'li talaffuzga o'rgatish analitikosintitik metodiga mos tushadi.

Og'zaki ekspressiv nutqqa o'rgatish qisqartirilgan fonemalar tizimida qabul qilingan tovushlarni qo'yish tartibiga ko'ra tanlangan materialda olib boriladi. Talaffuzga o'rgatishning konsentrik metodi qisqartirilgan fonemalar tizimini qo'llashga asoslanadi. Talaffuzning barcha bilimlari bo'yicha talabalarning ortib borish izchilligini nazarda tutadi. Boshlang'ich (ilk) o'qitish ikki konsentrdan iborat, ularning birinchisi tayyorlov sinfi bilan mos tushadi, ikkinchisi birinchi va ikkinchi sinflarni qamrab oladi. Tayyorlov sinfida o'quvchilar asosiy 17 fonemaning aniq talaffuzini egallaydilar: "a", "o", "u", "e", "u", "p", "t", "k", "f", "s", "sh", "x", "v", "m", "n", "l", "r" – va ikki jarangli tovushlarni: "b", "z". Ushbu tovushlardan tuzilgan so'zlarni artikulyatsiya bo'yicha yaqinlarning o'rindoshi hisoblanadi, masalan, "s", - "z", "z". Tovush ustidagi ish izchilligi dasturda keltirilgan, darslik betlarida o'z ifodasini topgan. Tayyorlov sinfmi 4 – choragiga kelib kar o'quvchilar asosiy tovushlar talaffuzini egallashadi. Og'zaki nutq darslarini bu davrdagi materiali bo'lib daktil nutqida egallangan ibora, so'zlar hisoblanadi. Bu esa 4 – chorakka kelib darslarning nutqiy mazmuni ancha kengayishini anglatadi va bu bolalarga og'zaki nutqni muloqot quroli sifatida o'qitish ishlarini ancha jadal kechishi imkonini beradi. Bu davrda o'qituvchi talaffuzni ikki turlanishlari ifodalovchi bolalar nutqini sinchkovlik bilan kuzatib borishi kerak. Birinchisi – 17 asosiy tovushlarni so'zlarda aniq talaffuz etish (og'zaki va daktil nutqi dasturidagi so'zlar), ikkinchisi – qisqartirilgan fonemalar tizimiga ko'ra asosiylari bilan almashtiriladigan tovushlarni o'z ichiga oluvchi so'zlarni talaffuz etish. 4- chorakka qadar bolalar nutqida talaffuzning uchinchi turi ham mavjud bo'ladi. Hali egallanmagan asosiy fonemalar va tovushlar imkon darajasida talaffuz etiladi. Bu holatda kerakli tovush o'rnida o'quvchilar faqat artikulyatsiya elementini berishadi, yoki tovushni butkul tushirib qoldirishadi, qisqartirilgan fonemalar tizimida keltirilmagan tovush bilan almashtiriladi.

Shunday qilib, og'zaki nutqning talaffuz malakalarini shakllantirish o'zaro bog'langan ikki yo'l orqali amalga oshiriladi. Birinchisi – inshakll (maxsus o'qitishsiz) – butun o'quv tarbiyaviy jarayon mobaynida o'z o'rniga ega va barcha darslarning nutqiy

materialida amalga oshiriladi. Ikkinchi yo'l fonetik tamoyilga ko'ra tanlangan materialda talaffuz malakalarini ravon ishlab chiqishni nazarda tutadi va yakka mashg'ulotlarga o'tkazish bilan ogzaki nutq darslarida amalga oshiriladi. Tovushlarni ro'yishda bolalarning barcha saqlangan analizatorlari mavjud eshituv qoldig'idan foydalaniladi.

Demak, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishda maqsadga yo'naltirilgan, tizimli ish olib borish maqsadga muvofiq.

Bolada og'zaki nutq atrofdagilar bilan muloqotda rivojlanadi. Eshituv idroki yordamida bola atrofdagilar og'zaki nutqini idrok etadi, 5-6 yoshlarga eshituvchilar tovushlarni to'g'ri talaffuzini egallaydilar. Lug'at boyligi va gap grammatik qoidalarini amaliy egallaydi. Maktabgacha yoshdagi kar bola bu yo'l bilan nutqni egallay olmaydi, chunki u atrofdagilar nutqini eshitmaydi. Agar eshituvchi bola bog'chaga maktabga shakllangan nutq bilan borsa maktabgacha yoshdagi kar bola og'zaki nutqi mavjud bo'lmagan holda boradi. Unda nutqni boshidan boshlab shakllantirish kerak. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, maktabgacha yoshdagi kar bolada eshituvchi bolaga nisbatan nutqiy nafas olish bir qator xususiyatlari egadir. U bo'lingan havo oqimidan foydalana olmaydi va frazalarni qismlarga bo'la olmaydi. Maxsus mashqlar davomida maktabgacha yoshdagi kar bolalarda nutqiy nafas olish shakllanadi. Ularning ovozi ustida ham ish olib boriladi. Ko'p miqdordagi maktabgacha yoshdagi karlarda ovoz bo'g'iq, modullashmagan bo'ladi. Maxsus mashqlar jarayonida tarbiyalovchi kar bolani ovozini eshituvchi bola ovoziga yaqinlashtirishga harakat qiladi, lekin bu har doim ham kerakli natijalarga olib kelmaydi. Maktabgacha yoshdagi kar bola nutqi ovoziga butun hayoti davomida o'ziga xos otsenkaga ega bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi kar bolalarni og'zaki nutqga o'rgatishning muhim qismi ularda turli talaffuzni shakllantirishdir. O'zbek tilidagi har bir fonema maktabgacha yoshdagi kar bolada maxsus usullar bilan qo'shiladi. Saqlangan analizatorlar ko'ruv, sezgi, harakat analizator faoliyatini qo'llab, tarbiyachi oldi tovush talaffuzini ko'rsatadi va taqlid asosida talaffuz etiluvchi tovushlar "p", "b", "m" qo'shiladi, so'ng bo'g'in, so'z birikmalariga o'tiladi. Shu tartibda boshqa nutqiy tovushlar talaffuziga o'tiladi.

Bu jarayonni amalga oshirishda eshituv qoldig'iga tayaniladi. Maktabgacha yoshdagi kar bolada og'zaki nutqni shakllantirishda

ko'ruv, harakat va sezgi analizatorlari yordami bilan maydonga chiqadi. Eshituvchi bola o'z talaffuzini eshitish orqali nazorat qiladi, xato qilsa bu xatoni eshitib so'ng to'g'rilaydi. Maktabgacha yoshdagi kar bola talaffuzini dastlab oyna oldida, so'ng ko'ruv va harakat sezgilari orqali nazorat qiladi. Tovush artikulyatsiyasi qanchalik aniq va yaxshi bo'lish kinestik sezgilar shunchalik differensiyalashgan bo'ladi. Bu sezgi turi maktabgacha yoshdagi kar bola talaffuzini shakllantirishda muhim o'rin hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi kar bolaning og'zaki nutqini shakllantirishda eshitish qoldig'i ham katta ahamiyat kasb etadi.

Chunonchi, maktabgacha yoshdagi kar bolalar pedagogik ta'limi ularda so'zlashuv nutqini shakllantirish asosida tashkil etiladi. Agar oldin nutqiy ta'limotdan amaliyotga o'tsa, so'zlashuv nutqini shakllantirish muloqotni shakllantirishga o'qitiladi, lekin bu amaliyot grammatik jihatdan tashkil etilgan. Qisqartirilgan fonemalar tizimi asosida og'zaki nutqga o'rgatishda tezroq maqsadga erishish uchun talaffuzni yengil bo'lgan, hosil bo'lish o'miga ko'ra o'xshash fonemalar o'zaro almashtirib o'rgatiladi. Bu lug'at boyligi oshirish so'zlarni muloqotga kiritish, maktabgacha yoshdagi kar bola nutqiy amaliyoti imkonini oshiradi. Bunday psixologik yondashuv maktabgacha yoshdagi kar bolalarni tilga o'qitishning boshlang'ich etapida saqlangan bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash holat eshituvchi bolani nutqiy rivojlanishida ham kuzatiladi. Eshituvchi bola 2-5 yoshlar o'rtasida ma'lum tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olmaydi. Bu bosqich bolaning nutqiy apparati to'liq shakllanmaganligi va hosil bo'lishiga ko'ra murakkab bo'lgan tovushlar talaffuziga tayyor emasligi bilan almashtiradi, tushirib qoldiradi. Bunda so'zning tovush tarkibi o'zgarsa ham u o'zining mazmunini o'zgartirmaydi. Vaqt o'tishi bilan bu xatolik o'z – o'zidan yo'qolib ketadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar imo-ishora nutqining psixologik asosi

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar imo-ishora yordamida muloqotga kirishadilar. Imo-ishora nutqi atrof-olamini tushunishga yordam beruvchi vosita sanaladi. Masalan, kar bola oilada kar bola imo-ishora nutqidan foydalangan holda tarbiyalanadi, lekin uning rivojlanish darajasi yuqori bo'ladi. Shunday qilib, imo-ishora

eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun muloqot funksiyasi bajarishni ta'kidlash joiz. Bu jihatdan u og'zaki nutq shakliga o'xshashdir. Lekin u chegaralangan davrada, faqat kar shaxslar o'rtasida muloqot quroli sifatida namoyon bo'ladi. Nutq tafakkur quroli sifatida namoyon bo'ladi. U o'zini birinchi vazifasini bajara olmasligi, tafakkur quroli sifatida faoliyat ko'rsatmasligi mumkin. Imo-ishora nutqining qurish materiali mimik belgilar foizidir. So'zdan farqli, imo-ishora belgilari bir qator o'ziga xosliklarga egadir. Ayrim mimik belgilar so'z kabi muloqot elementiga egadir. So'z qat'iy va universal ahamiyatga ega. Mimik belgilar esa qat'iy bo'lmaydi. Ko'p tushunchalar kar shaxslar o'rtasida bir xil ishora bilan ifodalanadi. Ularning xarakteri ta'lim jarayonida so'zlashuv nutqi vositasida o'zgarishi mumkin. So'z tarkibida tovush kompleksi va ma'nosi bo'yicha mustahkamlash aloqasi mavjud bo'lib, uni ixtiyoriy buzib bo'lmaydi. So'zning tovush tarkibi buzilsa, u o'zining funksiyasini bajarmay qoladi. Tovush kompleksi uning ma'nosi bilan umumiy bog'liqqa ega emas. Ayrim mimik belgilarda bu aloqa yaqqol namoyon bo'ladi. Ko'p olimlar mimik belgilarini tasniflashga harakat qilganlar (N.G. Morozova, R.M.Boskis, L.V.Zankov, G.L. Zayseva, N.F.Slezina). Ularning ilmiy ishi natijalariga tayanib mimik belgilarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ko'ruv sezgisiga asoslangan belgilari:
 - a. ko'rsatuvchi ishning belgilari (burun, ko'z, stol, shkaf, u);
 - b. predmet konturi yoki uning xarakterli xususiyatlari ko'rsatuvchi mimik belgilar (yulduz, g'oz, ona);
- v. to'liq yoki qisman imitatsiya qiluvchi xarakterlar;
2. Sezgilarga asoslangan belgilar;
3. Hid sezgilarga asoslangan belgilar;
4. Teri sezgilarga asoslangan belgilar;
5. Tam sezgilarga asoslangan belgilar;
6. Moza ta'lim sezgilarga asoslangan belgilar;
7. Organik sezgilarga asoslangan belgilar;
8. Emotsional sezgilarga asoslangan belgilar;
9. Mimiko-daktil sezgilar;
10. Tabiiy sezgilar;
11. Shartli sezgilar;
12. Sonni ifodalovchi sezgilar;
13. O'tkazuvchan mimik sezgilar.

Mimik belgilar tarkibi qat'iy va bir turga ega bo'lmaydi. Karlar yangi tushunchalarni egallashi va nutqda yangi so'z paydo bo'lishi bilan mimik belgilar yuzaga kela boshlaydi (televizor, bomba). Ayrim mimik belgilar bir tomondan konkret va ko'rgazmaliligi, ikki tomondan diffuzligi va differensiallashmaganligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun, uy belgisi ko'p qavatli uy, hovli joy ma'nosidagi ishlatilishi mumkin. Shu sababli, mimik belgilarda umumlashtirishlar ko'p uchraydi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ta'lim tizimida so'zlashuv nutqi o'zgarib boradi va mimik belgilar yanada differensiyalanib boradi. Avval kar bola turli turdosh qurilishlarni uy belgisi bilan markali mashinalarni belgisi bilan ifodalanmasa, so'zlashuv nutqi yordamida yangi differensiallashgan belgilarni qo'llay boshlandi. Har qaysi mimik belgi qoidadir, obyektiv realligi ifodalasa ham, har shakllarni turli jamoalarida turlicha ma'noda kelish mumkin. Bu, avvalo, ko'rsatish, plastik va imitativiyalovchi belgilarga xosdir. Mimik belgida emotsional belgi so'zga nisbatan yorqin ifodalanadi. Mimikada predmet hodisani belgilanish va unga munosabat bir vaqtda ifodalanadi. Nutqning ikki tomonni uning grammatik tomonida yordamida tilning ovoz qismi ma'noli xarakter kasb etadi. Mimik imo-ishora nutqi o'zining grammatik tuzilishiga egami? Imo-ishora nutqi grammatik tuzilishga ega bo'lmagan, agrammatik nutqdir. Lekin bu ushbu nutq turixatolik degan ma'noni bildirmaydi. Imo-ishora nutqida ham gap tuzilishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Nutqda har bir so'z ma'lum grammatik shaklga egadir, u gapda boshqa so'zlar bilan muloqotga kirishishi bilan grammatik shakli o'zgaradi. Mimik belgisini shakli esa o'zgaruvchan bo'lmaydi, u gapda boshqa ishoralar bilan kelganda ham grammatik jihatdan o'zgartirmaydi. Mimik belgi so'zga nisbatan grammatik jihatdan sodda bo'ladi, lekin mimik gap qurilishda nutq qismlarni qo'llashda o'ziga xos tendensiyani ko'rish mumkin. So'zlashuv nutqida va imo-ishora nutqida ham gaplarda so'zlarni joylashish tartibi bir xil bo'ladi. Xususan, kesim, vositali to'ldiruvchidan iborat. Yoyiq gapni so'zlashuv va imo-ishora nutqida joylashish tartibi bir xildir.

Imo-ishora nutqida qo'shimcha gaplarga nisbatan sodda gaplar ko'p qo'llaniladi. Gap tarkibidagi yuklama qo'shimchalar imo-ishora nutqida kam qo'llaniladi. Imo-ishora nutqi egallash jarayoniga kar bolani so'zlashuv nutqini egallash darajasi ta'sir ko'rsatadi. Imo-

ishora nutqi ham so'zlashuv nutqi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, lekin bu ta'sir salbiy ko'rinishga ega bo'ladi. Ba'zan yozma yoki og'zaki nutqda gap tuzish imo-ishora nutqidagi barcha nuqsonlarni o'zida ifodalaydi: gap bo'laklarini o'rnini almashib qolishi, so'zlarni grammatik aloqasini buzilishiga olib keladi.

Shunday qilib, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni imo-ishora nutqi so'zlashuv nutqidan juda katta farq qiladi. Bu farq uning vazifasi, tarkibiy qismlari va mimikasiga ham xosdir. U asosan so'z va mimik belgini solishtirganda, gapdagi so'z bo'laklarini bu ikki turda nutq shaklida namoyon bo'lishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Og'zaki nutqga nisbatan chegaralanganligi, takomillashmaganligiga qaramay imo-ishora nutqi kar shaxslari uchun asosiy muloqot qurolidir. Pedagogik jarayonida imo-ishora nutqidan foydalanish ilk bosqichlarda yaxshi samara beradi.

Eshitadigan bolaning og'zaki nutqi kabi (mimika) imo-ishora nutqi muloqot ehtiyojidan kelib chiqadi. Bola dastlab foydalanadigan imo-ishoralalar juda sodda, tabiiy (masalan, u nimanidir xohlasa, predmetga ishora qiladi). Asta-sekin ular murakkablashadi, muloqot vazifasini bajara boshlaydi, shartli xarakter kasb etadi. Biroq, eshitish sezgilari asosida shakllanadigan og'zaki nutqdan farqli o'laroq, mimika-ishora nutqi boshqa anatomik-fiziologik asosda ko'rish va harakat sezgilari asosida yuzaga keladi. So'zning realizatsiya vositasi uning tarixan shakllangan va barqaror tovush yoki grafik qobig'i bo'lsa, mimik belgini realizatsiyalash vositasi qo'l harakati va yuzning tegishli mimik ifodasi sanaladi. Bosh miya qobig'i harakat uchastkalarining mimika-ishora nutqi shakllanishi uchun ahamiyati afaziyalarda nafaqat nutqiy, balki harakat funksiyalari ham buzilishi, jumladan ba'zan mimika-ishora va daktil nutq buzilishi ro'y berishi mumkinligi bilan o'z tasdig'ini topadi.

Ma'lumki, til ikkita asosiy vazifa bajaradi. U fikrlash quroli va muloqot vositasi sanaladi. Mimika-ishora nutqi shu vazifalarga egami?

Ma'lumki, karlar mimika yordamida murojaat qilish va o'zaro tushunishga erisha olishadi. Mimika-ishora nutqi ular uchun atrof olamni bilishga ko'maklashuvchi vosita hamdir. Masalan, kar-soqov ota-ona oilasida kar bola asosan mimika vositasida muloqot qilib rivojlanadi, biroq shunga qaramay, uning intellektual rivojlanish darajasi anchagina yuqori bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, mimika karlar uchun muloqot funksiyasini bajarishini inkor etish noto'g'ri bo'ladi. Bu jihatdan u odatiy nutq bilan ma'lum o'xshashlikka ega. Biroq mimika va tilning bu funksiyani realizatsiyalashida jiddiy farqlarni kuzatish mumkin. Mimika-ishora nutqi faqat insonlarning juda cheklangan doirasi – karsoqovlar uchun muloqot vazifasini bajarishi mumkin. Og'zaki nutqni egallamagan, mimikani bilmaydigan boshqa kishilar bilan erkin muloqot qila olmaydi. Til esa umumxalq muloqot vositasi sanaladi.

Til muloqot funksiyasini bajargani uchungina fikrlash quroli bo'lib xizmat qila oladi. U muloqot vositasi bo'lmas ekan, o'zining ikkinchi funksiyasini ham yo'qotadi.

Bir qarashda, qarama-qarshilikka duch kelgandaymiz. Agarki fikrlash quroli til va fikrlar faqat til asosida yuzaka kelar ekan, demak uni, ya'ni tilni egallamagan karsoqovlarlarda fikrlash asosi yo'q. Biroq aslida bunday emas: ularning xulqi aqlli, anglashilgan, biroq fikrlar boshqa asosda saqlangan sezgi a'zolari (ko'rish, hid bilish, taktil-vibratsiya analizatorlari) tufayli yuzaga keladigan obrazlar, tasavvurlar, idrok asosida shakllanadi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, karodamlar fikrlashida mimika ham qatnashadi, biroq bu masala hali yaxshi o'rganilmagan vash u sababli karlarda fikrlash quroli – mimika, deb to'liq ishonch bilan aytishga hali erta.

Tilning eng muhim tarkibiy qismlari uning lug'at tarkibi va grammatik qo'rilishi sanaladi. Mimikani til bilan qiyoslaganda, uning ham ayrim tarkibiy qismlarini shartli ravishda ajratish mumkin.

Mimika-ishora nutqi uchun o'ziga xos qurilish materiali ma'lum, nisbatan shakllanib ulgurgan mimik belgilar frndi sanaladi. Ularni so'z bilan qiyoslaganda farqli jihatlar o'xshashlariga nisbatan ko'proq bo'ladi. Ayrim mimik ishorlar so'zlar kabi unumlashtirish elementiga ega. Bu ularning ma'lum diffuzligida, bo'linmasligida ifodalanadi (masalan, *ishlamog*, *ishchi*, *qilmoq*, *bolg'a bilan qoqmoq* tushunchalari karlarning ayrim jamoalarida aynan bir belgi bilan ifodalanadi. Har bir tilning so'zlari barqaror va universal ma'noga ega. Aynan bir predmetning nomi shu til tarqalgan butun hudud doirasida saqlanadi. Mimik belgilar bunchalik barqaror emas. Karlarning turli jamoalarida aynan bir tushunchalar turlicha belgilar bilan ifodalanishini ko'rish mumkin. Ularning xarakteri aynan bir jamoada lisoniy nutqni o'rganish jarayonida uning ta'sirida ham o'zgarishi mumkin. Bularning bari so'zlarga xos emas. So'zda tovush

kompleksi bilan ma'no-mazmun o'rtasida mustahkam tarixan shakllangan aloqa mavjud bo'lib, u ixtiyoriy tarzda buzilishi mumkin emas. So'zning tovush tarixini o'zgartirar ekanmiz, u o'zining signal funksiyasini shu zahoti yo'qotishi mumkin. Tovush kompleksi, odatda, u ifodalagan mazmun bilan hech bir umumiylikka ega emas. Ayrim mimik (masalan, ko'rsatish, plastik) belgilarda esa bu aloqa anchagina yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mimik belgilar xarakteri kar bolalarni lisoniy nutqqa o'rgatish jarayonida jiddiy o'zgarishlarga uchraydi, ularning ma'nosi aniqlashtiriladi, yanada differensiatsiyalanadi. Dastlab bola hamma qurilmalarni *uy*, avtomobillarning hammasini *mashina* belgisi bilan ifodalasa, keyinchalik lisoniy nutq ta'sirida yangi alohida differensiatsiyalangan belgilar (*katta uy, kichik uy, bir qavatli uy*), shuningdek yengil va yuk avtomobilini ifodalash uchun alohida belgilar paydo bo'ladi. Mimik belgilar konkretligi va yetarlicha umumlashtirilmagani sababli mavhum tushunchalarni ifodalaydiganlari soni u qadar ko'p emas. Bu holda ba'zida mimik belgilar kompleksidan foydalanishga to'g'ri keladi.

Har bir mimik belgi qandaydir obyektiv reallik, qandaydir predmet, yorqin ifodalangan belgili harakatni ifodalagan sababli ko'plab belgilar barqaror ma'nolarini saqlab qoladi va karlarning turli bir-biridan uzoq bo'lgan guruhlari uchun bir xil sanaladi. Bu, avvalo, ko'rsatish, plastik, imitatsiyalaydigan belgilarga taalluqli (*uy, qush, kitob, ishlamoq, yemoq*). Shu bilan birga ayrim mimik belgilar avtonom bo'lib, turli jamoalarda turlicha tushunchalarni ifoda etadi. Masalan, predmet yoki harakat qator raqobatdosh belgilarga ega bo'lsa, ayrim hollarda bitta belgi, boshqa hollarda boshqasi mimik belgi uchun asos bo'la oladi.

Emotsional otsenka mimik belgida so'zga qaraganda yorqinroq ifodalanadi. Mimikada predmet, belgi va unga munosabatni ifodalash go'yo uyg'unlashib ketadi va bir paytning o'zida ifodalanadi.

Tilning yana bir muhim belgisi uning grammatik qurilishi sanaladi. Mimika-ishora nutqida ergashgan qo'shma gaplar kam qo'llanadi. Yordamchi so'zlar deyarli qo'llanmaydi.

Lisoniy nutqni o'zlashtirish mimik ishora gap qurilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Mimika ham lisoniy nutq shakllanishiga umuman salbiy ta'sir o'tkazadi. Ba'zida og'zaki yoki yozma nutqda gap mimik-ishora nutqidagi kamchiliklarni saqlab qoladi.

Shunday qilib, karlarning imo-ishora nutqi lisoniy nutqdan tubdan farq qiladi. Bu farqlar funksiyalar, kabi til va mimikaning tarkibiy qismlariga ham oid. Pedagogik jarayonda mimikadan foydalanishga yo'l qo'yiladi. Biroq, maktabning vazifasi bolalarda lisoniy nutqni shakllantirishni yoddan chiqarmaslik lozim bo'ladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar daktil nutqini rivojlantirish. Daktil nutqni bizga ma'lum bo'lgan og'zaki nutqning boshqa shakllari bilan taqqoslasak, u yozma nutqga ko'proq yaqin keladi. Xuddi yozuv kabi undan faqat savodli odam foydalana oladi. Qolaversa, daktil nutqni o'zlashtirish bilan inson savod o'rganadi, zero daktil nutq, xuddi yozma nutq kabi lisoniy nutq shaklidir. Daktil nutqning yozuvdan farqi shundaki, yozuv belgilari o'rniga so'zlovchi barmoqlari yordamida makonda (bo'shliqda) aks ettiriladigan belgilardan foydalanadi.

Daktil alifboda xuddi harflisidagi kabi 29 ta belgi mavjud. Har bir daktil belgi alifbo harfiga to'liq mos keladi. Daktil tasvirdagi ko'plab belgilar bosma va qo'lyozma harflarni eslatadi. Masalan: *o, l, m, s, sh*. Mimik yoki imo-ishora nutqi. U lisoniy qismlarga bo'linadigan nutqqa qarshi qo'yiladi. Bu nutqda so'z va hatto butun bir jumla bitta ishora bilan «aytiladi». Bunda predmetlar, alohida harakatlarga ishoralardan, yuz imosidan foydalaniladi. Imo-ishoralalar lisoniy nutqqa xos bo'lgan grammatik shakllarga ega emas, ya'ni turlanmaydi, tuslanmaydi va sh.k. Farqiga yetmaydigan kishilar imo-ishora va daktil nutqning o'xshashligi haqida gapirar ekan, ularning faqat tashqi belgilariga, ya'ni har ikkala nutq shaklida qo'llardan foydalanilishiga e'tibor qiladi. Biroq, bu o'rinda ham e'tiborliroq bo'lgan kuzatuvchi jiddiy tafovutlarni ko'ra biladi.

Daktil nutqdan foydalanuvchi faqat bitta qo'l barmoqlaridan foydalanadi (ayrim mamlakatlar, masalan, Angliyada daktil nutq har ikkala qo'l barmoqlari yordamida ifodalanadi). Imo-ishora nutqida har ikkala nutq qatnashadi, ular harflarni emas, balki turli ishoralarni o'ziga xos kuchli yuz ifodasi bilan ifoda etadi.

Biroq, og'zaki nutqqa ega bo'lgan va nutqiy tafakkuri rivojlangan karlarning mimikasini savodi chiqmagan kishilar, ayniqsa nutqni egallamagan kichik yoshdagi bola mimikasi bilan farqlash kerak.

Eshitmaydigan, biroq labdan o'qiydigan va gapira oladigan kishilar uchun mimika – tezroq va osonroq o'ziga qaratilgan so'zni idrok etish va boshqalarga fikrini yetkazish vositasi. Nutqni egallagan

karlarga imo-ishora ularga qaratilgan nutqni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Imo-ishoralar og'zaki so'z bilan birga qo'llanilganda, ular go'yo kattalashtiruvchi oyna vazifasini o'taydi. Mimikali nutq qurilishi bu holda og'zaki nutq qurilishiga bo'ysundiriladi, so'zni idrok etishga ko'maklashadi.

Daktil nutqdan foydalanish – so'zlarning ma'nosini tushunish, tilning grammatik qurilishini egallash demak. Bu nutqni ham og'zaki ham yozma shaklda egallashga ko'maklashadi. Daktil belgini nafaqat idrok etish, balki tovushga qaraganda qayta yaratish ham ancha oson. Hatto ikki yarim yoshli bola ham daktil alifboni o'zlashtira oladi. Uch yoshli bolalar uni 15-30 kunda o'zlashtiradi. Bu juda muhim, chunki bu tarzda bolaga so'z yordamida murojaat qilish, eshitadigan bolaga istalgan predmetni aytilish mumkin. Buni so'zni ovoz chiqaribgina emas, balki barmoqlar yordamida ham «talaffuz qilish» kerak. Bunda bola har bir so'zning harf tarkibi va grammatik qurilishini aniq idrok etadi. Shu tariqa uni nutqqa va muloqotga o'rgatish boshlanadi. Bunda xuddi eshitadigan boladagiga o'xshash jarayon kechadi. Vaqt o'tishi bilan, tovushlarni talaffuz qilishga o'rgangan bola barmoqlari yordamida «ayta oladigan» so'zlarini va iboralarini og'zaki shaklda ham qo'llaydi.

Taniqli surdopedagog F.A.Rauning kuzatishlariga ko'ra, bunda xuddi biz hamma vaqt telefonda gaplashgandagiga o'xshash jarayon o'rin tutadi. Ma'lumki, telefon orqali hamma tovushlarni ham farqlab bo'lmaydi, biroq tanish so'zlarda buni biz his qilmaymiz, eshitib idrok qilingan tanish so'z konturidan, suhbat kontekstidan kelib chiqib, aniq eshitmagan tovushni faxmlaymiz. Biroq, notanish familiyani talaffuz qilishganida, uni harflab aytishlarini so'raymiz, toki eshitib idrok qilish qiyin bo'lgan tovush ismlarning tanish birikmasida birinchi bo'lib chiqsin.

So'z bilan daktil nutqda tanishib, uning ma'nosini o'zlashtirib, harf tarkibini egallab, bola bu so'zni labdan ancha oson o'qiydi, aniq ko'rinmagan yoki umuman ko'rinmagan tovushlarni xotiradan to'ldiradi.

Gap shundaki, labdan o'qiyotib, talaffuz qilingan tovushlarning faqat bir qismini idrok qilish mumkin. *a, o, u, i, e* unilari oson farqlanadi. *p-b-m* undoshlar guruhi *t, n, d* yoki *sh, ch, j* undoshlaridan farq qiladi. Biroq bu guruhlar har birida harflar, masalan *p-b-m* ko'rinishdan bir xildek idrok etiladi. *k, g, x* undoshlari esa umuman

ko'rinmaydi. Shu o'rinda avvaldan daktil nutqda o'zlashtirilgan so'zning ijobiy roli namoyon bo'ladi.

Ba'zida daktil nutq undan foydalanish estetik emasligi bois otionalarning noroziligiga sabab bo'ladi. Bunda ma'lum ma'noda haqiqat bor. Biroq daktil nutq kar bola uchun noqulay bo'lgan muloqotning umum tomonidan qabul qilingan shakli o'mniga emas, balki atrofda gilarning e'tiborini yanada ko'proq jalb qiladigan mimika o'mniga taklif qilinadi.

Ko'pchilikni daktil nutqdan foydalanish bolalarning talaffuziga zarar yetkazishi, daktil muloqotga o'rganib qolib, bolalar eng kam qarshilik yo'lidan borib, og'zaki nutqdan foydalanmasligi xavotirga soladi.

Ko'p yillik kuzatishlar bu xavotirlar asossiz ekanidan dalolat beradi. Bolalarni daktilologiyadan foydalanish bilan parallel tarzda talaffuzga to'g'ri, malakali o'rgatilganda, labdan o'qishni muntazam mashq qildirilganda, bolalarning og'zaki nutqi ularning individual imkoniyatlariga mos tarzda rivojlanadi. Bolaning og'zaki nutqi qanchalik tushunarli bo'lsa, bola daktilologiyadan o'zini tiyib, og'zaki nutqdan shunchalik tez foydalana boshlaydi. Bundan tashqari, bolaning nutqda yaxshi o'zlashtirilmagan tovushlardan foydalanishi (bolalar shunday qilishga majbur, so'zni boshqacha ifoda qilish imkoni yo'q) talaffuzni buzadi, hali aniqlashmagan talaffuzni mustahkamlaydi. Daktil belgilar tovushlarni qo'yishni tezlashtirish zaruratini yo'qqa chiqaradi, talaffuz ustida batafsil ishlash imkonini beradi. Boshqa sharoitlar bir xil bo'lgani holda bolaning yomon ogzaki nutqi uning talaffuziga ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'lish, kattalar tomonidan har kunlik e'tibor va nazoratning yo'qligi natijasi sanaladi.

Biz og'zaki nutqdan foydalanishga qarshi e'tirozlarni inkor etishga, ularning asossiz ekanini isbotlashga urinib ko'rdik. Maqsadimiz – kar bolani o'qitishda uning samaradorligini va zaruratiga ishonch hosil qilish. Biroq og'zaki nutqning ahamiyatini anglab yetishning o'zi yetarli emas. Natija kar bola bilan muloqot qiluvchilarning hammasi daktil alifbodan qanchalik to'g'ri foydalana bilishiga bog'liq. Belgilarni mohirlik bilan ko'rsata olish (daktillash) birinchi dastlabki shart. Buning uchun ayrim qoidalarni bilish kerak: o'ng qo'l bilan «so'zlash» kerak. Qo'lni ko'krak qafasi darajasida tutiladi. O'ng tirsak o'ng yonga siqilgan. Qo'l bilan «gaplashganda»,

asosan, barmoqlar harakatlanishi lozim. Bunda yozish va o'qishdagi jarayon bilan ma'lum umumiylik ko'zga tashlanadi: so'zlarni daktillab, yozuv jarayoni o'ziga xos tarzda takrorlanadi, uni idrok qilayotgan bola esa o'qish jarayonini takrorlaydi. Yozuvda bo'lgani kabi so'zlarda harflar alohida belgilar sifatida emas, balki yaxlit joylashadi (buning uchun harfni ko'rsatayotib, qo'lni xayolan keyingi belgi holatiga tayyorlash kerak bo'ladi). So'zlar orasida sukut qilinadi, u yozuvda bir so'zni boshqasidan ajratib turadigan bo'sh makonga mos keladi. Yozuvda harflar chiziqda tekis yozilgani kabi, bu o'rinda ham qo'l bir xil darajada (balandlikda) bo'lishi, belgilar aniq va ravshan ko'rsatilishi kerak, biroq yozuvdigidan farqli o'laroq, qo'l harakatsiz qoladi. Bu kabi aniqlikni bolada avval boshdan tarbiyalab borish lozim. To'g'ri, bolani bunga o'rgatish uning taqlid ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mashqlardan boshlanadi. Qo'l to'g'ri turishi kerak; kaft harakatsiz, faqat barmoqlar harakatlanishi lozim. *i*, *sh*, *s* kabi harflarni ko'rsata turib, kaftni yengil buring. *i* ni ko'rsatganda, barmoqlarni vertikal qo'yish shart emas, qo'lni gorizontal holatda saqlash mumkin, zero bu belgini, odatda, boshqalari bilan adashtirishmaydi. Bir paytning o'zida gapirilsa va daktillansa, buning uchun daktillash texnikasi juda yaxshi rivojlangan bo'lishi talab qilinadi, talaffuz biroz sekinlashtiriladi, biroq bo'ginlab talaffuz qilinmaydi, aks holda bu bolaning og'zaki nutqida, uning labdan o'qishida va talaffuzida salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Daktilologiya atrofdegilar nutqini labdan o'qishda ham muhim vosita sanaladi. Chunonchi, ayrim tovushlar labdan yomon o'qiladi, shu o'qishda daktilologiyadan foydalanadi. Labdan o'qish jarayonida daktilologiyadan foydalanish ham ijobiy samara beradi. Kar bolada og'zaki nutqni tarbiyalash uchun, eng avvalo, uning diqqatini, kuzatuvchanligi, taqlidni tarbiyalash lozim. Shu sababli siz bola uchun qiziqarli bo'ladigan va bolada zarur sifatlarni, ko'nikmalarni tarbiyalashga ko'maklashadigan mashg'ulotlar, o'yinlar, o'yinchoqlar, kitobchalarni tanlay bilishingiz kerak.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktabi ta'lim jarayonining bosh maqsadi ularning og'zaki nutqini shakllantirishdir. Daktil nutqni o'zlashtirish bilan inson savod o'rganadi, zero daktil nutq, xuddi yozma nutq kabi lisoniy nutq shaklidir. Daktil nutqning yozuvdan farqi shundaki, yozuv belgilari o'rniga so'zlovchi barmoqlari yordamida makonda aks ettiriladigan belgilardan

foydalanadi. Daktil nutqi og'zaki nutqni rivojlanishida yordamchi vosita sanaladi.

Daktilologiya atrof-dagilar nutqini labdan o'qishda ham muhim vosita sanaladi. Chunonchi, ayrim tovushlar labdan yomon o'qiladi, shu o'qishda daktilologiyadan foydalanadi. Lekin labdan o'qish jarayonida daktilologiyadan foydalanish ham ijobiy samara beradi. Daktil belgilar tovushlarni qo'yishni tezlashtirish zaruratini yo'qqa chiqaradi, talaffuz ustida batafsil ishlash imkonini beradi. Boshqa sharoitlar bir xil bo'lgani holda bolaning yomon og'zaki nutqi uning talaffuziga ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'lish, kattalar tomonidan har kunlik e'tibor va nazoratning yo'qligi natijasi sanaladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar imo-ishora yordamida muloqotga kirishadilar. Imo-ishora nutqi atrof-olamni tushunishga yordam beruvchi vosita sanaladi. Masalan, kar bola oilada imo-ishora nutqidan foydalangan holda tarbiyalanadi, lekin uning rivojlanish darajasi yuqori bo'ladi. Shunday qilib, imo-ishora eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun muloqot funksiyasi bajarishni ta'kidlash joiz. Bu jihatdan u og'zaki nutq shakliga o'xshashdir. Talaffuzga o'rgatish o'z ichiga ovoz, tovush, so'z va ibora talaffuzi ustida olib boriladigan ishlarni qamrab oladi. Shuningdek, ovozning normal balandligi, kuchi, tembrini tarbiyalash ishlari ko'rib chiqiladi. O'quvchilarda so'z va mantiqiy urg'u bo'yicha amaliy malakalar ishlab chiqiladi. So'zning tovush asosini egallashga doir mashqlarga katta e'tibor qaratiladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktablarida mehnat ta'limi (texnologiya fani)ning asoslari va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish

Mehnat – inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Mehnat – farovon va baxtli hayot kechirishining eng asosiy sharti bo'lganligi sababli hamma fuqarolar uchun majburiydir. Mehnat odamlarning biror maqsad uchun sarflangan vaqti, aqliy va jismoniy kuchi yoki zarur faoliyatidir. Mehnatsiz yashamoq mumkin emas.

Barcha tirik mavjudot nimanidir iste'mol qilish hisobiga yashaydi, umrini davom ettiradi. Yerdan yashovchi mayda qurt-qumursqadan tortib, parrandalargacha, suv ostida yashovchi jonivorlardan tortib, ulkan hayvonlargacha ovqatsiz yasholmaydi.

Xuddi shuningdek odamlar ham uzluksiz ovqatlanadi, hayot kechiradi. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o'laroq, odamlar kiyinishadi, uy-joy qurishadi, savdo-sotiq qilishadi, kitob o'qishadi, ijod qilishadi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun boylik, ya'ni tirikchilik manbayi bo'lgan pul kerak. Pul topish uchun, o'zlariga kerakli narsalarni yaratish uchun odamlar mehnat qilishlari lozim. Mehnat jarayonidagina oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur narsalar yaratiladi. Mehnat inson hayotini sermazzmun qiladi va boyitadi. Odamlar mehnat qilish jarayonida sog'liqlarini mustahkamlaydilar, obro' orttiradilar va o'z kelajaklarini yaratadilar.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan, o'zlari sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo'lib qolgan barcha xazinalar – ilmiy-badiiy kitoblar, turli xildagi san'at asarlari, me'morchilik obidalari va boshqa narsalar ana shu mehnatning mahsulidir. Jahon fanining rivojiga bebaho hissa qo'shgan al-Xorazmiy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur singari bobokalonlarimiz mehnatsevarliklari tufayli ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishgan va yoshlarni ham mehnatni sevishga, mehnatsevar bo'lishga chaqirishgan. Shu boisdan jahondagi barcha xalqlarning maqollarida bo'lgani kabi o'zbek maqollarida ham mehnat va mehnatsevarlik g'oyasi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. "Suvsiz hayot bo'lmas, mehnatsiz – rohat", "Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan", "Oltin o'tda chiniqar, odam mehnatda" kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Mehnat hayot chirog'iga yog' quyib turadi. Mehnat bilan charxlanib turmagan kuch susayadi. Ishlamaslik har doim lanjlikni keltirib chiqaradi, lanjlikdan keyin esa nogironlik keladi.

Mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuning uchun bolalarni juda kichik yoshidan boshlab mehnatga o'rgatish lozim.

Mehnat tarbiyasi masalalari o'rtaosiyolik mutafakkir olimlar va shoirlarning bizga meros bo'lib qolgan ma'rifiy asarlarida katta o'rin olgan.

Masalan, buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy mehnatsevarlikni chinakam insonning eng asosiy xususiyati deb bilgan. Mehnat kishini bezashini, uni har tomonlama kamol toptirishini yuksak ko'tarinki ruh bilan madh etgan. Yoshlarni sidqidildan mehnat qilishga, mehnatni qadrlashga chaqirgan. Sharq madaniyatining buyuk namoyondasi

Mirzo Ulug'bek ham yosh avlodga tabiat va uni muhofaza qilish, tabiat yaratgan ne'matlarni tejab-tergab tasarruf qilish to'g'risidagi bilimlar berish kerakligini ta'kidlagan. Yoshlar bilimlarini ongli ravishda o'zlashtirishlari, o'z fikr-mulohazalarining to'g'riligiga bevosita kuzatish orqali ishonch hosil qilishlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan.

Umuman, ma'rifatparvarlar yoshlarning mehnat ta'limi va tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor berib, turli asarlarida yoshlardagi qiziquvchanlik, tejamkorlik, do'stlik va odamiylik kabi olijanob fazilatlar mehnat orqali vujudga kelishini g'oyat ta'sirchan shakllarda ifodalaganlar. Ular yoshlarni kasb-hunar o'rganishga, har kim o'zi qiziqqan va o'ziga mos faoliyat bilan shug'ulanishiga da'vat etganlar. Mehnatkash odam hech vaqt birovga qaram bo'lib qolmaydi, degan fikrni ilgari surganlar.

Yoshlar mehnatsevar bo'lib tarbiyalanish bilan bir vaqtda, inson qo'li bilan yaratilgan narsalarni qadrlashga, ardoqlashga va uni uvul qilmaslikka chaqirilgan. Uvolning oqibati gunoh bo'lishi ajoyib o'gitlarda, xalq og'zaki ijodida ham keng o'rin olgan.

Mehnat faqat hayotiy zarurat va moddiy farovonlik manbayi bo'lib qolmay, yoshlarda yaxshi xulq va ma'naviy sifatlarni vujudga keltiradi, loqaydlik va beparvolik kabi illatlarni bartaraf etib, kishida quvonch va mamnunlik hislarini paydo qiladi.

Badiiy asarlarda kuylangan, ezgu maqsadlarga erishishning eng muhim omili bo'lgan mehnat tufayli mamlakatning gullab-yashnashi mumkin emasligi, odam dunyodagi hamma yaxshi narsalarga ega bo'lsa-yu, lekin o'zi mehnat qilmasa, u baxtli bo'la olmasligi mumkinligi qayd etilgan.

Xullas, mehnat tarbiyasi masalasi ma'rifatparvarlar ijodida hamisha faxrli o'rin tutgan. Ular yoshlarni jamiyat manfaati uchun ishlashga chaqirish bilan birga, ustozlar va ota-onalarning mehnat tarbiyasi sohasidagi vazifalari nimalardan iborat ekanligini ham ko'rsatganlar.

O'zbek ma'rifatparvarlarining taniqli namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy yoshlarning biror kasb bilan mashg'ul bo'lishini birinchi galdagi muhim ish deb hisoblagan. U "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida dangasalik va yalqovlikni qoralab, harakatchanlikni olqishlab shunday yozgan: "Sihatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz, butun hayotimiz harakatimizga

bog'liqdir. Harakatsiz kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lib, xorlikka qolurlar. Shuning uchun bolalarni hunar o'rganishga chaqirib, kishilarni biror kasb bilan shug'ullanishga undab, "yoshlar"... bu ko'mirchilik, bu temirchilik menga munosib ish emas, deb dangasalik qilib ishsiz yursa, zo'r ayb" hisoblanishini uqtirgan.

Mehnat asosan ikki tur: aqliy mehnat va jismoniy mehnatdan iborat bo'ladi. Insoniyat qo'l va boshqa a'zolari yordamida jismoniy kuch sarflab amalga oshiradigan ishlar jismoniy mehnatni tashkil qiladi. Jismoniy mehnatni aqliy mehnatdan ajratilgan holda tushunish mumkin emas. Jismoniy mehnat aql yordamidagina mazmunli, yaxshi sifatli va mahsuldor bo'ladi: aqli odam ketmon chopsa ham, traktor haydasa yoki zavod-fabrikada biror jismoniy vazifani amalga oshirsa, uning ishi yaxshi natija beradi. Aql aralashmagan ishning mahsuli bo'lmaydi.

Aqliy mehnat egalari o'qituvchilar, shifokorlar, olimlar, shoir-yozuvchilar, noshirlar va boshqalar bo'lib, ular ma'naviyat egalari. Agar jismoniy mehnat egalari jamiyatni iqtisodiy tomondan ta'min etishsa, aqliy mehnat egalari insoniyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladilar.

O'quvchi aqliy mehnat egasi bo'lib, u hamisha o'qiydi, yozadi va o'z ma'naviy olamini boyitish yo'lida mehnat qiladi. Oilada, jamoat orasida jismoniy mehnat bilan shug'ullanishiga to'g'ri keladi, maktabda esa o'z sog'lig'ini mustahkamlash uchun badantarbiya darslariga qatnashadi. O'quvchining o'z odobini namoyish qiladigan yana bir imkoniyati borki, bu uning jamoa mehnatida faol ishtirok etishidir. Jamoatchilik asosida bajariladigan ishlar ko'cha-ko'yda ham, maktabda yoki sinfda ham tez-tez uchrab turadi. Sinfning tozaligi uchun kurashda qatnashish, maktab tajriba uchastkasida olib boriladigan mehnat jarayonida ishtirok etish har bir o'quvchining sharaflari burchidir.

Yoshligidanoq biror hunar yo kasb etagini mahkam tutgan yigit-qizlar hayotdan o'z o'rinlarini topadilar, qoqilmaydilar. Otabobolardan qolgan hikmatda "Bir yigitga qirq hunar oz" deyiladi. O'sha hunarlardan ayrimlarini sanab o'tamiz: duradgorlik, naqqosh, kulol, zargar, etikdo'z, novvoy.

Inson o'zining bolalik davridan boshlab mehnat qilishga o'rganib, o'ziga yoqqan biror kasbni egallab borishi va kelajakda mehnatsevar

inson bo'lib yetishmoq uchun harakat qilishi kerak. El-yurt orasida o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, qo'lida guldek hunari bo'lgan kishilarni odamlar e'zozlab hurmat qiladi.

Ishning og'ir-yengili bo'ladi-yu ammo yaxshi-yomoni bo'lmaydi. Ba'zilar qora mehnat deb jirkangan ishga siz sidqidillik bilan qo'l ursangiz, u ish sizni o'ziga shu qadar tortadiki, hayotingizni o'sha ishsiz tasavvur etolmay qolasiz. Mehr va ishtiyoq bilan bajarilgan har qanday qora ish ham toza, ko'ngilli, jozibador bo'lib tuyuladi. Ko'rganlar: "Qo'li gul ekan, otasiga rahmat!" deb ketadi.

Yaxshi inson haqida xayol qilganingizda, mehnat hayotining eng zarur ehtiyojiga aylangan kishi ko'z oldimizga keladi. Har kuni, har daqiqqa, mehnat burchini kamtarlik bilan, kerilmasdan, maqtanmasdan, vaqtini bekor o'tkazmasdan bajarib kelgan odam chinakam yaxshi insondir.

Mehnat bilan suyagi qotgan, mehnat tufayli izzat-hurmat ko'rgan har bir ota-ona o'z farzandlarining ham mehnat bilan yashashini, mehnat bilan el-yurt oldida sharaf topishini xohlaydi. Har qanday yumush, jumladan, idish-tovoq yuvish, uy-hovlilarni supurish, mol-hollarga qarash, tomorqa, qurilish, ta'mirlash ishlarida qatnashish ham mehnatdir.

1. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida mehnat (texnologiya fani)ga o'qitishning maqsad va vazifalari.

2. Mehnat (texnologiya fani)ga o'qitish tizimining rivojlanishi.

3. Karlar maktabida mehnat (texnologiya fani)ga o'qitishning bosqichlari.

4. Maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida mehnat (texnologiya fani) ta'limi – o'quv-tarbiya jarayonining asosiy qismini tashkil etib, o'quvchi shaxsining har tomonlama uyg'un rivojlanishiga hamda mustaqil mehnat faoliyatiga yo'naltirishga, ijtimoiy malakalarining shakllantirishiga xizmat qiladi. Mehnat ta'limining asosiy vazifalaridan biri – kar o'quvchilarda mehnatga ijobiy yondashishni tarbiyalash, xalq xo'jaligida mehnat qilishga tayyorlashdir. Jamiyatning rivojlanishi uchun mehnatning roli juda ahamiyatli ekanligini o'quvchilar tushunishlari zarur.

Mehnatda o'quvchilarning fikrlash doiralari kengayadi, ularning bilish qobiliyatlari takomillashadi, mustaqil bilimlarini boyitish va

ularni amalda qo'llash ishlab chiqiladi. Mehnat, shuningdek, axloqiy sifatlar xususiyatlarini shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi.

Mehnatga o'qitish vazifasi o'z tarkibiga o'quvchilarga tashkilotchilik sharoiti, jamoada ishlash, birodarlik hissi, o'zaro yordam va o'zaro aloqa sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish kabi vazifalarni ham qamrab oladi. To'g'ri tashkil etilgan mehnat o'qitilishi o'quvchilarda jismoniy rivojlanish va estetik didni shakllantirishga yordam beradi. Mehnat darslarida o'quvchilarning ish vaqtini tejash, o'z ish joyini toza saqlay bilish, ashyo va qurollardan to'g'ri va unumli foydalanish, o'z faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, rejalashtirish kabi mehnat madaniyati sifatleri tarbiyalanadi.

Kar bolalarni mehnatga o'qitishning asosiy vazifasi ularda bevosita mehnat faoliyatiga bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'quv-tarbiya jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirishdan iboratdir. Va eng muhimi, kar bolalar maktabi darsining o'ziga xos vazifasi – kar o'quvchilarni so'zlashuv nutqini amaliy faoliyatidan ajralmagan holda rivojlantirishdir.

Mehnatga qatnashish o'quvchilar uchun ijobiy ta'sir etadi. Ular bu orqali kasblar bilan yaqindan tanishadilar, o'zlarining bilimlarini mustahkamlaydilar, nimaga qobiliyatli ekanliklarini, mehnatning ayrim turlarida o'zlarini sinab ko'radilar. Shunday qilib, mehnatga o'qitish o'quvchilar o'z o'rnini topishga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Mehnatga o'qitish orqali surdopedagoglarga juda mas'uliyatli vazifa, nutqi va eshitishdagi muammolarni bartaraf etish (korreksiyalash), barcha ruhiy holatlarini shakllantirish hamda ularni eshituvchilar jamiyatiga olib kirishdek sharafli vazifa yuklatilgan. Kar bolalar uchun maxsus muassasalarda mehnatga o'qitish ilk yoshdan amalga oshirishadi. Mehnatga o'qitish sistemasi turli-tuman va u har xil bilim yurtlarida o'ziga xos ahamiyatga ega edi. Har bir o'quvchi u yoki bu kasbning mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishlari va undan ustoz yoki ustoz yordamchisi darajasida foydalanishlari kerak edi. Ular mehnat tayyorgarliklari kasb ustaxonalaridan amalga oshirilar edi. O'quvchilar yil davomida ustaning ishlarini kuzatish orqali ma'lum bir aniq usullarni o'zlashtirar va uni amaliy bajara olardilar. Yetarli darajada nazariy bilimga ega bo'lmasdan, texnologik jarayonlar haqida ma'lumot olmasdan, mehnat operatsiyalarini

o'rganmasdan, u yoki bu kasbning amaliy asosini bilmasdan turib, kar bola ustaga qarab mahsulotni tayyorlagan.

Kar bolalar ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejida mehnatga o'qitishda ular shaxsini har tomonlama rivojlanish hisobga olinar edi. Ko'p hollarda ustaxonadagi karlarning mehnati faqat ularni ish bilan ta'minlash, deb qaralar edi. Asosiy kamchilik kar bolalarni mehnat tayyorgarligi va umumta'lim tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlikning mavjud emasligida namoyon bo'lar edi. Shuningdek, mehnat tayyorgarligi jarayonida ularning so'zlashuv nutqini shakllantirish va rivojlantirish masalasi qo'yilmagan edi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi islohotlar munosabati bilan kar bolalarni maxsus o'qitish tizimi qayta ko'rish zarurati yuzaga keldi. Endilikda nogironligi bo'lgan bolalarning mehnat tayyorgarliklarining xarakteri va mazmunini aniqlash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu masala katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ilk bor eshitmaydigan o'smirlar eshituvchilar bilan shuningdek, mehnat qilishda ham teng huquqni olish ta'minlanadi.

Karlarni mehnatga o'qitish tizimining rivojlanishi murakkab yo'lni bosib o'tdi. Ularni tayyorlash xarakteri mehnatga o'qitishning turli bosqichlaridagi rivojlanishning mazmun va metodikalari o'zgardi, lekin o'quv-tarbiya ishlari sistemasida katta o'rinni egallaydi.

Mehnatga o'qitish tizimida maktab hayoti bilan va mamlakatda xalq ta'limini keyingi rivojlanishini mustahkamlash haqidagi qonun talablari bilan muvofiqlikda tubdan o'zgarish bo'ldi.

Avval amal qilingan mehnatga o'qitishning ikki bosqichli tizim o'rniga uch bosqichli tizimga o'tildi:

1. Predmetli-amaliy ta'lim (0-4-sinf);
2. Umumtexnik mehnat (5-8-sinflar);
3. Kasbga o'qitish (9-11-sinflar).

Kasbga yo'naltirishga kar bolalar 9-sinfidan, ya'ni 16 yoshdan kiradi, chunki bu vaqtda u umumta'lim darslaridan bilim darajasiga va jismoniy rivojlanishga ega bo'ladi.

Bu vaqtdan boshlab kar bolalar maxsus maktab internati A.I.Dyachkov, A.P.Gozova, L.A.Novoselova kabi taniqli surdopedagoglarning tekshirishlari orqali aniqlangan yangi o'qitish mazmuniga o'tadilar.

60-yillarning oxiri va 70-yillarning boshlarida S.A.Zikov rahbarligida kar bolalar maktabida tekshirish eksperimenti o'tkazildi, natijada kichik sinf o'quvchilarining o'qitish va tarbiyalash sistemasining yangi didaktik sistemasi ishlab chiqildi. Shu sistema asosida predmet amaliy o'qitishdan ularning aktivligi va mustaqilligini oshirishning muhim sharti sifatida keng foydalanish masalasi qo'yilgan. Natijalarning mahsuldorligini hisobga olgan holda, 1972-yil kar bolalar maktabi o'quv planiga "Predmetli amaliy o'qitish" deb nomlangan yangi o'quv predmeti kiritildi. Bu kar bolalarni mehnatga o'qitish sistemasida prinsipial o'zgarishlarga olib keldi.

«Mehnat ta'limi» predmeti bilan bir qatorda 2-sinfdan boshlab majburiy ijtimoiy-foydali, ishlab chiqarish mehnati predmeti kiritildi.

Kar bolalar mehnat (texnologik) ta'limi bosqichlari. Mehnat (texnologik) ta'limi o'quv fani sifatida barcha sinflarda o'qitilib, o'z tarkibiga 3 bosqichni qamrab oladi.

1-bosqich boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan predmet amaliy o'qitish darsidir. Bu bosqichda barcha turdagi maxsus va umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida mehnatga o'qitishdan farq qiladi.

Predmetli amaliy o'qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- kar bolalarni bilish jarayonlarini rivojlantirish va ularning ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish;

- kar bolalar so'zlashuv nutqini muloqot quroli sifatida rivojlantirish;

- umumta'lim predmetlarini o'qitish negizidagi tasavvurlari hamda hayotiy tushunchalarini shakllantirish;

- mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

- ijobiy shaxsiy sifatlarni tarbiyalash.

Predmetli amaliy ta'limning asosiy mazmuni o'quv dasturida o'z aksini topgan bo'lib, amaliy faoliyat turlari juda turli-tuman: yelimplash, modellashtirish va konstruktorlashtirish, chizish, applikatsiya qilish, mato bilan ishlash va boshqalarda predmet amaliy o'qitish politexnik o'qitishning asosi hisoblanadi.

Predmetli amaliy ta'lim darslarida o'quvchilar turli xil asboblardan va materiallardan bilan tanishadilar, ba'zi mehnat operatsiyalarini bajarishni o'rganadi, texnika xavfsizligi, mehnat va jamoada ishlash

madaniyati asoslarini o'zlashtiradilar. Bolalar nutqi nutq o'stirish bilan birga maxsus va texnik atamalar lug'ati bilan boyib boradi.

Predmetli amaliy ta'lim asosiy tashkiliy shakliga ko'ra o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan dars hisoblanadi. Uni boshlang'ich sinf o'qituvchilari sinfda yoki maxsus predmet amaliy ta'lim xonasida o'rganadilar.

Kar bolalar maktabida mehnat (texnologiya)ga o'qitishning ikkinchi bosqichi 5-7-sinf o'quvchilari hisoblanadi. Mehnatga o'qitish o'quv dasturida qiz bolalar (mehnat) va o'g'il bolalarni (texnik mehnat) differetsialab o'qitishni ko'zda tutadi.

Mehnatga o'qitishning bu bosqichida umumiy vazifalar bilan bir qatorda maxsus vazifalar ham yechiladi. Ularga elementlarni texnika va texnologiyasini bilish, mehnatni tashkil qilish elementlari va ishlab chiqarish asoslari bilan tanishtirish kiradi.

O'g'il bolalar uchun texnika mehnati dasturga mashinashunoslik elementlari, yog'ochsozlik va yog'och materiallarini ishlash texnologiyasi, elektrotexnika ishlarini kiritadi. Eng katta bo'lim materiallarni ishlash texnologiyasi bo'limi hisoblanadi. Har bir mavzuni o'rganishda o'quvchilar aniq texnik ma'lumotlar oladilar va amaliy ish qiladilar.

Qizlar uchun mo'ljallangan xizmat ko'rsatish mehnati oziq-ovqat tayyorlash texnologiyasi va gazlama bilan ishlash, shuningdek elektrotexnika ishlarini o'z ichiga oladi.

Eng asosiy bo'lim gazlamashunoslik elementlari, tikuv mashinalari va ularda ishlash usullarini, shuningdek, tikuv mahsulotlarini tayyorlashga o'rgatuvchi gazlama bilan ishlash texnologiya bo'limi hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar chizmalardan, asboblardan foydalanishini, chizishni, model ishlashni, mahsulotning eskizini tayyorlashni o'rganadilar. Avval o'quvchilar mahsulotning namunasi bilan, ketma-ketligi, texnologik operatsiyalarning bajarilishi yo'llari bilan tanishadilar, keyin esa, texnologik karta tuzadilar.

O'lchov ko'nikmalarini rivojlantirish va mahsulotning chizmasini chizishda hisoblash formulalaridan foydalanishga katta e'tibor beriladi. Gazlamashunoslikka o'rganish jarayonida o'quvchilar gazlama va tolalarning turli ko'rinishlari haqida ma'lumot oladilar.

O'qitishning ikkinchi bosqichida ham asosiy tashkiliy shakl dars hisoblanadi. Uni mehnat o'qituvchisi olib boradi. 5-7-sinflarda

mehnatga o'qitish darslari maktab ustaxonalarida o'tkaziladi. Surdopedagog kar bolalarni texnika xavfsizligi ko'rsatmalari, shaxsiy va mehnat gigiyenasi talablari bilan tanishtirishga alohida e'tibor berishi kerak.

Har yili zamonaviy ishlab chiqarish bilan tanishtirish maqsadida ishlab chiqarishga ekskursiyalar tashkil qilinadi. Ekskursiyalar mazmuni va o'quv-tarbiya ishining maqsadiga ko'ra texnik va texnologik jarayonlarning ba'zi ob'yektlarini o'rganish bilan bog'liq holda o'tkaziladi.

O'quv yilining oxirida o'quvchilar uncha qiyin bo'lmagan mahsulot tayyorlash yo'li bilan kompleks ish bajaradilar. Kompleks ishning asosiy vazifasi o'quvchilar ilgari olgan bilimlari va amaliy faoliyatlarini mustahkamlashdan iborat.

5-7-sinflarda mehnatga o'qitishda o'quvchilar nutqini o'stirishga alohida e'tibor beriladi. Umumiy nutq o'stirish bilan birga muloqotni maxsus terminlar lug'ati bilan boyitib boriladi.

Dasturda har bir o'quvchilar temaga mehnat faoliyati davomida o'zlashtirishlari kerak bo'lgan lug'atlar belgilangan.

Mehnatga o'qitishning 3-bosqichida, ya'ni 8-12-sinflarda umumiy mehnat tayyorgarligi amalga oshiriladi. Bu bosqichda o'qitish o'quv ishlab chiqarish kombinatlarida, karlar jamiyati tashkilotlarida, hunar-texnika bilim yurtlarida va boshqalarda o'tkaziladi.

Mehnatga o'qitishni yuqori sinflarda tashkil etish shakllari turlichadir. Ularga darsning turli tiplari, laboratoriya amaliy mashg'ulotlari, o'quv ishlab chiqarish ishlari, ekskursiyalar, ishlab chiqarish praktikasi kiradi. Ular bir-birlari bilan mustahkam aloqada.

Mehnatga o'qitish jarayonida surdopedagoglar frontal, brigada, individual ish shakllaridan keng foydalanadilar. Yuqori sinflarda ijtimoiy-foydali, ishlab chiqarish mehnati, shuningdek, o'quvchilarni mehnat praktikasi katta o'rin egallaydi.

Kasb tanlash masalasi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifadir. Bu masalani hal qilishda kasbga yo'naltirish ishi muhim o'rin egallaydi. U bitiruvchilarni jamiyatga foyda keltiradigan, xalq xo'jaligining sotsial-iqtisodiy talablariga javob beradigan va har bir kishining individual qobiliyatini maksimal rivojlantirishni ta'minlashda ongli ravishda kasb tanlashga tayyorgarlik masalalarini ko'rib chiqadi. O'quvchilarning ongli ravishda kasb tanlashga tayyorgarliklari turli omillarga asoslangan.

Keng tarqalgan mehnat turlari va ularni xalq xo'jaligidagi ahamiyati haqida axborot berishdan iborat.

O'zi kasbni aniqlash masalalari bilan muvofiq ravishda kasbga yo'naltirish, kasb haqida xabarlar, konsultatsiyalar, professional diagnostika, professional tanlab olish va professional adaptatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Bu komponentlarning har biri o'z vazifasi, mazmuni va metodikasiga ega.

Kar bolalar maktabida kasbga yo'naltirish ishining birinchi bosqichi kasb haqida axborot hisoblanadi. Kasb haqida axborot berish kar bolalarni turli kasb egalari, ularning mehnat faoliyati mazmuni, talablari va bu kasb bilan qayerda ishlash mumkinligi haqidagi bilimlar bilan qurollantirishni ko'rib chiqadi.

Kasb haqida axborot berish turli tashkiliy shakllarda, ya'ni masalan, ilmiy asoslarni o'rganish jarayonida, mehnatga o'qitish darslarida, o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish yo'li bilan, ekskursiya uyushtirish, kinofilmlar ko'rish, uchrashuvlar o'tkazish va boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Keyingi yillardagi kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, kar bolalar mehnat va kasbning turli xillari bilan, ularning mazmuni u yoki bu kasb egalarining mehnat sharoiti bilan yaxshi tanish emas ekan.

Bu shunga olib keladiki, kar bolalar ularning eshitishlariga zid bo'lgan kasblarni tanlashni rejalashtirib qo'yadi.

Bu bilan bog'liq ravishda, birinchi navbatdagi vazifa – kar bolalarni eng ko'p uchraydigan kasblar va ayniqsa, ular uchun foydali bo'lgan kasblar bilan tanishtirish hisoblanadi.

Maktab amaliyotida "Xalq ta'limi" jurnalida yaratilgan materialdan keng foydalaniladi. Kasbga yo'naltirish ishida kar bolalar xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida egallaydigan yangi kasblari tasvirlangan syujetli rasmlardan, konkret materiallardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Kasbga yo'naltirishning ikkinchi unsuri maslahat hisoblanadi. Uni o'tkazishdan maqsad o'quvchilarga u yoki bu kasbni tanlashda ularning individual xususiyatlari, psixofiziologik holatlari, qiziqishlariga qarab ularga yordam berishdan iborat. Ishning bu bo'limi ma'lum qiyinchiliklarga ega.

Maslahat kar bolalar shaxsini keyingi rivojlanish yo'llarini aniqlaydi, uni maqsadga yo'naltiradi va takomillashtirib boradi.

Kasb haqida maslahatlar o'tkazish surdopedagoglardan kar bola shaxsini har tomonlama va chuqur o'rganishni va turli metodlardan foydalanishni talab qiladi va asosiy rol o'ynaydi.

O'quvchilar shaxsining psixofiziologik rivojlanishini o'rganuvchi, ularning jismoniy rivojlanishlarini mustahkamlashni muhim shartlarini yaratishni nazorat qilib turuvchi o'quvchilarga ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kasb tanlashga maslahatchi yordamlar beruvchi maktab vrachi ham katta rol o'ynaydi.

Kasb haqida maslahat o'tkazishda yuridik maslahat va mehnat qonun qoidalari haqidagi savollarga maslahatlar berish katta rol o'ynaydi. Kasbga yo'naltirishning tarkibiy qismi kasb tanlab olish maktab bitiruvchilarni o'ziga ishga oluvchi korxonaning vakillari, shuningdek, bilim yurti mutaxassislari shug'ullani lozim.

Kasbga yo'naltirish ishining oxirgi bosqichi profadantatsiya (kasbga yo'naltirish)dir.

Ishlab chiqarish jamoalari mehnatda erishgan yutuqlari va endi ishni boshlagan ishchilarning qiyinchiliklarini yengishni zaruriy shartini yaratishlari kerak.

Surdopedagoglar o'z bitiruvchilarini mehnatga bo'lgan qobiliyatini tekshiradilar va ularni ishlab chiqarishdagi adaptatsiyasini o'ziga xosligini o'rganadilar.

Ota-onalar o'z bolalarining professional va umumiy hayotiy rejalarini aniqlashda aktiv ishtirok etadi.

Musiqali-ritmik mashg'ulotlarning olib borilishi

Nutqiy muloqot bolaning shaxs sifatida rivojlanishida hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Eshitishida muammolari bo'lgan bola nutqining o'ziga xos rivojlanishi oddiy sharoitlarda ilm asoslarini egallashlariga to'sqinlik qiladi. Shu sababli ham bu toifadagi bolalar anomaliyasi tuzilishida nutq birinchi o'ringa surilib, maxsus tashkil etilgan ta'lim jarayonida markaziy o'rinni nutqni reja asosida, korreksion-kompensator choralarni qo'llagan holda shakllantirish masalasi egallashi lozim. Musiqali-ritmik mashg'ulotlar ana shu jarayonda muhim ahamiyat kasb etishi sababli keyingi yoritilishi lozim bo'lgan masala musiqali-ritmika mashg'ulotlarining mohiyati haqidagi tushunchalardir.

O'quv rejada bu mashg'ulotlar uchun haftasiga 2 soatdan ajratilgan bo'lib, ushbu mashg'ulot yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda quyidagilarni tashkil etadi:

- bolalar umumiy motorikasini rivojlantirish bilan bog'liq ravishda ularning nutqini harakatga keltiruvchi va eshitish analizatorlarining faoliyatini bog'lash;

- bolalarning umumiy motorikadan nutqni harakatga keltirishga o'tish jarayonida ular nutqining tabiiy holatdagi intonatsiya va ritmikligining shakllanishiga erishish;

- bolalar talaffuz malakalarini shakllantirish va korreksiyalash jarayonida eshitish diqqatlarini rivojlantirish.

Mashg'ulotlar mazmunini belgilashda bolalar talaffuziga qo'yiluvchi talablar bilan bir qatorda ularda harakatlarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalarni ham inobatga olish lozim.

Mashg'ulotlar mobaynida qo'llanuvchi o'z tarkibiga harakat va og'zaki nutqni qamrab oluvchi barcha mashqlar quyidagilarni ta'minlashga qaratilgan:

- nutqiy nafas va u bilan bog'liq bo'lgan nutqning ravonligini me'yorlashtirishga;

- qo'pol holatda me'yordan chetga chiqmay ovoz tembrini saqlagan holda ovoz kuchi va balandligini o'zgartirish ko'nikmalarini shakllantirish;

- tovushlar, ular chatishmalarini alohida, bo'g'in, so'z, so'z birikmalari va jumalarda to'g'ri talaffuz qilish;

- tavsiya etilgan tezlikda nutqiy materialni talaffuz qilish;

- turli ritmlarni idrok qilish, ajrata olish hamda qayta aytib bera olish;

- o'z his-hayajonini turli intonatsion vositalar orqali bildira olish.

Musiqaviy ritmik mashg'ulotlarda ishning quyidagi yo'nalishlari belgilab olinadi:

- a) tovush va ularning birikma (chatishma)lari ustida ishlash;

- b) ritm va temp (jadallik va sur'at) ustida ishlash;

- v) nutqiy nafas olish va nutqiy uyg'unlik ustida ishlash;

- g) ovoz va intonatsiya ustida ishlash.

Barcha yo'nalishlar nutq ustida ishlash jarayonida muhim sanalib, bir-biri bilan o'zaro uyg'unlikni tashkil etadi. So'zlarda bo'g'inlarni, gaplarda va jumalarda so'zlarni uyg'un holda talaffuz qilish muhim va oson bo'lmagan talaffuzni shakllantirish bo'limiga xosdir.

Ravonlik ustida ish olib borish nutqiy nafasni me'yorlash hamda o'z tovushini boshqara olish malakasi bilan chambarchas bog'liq.

Tovush, nutqiy nafas, temp va ritmni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar musiqa bilan birgalikda hamda musiqasiz olib boriladi. Mashg'ulotlar jarayonida ba'zan faqatgina harakatdan iborat bo'lgan mashqlar ham bajarilib, ular musiqaviy-ritmik stimulyatsiyalar deb nomlanadi. Ushbu mashqlarning maqsadi nafas olishni me'yorlashtirish, ritmni his etishni rivojlantirish, harakatlarni rivojlantirishdan iborat. Bunday harakatli mashqlar ritmni his etish va nafas apparatidan foydalanish malakasining rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, musiqa sadosi ostida harakatlar bolalar motorikasining rivojlanishiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi.

Musiqali-ritmik stimulyatsiyalar harakatlarni raqs elementlari bilan uyg'un holda olib borishdan iborat bo'lgan mashqlardan iborat. Ular har bir darsda albatta amalga oshirilishi lozim bo'lgan mashqlar sanaladi hamda musiqa sadolari ostida amalga oshiriladi. Musiqani tanlashda asosan o'quvchilar ritmik urg'ularni qiyinchiliklarsiz ajrata oladigan raqs musiqalariga e'tibor qaratiladi. Bunday musiqalar sho'x, qizdiruvchi xarakterga ega bo'lishi lozim. Aynan shunday musiqa bolalar tomonidan ritmni harakatlar orqali yetkazib berish imkonini beradi. Bundan tashqari musiqaviy jo'rlik eshitish idrokining rivojlanishiga zo'r ta'siri mavjud. Musiqa yordamida (eshitish asosida) bolalar eshitgan ritm va templarini yengil berish imkoniga ega bo'lalilar, shuningdek, uyg'un holda harakat qilish malakalari shakllanadi.

Musiqa ostida bajariluvchi harakatlarning xarakteri turlicha bo'ladi.

Nafasni me'yorlashtirishga qaratilgan mashqlarni bajarishda ohista (ravon) harakatlar ustunlik qiladi.

Ritm ustida ishlashda harakatlarga taklif etilayotgan ritmga qarsaklar bilan monand keluvchi raqs elementlari, ritmga mos bo'lgan odim tashlashlar kiritib boriladi.

Talaffuz malakalarini me'yorlashtirishga qaratilgan mashqlar tizimida musiqasiz bajariluvchi harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagilardir:

- tana harakatlari – oldinga, yon tomonga, 90, 180, 360 gradusga engashish;

- bosh harakatlari – o'ngga, chapga, oldinga, orqaga burilish;

-qo'l harakatlari – tepaga, yon tomonga, oldinga ko'tarish, yelkarni ko'tarish va tushirish, bilaklarni aylantirish;

-oyoq harakatlari – tizzalarni bukish va to'g'ri qilish, oyoqni yelka kengligida ochish va b.

Ushbu harakatlarning xarakteri ham turlicha, ya'ni sokin, mayinlikdan qisqa va keskin bo'lishi mumkin.

Nutqiy nafas va nutq ravonligi ustida ishlashda qo'llanuvchi mashqlar mayin harakatlar bilan ajralib turadi.

Nutqning ritm, sur'ati, jadalligi, ovoz va intonatsiya ustida ishlashda tabiiy harakatlardan, shuningdek, kulgu, rad, inkor etish bilan bog'liq bo'lgan tabiiy imo-ishoralardan foydalaniladi.

Ushbu mashg'ulotlarda qo'llanuvchi barcha harakatlar talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlovchi vosita sifatida qaraladi. Mashg'ulotlar jarayonida bajariluvchi har bir harakat avvaldan tayyorgarlik ko'rilmaydi, yod olinmaydi va uyga vazifa berilmaydi. Shu sababli ular o'qituvchiga taqlid asosida bir necha bor (2-5 marta) takrorlanadi. O'quvchilar harakatlarni to'g'ri bajarishga o'rganib borishgach, ularni takrorlash kamaytirib boriladi. Harakatlar mobaynida talaffuz qilib boriluvchi tovush, bo'g'in va so'zlar nutqda to'g'ri qo'llanilganda, harakatlar o'z vazifasini to'liq bajargan, deb hisoblanadi. Shunday qilib, harakatlar – nutqni shakllantirish va uni korreksiyalash maqsadini amalga oshiruvchi vosita sanaladi. Ushbu mashg'ulotlarning pirovard maqsadi – harakatlarsiz to'g'ri talaffuz qilingan nutqni tashkil etadi. Shu sababli o'quvchilar o'zlari tomondan talaffuz qilinganlarni ko'rish-eshitish asosida nazorat qilib borishlari lozim bo'ladi. Shu maqsadda cho'ntak apparatlari, simsiz statsionar apparatlar foydalanish lozim. O'qituvchi tanlangan apparatning ovoznig kuchaytirib beruvchi sifati va bolalarning harakatlariga halal bermasligiga e'tibor berishi lozim.

O'qituvchining barcha topshiriqlari eshitish-ko'rishga tayangan holda beriladi. Lekin shu bilan birga sof eshitish asosidagi topshiriqlar ham beriladi. Eshitib farqlashga beriluvchi material turli ritm, mantiqiy urg'u, intonatsiyani idrok etish va uni qayta aytishni nazarda tutadi.

Nutqiy material bolalarga lug'aviy (ma'no) jihatdan tanish bo'lib, mashg'ulotning fonetik vazifalariga mos bo'ladi. Nutq materiali bir vaqtning o'zida ham talaffuz malakalarini shakllantirish, ham eshitish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida qo'llanadi.

O'quvchilarning o'qituvchiga, uning harakatlariga namuna sifatida taqlid qilgan holda bir necha bor takrorlashlari tabiiy taqlidni yuzaga keltiradi.

Mashg'ulotlar jarayonida ba'zi elementlarni bajara olmasalar, o'zlashtira olinmagan elementlarning bir qismi yakka mashg'ulotlarga olib chiqiladi.

Bu mashg'ulotlarni to'g'ri talaffuzga, chiroyli, ravon, yengil xatti-harakatlarga ega, tabiiy ovoz balandligiga ega, shu bilan birgalikda eshitish qobiliyati va talaffuz ustida ishlash metodikasini to'liq o'zlashtirgan surdopedagog tomonidan olib borilishi mumkin.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonida qo'llanuvchi nutqiy vositalar

Nutqiy vositalar haqida gapirganimizda, avvalo, eshitmaydigan insonlar tomonidan muloqotda qo'llanuvchi imo-ishora (jest)lar nutqini nazarda tutamiz. Eshitmaydigan insonlarning asosiy muloqot vositasi sanalgan mazkur nutq shaklidan ularning maxsus ta'limi jarayonida foydalanish uzoq yillardan buyon juda ham qiyin hamda munozaraga sabab bo'lib borayotgan bosh mavzulardandir. Bu til anchagacha keng tushunchaga ega bo'lib, afsuski, har doim ham hisobga olinavermaydigan hamda ko'pincha, o'rinsiz munozaralarni keltirib chiqaruvchi turli xil tarkibiy qism (komponent)lardan tarkib topgan. Aynan shu sababga mazkur nutq tarkibiy qism (komponent)larini baholash hamda ularga bo'lgan munosabatni aniqlashda barobarlashtirish yuzaga keladi. Umumiy tan olingan atama (terminologiya)ning qabul qilinmaganligi bois ham ko'pincha anglashilmovchilik yuzaga keladi. Shu bois surdopedagogik adabiyotlarda mualliflar tomonidan turli nomlashlarga: "mimika (imo, imlash) nutqi", "jest (ishora) nutqi", "mimika-jest(imo-ishora) nutqi" duch kelamiz. Bunday turli qarashlar eshitmaydigan insonlar tiliga kiruvchi turli tarkibiy qism (komponent)lar o'rnini turlicha tushunish bilan bog'liq.

Ushbu tilning ko'pgina tarkibiy tuzilmalari u yoki bu darajada so'zlashuv nutqiga ega bo'lgan eshituvchi insonlar tomonidan ham qo'llaniladi. Ularning eng oddiyari rivojlanishning ilk bosqichlaridayoq yuzaga keluvchi muloqotning ko'rsatmali-amaliy (faoliyat) vositalaridir. Go'dak narsa, o'yinchoqlarga talpinadi yoki

uni olish, qabul qilishdan bosh tortib, itarib yuboradi. Ona yoki bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi oila a'zolari uning ushbu istagini tushunadilar. Boshqa bir holat: go'dak nimadir qurishga harakat qiladi, lekin hamma narsa buzilib ketaveradi va u qayg'udan yig'lab yuboradi. Uning yoniga kattalardan biri kelib, hech nima demay, yordam ko'rsatadi. Har ikki holatda ham go'dak va kattalar bir-birlarini tushundilar hamda natijadan qoniqdilar.

Eshitmaydigan bolalar boshqa o'yinchoqlarni olishni istasalar, xuddi kerakli so'zni egallamagan eshituvchi go'dak singari, ularga talpinib, kattalarga ularni ko'rsatadilar. Lekin eshituvchi bolada o'z xohishini bayon etishning bunday imo-ishora usuli tezda so'zlashuv nutqi bilan to'ldirilsa, eshitmaydigan bolalarda bu holat maxsus ta'limsiz uzoq muddat saqlanib qoladi.

Shuningdek, ba'zan kulgu, achinish, norozilik (e'tiroz), g'azabni keltirib chiqaruvchi, mazmuni qahramonlarining xatti-harakatlari orqali ochib beriluvchi ko'pgina ovozsiz kinosuratlar birorta so'zni bilmaydigan eshitmaydigan insonlar uchun tushunarli bo'ladi hamda bunday insonlar tomonidan qiziqib tomosha qilinadi.

Kar bolalar maktabiga ilk bor qabul qilingan bolalar umuman yangi sharoitiga tushib qolsalar, tezda vaziyatni anglab (yetarli darajada), sharoitga moslashib ketadilar. Oshxonaga kelib, hamma bilan stol atrofida o'tirib, tanovul qila boshlaydilar. Tabiiyki, bunday vosita ideal (eng yuksak maqsad) emas, lekin ularga kar o'quvchilar bilan muloqot qilishda, ayniqsa, maktabda o'qishni endigina boshlaganlar bilan, ahamiyat bermaslik mumkin emas.

Muloqotning eng oddiy usullariga inson xohish, sezgilarini aks ettiruvchi hamda shu maqsadda qo'llanuvchi yuzning ifodali vositalari imlash (mimika, imo) kiradi. Shodlik hamda qayg'u, qoniqish hamda hayrongarchilik, rozilik hamda e'tiroz – bularning barchasi hamda ko'pgina boshqa narsalar mimika va jestlarda namoyon bo'lib, kishilar o'rtasida o'zaro bir-birlarini tushunishlariga xizmat qiladi. Onaning nigohiga ko'ra go'dak, hech bir so'z aytmagan bo'lsa ham, sho'xlikni davom ettirish mumkinmi yoki uni tugallash darkorligini aniqlab oladi.

Karlar uchun muloqot qilishning to'la tushunarli bo'libgina qolmay, balki ko'pgina hollarda juda ham zarur bo'lib qoladi.

Aks ettiriluvchi sezgining yaxshiroq idrok etilishi insonlar mimika vositalarini kuchaytirishga intiladilar. Bu usulga ko'pincha

karlar murojaat etadilar, shu sababli ko'pincha ularning mimikasi bo'rttirilgan va hattoki, be'mani (xunuk) bo'lib qoladi. Lekin bu narsa uning muloqot vositasi sifati foydalanmasligi uchun asos bo'lib xizmat qilmasligi lozimdir. Bu yerda mimika vositalari madaniyati ustida ishlash zarurligi haqida gapirish o'rinli bo'lar edi.

Boshqa vositalar ichidan karlar o'zaro va eshituvchilar bilan muloqotda pantomima (so'zlamay, faqat harakat va imo-ishoralalar bilan tomosha ko'rsatish), harakatlar imitatsiyasi (taqlidi), drammalashtirish elementlari, predmetlarni havoda rasm bilan tasvirlashdan keng foydalanadilar. Bunday eshituvchilar ham o'z ehtiyojlarini (qondirish) bayon ettirish uchun so'zlashuv vositalari yetarli bo'lmaganda murojaat etadilar.

Aytib o'tilgan karlar tomonidan qo'llaniluvchi usullar, ular uchun ko'proq ahamiyatli hamda keng qo'llanilsa-da, eshituvchi kishilar muloqotda qo'llaniluvchilari bilan taqqoslaganda prinsipial farqqa ega bo'lmaydi.

Farq yana shunda ham namoyon bo'ladi-ki, eshituvchi insonlar so'zlashuv vositalari bilan bir qatorda ularning yanada ma'noli bo'lishi uchun bunday vositalardan foydalanadilar. Biroq bu har doim ham shunday bo'lavermaydi. Rozilikni bildiradi turib inson boshini silkitadi, bunda u ko'pincha hech bir so'z aytmaydi. Norozilikni u boshni chayqatish bilan, hatto-ki "yo'q" so'zini ishlatmay ham bildiradi.

Karlarda esa ushbu barcha vositalar mustaqil holda keng qo'llaniladi. Ammo bularning barchasi ham ko'rib chiqilayotgan ushbu hodisaga prinsipial farq kiritmaydi.

Lekin shuni ta'kidlash lozim-ki, kar bolalar ushbu vositalardan mustaqil rolda faqatgina rivojlanishlarining dastlabki paytlaridagina foydalanadilar. Ular tezda o'z o'rnini karlarning asosiy muloqot vositasi – imo-ishora nutqiga bo'shatib beradilar. Imo-ishora nutqiga o'tish vaqti uning xarakteri singari atrof-muhitga bog'liq bo'ladi. O'zaro muloqotda imo-ishora nutqidan foydalanuvchi kar ota-onalar oilasidagi kar bolalar rivojlanishlarining ilk pog'onalaridayoq jestlardan foydalana bog'laydilar. Bunday sharoitlarda yuqorida bayon etilgan (mimika, pantomima va hakozolar) vositalar boshdanoq imo-ishora nutqiga yo'ldosh bo'ladi.

Aytib o'tilgan yo'ldosh vositalardan pedagogik jarayonda foydalanishning zarurati hamda maqsadga muvofiqligi hech kimda va

hech qachon shubha (gumon) tug'dirmagan va ular surdopedagogikadagi bahsning predmeti emas. Lekin karlar tomonidan qo'llaniluvchi vositalarni bir atamaga birlashtira turib (mimika, mimika nutqi, mimika-imo-ishora nutqi), ularning barchasiga global (yaxlit) yondashish shunga olib keladi-ki, yuqorida aytib o'tilgan turli komponentlar (tarkibiy qismlar) imo-ishora nutqi bilan bir qatorga qo'yiladi hamda undan ajratilmaydi. Imo-ishoralar tiliga bo'lgan qarashlarga bog'liq ravishda sanab o'tilgan vositalarga munosabat ham aniqlanadi.

Imo-ishoralar tili o'ziga xos lug'at tarkibi hamda grammatik qurilishiga ega bo'lgan o'ziga xos til sistemasidir. Jest hamda ularning chatishma (kombinatsiya)lari so'z va so'z birikmalari singari o'zlarida mustahkamlangan ma'lum bir ma'noni yetkazib beruvchi hisoblanadilar hamda umumlashmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Aynan shu narsa bilan Imo-ishoralar tiliboshqa barcha ko'rib chiqilgan vositalardan farq qiladi. Ko'pgina hollarda imo-ishora nutqiorqali beriluvchi ma'nolar so'zlarda qayd etiluvchi ma'nolarga yaqin bo'lib qoladi hamda ularga monand bo'ladi: "o'g'il bola", "qiz bola", "o'qitmoq", "ishlamoq", "yaxshi", "yomon" va hakoza. Bu narsa ko'pincha surdopedagog va karlar bilan ishlovchi boshqa shaxslar kar bolalarni so'zlar tiliga o'qitish (o'rgatish)ni Imo-ishoralar tiliasosida olib borish mumkin va hatto-ki, zarur degan xulosaga kelishlariga asos bo'ladi. Jestda aks etuvchi ma'noni so'zga o'tkazish (ag'darish) hamda shu bilan tilni o'zlashtirish jarayoni yengillashtiriladi.

Bunday xulosa go'yo imo-ishora nutqiorqali muloqotda bo'lgan kar ota-onalar bolalarining maktabga nisbatan rivojlangan holda kelishlari bilan tasdiqlanadi. Lekin bunday holatlarda bolalarning o'z tengdoshlariga taqqoslaganda, so'zlar tilini egallashda katta layoqatga ega bo'lmasliklari va hatto-ki, aksincha bo'lishi nazardan chetda qolib ketadi. Tarixda hatto-ki, eng yaxshi rivojlangan imo-ishora nutqining so'zlar tilini egallashga olib kelgan (keluvchi) biron bir hodisa bo'lmagan. Qator hollarga bog'liq ravishda bunday bo'lishi mumkin ham emas. Eng avvalo, jest tili nutqining so'zlar tilidan bir necha marta kambag'alligi sabab bo'ladi. Demak, shu narsa ma'lum bo'ladiki, bunday kambag'al vosita u bilan taqqoslab bo'lmaydigan so'zlar tili uchun asos bo'lib xizmat qila olmaydi. Bunday xulosa ko'pgina hollar bilan tasdiqlanadi. Imo-ishora nutqining kambag'alligi

tufayli birgina jest ko'pgina tushunchalarni ifodalash uchun qo'llaniladi: ish, ishlamoq, ishchi, sovuq, ayoz, olov, gulxan, yong'in. Turli tuman ma'nolarni aks ettiruvchi so'zlarning birgina jest orqali ifodalanishining o'zi shuni ko'rsatadi-ki, masalan "ishlamoq" jestining asosida mazmuniga ko'ra turli-tuman bo'lgan "Ishchi", "Ish" so'zlarining ma'nosini shakllantirish mumkin emas.

Imo-ishoralar tilining tuzilishi (strukturasi) ham juda o'ziga xos hamda sodda (primitiv)dir. Masalan, bo'lishsizlik (inkor) jesti fe'ldan so'ng qo'llaniladi, ("ishlamoq yo'q", "o'qimoq yo'q"), aniqlovchi aniqlanishdan so'ng ("bola kichkina", "baliq katta") qo'llaniladi. Keltirilgan (aytib o'tilgan)lar shuni tasdiqlaydi-ki, haqiqatdan ham imo-ishora nutqiasosida so'zlar tiliga o'rgatish olib borib bo'lmaydi.

Shuni ta'kidlash lozim-ki, bayon etilgan imo-ishora nutqio'zgarimas bo'lmay, aksincha, u o'quvchilarda sekin-asta o'zgarib boradi, boshqa tusni egallab boradi. Bu narsa so'zlashuv nutqini o'rgatish ta'sirida amalga oshadi. Jestlar bilan keng muloqotda bo'luvchi karlar so'zlashuv tilini egallab borganlari sari so'zlar tilida akslangan narsalarini jest tilida bayon qilish usullarini izlaydilar. Lekin ushbu holatlarda kar bolalar (xuddi eshituvchi yoki kar bo'lib qolganlar singari) haqiqatda (aslida) so'zlar tilidan foydalanadilar, u ularning fikrlashining quroli bo'lib qola boshlaydi, jestlar esa so'zlashuv vositalarida qayd etiluvchi mazmunni yetkazib berishda yordam beruvchi o'ziga xos kod (shartli belgilar ro'yxati) bo'lib xizmat qiladi.

Qayd etilgan faktlar ushbu ikki til sistemalari (so'zlar tili va imo-ishora nutqi) o'rtasida o'zaro tirik aloqa mavjudligi hamda so'zlashuv nutqining shakllanishiga imo-ishora nutqixizmat qilmay, aksincha, imo-ishora nutqining boyishiga so'zlashuv nutqi ta'sir qilishini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash zarur-ki, ushbu narsaga ko'pincha pedagoglarning o'zlari imkon yaratadilar. Masalan, dastlabki kunlarda "kam", "ko'p" tushunchalarini shakllantira turib, o'qituvchi bir qancha predmetlarni ko'rsatadi va "kam" deydi. Bolalar ushbu so'z ma'nosini tushunishlariga ishonch hosil qilmay, ushbu ma'noni (aks ettiruvchi) ifodalovchi belgini bolalar hali bilmasliklari pedagogga ayon bo'lsa-da, taalluqli jestni ko'rsatadi. Dam bir jestning (kam), dam boshqa jestning (ko'p) ko'rsatilishi bir necha marta takrorlanadi, natijada jestlarda taalluqli so'zlarga xos bo'lgan ma'nolar shakllantiriladi.

Ammo, keyinchalik qiyinchiliklar tug'ila boshlaydi. "Ko'proq" va "kamroq" so'zlarining ma'nosini ifodalash uchun taalluqli jestlar yo'q. "Ko'p" va "kam" jestlarini qo'llash majburiyati tug'iladi. Tabiiyki, bunday nomuvofiq (neravnotsenniy) almashtirishlar yangi "ko'proq", "kamroq" so'zlar ma'nosini shakllantirishga to'siqlik qiladi. "Ko'proq", "kamroq" tushunchalarini shakllantirish bo'yicha maxsus ish ko'rishimiz bo'yicha, jestlardan foydalanganda yengillatilmay, balki murakkablashtiriladi.

"Ko'p", "kam" so'zlarining ma'nosini egallashdagi qiyinchiliklarni yengib, kar bolalar yangi qiyinchiliklar oldida turib qoladilar: endi ular "ko'p", "kam" jestlariga "ko'proq", "kamroq" ma'nosini kiritishlari zarurdir. So'zlashuv nutqini o'rganish natijasida ko'pgina jestlar bunday kod asosida yuzaga keluvchi tushunmovchiliklarga olib keluvchi uch-to'rt va undan ko'p ma'nolarda qo'llaniladi.

Bularning barchasi shuni ta'kidlaydi-ki, so'zlar tiliga imo-ishora nutqini aynan ko'chirish usuli bilan o'qitish mumkin emas. Demak, so'zlashuv nutqini shakllantirish imo-ishora nutqiga tobe bo'lmagan holda qurilishi hamda kar bolalar uchun yangi bo'lgan til tuzilishini egallash jarayoni bo'lib namoyon bo'lishi lozimdir. Ko'rinib turibdiki, so'zlashuv nutqi shunday ta'sir kuchiga ega bo'lishi lozim-ki, buning natijasida imo-ishora nutqi shakllanadi. Imo-ishora nutqi o'zining sodda (primetiv)ligiga qaramay, muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi. U muloqotda yuzaga keladi (tug'iladi), kommunikatsiya (muloqot)ga muhtojlik ta'sirida rivojlanadi, o'quvchilar ijtimoiy talablariga xizmat qiladi. Shuning uchun ham so'zlashuv nutqini shakllantirish muloqotga ehtiyojni qondirish bilan boshlanishi, muloqotga ehtiyoj uchun xizmat qilishi hamda, o'sib boruvchi kommunikatsion talablar ta'siri ostida amalga oshishi lozimdir.

So'nggi so'zimizda imo-ishora (jest) nutqiga taalluqli bo'lgan xulosalardan kelib chiquvchi munosabatlarga to'xtalib o'tamiz.

Agar tilga o'rgatishning muvoffaqiyatli borishi uchun taalluqli nutqiy muhitning tashkil etilishi zarur bo'lsa, kar bolalar maktabida imo-ishoralar tilidan haddan ziyod foydalanish nutqiy rivojlanishni pasaytiruvchi, uni tormozlovchi omil hisoblanadi. Demak, so'zlashuv nutqini taraqqiy ettirish hamda shu maqsadda nutqiy muhitni yaratish (tashkil etish) so'zlar tilining ta'sirini bolalarning butun pedagogik tashkil etilgan hayotlariga, o'quvchilar tashkil etilgan faoliyatlarining

barcha turiga keng yoyishni talab etadi. Maxsus maktab kollektivi tashvishining predmeti imo-ishora nutqini ta'qiqlash emas, balki so'zlar tilining muloqot vositasi sifatida ta'sir doirasini kengaytirish bo'lib qolishi lozimdir.

Tabiiyki, aytib o'tilgan imo-ishora nutqini butunlay (to'la ravishda) ta'qiqlashni olib bormaydi. Imo-ishora nutqimaxsus maktab katta bolalar jamoasida bo'lib, imo-ishora nutqiga bo'lgan salbiy munosabat daktil nutqiga ham ko'chirilishiga sabab bo'ladi (keltirib chiqaradi). Bu fikrlar tushunmovchiliklardan kelib chiqadi. Daktil va imo-ishora (jest) nutqlari o'rtasida ikkisinin qo'ldan foydalanishga asoslanganliklaridan bo'lak umumiylik mavjud emas. Biz yuqorida ko'rib o'tdik-ki, imo-ishora nutqi— sodda (primitiv) bo'lsa-da, o'ziga xos til tizimidir. Karlarning imo-ishora nutqini nisbatan so'zlashuv nutqi bilan taqqoslanishi mumkin. Daktil nutqi esa, so'zlashuv tilining shaklsi hamda u ham nisbatan nutqning yozma va og'zaki shakllari bilan taqqoslanishi mumkin. Daktil nutqi o'z tarkibiga ko'ra yozma nutqqa muvofiq keladi. Shunga asoslangan holda uni ko'pincha havodagi xat (yozuv) deb nomlaydilar. Lekin u bunday emas. Havodagi xat (yozuv) nafaqat havoda, balki boshqa qo'l kaflari, devor va hakoazolarga yozishda barmoqlar bilan harflarni qaytadan ishlab chiqish asosida quriladi. Bunday usul surdopedagogikada "daktilografiya" atamasi (nomi) bilan ma'lumdir. Bu usul samarasiz bo'lganligi tufayli keng tarqalmagan(yoyilmagan).

Nutqning daktil shaklsi imo-ishora nutqidan farqli ravishda nafaqat so'z tuzilishini, balki grammatik shaklsini ham eslash (qayta ishlab chiqarish)ni talab qiladi. Xuddi shu sababli kar bolalar uchun daktil nutqini imo-ishora nutqiga qaraganda egallash qiyin (mushkul)roqdir, ammo uning afzalligi aynan shunda namoyon bo'ladi, chunki daktil shaklsidan foydalanish so'zlashuv vositalari bilan gapirishdan iboratdir.

Nutqning daktil shaklsi funksiyasiga ko'ra og'zaki shaklga tegishli bo'lishi mumkin: u bevosita muloqotga xizmat qiladi. Bu shaklning og'zaki shakl bilan o'xshashligi yana shunda namoyon bo'ladi-ki, u iz qoldirmaydi. Shunday bo'lsa-da, u eshituvchi insonlar foydalanuvchi og'zaki nutq bo'lmay, insonlarning tor doirasi tomonidan qo'llanuvchi o'ziga hos nutq shaklsidir.

Tilning turli xil ko'rinish hamda shakllari haqida aytilganlarni quyidagi sxemada ko'rsatishga urinib ko'ramiz:

TIL TURLARI

Soʻzlar tili



NUTQ SHAKLLARI

Ogʻzaki
Yozma
Daktil

Imo-ishoralar tili



Qoʻl(ga oid)

Bunday sxemaga tayana turib, biz yana bir bor imo-ishoralar tilining soʻzlar tili bilan taqqoslanishining shartli ekanligini taʼkidlab oʻtamiz. Biroq ushbu sxemadan daktil nutqining imo-ishoralar tilidan farqi hamda uning soʻzlar tiliga mansubligi yetarli darajada koʻrinib turadi.

Daktil nutqi surdopedagoglarga koʻpdan maʼlum boʻlsa-da, kar bolalarni oʻqitishda uni kam qoʻllaganlar. Sof ogʻzaki sistemada u umuman imo-ishora nutqidan ham kuchliroq chiqarib tashlangan. U juda sodda hamda karlarga yengil oʻzlashtirishligi tan olinar, ammo aynan shuning uchun foydalanish xavfliligi taʼkidlanardi. Bunda daktil nutqi karlar uchun qoʻshimcha vazifa boʻlib, daktil nutqidan foydalanish yuzdan oʻqish koʻnikma (mimika)larining rivojlanishiga halal berishi, daktil nutqi talaffuz etilayotgan soʻzning buzilishiga olib kelishi taʼkidlanar edi.

Ammo, S.A.Zikov izlanishlari daktil nutqi toʻsiq boʻlmay, balki kar bolalarni umuman tilga oʻqitishda, shuningdek, nutqning ogʻzaki shakliga oʻrgatishda yaxshi yordamchi ekanligini koʻrsatdi. Daktil nutqi oʻzida quyida namoyon boʻluvchi kompensatsiyaning muhim mexanizmlarini mujassamlashtiradi.

1. Daktil nutqi oson idrok etiladi, bola soʻzning har bir elementini koʻradi.

2. U gapiruvchining toʻla nazoratida boʻladi. Kar bola oʻz nutqini oʻqituvchi bergan soʻz bilan taqqoslab tekshirishi mumkin.

3. Daktil qilishda soʻz tuzilishining tezroq hamda mustahkamroq eslab qolinishini taʼminlovchi barmoq kinesteziyalari (qoʻlning muskul sezgilari) shakllanadi.

4. Barmoq kinesteziyalari hamda artikulyatsiya apparati kinesteziyalari oʻrtasida daktil nutqi ogʻzaki nutqqa tayanch boʻlib qolishini taʼminlovchi mustahkam neyrodinamik bogʻlanishlar oʻrnatiladi.

5. Daktil nutqi aniq nutqni, uning grammatik qurilishi, lug'at tarkibini egallashga yordam beradi.

6. Nutqning bu shaklsi kar bolaga ilk bosqichlarda imo-ishora nutqini qisib chiqara turib, so'zlashuv muloqotini ta'minlaydi.

Uzoq vaqtlar mobaynida bola daktil shaklidagi so'zni faqatgina ushbu harflarni bilgan, savodni egallagan sharoitdagina o'zlashtira oladi, deb hisoblanar edi. Biroq, bu ham noto'g'ri bo'lib, aytilayotgan so'zni, agar ular uning tarkibini bilsalar, ko'z orqali idrok etish yengilroqdir. Daktil shaklsini qo'llash lug'atning va frazeologiyaning boyishiga ta'sir ko'rsatadi. Nutq qancha boy bo'lsa, karlarga yuzdan o'qish shuncha yengil bo'ladi. Daktil nutqini qo'llash albatta talaffuz etilayotgan so'z tuzilishining buzilishiga olib keladi, degan ta'kidlar xato bo'lib chiqdi. Shunga taalluqli ravishda ko'p narsa o'qitish metodikasiga, qanday o'qitishga bog'liq bo'ladi. Shu narsa aniqlandi-ki, so'z tuzilishining daktil shaklda yuzaga kelishi artikulyatsiya qoidalariga bo'ysundirilishi lozim: so'zni bo'g'inlab qayta ishlab chiqish, urg'uli bo'g'inni ajratish. Ko'rishimizcha, nutqning daktil shaklsi har tomonlama katta ahamiyatga egadir, ammo karlarni o'qitishda uni qo'llash asosiy maqsad bo'lmay, balki so'zlar tilini egallashda yordam beruvchi vositadir. Mavzuni tugallashda biz shuni ta'kidlashimiz mumkin-ki, karlar bilan ishlashda, xuddi ularning o'zaro muloqotida ham, turli-tuman vositalar qo'llaniladi.

Maxsus ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar samarasi

O'zbekiston Respublikasi bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat barpo etish yo'lidan sobitqadamlik bilan bormoqda. O'zbekiston taraqqiyot va islohotlarining, xususan, ta'lim sohasidagi islohatlarning o'ziga xos jahon hamjamiyati tomonidan takrorlanmas, deb tan olingan yo'lni tanladi.

«...Hozirgi tizimli o'zgarishlar jarayonida aksariyat mutaxassislarning bunga tayyor emasligi, ularning bilimi, malakasi va ko'nikmasi zamon talabiga javob bermasligi ayon bo'lib qoldi. Masalan, xorijda doktorantura va magistraturada o'qitish, malaka oshirish va stajirovkani tashkil qilish bo'yicha dastlabki ehtiyoj 3,5 mingdan ortiq. Yurtimizda xalqaro ilmiy va amaliy tajriba ega 600

nafardan ziyod vatandoshlarimizga ehtiyoj mavjud. 1000 ga yaqin xorijiy olimlar va ekspertlarni jalb etishga talab bor.

Ya'ni, bugun kechiktirib bo'lmaydigan, oddiy ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyoj 5 mingdan ziyodni tashkil etadi. Agar ishlab chiqarishdagi talab ham inobatga olinsa, bu raqam kamida 50-100 baravarga oshadi», - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

O'zbekiston yetakchisi yaqin va uzoq istiqboldagi iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan mamlakatga qaysi soha uchun qanday mutaxassis kerak bo'ladi, shuni hozirdan chuqur o'ylash, zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlarni tarbiyalash zarurati haqida: «Bu masala bizning kelajagimiz, bizning ertangi kunimiz», - qeya qayd etadi.

Prezidentimizga muhandis-texnik kadrlar tayyorlash, ta'lim mazmunini kompetensiyalar (amaliy ko'nikmalar) asosida tubdan o'zgartirish, pedagogik ta'limning yangi modelini joriy etish, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini "Universitet – 3.0" konsepsiyasi asosida tashkil etish, AKT va ta'lim texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash loyihalari bo'yicha ma'lumot berildi.

Bizga miqdor emas, sifat kerak. Bunga erishish uchun esa xorij tajribasini yaxshilab o'rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratsa, o'sha yutadi. Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish eng muhim vazifamizdir, dedi davlatimiz rahbari.

Hozirgi kunda zamonaviy pedagogikada shunday ta'lim modellari yaratildiki, ular ta'limga texnologik jarayon sifatida yondashilib, ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlaydi va keng imkoniyatlar yaratadi. Pedagogik innovatsiyalashuv ta'limning ilmiy bilimlar, metodologiyalarini jamiyat rivojlanishi, ta'limga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning jahon talablari darajasiga bog'liq holda moslashuvchanligi deb talqin etish mumkin¹. Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayoni va uning samaradorligini oshirish hamda ta'lim oluvchilarni berilgan sharoitlarda, ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish

¹ Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИРПО, 1996. – 336 с

g'oyasi tashkil etadi. Pedagogik texnologiya – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va uslublari majmuyi hamdir. Ta'lim va tarbiya jarayonini optimal tashkil etishdir. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o'quvchi va o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari ta'lim-tarbiyaning mazmuni, usul va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimi: fan va texnika yangiliklarini o'zida mujassamlashtiradigan o'quv jarayonidir. Pedagogik texnologiya ta'limning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin¹: o'quvchi va pedagog shaxsining jadal rivojlanishi; o'quvchi va pedagogning hamkorlikdagi faoliyati va muloqotining demokratlashuvi; barkamol insonni shakllantirish faoliyati; o'quv-tarbiya jarayonining yanada insonparvarlashuvi; ijodiy o'qitishga yo'nalganlik; o'quvchining kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beradigan vositalar, metodlar va texnologiyalarning modernizatsiyasi.

Vaziyat tahlili shundan guvohlik beradiki, hozirgi davrda tadqiqotchilar juda ko'plab innovatsion ta'lim texnologiyalarini ilgari suradilar. Nazarimizda, respublikamizning zamonaviy oliy o'quv muassasalarida nafaqat bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni shakllantirishga, balki quyidagi tamoyillarni amalga oshirishga yordam beradigan texnologiyalar qo'llanishi lozim: o'quv-tarbiya jarayonida yaxlit "o'quvchi – ta'lim obyekti" pozitsiyasini shakllantirish; o'quvchilar tomonidan o'quv-tarbiya jarayonida o'z o'mini, mavqeyini belgilab olish texnologiyasini o'zlashtirish; o'quv dasturlarini tuzishda mazmuni modul tizimi bo'yicha strukturalash texnologiyasidan foydalanish; muammolarni hal qilish texnologiyasidan o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanadigan metodlarning metodologik asosi sifatida foydalanish; kichik guruhlarda ishni tashkillashtirishni eng samarali ta'lim modeli sifatida olib qarash. Demak, pedagogik texnologiyani ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish

¹ Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. -М.: Народное образование, 1998. – 130 с.

jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimi deya e'tirof etish mumkin. V.P.Bespalko pedagogik texnologiyaning quyidagi ta'rifi keltiradi¹: "Pedagogik texnologiya bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlaydigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir". Rossiya olimlaridan B.L.Farberman: "Pedagogik texnologiya – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir" deya ta'rif beradi². M.V.Klarin fikricha: "Pedagogik texnologiya – o'quv jarayoniga texnologik yondashgan xolda oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashtiradi". N.Saydaxmedov va A.Ochilovlarning ta'kidlashlaricha pedagogik texnologiya bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir."³ G.K.Selevko pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uni optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir". YUNESKO quyidagicha ta'rif beradi: "Pedagogik texnologiya – bu butun o'qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir". Shu jihatdan olganda, barcha ta'riflarda keltirilgan pedagogik texnologiyaning uch jihatini asoslash mumkin⁴: Tizimli yondashuv. Natijalarning kafolatlanishi. Usullar majmuasi yoki usullar va vositalarning maqsadli tanlanishi va qo'llanilishi. Inson va vaqt resurslarining pedagogik jarayonga maqsadli va tizimli safarbar etilishi. Pedagogik texnologiya tushunchasi 20-asrda paydo bo'ldi va turli rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda. Dastlab bu tushuncha 1940-yillardan 1950-yillar o'rtasigacha «Ta'lim texnologiyasi» deb qo'llanilib, o'quv jarayonida

¹ Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИРПО, 1996. – 336 с

² Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. - Т. Фан, 2002. - 120 с

⁴ Albert R. S., Runco M.A. A History of Research on Creativity. – Cambridge: Cambridge University press, 1999. Pp. 16

audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan. Pedagogik texnologiya tushunchasi 20-asrning o'rtalarida AQShda qo'llanila boshlagan. Bunda «Pedagogik texnologiya» va «Ta'lim texnologiyasi» atamalari faqat texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llanilgan edi. Vaqt o'tishi bilan ularni qo'llash darajasi kengayib borishi natijasida mazmuni ham tegishlicha o'zgarib bordi. Hozirga kelib esa, pedagogik texnologiya tushunchasini zamonaviy, ilmiy asoslangan, yagona ta'rifini belgilash maqsadida bir qancha yirik olimlar tomonidan fikr va mulohazalar asoslab berildi. O'tgan asrning 50-yillari o'rtasidan 60-yillarigacha «Ta'lim texnologiyasi» atamasi qo'llanilib, bunda dasturlashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan. 70-yillarda «Pedagogik texnologiya» atamasi qo'llanilib, avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini ifodalagan. 1979-yil AQShning pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar Assotsiatsiyasi tomonidan «Pedagogik texnologiya bilimlarni o'zlashtirishning hamma jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, muammoning yechimini baholash va uni boshqaruvchilar, g'oyalar, vositalar va faoliyatni tashkil qilish usullarini o'z tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayondan iborat...» deb ta'rif berilgan edi¹. B.Blum, D.Kratvoli, N.Gronlund, J.Kerrol, J.Blok, L.Anderson va boshqalarning tadqiqotlari orqali rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatlovchi qayta takrorlanadigan pedagog siklli pedagogik texnologiya ishlab chiqdilar. XX asrning ikkinchi yarmida, ilmiy texnik taraqqiyotning talablari asosida paydo bo'lgan pedagogik texnologiya, uning jadallashuvi uchun xizmat qilmoqda. 80-yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan. Ta'lim texnologiyalari muammolari, pedagogik innovatsiyalarning ulkan tajribasi mualliflik maktablari, ilg'or o'qituvchilar faoliyati doimo umumlashtirish va tizimlashni talab etadi. Asos tizim hosil qiluvchi karkas sifatida pedagogika uchun yangi tushuncha «texnologiya» va pedagogik jarayonlar tahlili va loyihalashga yangi «texnologik yondashuv»ni qo'llash maqsadga muvofiq. Pedagogika lug'atida pedagogik texnologiya tushunchasi

¹ Albert R. S., Runco M.A. A History of Research on Creativity. – Cambridge: Cambridge University press, 1999. Pp. 17-18.

mustahkam o‘rin egalladi. Biroq, uni tushunish va qo‘llashda turli farqlar mavjud¹:

Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonini realizatsiyalashning mazmuniy texnikasi (V.P.Bespalko).

Pedagogik texnologiya – ta‘limning rejalashtirilayotgan natijalariga erishish jarayoni tavsifi (V.P.Volkov).

Pedagogik texnologiya – shubhasiz o‘quvchi va o‘qituvchi uchun qulay sharoit ta‘minlangan, o‘quv jarayonini loyihalash, tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha birgalikdagi pedagogik faoliyatning barcha detallari hisobga olingan modeli (V.M.Moxanov).

Pedagogik texnologiya – texnika va inson resurslarini hisobga olgan, o‘z oldiga ta‘lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo‘yadigan o‘qitish va bilim o‘zlashtirishning butun jarayonini qo‘llash va belgilash, yaratishning sistemali metodi (YUNESKO).

Turli mualliflar va manbalardagi barcha ta‘riflarni o‘z ichiga olgan mazmuniy umumlashmada «Pedagogik texnologiya» tushunchasi uch sifatda namoyon bo‘ladi: Ilmiy: Pedagogik texnologiya – pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, ta‘lim maqsadlari, mazmuni va metodlarini o‘rganadi va pedagogik jarayonni loyihalaydi. Jarayonual – tasviriy: jarayoni tavsifi, maqsad, mazmun, metod va vositalarning ta‘lim va rejalashtirilgan maqsadlarga erishishdagi birligi. Jarayonual – tasviriy: texnologik (pedagogik) jarayonni amalga oshirish, barcha shaxsiy, instrumental va metodologik pedagogik vositalar amalda bo‘lishi. Shunday qilib, pedagogik texnologiya ta‘limning yanada ratsional yo‘llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham, ta‘limda qo‘llaniladigan usullar, tamoyillar va regulyativlar sistemasi sifatida ham, ta‘limning real jarayoni sifatida ham amal qiladi. Pedagogik texnologiya tushunchasi ta‘lim amaliyotida uchta ierarxik o‘zaro bo‘ysungan darajada qo‘llaniladi²:

1. Umumpedagogik (umumdidaktik) daraja: mazkur mintaqa o‘quv yurti, ta‘lim bosqichidagi ta‘limning yaxlit jarayonini xarakterlaydi. Bunda pedagogik texnologiya pedagogik sistemaga sinonim: u ta‘limda maqsadlari, mazmuni, vosita va metodlari yig‘indisidan iborat, jarayon subyekti va obyektlari faoliyati algoritmini o‘z ichiga oladi;

¹ Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М: Наука, 1999. – 192с.

² Albert R. S., Runco M.A. A History of Research on Creativity. – Cambridge: Cambridge University press, 1999. Pp. 30-31.

2. Xususiy metodik (predmet) daraja: xususiy predmet pedagogik texnologiyasi «xususiy metodika» ma'nosida qo'llaniladi, ya'ni bir predmet, sinf, o'qituvchining ta'lim va tarbiyasi ma'lum bir mazmunini realizatsiyasini metodlari va vositalari yig'indisi;

3. Lokal (modul) daraja: lokal texnologiya o'quv tarbiya jarayonining alohida qismlari texnologiyasi, xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalar yechimi (tushunchalarni shakllantirish texnologiyasi, yangi bilimlarni o'zlashtirish, materialni takrorlash va nazorat, mustaqil ish texnologiyasi.).

Mantiqiy texnologik zanjir hosil qilib, ular yaxlit pedagogik jarayon pedagogik texnologiyani tashkil qiladi. Pedagogik texnologiyaning ko'p ta'riflari mavjudligi, bu atamaning standartlashtirilmaganligini inobatga olib, unga nufuzli tashkilot YUNESKO tomonidan berilgan ta'rifiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Pedagogik texnologiya bu – texnikaviy va insoniy manbalarni va ularning o'zaro bog'liqligini inobatga olib, o'z oldiga ta'lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo'yadigan, butun o'qitish va bilim olish jarayonini, yaratish, qo'llash va aniqlash bo'yicha tizimli bilim olish jarayonini yaratish, qo'llash va qarashdir. Keltirilgan bu ta'rifdan, pedagogik texnologiyaning tizimlilik va samaradorlik kabi majburiy belgilarini alohida ta'kidlash mumkin. Bunga pedagogik texnologiyaning majburiy tashkil etuvchi belgilarining yana biri qayta takrorlanishni qo'shish lozim bo'ladi. Yuqoridagilarni e'tiborga olib, pedagogik texnologiyani - maqbullashtirilgan, unifikatsiyalashtirilgan va qayta takrorlanadigan o'quv jarayonini yaratish va qo'llash deb, xarakterlash mumkin. Pedagogik texnologiyaning maqsadi – ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash va o'quvchilar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir. Pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi – ommaviy ta'lim sharoitida «oddiy» pedagoglarga o'qitishning yetarli samarasiga erishishni ta'minlovchi, o'quv jarayonini yaratish hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning predmeti – o'quv jarayonining o'zi hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning obyekti – o'quv jarayonining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Pedagogik texnologiya, ta'lim tizimidagi mustaqil fan sifatida o'quv jarayonning barcha elementlarini – o'quv grafisini va o'quv rejasini tuzish, o'qitish va uning natijalarini baholashni o'z ichiga oladi. Pedagogik

texnologiyaning ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini, tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. Pedagogik texnologiya shaxsning, jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi. Maxsus ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalar qo'llash mumkin bo'ladi.

Rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonida korreksion-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga oid bilimlarni egallashga, maxsus ta'lim jarayonida ijodiy izlanuvchanlik bilan yondoshish, mulohazalar zanjirini mantiqiy qura olish, qiziqarli materialni tanlash, o'rganilayotgan obyektlarning xossalarini isbotlash bo'yicha malakalar va ko'nikmalarni shakllantirishga, o'z bilim va malakalarini mustaqil to'ldirib borish ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash ijobiy samara beradi.¹ Maxsus ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalar tahlili pedagogik texnologiya funksiyasiga aniqlik kiritish va uning konseptual modelini qurishga oid yondashuv variantini asoslash imkonini berdi. Maxsus ta'limda ta'lim maqsadini amalga oshirishda turli ta'lim metodlarini tanlashda eng asosiy omil sifatida o'quv mashg'ulotlarining didaktik vazifasi inobatga olinadi. Maxsus ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim metodlarini tanlashning mezonini dars jarayonidagi tahsil oluvchilar sonini hisobga olishdir. Agar ularning soni ko'pchilikni tashkil etmasa, u holda faol o'qitish metodlaridan foydalanib, o'qitishni jadal sur'atlarda olib borish mumkin bo'ladi. Agarda ko'p bo'lsa, ularning har biriga e'tibor berish uchun vaqt yetishmasligi natijasida tahsil oluvchilarni boshqarish murakkablashadi. Bunda o'quv materialini bayon qilishda ko'proq og'zaki usullardan ma'ruza, hikoya tushuntirishlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Maxsus ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida o'quvchilarni o'quv imkoniyatlari – bunda tahsil oluvchilarning yoshi, darslarga tayyorgarlik darajasi, jamoadagi o'zaro munosabatlar, o'z – o'zini boshqarish qobiliyatlarini e'tiborga olish lozim. Maxsus ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashga binoan ta'lim metodlarini tanlashda yuqorida keltirilgan mezonlarga asoslangan holda o'quv

¹ M. Marschark, Harry G.Lang, John Albertini - Educating deaf students - Oxford University Press, 2006, 83 p

jarayonlarini to'liq loyihalashtirish orqali tashkil etiladi va berilgan o'quv materiallari mazmuni tahsil ular ongiga tez – oson singdirilishiga hamda ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga erishiladi¹. Maxsus ta'limda “Karusel” metodi mavzu yuzasidan ma'lumotlarni umumlashtirish va mukammal o'zlashtirishda samarali usul sanaladi. Ushbu usulni qo'llash quyidagicha amalga oshirilishi mumkin: Har bir guruhga asosiy savollar bo'lib beriladi. Har bir guruhga qog'oz beriladi va guruh a'zolari 4-5 daqiqa mobaynida o'zaro fikrlashib, javobni qog'ozga yozadilar. Belgilangan vaqt o'tgach, o'qituvchining ishorasi bilan mikroguruhlar raqamiga qarab javoblar yozilgan qog'ozni keyingi guruhga uzatadilar. Har bir guruh har bir savolga o'zidan oldingi guruh yozganiga qo'shimcha javob yozib chiqadilar. Har bir guruh o'zining yozgan javobini izohlab beradi. Har bir guruhning savollarga yozgan javobi boshqa guruhlarning qo'shimcha izohlari berilgan holatda o'ziga qaytib keladi, go'yo savol yozilgan, qog'oz guruhlar orasida aylanib, to'ldirilgan shaklga keladi. O'qituvchi yozilgan javoblarga qarab mikroguruh a'zolarini baholaydi. Ushbu metodning afzalligi shundan iboratki, bunda guruh a'zolari mavzuni savollarga bo'lib, to'liq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Har bir guruhning fikrlari muhokama qilinishi natijasida guruh a'zolari o'z yutuq va kamchiliklarini aniqlab oladi. Eng muhimi o'quvchilar mustaqil fikrlashga, faollikka yo'naltiriladi va ularda bir-birini baholay olish ko'nikmasi shakllanadi. Shu yerda muammoli va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalarining hamohang tarzdagi uyg'unligi ko'rinadi. Maxsus ta'limda samarali kommunikatsiya va faoliyatda mustaqillik bilan ta'minlash maqsadida bugungi kunda keys-texnologiya, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi, muammoviy-modul texnologiyasi, loyihaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanilinish ijobiy samara beradi. Keys-texnologiya barcha faol ta'lim metodlarini o'z ichiga oladi. Keysni hal qilishda o'quvchi nafaqat egallangan bilimlarni qo'llash, balki o'zining shaxsiy sifatlarini ham namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi². Amaliy mashg'ulotlarda har bir o'quvchi ishini maksimal

¹ Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari –T.: O'qituvchi, 2004. -104-bet

² Ziyomuhamedov B. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –T.: Ibn Sino. 2001. -59-b.

darajada faollashtirish va uni keys ustida ishlash jarayoniga jalb qilish maqsadida o'quv guruhlari 4-6 kishidan iborat ishchi kichik guruhlariga bo'linadi. Kichik guruhlarini shakllantirish va rollarni taqsimlash o'quvchilarning o'zlariga topshiriladi. Kichik guruhlarda ishlash barcha qatnashchilarning ijodiy qobiliyatini samarali namoyon etishga, musobaqachilik ruhini rivojlantirishga, shaxslararo va guruhiy kommunikatsiya malakalari va ko'nikmalarini ishlab chiqishga yordam beradi. O'quv mashg'ulotlarining turli bosqichlarida har bir o'quvchi mustaqil ijodiy faoliyat tajribasini to'plab olishi uchun individual, guruhiy va jamoaviy ish shakllari qo'llanadi. Keys ustida ishlash jarayonida shuningdek guruhda muhokama qilish (shu jumladan, guruhda ishlash, kubik va sinkveyn, aqliy hujum) metodi ham qo'llanadi. Imkon darajada yuqori samaraga ega bo'lish maqsadida, avvaldan ishlab chiqilgan keysdan tashqari, tegishli axborot va metodik hamkorlikdan foydalaniladi. O'quvchilarning ijodiy potensialini rivojlantirishda qo'llanadigan "Keys" nomli to'liq ish kompleksi tayyorlanadi. Keys ustida ishlashdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon modelini eksperimental va nazorat guruhlarida joriy etish natijalarini qiyoslashdan iborat bo'ladi.

"Qarorlar shajarasi" ("qarorlar qabul qilish texnologiyasi") metodi mavzusini o'zlashtirish, mavzuni puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan. "Qarorlar shajarasi" metodi avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror va xulosalar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o'quvchi yoki bir necha o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlari mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. "Qarorlar shajarasi" metodi quyidagi tartibda o'tkaziladi¹:

¹ Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. - T.: TDPU, 2004. -89 b.

- o'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi;

- o'qituvchi o'quvchilarni 4 yoki 6 nafardan iborat guruhlariga ajratadi va muammoni hal etib, bu borada eng maqbul qaror qabul qilish uchun muayyan vaqt belgilaydi;

- qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarining har bir a'zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va afzal bo'lmagan jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a'zolari bir to'xtamga kelib oladilar;

- munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o'qituvchi rahbarligida barcha o'quvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar. Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tug'ilgudek bo'lsa, ularga javoblar qaytarilib boriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi.

"Qarorlar shajarasi" metodining o'ziga xos jihati shundan iboratki, bu metod bevosita ma'lum loyiha asosida qo'llaniladi. Mazkur loyiha quyidagi ko'rinishga ega:

1- jadval

"QARORLAR SHAJARASI" metodi					
UMUMIY MUAMMO					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
QAROR:					

"Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash" metodi mavzuni mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foydalanish mumkin. Metodni qo'llash jarayonida quyidagi amallar bajariladi:

- o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmuyini tayyorlaydi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi "yadro" tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);

- har bir guruhga maxsus kartochkalarining alohida majmuasi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan, mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;

- guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo'lingach, kartochkalarining orqa tomoni o'giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi.

"Zakovatli zukko" metodi mavzu bo'yicha bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchi-o'quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.¹ "Zakovatli zukko" metodi o'qituvchi-o'quvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z xohishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'qituvchi-o'quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o'qituvchi-o'quvchilarning tafakkur tezligi aniqlanadi. "Zakovatli zukko" metodi o'quvchi-o'quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.

"Qarama-qarshi munosabat" metodi mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma'lumotlar sifatida guruhlariga ajratish imkonini beradi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- mavzuning umumiy mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi;

- ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi;

- tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo'lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi;

¹ Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. - Т.: Молия, 2002. - 99 б.

- jadval yaratilib, uning 1-ustuniga muhim bo'lgan, 2-ustuniga muhim bo'lmagan tushunchalar yoziladi;

- kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi;

- jamoaning umumiy fikriga ko'ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi.

O'quvchi-o'quvchilar faoliyatning samaradorligini ta'minlash uchun ularning e'tiborlariga quyidagi jadvallarni taqdim etish maqsadga muvofiqdir:

Yakka tartibda ishlash jarayonida foydalanish uchun

2- jadval

t/r	Muhim tushunchalar	№	Muhim bo'lmagan tushunchalar
1.		1.	
2.		2.	
3.		3.	
4.		4.	
5.		5.	

“Insert” metodi mavzu bo'yicha o'quvchi-o'quvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu metod o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan yangi mavzu bo'yicha o'quvchi-o'quvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi¹. Metodni qo'llashda o'quvchi-o'quvchilar o'z faoliyatlarini quyidagi sxemalar bo'yicha tashkil etadilar. Guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matn qiyosiy taqqoslanadi.

3- jadval

Maxsus belgilar	Maxsus belgilarning ma'nosi
Z	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topgan bo'lsa
S	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topmagan bo'lsa
?	Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug'olsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa)

¹ Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари /Урта махсус, касб-хунара таълими муассасалари ўқитувчиларининг малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш факультети тингловчилари, академик лицей ва касб-хунара коллежлари ўқитувчилари учун услубий тавсиялар. – Т.: ТДПУ, 2004. -101.6.

Metod o'quvchi-o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, shaxsiy xatolar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Demak, "Insert" texnologiyasi o'quv materiallarini o'zlashtirish va mustahkamlash, o'quvchi-o'quvchilarning kitob bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, berilgan vazifalarini mustaqil bajarishda qo'l keladi. Ushbu texnologiya qo'llanilganda o'quvchi-o'quvchilar matnlardan mustaqil foydalanish, olingan axborotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish, ularni qisqa va aniq bayon qilish hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'ladi. O'qitishning ushbu texnologiyasida o'qituvchi yangi mavzuni bayon etmaydi, balki uning nomini e'lon qiladi. Mavzu e'lon qilingach, o'quvchi-o'quvchilar berilgan matnni mustaqil o'qib, o'rganadi. Shundan keyin keltirilgan maxsus jadvalning "bilaman" (+), "bilmayman" (-), "fikrimga qarshi" (x), "bilishni xohlayman" (b), "tushunmadim" (?) deb nomlangan ustunlarini belgilar bilan to'ldiradi. So'ng o'qituvchi o'quvchi-o'quvchilar bilan birgalikda to'ldirilgan jadvallarni muhokama qiladi. Metodning afzalligi shundaki, o'quvchi-o'quvchi matnlardan mustaqil foydalana oladi, olingan axborotlarni mustaqil tahlil qila oladi, axborotlarni tizimlashtirib, ularni qisqa va aniq bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi, kichik guruhlarda ishlash jarayonida har bir guruh a'zosining guruh bilan ishlash hamjihatligini mustahkamlaydi. Metodni qo'llash uchun ko'p vaqt kerak va har bir ishtirokchi uchun alohida tarqatma material talab etiladi.

Videotahlil ham zamonaviy ta'limda so'nggi yillarda tobora ommalashib borayotgan metodlardan biri bo'lib, u mavzu bo'yicha o'quv materialining o'quvchilar tomonidan obrazli o'rganilishiga yordam beradi. Muayyan nazariy yoki amaliy ma'lumotlar video tasvir yordamida o'quvchilarga yetkazilib beriladi. Ta'lim amaliyotida videotahlil sifatida o'quv ko'rsatuvlari, slaydlar, diafilmlardan samarali foydalanish tajribasi mavjud. Mazkur metoddan foydalanish uchun ma'lum texnik vositalar, chunonchi, videokamera hamda tasvirni ekranga uzatish qurilmalarining mavjud bo'lishi talab etiladi, shuningdek, mashg'ulot tashkil etilayotgan xona ma'lum darajada jihozlanishi (masalan, xonada yorug'likni kamaytirish imkonini beruvchi moslamalar bo'lishi) lozim. Video tasvir yordamida o'quvchilarga o'quv materialini yetkazib berishda o'qituvchining kasbiy tayyorgarlikka, ijodkorlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik kabi qobiliyatlarga ega bo'lishigina emas, shu bilan birga texnik vositalar

bilan ishlay olish ko'nikmalariga egaligi ham muhim ahamiyat kasb etadi¹. Videotahlil ham boshqa interfaol metodlar kabi o'quvchilar o'rtasida bahs-munozarani yuzaga keltirish, ularda o'rganilayotgan yoki tasvirda namoyish etilayotgan muammo bo'yicha shaxsiy qarashlarni hosil qilish imkonini beradi. Tasvir namoyish etilgach, o'quvchilar u yuzasidan bahsga kirishib, ma'lum muammoning yechimini topishga harakat qilishlari lozim. Ushbu jarayonda asosiy o'rinlarga e'tibor qaratish, namoyish etilgan materialning eng asosiylarini ajratib olish, ular asosida qarorlar qabul qilish va umumiy xulosalarga kelish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida videotahlil sinf o'quvchilari tomonidan ommaviy, guruhli yoki juftlik asosida olib borilishi mumkin. Harakat shaklining tanlanishi tasvirda aks etgan materialning murakkabligi, o'quvchilar uchun qay darajada tanish yoki notanish bo'lishiga bog'liq. O'qituvchi videotahlilning texnik hamda tashkiliy-texnologik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini nazorat qilib boradi, zarur o'rinlarda o'quvchilarga maslahat yoki ko'rsatmalar berib borishi mumkin. Maxsus ta'lim jarayonida ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi umumiy shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta'lim metodlarining yetakchi va umumiy ta'lim tamoyillariga muvofiq kelishiga erishish;

2. O'zlashtirilayotgan mavzu xususiyatini inobatga olish;

3. Ta'lim maqsadiga erishish va pedagogik vazifalarning ijobiy yechimini ta'minlashga xizmat qila olishiga ishonch hosil qilish;

4. O'quvchilarning o'quv imkoniyatlarini e'tiborda tutish;

5. Pedagogik jarayon davomida turli xil tashqi omillarning ta'siri va kutilmagan holatlar, vaziyatlardan chiqib keta olishga tayyor bo'lish.

Ta'lim jarayonida yuqorida tavsifi keltirilgan interfaol metodlardan ma'ruzalarda va amaliy mashg'ulotlarda foydalanilish ijobiy samara beradi. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish o'quvchi - o'quvchilarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Demak, ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni

¹ Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. - Т: Фан, 2002. - 98 с.

amalgam oshirilishi har bir o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlarining sifati bilan bir qatorda tahsil oluvchilarning ilmiy – intellektual salohiyatini oshirishga, erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi.

Maxsus ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar samarasi. Pedagogik texnologiya o'qitishga o'ziga xos bo'lgan yangicha yondashuv (innovatsiya)dan iborat bo'lib, o'yin usullarini ta'lim tizimi, dars jarayonida tatbiq etilishi muhim va samarali natija beradi. Yangi pedagogik texnologiyalarni maxsus maktab ta'lim tizimiga kiritish, tatbiq etish, qiziqarli usullardan foydalanish, o'zining samarasini bermoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hozirgi kunda maxsus maktab uchun o'quv jarayonining zaruriy va asosiy komponentiga aylanib bermoqda. Chunki pedagogik texnologiya o'qitishga o'ziga xos yangicha yondashuvdan iborat bo'lib, o'yin yangicha, ilg'or, shu bilan birga samarador usullarini ta'lim tizimiga dars jarayonida tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar og'zaki nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishdan ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish zarurati interaktiv usullarning samaradorligini, kerakli bilim va ko'nikmalar egallashda ahamiyatli ekanini dalillamoqda¹.

Ta'limni motivlash o'quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. U tafakkur faollashishiga, tanqidiy mushohada qilishga, nutqning rivojlanishiga, u yoki bu vazifani bajarishga qiziqish uyg'otadi. Rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini faollashtirish, ularning yangi materialni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda maqsadga erishishni ta'minlovchi ta'lim usullari kuchli motivlashtiruvchi omildir.

Hozirgi vaqtda rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning nutqini o'zaro muloqotlar orqali rivojlantirishda shaxsiy munosabatlarni hisobga olgan holda o'qituvchi va o'quvchilar guruhi (o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi) faoliyat ko'rsatishlari zarurligi ma'lum. Chunki guruhdagi faoliyatlar o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zaro muloqot rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarda fikr almashish va so'zlashuv malakasini shakllantirishga imkon yaratadi.

¹ M. Marschark, Harry G.Lang, John Albertini - Educating deaf students - Oxford University Press, 2006, 83p

Rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar shaxsiy sifatлари shakllanishida, nutqiy rivojlanishni va nutqiy muloqotni amalga oshirishda interfaol o'yinlarning ahamiyati katta. Ma'lumki, rolli o'yinlar obyektiv olamdagi inson amaliy faoliyatini shartli ravishda aks ettirishda, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rollarga asoslangan o'yinlar rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar nutqini faollashtiradi va motivlashtiradi. O'yin o'quvchilarning tabiiy va sevimli faoliyatidir. Shuning uchun ta'lim-tarbiya berish, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishda mashg'ulotlarni yosh xususiyatlariga muvofiq o'yin tariqasida uyushtirishga e'tibor berilmoqda. Haqiqatan ham, bola har qanday mashg'ulotga qaraganda, o'yinga tez intiladi va qiziqadi.

Rollarga asoslangan o'yin ta'lim usuli sifatida o'quvchilarni uyushtiradi va bilim imkoniyatlarini kengaytirib, shaxs sifatida shakllantiradi. Rolli o'yinlar bolaning erkin fikrlashi, suhbatdoshiga nimanidir aytishi, so'rashi, isbot qilishi, tushuntirishiga imkoniyat yaratadi. Dialogdan farqli ravishda, rolli o'yinlar nimaga (motiv) va nima uchun (maqsad, sabab) kabi savollarga javob beradi. Shunday qilib, o'yinda qatnashayotgan o'quvchilarning asosiy diqqatini suhbat mazmuniga qaratadi. O'quvchilar o'yin jarayonida suhbatni boshlash, suhbatdoshi nutqini labidan, imo-ishoralaridan o'qish, savollar berish, savollarga javob berish kabi malakalarni egallaydilar.

O'quvchilar o'yinni aniq maqsadga yo'naltirgan holda amalga oshirsa, kutilgan natijaga erishishi mumkin.

Rolli o'yin o'quvchilar guruhi tomonidan qiziqib qabul qilingan, ularga tanish bo'lishi kerak. Oldindan har bir obrazni izohlab berish lozim. O'quvchi o'yin jarayonida ikkilamchi darajali rollarda ishtirok etishi mumkin, lekin bosh rolda emas. Chunki bu holda rolli -o'yin ta'limning an'anaviy usullaridan biriga aylanib qoladi. Muloqotda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'yin jarayonida emas, balki undan keyin muhokama qilish maqsadga muvofiqdir. Bolalar nutqini rivojlantirish davomida mustaqil fikrlashga, izlanuvchanlikka va umumlashtirishga undovchi usullarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni yangi material bilan tanishtirishda, oldin o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashda, ularning so'z boyligini oshirish va tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'quvchilarga individual yondoshib, mos topshiriq berish

ularning qobiliyatini o'stirishni ta'minlaydi. O'quvchilar diqqatini topshiriqning eng muhim va murakkabroq jihatlariga qaratish, ularni belgilariga qiziqishlarini oshirish joiz. Bu ulardagi ijodkorlik xususiyatlarini rivojlantiradi. Ta'kidlash joizki, soddalik, bir xillik, xohishsiz takrorlashlar bolalarni toliqtirib, befarq qilib qo'yadi. O'yin davomida «Kim tez bajaradi?» - deb faolliklarini oshirish ularda qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, topshiriqlarni bajarishda bolalar g'olib chiqish, boshqalardan orqada qolmaslik, ularni bajarishga qodir ekanini ko'rsatish hissi bilan harakat qiladilar.

Quyida shu maqsadga yo'naltirilgan bir necha usullarni keltirib o'tamiz.

Rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirish, o'zaro bog'liq gaplardan matn tuzish malakasini hosil qilish, erkin fikr yuritish, munosabatini bermalol bayon qilishga o'rgatish uchun R.Djonson, D.Djonson usuli uch-to'rt o'quvchining bir vazifani bajarishga asoslangan usul-nihoyatda samaralidir.

Masalan, sinfdagi bir o'quvchi qura tanlash yo'li bilan tanlanadi. Sinf o'quvchilari muayyan qoidaga ko'ra (soniga ko'ra, ixtiyoriga ko'ra) ikkiga bo'linadi, har bir o'quvchi bir bo'lak qog'ozga ta'rifga asoslangan bir jumla yozadi. Bir guruh o'quvchilari ijobiy baho, ikkinchi guruh o'quvchilari salbiy baho berishadi. Masalan: Nafisa a'lochi o'quvchi. Nodira jahldor o'quvchi va shu kabi. Har bir guruhdan bir o'quvchi oqlovchi, qoralovchi vazifasida chiqadi. Har ikki guruh o'quvchilari raqib guruhga xos fikrining aksini isbotlashga urinadilar.

O'qituvchi o'quvchilarga topshiriq mohiyatini tushuntirishda og'zaki-daktil va imo-ishora nutqidan foydalanadi. Agar rivojlanishida muammosi bo'lgan o'quvchi topshiriqni og'zaki nutq vositasida bayon etishga qiynalsa, imo-ishora yoki daktil nutqi vositasida bayon etadi, so'ng o'qituvchi o'quvchini vazifani og'zaki nutq vositasida bajarishga undaydi.

Rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda Sinkveyn metodini qo'llash samarali natija beradi. Buning uchun quyidagi sxema beriladi va uni to'ldirish so'raladi:

_____ Mavzu (ot);
_____ Belgi(sifat);
_____ Harakat(fe'l);
_____ Mavzuga oid jumla.

Sxema quyidagi tartibda to'ldirilishi shart:

- muayyan mavzu o'qituvchi tomonidan beriladi yoki o'quvchilar tomonidan tanlanadi;

- mazkur mavzuni xarakterlovchi ikki sifat so'z turkumiga oid so'z tanlash taklif etiladi;

- mavzu mohiyatini ifodalovchi uchta fe'l topiladi;

- mavzuga taa'luqli gap tuziladi.

Namuna:

O'qituvchi

aqlli, mehribon,

o'qitmoq, o'rgatmoq, tarbiyalamoq

O'qituvchilaringizni hurmat qiling.

Ushbu usul maxsus maktab o'quvchilarini mustaqil ijodiy ishlashga, o'z fikrlarini erkin bayon qilishga undaydi hamda og'zaki, yozma nutqini rivojlantiradi.

Rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini rivojlantirishi jarayonida quyidagi usul ijobiy natija beradi: «1» dan «10» gacha raqam yozilgan qog'oz bo'laklari o'qituvchi stoliga qo'yiladi yoki qo'lida bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilariga «omadini sinab ko'rishini taklif etadi. Qaysi o'quvchiga necha raqami chiqsa, shunga sodda gap tuzish kerak. Muhimi, ikki va undan katta raqam chiqqan bo'lsa, mazmunan o'zaro bog'liq matn tuzish kerak. Mavzu erkin. O'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar ko'chirgan ma'no xususiyatlari ham aniqlanishi zarur.

Rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar yozma bog'langan nutqini rivojlantirish, o'quvchilarni qiziqtirish va e'tiborini bir nuqtaga jalb etish uchun quyidagi topshiriq beriladi. O'quvchi yonida o'tirgan sherigiga o'z tilaklarini bildirishi kerak. Bu topshiriq shaklini biroz o'zgartirish mumkin. Ota-onasiga, boshqa mamlakatda yashovchi do'stiga maktub yozish topshiriladi. Bunda, albatta xat matnida qo'llangan gaplarning mazmuniy xususiyatlari aniqlanishi lozim bo'ladi.

Rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar og'zaki nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishda klaster metodi unumli ekanligini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Klaster metodi umuman bir tushunchaga oid turli tushunchalarni birlashtirib tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Masalan, o'quvchilarga muayyan tushunchani berib, uning sifatlovchilarini aniqlash topshirilishi mumkin. «O'zbekiston

qanday davlat?» soʻrogʻi «mustaqil», «boy», «huquqiy», «buyuk», «ilgʻor», «yetakchi», «demokratik), «obod» kabi sifatlarni birlashtiradi. Bu soʻzlar, shuningdek, tuzilishiga koʻra ham guruhlashtirilishi mumkin. Yoki oʻquvchilarga tanish boʻlgan asar, teatr, kino, multfilm qahramonlarini sifatlash topshiriladi. Masalan: «Zumrad va Qimmat» ertagi qahramoni Zumradga shunday taʼriflar berish mumkin; «jabridiyda», «bardoshli», «chidamli», «kuchli», «ishonuvchan», «mehribon», «goʻzal», «gʻamxoʻr». Bu taʼriflarning nechogʻli asosli yoki asossiz ekanligi dars jarayonida bahs munozara vositasida aniqlanadi.

Biror soʻzning har bir tovushi uchun alohida soʻz topish taklif qilinadi. Masalan, «odob», «oy», «doʻst», «oyna», «bosh» kabi.

Oʻqituvchining topshirigʻi boʻyicha bir oʻquvchi yigʻma polotnoga boshqa bolalar esa stolning chap tomoniga olma rasmini, oʻng tomoniga pomidor yoki meva-sabzavotlarining rasmini qoʻyadilar. Ular shu narsalarga daxldor sifatlarni daktil harflar yordamida ogʻzaki talaffuz qiladilar. Masalan, «olma» - «shirin», «nordon», «choʻzinchoq», «qizil», «sariq», «dumaloq». Pomidor - «nordon», «qizil», «dumaloq», «choʻzinchoq».

Soʻngra meva-sabzavotlarning belgi-xususiyatlarini solishtirib oʻxshash va farqli jihatlarini topadilar.

Oʻqituvchi: «Tun» - deganda, oʻquvchilar koʻzlarini yumadilar.

«Kun» - deganda, koʻzlarni ochib, javob beradilar. Maʼlum bir narsaning belgisini, xossasini aniqlash vazifasini beradi. Masalan, «Xushboʻy gul», «oq gul», «chiroyli gul», «qizil gul», «sunʼiy gul» va hokazo.

Oʻqituvchi polotno yoniga uchta hayvon tasviri tushirilgan rasmlarni (masalan, quyon, tulki, boʻri) qoʻyadi. Rasmlar yoniga maʼlum raqamlarni joylashtiradi (quyonning yoniga «4» tulkinging yoniga «5» boʻrining yoniga «6» raqami) qoʻyiladi. Shu raqamlarda koʻrsatilgan songa muvofiq hayvonning xususiyatini sanab berish kerak. Masalan, quyon - oppoq, epchil, chaqqon, qoʻrqqoq.

Oʻqituvchi ikkita-uchta rasmlarni (olma, daraxt, qiz) tomondan koʻrsatib, shulardan birini tanlashni tavsiya etadi. Oʻquvchilar rasmlardan birini tanlashgach, oʻqituvchi ular haqida qisqacha maʼlumot beradi. Bolalar narsaning belgisiga koʻra savol berishadi va uning nima ekanligini topadilar. Masalan, «Kattmi», «Shirinmi?», «Dumaloqmi?», «Qizilmi?», «Yeyiladimi?» «Kiyiladimi?» va

hokazo. O'quvchi bu savollarga faqat «Ha» yoki «Yo'q» deb javob beradi.

O'qituvchi bu ko'rinishdagi o'yin jarayonini tashkil etishda o'z faoliyatini rejaga va qo'yilgan maqsadga muvofiq olib borishi kerak. U mashg'ulotga tayyorlanishi, jarayonida oldindan zarur didaktik materiallarni tayyorlashi, o'yinni uyushtirishni nazorat qilishi, yakunlash, baholash va rag'batlantirish kabi barcha tadbirlarni belgilab olishi lozim. Shuningdek, bolalar shaxsiy sifatleri shakllanishida nutqiy rivojlanishni va nutqiy muloqotni amalga oshirishda perdmet – amaliy ta'lim darslarida interfaol o'yinlarning ahamiyati katta. Ma'lumki, rolli o'yinlar obyektiv olamdagi inson amaliy faoliyatini shartli ravishda aks ettirishda, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rollarga asoslangan o'yinlar bolalar nutqini faollashtiradi va motivlashtiradi. O'yin o'quvchilarning tabiiy va sevimli faoliyatidir. Shuning uchun ta'lim-tarbiya berish, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishda mashg'ulotlarni yosh xususiyatlariga muvofiq o'yin tariqasida uyushtirishga e'tibor berilmoqda. Haqiqatan ham, bola har qanday mashg'ulotga qaraganda o'yinga tez intiladi va qiziqadi. Rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishning yangi usullaridan amaliyotda unumli foydalanilsa, so'zlashuv malakasi va madaniyatini shakllantirishda aniq maqsadga erishish mumkin. Rolliy o'yinlar bolaning erkin fikrlashi, suhbatdoshiga nimanidir aytishi, so'rashi, isbot qilishi, tushuntrishga imkoniyat yaratadi. Dialogdan farqli ravishda, rolli o'yinlar nimaga (motiv) va nima uchun (maqsad, sabab) kabi savollarga javob beradi. Shunday qilib, o'yinda qatnashayotgan o'quvchilarning asosiy diqqatini suhbat mazmuniga qaradi.

Taklif etilayotgan interfaol dars ishlanmalari aynan mana shu maqsadlarga yo'naltirilgan, ya'ni har bir yo'nalishdagi maxsus maktab, maktab-internatlar o'quvchilarining imkoniyatiga moslashtirilgan bo'lib, ularning faolligini oshirish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, hamkorlikda ishlash va ijod qilishga o'rgatish, yetakchilik qilish, mustaqil fikr bildirish, muloqot o'rnatish, hamkorlikda ishlash hamda qator hayotiy ko'nikmalarning shakllanishiga qaratilgan.

Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish o'quvchilarning fikrlashini kengaytiradi hamda

muammoning to'g'ri yechimini topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Demak, ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni amalga oshirilishi har bir o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlarining sifati bilan bir qatorda tahsil oluvchilarning ilmiy – intellektual salohiyatini oshirishga, erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi. Ta'lim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohatlarni amalga oshirish ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan belgilanadi. Zero, hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonining asosiy komponentiga aylanib bormoqda. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish mashg'ulotlarni rag'batlantirish, qiziqarli tashkil etish bilan birga o'quvchilarni fikrlashi doirasini, tafakkurini kengaytiradi, o'quv materialini chuqur o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Maxsus ta'lim jarayonida interfaol darsni tashkil etish. Interfaol dars va uni tashkil etish jarayonida quyidagi qoidalarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

- auditoriyaning doska osilgan tomonida o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish uchun maxsus ekran yoki oppoq devorda yetarli darajada bo'sh joy bo'lishi kerak;

- o'qituvchi stoliga oldi bilan tirab bir parta qo'yiladi. Bundan ekspertlar, sardorlar, konsultatsiya olishga, uy vazifasini topshirishga kelgan o'quvchilar bilan suhbatlashishda foydalaniladi;

- xonadagi boshqa har ikki parta bir-biriga oldi bilan tirab qo'yiladi. Oqibatda to'rt o'quvchi bir-birlariga yuzma-yuz o'tirishadigan, doskaga yon tomonlaridan qaraydigan bo'lishadilar. Partalari yonma-yon turgan ikki kichik guruh birlashtirilib kichik guruhlar hosil qilish mumkin. Bunda o'qituvchi mehnati ikki marta qisqarib, o'quvchilarning hamkorlikda ishlashlari yanada kuchayadi. Natijada butun o'quv yili davomida doimiy ravishda hamkorlikda ishlaydigan kichik guruhlar shakllanadi;

- har bir kichik guruhda kamida bitta yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchi (sardor, ekspert) bo'lishi kerak;

- sardorlar bir-birlari va o'qituvchi-trener bilan maslahatlashishga borishlari uchun partalarning qulay tomonida o'tirganlari ma'qul;

- o'qituvchi taklif etmagan holda uning huzuriga konsultatsiya uchun faqat bir o'quvchining kelishiga ruxsat etiladi;

- bunday darsda bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun, aqliy hujum, sinektika, nima uchun kabi texnologiyalardan kompleks foydalanish kerak;

- yangi pedagogik texnologiyalardan har darsda sistematik foydalanilmasa kutilgan natijani bermaydi;

- o'qituvchi-trener masala sharti va yechimini ekranga tushirib tushuntirgach, shunga o'xshash bir xil topshiriqni barcha kichik guruhlarga hamkorlikda bajarishlari taklif etiladi;

- ekranga tushirilgan masala sharti va yechimini tushuntirish jarayonida aqliy hujum, sinektika, nima uchun kabi interfaol metodlardan foydalanish qulay va yaxshi samara beradi. Bunda o'quvchilarga noto'g'ri bo'lsada o'z fikrlarini bildirishlari, qo'rqmasliklari, har qanday noo'rin fikrlarga ham tanqidiy munosabat bildirilmasligi oldindan aytilishi kerak. O'quvchini, umuman bolani fikrlashdan to'xtatish jamiyat taraqqiyoti oldiga to'siq qo'yish bilan barobar;

- o'qituvchi o'quvchilardan navbatdagi dars mavzusiga doir nazariy materiallarni uyda o'rganib kelishlarini qat'iy talab etishi zarur;

- topshiriqni bajara olmagan ayrim kichik guruh sardorlarining boshqa kichik guruhlardan va o'qituvchi-trenerdan yordam olishlariga ruxsat etiladi;

- agar bitta kichik guruh ishni bajara olmasa, kuchli sardorlardan birining ularga yordam berishi uyushtiriladi;

- topshiriq birorta ham kichik guruh tomonidan bajarilmasa, oldin o'rgatilgan masala yechimi yana ekranga chiqarilib, o'qituvchi-trener tomonidan qayta tushuntiriladi. Shu tartibda o'quvchilar hamkorlikda mustaqil ishlashga o'rgatiladi;

-sardor sust o'zlashtiruvchi sheriklarining o'z imkoniyatlari darajasida o'qishlariga mas'ul;

- sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar o'qituvchi-trener va sardorlarning doimiy e'tiborida va ko'magida bo'lishlari, ularning har qanday kichik muvaffaqiyatlari rag'batlantirilishi zarur;

- qo'yilgan topshiriqning qaysi kichik guruh sardori tomonidan birinchi bajarilganligi, qaysi sardorning boshqa kichik guruhlar sardorlariga necha marta yordam berganligi belgilangan bir o'quvchi tomonidan yozib boriladi. Bu yozuvlar va o'qituvchining shaxsiy kuzatishlari natijalari bo'yicha kichik guruhlar va sardorlar

rag'batlantiriladi. Darslarning texnologik xaritasini yaratish - murakkab ko'p bosqichli jarayondir. Bu faoliyat kim tomonidan va qanday obyektga tadbiiq etilishiga qaramay, qator ketma-ket, bir-biri bilan bog'liq bosqichlarda amalga oshiriladi, oldinda turgan umumiy g'oyalardan aniq ta'sirlangan harakatlar ishlanmasiga yaqinlashadi: Darslarning texnologik xaritasini loyihalashtirishning 3 ta bosqichi farqlanadi:

1-bosqich. Modellashtirish;

2-bosqich. Proektlashtirish;

3-bosqich. Konstruksiyalash.

Pedagogik loyihalashtirish (loyiha yaratish) - keyinchalik yaratilgan modellarni qayta ishlash va ularni amalda qo'llash darajasiga yetkazish. Pedagogik modellashtirish (model yaratish) - bu pedagogik tizim, jarayonlarni yaratishdagi, maqsadlar (umumiy g'oyalar) va ularga erishishning asosiy yo'llarini ishlab chiqarish.

Pedagogik konsultatsiyalash (konstruksiya yaratish) - bu yaratilgan modelda ish olib borilsa, u pedagogik faoliyatni o'zgartirish uchun qo'llash darajasiga olib boriladi pedaggikada model xayolan yaratilar va o'rnatish funksiyasini bajarar ekan, demak loyiha o'quv tarbiyaviy jarayon va muhitni qayta shakllantirish mexanizmi bo'lib qoladi.

Loyihalashning uchinchi bosqichi - bu konstruksiyalash. Konstruksiyalash loyihani yanada ko'proq detallashtiradi, uni konkretlashtiradi va haqiqiy faoliyat holatiga yaqinlashtiradi.

Konstruksiyalash - o'quv va pedagogik faoliyat bo'lib - bu metodik vazifadir.

Pedagogik loyihalashtirish shakllari bu pedagogik tizim, jarayonlar va holatlarni faoliyatlarni turli darajada aniq yaratishni tavsiflovchi hujjatdir.

Konsepsiya loyihalashtirishning shakllaridan biri bo'lib unda pedagogik tizim va jarayonlarni qurish, nazariy tamoyillar, yetakchi g'oyalar, asosiy nuqtayi nazarni ko'zda tutuvchi vositalar orqali bayon etiladi.

Qoidaga ko'ra konsepsiya ilmiy izlanishlar natijalari asosida quriladi. U yetarlicha umumiy va abstrakt bo'lishiga qaramay katta amaliy axamiyatga ega. Shu tariqa, har qanday konsepsiya amalda u yoki bu tizim yoki jarayonda qo'llash mumkin bo'lgan holat g'oya, qarashlarni o'z ichiga oladi.

Darslarning texnologik xaritasini yaratish tamoyillari:

1. Insoniy ustunlik tamoyili insonga nisbatan mo'ljal olish tamoyili sifatida, tizim ostidagi ishtirokchi, jarayonlar va holatlar asosiy hisoblanadi.

O'z tarbiyalanuvchilaringizni haqiqiy ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini loyihalashtirilgan pedagogik tizim, jarayonlar holatlarga bo'ysundiring.

O'quvchilarni o'z loyihalarigiz, konstruksiyalaringizni bajarishga bog'lab qo'ymang, chekina oling va ularni boshqalari bilan almashtira oling. Qat'iy va detalli loyihalashtirmang, o'quvchilarga va o'zingizga xususiylashtirish uchun imkoniyat qoldiring.

Loyihalashtirish mobaynida pedagogga o'zini o'quvchi o'miga qo'yish va xayolan uni xulq-atvorini, hislarini, unga yaratilgan tizimlar, jarayon yoki holatdagi ta'sirini eksperiment qilish taklif etiladi.

2. Loyihalashtirilayotgan tizim, jarayonlar, holatlarni o'zicha rivojlanish tamoyili - ularning dinamik, qat'iy, rivojlanish jarayonidagi o'zgarishlarga, qayta qurishga, murakkablikka yoki soddalashtirishga mos yarashish degani.

Bita loyiha bilan to'xtab qolmang, zaxirada yana bir ikkita maqsadga erishishni ta'minlaydigan loyihalarga ega bo'ling. Hayot har doim turli-tuman va kutilmagan loyihalardir.

Ayniqsa bu pedagogikada yuzaga keladi. Qandaydir reja, ko'rgazma, ssenariy, kuch bilan tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishiga, uni erkini sindirishiga uni idealiga bog'lab qo'yishga yo'l qo'ymasligi kerak. Pedagog aynan uni tabiyalanuvchilarni o'sish va rivojlanishiga yordam beradigan yetarlicha metodlar, vositalar va shakllarni tanlaydi, shuningdek turli mazmunlarni ko'zda tutadi.

Didaktik ijodkorlik - bu o'qitish sohasida turli xil vositalarni tanlash va o'quv materialini tizimlashtirish, uni bilish metodlari va o'quvchilarning o'zlashtirish metodlarini yaratish bo'yicha faoliyati.

Didaktik-ijod eng keng tarqalgan va pedagog va o'quvchilar uchun oson faoliyat.

Bunda variantivlik ko'p: o'quvchilar faoliyatini kombinatsiyalash, o'zaro o'tish; qo'shimchalar, yangi yaratilgan usullarni qo'llash. Musiqa fonidan foydalanish, ota-onalar bilimni baholash, o'z-o'zini baholash, rangli musiqa o'yin avtomatlar, so'rov qurilmalaridan o'quv maqsadida foydalanish - ularning hammasi didaktik ijoddir. Amaliyot

uni chegarasizligini ko'rsatadi. Texnologik madaniyat bu pedagogik texnologiyalar va loyihalashtirish sohasidagi faoliyat bo'lib, unda yangi pedagogik tizim izlash va yaratish, pedagogik jarayonlar va o'quv pedagogik holatlarni, o'quvchilarni tarbiyalashning natijaviyligini oshirishga mos yangi tizimlar yaratish.

Bu pedagogik ijodning eng murakkab turidir. U pedagog va o'quvchilar faoliyatini to'la qamrab oladi. Ijodning bunday turiga kollej, litsey o'quvchilarni guruhli shaklda o'qitish. O'qitishda inshakltsion texnologiyalaridan foydalanish, interfaol darslar yaratish va boshqalar kiradi.

Tashkilotchilik ijodi - bu o'quvchilar va pedagoglar orasidagi o'zaro aloqa, muhit bilan aloqa resurslarni mobillashtirishning kuchini taqsimlash, yangi nazorat usullarini yaratish bo'yicha faoliyatni tashkil etish va boshqarishdir.

Tashkilotchilik ijodi mehnatni ilmiy tashkil etishni hamma omillarni to'g'ri qo'llashni maqsadga erishishning oson yo'llarini ta'minlaydi. Ko'rib turganimizdek pedagogga o'z ijodini ko'rsatadigan joylar bor. O'quv tarbiyaviy jarayondagi o'qitish vositalari va usullari haqidagi bilimlar yig'indini "o'quv jarayoni texnologiyalari" deb atash mumkin.

Darslarning texnologik xaritasini ishlab chiqishda o'qituvchi va o'quvchining mutlaqo aniq faoliyati zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llab yoki ularsiz loyihalashtiriladi. Aniq pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish jarayonini pedagogik loyihalashtirish jarayoni deb atash mumkin. Ular quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'quv rejasi va o'quv dasturida ko'zda tutilgan o'qitish mazmunini tanlash;
- o'qituvchi mo'ljal olishi lozim bo'lgan ustun maqsadlarni tanlash; loyihalashtirilayotgan ta'lim jarayonida o'quvchilarda qanday kasbiy va shaxsiy sifalarni shakllantiradi;
- ko'zda tutilgan maqsadlar yig'indisi yoki biinchi o'rinda turadigan bir maqsad uchun texnologiyalar tanlash;
- o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish.

O'qitish texnologiyalarini loyihalatirish fan mazmunini, o'quv jarayonini, o'qitish vositalari va metodlarini tanlab loyihalashni ko'zda tutadi.

O'qitish texnologiyasi – tizimli kategoriya quyidagi strukturalardan tashkil topgan:

- o'qitish maqsadlari;
- o'qitish mazmuni;
- o'quv jarayonini tashkil etish;
- pedagogik ta'sir o'tirish vositasi (o'qitish vositasi va motivatsiya)
- o'quvchi

faoliyat natijas (shu bilan birga kasbiy tayyorgarlik natijasi ham) o'qitish texnologiyasi o'quv jarayonini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishni, ko'zda tutadi. Bu jarayonning hamma tomoni o'zaro bog'liq va bir-biriga ta'sir etadi. Bitta bo'g'inga kuch berib, shu zahoti boshqalari haqida ham bilish mumkin. Butun tizimni samarali harakatlantirish uchun uni tashkil etuvchi hamma qismi puxta va sozlangan bo'lishi kerak.

Ular slarning texnologik xaritasini yaratish yo'nalishlari bir qancha umumiy holatlar pozitsiyasida ko'rish mumkin.

Bevositalik asosida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri aloqali va masofali o'qitish shakliga ajratilishi mumkin, birinchi gurug'a o'qitishning an'anaviy ishlab chiqarishning hamma yo'nalishi kiradi, ikkinchisiga faqat hozirgi kunda o'qitishda masofali ta'sir ko'rsatuvchi maxsus texnik vositalar orqali yaratilgan o'qitish yo'nalishi kiradi.

3. Onglilik tamoyili asosida o'qitish intuitiv o'zlashtirish mos malar va onglilikka bo'linadi. Onglilik tamoyiliga asoslangan ta'lim nazariyasini ko'rib chiqishda o'quv jarayonida o'quvchilarning anglash obyekti nira ekanligi to'g'risidagi savolga javob berish muhim hisoblanadi. Agar faqat qoida vositalar angalansa, bu shakl an'anaviy tarzda N.F Talzina fikriga ko'ra "dogmatik, xabar beruvchi" deb ataladi. Agar bu aqliq bir qoidaga bo'ysunadigan harakatlarni anglash bo'lsa, unda bu aqliq faoliyatlarni shakllantirish nazariyasidir. (P.Y Talperin, N.F Talzina) Agar bu dasturlar algoritmlar faoliyatlarini atash bo'yicha, unda bu o'qitishni dasturlashtirish, algoritmlashtirish nazariyasidir. (N.F.Talzina, N.L. and) Agar bu vosita usullar, yo'llarni o'zlashtirish uchun zarur masalani yechish, muammolarni anglash bo'lsa bu muammoli o'qitishdir. (V.Okon, M.M.Maxmuto', A.M.Matyushkin, I.Y.Lerner)

4. Mavjud o'quv jarayonini boshqarishga asosan, unga asoslangan (masalan: an'anaviy o'qitishga) va o'zlashtirish

mexanizmining asosiy sifatini ko'zda tutuvchi boshqaruvga aralashishi mumkin. (aqliy faoliyatlarni bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasi, dasturlashtirilgan, algoritmlashtirilgan o'qitish).

4. Ta'lim va madaniyatning o'zaro bog'liqligiga asosan o'qitish, asosiy ta'limda madaniyatni loyihalash o'rni va o'quvchilarda loyihalashtirish faoliyatini shakllanishi (loyihali o'qitish nazariyasi) va fan tamoyillariga asoslanib o'qitish (an'anaviy o'qitish) bilan chegaralanishi mumkin.

5. O'qitishning kelajak faoliyat bilan aloqasiga asosan, "Belgili-kontekstli" yoki kontekstli ta'lim (A.A.Verbiskiy) va an'anaviy kontekstdan tashqari o'qitish turlariga ajratish mumkin.

6. O'qitishning tashkil etish vositasiga ko'ra o'qitishning faol shakllari va metodlari va an'anaviy axborotli ma'lumotli o'qitish shakllari farqlanadi.

Yuqorida nomlari keltirilganlarga mos tarzda an'anaviy o'qitish asoslari aloqali (masofali bo'lishi mumkin), xabar beruvchi, onglik tamoyiliga asoslangan (fanni o'zini ongli o'zlashtirish bilim) boshqarmasdan maqsadga qaratilgan, fan tamoyillari asosida qurilgan konspektidan tashqarida (oliy ta'lim tizimida kelajakdagi kasbiy faoliyatni o'quv jarayonida maqsadga yo'naltirmasdan moslashtirish) aniqlanishi mumkin. N.F.Talzina tomonidan aniqlangan an'anaviy o'qitish, axborotli xabar beruvchi, dogmatik sifatida yuqorida keltirilgan tavsifda passiv aks etadi. Bunda shuni ta'kidlash kerakki, bu "yomon-yaxshi" turdagi baholovchi belgilash emas, bu ta'kidlovchi belgilash bo'lib, an'anaviy o'qitishda bilish o'zlashtirishning hamma shart sharoitlariga va samarali amalga oshirilishi asoslarini o'z ichiga oladi, ular ko'pgina omillar bilan o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. M.K.Kabardov tadqiqotlarining ko'rsatishicha, intellektual faoliyati turini xarakterlovchi odamlar—"mutafakkir", qobiliyatlidir, masalan chet tiliga an'anaviy o'qitish shaklida, o'yindagiga ko'ra faolroqdir. Ta'limda an'anaviy o'qitish bilan bir qatorda yuqorida keltirilgan nomlar asosida boshqa yo'nalishlar ham shakllanadi: muammoli o'qitish, dasturlashtirilgan o'qitish, aqliy faoliyatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga asoslangan (P.Y.Galperen, N.F.Talzina) algoritmlashtirilgan o'qitish (N.L.Landa) belgini kontekstli turiga asosan rivojlantiruvchi o'qitish (A.A.Verbeskiy)

loyihali o'qitish. Hozirgi kunda V.Okoning ta'kidlashicha, o'qitishda ko'p tomonlama jarayon mavjud bo'lib, u o'z ichiga uni turli yo'nalishlarning turli xil elementlarini oladi. Bu o'qitishdagi ko'p tomonlamalik ta'lim tizimining har bir bosqichida, o'qitishning har bir holati uchun, o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari va imkoniyatlariga mos, shuningdek o'qituvchining o'ziga, o'qitishning u yoki bu yo'nalishda qo'llashi imkoniyatini beradi. Darslarning texnologik xaritasini yaratishni umumiy tarzda V.Okon tomonidan quyidagicha tasvirlangan jarayoni deb atash mumkin. Uni ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi:

- o'quv rejasini va o'quv dasturida ko'zda tutilgan o'qitish mazmunini tanlash;

- o'qituvchi mo'ljal olishi zarur bo'lgan birlamchi maqsadlarni tanlash; loyihalashtirilayotgan fanni o'qitish mobaynida o'quvchilarda qanday kasbiy va hissiy sifatlar shakllantiriladi;

- maqsadlar yig'indisini yoki birlamchi ustun maqsadlardan birini ko'zda tutuvchi texnologiyalar tanlash;

- o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish.

Shaxsni jadal rivojlanishi individni taraqqiyotini ko'zda tutadigan jismoniy va psixik o'zgarishlari uni hamma bosqichlarida kichikdan katta, soddadan murakkabga, pastdan yuqoriga o'tishidir.

Shaxs rivojlanishining maxsus xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- immanentlik: tabiat tomonidan berilgan shaxs xususiyatlarini daxlsiz rivojlanishi;

- biogenlik: ko'p jihatdan nasliy belgilanadigan shaxsni psixik rivojlanishi;

- sodiogenlik: ijtimoiy muhit ta'siri;

- psixologik: inson-o'z-o'zini tuzatuvchi va o'z-o'zini boshqaruvchi tizim;

- individuallik: shaxs o'zida noyob hodisalarni, individual sifatlar to'plami va o'ziga xos rivojlanish varianti bilan farq qilishini ko'rsatadi;

- bosqichlilik; shaxs rivojlanishi umumiy davriylik qonuniga buyso'nadi;

- chiziqlilik: har bir shaxs o'zicha tempda tasodifiy tezlashish vaqtini taqsimlanishini va qarama-qarshiliklarni ortishini sezib rivojlanadi;

Jismoniy yosh psixik rivojlanishining imkoniyatlari, sifat va son tavsifini belgilaydi.

Darslarning texnologik xaritasini yaratish qonuniyatlari individning darajasi va xususiyatlaridan foydalanadi va hisobga oladi.

Darslarning texnologik xaritasini yaratish shaklida o'quvchi faoliyatining hamma bosqichlarida to'laqonli subyekt bo'ladi. Har bir bosqich shaxs rivojlanishiga maxsus hissa qo'shadi. Maqsadni ko'zlash faoliyatida erkinlik, maqsadga intilish, g'urur, to'g'rilik, qadr-qimmat, mustaqillik tarbiyalanadi; rejalashtirishda –tashabbus ijod, tashkilotchilik, mustaqillik, iroda; maqsadni amalga oshirishda – mehnatsevarlik, intizom faollik, mahorat; tahlil qilish bosqichida munosabat, javobgarlik, baholash kategoriyalari shakllantiriladi. Zamonaviy pedagogikadagi hamma shaxs sifatleri guruhlari:

BMK-bilim, malaka, ko'nikma;

AFU-aqliy faoliyat usullari;

SHO'BM-shaxsni o'zini boshqarish mexanizmi;

HAD – hissiy axloqiy doira;

Pedagogik loyihalashtirish va pedagogik texnologiyalar.

PFM-pedagogik faoliyat muhiti-murakkab dinamiy rivojlanuvchi butun tizimni aks ettiradi va o'zaro bog'laydi. Individual farqlar u yoki bu guruh sifatlarini rivojlanish darajasini belgilaydi. Rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyasi shaxsni hama sifatleri majmuyi yuzaga keladigan butun garmonik rivojlanishiga yo'naltirilgan RO' - rivojlantiruvchi o'qitish. $RO' = BMK + AFU + SHO'BM + HAD + PFM$

Rivojlantiruvchi o'qitish o'quvchi o'qituvchi yordamida bajaradigan faoliyatda "yaqin rivojlanish zonasi"ni ko'zda tutadi.

Rivojlantiruvchi o'qitish yaqin rivojlantirish zonasidan o'tadi (L.S.Vigotskiy bo'yicha) rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari ichidan tadqiqot uchun L.V.Zankov tizimi, D.B.Elkonin-V.V.Davidov texnologiyalari, G.S.Altshullerning rivojlantiruvchi ta'lim tizimini shaxs ijodiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimi qiziqishi uyg'otadi. Oxirgisidan tashqari, ko'rsatilgan bu innovatsion texnologiyalar - maktab pedagogikasi texnologiyalaridir, lekin ularga oliy maktab pedagogikasi didaktik tamoyillarini kiritish mumkin va ular oliy bilim yurti modifikatsiyasini qayta ishlash ba'zasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

L.V.Zankovning konseptual didaktik vaziyatlari qiymati mazmunini to'liqligi va butunligida, o'qitishda qiyinchiliklar yuqori darajada, harakatning tezligida, anglangan motivatsiyalarda, variantlilikda, individuallikda, induktiv metodni qo'llashda, mazmuni muammolashtirishda va o'qitish jarayonida ratsional va hissiy tafakkurni kiritishdadir.

D.B.Elkonin-V.V.Davidov texnologiyasi "mazmunini boyitish" asosiga qurilgan bo'lib, unga ilmning, sabab, oqibat aloqasi va qonuniyatlarini chuqur aks ettiradigan umumiy tushunchalari, fundamental genetik birlamchi tasavvurlar (son, so'z, energiya, metall) ichki aloqalar ajratilgan tushunchalar, mavhumlashtirish yo'li bilan olingan nazariy obrazlar kiradi.

Mualliflar maqsad urg'usini quyidagi texnologiyalarda keltirilgan:

- nazariy anglash va tafakkurlashni shakllantirish;
- bilim, malaka ko'nikmalarni qancha shakllantirsa, aqliy faoliyat usullari shuncha shakllanadi;

- o'quv faoliyatiga ilmiy tafakkur mantig'ini kiritish;

Bu metodikalar xususiyati o'quv faoliyatini maqsadga yo'naltirilganligi, ongli rivojlantirish maqsadi, subyektni-subyektga munosabati pedagogni o'quvchiga nisbatan munosabati, metodologiyalarni bilim malaka ko'nikmani va aqliy faoliyat usullari, ijodiy refleksni shakllantirishga qaratilganligi hisoblanadi. Bu metodikaga o'quvchini maqsad va vazifalar qo'yishi, o'zi o'zgartirishlar kiritishi va ijodiy yechadigan maqsadga yo'naltirilgan o'quv faoliyati sifatida qarash mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlarini tavsiflang.

2. Maxsus ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalar qanday ta'sir ko'rsatadi?

3. Darslarning texnologik xaritasini loyihalashtirishning necha bosqichi farqlanadi?

4. Maxsus ta'lim jarayonida interfaol darsni tashkil etish nimalardan iborat?

Tayanch tushunchalar:

Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini realizatsiyalashning mazmuniy texnikasi (V.P.Bespalko).

Pedagogik texnologiya – ta'limning rejalashtirilayotgan natijalariga erishish jarayoni tavsifi (V.P.Volkov).

Pedagogik texnologiya – shubhasiz o'quvchi va o'qituvchi uchun qulay sharoit ta'minlangan, o'quv jarayonini loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha birgalikdagi pedagogik faoliyatning barcha detallari hisobga olingan modeli (V.M.Moxanov).

Pedagogik texnologiya – texnika va inson resurslarini hisobga olgan, o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yadigin o'qitish va bilim o'zlashtirishning butun jarayonini qo'llash va belgilash, yaratishning sistemali metodi (YUNESKO)

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan, shuningdek, Respublikamiz Hukumatining ta'lim tizimiga qo'yilayotgan vazifalarning ijrosini ta'minlovchi boshqa hujjatlarda o'qitishning zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llash va shu orqali uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilgan.

Axborot texnologiyalari ta'lim berishning zamonaviy usullaridan eng muhimi bo'lib, ularni qo'llash o'quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkonini beradi. Mazkur usul o'ziga xos didaktik va uslubiy asoslarga ega. Har bir fan uchun ishlab chiqilgan dastur asosida uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda axborot texnologiyalarini qo'llash pedagogikaning dolzarb masalalaridan biridir. Shu bois mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan jahon andozalari darajasiga ko'tarish nuqsoni davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu vazifalarni hal qilish uchun esa birinchi navbatda o'quv jarayonini tubdan isloh qilish, unga jahonning rivojlangan davlatlarida keng qo'llanilayotgan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni izchillik bilan tadbiiq etish zarur. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan hujjatlarda ta'lim tizimini

kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalari yuqori saviyada tadbir etish, uni rivojlantirish va takomillashtirishning aniq vazifalari oldiga qo'yilgan va maqsadli yo'nalishlari ifodalab berilgan. Bundan tashqari, ta'lim muassasalarini moddiy-texnik va ilmiy-tadqiqot negizini kengaytirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz ta'lim tizimida telekommunikatsiyalar, kompyuter va axborot texnologiyalarining roli yanada oshadi. O'quv jarayonini texnik qurilmalar va xizmatlarning eng zamonaviy turlari bilan ta'minlanishi, respublikamizning jahonda yuz berayotgan ilmiy-texnika taraqqiyotiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun imkon yaratadi. Ta'limni axborotlashtirish jamiyatni axborotlashtirish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirilishining muhim shartidir. Bu jarayon rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish maqsadida yangi axborot texnologiyalarini qo'llash, bu texnologiyalarning metodlari va vositalaridan foydalanish, ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarini jadallashtirish orqali uning sifati va samaradorligini oshirish va pirovardida yoshlarni axborotlashgan jamiyat sharoitida yashashga tayyor qilib tarbiyalash masalalarini o'zida qamrab oladi.

Chunki, XXI asrda yashaydigan, ijod qiladigan, Vatan va yurt mustaqilligini mustahkamlovchi insonlarning manfaatini, ularning bilimi, ko'nikma va malakalari shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozimligini taqozo etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalar, ta'limni kompyuterlashtirish va kompyuterlash tarmoqlari tizimida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashning rivojlanishiga e'tibor qaratilgan. Zero, milliy dasturda e'tirof etilganidek, "ta'limni axborot bilan ta'minlash tizimi bilan bog'lash, ommaviy axborot vositalarining ta'lim sohasidagi vazifalarini belgilash" malakali kadrlar tayyorlashning eng muhim alohida muammo ekanligi qayd etilgan. Shu sababdan, yangi asr inshakltion texnologiyalar asri bo'lishi kutilmoqda.

Ko'p hollarda "ta'limning kompyuter texnologiya"lari iborasi "axborot texnologiyalari" iborasi bilan almashtirilib yuboriladi. Bu o'rinda asosiy an'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli, kompyuter tarmoqlariga ulangan dasturlashtirilgan, xalqaro aloqalarni ham ta'minlashga qodir tizim nazarda tutilmoqda. Bu holat so'nggi yillarda jamiyat hayotida kompyuterning ahamiyati, xalq xo'jaligining

barcha tarmoqlarida turli xil axborotlarga nisbatan ehtiyojning ortib borishi bilan izohlanadi

Bugun biz bir narsani aniq tasavvur qilishimiz kerak: mavjud holat, axborotlar oqimining tizimlashuvi inson xotirasiga ortiqcha yuk, shaxsning jarayonlarida keskin o'zgarishlarga sabab bo'lmaydimi? Inson ongiga yetib borayotgan axborotlar oqimi shaxsning mavjud madaniy-ma'rifiy muhitdagi moslashuvi jarayonida qay tarzda aks etishini bilishimiz va shunga mos tarzda ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quv dasturlari va jihozlariga nisbatan talablarni ishlab chiqishni talab etadi. Ta'lim jarayonida kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi o'quvchilarning ular bilan bemalol ishlay olishlariga pedagogik jarayondagi eng muhim kamchiliklardan biri hisoblangan subyektivizmni cheklashga imkon yaratadi. O'quvchining javobi yoki bevosita o'zlashtirishini baholash o'qituvchining o'quvchi shaxsiga munosabati ta'sirida kechgan bo'lsa, mashinalar vositasida beriladigan ma'lumotlar obyektiv xarakterga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, kompyuter orqali bolaga yetkazilayotgan ma'lumotni zarurat bo'lsa, qayta-qayta chaqirish va takrorlash imkoniyati bor. An'anaviy ta'limda har bir o'qituvchining darsni tashkil etish va yangi mavzuni o'quvchilarga yetkazib berish borasida o'ziga xos didaktik uslubi mavjud. Kompyuter yoki masofali aloqa vositalaridan foydalanish samarasiz usullarni barham topishiga yordam beradi.

Yangicha axborotlarni uzatish texnologiyalarida sxemalar, rasmlar, jadvallar, grafik va diagrammalarga keng o'rin beriladi. Bu narsa o'quvchilarning obrazli xotirasini ancha jonlantirib, ularning eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi. Shuning bilan birga, yangi texnologiya kerakli ma'lumotlarni disk, disketa va flesh disklar va boshqa vositalarga yozib olib, saqlash va kerakli joylarda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu usul o'qituvchi va o'quvchilar vaqtini va sarflanadigan mablag'ni tejaydi; iqtisodiy jihatdan esa yuzlab tirajlarda chop etilayotgan darslik va qo'llanmalarga nisbatan bir qancha arzon tushadi. Ta'lim jarayonida kompyuterdan foydalanishning mohiyatini o'quvchilarni jamiyatning har tomonlama yetuk shaxslari qilib tarbiyalash bilan tushuntirish mumkin. Kompyuter tabiat yoki jamiyatdagi hamda ta'lim jarayonidagi hodisa va jarayonlar modellashtirishga va boshqarishga o'rganish va tashxis

qilishga imkon yaratadi. Hozirgi ijtimoiy rivojlanish har bir shaxsning shakllanishi va umuman jamiyatning gullab-yashnashi uchun zarur shartlar bo'lib qolgan ta'limning, axborot va bilimlarning roli ortib borayotgani bilan xarakterlanadi. Axborotdan erkin foydalanish va almashish imkoniyatini beradigan AKTning rivojlanishi hayotimizning hamma jihatlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Yangi texnologiyalar jamiyatimizni o'zgartirdi va hamma joyda axborot mavjud bo'lgan yangi madaniy muhitning yaratilishiga sabab bo'ldi. Bu o'zgarishlar faqat ishlab chiqarish va kommersiya faoliyatiga emas, balki o'qitish metodlari, bilimlar va ko'nikmalarni egallash, shuningdek, odamlar orasidagi o'zaro munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazdi.

So'nggi yigirma yil davomida ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Matnning, tovushning, grafika va videoning an'anaviy shakllarining imkoniyatlari hozirda birlashtirilib, multimediali hujjatlar yaratildi. Global kompyuter tarmoqlari tufayli dunyo kommunikatsiyasining turli-tuman usullarini qo'llash bo'yicha juda katta imkoniyatlarga ega. "Eski" analogli telekommunikatsiya tizimlarini raqamli tizimlarga almashtirildi. Biz kompyuter tizimlari, telefon tarmoqlari va televideniyaning birlashtirilishi ostonasida turibmiz. Yangi avlod axborot texnologiyalarining xilma-xil amaliy imkoniyatlarini uyda va ofisda ishlash, Internet orqali bank xizmatlarini ko'rsatish, elektron kommersiya, tibbiyot va albatta, ta'lim olish uchun yangidan-yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

Yangi texnologiyalardan foydalanish yangi bilimlar va amaliy ko'nikmalarni tez egallashni talab qiladi. Bunda yangi ish sharoitlariga faqat AKTlar bilan ishlash tamoyillarini to'g'ri tushunish asosidagina moslashish mumkin. Kompyuter savodxonligi masalalari hozirgi jamiyatda faol muhokama qilinmoqda. Hozirda ko'p mamlakatlar AKTlar bilan ishlash bo'yicha asosiy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishni o'qish, yozish va hisoblash kabi ko'nikmalarni egallash bilan bir qatordagi umumiy ta'limning bir qismi sifatida qaramoqdalar.

Hozir amalda foydalanilayotgan hamda endigina paydo bo'layotgan yangi texnologiyalar ta'lim tizimini o'zgartirishga qodir bo'lgan kuchga ega. Hozirda AKTlar negizida o'qitishning ko'plab yangi metodlari va shakllari paydo bo'lmoqda.

Uzoq vaqt davomida ta'lim mazmuni, shakllari va metodlarining rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining industrial bosqichi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan edi.

Ta'limning maqsadlari va vazifalari to'g'risidagi tasavvurlar hozirgi rivojlanishning yangi, axborot bosqichida jamiyatning ehtiyojlariga yo'naltirilgan. Ta'limda yangi yondashuvlar bilan bir qatorda ta'lim jarayoni barcha ishtirokchilarining rollarini tegishli o'zgartirish ham talab qilinadi. Global kommunikatsiyadan, Internet qo'shgan holda erkin foydalanish, shu bilan birga kompyuterlar va multimedia interfaol tizimlarining keng tarqalishi quyidagilarni bildiradi, ya'ni:

- ta'lim va bilimlar olish jarayonlari o'quv jarayoni ishtirokchilarining jismonan mavjud bo'lgan joylariga kamroq bog'liq bo'lib bormoqda;

- o'quv resurlari hamda ularni taqdim qilish shakllari miqdori jiddiy o'sadi;

- mashg'ulotlarni o'tkazish vaqtini belgilash tashabbusi ta'lim oluvchilarga beriladi. Bunda ta'lim jarayoni "istalgan vaqtda, istalgan joyda" tamoyiliga asoslanadi.

Quyidagi jadvalda ta'lim jarayonini va unda AKTlarning rolini yangicha tushunish ta'sirida ro'y bergan ayrim o'zgarishlar aks ettirilgan.

AKTning ta'lim tizimini rivojlantirishga ta'siri

Ko'rsatkich	An'anaviy ta'lim tizimi	AKTlardan foydalanishga asoslangan ta'lim tizimi
O'qituvchining roli	Ekspert Maslahatchi Donishmand	Hamkor Konsultant Yordamchi
Ta'lim jarayoni	O'qituvchida markazlashtirilgan	O'quvchiga markazlashtirilgan
Muvaffaqiyatlik mezoni	Fanning mazmun-mohiyati bo'yicha to'liq kompetentlikni namoyish qilish	Yutuqlarni va shaxsiy qobiliyatlamini namoyish qilish
Bilimlarni olish usullari	Axborotni olish, to'plash va qayta tiklash	Axborotni konstruksiyalash yoki fikriy tasavvur qilish
Baholash	Test asosida	Muayyan amaliy masalalarni yechish asosida
Dars berish tizimi	-mazmunga yo'naltirilgan	-jarayonga yo'naltirilgan

	-o'qituvchiga yo'naltirilgan	-o'quvchiga yo'naltirilgan
Guruhlar bo'yicha taqsimot	Bir xil turda	Har xil turda
O'quvchilar faoliyati	Yakka ishlash	Guruh bo'lib ishlash

AKTni qo'llash o'quv dasturiga shunchaki jiddiy qo'shimcha bo'lib qolmasdan, u ta'lim jarayonini maksimal qoniqtiradigan resurslar va didaktik instrumentlarning zarur to'plami bilan boyitadi. Pedagogik texnologiyalar orasida o'quvchilarning guruh bo'lib ishlashlariga, hamkorlikda o'qitishga, faol bilish jarayoni va har xil axborot manbalari bilan ishlashga yo'naltirilgan texnologiyalar maxsus ta'lim uchun eng katta qiziqish uyg'otadi.

Bunday texnologiyalar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muammolarini eng samarali hal qiladi va alohida ta'limiy ehtiyojlarga ega o'quvchilarning jamiyatga samarali qo'shilishi (ijtimoiylashuvi)ga yordam beradi. Aynan shu texnologiyalar tadqiqotli, muammoli metodlardan keng foydalanishni, olingan bilimlarni hamkorlikdagi yoki yakka faoliyatda qo'llashni, faqatgina mustaqil tanqidiy fikrlashni emas, shu bilan birga muloqot madaniyatini, hamkorlikdagi faoliyatda turli xil ijtimoiy rollarni bajara olish ko'nikmalarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. O'quvchilar har xil bilimlar sohalarida individual imkoniyatlariga muvofiq ravishda muayyan natijalarga erishish uchun real imkoniyatga ega bo'ldilar.

Pedagogik texnologiyalar rivojlanishining ayrim tendensiyalari quyida keltirilgan.

Maxsus ta'lim masalalarini AKTlar vositasida hal qilish

O'quvchilarni hozirgi axborotlashtirilgan jamiyat sharoitlarida hayotga tayyorlash va moslashtirish imkonini beradigan maxsus ta'lim tizimi o'quvchilarning individual ehtiyojlariga javob beradigan va ularda kelib chiqadigan ta'lim olishga to'siqlarni minimallashtirishga yordam beradigan ta'lim muhitining optimal sharoitlarini yaratishni talab qiladi.

Bunday sharoitlarni yaratishga kompleks tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan, axborot-texnologik infrastrukturani

ta'minlash, AKTlarni o'quv dasturiga integratsiyalashtirish va maxsus ta'limda AKTlarni qo'llash bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'li bilan erishish mumkin. Alohida ehtiyojli o'quvchilarni o'qitish uchun qo'llaniladigan texnologiyalarni shartli ravishda yordamchi va korreksion texnologiyalardan iborat ikki toifaga ajratish mumkin.

Yordamchi texnologiyalar axborotdan jismonan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi (masalan, ekran lupalari, nutq orqali kiritiladigan dasturiy ta'minot, maxsus ishlangan sichqonchalar va klaviyaturalar).

Korreksiyalovchi texnologiyalar mavjud nuqsonlarni tuzatishga yordam beradi va o'quv va ko'nikma malakalarining rivojlanshini faollashtiradi.

Asosiy foydalanuvchining ehtiyojlarini va ta'lim maqsadlarini hisobga oladigan texnologik infrostrukturani yaratish korreksiyalovchi ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun juda ham zarur. Alohida ehtiyojli o'quvchilarni ta'lim jarayoniga to'laqonli integratsiyalashni yordamchi texnologiyalar va maxsus jihozlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bunday texnologik yechimlar ayrim o'quvchilar uchun o'z ehtiyojlari, fikrlari va qarashlarini atrofdagilarga namoyish qilishning yagona usuli bo'lib qolishi mumkin.

Integratsiyalashtirilgan ta'lim sharoitlarida ta'lim jarayonida kelib chiqadigan qator qiyinchiliklarni yengib o'tish AKTlardan foydalanish asosida muvaffaqiyatli oshirilishi mumkin. AKTlarni qo'llash korreksiyalovchi ta'lim jarayonining quyidagi yo'nalishlaridagi imkoniyatlarini jiddiy oshiradi:

- bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning dastlabki rivojlanganligi darajasini diagnostika qilish;

- yangi ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish va hayotiy tajribani boyitish orqali shaxsning korreksiyasi va rivojlanishiga yordam berish;

- axborotlardan foydalanish imkoniyatini yaxshilash;

- o'zaro faoliyat sharoitlarini yaratish va kommunikatsiyani osonlashtirish orqali geografik yoki ijtimoiy ajralib qolishlarni bartaraf qilish.

Shu bilan birga mos keladigan texnologik infrostrukturani yaratishning o'zi hamma muammolarni hal qila olmaydi.

Maxsus ta'limga AKTni joriy qilishning keyingi bosqichini amalga oshirish uchun pedagoglarning innovatsion ta'lim usullarini

yaratish va amaliyotda qo'llashga hamda mavjud yondashuvlarni maxsus ta'limning yangi konsepsiyasi va zamonaviy texnologiyalarga muvofiq ravishda o'zgartirish va moslashtirishga tayyor bo'lishlari talab qilinadi. Agar o'quvchi qandaydir faoliyatni nazorat qilishga va uni boshqarishga qodir bo'lmasa, unga zarur axborot olish va keyin natijalarni namoyish qilish imkoniyatini berish uchun faoliyatning alternativ turlarini uning uchun moslashtirish yoki ishlab chiqish lozim. Buni amalga oshirish uchun AKTning o'quv dasturiga to'liq integratsiyalashuvini ta'minlash zarur. Bunda o'quv dasturini modifikatsiya qilish akademik talablar va standartlardan chetlashish bilan bog'liq emas. O'quv dasturidagi o'zgarishlar uni ayrim toifa o'quvchilar uchun soddalashtirmasligi va ularning bilimlari va ko'nikmalariga nisbatan talablarni pasaytirmasligi lozim. Aksincha, bilimlarni va ta'lim resurslarini taqsim qilish ijodiy yondashuvni va pedagogning bunyodkorligini talab qiladi.

O'zida tezlik va qulaylikdan iborat afzalliklarni mujassam etgan real vaqt rejimida axborotdan foydalanish imkoniyati axborot olishning eng ko'p tarqalgan usuli bo'lib qoladi. Fanlarni o'qitishda ishtirokchilar orasida kommunikatsiya jarayonini saqlab turuvchi har turli texnologiyalardan foydalanishi mumkin, ular: sinxron va osinxron aloqa va o'zaro faoliyat vositalari (elektron pochta, formlar, videokonferensiyalar, telekonferensiyalar va sh.k.), interfaol elementlar (reallikka eng yaqinlashtirilgan sharoitlardagi modellashirish va o'yinlar) hamda nazorat va baholashning har turli metodlari (o'zini-o'zi tekshirish, bir nechta variantdagi javoblar orasidan to'g'ri tanlashga asoslangan test sinov va boshqalar).

Ta'limda AKTlarni qo'llash o'quv muhitini optimallashtirishga, bunda juda ham ahamiyatlisi esa, ta'lim resurslarining foydalanuvchiga mos bo'lgan alternativ shakltini ta'minlashga imkoniyat beradi.

O'quv kurslarini ishlab chiqishning avtomatlashtirilgan dasturiy vositalarini qo'llash tufayli o'quv dasturining mazmunini turli usullarda taqdim qilishi mumkin, bular: internet saytidagi matn, animatsiyalashtirilgan tasvir, virtual realli, multimedia mahsuloti – raqamli ovoz yozish va video bilan birga, ko'rinishlarida bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, AKTdan foydalanish pedagoglarga hamkasblari bilan kasbiy o'zaro faoliyat olib borishlariga imkoniyat beradi, bu esa ularning malakasini oshirish va tajriba almashishlariga yordam beradi.

Maxsus ta'limda AKTlardan foydalanishning afzalliklari

U yoki bu funksional cheklanishlari bo'lgan o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlari juda ham xilma-xil. Ular bir tomondan, o'zlarining sog'lom tengdoshlari bilan bir xil bilimlar olish ehtiyojiga egalar. Boshqa tomondan esa, ularda boshqa (ko'pincha alohida ta'lim ehtiyojlari deb belgilanadigan), funksional chekinishlar bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlar ham bor bo'lib, ular o'quv jarayonida odatdagi ta'lim metodlaridan foydalanish imkoniyatini bermadi. Shu munosabat bilan o'quvchilarning har turli toifalarining individual ehtiyojlarini qondirish imkonini beradigan AKTlardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

O'quv-metodik jarayonda AKTlardan foydalanishning afzalliklari yangi texnologiyalarning kommunikatsiya va o'zaro faoliyat jarayonini yo'lga qo'yishga, ta'lim resurslaridan eng qulay shaklda foydalanish imkonini berishga, hamda motivatsini oshirishga yordam berishi bilan bog'liq. AKTlarni maxsus ta'limda qo'llash sohalari juda ham xilma-xil bilishiga qaramay, ulardan foydalanishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- kompensator (o'rni bosish) maslalarini hal etish uchun AKTlar;

- didaktik masalalarni hal etish uchun AKTlar;

- kommunikativ masalalarni hal etish uchun AKTlar.

Bunday yondashuvni hisobga olgan holda AKTlarning o'quv jarayonidagi rolni shu asosiy kategoriyalarga muvofiq bayon qilinadi.

AKTlardan foydalanishning umumiy afzalliklari:

- o'quvchilarga ko'proq avtonomlik beriladi;

- kommunikatsiyada qiyinchiliklari bo'lgan o'quvchilarga ichki, yashirin imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoni yaratiladi;

- o'quvchilarga o'z yutuqlarini ilgari an'anaviy pedagogik usullardan foydalanilganda amalga oshirib bo'lmaydigan usullar bilan namoyish qilish imkoniyatini beradi;

- o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyatini beradi.

AKTlardan foydalanishning alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun afzalliklari:

- kompyuterlar o'quvchilarning avtonomligini va ta'lim olish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi;

- alohida ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar topshiriqlarni o'zining o'quv faoliyati maromida bajara oladilar;

- ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar o'zlarining ko'radigan tengdoshlari bilan bir qatorda internetdan foydalanish imkoniyatini oladilar;

- ixtisoslashtirilgan qurilmalar va dasturlar kommunikatsiyada qiyinchiliklari bo'lgan o'quvchilar orasidagi, ularning tengdoshlari va o'qituvchilari bilan o'zaro munosabatlarini yengillashtiradi;

- kommunikatsiyaning texnika vositalaridan foydalanish o'quvchilarning maktabda ham, jamoatda ham yoqimli imidjini hosil qiladi;

- o'quvchilarning AKTlarga ishonchi ularning uy vazifalarini tayyorlash va boshqa ehtiyojlari uchun internetdan foydalanishlariga yordam beradi.

AKTlardan foydalanishning o'qituvchilar va pedagog xodimlar uchun afzalliklari:

- AKTlardan foydalanish maxsus ta'limda ishlayotgan pedagoglarning hamkasblari bilan munosabatda bo'lishlariga imkoniyat yaratib, ularning ajralib qolishlarini kamaytirishga yordam beradi;

- real vaqt rejimida kommunikatsiyani amalga oshirish imkoniyati o'z kasbiy faoliyatini anglashning, ya'ni refleksiyaning rivojlanishiga yordam beradi;

- AKTlardan foydalanish pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini takomillashtiradi;

- texnologiyalarni tengdoshlari bilan munosabatlar jarayoniga qo'shish ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi;

- axborot resurslarining elektron shakli ta'limdan foydalanish imkoniyatini jiddiy ravishda oshiradi.

Maxsus ta'limda AKTlarni qo'llash juda katta imkoniyatlarga ega, lekin bu yo'lda ko'p qiyinchiliklar mavjud, yangi texnologiyalar ta'lim tizimining an'anaviy tartibini o'zgartirib, alohida ehtiyojli odamlar ta'limidagi ilgari passiv yondashuvlarga nisbatan munosib alternativlarni ilgari suradi. Mavjud shubhasiz afzalliklariga qaramay,

agar ularni o'quvchilarning individual ehtiyojlarini va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyat tamoyillarini hisobga olmagan holda qo'llanilsa, bunday texnologiyalar ta'limga to'sqinlik bo'lib qolishi mumkin.

AKTlardan kompensator masalalarni hal etish uchun foydalanish

Yangi texnologiyalarni texnikaviy qo'llab-quvvatlash sifatida qo'llash alohida ehtiyojli o'quvchilarga o'quv jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi. Masalan, harakat nuqsonlari bo'lgan holda AKT yozish imkonini beradi, ko'rish nuqsonlari bo'lgan holda esa, o'qish jarayonini amalga oshirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, texnologiyalar o'quvchilarning o'z atrof-muhitlarini boshqarish, o'quv va ijtimoiy masalalar yechimini qo'llab-quvvatlash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Boshqachasiga aytganda, texnologiyalar organizmning tabiiy funksiyalaridagi yetishmovchiliklarining o'rnini bosish (kompensatsiyalash) imkoniyatini beradi va shu bilan esa, o'quvchilar tomonidan bilimlarni olish va o'zlashtirish jarayonlarini optimallashtiradi.

AKTlardan didaktik masalalarni hal etish uchun foydalanish

AKTlardan didaktik vosita sifatida foydalanish o'quv-metodik jarayonga yondashuvlarni o'zgartirishga yordam beradi va yangi ta'lim strategiyalari va bilimlarni nazorat qilish strategiyalarining vujudga kelishini rag'batlantiradi.

O'quvchilar shaxsining har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish maqsadida o'quv dasturi faqat o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlarinigina qondirib qolmasdan, ularning individual qobiliyatlaridagi va o'quv faoliyatlari maromidagi farqlardan qat'i nazar, intellektual va ijodiy imkoniyatlarini maksimal darajada ro'yobga chiqarishga yordam berishi lozim. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilar orasidagi farqlarni minimum darajaga keltirish imkonini beradi va o'quvchilarning o'zaro va o'qituvchi bilan hamkorligini yaxshilashga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik usullarni qo'llashga yo'l ochadi.

AKTlardan kommunikativ masalalarni hal etish uchun foydalanish

Texnologiyalar alohida ehtiyojli odamlarning muloqotlari jarayonida vositachilar bo'lishi mumkin. Kommunikatsiya jarayonida qiyinchilikka uchraydigan foydalanuvchilarning har bir toifasi uchun maxsus yordamchi qurilmalar va dasturiy ta'minot tanlanishi va moslashtirilishi lozim. Avvalo, gap kompyuterning kommunikatsiyani yengillashtiradigan, ayrim hollarda esa, atrofdagi olam bilan munosabatning yagona imkoniyati bo'lib qoladigan noyob resurs sifatiga egaligi haqida bormoqda. Masalan, zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari muloqotda qiynaladigan odamlarga o'z qobiliyatlarini eng mos keladigan holda amalga oshirish, muloqotdagi qiyinchiliklar harakat nuqsonlari tufayli murakkablashadigan odamlar uchun esa, bunday texnologiyalar ko'p hollarda tashqi olam bilan aloqada o'z fikrlash va ehtiyojlarini ifoda etish imkonini beruvchi yagona usul hisoblanadi.

Bundan tashqari ayrim o'quvchilar toifalarining harakalanish imkoniyatlari cheklanganligi hamda o'qituvchi-o'rgatuvchi kadrlar yetishmasligi (bunday hollar maxsus ta'limda kam) munosabati bilan masofaviy kommunikatsiya metodlaridan foydalanish korreksin ta'lim jarayoni uchun dolzarb bo'lib qolishi mumkin.

Ta'lim sohasidagi kommunikatsiyalar va texnologiyalar masalalari bo'yicha Britaniya agentligi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra maxsus ta'lim tizimida AKTlardan foydalanish o'quvchilarning o'qishi, kommunikatsiyasi va o'zaro faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Maxsus ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning texnik, ijtimoiy va psixologik masalalari

Pedagogik texnologiyalar rivojlanishi tendensiyalari shakllantiruvchi (avtoritar) ta'limdan shaxsga yo'naltirilgan ta'limga:

- yangi ta'lim paradimasi ta'lim mazmuniga birinchi darajali e'tibor beradigan shakllantiruvchi (avtoritar) yondashuvdan ta'lim jarayoniga va ta'lim oluvchining shaxsiga katta e'tibor qaratadigan shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga o'tish imkonini berdi. Endi o'quvchilar shaxsi asosiy qadriyat hisoblanadi, ta'lim

paradigmmasining qolgan barcha elementlari esa, o'qituvchini va ta'lim mazmunini ham qo'shgan holda, o'quv jarayonida ikkinchi darajali bo'lib qoladi.

- O'qituvchi bilan o'qituvchining ta'lim oluvchi bilan ta'lim beruvchining rollari o'zaro almashuvchi hisoblanadilar.

Bilimlarni berishda o'qituvchilar bilimlarning yagona manbalari emas, balki bilimlarni berishda vositachilar bo'lib qoladilar.

Mazmunga yo'naltirilgan darslardan, jarayonga yo'naltirilgan yaxlit rivojlanishga:

- ta'lim jarayonini tushunishda uni axborotni olish, to'plash va qayta tiklash sifatida emas, balki mavjud bilimlar negizida yangilarini qurish sifatida ifodalaydigan konseptual o'zgarish paydo bo'ldi. Ta'limning bunday konsepsiyasi bilimlarni qiyoslash, sintezlash va o'zgartirish uchun maxsus strategiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Ta'limda ko'proq dinamika paydo bo'ladi, bilimlar javoblar shaklida berilishiga nisbatan ko'proq savollar shaklida beriladi. Bunda alohida e'tibor mahsulotga emas, jarayonning o'ziga qaratiladi.

- o'quvchilar hayotdagi ahamiyatli va dolzarb masalalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan real masalalarni hal etishga jalb qilinadilar.

- o'quvchilar faoliyatini baholash ularning real masalalarni hal etishlari asosida o'tkaziladi. "Alternativ" savollardan foydalanish bir necha yechim borligini nazarda tutadi. Baholar o'quvchilarning qaysidir sohada kompetentliklari darajasini xarakterlash uchun emas, ko'proq o'quvchilarning yutuqlarini va o'sishlarini aniqlash uchun ishlatiladi.

Hamkorlikda o'qitishga:

- Bolalar ko'pincha o'z tengdoshlaridan bilimlar olib yaxshiroq o'qiydilar. Kichik guruhlar ishtirokchilari dinamik dialog olib borish, g'oyalar bilan almashish, o'z fikrini ifodalash va tajriba bilan asoslash hamda axborotni izohlash, tushuntirishga qodir bo'ladilar. Bunda hamkorlikda ta'lim amalga oshiriladi, bu jarayonda tengdoshlar bilan ekspertlar guruhining o'zaro faoliyati kelib chiqadi.

- O'quvchilar endi axborotning passiv oluvchilari bo'lib qolmaydilar. Ular boshqa o'quvchilar bilan o'zaro munosabatda ham, ekspertlar bilan mashg'ulotlarda, ulardan keyin faktlarni hamda boshqa dastlabki axborotlarni tanqidiy tahlil qilib va umumlashtirib tezroq bilimlarni egallaydilar, axborot oladilar.

- o'quvchilar endi har turli guruhlarga birlashadilar, bunda ularning har biri boshqa ishtirokchilar bilan o'zaro faoliyatda va real hayotda ham masalani hal etishga yordam bera oladilar. Bunda guruhning har bir a'zosi o'z qobiliyatlariga muvofiq ravishda o'z ulushini qo'shadi. Bunday sharoitlar alohida ehtiyojli o'quvchilarni jamoaga jalb qilish uchun eng yaxshi model hisoblanadi.

Alohida ta'limiy ehtiyojli o'quvchilarning axborotlashtirilgan jamiyatga integratsiyasi

Axborotlashtirilgan jamiyatning tezkor rivojlanib borayotgani alohida ta'limiy ehtiyojli odamlar uchun yangi istiqbollari ochmoqda, lekin shu bilan bir vaqtning o'zida ular uchun ma'lum xavf ham keltirmoqda.

Axborot texnologiyalarining tarqalishi odamlarning ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bir vaqtda, bu texnologiyalarning yetarlicha ochiq emasligi yangi to'siqlar hosil bo'lishiga olib kelmoqda. Agar texnologiyalar foydalanuvchilarning ehtiyojlariga muvofiq moslashtirilgan bo'lmasa, agar axborot ular uchun olib bo'lmaydigan shaklda taqdim qilingan bo'lsa, unda axborotlashtirilgan jamiyat butun dunyodagi shunday odamlar uchun xavfli bo'ladi. Bunda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatidagi uzilish, o'z navbatida, bunday odamlarni yanada ko'proq kamsitish va jamiyat hayotidan chetlatishga olib keladi.

Jamiyatda alohida ehtiyojli o'quvlarning sifatli ta'lim olishdagi teng huquqlarini anglab borilmoqda. Shunga qaramay, funksional cheklanishlari bo'lgan odamlarga AKTlar tomonidan taklif qilinayotgan axborot resurlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanish imkoniyatini olish uchun borgan sari ko'proq qo'shimcha to'siqlarni yengib o'tishga to'g'ri kelmoqda. Masalan, ko'rishda nuqsoni bo'lgan foydalanuvchilarga matnni alternativ audioshaklga o'tkazish uchun maxsus apparatda va dasturiy ta'minot talab qilinadi. Shu maqsadda axborotni ekrandan o'qiydigan maxsus qurilma ishlatiladi. Disleksiya hamda intellektida nuqsonlari bo'lgan o'quvchilar uchun soddalashtirilgan til va matnning mantiqiy tartibga solingan strukturasi bilan foydalanishga asoslangan dasturlar ishlab chiqilgan. Muloqot uchun imo-ishoralar tilidan foydalanadigan o'quvchilar uchun tegishli dasturlar va kommunikatsiya qurilmalari yaratilgan.

Harakat funksiyalari buzilgan foydalanuvchilar kompyuter interfeysini boshqarish uchun axborotni kiritishning maxsus qurilmalari (manipulyatorlar, djaystiklar) hamda kompyuterni ovoqli komandalar bilan boshqarish imkonini beruvchi maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanadilar.

Axborot hayotiy zaruriyat va o'quvchining ajralmas huquqi bo'lib qoldi. Jamiyat qaysidir guruh bu huquqdan mahrum bo'lishiga yo'l qo'ya olmaydi, shuning uchun bunday o'quvchilarning zamonaviy axborot va texnologik makonga jalb qilish usullarini topish juda ham zarur. Maxsus ta'lim sohasida AKTning imkoniyatlarini o'rganish va amalda qo'llash bor – yo'g'i so'nggi bir necha-yil davomida boshlandi. Bu imkoniyatdan foydalanish alohida ehtiyojli o'quvchilarning teng huquqligini ta'minlash uchun katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Integratsiya va foydalanish imkoniyati tamoyillariga asoslangan maxsus ta'lim tizimini yaratish va samaradorligini oshirish uchun alohida ehtiyojli o'quvchilar ta'lim jarayonida qanday to'siqlarga duch kelayotganligini tasavvur qilish juda ham zarur.

Ta'lim jarayoniga xalaqit beruvchi funksional cheklashlar. Har turli kasalliklar va nuqsonlar tufayli kelib chiqqan funksional cheklashlar o'quv dasturini o'zlashtirishda jiddiy to'siq bo'lishi mumkin.

Quyidagi jadvalda nuqsonlarning asosiy tiplari va ular oqibatida kelib chiqqan funksional cheklashlar keltirilgan.

Nuqsonlarning asosiy tirlari, ularning sabablari va ular tufayli kelib chiqqan funksional cheklashlar

Nuqsonlar guruhlari	Nuqsonlar tiplari	Ta'lim jarayoniga xalaqit beradigan funksional cheklashlar
Harakat nuqsonlari	Nerv-mushak nuqsonlari -paralich (tananing ixtiyoriy muskullari va uning qismi ustidan mushak nazoratining to'liq yo'qligi); -parez, kuchsizlik (ixtiyoriy muskullarning kuchi, innervatsiyasi yoki	-Umumiy va mayda motorika harakatarini, gavdaning muvozanatini va bo'shliqdagi holatini tutib turishni ham qo'shgan holda bajarilishining qiyinligi (imkoni yo'qligi); -Ixtiyoriy harakatlarni nazorat qilish va koordinatsiya qilishning yetarli emasligi; -Qo'llar va oyoqlarning yordamchi

	<p>sezgirliги yetishmasligi); -mushaklar spastikasi (mushaklar tonusi ortib ketishi), ataksiya (gavda muvozanatining harakatlar aniqligi va koordinatsiyasining buzilishi) va giperkinez (g'ayriixtiyoriy ko'p harakatlar) sababli nazoratning yetishmasligi. Skelet nuqsонlari -bir-biriga o'xshash harakatlarning cheklanganligi; -oyoqlar, qo'llardagi amputatsiyalar va deshakltsiyalar va boshqalar.</p>	<p>funksiyalari, o'ngga-chapga harakatlarning sinxronligi, qo'llar va oyoqlar harakatlarining ko'rish mator koordinatsiyasi yetishmasligi; -Kinestetik hissiyotlar (harakat funksiyalari bilan bog'liq sezgirlik)ning yetarli emasligi; -Ushlash harakatlarining cheklanishi (og'riq hissiyoti yoki mushak kuchsizligi sababli); -Harakatlarning cheklanganligi, harakatlar hajmi va kuchining yetarli emasligi; -Kuchsizlik va tez charchash; -Murakkab harakatlar va manipulyatsiyalarni (bosim va burilish kabilarni) bajarish qiyinligi.</p>
Sensor nuqsонlar	<p>Ko'rish nuqsонlari -ko'rish zaifligi; -daltonizm; -ko'rlik. Eshitish nuqsонlari -eshitish zaifligi; -eshitishning neyrosensor zaifligi; -eshitishning konduktiv zaifligi; -karlik.</p>	<p>-Ko'rilayotgan qo'zg'atuvchining yorug'lik signallarini, shaklini, o'lchamlarini, tashqi ko'rinishi va ranglarini idrok qilish qiyinligi (imkon yo'qligi). -Tovushni hamda tovushlarning lokalizatsiyasi, kuchliligi, balandligi va sifatini idrok qilish qiyinligi (imkoni yo'qligi).</p>
Intellektual nuqsонlar	<p>- Oligofreniya (tug'ma yoki ilk bolalik davrida orttirilgan aqliy zaiflik) -Demensiya (orttirilgan aqliy zaiflik).</p>	<p>-Quyidagi asosiy psixik funksiyalarni amalga oshirish qiyinligi (imkoni yo'qligi): -Ong tiniqligi, faollik, shu jumladan, uyg'oqlik holatini tutib turish; -adekvat idrok etish va bilan hamda atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatish; -vaqt va makonda mo'ljal olish; -faoliyatning, shu jumladan fikrlash va nutq faoliyatining motivatsiyasi va nazorati; -diqqat (diqqatning hajmi, turg'unligi,</p>

		<p>konsentratsiyasi, taqsimlanishi, ko'chishi va tanlash qobiliyati); -axborotni eslab qolish va uni qisqa vaqtli va uzoq vaqtli xotirada saqlash; axborotni xotiradan olish, eslash; -sensor qo'zg'atuvchilarni (ko'rish, eshitish, toktil, hid, ta'm qo'zg'atuvchilarni tanib olish va izohlash); -oliy bilish (kognitiv) funksiyalari (qarorlar qabul qilish,)</p>
Til va nutq nuqsonlari	<p>Nutq nuqsonlari (tug'ma yoki orttirilgan): -artikulyatsiyaning buzilishlari; -ovozning buzilishlari; -nutq ravonligining buzilishlari. Til nuqsonlari (tug'ma yoki orttirilgan): -qayta tiklash, so'zlash, gapirishning buzilishlari; -tushunishning buzilishlari; -qayta tiklash va tushunishning oralash buzilishlari.</p>	<p>tafakkur, rejalashtirish, faoliyat abstrakt natijalarini baholash, fikrlashning egiluvchanligi, tashqi sharoitlar bilan bog'liq holda xulq-atvoming adekvat shaklini tanlash); -belgilar, ramzlar va boshqa til elementlarini tanib olish va foydalanish (nutqning og'zaki, yozma yoki boshqa shakllarini, shu jumladan, imo-ishoralar tilini ham, kodlashtirish va koddan chiqarish); -matematik simvollarni aniqlash, solishtirish va ular bilan ishlash (qo'shish, ayirish va boshqa eng oddiy matematik hisoblashlar hamda kompleks matematik operatsiyalar va boshqalar).</p>
O'qitishlarning spetsifik qiyinchiliklari	<p>-Disleksiya; -Diyografiya; -Diskalkuliya; -Diqqatni buzulishlari.</p>	<p>Og'zaki nutqlan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi (imkoni yo'qligi): -alohida fonemalar va ularning birikmalarini artikulyatsiya qilish va talaffuz qilishning qiyinligi; -artikulyatsion pozitsiyalarni o'zgartirish qiyinligi; -ovoz hosil qilishning yetishmasligi (havoning bo'g'izdan o'tishda har xil tovushlarni hosil qilish); -intonatsion shakllantirishning buzilishi sababli nutqiy gapirishni temp-ritm jihatidan tashkil qilishdagi qiyinchiliklar.</p>

		<p>Til vositalari orqali axborotni idrok qilish (koddan chiqarish) va ifodalash (kodlashtirish)ning qiyinligi (imkoni yo'qligi):</p> <ul style="list-style-type: none"> -sementik ko'nikmalarning shakllanmaganligi (alohida so'zlar yoki ular kombinatsiyalaridan foydalanish va (yoki) ulami tushunish).
		<p>Axborotni o'zlashtirish, strukturalashtirish va ifodalash imkoniyatining cheklanganligi (imkoni yo'qligi);</p> <ul style="list-style-type: none"> -so'zlardagi harflar va bo'g'inlarni farqlash, kodlashtirish va koddan chiqarishdagi qiyinchiliklar; -fonematik tahlil va sintezning yetishmasligi; -raqamlar va ularning kombinatsiyalarini farqlashdagi qiyinchiliklar; -talaffuzdagi kamchiliklar; -matematik ko'nikmalardagi qiyinchiliklar (matematik ko'nikmalarning shakllanmaganligi); -vaqt va makon munosabatlarining shakllanmaganligi; -diqqatni konsentratsiyalashdagi yetishmaslik va boshqalar.

Yana shuni ta'kidlash zarurki, alohida ehtiyojli o'quvchilarda kompleks buzilishlar bo'lishi mumkin. Ko'pincha u yoki bu kamchiliklarni keltirib chiqargan patogen omillar organizm bir nechta tizimlarining birdaniga buzilishga sabab bo'ladi. Bu, ayniqsa, buzilishlar, og'ir kasalliklar va shikastlanishlar hamda yoshga bog'liq o'zgarishlar sababli kelib chiqqan hollarda ahamiyatga ega.

Bunday kompleks buzilishlarga ko'zi ojizlik va karlik misol bo'ladi.

Ko'zi ojiz bo'lib qolishning sababi bo'lishi mumkin bo'lgan diabet ko'pincha barmoqlar sezgirligining pasayishiga ham olib keladi. Shu sababdan bu toifadagi foydalanuvchilarni o'qitish uchun

bosma matn o'lchamini kattalashtiruvchi dasturlardan foydalanish hamda Brayl shriftini qo'llash mumkin emas.

O'quvchilarning bunday toifasini o'qitishning xususiyati ko'rishi yoki eshitishida buzilishlari bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallangan ta'lim strategiyalari ayrim-ayrim holda qo'llanishi mumkin emasligida namoyon bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, yuqorida aytilgan barcha funksional cheklanishlar o'quvchilarga yetarli darajada bilim olish uchun xalaqit beradi. Ko'pincha unday o'quvchilarning imkoniyatlarini o'qituvchilarning o'zlari pasaytiradilar. Shuning uchun o'quvchilarning individual ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun zarur bo'lgan optimal dasturiy- apparat ta'minotini tanlash uchun, ular sog'lig'ining funksional ahvolini hisobga olish hamda AKTlarning ta'lim jarayonidagi roli va imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega.

Savol va topshiriqlar:

1. Kar bolalar maktabida "ta'lim mazmuni" deganda nima tushuniladi?
2. Kar bolalar maktabi o'quv rejasining o'ziga xosligi nimalardan iborat?
3. Kar bolalar maktabi o'quv dasturini bir fan bo'yicha tahlil qilib bering.
4. Darsliklar qanday tuzilishi lozim?
5. O'qitishda qanday metodlar qo'llaniladi?
6. O'quvchilarning amaliy ishlari tafakkurni rivojlantirish bilan qanday bog'lanadi?
7. O'qitishda og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan o'quvchilarning bilim faoliyati qanday rivojlantiradi?
8. Darsda metodlar qanday foydalanishi kerak deb hisoblaysiz?
9. Dars o'qitishni tashkil etishdagi asosiy shakl ekanligi tushunchasini yoritib bering.
10. Darsning vazifalarini ko'rsatib bering.
11. Darsning qanday tiplari va tuzilishini bilasiz?
12. Kar bolalar maktabida darsning qanday xususiyatlari mavjud?
13. Darsni o'tkazishga qanday talablar qo'yiladi?
14. Kar bolalar rivojlanishida ekskursiyaning qanday roli bor?

15. Yakka mashg'ulotlar haqida tushuncha bering.
16. Karlarni mehnatga o'qitishda qanday vazifalar bajariladi?
17. Fan amaliy ta'lim darslari haqida aytib bering.
18. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim muassasalari tarmog'ini yoriting.
19. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limining mazmunini tavsiflang (o'quv reja, dastur va darsliklari, kompetensiyaviy yondashuvlar).
20. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonida ta'lim tamoyillarining qo'llanishi tavsiflang.
21. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi jarayonida qanday metodlar qo'llaniladi?
22. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar o'quv faoliyatini tashkiliy shakllarini nomlang (dars, korreksion mashg'ulotlar, ularni tahlil qilish).
23. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktablarida til o'qitish asoslarini tavsiflang.
24. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktablarida mehnat ta'limining asoslari va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonini tavsiflang.
25. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonida qo'llanuvchi nutqiy vositalarni yoriting.
26. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yo'llarni ochib bering.
27. Umumtexnikaviy mehnat ta'limini tavsiflang.
28. Kasbga yo'naltirish bo'yicha maktabda qanday ishlar olib boriladi?

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim mazmuni – ta'lim jarayonida o'quvchilar egallab olishlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning ma'lum bir hajmi va tizimi tushuniladi.

Bilim – ta'lim mazmunining asosiy elementi bo'lib, o'quvchilar tomonidan atrof borliqdagi fan va hodisalarni, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini bilib olish natijasidir.

O'quv reja - davlat tomonidan tasdiqlangan hujjat bo'lib, shu asosda o'quv fanlari belgilanadi.

O'quv dasturlari - o'quv rejasi asosida har bir fan uchun tuziladi. Dasturlarda har bir fanni o'qitishdan maqsad, uning mazmuni, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar yoritib beriladi, o'quv yillari bo'yicha fanni o'rganish tartibi ko'rsatiladi.

Ta'lim – o'quvchilarni bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ongiga va xulqiga ta'sir etish, bilish faoliyatini rivojlantirish.

Tarbiya – bolalarga ilmiy bilimlar tizimini singdirish bilan bir qatorda har tomonlama shakllangan kishini tarbiyalash.

Faoliyat – insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan harakatlari.

Ko'nikma – muayyan faoliyatni bajarish qobiliyatini ta'minlovchi metodlar yig'indisini egallash.

Ta'lim-tarbiya jarayoni – o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyati bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatining uyg'unlashishidir.

O'qitish metodi – bu, o'qituvchining bilimlar berish va ularni o'quvchilarning o'zlashtirib olish metodidir.

Og'zaki metodlar – o'qituvchining materialini og'zaki bayon qilishi, suhbat, kitob bilan ishlash.

Ko'rgazmali metodlar – namoyish qilish, mustaqil kuzatishlar, ekskursiyalar.

Amaliy metodlar – og'zaki va yozma mashqlar, grafik va laboratoriya ishlari.

Metodik uslub – metodning tarkibiy qismi.

Mehnat ta'limi – karlar maktabida ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Mehnat ta'limi shaxs sifatida rivojlantiradi va mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlab boradi.

Kasbiy yo'nalishning bir qancha komponentlari mavjud: kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tashxis, kasbiy tanlash va kasbiy adaptatsiya.

Predmet amaliy ta'limi (PAT) – mehnat ta'limning boshlang'ich bosqichi.

Axborot asri - axborot va bilimlar asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari hisoblanadigan ijtimoiy rivojlanish davri. Axborot sohasi ustuvor rivojlanishga ega bo'ladi va sanoat ishlab chiqarishi hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishi hajmidan ustun bo'ladi.

Axborotlashtirilgan jamiyat - axborotni saqlash, ishlash va uzatishning texnikaviy darajasi hamda inson faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlarining axborotlashtirish jarayoniga bog'liq o'zgarishlari bilan xarakterlanadigan postindustrial jamiyat.

Raqamli uzilish - fuqarolarning qaysidir qismiga axborotdan foydalanishni qiyinlashtiradigan tengsizlik. Odatda, bunday tengsizlik ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq bo'ladi.

Raqamli ulanganlik - alohida ehtiyojli odamlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida axborot resurslaridan teng huquqli foydalanishlarini ko'zda tutuvchi konsepsiya.

III BO‘LIM. ESHITISHIDA VA AQLIY RIVOJLANISHIDA MUAMMOSI BO‘LGAN BOLALAR TA‘LIM VA TARBIYASINING TASHKIL ETILISHI

I BOB. ESHITISHIDA VA AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI O‘QITISH

Eshitishida va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish mazmuni

Eshitishida muammosi bo‘lgan, aqliy rivojlanishi buzilgan bolalarga kar va zaif eshituvchilar maktabining yordamchi sinflariga yo‘llanma beriladi. Bolalarga yordamchi sinflarga yo‘llanma berishdan oldin ikkita hujjat aniqlanishi lozim.

Kar va zaif eshituvchilar maktabi tuzilishi va bolalarni shu maktabga qabul qilish tartibi. Bu tartibda hujjatlar bilan bir qatorda tibbiy-pedagogik komissiya hujjati bo‘lishi darkor.

Tibbiy-pedagogik komissiya tashxis qo‘yishda, asosan, “kar va eshituvchi oligofren debil darajasi”ni nazarda tutadi.

Yordamchi sinf o‘quvchilari 5-7 ta, tarbiyasi guruhda esa 10-14 ta boladan iborat bo‘ladi. Ularning ta‘lim mundarijasi ikkita davlat hujjati: o‘quv rejasi va dasturidan tashkil topadi. Ta‘limning asosiy maqsadi kar va zaif eshituvchi aqli zaif bolalarni hayotga tayyorlash, mehnatga, o‘z ehtiyojlarini qondirishga o‘rgatishdan iboratdir.

O‘quv jarayonida ikkita masala yechiladi: kar va zaif eshituvchilar maktabi oldiga qo‘yiladigan maqsad nutqni korrektsiyalash va rivojlantirish, ularning bilish faoliyatini korrektsiyalash va rivojlantirishdir.

Yordamchi sinf o‘quv rejasi kar va zaif eshituvchilar maktabi va yordamchi maktablarnikidan farq qilmaydi.

Yordamchi sinflar o‘quv rejasi 9-yil ta‘limini o‘z ichiga oladi. Bu yillar ichida ular ona tili, matematika va boshqa fanlar boshlang‘ich tushunchasini o‘rganadilar. Kar bolalar maktabi yordamchi sinflarida quyidagi fanlar o‘qiladi: ona tili, matematika, atrofdagi olam bilan tanishtirish, tabiatshunoslik, geografiya, tarix, jismoniy tarbiya, tasviriy san‘at, mehnat. Undan tashqari rejaga “ijtimoiy mo‘ljal” fani kiritilgan. Eng ko‘p mehnat, umumiy texnika mehnatiga vaqt

ajratilmagan. Kasbga yo'naltirish kar va aqli zaif bolarga hayotga moslashishga yordam beradi.

Yordamchi sinflar dasturi kar va zaif eshituvchilar maktabi dasturi asosida tuzilgan.

I-sinf dasturida propedevtika fasli alohida o'rin tutadi. Uning maqsadi – dastur talablarini o'quvchilar bajarishi (bilish va aqliy faoliyat, nutq rivojlanishi)dir.

Dastur o'quvchilarning o'rganish rejasini tashkil etadi. O'qituvchi tomonidan to'ldiriladigan anketa, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

O'quvchining tashqi ko'rinishi va xulq-atvori.

I. Umumiy ma'lumotlar.

1. Ism, sharifi.

2. Yoshi, tug'ilgan yili va oyi.

3. Maktabgacha tarbiya olgani.

4. Maktabgacha ta'lim muassasida necha-yil bo'lgan?

5. Maktabga kelgan yili.

6. Maktabga yuborilgan tavsifnoma.

7. Sinfdan-sinfga o'tishi.

8. Yordamchi sinfga o'tish yili.

9. Nechanchi sinfdan yordamchi sinfga o'tkazilgan.

10. Yordamchi sinfga o'tish sabablari (tibbiy-pedagogik komissiyasi tashxisi).

II. O'zlashtirish.

Nechanchi sinf dasturi bo'yicha o'qiyapti?

Qaysi fanlarni yaxshi o'zlashtirmayapti, qoniqarli, qoniqarsiz?

Dasturda boshqa o'quvchilar bilan solishtirmasi.

Qaysi mehnat turiga qiziqish uyg'otdi.

Bunga nima sabab bo'ldi?

Bilimi: harflarni bilishi, o'qish, (o'qish terminlari, yozma nutqi, sonlarni bilishi, sonlar tartibi, sanoq, 5, 10, 20) sonlar ichida misollar yechish.

III. Nutq rivojlanishi.

Lug'at boyligi.

Nutqning jumalali holati.

Eshituv va talaffuzi holati.

Daktildan foydalana olishi.

IV. O'quvchining ishlash imkoniyati va o'quv faoliyatining holati:

1. O'quv mehnatiga tayyorgarligi (tinch o'tirishni bilish, diqqat bilan qarash, talablarga amal qilish);

2. Topshiriqni bajarishdan bosh tortish (sanoq jihatdan qaysi dars va darsning qaysi qismidan bosh tortilmoqda);

3. Charchoq boshlanganda ishlash imkoniyati susayadi (1-darsda, 2-darsda, "o'qish kunining yakunida);

4. Muvaffaqiyatsizliklarga o'quvchi qanday qaraydi (befarq, siqiladi);

5. O'quvchining xulq-atvori (faoliyatning yangi usullarini o'zlashtirganda, bir ish usuldan uzluksiz foydalanganda).

V. Bilish faoliyatining shakllanish darajasi.

Anketalarning 1-2-3-bo'limlarini to'ldirish, boshqa bo'lim ma'lumotlarini sekin-asta yig'ish. Anketa ustida ishlash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni psixologik-pedagogik tekshirish o'tkazib, o'qishga tayyorgarlik darajasini, olingan ma'lumotlar asosida o'quv materiallari tematik rejasini aniqlaydi va ishlab chiqadi. Boshlang'ich o'quv jarayonida asosiy o'quv fani ona tili hisoblanadi, rus tili dasturi karlar maktabining maxsus I-IV sinflarida quyidagi bo'limlarga ajratiladi:

"Savodga o'rgatish" (1-sinf), "Daktil nutqqa o'qitish" (1-sinf) "Og'zaki nutqqa va eshituv idrokini rivojlantirish, o'qitish" (1-4-sinflar), "Nutqni rivojlantirish" (2-4-sinflar), "Husnixat" (2-4-sinflar). O'qitishning tuzilishi dastur asosida belgilanadi. Savodga o'rgatishdan oldin nutqning shakli og'zaki-daktil qo'llashga o'rgatiladi. O'qishga o'rgatish yozuv jadvallar alifbo asosida o'rgatiladi. Alifbo bilan ishlash o'qitishning 2-yarim yilligida olib boriladi. Unda o'quvchilarning 1-sinfda katta bo'lmagan lug'at boyligi yig'ulgan. Birinchi mashg'ulotlardan boshlab katta bo'lmagan matnlarni yodlaganlarni barchasini idrok qilishga o'rgatiladi.

O'quvchilarning nutqini rivojlantirish dastlab o'quvchilar va bolalar faoliyatining natijalari nutqda gavdalanishidan boshlanadi. Dastlab ishontiradigan shakllardan foydalaniladi (olib kel, ber, kel). Keyin bolalar so'roq gaplarni idrok qilib, ularga javob berishga o'rganishadi, o'qituvchiga taqlid qilib, darslarda o'rgatilgan jummalarni qo'llashni o'rganishadi. Atrofdagilar bilan muomala orqali nutqning og'zaki, daktil va yozma shakllaridan foydalanishadi.

Daktil nutq nutqning boshlang'ich shakli hisoblanadi. 1-sinfda o'quvchilar nutq o'stirish darslarida ekskursiya, tabiat haqidagi hodisalarni (3-4 gap) og'zaki ta'riflab beradilar. Hikoyalarni o'yinchoqlar, rasmlar, sahnalar orqali tuzishadi. Nutq o'stirish darslarida nutq muloqotining ko'nikmasi tarbiyachi tomonidan darsdan tashqari vaqtlarda mustahkamlanadi. Mashg'ulotlar toza havoda, o'yin va sinfdan tashqari xonalarda tabiiy jismlardan foydalanib o'tkaziladi.

Tarbiyachi o'quvchilarda nafaqat jumlati nutqni va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi, balki ularning lug'atini yangi leksika bilan boyitadi.

Predmet-amaliy ta'lim dasturi har xil turdagi amaliy faoliyatlarni o'z ichiga oladi (qurish-yasash, rasm, applikasiya, maketlar, konstruktor, mozaika). O'zlashtirishning bir qancha guruhlari mavjud bo'lib, tushunish deb nomlanadi. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olingan so'zlar, jumlar nutqiga kiritiladi. Ularni aniqlash kerak. 1-sinf uchun dastur alohida, unda hajm jihatidan katta bo'lmagan nutqiy material va amaliy faoliyatlar mavjud. Bu kontingent uchun harakatlar takrorlanadi.

Faoliyat turlari va obyektlarni bildiruvchi so'zlar faoliyatni bajarish jarayonida mustahkamlanadi va o'zlashtiriladi. Og'zaki tuzilishining hisoboti, ishini bajarish bir qancha etaplarda olib boriladi.

Matematika dasturining xususiyati amaliy yo'naltiriladi va o'quvchilarning tafakkur nutqi rivojlantiriladi. Matematik materialni o'zlashtirish maxsus terminologiya bilan birlashtiriladi (sonni tushunish, arifmetik harakat, ayirish amalining usullari, masalalarni yechish). Dasturda nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar belgilab beriladi. Masalalarni yechish, tuzilishi bolalarning hayotiga yaqin bo'lishi kerak.

"Ijtimoiy-maishiy yo'naltirish" darsining dasturi, o'ziga xos. Bu fanning vazifasi: o'quvchilarda o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, uy ishlarini olib borish, atrof olamga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgatish. Dastur bo'limlari hamma sinflarda qaytariladi: "shaxsiy gigiyena", "kiyim va oyoq kiyim", "ovqatlanish", "oila", "o'zini tutish madaniyati", "uy", "transport", "savdo-sotiq", "aloqa usullari", "tibbiy yordam", "tashkilot va muassasa". Har bir bo'limda o'quvchi bilishi va qullay oladigan bo'lishi kerak bo'lgan ma'lumotlar berilgan. Ekskursiya va

amaliy ishlarining mavzusi aynan maxsus muassasalarga mo'ljallangan.

Kar oligofren bolalar karlar maktabining, ba'zan yordamchi maktabning darsliklaridan foydalanib o'qitiladi.

Zaif eshituvchilarning maktabi yordamchi sinflarida tilga o'qitish jarayoni quyidagi bo'limlarga ajratiladi: "Nutq o'stirish", "Savod o'rgatish", "Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish", (bo'limlarda husnixatga soatlar beriladi), "O'qish". Tilga o'qitish dasturidan farqli zaif eshituvchilar maktabining II bo'limida, savodga o'rgatish maxsus o'quv fani 2-sinfda, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish 3-sinfdan boshlanadi va yuqori sinflarga tayyorlab beriladi, 1-sinfdagi aqli zaiflar uchun infantillik, hissiy-irodaviy yetishmovchiliklar, o'qishga qiziqish yo'qligi sababli uzoq propedevtik davr bo'lishi kerak. O'qishga tayyorgarlik korreksion-tarbiyaviy ish olib borilishi lozim. Boshlang'ich sinflarda bunday davr 1-o'quv yili hisoblanadi.

Maktabga tayyorlashda bolada shaxsiy sifatlar vujudga keladi: irodaviy tayyorgarlik, o'qishga qiziqish, o'zini boshqarish ko'nikmalari, tevarak olam haqidagi bilimlarning boyligi. Yuqorida aytilgan vazifalar 1-maxsus sinfda o'tkaziladi. Dasturda 3 yo'nalish shakllantiriladi: lug'atini boyitish, savodga tizimli o'qitish. Nutq o'quv jarayonida eshituv-ko'ruv orqali idrok qilinadi.

Yordamchi sinflarda matematikaga o'qitish aqli zaif bolalarning umumiy rivojlanish va bilish faoliyatini korreksiyalash maqsadida amalga oshiriladi. O'quv material 4 ta chorakka bo'lingan bo'lib, quyidagi bo'limlardan iborat: "Miqdor haqidagi oddiy tasavvurlarni shakllantirish", "Nomerlash", "Qo'shish va ayirish". Har bir chorakning boshida takrorlash uchun soatlar ajratilgan. Takrorlash uchun material yangi o'rganilayotgan materialga bog'lab tanlanadi. Matematika o'rgatishda juda ko'p ko'rgazmalardan foydalanish kerak. O'rgatish jarayonida didaktik o'yinlardan keng foydalanish lozim. Bularning hammasi bolani matematikaga qiziqtiradi.

Eshitishida va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish xususiyatlari

Aqliy va eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni o'qitishda quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

1. *O'qish muddatining uzaytirilganligi.* 9 yillik dastur bolalarni boshlang'ich bilimlar bilan qurollantiradi va mehnat tayyorgarligini beradi, kar oligofrenlarning ta'limi sekinlashishi dars jarayonida yaqqol ko'rinadi: o'qituvchining tushuntirish uchun ko'proq vaqt ketkaziladi, ko'p vaqtini o'quvchilarning tushunishiga ajratadi, masalalarni tushuntirish uchun ham ko'p vaqt ajratiladi.

2. *Ta'limning korreksion yo'nalganligi.* Kar oligofrenlarning nuqsoni asosan ta'lim jarayonida, dars vaqtida korreksiyalanadi. O'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'quv materiali hajmi qisqartiriladi, shu bilan bola ta'lim jarayoniga moslashtirib boriladi. Matematik amallarni, tushunchalarni tushuntirish orqali bolalarning bilim faoliyati korreksiyalab boriladi.

3. *Ta'limning yakkaligi va defferensialligi.* Bolalarning yakka xususiyatlarini hisobga olgan holda yakka yoki defferensial yondashiladi. Psixologlar bolalarni ikkita guruhga ajratadilar. Birinchi guruh oligofren. Karlar ta'lim olishga tayyorgarligi bilan ajratiladi. Bularda bir qancha bilim va ko'nikmalar bo'ladi. Ularning lug'at boyligi ancha shakllangan bo'lib, xulqi normadadir. Bu bolalarning mehnatga layoqati ancha past bo'ladi. Ular masala ustida bosh qotirmaydilar, mustaqil ishlay olmaydilar, o'qituvchi yordamiga muhtojdirlar. Ikkinchi guruhga ta'limga past darajadagi tayyorlangan va aqlan imkoniyatlari chegaralangan bolalar kiradi. Muloqot imo-ishora bilan olib boriladi, harakatlari monotondir. Bitta masaladan ikkinchi masalaga o'tish juda sekin amalga oshiriladi. Bu bolalar yakka yondashishga muhtojdirlar. O'qituvchi o'quvchilarga masala berishda ularning imkoniyatlarini hisobga olib, yakka yondashadi. Ta'limning yakkaligi shu bilan xarakterlanadi.

4. *O'qitish tizimida o'quvchining nutqi ustida ish olib borish yetakchi o'rin egallaydi.* Yordamchi sinflarga kelgan bolalar avval karlar sinfida 1-yil ta'lim oladilar. Bu, albatta, kar oligofren bolalar nutqiga ta'sir ko'rsatadi. Ba'zilar lug'ati sust rivojlangan bo'ladi, ba'zilar umuman gapira olmaydilar. Kar oligofrenlarning nutqini rivojlantirish kar o'quvchilarning nutqini rivojlantirish kabi olib

boriladi, ya'ni kommunikativ tizim asosida amalga oshiriladi. Darsda faoliyatni o'zgartirib turish lozim bo'ladi. Shunda bolaning diqqat va harakatchanligi tarbiyalanadi. Har bir dars 2ta yoki 3ta faoliyatdan tashkil topishi lozim, qolgan faoliyatlar yakka mashg'ulotlarda amalga oshiriladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Kar oligofren bolalarga klinik-psixologik tavsifnomalang.
2. Zaif eshituvchi oligofren bolalarga klinik-psixologik tavsifnomalang.
3. Kuzatilgan darslar namunasida kar bolalar maktabida oligofren bolalar o'quv ishlarini tashkil etish xususiyatlarini tahlil qiling.
4. Kuzatilgan darslar namunasida zaif eshituvchi bolalar maktabida oligofren bolalar o'quv ishlarini tashkil etish xususiyatlarini tahlil qiling.

Tayanch tushunchalar:

O'qish muddatining uzaytirilganligi - 9 yillik dastur bolalarni boshlang'ich bilimlar bilan qurollantiradi va mehnat tayyorgarligini beradi, kar oligofrenlarning ta'limi sekinlashishi dars jarayonida yaqqol ko'rinadi: o'qituvchining tushuntirish uchun ko'proq vaqt ketkaziladi, ko'p vaqtini o'quvchilarning tushunishiga ajratadi, masalalarni tushuntirish uchun ham ko'p vaqt ajratiladi.

Ta'limning korreksion yo'nalganligi- kar oligofrenlarning nuqsoni asosan ta'lim jarayonida, dars vaqtida korreksiyalanadi. O'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'quv materiali hajmi qisqartiriladi, shu bilan bola ta'lim jarayoniga moslashtirib boriladi. Matematik amallarni, tushunchalarni tushuntirish orqali bolalarning bilim faoliyati korreksiyalab boriladi.

Ta'limning yakkaligi va defferensialligi- bolalarning yakka xususiyatlarini hisobga olgan holda yakka yoki defferensial yondashiladi. Psixologlar bolalarni ikkita guruhga ajratadilar. Birinchi guruh oligofren. Karlar ta'lim olishga tayyorgarligi bilan ajratiladi. Bularda bir qancha bilim va ko'nikmalar bo'ladi. Ularning lug'at boyligi ancha shakllangan bo'lib, xulqi normadadir. Bu bolalarning mehnatga layoqati ancha past bo'ladi. Ular masala ustida bosh qotirmaydilar, mustaqil ishlay olmaydilar, o'qituvchi yordamiga muhtojdirlar.

IV BO'LIM. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALAR TARBIYASINING NAZARIY ASOSLARI

I BOB. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALAR TARBIYASINI TASHKIL ETILISHI

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktab-internatlarida tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishidagi o'ziga xoslik

Respublikamiz Hukumati eshitmaydigan bolalarning barcha sog'lom tengdoshlari qatori milliy istiqlol ruhida tarbiyalanishlari, aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyatdagi ijtimoiy hayotga mustaqil yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda.

Tarbiya bolalar tomonidan ajdodlar ijtimoiy tajribalarini o'zlashtirilishiga qaratilgan jarayon hisoblanib, uzoq va murakkab xususiyatga egadir. U o'zida ijtimoiy, pedagogik va psixologik bog'liqlik hamda tobeliklarni mujassamlashtiradi.

Eshitmaydigan bolalar ma'naviy va milliy qadriyatlarni psixik jarayonlarining o'zgacha rivojlanishi oqibatida egallay olmaydilar.

Shu sababli maxsus ravishda o'qitishni tashkil etishda aynan ushbu toifa bolalarining rivojlanishlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi talab etiladi.

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar shaxsiy rivojlanishlari mohiyatini tushunishda bolaning rivojlanishi muloqotda, faoliyatning turli shakl va ko'rinishlarida amalga oshishi omili hisobga olinadi (R. M. Boskis. 1960 y.)

O'zbekiston Respublikasining qator hujjat va qarorlarida ta'kidlanganidek, yangi shaxsni shakllantirish nafaqat muhim maqsad emas, balki yangi jamiyatni barpo etishning zaruriy shartidir.

Ushbu asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiya jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish lozimdir:

1. Tarbiyaning barcha tomonlarinig uyg'unligini ta'minlovchi yaxlit yondashishi;
2. Nutqni muloqot va tafakkur quroli sifatida shakllantirish zaminida bolalarga ilmiy bilimlar berish;
3. Siyosiy bilimlar hamda malakali kasblarni o'zlashtirish;

4. Normal eshituvchi, insonlar bilan birgalikdagi zamonaviy jamiyat hayotiy normalarini ishlab chiqish;

5. Karlik oqibatlarini yengish hamda faol hayotni nuqtayi nazarni ishlab chiqish.

Surdopedagogik fani va shuningdek, amaliyotning tasdiqlashicha, maxsus tashkil etilgan ta'lim yordamida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni normal eshituvchilar rivojlanishlari darajasiga yetkazish mumkin.

Maxsus o'qitishning ko'p yillik tajribasiga asosan shu hol aniqlandi-ki, ushbu toifa bolalarni nafaqat maxsus o'qitishga, balki mehnatning ma'lum shart-sharoitlarini yaratish tibbiy yordam, madaniy va maishiy xizmat hamda dam olishlarini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan Davlatning alohida g'amxo'rlikiga muhtojdir.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida tarbiyaning umumiy maqsadiga erishish uchun o'quvchilarning rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq ravishda qator o'ziga xos vazifalarni hal etish muammolari kelib chiqadi. Maxsus maktab tarbiya jarayoni kompensator-korreksion tavsiyaga egadir.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar rivojlanish xususiyatlari tarbiya tamoyillarini amalga oshirishda hisobga olinadi.

Maxsus tarbiya tamoyillari quyidagilardir:

1. Tarbiyaning bir maqsadga yo'naltirilganligi;
2. Tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi;
3. Tarbiyaga yaxlit yondashish;
4. Tafakkur va xulqning uyg'unligi;
5. Mehnat orqali tarbiyalash;
6. Shaxsni jamoada tarbiyalash;
7. Faollik va mustaqillikni rivojlantirish;
8. Yetarli darajadagi talabchanlik bilan uyg'un holda bola shaxsini hurmat qilish;
9. O'quvchilar yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
10. Pedagogik ta'sirning uzviy tizimlilik;
11. Maktab hamda oila talablarining uyg'unligi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar fikrlash va amaliy faoliyatlarini qayta ko'rish, shuningdek, barcha jismoniy hamda ma'naviy kuchlarini rivojlantirishning asosiy sharti so'zlashuv nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" joriy etayotgan ta'lim-tarbiya tizimining yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud bo'lib, uni to'liq yuzaga chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur turli qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi. Har bir inson qobiliyat va iste'dodini, avvalo, o'zi uchun, oilasi, millati, xalqi, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini tasavvur qilish ham oson emas.

Buyuk ajdodlarimiz asos solgan ilmiy-axloqiy maktabni zamonaviy shaklda qaytadan tiklash uchun ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish lozim. Aslida ta'lim-tarbiya sohasidagi islohatlarning chegarasi va poyoni yo'q. Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya ham zamon o'rtaga qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra muttasil o'zgarib boraveradi.

O'zbek pedagogikasining asoschilaridan A. Avloniy ta'kidlaganlaridek "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan jon ila tan kapidur". Tarbiya insonning asosiy fazilatlaridan biridir. U xalqning, jamiyatning, davlatning asosiy kuch-qudrati hisoblanadi. Tarbiya yo'q joyda hech qachon saodat bo'lmaydi. Tarbiya o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. U insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan singib boradi. Tarbiya inson ongida, qalbida, shuurida kamol topishi uchun aql ko'zi bilan vijdonan mehnat qilmoq kerak. Ma'lumki, uzoq tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi tarbiyaga oid boy madaniy merosga ega bo'lib, avlodlarda insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, birodarlik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. Sharq mutafakirlari Abu Nasr Farobiy, Az-Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, o'zbek pedagogikasi asoschilari A. Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, A. Fitrat va boshqalarning ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari, yaratgan noyob asarlari ilm-ma'rifatga intiluvchi xalqimizning boy ma'naviy merosi hisoblanadi. Ilm-ziyo salohiyati, bu – xalqning, Vatanning ulkan boyligi, kelajak poydevoridir. Uni rivojlantirishda, yetuk insonlarni tarbiyalashda

maktab, oila va keng jamoatchilikning hamjihatligi muhim ahamiyatga ega. Oldimizda mustaqil buyuk davlat qurishdek murakkab va sharaflı vazifa turgan bir paytda bu hamjihatlikning qadr-qiymati yanada ortib bormoqda. Shu boisdan ham hozirgi kunda xalqimiz, farzandlarimiz iqbolini o'ylab, qattiq bel bog'lab mehnat qilayotgan ma'suliyatli bir davr mazkur tushunchalarga yanada teran ma'no bag'ishlamoqda.

Barkamol inson, uning mehnati va turmushi, ma'naviy taraqqiyoti haqida g'amxo'rlik davlatimizning ustuvor masalalaridan biridir. Ayniqsa, yordamga muxtoj, ruhan va jismonan zaif bo'lgan shaxslarning turmush tarzi, ularga maxsus ta'lim-tarbiya berish, kasbga yo'naltirish va ish bilan ta'minlash masalalariga hukumatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilgan.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularga boy ma'naviyatimiz sarchashmalaridan bahramand bo'lishga imkoniyat yaratish, shu asosda eshitishida muammosi bo'lgan bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish, to'g'ri berilgan tarbiya orqali mavjud nuqsonning salbiy oqibatlarini yengillashtirib, xalq, Vatan, jamiyat uchun kerakli inson sifatida tarbiyalash har bir surdopedagog va tarbiyachining muqaddas burchidir.

Tarbiya nazariyasi – tarbiyaning mazmuni, uning bolalar yoshiga bog'liqligi, tarbiya tamoyillari hamda ulardan samarali foydalanish shart-sharoitlari, o'quvchilarning maktabdan tashqari ishlari, maktab, oila, mehnat jamoalari, jamoatchilik bola tarbiyasidagi birgalikdagi ishlari mazmunini ochib beradi. Tarbiya nazariyasi va metodlari maktablardagi tarbiyaviy faoliyatning ilmiy asosini tashkil etadi.

Yetuk shaxs tarbiyalash tarbiyaning yagona maqsadidir. Shaxs tarbiyasida atroflicha yondashish obyektiv ravishda aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiya birligini, tarbiya jarayonida tashkil etishning yakka, guruhli va ommaviy shakllarini qo'shib olib borishni ta'minlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirishni ham bu tizimlarning amal qilinishini talab etadi. Tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy qadrlı fazilatlarini shakllantirishga, uning atrofga, odamlarga, o'ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirish va kengaytirishga qaratilgan.

Tarbiya tamoyillari. Surdopedagogikada tarkib topgan va milliy asoslangan tarbiya tamoyillari tizimi tarbiyaning hayot bilan bog'liqligini, shaxsiy, jamoada va jamoa orqali tarbiyalashni,

tarbiyaviy ta'sirning izchilligini va davomiyligini, tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchanlik bilan hurmatning birligini, tarbiyaning bolalarning yosh va yakka xususiyatlarga mosligini, ta'lim va tarbiyaning bog'liqligini, tarbiyaga atroflicha yondashishi tamoyillarini o'z ichiga oladi. Tarbiyaviy ta'sirning tizimliliigi, uzluksizligi, hayot bilan, amaliyot bilan bog'liqlik tamoyillari tarbiyaviy tadbirlarning samarador bo'lishida zaruriy omillardandir.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun maktablar ko'pincha maktab-internatlar bo'lib hisoblanadi. Bu o'ziga xos kar yoki zaif eshituvchi bola faqat darslarga qatnashib, uning tarbiyasi uchun zarur bilim va mahoratga ega bo'lmagan oila sharoitida ko'pincha erishish imkoniyati bo'lmagan, o'quvchiga uzluksiz va uzoq muddatli maxsus korreksion tarbiyaviy ta'sir, o'qiyotgan, tarbiyalanayotganlar harakatlarining qat'iy birligini, tarbiyaga kompleks yondashishni talab etuvchi – eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalash jarayoni demakdir. Maktab-internat eshitishida muammosi bo'lgan bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib, bu bilan oilaga, ishlovchi ayol-onaga yordam ko'rsatib, amalda kechayu-kunduz korreksion-tarbiyaviy ta'sirni ta'minlaydi; maktab-internatdan ancha uzoq tumanlarda yashovchi ot-onalar uchun bolalarni o'qitish imkoniyatini yaratadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasi tamoyillarini quyidagilarga ajratish mumkin.

1. Eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni aqliy, jismoniy, ma'naviy, estetik tarbiyasi, bilim olish, jamoat va mehnat faolligini, shaxsning ijobiy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha maktabning ishini davom ettirish va kengaytirish bilan har tomonlama rivojlantirish;

2. Siyosiy yetuklik, fuqarolik, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash;

3. Mehnatga ijobiy munosabat va o'z mehnati bilan jamiyatga foyda keltirish ehtiyojini tarbiyalash;

4. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning ijobiy va ma'naviy sifatlarga ega shaxsni shakllantirish, huquqni o'rgatish, intizom, xislat va o'zini tutish madaniyatini, sinf, maktab, oila, jamiyatning me'yor va qoidalari buzilishiga yo'l qo'ymaslikni tarbiyalash;

5. Og'zaki nutqdan foydalanish imkoniyatini tug'diruvchi sharoitlar va gaplashish muhitini yaratish yordamida qolgan tovushlardan foydalangan holda so'zlashuvni rivojlantirish;

6. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni jamoada yashash va ishlashga tayyorlash, bilishni tarbiyalash, o'zaro muomala, ijtimoiy muloqotni kengaytirishga intilishni rivojlantirish, oila tashkilotlari bilan hamkorlikda eshitmaydigan o'quvchilarning jamoaga ijtimoiy moslashishi ustida ish olib borish.

Tarbiyaviy vazifalar ma'lum shartlarga rioya etilgandagina samarali hal etiladi. Bu, avvalo, rivojlanayotgan shaxsni shakllantirishning yagona mexanizmi sifatida turli faoliyat turlari, o'yin va muloqotlardan foydalanishni ko'zda tutuvchi internatda tarbiyaga kompleks yondashuvdir.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchi shaxsini shakllantirish, jamoada uni tarbiyalash og'zaki nutqdan foydalanish evaziga, avvalo, kommunikativ-moslashuv yo'nalishini ko'zda tutadi. Bunda qo'l harakati, daktilalogiyadan yordamchi muloqot vositasi sifatida foydalanish inkoniyati yo'q emas.

Internatda tarbiya jarayoni ustidan pedagogik boshqaruv-rahbarlik bola shaxsini hurmat qilish, nuqson va uning oqibatlariga ortiqcha e'tibor bermay, imkon qadar talab qilishga asoslangan tarbiyalanuvchilarda mustaqillik va tashabbuskorlikni doimo o'stirishni ko'zda tutadi.

Tarbiya ishi samarasi tarbiyachi tomonidan har bir o'quvchining ishi, yakka xususiyatlarini inobatga olishga bog'liq. Tarbiyachi uchun asosiysi, tashqi istakni emas, balki til va so'zlashuv birligidagi ijtimoiy, ma'naviy tajribani egallash bilan shakllangan tarbiyalanuvchilarning ichki va ma'naviy asoslari, istaklari jo bo'lgan tarbiyaviy natijaga erishmoqqa intilish hisoblanadi.

Shunga ko'ra, endilikda biz eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiya nazariyasini chuqur o'rganib, mavzuni bakalavr defektolog talabalarga berishda buyuk pedagoglar ta'limoti, ilmiy salohiyati, milliy urf-odatlarimiz, ajdodlarimizdan qolgan boy madaniy meros bilan bir qatorda, hozirgi zamon talablarini inobatga olish lozim.

Aqliy tarbiya. Shaxsning aqliy tarbiyalanganligi tuzulmasiga quyidagilar kiradi: aqliy rivojlanish (bilim, ko'nikma, bilish, ijodiy faoliyatga tayyorligi, tashkilotchilik) intellektual faoliyatning ijtimoiy mohiyati, shaxsiy tomonlari, aqliy faoliyatning jadallashuvi (bilishga intilish, mustaqillik va boshqalar).

Obyektiv harakatlardan iborat bo'lgan va turli usullar bilan bajariladigan faoliyat - aqliy faoliyat deb yuritiladi. Aqliy faoliyat,

odatda, qoidalar va yo'riqnoma xarakteriga ega bo'lgan harakatlardan tashkil topadi. Aqliy faoliyat turlariga fikr yurituvchi harakatlar, jumladan, analiz, sintez, abstrakt, umumiylik, konkret, taqqoslash, tavsiflash, tizimlilik, tushunchani aniqlash, mantiqiy qaramlikni aniqlash kabilar kiradi.

Eslab qolish usullari esa ma'nosini tushunish, guruhlash, eslab qoluvchi obyektlarning tavsifi, suyanch punktlarni ajratish, ma'nosi, mantiqiy sxema va rejani tuzish, texnikadan foydalanishdan iborat.

Tasavvur etishga tasvirlab berilgan matn obrazlarini tasavvur etish, tasvirlab berish yo'li bilan obrazni tasavvur etish, rasmlar, chizmalar va shaxsiy o'ylab topilgan obrazlarni tasvirlashdan iboratdir. Bu borada konsentratsiya bo'lib berish, diqqatni ko'chirish usullaridan ham foydalaniladi¹.

O'quv jarayonida umumiy va xususiy usullardan foydalaniladi. Qator maktablar faoliyati bilan tanishilganda o'quv jarayonida qay yo'sinda ish olib borilayotganligini kuzatishimiz mumkin. Matn mazmunini sarlavhasiga qarab aniqlash, ma'lum mavzuga oid materiallarni tanlay bilish shular jumlasiga kiradi. Bundan tashqari o'quv matnidan foydalanish yo'llari ham mavjud. Suratga qarab og'zaki reja tuzish, ma'lum narsalar xarakteriga mos materiallar topish, topshiriqqa bog'liq bo'lgan matndagi bo'laklarni to'la bilish, obyektlarni topa bilish shular jumlasiga kiradi.

Til o'rganish jarayonida maxsus o'quv usullaridan foydalaniladi. Masalan, bir qator murakkab va oddiy so'zlardan gap tuzish.

Matematika darslarida masala tuzish, og'zaki qo'shish, ayirish bilimlari shakllantiriladi. Bolalar oldiga qo'yilgan masalani yechish, ilgari olgan bilimlaridan yangi materiallarni qabul qilishda foydalanish, o'z harakatlarini tushuntira bilish, ma'lum vazifalar bajarishdagi mustaqillik darajasi va bu vazifaning to'liq bajarilganligi – bularning barchasi shakllangan ko'nikmalar natijasi bo'lib hisoblanadi.

Olgan bilimlarini o'quv jarayoni davomida ko'rsata bilish, o'qish ko'nikmalari rivojlanishi aqliy faoliyatni to'g'ri yo'naltira olishni bilishdir. Bilim darajasini boyitish, uning sifatini oshirish, o'quv

¹ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

jarayoni bilan o'quvchilar o'rtasidagi aloqani chuqurlashtirish ongli bilimni boyitadi. O'quvchilarni o'quv faoliyatining turli tomonlari bo'yicha faolligini oshirish – ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi. L.I.Botovich, A.K.Markova, M.V.Matovina, T.M.Yakobson kabi psixologlarning tajribalari shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayoni ma'lum motivda olib borilishi kerak. Masalan, iqtisodiy motiv. Bunga mutaxassis bo'lish javobgarligini sezish kiradi. Bilim olish motiviga – o'z-o'zini boshqara bilish, bilim olish jarayonida sabr-toqatlilik kiradi. Bu borada majbur qilish salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, o'rgatish va sotsial ko'nikmalar kar va zaif eshituvchi bolalarda sekinlik bilan kechadi. Barcha natijalar pedagogning olib borgan o'quv-tarbiyaviy ishlarining korreksion xarakterga ega faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning aqliy tarbiyasida mazmundorlikni shakllantirish kerak. Bunga o'qitishning mazmuni, harakatchanlik, mustaqillik, tushunib yetish darajalarini oshirish, dinamik xarakterli usullar kiradi. Bunga tirishqoqlik, modellik, kuch, aniqlik, tezlik kiradi.

Tarbiyaning barcha yo'nalishlari kar va zaif eshituvchi bolalar qiziqishi torligini yengga olishga qaratilgan. Situativdan epizodik qiziqishlarga o'tishni ta'minlashdan iborat. Rivojlanish va shakllanishning eng muhim jihatlaridan biri o'quv faoliyatidir. Bilim olishda tushunib yetish qiziqitirishga, buning asosida o'quvchilar o'qishi yengil, tez va natijaga erishishdan iboratdir.

Maxsus tekshirishlar (N.G.Morozov, M.I.Shif) shuni ko'rsatdiki, kar va zaif eshituvchi bolalar rivojlanishida qiziqitirish muhim rol o'ynaydi. Bu borada nutqni egallash, fanlar asosini o'rganish bola faolligini oshirish, o'qishdan maqsadni tushunib yetishi muhim rol o'ynaydi. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, kar bolalar ko'proq amaliy ishlarga, mehnat, sport o'yinlariga qiziqadilar. Ularda o'qishga qiziqish past, shu bilan birga, fan asoslariga ham beparvo bo'ladilar.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi turlichadir. Ko'proq bu ularning rivojlanishi, nutq boyligiga qarab turli sinfda turlicha bo'ladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar nutq qanchalik kerakligini o'z tengdoshlaridan ancha ilgari, ertaroq tushunib yetadilar. Agar rivoji uchun kerakli shart-sharoitlar

yaratib berilsa, kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqni egallash uchun qiziqish tezlikda shakllanadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida olib borilgan amaliyot ishlaridan ma'lum bo'ldiki, til o'rganishga bo'lgan haqiqiy qiziqish ko'proq, yuqori sinf o'quvchilarida kuzatiladi. Agar o'rta sinf o'quvchilarini ular gapirishlarigina qiziqitirsa, yuqori sinf o'quvchilarini nafaqat gapirish jarayoni, balki o'rganilayotgan til mazmuni ham qiziqitiradi. Og'zaki nutq fikr va bilim omili hisoblanadi.

Surdopedagoglar kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda qiziqishni ta'minlash shart-sharoitlarini aniqlaganlar (N.G.Morozova). Bularga bilim va ko'nikmalar borasida qiziqishni oshira borish; pedagog va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatni keltirib chiqarish; bajarayotgan faoliyatni; sotsial va shaxsiy ma'noda tushunib yetishga harakat qilish: mustaqil amaliy faoliyatga shart-sharoit yaratib berish kabilar kiradi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda qiziqish maktabgacha bo'lgan davrda paydo bo'lib, o'quv jarayoni paytida o'zgarib boradi. O'qish mazmuni ham rivojlana boradi. O'quvchilardagi shunchaki boshlangan fikr keyinchalik ijobiy fikrlarga o'ta boradi. Keyinchalik esa o'quvchilarning maqsadli faoliyatlari kelgusidagi rejalarga olib boradi.

O'rgatishga bo'lgan qiziqish asosida intellektual motivlar muhim rol o'ynaydi. Bular o'quvchilarning dunyoqarashini, o'z fikrida qat'iyatligini, o'z burchi va vazifalarini tushunib yetishni o'rgatadi. O'quv jarayoni vaqtida yuqoridagi barcha xususiyatlar bevosita jiplashadi. O'quvchilarda o'qishga bo'lgan ijobiy xususiyatlarni tarbiyalash, albatta, surdopedagog rahbarligi ostida bo'ladi. Uning barcha harakatlari yo'naltirish ishlaridan iboratdir. O'quvchilarni bilimlar bilan qurollantirib, bilim va saviya ko'nikmalarini shakllantirib, mustaqil bo'lishni tarbiyalab, surdopedagog har tomonlama rivojlanishlari uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

O'rgatish faoliyatining yo'nalishi va qiziqishiga qarab bolalarda mustaqillik va faollik kabi shaxsiy sifatlarni tarbiyalaydi. O'qish jarayoni va mazmuniga qarab o'quvchi o'z faolligini ko'rsatadi. O'qish-o'rganish maqsadida bor imkoniyatlarini ishga soladi.

Mustaqil o'rganish shaxsga xosdir. O'zgaralar yordamisiz tirishqoqlik bilan bilim olish masalalarini hal etish, o'zini o'rab turgan borliqni o'rganish va kelgusida chuqurroq bilim olish, shaxsiy o'qish va bilim faoliyatini boshqara bilishni shakllantirish, boshqacha aytganda, o'z-o'zini nazorat qilish deyiladi.

Mustaqil o'rganish doimo o'z-o'zini tanqid qilish bilan bog'liqdir. Ish jarayonida fikr-mulohazani baholay bilish, taxminlarni tekshirish jarayoni kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda deyarli yo'qligi kuzatildi. O'z-o'zini tanqid bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ham bo'lishi kerak. O'quvchilarga bilim berish jarayonida ularda shunday ko'nikmalar hosil qilish kerakki, har qanday masala turli yo'llar bilan hal etilishni ular tushunsinlar. O'z faoliyatini adekvat baholay olishga, faoliyati yakuniga o'z xatolarini sezib tushuna bilishga, tushunib yetishni o'zi boshqarishga o'rgatish kerak. Aqliy faoliyatni o'zlashtirish shaxs intellektini tarbiyalash, o'quvchilarning aqliy mehnati asosini tashkil etadi. Bular turli axborot bilan ishlashga, turli tashkiliy ishlar, jumladan, ta'lim berish masalalarini qo'yish, ularni ratsional bajarish, ish hajmi va manbaalaridan unumli foydalanishdan iboratdir.

Aqliy mehnat madaniyati tozalikka rioya qilishdan, mashg'ulotlarning tizimligidan, aqliy ishning xilma-xil turlari va shakllarini almashtirib turishdan, aqliy va jismoniy mehnatni almashtirib turli, chalg'ituvchi narsalardan chetlashtirish, ma'lum hafta, kun va vaqtda ishlarni to'g'ri tashkillashtirish, ish paytida tozalikka rioya qilish, ish stolida o'zini to'g'ri tuta bilishdan iborat.

Axloqiy tarbiya – o'quvchilarda axloqiy xulq-atvorni to'g'ri yo'naltirish va tizimli shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon tarbiyachi va tarbiyalanuvchining ma'naviy muloqotida yuzaga keladi. Sh.Amonashvili va I.Ivanova kabi tashabbuskor pedagoglarning fikricha, shaxs shakllanishi uchun sharoit yaratib beriladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktabda mustaqil mehnat hayotiga kirishishi uchun tayyorgarlik ko'radilar. Ularning jamiyatga ijtimoiy moslashishi ko'p jihatdan axloqiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Ba'zi olimlar eshitish nuqsonining ideologik tushunchasiga tayanib, kar va zaif eshituvchilarning axloqiy rivojlanishi imkoniyatlarini inkor etishgan, ularni to'liqsiz deb qabul qilishgan. Kar va zaif eshituvchilardagi jahldorlik, qo'rqqoqlikni mazkur pedagoglar ulardagi tug'ma sifat deb hisoblaydilar. Ushbu fikrlarga

V.I.Fleri, G.A.Gursoy, N.M.Lagovskiy kabi surdopedagoglar qarshi chiqqanlar. V.I. Fleri ba'zi bir kar va zaif eshituvchi bolalarda axloqiy rivojlanishida nuqsonlar mavjud, lekin ular ta'lim va tarbiya yetarli darajada bo'lmagligini natijasida yuzaga keladi, deb hisoblangan. F.I.Fleri shunday deb yozgan edi: "Axloqiy sifatlar nuqtayi nazardan kar va zaif eshituvchi odam boshqa odamlardan yaxshi ham, yomon ham emas." Axloqiy tarbiyaning asosiy omili faoliyat hisoblanadi (mehnat, o'yin, o'quv – jamoat) va har qanday faoliyat turida yuzaga keladi.

Eshitishida nuqson bo'lgan bolalarning axloqiy tarbiyasiga oila, jamiyat muhim ta'sir qiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning axloqiy tarbiyasida maktab asosiy o'rin egallaydi.

Axloqiy tarbiya

Axloqiy tarbiyaning maznuni va vazifalari eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning maktab-internati bolalar axloqiy odatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bir necha vazifalarni hal qiladi.

Axloqiy odatlarning ba'zi birlarini eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim muassasasiga joylashgunga qadar o'zlashtirib olgan bo'ladilar. Bular asosan gigiyenik malakalardir. Xulq-atvor madaniyati, yashash malakasi madaniyati, jamoada ishlash kabi ko'pgina axloqiy odatlar to'liq shakllanmagan bo'ladi. Surdopedagogning vazifasi axloqiy odatlarni aniqlash va ularning ko'lamini kengaytirishdan iborat. Maktabda mehnat va dam olishni ko'rib chiquvchi yagona kun tartibini o'rnatish muhim shartlardan biri hisoblanadi. Maktab-internatda o'quvchilarning faoliyati turlichadir: sinfdagi navbatchilik, sanitar majburiyati, maktab uchastkasidagi ish, bayramlarga tayyorgarlik ko'rish, kun tartibini nazorat qilish, ichki tartib-intizomga bo'ysunish va boshqarish, o'rtoqlarining harakatlarini tekshirish va rejalashtirish malakasini o'zlashtiradilar. Har kuni turli faoliyatlarda ishtirok etish, axloqiy odatlarning shakllanishini ta'minlaydi. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish gigiyenik va mehnat malakalarini takomillashtiradi. Hamkorlikdagi mehnat faoliyati murakkab axloqiy odatlar: jamoada o'zini tutish, jamoa munosabatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Axloqiy odatlarni shakllantirish pedagogik yordam va har kungi mashg'ulotlarni talab etuvchi uzoq davom etuvchi jarayondir. Kar va zaif eshituvchilarda rivojlanganlik sharoitida har bir yangi harakat nomlanishi talab qilinadi.

Ayni paytda axloqiy odatlarning ko'lamini kengayadi, nutq rivojlanadi (lug'at boyiydi, muloqot uchun sharoit yaratiladi) so'z talab etilayotgan harakatni chuqurroq anglash imkoniyatini beradi, "yaxshi", "yomon" kabi boshlang'ich axloqiy tushunchalarni shakllantiradi.

Axloqiy xulq-atvorni tarbiyalash o'quvchilardan faollikni talab qiluvchi jarayondir. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarda faollik past, mustaqillik to'liqsiz. Ularning faolligi va mustaqilligini rivojlantirish uchun pedagogning yordami talab etiladi. Bunga esa o'quvchilarga turli topshiriqlar berish orqali erishiladi. Tarbiyachining bolalarga qiladigan e'tibori juda katta ahamiyatga ega.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga qiyinchilikni taklif qilib, uni qanday bartaraf etishni aytishdan iborat. Irodani tarbiyalash axloqiy xulq-atvorni tarbiyalashning asosiy qismi hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kar va zaif eshiruvchi bolalar har doim ham o'zini talabga muvofiq tutmaydilar, talablarni buzadilar. Bundan tushuntirish ishlarini olib borish, mos keluvchi holatni qo'llash kabi vazifalar kelib chiqadi.

O'quvchilarning axloqiy hissiyotlarini tarbiyalash – axloqiy tarbiyaning muhim vazifasidir. Kar va zaif eshiruvchilar maktabga kirgunga qadar axloqiy hissiyotlari to'liq rivojlanmagan bo'ladi. Turli faoliyat jarayonida kar va zaif eshituvchilarning hissiy-emotsional malakasi ortib boradi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarda o'z nuqsonidan ma'naviy azoblanish mavjud. Nuqsonni tushunish bo'yicha surdopedagogning maxsus ishi o'quvchilarga o'z kelajagini baholash imkoniyatini beradi.

Axloqiy xulq-atvorni shakllantirish va axloqiy hisslarni tarbiyalash o'zaro bir-biri bilan bog'langan va bir paytda sodir bo'ladi. Uchinchi vazifa, bolalarning nutqiy rivojlanishi darajasi bilan uzviy bog'langan axloqiy ongini shakllantirish hisoblanadi. Nutqni o'zlashtirishda o'qituvchi o'quvchilarni bolalarning amaliy faoliyatida mustahkamlanadigan axloqiy tushunchalar bilan tanishtiradi.

O'qitishda eshitishida muammosi bo'lgan bolalar dastlab "yaxshi", "uyat", "chiroyli", "xunuk" kabi sodda tushunchalarni o'zlashtiradilar. Nutqni rivojlantirish bilan bir paytda o'quvchilar "muloyimlik", "mehnatsevarlik", "do'stlik" kabi axloqiy

tushunchalarni o'rganadilar. Keyinroq "insof", "burch", "javobgarlik", "vatanparvarlik" kabi tushunchalarni o'zlashtiradilar. Boshqa tushunchalar o'qish va badiiy adabiyotlarni tahlil qilish darslarida shakllanadi. Badiiy asar qahramonini tahlil qilishda insonning qilmishlari shaxs sifatini, ma'naviy tushunchalarni tushunish imkonini beradi.

Huquqiy tarbiya

Huquqiy tarbiya o'quvchilarda axloqiy tarbiyaning asosiy qismini tashkil etadi. Maktab-internat oldida eshitishida muammosi bo'lgan bolalar huquqiy tarbiyasida quyidagi vazifalar turadi:

- maktabda, jamoada o'zini tutish qoida, qonunlarini tushuntirish;

- tartibni saqlovchi tashkilot va shaxslar rolini tushuntirish;

- qonun va qoidalarni bajarishga ongli munosabatini mustahkamlash;

- faol jamoatchilikni shakllantirish;

- qonun muhofazasiga doir ba'zi malakalarni o'zlashtirish.

Qonun kar va zaif eshituvchilarning huquqiy madaniyatini tarbiyalash maktab-internat hayotidagi axloqiy me'yorlarni bajarish bilan boshlanadi. Metodlar, o'yinlar, tushuntirish ishlari keng qo'llaniladi.

Kichik maktab yoshida o'yin shakllaridan foydalaniladi. O'quvchilarning nutqini rivojlantirish bo'yicha so'zli metodlar (suhbat, hikoya)dan foydalaniladi. Huquqiy bilim elementlarini o'quvchilar o'qish, tevarak-atrof bilan tanishish darslarida egallaydilar. O'quvchilar Konstitutsiya, inson huquq va burchlari haqidagi matnlarni o'qishadi, kattalar va bolalarning turli ishlari bilan tanishadilar, ularni baholashni o'rganadilar.

Qonun va qoidalar mazmuni bilan tanishish, ularni maktab-internat hayotida qo'llanilishini ta'minlaydi.

V-VIII sinflarda o'quvchilar o'zlarining bilimlarini o'qish, adabiyot, tarix darslarida kengaytiradilar.

O'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi metodlar orasida suhbatlar, tushuntirishlar, ma'ruzalar keng qo'llaniladi. Tarbiyaviy ishning shakllari turli-tumandir: milisiya xodimlari bilan suhbat, ko'rgan filmlarni tahlil qilish, tematik kechalar o'tkazish va h.k. Huquqiy bilimlar karlar maktabi yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida tartib-intizom o'rnatish orqali

mustahkamlanadi. Maktab va internat bo'yicha navbatchilik qilish, yong'in xavfsizligini nazorat qilish va boshqalardan shu maqsadda foydalaniladi.

Shunday qilib, o'quvchilarning huquqiy madaniyati bosqichma-bosqich olib boriladi:

1-bosqich – davlatimiz qonunlari haqidagi elementar tasavvurlarni shakllantirish;

2-bosqich – qonun va qoidalar ijrosiga ongli munosabatni mustahkamlash, o'z ishlariga shaxsiy javobgarlikni shakllantirish;

3-bosqich – fuqarolarning huquq va burchlari, qonunga munosabati haqidagi umumiy tasavvurlarni shakllantirish.

Har bir bosqich alohida yosh uchun mo'ljallangan. Huquqiy tarbiyaning barcha metodlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: so'zli va amaliy faoliyatli.

So'zli metodlarga – suhbat, tushuntirish, ma'ruza; *amaliy faoliyatga* esa o'yin, pedagogik talablar kiradi.

Huquqiy tarbiya shakllari turlichadir: darslar, to'garaklar, o'quv konferensiyalari, mehnat qahramonlari bilan uchrashuv, huquqiy bilim klublarini tashkil etish, savol-javob kechalarini o'tkazish, moddalarni o'qish, teleko'rsatuvlar ko'rish.

Ekologik tarbiya

Insonning tabiatga bo'lgan munosabati uning axloqiyligining ko'rsatkichidir. Tabiat – boylik xazinasi, insonning ma'naviy va jismoniy yangilanishining manbayi, nafasatli rivojlanishi vositasidir.

Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi tabiatga va tabiiy boyliklarga nisbatan ehtiyotkorlik va javobgarlik munosabatini shakllantirishdir. Bunga bog'liq eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktabi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan. O'quvchilarga ilmiy-ekologik bilimlar berish; ekologik madaniyatni tarbiyalash, ekologik bilimlarni tashviqot qilish.

Ekologik bilimlarga quyi va o'rta sinflarda katta e'tibor beriladi. Atrof-olam bilan tanishish, tabiatshunoslik, nutq o'stirish, o'qish darslarida o'quvchilar Respublikamizning tabiat boyliklari, hayvonot va o'simliklar olamining hayoti, inson va tabiat munosabati haqida bilim oladi. Bu bilimlar "inson – atrof muhit" tizimining komponentlarini tushunishga va o'quvchilarni tabiatni

muhofaza qilish bo'yicha ijtimoiy foydali faoliyatni olib borish zarurligini tushunishga tayyorlaydi.

Yuqori sinf dasturlarida ekologik muammolar umumiy tarzda beriladi. Turli o'quv fanlarida "Inson-jamiyat-tabiat" tizimining alohida tomonlari yoritiladi. Masalan, biologiya darslarida biosferadagi hayotni tashkil etishning ekologik asoslari ko'rib chiqiladi. Mehnat ta'limi fizika, ximiya, zamonaviy sanoat ishlab chiqarishning ekologik muammolariga qaratadi.

O'quvchilarga global ekologik muammolar (yerni radiofaol zararlantirishdan saqlash, tabiiy boyliklarni tejash haqidagina emas, balki bolalar yashayotgan va o'qiyotgan joy uchun dolzarb bo'lgan muammolar (suv havzalarni sanoat chiqindilari bilan ifloslanishidan saqlash, zararkunandalarga qarshi kurashish) haqida ma'lumot beriladi.

O'quvchilarda tabiatga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish o'lkashunoslik ishlari yordamida shakllantiriladi (ekskursiyalar, ona tabiat haqida materiallar yig'ish). Maxsus maktablarda yosh naturalistlar to'garaklari tashkil etiladi.

Jinsiy tarbiya

O'g'il bolalar va qizlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni shakllantirish – axloqiy muammo. Shuning uchun jinsiy tarbiya axloqiy tarbiyaning asosiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Turli yosh bosqichlarida turli vazifalar hal qilinadi. Kichik maktab yoshidagi eshitishida nuqson bo'lgan bolalarning jismoniy rivojlanishi uchun to'la sharoitni yaratib berish kerak. Oila-maktab-internat sharoitida bolalarda sog'liqni saqlash va ish qobiliyatini ushlab turishi uchun gigiyenik malakalar ishlab chiqiladi. "Boshlang'ich maktabda gigiyenik ta'lim va tarbiya" tavsiyalarida o'quvchilar ta'lim va sinfdan tashqari faoliyat jarayonida egallashi kerak bo'lgan gigiyenik va tibbiy bilimlar xarakteristikasi berilgan.

Jismoniy tarbiya

Jismoniy tarbiya organizmni jismoniy jihatdan sog'lomlashtirishga, o'quvchilarni jismoniy xususiyatlarini rivojlantirishga, aqliy va jismoniy mehnatga tayyorgarligini ta'minlashga yo'naltirilgan tizimlilik jarayondir. Insonning istalgan faoliyati jarayonida u ko'ruv, eshituv teri-daktil analizatorlari bilan birgalikda ish yuritadi. Inson organizmi bir butun tizim bo'lib, faoliyat jarayonida analizatorlardan birining shikastlanishi boshqa faoliyat

turlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Eshitishning buzilishi nafaqat nutqiy va ruhiy xususiyatlarning rivojlanmasligiga olib keladi, balki inson harakatidagi o'zgarishlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Motor analizatorining reseptorlik vazifasi inson organizmining barcha asab faoliyatini boshqaradi. Shuning uchun eshitishida muammosi bo'lgan bolalarda vegetativ tizimning qat'iyatsizligi, ya'ni ularning yurish-turishida qo'zg'aluvchilik, impulsivligi, toliqish, emotsional doirada qat'iyatsizlik paydo bo'ladigan o'zgarishlar kuzatiladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarda harakat analizatorlar funksional holatining pasayishi yurak-nafas olish tizimining zaiflashuviga olib keladi, o'quvchilarda yurak qisqarishi tezlashadi va nafas olishi sekinlashadi, jismoniy zo'riqishda organizmda fiziologik reaksiyalarning oshishi kuzatiladi. Surdopedagog olimlarning kuzatishlari shuni ko'rsatdiki, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning jismoniy rivojlanishi eshituvchi tengdoshlarinikidan deyarli farq qilmaydi ¹(bo'yi, og'irligi, ko'krak qafasining aylanasi). Eshitishida nuqson bo'lgan bolalar rivojlanishi jismoniy xususiyati juda past darajada bo'ladi. Eshitishning buzilishidan, asosan, aniqlik, muvozanat va harakat koordinatsiyasi, quvvat-tezlik xususiyatlari azob chekadi. Ularning rivojlanishi bir xil emas. Quvvat tezlik xususiyatlari me'yordan bilinmas holda farq qiladi (5-10% orqada qoladi). Kar va zaif eshituvchi bolalarda harakat koordinatsiyasi va aniqligi me'yoridan ortiq darajada orqada qoladi (15-20%²ga). Muvozanat vazifasi murakkab bo'lib, unda bir qancha analizatorlar katnashadi (ko'ruv, harakat va taktik). Eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarning ko'pchiligida muvozanatni saqlashni ta'minlovchi vestibulyar apparat faoliyatida buzilish kuzatiladi. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda muvozanatning rivojlanishi darajasi me'yordan 3-5 marta orqada qoladi. Harakatlarning pasayishida asosiy sabablardan biri bajarilayotgan harakatlar haqida so'zli inshaktsiyalarning chegaralanganligi hisoblanadi. Bola bilan istalgan harakatni bajarish funksiyasi tashkillashtiriladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni eshituv analizatori tomonidan tekshirish mutlaqo bo'lmagan yoki juda zaif. Kinestetik hissiyot

¹ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

harakatni tekshirishni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, lekin o'zi eshitishning pasayishidan jabrlanadi. Bu esa, eshitishida nuqson bo'lgan bolalarning harakatini bajarish jarayonida ortiqcha shovqin kelib chiqishiga, harakatlarning sekinlashishi va sur'atsizligiga olib keladi. Bu yurish-turishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bolalar qadamlarini keng tashlashda qadamlarning assimetriyasi kuzatiladi, korpusning qimirlashi ajratilgan yetishmovchiliklardan ko'pchiligi yugurishda ham kuzatiladi, oyoqlar ortiqcha harakat qiladi, tana oldinga egilgan bo'ladi. Yugurish "yiqilayotgan" tusda bo'ladi. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda yugurganida qo'llarining harakati beo'xshov bo'ladi – ular egilmaydilar. Eshitishida nuqson bo'lgan bolalarning rivojlanishi xususiyatlari tarbiyalanuvchiga mos yakka yondashishga yordam beradi va karlik o'rnini to'ldirish, salbiy ta'sirini bartaraf qilish uchun shart-sharoit yaratib beradi.

Estetik tarbiya

Estetik tarbiya maqsadga yo'naltirilgan, o'quvchilar nafasot tuyg'usini rivojlantirishda doimiy ta'sir ko'rsata oladigan, tabiat go'zalligini tushuna oladigan, san'at, jamiyat, badiiy qarash va badiiy ijod qobiliyatini rivojlantirish jarayonini o'z ichiga olgan tarbiyadir. Maktab-internatlarda o'quvchilarga estetik tarbiya berilganda, estetik tarbiyaning ilmiy pog'onalari va uning o'ziga xoslik tomonlariga qarab ish olib boriladi. Estetik tabiatni to'la anglab yetishga intilish, inson va uning qo'li bilan dunyoga kelgan ishlarni anglash, xatti-harakat va o'ylagan narsaning ijobat bo'lishi, tashqi ko'rinishidan sirli, biroq tiriklik bilan bevosita bog'liqdir. Bu xulosadan estetik tarbiyaning asosiy tamoyili, ya'ni emotsionallik, fikrlash, vaqtni baholay olish va insonning faoliyati degan fikr kelib chiqadi. Estetik qabul qilishni ilmiy tarzda bolalarning dunyo go'zalliklarini psixologik-pedagogik sharoitda qabul qilishi deyish mumkin. San'atni qabul qilish jarayonida, birinchi navbatda, inson hissiyoti, uning tasavvuri va esda tutish qobiliyati, fikr yuritish va nutq muhim ahamiyatga ega. Psixologlar eshitishida muammosi bo'lgan bolalarda eng asosiy diqqat-e'tiborni ko'rayotgan narsaning syujeti-mazmunini qabul qilishning asosi deb oladilar. San'at asarining tasviriy shakli emotsional holat va ong bilan qabul qilinishi kerak. O'quvchilarni san'at asarlarni qabul qilishga, tahlil qilib, fikrlashga o'rgatish lozim. Nutq o'stirish ustida ishlash,

eshitishida muammosi bo'lgan bolalarda estetik yo'nalishda ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni mehnat tarbiyasi

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning mehnat tarbiyasi juda murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, bolalarni turli mehnat faoliyatiga jalb qilish ko'zda tutilgan. Mehnat tarbiyasi maqsadi o'sib kelayotgan avlodga qo'yiladigan talablar va eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning rivojlanishiga qarab belgilanadi. Bunday maqsadlarga kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning psixologik g'oyaviy tayyorgarligi kiradi. Birlamchi nuqsonni yengish uchun bir-biri bilan uzviy bog'langan mana shu vazifalarni yechish eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning umumiy rivojlanishiga, ularning mehnatga tayyorgarligiga va mehnatga astoydil yondashishiga qaratilgan. Surdopedagoglarning izlanishlari shuni ko'rsatdiki, nutqi rivojlanmaganligi sababli eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning gapirish hamda fikrlash qobiliyati zaif bo'lganligi sababli mehnatga vijdonan yondashishi mumkin. Kar va zaif eshituvchi bolalarning qobiliyatiga qarab o'qituvchilar shunday ish olib borishlari kerakki, ular zaifligini yengib mehnatga o'rgansinlar. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning mehnatga psixologik qarashlari har bir ishni sidqidildan bajarishga, boshqalarga kerak bo'lishga, butun kuchini xohishi bilan berilgan vazifani tushunib bajarishga qaratilgan. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning psixologik tayyorgarligi o'quvchilarning xalq uchun foydali mehnat bilan shug'ullanishiga yordam beradi. Yuqori sinfdagi kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning mehnat faoliyatini o'rganish bir qancha guruhlarining ajralib chiqishini ko'rsatadi.

Jamoa bo'lib ishlashga moyil o'quvchilar mehnatda o'zining shiori uchun muvaffaqiyat keltirishga harakat qiladilar. Sinfiga, guruhiga yoki o'z o'rtoqlari bilan birga bo'lishga harakat qiladilar. Shaxsiy moyillikka ega yuqori sinf o'quvchilari nazariy qiziqishlari yoki nazariy faoliyatlarining natijasidan kelib chiqqan holda shaxsning kerakligiga ular tomonidan baho beriladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning umumiy moyilliklari kamroq uchraydi. Bu shundan dalolat beradiki, maktab pedagogik jamoasi bunday moyillikning kerakligini tushuntirishi zarur. Eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarning mehnatga nazariy tayyorgarligi va mehnat faoliyatida kerakli bo'lgan fanlarni, rejalashtirish ishini

tashkil qilish kabilar va texnik tayyorgarlik (arralash, kesish, randalash va boshqalar) kiradi. Surdopedagoglarning (A.P.Gozova, V.A.Lodavis, T.S.Zikova, L.A.Novoselov va boshqalar) ishlarida kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning mehnatni o'rganish ko'nikmalarini oshirish ko'rsatilgan. Kar va zaif eshituvchilarni mehnat faoliyatiga o'rgatish eshituvchilarga qaraganda katta qiyinchiliklar bilan o'tadi. Bu ularning eshitish zaifligi anatomofiziologik funksiyalarning buzilishi, asosan, vestibulyar apparatning buzilishidan kelib chiqadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning mehnat tarbiyasiga korreksiya vazifalari qo'yilgan bo'lib, birlamchi nuqsonlarni yengishdan iborat. Shunday qilib, mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarning mehnat tayyorgarligini kuchaytirishdan iborat.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning mehnat tarbiyasi mazmuni turli mehnat faoliyatida aks etadi. O'quv ishlari maktab dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan. U o'quvchilarning dunyoqarashlari va amaliy rivojlanishiga yordam beradi. Bilimlarni faol o'rganish surdopedagog tomonidan olib boriladi. Har qanday mehnat kabi o'qish jismoniy kuchning ketishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'quvchilar irodali bo'lishi talab qilinadi. Intellektual mehnat o'quvchining o'zini o'zgartirishi aqlan rivojlanishi bilan ajralib turadi. Maxsus maktablarda bilim berish nutqni rivojlantirish bilan birga olib boriladi. Boshlang'ich maktablardanoq o'quvchilar birlamchi bilimlarni egallaydilar. Ular tabiat, atrof-muhit haqida tushuncha oladilar. Tabiat hodisalarining o'xshashligi, qarama-qarshiligi va bog'liqligini o'rganadilar. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning keyingi bosqich darslarida umumiy ta'lim bilimlarini oshirish uchun bir qancha o'quv dasturlaridan foydalaniladi. Tarix, matematika darslari, texnik bilimlar mehnatga muhabbat shakllanishi uchun yordam beradi. Gumanitar fanlar mehnatning umumiy qiymatini, mehnatning xususiyatini ochishni o'rgatadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni mehnatga o'rgatish vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quv faoliyatining asta-sekin o'zgarishi o'quv mashg'uloti davomida o'quvchining fikrlashi rivojlanishiga yordam beradi;
2. O'quv bilimlarini o'zlashtirish jarayonida mehnat qilishga o'rganish va nutqi hamda eshitish qobiliyatini rivojlantirish;
3. Darslarda aqliy mehnatni rivojlantirish.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning mehnat tarbiyasi maxsus fan bo'lib, o'quv rejasiga kiritilgan. Maxsus darslardagi mehnat alohida jarayon bo'lib, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan uzviy bog'liq. Mehnat o'quvchilarning boshlang'ich bilimlarini, mehnat tajribalarini, texnik fikrlashlarini rivojlantirishga qaratiladi. Tarbiya jarayonida o'quvchilarning mehnatga muhabbat, berilgan ishga sidqidildan yondashishi ko'zda tutilgan. Mehnat tarbiyasi o'quv dasturiga kiritilgan bo'lib, maqsad, mazmun, uslub, ish turlari o'qish jarayonining turli bosqichlarida bajariladi. Mehnat darslari umumta'lim predmetlari bilan birgalikda olib boriladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning mehnati maxsus darslarda qobiliyatiga qarab bo'linadi. Bir tomondan, aqliy mehnat bo'lib, turli bilimlarni o'quvchilarning o'zlashtirishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, zaif eshituvchi bolalarning ta'limini yosh bosqichlariga qarab tashkil qilishdir. Shular qatorida tashkilotlarda ishlash, mahsulot tayyorlashga rahbarlik o'qituvchi tomonidan to'g'ri olib borilishi lozim.

Kar va zaif eshituvchi bolalar mehnatga turli shakllarda o'rgatiladi, eng asosiylaridan biri dars hisoblanadi. Shu bilan birga, korxonalariga ekskursiyalar uyushtiriladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning umumiy mehnati turli-tumanligi, xalq uchun kerakli faoliyat bilan shug'ullanishi, sinf hayotida faol qatnashuvidan iborat. U maishiy korxonalarda ishlashga bo'linadi.

Maishiy mehnat oddiy mehnat turi bo'lib, unga hamma o'quvchilar jalb etiladi. Har doim maishiy xizmat bilan shug'ullanish, o'quvchilarning maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida olib boriladi. U o'quvchilar uchun ham uy, ham maktab hisoblanadi.

Maishiy xizmat eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun xos va katta ahamiyatga ega. U o'quvchilarda buyumlarni ehtiyotkorlik bilan ishlatish, bir-biriga yordam berish, berilgan ishni sidqidildan bajarish xususiyatlarini shakllantiradi.

Maishiy xizmat kar va zaif eshituvchi bolalar uchun qimmatli hisoblanadi. Chunki u har doim tirishqoqlikni tarbiyalaydi. Kar va zaif eshituvchi maktab o'quvchilarida maishiy xizmat o'z-o'ziga xizmat qilish va mehnat darslarida olib boriladi. O'z-o'ziga xizmat qilish ishlariga quyidagilar kiradi:

- shaxsiy gigiena;
- kiyimlarni toza tutish;
- xonalarni yig'ishtirish;

- ovqat tayyorlash;
- idish-tovoqlarni yuvish;
- o'ziga kerak bo'lgan narsalarni tayyorlash va ta'mirlash.

O'z-o'ziga xizmat qilish quyidagi sanitariya-gigiena rejimiga rioya qilishni o'z ichiga oladi: sinfning, kabinet va mehnat xonalarining ozodaligini saqlash, o'simliklarni parvarish qilish, jonli burchakdagi hayvonlarni parvarishlash. O'z-o'ziga mehnat qilish qo'l mehnati yoki mexanizmlashgan, oson va qiyin, individual yoki guruhli bo'lishi mumkin. Mehnat qilish ko'nikmalari do'stlariga, katta sinf o'quvchilari va surdopedagogga taqlid qilish bilan o'zlashtiriladi.

Muhimi tarbiyalanuvchining qilgan ishi haqida gapirib berishdir. Kar va zaif eshituvchi bolalarning o'z-o'ziga xizmat qilishi mehnat darsidan tashqari mashg'ulotlarda kengaytiriladi va boyitiladi. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilarni ovqat qilish, idish-tovoqlarni toza tutish, kiyimlarni ozoda tutish va boshqa mehnat turlari bilan tanishtiriladi. Agar maishiy xizmat butun maktab faoliyatini o'z ichiga olib, o'quvchilar o'z-o'zini boshqarishsa, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning o'z-o'ziga xizmat qilishining asosiy shakllaridan biri navbatchilikdir. U maktab-internatda intizomni ushlab turishga, o'quvchilarning mustaqil, intizomli bo'lishiga yordam beradi. Maktab-internat bo'yicha navbatchilar maktab qoidasiga rioya qilib, o'quvchilarning tashqi ko'rinishi hamda maktab jihozlari sarishtaligini nazorat qiladilar. Odatda, navbatchilar maktab, sinf, internat, guruhlar bo'yicha belgilanadilar. Kar va zaif eshituvchi bolalarning navbatchilik vaqtidagi bilim va ko'nikmalari boshqa qiyin shakldagi mehnat orqali mustahkamlanadi. Bular – shanbalik va yakshanbaliklarda maktab hududini tozalashdir. Kar va zaif eshituvchi bolalarning korxonalarda qiladigan mehnati xalq iste'mol mollarni tayyorlashdan iborat. Korxonada mehnati o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. U o'quvchilarning amaliy tajribasini oshiradi, texnik ma'lumotlarini kengaytiradi, bilimlarni chuqur o'zlashtirishga, yordam beradi. Shu bilan birga, korxonada mehnati o'quvchilarda intizomni, tirishqoqlikni, asrash-avaylash sifatlarini takomillashtiradi.

- Kar va zaif eshituvchi bolalarning korxonada mehnati mehnat ta'limining bo'linmas qismidir. Umummehnat, umumtexnik va maxsus tayyorgarlikda keng qo'llaniladigan korxonada mehnati

o'quvchilarni mehnati jarayonining bo'g'inlari bilan tanishtiradi. Korxonada mehnati jarayonini tahlil qilishga o'rgatadi va eshitadiganlar bilan muloqotda bo'lishni ko'zda tutadi. Eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy o'sishi uchun maxsus maktablarning o'quv rejasiga 2-sinfdan 1-11-sinfgacha jamoa va korxonada mehnati majburiy kiritilgan. Jamoa va korxonada mehnati mazmuni jihatidan turlicha bo'lib, u maktab jamoasiga atrofdagi odamlarga, korxonalarga, muassasalarga foyda keltiruvchi mehnat turlariga bo'linadi. Jamoa va korxonada mehnatini tashkil qilishda maxsus maktablarning moddiy-texnika bazasidan, o'quv korxonada tashkilotlaridan, zavod va fabrikalardan foydalaniladi. Mehnatning keng tarqalgan turi bu korxonalarning ayrim buyurtmalarini bajarishdan iborat. Buning uchun maktab mehnat xonalarida o'quvchilarga mos ish tanlab olinadi, qo'l va stanok mehnati texnologiyasi o'rganiladi. Mahsulotning sifati, buyurtmani ishlab chiqish muddati rejalashtiriladi. Eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarning jamoa va korxonada mehnati amaliyoti shuni isbotlaydiki, haq to'lovchi mehnat bilan tekin mehnat uzviy bog'liq bo'lib, o'quvchilarning pullari jamoa hamda shaxsiy talablarga ishlatiladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni shaxsiy va jamoa foydali mehnatiga jalb qilish ularni jamoaga kerakligini his qilishga o'rgatadi. Mehnat jarayonida o'quvchilar hayotni yaxshi tushunadilar.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalash metodlari

Tarbiya metodlari deganda, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida bolaning ongi, his-tuyg'ulari, irodasi, xulq-atvori va munosabatlari tizimiga ta'sir ko'rsatish metodlari tushuniladi.

Tarbiyalash masalalari, turli metodlarni qo'llash yordamida amalga oshiriladi. Umumiy va maxsus pedagogika orqali turli metodlarni tasniflashga harakat qilib ko'rilgan. Umumiy pedagogikada, masalan, ishontirish, o'qitish, mashq bajartirish, jamoa bo'lib ishlash jarayonida tarbiyalash, ya'ni tarbiyalash vaziyatini yaratish kabi metodlar bilan bir qatorda, qo'llab-quvvatlash, qoralash, rag'batlantirish, jazolash va h.k. metodlar o'rin olgan.

Surdopedagogikada tarbiyalash metodlari quyidagicha guruhlangan: o'quvchilarning xulqini tarbiyalash metodlari,

o'quvchilarning ongini tarbiyalash metodlari, rag'batlantirish va jazolash metodlari.

O'quvchilarning xulqini tarbiyalash metodlariga o'qitish, mashq bajartirish, jamiyatga nafi tegadigan ishlarni va o'yinlarni tashkil etish, taqlid qilish asosida ijobiy odatlarni tarbiyalash, pedagogik talablarni qo'ya bilish kabilar kiradi.

Ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatyaptiki, o'quvchilarning xulqini tarbiyalashda keng qo'llanayotgan metod bu ularning jamoa faoliyatlarini maqsadli tashkil etishdir. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ongiga xulq va ijobiy odatlarni singdirish, ko'p misollarda xulqni ko'rsatish yo'li bilan hamda pedagogning birgalikda amalga oshiriladigan ishlar jarayoni misolida ko'rish mumkin.

Bolalarning ish faoliyatlari ularning yoshlariga muvofiq holda bo'lishiga, ayniqsa, ko'proq ahamiyat berish lozim. Shuning uchun turli o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyatini inobatga olgan holda bu o'yinlarni kundalik va jamiyatga nafi tegadigan ishlar bilan almashtirib turish kerak. Jamoat ishlari shunday tashkillashtirilishi kerakki, unda bolalar bajarayotgan ishlarini ongli ravishda qilayotganliklarini, mehnat natijalarini ko'rib undan shod bo'lib, zavqlanayotganliklarini bilishi darkor.

Ko'pgina mutaxassislar pedagogik talablarni qo'ya bilish metodining effektivligiga ko'proq ahamiyat beradilar. Talablar shakliga ko'ra: yo'naltirilgan (buyruq) va ikkilamchi (iltimos, ma'qullash, ishonch bildirish, maslahat, aybdor qilish, ishonchsizlik bildirish, xavf solish) holda bo'ladi. Mutaxassislarning fikricha, eng tarbiyaviy samara, talablarni mohirona ketma-ket ishlata bilishdan hosil bo'ladi. Tajribalardan ma'lum bo'lishicha, o'quvchilar talablarga hissiy javob berib, xulq me'yorlarini tezda o'zlashtirib oladilar¹.

Yuqorida qayd etilganidek, tarbiya metodlari – bu shaxsning ijobiy tomonlari shakllanishiga, pedagoglarning tarbiyalanuvchilarga ta'sir qiluvchi yo'l-yo'riqlaridir. Tarbiya metodlarini tasniflashda turli xil yondashuvlar mavjud. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning rivojlanish

¹ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiya metodlarining quyidagi tasnifi qabul qilingan.

Axborotlar metodi: (o'quvchilarga axloq metodlari, normalari haqida ma'lumot berish, epik tushunchalar kiradi) Bunga suhbat, hikoya, tushuntirish, filmlar ko'rish, misol keltirish, pedagogik talablar kiradi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun inshakltsion metod murakkab hisoblanadi, chunki bu metod so'zlashuv nutqida asoslangandir.

a) *suhbat* – tarbiya metodi sifatida hayot muammolarini hal qilishni nazarda tutadi. O'rganilayotgan materialga qarab suhbat-epik, estetik va ijtimoiy-siyosiy suhbatlarga bo'lindi.

Estetik suhbat – o'quvchilarni estetikaga o'rgatish, tasviriy san'atga nisbatan qiziqishni uyg'otish. Bunday suhbat vositalari o'tilgan hikoyalar, yozuvchi yoki rassomlar hayoti haqidagi diafilmlarni ko'rish, rasmlarni ko'rish tabiat, inson go'zalligini kuzatish.

Epik suhbat - axloq tushunchalarining ma'nosi tarbiya normalari orqali ochib beriladi. Eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bu tushunchalarni qiyinchiliklar bilan tushunib oladilar.

Epik tarbiya vositalariga ekskursiyalar, rasmlar kiradi.

Ijtimoiy-siyosiy suhbat. O'quvchilarning jamiyatda va siyosatda ro'y berayotgan hodisalarni bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgandir. Bu suhbat vositalariga bayramlar, xalqaro hayot hodisalari kiradi.

b) *tushuntirish* – eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar har doim ham axloq normalarining talablariga jiddiy ahamiyat bermaydilar. Pedagog tushuntirishi (frontal, individual) o'quvchiga sodir bo'lgan vaziyatdan chiqib ketish uchun axloq normalarini bilish kerakligi tushuntiriladi.

v) *pedagogik talablar* – tarbiya metodi sifatida juda katta tarbiya kuchiga egadir. Bu metodning o'ziga xosligini hisobga olgan holda kichik yoshli bolalar tarbiyasiga qo'llash tavsiya etiladi. Eshitish nuqsoniga va nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar pedagogning uzun tushuntirishi yoki hikoyasiga ko'ra, qisqa so'zlashuv talab-buyruqlarni (turing, to'g'ri o'tiring, kitobni olib qo'ying va boshqalar) tushunishi oson.

g) *ma'ruza, bahslashuvlar*. Tarbiya metodi sifatida kar va zaif eshituvchilar maktabining yuqori sinflarida qo'llaniladi. Leksiya va doklidlarni o'tkazish jarayonida so'zlashuv nutq va daktil nutq qo'llaniladi. Leksiya va doklidlarni o'tkazishga o'quvchilar oldindan tayyorlanadilar.

d) *misol keltirish metodi*. Tarbiya metodi sifatida bolalarga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu metodlarning kuchi shundaki, har bir bola taklif qilish xususiyatiga ega. Bu metodning moyilligi shundaki, kar va zaif eshituvchi bolalar, ko'rgazmalar orqali xulq va qilingan faoliyatni yaxshiroq tushunadilar.

Eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar uchun ko'rgazmali misol ularga "yaqin" va tushunarli bo'lgan narsalardan iborat bo'lishi kerak. Buning uchun katta kishilar misol qilib olinadi: o'qituvchi, tarbiyachi, sinfdoshlari.

Amaliy faoliyat metodi: o'quvchilarning xulqi va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilganidir. Bu guruhga o'rgatish, mashq qilish, o'yin va vaziyatli tarbiyalovchi metodlar kiradi.

Bu metod eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarga juda qo'l keladi, chunki ularning ko'rgazmali tafakkuri to'liq shakllangan bo'ladi.

a) *o'rgatish va mashq qilish metodi* xulqning ijobiy shakllanishiga qaratiladi. Bu metod yordamida bolalarda gigiyenik odatlar, axloqiy madaniyat malakasi, rejililik shakllanadi.

O'rgatish – harakatni ko'rsatish bilan boshlanadi. O'qituvchi ko'rsatadi, keyin talab qilinayotgan harakatni o'quvchilar takrorlaydi. Ko'rsatish juda aniq, tushunarli bo'lishi shart. O'qituvchi har bir murakkab harakatni alohida ko'rsatishi mumkin. Faoliyat ko'rsatilgandan keyin bolalar mashq qilishni boshlaydilar.

b) *o'yin tarbiya metodi* sifatida kichik yoshdagi kar va zaif eshituvchi o'quvchilar tarbiyasida qo'llaniladi.

O'yin ko'nikmasi kar bolalarda normal bolalarga ko'ra ancha kech shakllanadi. Turli o'yinlar tarbiya vositasi bo'lishi mumkin. Harakatli o'yinlar harakatlarni shakllantirish bilan birga, jamoada ishlash, ma'lum qoidalarga rioya qilishni o'rgatadi.

Bola hayotida rolli o'yinlar katta ahamiyatga ega. Chunki bu o'yinda bola biron bir rolni bajaradi, axloq normalarga rioya qiladi.

v) *ijtimoiy-foydali faoliyat metodi* kar va zaif eshituvchi bolalar uchun juda muhimdir. Ijtimoiy foydali faoliyat bolalar jamoasi bilan amalga oshiriladi.

Jamoalashtirilgan ish o'quvchilarni rejalashtirishga, taqsimlashga, nazorat qilish va baholashga o'rgatadi.

g) *tarbiyalovchi vaziyatlar*. Tarbiya metodi sifatida bolalar xulqini shakllantirishga qaratiladi. Bu metod nafaqat bitta o'quvchiga balki, butun sinfga ta'sir qiladi. Tarbiyalovchi vaziyatlarda buyruq berish, o'yin, o'quv vaziyatlari ajralib chiqadi.

Buyruq beruvchi vaziyatlar metodi vositasida bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

Eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga berilayotgan buyruqlar ularga tushunarli bo'lishi kerak.

O'quv vaziyatlar biron-bir xato ishni qilib qo'ygan bolaga ta'sir qilib, ishni sinf jamoasi bilan hal qilishga o'rgatadi.

Tarbiyaning qiziqtirish metodi.

Bu metod o'quvchilarning axloqiy his-tuyg'ulariga qaratilgandir.

a) *rag'batlantirish*. Bu metod asosida insonga ijobiy baho berish yotadi. Rag'batlantirish bolada ijobiy xislatlarni va o'z kuchiga ishonch hosil qildiradi. Rag'batlantirish turlari xilma-xildir. Masalan: "qo'shib-qo'yish"; fishkalar bilan rag'batlantirish. So'zlashuv nutqini shakllantirish jarayonida o'qituvchi rag'batlantiruvchi so'zlarni keltiradi: "yaxshi", "to'g'ri".

Rag'batlantirish turli vaziyatlarda qo'llaniladi. Sinf oldida, maktab jamoasi oldida, ota-onalar oldida.

b) *jazolash*. Bunda salbiy baholar beriladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar bilan bu metodni juda ehtiyotkorlik bilan qo'llash kerak. Maxsus maktablarda jazolashning turli ko'rinishlari ishlatiladi, xo'mrayish, bosh bilan silkitish, qo'l harakatlari va boshqalar. Keyin so'zli jazolashlar qo'llaniladi: "yomon", "uyat", "xunuk" va boshqalar.

Jazolashning so'zli ko'rinishidan tashqari, maxsus maktablarda o'quvchilarning salbiy harakatini tartibga soluvchi usullar qo'llaniladi. "Karidorda yugurding – to'xta", "tinchlan – tuzat"; "o'rtog'ing bilan urishding – kechirim so'ra" kabi harakatlardan foydalaniladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni oilada tarbiyalash

Kar va zaif eshituvchi bolalarni oila sharoitida o'qitish va tarbiyalash xususiyatlari bir qator surdopedagoglari (B.D.Korsunskiy, E.I.Leongard, E.V.Mironova, L.P.Noskova, T.V.Pelinskaya, N.A.Rau, Ye.F.Rau, N.D.Shmatko va b.) ishlarida batafsil o'rganilgan.

Maktabgacha bolalik davrida ota-onalar eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni maxsus bolalar muassasalariga berish yoki oilada tarbiyalash haqida o'zlari qaror qiladi. Oilada tarbiyalash ma'qul topilgan hollarda bunday bolalarga surdologik kabinetlar surdopedagoglari, maslahat guruhlari yoki maxsus maktabgacha muassasa qoshida tashkil qilinadigan vaqtinchalik tashrif buyurish guruhlari pedagoglari, shuningdek eshitish va nutqni reabilitatsiyalash markazlari xodimlari yordam ko'rsatadi.

Bunday tarbiya ota-onalar tomonidan mutaxassis tavsiyalarining bajarilishiga ko'p jihatdan bog'liq. Ularga asoslanib ota-onalar, bolaning umumiy rivojlanishi, birlamchi nuqson oqibatlarini bartaraf qilishga ko'maklashadigan, zarur pedagogik yordamni realizatsiyalaydigan turli mashg'ulotlarni olib borishlari mumkin.

Ota-onalar bilan yakka tartibda (individual) ish shakllari ular bilan o'zaro tushunishni yo'lga qo'yish, pedagoglarning oilada eshitishida muammosi bo'lgan rivojlanish xususiyatlarini tushunishlari uchun juda muhim ahamiyatga ega. Bu kabi ish shakllariga ota-onalar bilan suhbat, konsultatsiya, pedagogning oilaga tashrifi, ota-onalarning bolalar bog'chasidagi mashg'ulotda bo'lishi, bolalar uchun dam olish hamda bayram kunlari uchun topshiriq va tavsiyalarni tayyorlash, boshqa shahardan kelgan bolalarning ota-onalari bilan yozishmalar kiradi. Ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari bilan suhbatni bola maktabgacha muassasaga har kuni keladigan bo'lsa, ertalab yo kechki payt; bola muassasada besh kun davomida bo'lsa, dushanba va juma kunlari; boshqa shaharlik ota-onalarning tashrifi vaqtida o'tkazish mumkin. Bolalari maktabgacha muassasaga endigina qabul qilingan ota-onalar bunday suhbatlarga ayniqsa ehtiyoj sezadi. Bunday suhbatlar maxsus vaqt ajratishni talab qiladi, zero ota-onalar bilan muloqotda shoshma - shosharlik va tezkorlik ularning ochiq suhbatga moyilligini ta'minlamaydi, yuzaga kelgan savollarga to'liq javob olish imkonini bermaydi.

Pedagoglardan nafaqat professional maslahatlar, balki takt, ota-onalarga xayrihohlik, hamdardlik talab etiladi, chunki ularning ko'pchiligi farzandining nuqsonini juda og'riqli qabul qiladi.

Odatda, hafta oxirida pedagoglar ota-onalar uchun turli bo'limlarga oid topshiriq va tavsiyalar tayyorlaydi. Bolaning ota-onasi bilan uchrashuv chog'ida har bir bolaning imkoniyatlarini hisobga olgan holda topshiriqlar xarakteri aniqlashtirib olinadi. ota-onalarga bolaning materialni o'zlashtirishini maishiy vaziyatlar bilan bog'lash, o'yinli usullarni qo'llash, faoliyatning boshqa turlarini (applikatsiya, yopishtirish, konstruksiyalash, qo'l mehnati) kiritish, turli muassasalarga sayohatlarni uyushtirish haqida maslahatlar beriladi. Ayrim hollarda pedagog maslahatlaridan to'g'ri foydalana bilmagan yoki mashg'ulotlar mazmunini tushuna olmagan ota-onalarni mashg'ulotlarga taklif qilinadi. Bu mashg'ulotlar davomida u yoki bu bo'lim, masalan, eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha ish metodikasi ochib beriladi.

Ota-onalar uzoqda yashagani va maktabgacha muassasaga tez – tez kela olmasligi holatlarida pedagog ular bilan xatlar orqali yozishmani yo'lga qo'yadi. Ularning savollariga, jumladan, bola tarbiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, masalan bolaning salomatligi, maktabgacha muassasada yashash sharoitlari haqida savollariga ham javob beradi. Bolalarni ota-onasi bilan yozishmaga jalb qilish: bolaning ko'z oldida konvertni yelimplash, manzilni yozish, ota-onasining rasmini ko'rsatish juda muhim. Bolalar rasm solishi, kichik matnlar yozishi, pedagog yordamida tabrik otkritkalarini imzolashi mumkin. Pedagog bola bilan birgalikda olingan har bir xatni muhokama qilishi, oilaning hayoti haqida, ota-ona o'z farzandi haqida g'amxo'rlik qilayotgani haqida tushunarli tarzda gapirib berishi juda muhim. Ota-onalarning hamma xatlarini saqlab qo'yish kerak, chunki bolalar ularni qayta – qayta o'qishni yaxshi ko'radi.

Bola va uning oilasi uchun muhim hodisa surdopedagog yoki tarbiyachining ularning uyiga tashrifi bo'lishi mumkin. Bunday tashriflarga pedagog oldindan tayyorlanadi, ota-onalarga savollar, taklif, maslahat va tavsiyalarni puxta o'ylab oladi. Oilaga tashrifni bola hayotidagi biror hodisa bilan, masalan betobligi tufayli maktabgacha muassasada bo'lmaganligi, tug'ilgan kuni va b. bilan bog'lash maqsadga muvofiq. Tashrif davomida bolaning yashash tarzi, ota-onaning u bilan muloqot vositalarini kuzatish, shu oila uchun

dolzarb bo'lgan bola tarbiyasi muammolarini muhokama qilish maqsadga muvofiq. Pedagog ota-onalarga uyda maktabgacha tarbiya muassasasi kun tartibiga o'xshash kun tartibiga rioya qilishning muhimligini, nutqiy muloqotning, atrofidagilar haqida tasavvurlarini kengaytirishning zarurligini tushuntirishi; bola bilan uning maishiy faoliyatda ishtiroki, sayrlar, teatrda, sirkda bo'lish va b. davomida rivojlantirish ishlarini olib borish haqida gapirib berishi kerak. Oilaga tashrif davomida bolaning bolalar bog'chasidagi ayrim qiyinchiliklari, masalan ozoda emasligi, o'z – o'ziga xizmat ko'nikmalarini zaif egallaganligi xarakterini aniqlashtirish lozim. Bu hollarda ota-onadan bolaning o'zi uyda nimalar qilishini, kattalar yordamidan qanday foydalanishi, unga qandaydir vazifalar berishlarini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq. Pedagog ota-onalarga mehnatsevarlik, madaniy – gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalashga oid maslahatlar beradi. Keyingi tashriflar davomida bu tavsiyalar qanday bajarilganini aniqlashtirish kerak bo'ladi.

Maktabgacha muassasalar faoliyatida ota-onalar bilan ishlashning jamoaviy shakllaridan ham foydalaniladi. Bularga umumiy va guruh ota-onalar majlislari, lektoriylar, «davra suhbatlari», ota-onalar konferensiyalari, bolalar bilan ishlashda tajriba almashish bo'yicha seminarlar, guruhda konsultatsiyalar, ochiq eshiklar kuni, bolalar ishlari ko'rgazmalari, bayram va ertaliklar, muassasa va guruh tadbirlarida ota-onalarning ishtiroki va sh.k. ni kiritish mumkin.

Ota-onalar majlisi keng tarqalgan ish shakllaridan biri sanaladi. Majlis umumiy - butun maktabgacha muassasa yoki guruh tarbiyalanuvchilari ota-onalari uchun bo'lishi mumkin. Umumiy ota-onalar majlislari yiliga 2 – 3 marta, guruhda esa har chorakda o'tkaziladi. Umumiy majlislarda ota-onalarni maktabgacha muassasa ishining mazmuni bilan tanishtiriladi, ma'muriyatning ma'lum vaqt oralig'idagi faoliyat to'g'risidagi hisoboti, ota-onalar qo'mitasining hisoboti tinglanadi. Ota-onalar uchun qiziqarli mavzularda, masalan «Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasida o'yinning roli», «Eshitish va nasliylik» kabi mavzularda ma'ruzalar qilinadi.

Guruh ota-onalar yig'ilishlarida shu guruh ota-onalari uchun dolzarb masalalar muhokama qilinadi. Surdopedagog va tarbiyachi ota-onalarni bolalar tarbiyasi va ta'limining turli yo'nalishlariga oid ishlar mazmuni bilan qulay va tushunarli tarzda tanishtiradi. Bolalarning oiladagi tarbiyasi haqidagi axborotlar, masalan, «Uch

yoshli bolalar uchun kun tartibini tashkil qilish», «Bolalarda madaniy – gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash» va sh.k. bilan chiqadigan tarbiyachilarning ishtiroki muhim sanaladi. Guruh ota-onalar majlisida pedagoglar ta'limning natijaliligi, turli yo'nalishlardagi ish natijalari haqida ota-onalarga ma'lum qiladi. Bolalar bilan ish samaradorligini tavsiflayotib, e'tiborni qiyinchiliklarga, bola rivojlanishidagi salbiy tomonlarga qaratmasdan, balki bolaning imkoniyatlari, uning, uning ta'limda ilgarilab borishini ko'rsatib berish muhim. Bola bilan ishdagi qiyinchiliklarni ota-onalar bilan yakka tartibdagi suhbatlarda ochib bergan, muhimi ota-onalar bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun nima qila olishlarini ko'rsatib bergan ma'qul. Guruh ota-onalar majlisi pedagoglardan jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Bunda xabarni tayyorlash, ko'rgazmali – ilyustrativ materialni (tablichkalar, qo'lbola kitobchalar, didaktik o'yinlar, fotosuratlar, rasmlar, bolalarning ishlari va sh.k.) tanlash kata ahamiyat kasb etadi. Shuningdek pedagoglar muhokama mavzusiga oid ota-onalar uchun qulay, tushunarli adabiyotlarni tavsiya qilishlari, uni o'qiganda nimalarga e'tiborni qaratish lozimligini tushuntirishlari zarur. Ota-onalar majlislariga ota-onalar ishtirokida tayyorlangan bolalarning ishlari, rasmlari ko'rgazmasini tayyorlash maqsadga muvofiq.

Bolalarni o'qitishning konkret masalalari ko'pincha korreksion ishlar bilan bog'liq bo'lib, tematik ota-onalar yig'ilishlarida, davra suhbatlarida, ota-onalar uchun lektoriylarda muhokama qilinadi.

Davra suhbatlari mavzusi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasi va ta'limining konkret muammolari: surdoprotezlash masalalari, ovoz kuchaytirish apparatidan to'g'ri foydalanish, til o'qitishda turli nutq shakllarining o'zaro aloqadorligi, oilada eshitish idrokini rivojlantirish ishlari, bolalar talaffuzini nazorat qilish va sh.k. bo'lishi mumkin.

Ota-onalar uchun konsultatsiyalar. Ota-onalar uchun umumiy yoki guruhda mavzuli konsultatsiyalari o'tkazilganda ota-onalar oldindan yozma ravishda savollarini berishi mumkin. Bir mavzu yuzasidan savollar to'planib qolganiga ko'ra ota-onalar uchun guruhli konsultatsiyalar mazmuni shakllantiriladi. Umumiy konsultatsiyalarda bolalar salomatligini muhofaza qilish, eshitish a'zolari kasalliklarini davolash, eshitish apparatlarini tanlash va ulardan to'g'ri foydalanish muammolari va ota-onalarni qiziqtirgan boshqa ko'plab masalalar muhokama qilinadi. Ota-onalar uchun guruhda konsultatsiyalar shu

yoshdagi bola tarbiyasi va ta'limiga oid konkret masalaga bag'ishlanadi. Pedagoglar axborotlari konkret xarakterga ega, ota-onalar uchun tushunarli bo'lishi, misollar namoyishi, turli didaktik vositalar bilan to'ldirib borilishi lozim. Konsultatsiyalar mavzusi ««Oilada nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlar», «Yozma nutq shakllaridan foydalanish», «eshitish idrokini rivojlantirish ishlari», «Bolalarni tabiat bilan tanishtirish» kabi bo'lishi mumkin. Ish xilma – xil: surdopedagog, tarbiyachilar ma'ruzalari kabi savol – javob shaklida ham tashkil qilingan bo'lishi mumkin.

Ota-onalar konferensiyalarini tashkil qilish muhim va foydali ish shakli sanaladi, uning maqsadi ota-onalarning oilada farzand tarbiyasi tajribasini ommalashtirishdan iborat. Bunday konferensiyalar yilda 1-2 marotaba o'tkaziladi. Ularni maktabgacha muassasa ma'muriyati, ota-onalar qo'mitasi, pedagoglar tayyorlaydi. Bu konferensiyalarda ota-onalar oilada farzand tarbiyasiga oid tajriba almashadi, turli yo'nalishlar, masalan mehnatsevarlikni tarbiyalash, oilada bola bilan o'zaro munosabatlarni shakllantirish, jismoniy tarbiya bo'yicha ish mazmunini ochib beradi. Ko'pincha tajribali ota-onalar ishning tobora qiyin va o'ziga xos yo'nalishlari: nutq o'stirish, eshitish idrokini rivojlantirish, boshqa dolzarb masalalar bo'yicha tajribasi bilan o'rtoqlashishga intiladi. Odatda, ota-onalar ko'plab qiziqarli qo'llanmalar, fotosuratlar, video, audioyozuvlarni namoyish etadi, ular bilan tanishish boshqa ota-onalar kabi pedagoglar uchun ham foydali bo'ladi. Bunday konferensiyalar o'z bolasining imkoniyatlariga ikkilanib qaragan, bolasining qobiliyatlariga ishonmagan ota-onalarga katta ta'sir kuchiga ega. Ota-onalar konferensiyasida iliq, do'stona muhit yaratiladi, ota-onalar va pedagoglarning yagona jamoasi shakllanadi. Maktabgacha muassasada ota-onalar konferensiyasiga bag'ishlab bolalar ishlari ko'rgazmalari uyushtiriladi. Bolalarning konsert dasturlari konferensiyalarning qiziqarli davomi sanaladi.

Ota-onalar bilan ish shakllaridan yana biri ochiq eshiklar kuni sanaladi. Bu kunlari ota-onalar katta guruhlardagi frontal yoki individual mashg'ulotlarda qatnashishi, bolalarning sayr davomidagi, kun tartibi vaziyatlarini o'tkazish chog'idagi muloqoti va mashg'ulotlarini kuzatish, pedagoglar, katta tarbiyachi, mudir bilan uchrashish va suhbatlashish imkoniga ega bo'ladi. Yasli va kichik guruhlarda mashg'ulotlarni kuzatish bolalar ota-onalarni ko'rmaydigan qilib tashkil etilishi mumkin. Ya'ni ota-onalar bolalarni

qo'shni xonadan, parda ortidan va sh.k. kuzatishlari mumkin. Shu maktabgacha muassasaga bolasi uchun yaqindagina yo'llanma olgan ota-onalarni ham taklif qilish maqsadga muvofiq. Bunday tashrif, bolalarni kuzatishlar ota-onalarga bolalar bog'chasidagi sharoit, bolalar bilan pedagogik ish uslublari va metodlari haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Ko'pincha maktabgacha muassasaga tashrif ota-onalarga o'zining bolasini maxsus maktabgacha muassasada tarbiyalash istagi to'g'riligiga ishonchini oshiradi, ba'zida aksincha, o'z kuchlarini safarbar qilish va bolani oilada tarbiyalash va o'qitishni tashkil qilishga ruhlantiradi.

Bolalar bog'chasi xodimlarining eng muhim vazifasi bolalar, pedagoglar va ota-onalarning yagona jamoasini shakllantirish sanaladi. Ishonch, bola taqdiri haqida umumiy g'amxo'rlikni bolalar bog'chasida umumiy bayramlarni o'tkazish, bolalarning tug'ilgan kunlarini uyda yoki bog'chada nishonlash, ishlari ko'rgazmalarini tashkil qilish, birgalikdagi sayr va sayohatlar kabi norasmiy voqealarni tashkil qilish hisobiga shakllantirish mumkin.

Ota-onalar bilan ishlarning yana bir muhim va qiziqarli shakli bog'chada o'tkaziladigan ertaliklar, bayramlarga ota-onalarni taklif qilish sanaladi. Ota-onalar o'z farzandini bayramona sharoitda ko'rishlari, musiqiy tarbiya, nutq o'stirish bo'yicha ishlarning natijalarini ko'rishi, ijobiy taassurotlar olishi muhim. Bolalar uchun ota-onalari bilan birga kuylagan, raqsga tushgan bayramlar yanada qiziqarli. Bayramlarda ishtirokdan tashqari, ota-onalarni sayr va sayohatlarni tashkil qilishga, bolalarning foto va videotavsirga olishni tashkil qilishga jalb etish mumkin. Ota-onalar pedagoglarga didaktik materiallarni (tablichkalar, qo'lbola kitobchalar, didaktik o'yinlar) tayyorlashda, metodik materiallarni ko'paytirishda ko'maklashishlari mumkin.

Ota-onalar bilan ish shakllaridan biri turli ko'rgazmali materiallar: bolalar ishlari ko'rgazmalari, axborot stendlarini – ota-onalar burchagini jihozlash sanaladi. Bolalarning faoliyat mahsuli – rasmlar, panno va applikasiyalar va b. bilan tanishish ota-onalarda ijobiy taassurot uyg'otadi. Pedagogning bola ishini namoyish va muhokama qilish vaqtidagi maslahatlari bu yo'nalishdagi ishni uyda ham tashkil qilish imkonini beradi. Bola ishlarini tarbiyachining sharhisiz namoyish qilish ko'p ham samara bermaydi, chunki ota – onalar ishning vazifasi, bolaning shu ishni bajarish davomida

mustaqillik darajasini hamma vaqt ham tushunib yetmaydi. Bola ishi muhokamasi chog'ida bolaning rivojlanganini ko'rsatish, uni bolaning, guruhda saqlanayotgan, oldingi ishlari bilan taqqoslash muhim.

Ota-onalar burchagida ular uchun foydali axborot jamlanadi. Unda tashkiliy tartibdagi ma'lumotlar: guruh tarkibi, pedagoglarning aniq ism – familiyalari, kun tartibi, mashg'ulotlar jadvali bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu kabi ma'lumot ota-onalarga bolalarning maktabgacha muassasada bolalarning hayoti haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. Odatda, ota-onalar burchagida guruh pedagoglari tayyorlagan yoki gazeta – jurnallardan maqolalar shaklida taqdim etilgan tarbiyaning turli yo'nalishlariga oid pedagogik tavsiyalar bo'ladi. Bu yerda ota-onalar uchun foydali bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya va ta'limiga oid kitoblar, yangi maxsus adabiyotlarni foylashtirish maqsadga muvofiq. Shu yerning o'zidan bolalarning oiladagi tarbiyasiga oid ota-onalarning qiziqarli qo'llanmalari, kundaliklari, yozuvlari joy olishi mumkin.

Ota-onalar bilan ishlarni olib borishda izchillik, sistemalilik, ularning real imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim. Pedagog va ota-onalarning o'zaro tushunishi, hamkorlikdagi ishtiroki va faolligi rivojlantiruvchi va korreksion ishlarning umumiy natijasini ko'p jihatdan belgilaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. "Mehnatga tayyorgarlik", "Umumfoydali mehnat" tushunchalari mohiyatini tushuntiring.

2. Ko'rsatilgan mashg'ulotlar asosida eshitishida muammosi bo'lgan bolalar mehnat tarbiyasining masalalari yechimini kengroq ochib bering.

3. Maktab-internatdagi maishiy mehnat turlarini xarakterlab bering. Uning tarkibida surdopedagogning o'rini ajratib ko'rsating.

4. Pedagogik amaliyotga o'tish jarayonida maxsus maktab o'quvchilarining umumfoydali ishlab chiqarish mehnati nimalardan iborat?

5. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasining xususiyatlarini izohlang.

6. Tarbiya jarayonida kompensator va korreksion-rivojlantiruvchi yo'nalishlarga misollar keltiring.

7. Qanday metodlar tarbiya metodlari hisoblanadi?

8. Aqliy tarbiya vazifalarini izohlang.
9. Siyosiy-g'oyaviy tarbiyaning vazifalari deganda nimalarni tushunasiz?
10. Axloqiy tarbiyaning vazifalarini ko'rsating va ularning amalga oshirilishini izohlang.
11. Kar va zaif eshituvchilarni tarbiyalashda mehnatning ta'limiy, tarbiyaviy va korreksion rolini ko'rsating.
12. "O'quvchining jamoatchilik faolligi – zamonaviy insonning zarur xislatidir" degan fikrni asoslang.
13. "Jismoniy rivojlantirish", "gipodinamiya" tushunchalari mohiyatini tushuntiring.
14. Kar va zaif eshituvchi bolalarda muvozanatni shakllantirish yo'llariga misol keltiring.
15. "Bir safda" jurnalidan kar va zaif eshituvchi bolalarga mos sport mashg'ulotini tanlang.
16. Amaliyotda kichik yoshdagi o'quvchilar bilan sport o'yinlari, o'smirlar bilan esa musobaqa uyushtirish nimani anglatadi?
17. Jismoniy tarbiyaning vazifalari va mazmuni nimadan iborat?
18. Nafosat tarbiyasining vazifalari va mazmuni nimadan iborat?
19. Ekologik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
20. Huquqiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
21. Maktab-internatdagi tarbiya turlarini xarakterlab bering. Uning tarkibida surdopedagogning o'rnini ajratib ko'rsating.
22. Pedagogik amaliyotga o'tish jarayonida maxsus maktab o'quvchilarining umumfoydali ishlab chiqarish mehnati nimalardan iborat?
23. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasining xususiyatlarini izohlang.
24. Tarbiya jarayonida kompensator va korreksion-rivojlantiruvchi yo'nalishlarga misollar keltiring.
25. Qanday metodlar tarbiya metodlari hisoblanadi?
26. Aqliy tarbiya vazifalarini izohlang.
27. Kar va zaif eshituvchi bolalarda muvozanatni shakllantirish yo'llariga misol keltiring.
28. Axloqiy tarbiyaning vazifalarini ko'rsating va ularning amalga oshirilishini izohlang.
29. Kar va zaif eshituvchilarni tarbiyalashda mehnatning ta'limiy, tarbiyaviy va korreksion rolini ko'rsating.

V BO' LIM. ESHITISHDA MUAMMOSI BO' LGAN BOLALAR TA' LIM-TARBIYASI JARAYONIDA HAMKORLIK ISHLARINING TASHKIL ETILISHI

Ota-onalar o'rtasida psixologik-pedagogik bilimlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Eshitishda muammosi bo'lgan bolalari bo'lgan ota-onalarning ko'pchiligida pedagogik bilimlar yetishmasligi mumkin. Ba'zi ota-onalar eshitishda muammosi bo'lgan bolani bemor deb bilsalar, boshqalari, aksincha, bolada hech qanday me'yordan chetga chiqish borligini ko'rishni istamaydilar. Bu bilan bog'liq holda eshitishda muammosi bo'lgan bolaning rivojlanishi bilan bog'liq hozirgi muammolarni ham tushunib yetmaydilar. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasining muvaffaqiyati nafaqat o'qituvchilarning o'z majburiyatlariga nisbatan munosabatlariga, ularning kasbiy tayyorgarligi-yu axloqiy-psixologik qiyofasiga, balki bola tug'ilib o'sadigan oiladagi mikromuhitga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Oiladagi tarbiya shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishida chuqur iz qoldiradi. Bola muayyan hayotiy tajriba orttiradigan va jamiyatda qaror topgan axloq normalariga daxldor bo'ladigan dastlabki ijtimoiy muhit bu oiladir. Oilada bolaning muayyan ijtimoiy qadriyatlarga yo'naltirilgan hayotiy qarashlari shakllana boshlaydi, hayotiy maqsad haqidagi tasavvurlari paydo bo'ladi. Maxsus maktabda eshitishda muammosi bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish ishining maqsadi – bola shaxsining maqbul shart-sharoitlarda rivojlanishini ta'minlash (jismoniy, ijtimoiy, odob-axloq me'yorlarida, intellektual), bolaga kompleks, ya'ni ijtimoiy-pedagogik, korreksion, tarbiyaviy va psixologik yordam berish, shuningdek bolani kundalik hayotiy vaziyatlarda himoya qilishdan iborat. O'qituvchilar ham, ota-onalar ham bola ijobiy tomonga rivojlanishi va to'g'ri tarbiya topishidan manfaatdordir. Maktab va oilaning o'zaro aloqalari tarbiya maqsadi va vazifalarining birligidan kelib chiqadi. Bu maqsadni maxsus o'quv muassasasining o'zi bajara olmaydi. Bunda ota-onalar, oilaning yaqin kishilari, mahallaning ishtiroki muhim o'rin egallaydi. Bu esa o'qituvchini, o'zining ota-onaga bo'lgan munosabatlaridan qat'i nazar, ular bilan doimiy aloqa qilib turishini taqozo etadi.

Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalash, ularning kamchiliklarini korreksiyalash va bartaraf etish, ta'limini to'laqonli tashkil qilish, pirovard natijada ijtimoiy-foydali shaxs qilib yetishtirishda oilaning roli katta ekani e'tirof etilgan haqiqatdir.

Eshitishda muammosi bo'lgan bola uyda tarbiyalanayotgan paytda ham, rivojlanishdagi kamchilik chuqur bo'lgani sababli yoki yuzaga kelgan hayotiy vaziyat tufayli u maxsus muassasada bo'lgan paytda ham bola tarbiyasida ota-onalarning tutgan o'rmini hech narsa bosa olmaydi. O'z farzandining rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishda aql bovar qilmaydigan kuch sarflayotgan ota-onalar oz emas. Biroq ularga ko'p hollarda bilim va malakalar yetishmaydi, ba'zida esa soxta, xato tasavvurlar xalaqit beradi. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning oilada tarbiyalash masalalari bilan maxsus shug'ullangan olimlardan B.D. Korsunskaya "...bolalarning rivojlanishida kutilgan darajaga erishish korreksion ishning imkon darajada erta boshlanishi; maqbul oilaviy vaziyat va maxsus muassasalarning oilalar bilan yaqin aloqasi; rivojlanishi normal kechmayotgan bolalarning real yosh davriga va real imkoniyatlariga hamda ularning tarbiya maqsadlariga mos keladigan ta'lim dasturlari va metodlaridan foydalanish deb hisoblaydilar", deb ko'rsatadi. Shunday ekan, eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalashda maxsus maktab va oilaning hamkorlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bu faoliyat samarali kechishi uchun maxsus maktab oilalarni o'zining to'laqonli hamkori bo'lishida muayyan ishlarni amalga oshirishi lozim. Bu ishlarning asosiy maqsadi eshitishda muammosi bo'lgan bolalar bilan oila sharoitida korreksion ishlarni yaxshiroq yo'lga qo'yish, korreksion-psixologogik-pedagogik ishga ota-onalarni to'g'ri yo'naltirishdan iborat. Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalarni hal qilish ko'zda tutiladi: oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirish; onaning psixologik holatini korreksiyalash; bola va ota-ona munosabatlarini korreksiyalash; bolaning ham jismoniy, ham psixologik imkoniyatlarini adekvat baholashga yordam berish; onaga oila sharoitida bola bilan mashg'ulotlar o'tkazish uchun maxsus korreksion va metodik usullarni o'rgatish; onaga bolaning shaxsini korreksiyalash uchun zarur bo'lgan maxsus tarbiya usullarini o'rgatish. Bu esa mutaxassis zimmasiga nafaqat bolaning ta'limi, tarbiyasi va korreksiyasi bilan bog'liq vazifalarni yuklaydi, balki ota-

onalar bilan hamkorlik faoliyatini rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish bilan bog'liq vazifalarni ham hal qilishni talab etadi. Bu vazifalar odatda ijtimoiy pedagog zimmasiga yuklanadi. Avvalo Surdopedagog bola va kattalar, bola va uning atrofida qilari orasidagi vositachi, shuningdek bolani atrofida qilari bilan bevosita muloqotida murabbiy sifatida ishtirok etadi. U oilalarni ijtimoiy diagnostikasini o'tkazadi, bolani tarbiyalash bo'yicha muammolarni hal etuvchi, oilalarga yordam beruvchi dasturlar tuzadi. Oila va maxsus maktab hamkorligini amalga oshirishda mutaxassis-Surdopedagog qarshisida ota-onalar bilan ta'limiy ishlarni olib borish talabi turadi. Ota-onaga eshitishda muammosi bo'lgan farzandining psixologik-jismoniy xususiyatlari, o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari, bolaning zaif va kuchli tomonlari haqida ma'lumot berish va bunda bolaning kuchli tomonlariga ko'proq e'tibor qaratish, muhimi bu bilimlardan foydalanish malakalarini rivojlantirish bu ishning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Bu faoliyatning asosiy maqsadi onaning eshitishda muammosi bo'lgan farzandiga nisbatan dunyoqarashini o'zgartirishdan iborat. Ona o'z bolasiga nisbatan vazifalarini faqat uni boqish, parvarishlash, davolashdagina emas, balki uni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ekanini va bu vazifa muhimroq ekanini anglab yetishi lozim. Shundagina u tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tushunadi va o'z kuchini shu vazifaga ham qaratadi. Natijada ota-ona farzandining ta'limi va tarbiyasi bilan bog'liq korreksion ish sohasida ham bilim va tajribalari ortib boradi. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar onalari bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ish asosan uch bosqichda amalga oshiriladi¹:

Birinchi bosqich, onani o'quv jarayoniga jalb qilishga yo'naltiriladi. Pedagog bolani bu ishda faqat uning muhabbati va xatti-harakatlariga muhtoj ekanligiga, ota-ona farzandining o'quv jarayoni bilan o'zidan boshqa odam bu darajada sidqidildan shug'ullana omasligiga, nihoyat, bu ishdan o'zidan boshqa kishi bu darajada manfaatdor emasligiga bemor bolaning onasini ishontirish kerak.

Ikkinchi bosqich onada o'z farzandining rivojlanish jarayoniga nisbatan qiziqishni shakllantirishni ko'zda tutadi. Bunda pedagog

¹ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

onaning e'tiborini bolasida kichik bo'lsa-da, ammo uning rivojlanishida g'oyat muhim bo'lgan yutuqlar bo'lishi mumkinligiga qaratadi. Asta sekin ona pedagog bergan topshiriqlar ustida uyda bolasi bilan ishlash malakalariga ega bo'lib boradi.

Uchinchi bosqichning maqsadi onaning ko'z o'ngida eshishida muammosi bo'lgan bola ta'limida shaxsiy ijodiy yondoshuvlarni qidirish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

V.V.Tkachevning fikricha, aynan ijodiylikni namoyon qilish onaga uzoq muddatli stress paytida salbiy ichki psixologik holatni susaytirish, o'zining eshishida muammosi bo'lgan farzand bilan bog'liq hayotiy qoidalari va qadriyatlarini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

Eshishda muammosi bo'lgan farzandga ega oilalarda mutaxassis-Surdopedagogning ota-onalar bilan olib boradigan psixokorreksion ishining shakllari turli-tuman bo'lib, Ye.G.Dementeva tomonidan taklif qilingan psixokorreksion modelga ko'ra bu ishning quyidagi shakllari taklif qilinadi:

1. Ota-onalarga individual maslahatlar berish. Bu maslahatlar oilada eshishda muammosi bo'lgan bolaning ta'limi, tarbiyasi va muloqotida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida olib boriladi, shuningdek pedagog bilan ota-ona o'rtasida o'zaro shaxsiy aloqani o'rnatishda asos vazifasini o'taydi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan dastlabki suhbatlarda Surdopedagog ularga quyidagi qoidalarga rioya qilishni, bu qoidalar ularning hayotini ancha osonlashtirishini qayta-qayta ta'kidlashi lozim. Dastlab, Surdopedagog ota-onalarga qo'rquv, tushkunlik, umidsizlik tuyg'ularini yengish kerakligini, ikkinchidan, sodir bo'lgan vaziyatda aybdorni qidirish behuda vaqtini sarf qilish ekanini, bu o'rinda aybdorning o'zi yo'qligini uqtirishi kerak. Uchinchidan, ota-onalarga o'z bolasiga va oilasiga qanday yordam talab qilinishini (tibbiy yoki psixologik-pedagogik, yoki har ikkalasi) aniqlab olishni maslahat beradi.

Shunday qilib, Surdopedagog ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlarda ta'limiy va psixologik ishni birga qo'shib olib boradi, vaziyatni nazorat qilishga to'sqinlik qiladigan shubha va qo'rquv tuyg'ulariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari oilada- oilaviy terapiya va ta'limiy treninglar dasturlariga ham jalb qilinishi mumkin. Ularning maqsadi – oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash,

eshitishida muammosi bo'lgan bola tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq tang vaziyatlar keltirib chiqargan yashirin muammolarni hal qilish. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishning individual maslahatlar berish shakli odatda ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan iborat bo'ladi. Maslahatlar davomida maslahatchi-Surdopedagogning maxsus bilimlari maslahat oluvchilarga kundalik muammolarni hal qilish yoki bo'lajak xatti-harakatlarga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi.

Modomiki maslahat berish eshitishda muammosi bo'lgan bola tug'ilishi bilan bog'liq hayotiy muammolarni hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan asosan sog'lom kishilarga (nogironlikka ega bolaning ota-onasiga va boshqa oila a'zolariga) yordam ko'rsatish uchun qaratilar ekan, bu ish shakli eshitishda muammosi bo'lgan bola oilasining reabilitatsiyasiga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik amaliyotda ham keng qo'llanishi mumkin.

Bu ish shaklidan foydalanish zarurati shu bilan belgilanadiki, eshitishda muammosi bo'lgan bolasi bor bo'lgan oilalarning ko'pchiligi o'tkir yoki surunkali stress holatida bo'ladi, o'zlarining yangi maqomlariga moslasha olmaydilar, oila ichida va atrofdagilar bilan shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuning uchun ularga ishning boshida yangi bilimlar bilan bir qatorda maxsus tashkil qilingan samimiy muloqot g'oyat zarurdir. Korreksion pedagog tomonidan maxsus ta'lim muassasasining boshqa mutaxassislari bilan hamkorlikda o'tkaziladigan turli mavzularga oid majlislarda ota-onalarning qatnashuvi samara beradi. Bunday majlislar natijasida eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning korreksion-rivojlantiruvchi faoliyati sohasida hamda bola bilan o'zaro samarali aloqa o'rnatish borasida kattalarning bilim doirasi kengayadi.

Ota-onalar tomonidan korreksion pedagogning individual mashg'ulotlarini kuzatish. Ota-onalar bilan olib boriladigan bu ish shakli onalarning bolalari bilan birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishda hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga, "ona - bola" juftligida jipslik, fikrdoshlik va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratiladi. Ona individual mashg'ulot davomida Surdopedagogning bola bilan ishlash usullarini kuzatar ekan, bu mashg'ulotlarning konspektini yozib borar ekan, Eshitishda muammosi bo'lgan bolaning ta'limi va tarbiyasi sohasida kerakli bilimlarni egallab boradi.

Bo'sh vaqtni (bayramlar, ko'ngilocharlarni) birgalikda o'tkazish. Ota-onalar, bolalar va pedagoglarni yanada birlashtirish, ular o'rtasida erkin, bexijolat munosabatlarni o'rnatish maqsadida o'tkaziladi. Bunday tadbirlarning quyidagi mavzularini taklif qilish mumkin: "Yangi yilni kutish", "Onajonim-mehribonim", "Navro'z – bahor bayrami", "Eng yaxshi ota" va h.k.

Ota-onalar uchun stend. Stendda namoyish qilinadigan ma'lumotlar va rubrikalar kamida har oyda yangilanib turishi kerak. Stend tarkibidagi "Ota-onalar universiteti" bo'limi ayniqsa katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Biron-bir sababga ko'ra Surdopedagog bilan shaxsan uchrashib, u bilan suhbatlasha olmagan ota-onalar o'z savollarini shu bo'limda qoldirishlari va javob olishlari mumkin.

"Hayotimizdagi voqealar" kundaligini tutish. Ishning bu yo'nalishi Ye.L.Goncharova va O.I.Kukushkina tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni Ye.G.Dementeva psixokorreksion ishga moslashtirib joriy qilgan. Bu bolaning maxsus tashkil qilingan va muntazam olib boriladigan ishi bo'lib, bunda bola o'zi uchun qulay bo'lgan belgilarda o'z hayotini aks ettiradi. Bu yozma matn, rasm, applikatsiya bo'lishi mumkin. Bu yo'nalishning maqsadi ota-onalar va bolalar o'rtasida hamkorlik va birgalikdagi ijodkorlikni mustahkamlashdan iborat.

Ota-onalar guruhi bilan olib boriladigan ish ta'lim va tarbiya bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish; bola bilan o'zaro munosabatlarda mos muloqot va xulq-atvor shakllarini tanlash; maxsus muassasa mutaxassislari bilan konstruktiv va ishchan munosabatlarni o'rnatishni ko'zda tutadi. Bu yo'nalishdagi ish ota-ona uchun bolaga pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatish vositalarini kengaytirishga, bola bilan o'zaro munosabatlarning yangi usullaridan foydalanishni mashq qilishga yordam beradi. Bunday xatti-harakatlar, o'z navbatida, eshitishda muammosi bo'lgan bola tarbiyalanayotgan oilada ichki munosabatlarning uyg'unlashuviga, oilaning ijtimoiy moslashuviga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ishning bu shaklida ota-onalarning farzandi bilan o'zaro munosabatlarida, eshitishda muammosi bo'lgan bolaning ongida quyidagi ijobiy o'zgarishlar yuz berishini kuzatish mumkin: eshitishda muammosi bo'lgan bola oilaviy munosabatlarni yaxshiroq idrok eta boshlaydi; bola o'zining oila jamoasida o'z o'rnini anglay boradi; ota-onalarning bolalariga munosabatlarida muayyan tartib va reja paydo

bo'ladi; ota-onalarning eshitishda muammosi bo'lgan bolalariga munosabatlarida muvozanat paydo bo'ladi, ular bolalarini qanday bo'lsa, shunday qabul qila boshlaydilar, munosabatlarida iliqlik, tushunish yuzaga keladi.

Eshitishda muammosi bo'lgan bolaning rivojlanish qonuniyatlari, ta'lim va tarbiyaning har xil modellari, bolalar shaxsi va xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlari haqida har tomonlama ma'lumotga ega bo'lgan oila a'zolari o'z kelajaklariga ishonch bilan qaray boshlaydilar.

Guruhda olib boriladigan ta'sirchan ish shakllaridan biri bu treninglardir. Psixologik va ta'limiy treninglar ayniqsa keng tarqalgan. Psixologik trening o'zida bir qator individual va guruhiy ish shakllarini birlashtiradi hamda yangi psixologik malakalar va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Hozirda trening dasturlarining maqsadlari tobora kengayib bormoqda, treninglar amaliy psixologiya sohasi chegaralaridan chiqib, ijtimoiy sohada, ta'lim tizimida ham keng qo'llanmoqda.

Eshitishda muammosi bo'lgan farzand o'stirayotgan ota-onalar uchun mo'ljallangan treninglar avvalo oilaviy mikromuhitni boshqarishga, o'zaro maqbul munosabatlarni o'rnatishga, muammoli vaziyatlardan to'g'ri yo'l topishga yordam beradigan malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Trening ota-onalarning psixologik-pedagogik ta'limi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning eng istiqbolli shaklidir. Zero bu muammoning dolzarbligi so'nggi yillarda ayniqsa ortib bormoqda. O'zlari ham eshitishda muammosi bo'lgan bola bo'lgan ota-onalarga nisbatan esa uning o'tkirligi yanada ortadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan guruhiy ish shakllari ularga bir-birlari bilan tajriba almashinish, o'z savollariga muammolari xuddi o'zlarinikiga o'xshagan guruhdoshlaridan javob olish imkonini beradi. Axborot almashinish jarayonida peshqadamlik namoyon qilgan ota-onaning faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi yanada ortib boradi.

Surdopedagoglarning va maxsus ijtimoiy pedagoglarning ish tajribalarida guruhiy ish shakllari, xususan ota-onalar uchun ta'limiy treninglar ijtimoiy-pedagogik ta'sirning yetakchi texnologiyalari qatoridan o'rin oladi. Ularning samaradorligi chet el tajribasida o'z isbotini topdi. Shuni ta'kidlash lozimki, bolalarning yosh xususiyatlari tufayli noto'g'ri tarbiya oqibatlarini mustahkamlanib boradi. Boshqa

tomondan, xuddi shu yosh xususiyatlariga ko'ra bolalar osonroq o'zgaradilar, tarbiyaga ta'sirchanroq, rivojlanish borasida senzitivroq bo'ladilar. Faqat buning uchun bolaga ko'rsatilayotgan ta'sirlar uning imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlariga mos bo'lmog'i lozim. Bu oilaviy tarbiya kamchiliklarini erta tashxislash, oldini olish va korrektsiyalashning zarurligini taqozo etadi. O'qituvchi ota-onadan bola nimalarga ko'proq qiziqishini, nimalarga mayl bildirishini, uning diqqatini qanday tashkil qilish, o'yinga jalb qilish, bolani qanday qilib topshiriqni bajarishga ko'ndirish mumkinligini so'rab biladi. Bu faqat bola haqida kerakli ma'lumotni olishga yordam beribgina qolmay, balki ota-onaning o'z bolasiga munosabati haqida ham ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. Suhbat davomida o'qituvchi bolaning ota-ona ko'rsatib o'tgan eng kichik ijobiy xususiyatlariga ham alohida baho berib o'tishi, o'zining zavqlanganini ko'rsatishi ("Ofarin. Qanday yaxshi. Ukasini yaxshi ko'rar ekan-da?" va h.k.), uning salbiy xislatlariga urg'u bermasligi lozim. Bu suhbat bolaning uyida bo'lib o'tayotgan bo'lsa, o'qituvchi uy sharoitidagi salbiy jihatlarni (uy ivirsigan, bola qarovsiz va h.k.) "sezmasligi" kerak. Suhbat davomida bolaning uyda hech qanday vazifalari yo'qligini, uning tarbiyasi bilan hech kim shug'ullanmasligini yoki oilada uning hamma istaklari bajarilishini bilganida ham, o'qituvchi tanbeh bermasligi, ko'rganlarini muhokama qilmasligi lozim.

Eshitishda muammosi bo'lgan bola ota-onasi bilan birinchi marta maktabga kelganida, o'qituvchi ular bilan suhbatga, sinf xonasini, kerak bo'lsa, butun maktabni ko'rsatishga vaqtini ayammasligi kerak. Kichik yoshdagi eshitishda muammosi bo'lgan bola maktabda o'tadigan dastlabki kunlari onasining yordamiga muhtoj bo'ladi. Hayajondan har xil noxushliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday paytlarda uni begonalar emas, o'z onasi erkalab qo'yishi, kiyimlarini to'g'rilab qo'yishi muhim. Agar bola betinch, tez ta'sirlanuvchi bo'lsa, bu paytda maktabda hozir bo'lgan ona uni tinchlantirishi, zarur hollarda esa uning hayajonini bosishi mumkin. Shunday qilib, yordamchi maktabda birinchi o'qish kunlarida o'qituvchi ota-onalar bilan birgalikda kichkintoyda darsda va tanaffus paytida to'g'ri xulq-atvorni, o'qish faoliyatiga e'tiborli munosabatni, o'z tengdoshlariga do'stona munosabatni shakllantiradi.

Ba'zi hollarda esa ota yoki onaning hatto sinf mashg'ulotlarida hozir bo'lishi faqat dastlabki kunlarda emas, balki uzoq muddat

davomida ham talab qilinadi. Bunday bolaning onasi bolasi bilan dars paytida yonma-yon o'tiradi, unga amaliy vazifalarni bajarishda yordam beradi, diqqatining chalg'imasligiga harakat qiladi, bolani hojatxonaga, oshxonaga kuzatib boradi, jismoniy tarbiya uchun kiyimlarini kiydirib qo'yadi va h.k. Bolaning xulq-atvori, o'quv faoliyati izga tushganidagina, o'qituvchi onaning yordamidan voz kechishi mumkin. O'z vazifalariga sidqidildan yondoshadigan o'qituvchiga ona qiyofasidagi beixtiyor kuzatuvchining darsda hozir bo'lishi halaqit bermaydi, aksincha, yordam beradi. Ona ham, o'z navbatida, o'qituvchining mehnati nechog'lik qiyin ekanini, u eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ta'limi va tarbiyasiga qancha kuch sarflayotgani o'z ko'zi bilan ko'radi. Boshqa ota-onalar undan o'qituvchining bu sermashaqqat mehnati haqida biladilar, natijada o'qituvchining obro'siga putur yetmaydi, balki u yanada ortadi. Ayrim eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning ota-onalari noto'g'ri hayot kechiradilar: ichkilikka ruju qo'ygan bo'ladilar, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalarini buzadilar. Bunday ota-onalar odatda o'z farzandlari bilan shug'ullanmaydilar, uyda oddiy tartibga rioya qilinmaydi, oilada tun-u kun janjal-suronlar hukm suradi, ovqatlanish to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'ladi. Hatto shunday holatlarda ham o'qituvchi bunday ota-onalar bilan uchrashganda bosiq, xushmuomala bo'lib qolishi lozim. U ishi yurishmagan ota-onalarning ahvollariga achinadi, ularga faqat bitta iltimos bilan murojaat qiladi: o'z farzandlarining yashash tarzlarini o'zgartirishlarini, ularga onda-sonda bo'lsa ham kerakli narsalarni olib berib xursand qilishlarini va sh.k. so'raydi. Keyinchalik o'qituvchi ota-onalarga jiddiyroq talablar qo'yishi, ota-onalik burchini bajarish zarurati haqida qat'iyroq eslatib qo'yishi mumkin. Biroq bunga vaqt o'tishi bilan, shunda ham qachonki o'qituvchi ota-onalar qalbiga yo'l topa olsa, ularni o'z niyati faqat ezgulikka qaratilganiga ishontira olsa erishiladi. Ota-onalar maktab binosi (sinf xonalari, ustaxonalar, yotoqlar, dam olish xonalari) bilan, o'quvchilar bilan tanishtiriladi. Ota-onalarga estetik jihatdan chiroyli jihozlangan, ozoda xonalarni, o'quvchilarning batartib tashqi qiyofasini, ularning intizomga rioya qilishi va xayrixohligini, o'qituvchilarning madaniyatini ko'rsatish kerak. Jiddiy yo'lga qo'yilgan ta'lim jarayonining bunday belgilari maktabga nisbatan ham, uning xodimlariga nisbatan ham hurmat va ishonch hissini keltirib chiqaradi. Eshitishda muammosi bo'lgan

bolalari bo'lgan ota-onalarning ko'pchiligi pedagogik bilimlar asoslariga, bolalar psixologiyasi bo'yicha tasavvurlarga ega emaslar. Ota-onalar eshitishda muammosi bo'lgan bola pedagogikasi va psixologiyasi haqida muayyan bilimlar doirasiga ega bo'lishlari lozim. Ota-onalar o'rtasida psixologogik-pedagogik bilimlarni shakllantirish yo'nalishdagi suhbatlar majmuini bitta kishi (shifokor, maktab o'qituvchilaridan biri, taklif qilingan mutaxassis) olib borishi ham mumkin, bitta yo'nalishdagi suhbatlar mavzular bo'yicha bir nechta mutaxassislarga bo'lib berilishi ham mumkin. Ma'ruzachi sodda, tushunarli qilib gapirishi lozim, chunki ota-onalar o'rtasida ma'lumoti va bilim darajasi past kishilar ham bo'ladi. Ma'ruzada maxsus maktab va uning o'quvchilari haqida gap borganida, ma'ruzachi o'zi ko'zda tutgan bolalarning ismi va familiyasini hech qachon tilga olmasligi kerak. O'z farzandlari yoki oilalari haqida gap borayotganini ota-onalarning o'zlari fahmlaydilar. Xabarlar (ma'ruzalar) uzoq davom etmasligi lozim. Ko'pchilik ota-onalar uzoq ma'ruza tinglab o'rganmaganlar va quruq gapni eslab qololmaydilar. Ularning vaqtlari ham cheklangan bo'ladi. Turli ko'rgazmali vositalar (fotosuratlar, ilmiy-ommabop filmlardan lavhalar va h.k.) bilan boyitilgan mavzu osonroq idrok etilishini ham yodda tutish kerak. Maxsus maktab ota-onalar bilan o'tkaziladigan suhbatlarda maktab hayoti va maktab joylashgan hudud hayoti bilan bog'liq boshqa muhim masalalarga ham to'xtaladi (masalan, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil qilish, maktabni tamomlaganidan keyin o'quvchilarni ishga joylashtirish va h.k.). maktabning har bitta xodimi, ota-onalar bilan uchrashar ekan, bolalarning ta'limi va tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga to'xtalib o'tadiki, bu ham ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirishga yordam beradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, seminar-treninglar ota-onalar bilan olib boriladigan ish usullarining eng samaralisi hisoblanadi. Ota-onalar bilan mutaxassislar hamkorligining samaradorligi ularning o'zaro munosabatlariga, mutaxassislarning kasbiy etikasi va mahoratiga bog'liq. Pedagogik axloq (etika) u tomondan ham, bu tomondan ham xolislikni talab qiladi. Bu qoidaga avvalo o'qituvchi rioya qilishi kerak. U o'zining kasbiy burchiga sodiq bo'lishi va ota-ona u haqida yomon fikrda ekanini bilib qolgan taqdirda ham arazlardan yuqori turishi va bolaning tarbiyasi yo'lida ota-ona bilan munosabatni o'zgartirmasligi kerak. Ota-onaga ba'zida o'qituvchi ularning farzandlariga adolatsiz munosabatda

bo'layotgandek ko'rinadi. Ko'p hollarda bunday vaziyat farzandlarining ta'sirida yuzaga keladi: bola maktabda sodir bo'lgan ishlar haqida gapira turib, o'zining muvaffaqiyatsizliklarini o'qituvchisining unga nisbatan go'yo adolatsiz munosabati bilan oqlashga urinadi. O'qituvchi ota-onaning o'zi va o'z hamkasblari to'g'risidagi fikriga befarq bo'lmasligi kerak, zero bunday sovuqqonlik xato ijtimoiy fikrning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Ota-onaning bu boradagi har qanday noxolis fikrini o'qituvchi osoyishtalik bilan aniq dalillar yordamida rad qilishi lozim. O'qituvchi ota-onalar o'rtasidagi o'z nufuzini qadrlashi lozim. O'qituvchi bilan ota-onalar o'rtasidagi aloqalar faqat o'quvchiga nisbatan qat'iy chora ko'rish zarurati tug'ilganida amalga oshiriladigan bo'lsa, bu aloqalar mavhum yoki salbiy tus kasb etadi. Oila va maktab aloqalari doimiy bo'lishi lozim. Shunda ota-onalar har gal maktabga chaqirilganida, xavotirga tushmaydilar, bolaning ta'limi va tarbiyasi ham ikki yoqlama ta'sir va nazorat ostida bo'ladi. Pedagogik axloq o'quvchilarning ota-onalari oldiga ham muayyan talablar qo'yadi. Ular o'qituvchining obro'sini bola ko'z o'ngida asrashlari va himoya qilishlari, maktab va o'qituvchi haqida yomon fikr aytmassliklari, o'qituvchilarning farzandlari haqida ochiq gapirgan gaplarini ularga yetkazmassliklari kerak. Ota-onalarning pedagogik ta'limi axloqiy-ma'naviy maqsadni ko'zlashi lozim, zero, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi ziddiyatlar ko'proq hollarda o'qituvchilarning ota-onalar tuyg'ularini ayamasliklaridan kelib chiqadi: axir bola qanday bo'lishidan qat'i nazar, u ota-ona uchun qadrlı. Shuning uchun bola umum qabul qilingan axloq normalarini buzgani tufayli unga beriladigan bahoda uning qilmishini o'ta bo'rttirish yaramaydi. Agar pedagogning tuyg'ulari aqlidan ustun kelsa, u o'zining xatti-harakatlarini qanchalik ishonarli asoslamasin, uning ota-onalar bilan to'qnashuvi muqarrardir.

O'qituvchining bolalarda ma'naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalash bo'yicha olib boradigan ishi, bu odatlar oilada ham singdirilsa, ota-onalar o'qituvchilarning talablarini qo'llab-quvvatlasagina samarali bo'ladi. Ota-onalarning pedagogik jihatdan tayyor emasligi bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga to'sqinlik qilishi tabiiy. Demak, ota-onalar o'rtasida oilada axloqiy tarbiya shakllari va metodlari haqida targ'ibot va tashviqot ishlarining olib borilishi zarur.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ish muvaffaqiyatli kechishi uchun o'qituvchi quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim: aralashimlilik; xushmuomalalik (o'qituvchi va ota-ona o'rtasida samarali suhbat qurish uchun zarur); sabr-toqat (ota-onalar tomonidan hatto ochiq-oydin salbiy munosabatga duch kelganida ham o'qituvchi tarbiya bilan bog'liq muammolarning ijoby hal qilish yo'llarini topishi kerak); hamkorlikka tayyorlik (Eshitishda muammosi bo'lgan bolaga ta'sir ko'rsatishda o'qituvchi va ota-onaning o'zaro yordami); yagona talablar (tarbiyaviy ishda pedagog va ota-onaning hamkorlikda ishlab chiqqan umumiy yo'li).

O'qituvchilar va ota-onalar tomonidan ushbu qoidalarning qabul qilinishi, maxsus maktab o'quvchilarining shaxsini shakllantirishga qaratilgan hamkorlikdagi ishning samarali kechishiga yordam beradi. Bo'lajak o'qituvchi kasbiy kamolotga erishguncha bir qancha bosqichlardan o'tadi. Bu bosqichlarning eng oliysi mahoratdir. Undan oldin esa o'qituvchi kasbiy jihatdan o'z mavqeyini (o'rmini, yo'lini) belgilab olish bosqichi, o'z tasavvuridagi o'qituvchining namunaviy obrazini modellashtirish bosqichi, bu obrazni amaliy jihatdan sinovdan o'tkazish bosqichi, o'z shaxsiy uslubini, yo'lini topish bosqichidan o'tadi. Mahoratga erishish yo'lidagi bu bosqichlarning har birida pedagog muayyan kasbiy tajriba to'playdi. Mana shu omillarning rivojlantirilishi, muttasil kamolotga intilish va erishish o'qituvchiga bosqichdan-bosqichga ijodiy o'sib borishga, uning potensial imkoniyatlarining, kasbiy mahoratining boyib borishiga yo'l ochadi.

Bu o'zini-o'zi rivojlantirish qay darajada maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, bo'lajak pedagog-surdopedagog kasbiy sifatlarning shakllanganlik darajasini qay darajada aniq tasavvur qilsa, uning bu yo'ldagi harakatlari shu darajada samarali bo'ladi. Oila sharoitida eshitishda muammosi bo'lgan bola bolaning tarbiyasi borasida ota-onalarga, bu ishda oilalar bilan hamkorlik qiladigan maxsus muassasalar va tashkilotlarga ushbu hamkorlikni ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilishga yordam berish maqsadida quyidagi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi¹:

¹ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments: Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

1. Ota-onaning erta yoki qarindoshlik nikohlarini, alkogolizm, giyohvandlik oqibatida eshitishda muammosi bo'lgan bola tug'ilgan bolalarning nuqsonlarini erta aniqlash va ularni korreksion ishga o'z vaqtida jalb qilish masalasiga yanada jiddiyroq ahamiyat berish.

2. Qarindoshlik nikohlari, alkogolizm, giyohvandlik, erta turmush qurish oqibatlaridan biri har xil nogironlik turlariga ega bolalarning tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkinligini aholi o'rtasida ilmiy asosda yanada kengroq targ'ib qilish va bu tadbirlarni muntazam tashkil qilinishini ta'minlash.

3. Oilada eshitishda muammosi bo'lgan farzandi bor ota-onalar bilan ishlash shakllarini, mazmunini va metodlarini takomillashtirish. Eshitishda muammosi bo'lgan farzandi bo'lgan oilalariga tibbiy, ijtimoiy, iqtisodiy yordam ko'rsatish borasida tibbiyot va maxsus muassasalar, oila, mahalla hamkorligini kuchaytirish va bu yo'ldagi faoliyatlarini muvofiqlashtirish.

4. Ota-onalar bilan olib boriladigan ta'limiy-ma'rifiy ish jarayonida oilada eshitishda muammosi bo'lgan bolaga rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiya berish, uni davolash va korreksion reabilitatsiya qilish, bolaning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mehnatning muayyan turiga yo'naltirish masalalariga alohida e'tibor berish lozim. Xullas, bu ish zaminida asosiy tarbiya funksiyalarini oilaga topshirish masalasi turadi.

5. Bu ta'limiy - ma'rifiy ishlarning markazida eshitishda muammosi bo'lgan bolaning ta'limi va tarbiyasi yaqin aloqada va birlikda olib borilishi shart degan fikr turishi lozim. Bunda L.S.Vigotskiyning nazariyasiga ko'ra, eshitishda muammosi bo'lgan bola tarbiyasida, birinchidan, saqlangan funksiyalarga tayanish, ikkinchidan, shaxsning ijobiy sifatlaridan foydalanish, uchinchidan, butun tarbiya jarayonini nuqsonning sabablari va chuqurligini, shaxsga xos psixofizik xususiyatlarni hisobga olgan holda tuzish lozim.

6. Bu ishlarni samarali amalga oshirish uchun turli soha mutaxassislarini birlashtirgan maxsus konsultativ markazlar tuzish va ular zimmasiga ota-onalar klublarining faoliyatiga metodik va tashkiliy yordam ko'rsatishni ham yuklash maqsadga muvofiq.

7. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ota-onalariga "sog'lom va nosog'lom bola", "sog'lomlashtirish", "oilalarda sog'lom muhitni saqlash", "sog'lom turmush tarzi", "maxsus va inklyuziv ta'lim"

tushunchalarining mazmunini tushuntirish, eshitish nuqsoniga ega farzandni hayotga tayyorlash, moslashtirish, eshitishda muammosi bo'lgan farzandni tarbiyalashda ota-onalarning mas'uliyatini kuchaytirish kabi masalalarga pedagogik nuqtayi nazardan yondashishga undash.

8. Muqobil (alternativ) muhitlarda tarbiya institutlarini yaratish va ularning faoliyatini rasmiy tarbiya strukturalarining faoliyati bilan muvofiqlashtirish davr talabidir. Tarbiyaga yo'naltirilgan ijtimoiy fondlar va tashkilotlar tarmog'ini kengaytirish ham nogironlik bilan bog'liq muammolarni hal qilishga samarali yordam berishi mumkin.

Ota-onalar hamda ularning farzandlari tarbiyasiga bo'lgan munosabatlar haqida axborotga ega bo'lish o'zaro hamkorlik asosida zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriluvchi nutq o'stirish ishlarini tashkil etish modelini belgilash, unda qo'llanuvchi metod va shakllarni tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu maqsadda ota-onalarning farzandlari bilan uy sharoitida olib boriluvchi ish tizimini ishlab chiqish va uni sinovdan o'tkazish talab etildi.

Ota-onalarning farzandlari tarbiyasidagi ishtirokini faollashtirish maqsadidan kelib chiqqan holda o'z oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

- ota-onalarda zaif eshituvchi bola ta'lim-tarbiyasi maqsadi haqida to'g'ri tushuncha hosil qilish;
- ota-onalar o'rtasida farzandlari xususiyatlari, imkoniyatlari haqida tushuncha hosil qilish hamda ular bilan olib boriluvchi pedagogik jarayon yo'nalishlari haqida bilimlarni kengaytirish, korreksion ishlarning usul va yo'llari bilan tanishtirish;
- uy sharoitida olib borilishi mumkin bo'lgan mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishning dastlabki malakalarini shakllantirish.

Tadqiqotimizda ota-onalar bilan olib boriluvchi ishlarning rasmiy (yuzaki) ravishda emas, balki farzandlarining kelajagini yaratishda ularning mas'uliyatini anglashga qaratilgan ish shakllarini maqsadli olib borishga intildik. Ya'ni o'z ishimizda ota-onalarning ma'suliyatini oshirishda quruq ma'ruza hamda og'zaki tavsiyalarning kam samarali ekanligini inobatga olgan holda, ishning quyidagi sertarmoq ko'rinishlaridan foydalandik:

Ota-onalar bilan olib boriluvchi ish shakllari

Muddat	Ota-onalar bilan olib boriluvchi ish shakllari	
	Yakka tartibda	Jamoaviy ravishda
Har hafta	Ota-ona bilan yakka-yakka suhbat	
doimiy	Muloqot qutichasi (anonim ravishda)	
Har chorakda	So'rovnoma	
Talab asosida	Maslahat, yo'riqnomalar berish	
Har chorakda	Ota-onalar majlisi	
Har oyda	Ota-onalar universiteti	
Talab asosida	Davra suhbatlari	
Talab asosida	Ota-onalar guruhi uchun maslahatlar	
bayramlarda	Bayram tadbirlari	
Chorak vakunida	Ochiq eshiklar kuni	
doimiy	Ota-onalar burchagi (devoriy axborot materiallari)	
Ta'til davrida	Seminar-treninglar	
Har ikki oyda	Kinofilmlar namoyishi	

Ota-onalar bilan olib boriluvchi ishning tashkiliy shakllari bolalarni tarbiyalash ishlarini olib borishda katta kuchga ega ekanligini namoyish etdi. Turli-tuman tadbirlarning tashkil etilishi ota-onalarning farzandlari tarbiyasi borasidagi mas'uliyatlarining kuchayishi, balki boshqa sust ota-onalarga ta'sir ko'rsatish, ular bilan pedagogik tashviqotlar olib borish va hatto, homiylik ko'maklarini taqsimlash va shu kabi vazifalarni bajarishlaridagi faolliklarining yuzaga kelish imkonini yaratdi.

«Ochiq eshiklar kuni», turli bayram tadbirlarining asosiy maqsadi ota-onalarga tarbiyalanuvchilar tomonidan maxsus ta'lim jarayonida erishilgan yutuqlarni ko'rsatish orqali ularni ushbu jarayondagi

hamkorlikka jalb qilish, farzandlarining uyda bo'lgan vaqtlarida unga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish lozimligi haqida o'ylab ko'rishlariga undaydi. Ota-onalarning bunday tadbirlarda ishtirok etishlari o'z farzandalariga bo'lgan ishonch va e'tiborlarining kuchayishiga turtki berdi.

Tarbiya muammolarini hal qilishda qulay sharoitni yuzaga keltirish maqsadida ota-onalar o'quvini tashkil etdik. Bu yo'nalishda biz quyidagi ishlarni olib bordik:

- So'rovnomalar, suhbat, maslahatlar uyushtirdik;
- Har bir guruhning kiraverishidagi burchagiga anonim muloqot qutisini o'rnatdik;
- Ota-onalar kengashi ko'magida ota-onalar uchun seminar, treninglar tashkil etdik;
- Xorij kinoustalari tomonidan nogironlar haqida olingan filmlar namoyishini uyushtirdik.

Ushbu tadbirlarning olib borilishida pedagogik jamoada faoliyat yuritayotgan surdopedagog mutaxassislikka ega bo'lgan ilg'or pedagog xodimlarning ish tajribalariga tayanildi. Maslahatlarga shuningdek, muassasaning tibbiyot xodimlari ham jalb qilindilar.

Uy sharoiti bola lug'at boyligining kengayishi, so'zlashuv nutqi, talaffuz hamda eshitish malakalarining shakllanishi, bilim va tushunchalarning rivojlanishi uchun turli-tuman tabiiy holatlarni yuzaga keltiradi.

Biz ota-onalar uchun uy sharoitida farzandlari bilan olib borilishi mumkin bo'lgan rejali ish tizimini yaratdik. Tavsiya etiluvchi barcha tadbirlar soddalashtirilgan holda, bolalarning rivojlanish xususiyatlari, shuningdek, kattalarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ba'zan bolaning erishgan yutuqlariga ko'ra ularni biroz soddalashtirgan yoki murakkablashtirgan holda ham qo'llanilishi imkonini berishga alohida ahamiyat qaratdik.

Uy sharoitida zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha quyidagi pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Har bir ota-onaga surdopedagog bilan hamkorlikda farzandi uchun rivojlantirish (6 oy yoki 1 yilga) dasturini tuzib chiqdik.

2. Har bir mashg'ulotni avvaldan puxta o'ylangan rejaga tayangan holda olib borishlariga e'tibor qaratdik (ya'ni mashg'ulotlar uchun

umumiy daftar tutib, unga bajariladigan har bir faoliyatni yozib borish).

3. Har bir faoliyatni avval ota-onalarning o'zlari bajarib ko'ridilar.

4. Mashg'ulot uchun kerakli ashyo va qurollar avvaldan hozirlab qo'yildi.

5. Mashg'ulot davomida qo'llaniluvchi so'z va jummalarni kartochkalarga avvaldan yozib tayyorlab qo'yildi (rasm varag'i kengligi 4-5 sm. qilib kesib olinadi va ushbu bo'lak (kartochka)larga yozuvlar bosma harflarda marker (qalin flomaster) yoki flomasterda yozildi).

6. Mashg'ulot davomida u yoki bu faoliyatni bajarish jarayonida boladan aytilganlarni takrorlab borilishining so'ralishiga doimo e'tibor qaratib borishni unutmadik.

7. Ota-onalar farzandlarining har bir bajargan va erishgan yutuqlarini rag'batlantirib borishlari lozimligini unutmasliklari tushuntirildi (chunki bolaning har bir bajargan ishiga kattalar tomonidan «To'g'ri», «Juda yaxshi» bahosining berib borilishi uning mustaqil faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi va boshlagan ishini nihoyasiga yetkazish ishtiyoqini uyg'otadi).

8. Ota-onalar farzandlarining rivojlanishida biroz muammolari bo'lganligi sababli dastlabki paytlarda qiyinchilik sezishlari mumkinligi, shunga qaramay, shug'ullanishlar davom ettirilishi lozimligi, mashg'ulotlarga og'rinmay, sabr bilan yondashilsa, bolaning rivojida o'zgarishlar albatta yuz berishi kabilar uqtirildi.

Shuningdek, ota-onalarga oila sharoitida tashkil etiluvchi turli-tuman mashg'ulotlarda asosiy e'tibor farzandlarining nutqiy, shuningdek, umumiy rivojlanishiga qo'yilgan talablarning yechimiga qaratilishi, har bir mashg'ulotlarga ta'limiy, tarbiyaviy va korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar qo'yilishi, ularning o'zaro bog'liq holda hal etib borilishi lozimligi tushuntirildi. Mashg'ulotlarning bunday tashkil etilishi bolalarning nutqiy, shuningdek, umumiy rivojlanish darajalarining me'yorga yaqinlashuvlarini ta'minlashi yetkazildi.

Bu davrga kelib bolalar asosan o'yin faoliyati bilan mashg'ul bo'lsalarda, asta-sekinlik bilan yaratuvchanlikka yo'naltirilgan foyiat turlariga qiziqib borishlari kuzatilganligi sababli, biz uy sharoitida ota-onalarning farzandlari bilan rasm chizish, qurish-yasash bo'yicha olib borishlari imkonini beruvchi tizimli mashg'ulotlar ishlanmalarini

yaratdik. Ishlab chiqilgan ishlanmalarimiz bolalarning umumiy va nutqiy rivojlanish darajalariga bog'liq ravishda soddalashtirilgan holda ham qo'llanish imkonini berdi. Olib borilgan mashg'ulotlar bolaning har tomonlama: atrof-olamni faol anglashi, kishilar bilan nutqiy muloqotga kirisha olish malakasi, ruhiy xususiyatlarining rivojlanishini ta'minlashga qaratildi.

Mashg'ulotlardan namunalalar

Qog'ozdan taqlid asosida sodda ko'rinisdagi o'yinchoq (buyum)lar yasash

Mavzu: Varrak.

Maqsad: Bola ega bo'lgan qog'oz bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, «qog'oz», «ol», «bukla», «varrak» so'zlari va kattalar tomonidan berilgan topshiriqlarning ma'nosini tushunishini mustahkamlash, kattalar topshirig'i bo'yicha va taqlid asosida buyum va narsa yasashni o'rgatish.

Mashg'ulot uchun kerak bo'lgan ashyo va qurollar: 2 ta rasm daftari (biri bola uchun va yana biri mashg'ulot olib boruvchi uchun), so'z va jumlar yozib tayyorlab qo'yilgan kartochkalar, bolalarning varrak uchirayotgani tasvirlangan rasm (imkoniyatga ko'ra) yoki oldindan yasab qo'yilgan varrak, bir g'altak ip.

Mashg'ulotning borishi

1-bosqich. Olib boruvchi bolaga bolalarning varrak uchirayotgani tasvirlangan rasmni yoki oldindan yasab qo'yilgan varrakni ko'rsatib: «Bu nima?» deb so'raydi va boladan javob oladi. Agar bola javob bera olmasa, «varrak» kartochkasi ko'rsatilib, birgalikda aytiladi.

2-bosqich. So'ngra bolaga qarata: «Varrak yasaymiz», -deb aytiladi va ushbu jumla yozilgan kartochka ko'rsatiladi.

3-bosqich. Bolaga: «Qog'ozni ol» topshirig'i (kartochkani ko'rsatgan holda) beriladi. Olib boruvchining o'zi topshiriqni bajaradi va bolani xuddi shu faoliyatni birgalikda bajarishga undaydi.

4-bosqich. Qog'oz avval bir yonidan, so'ng ikkinchi yonidan 3 sm qalinlikda buklanadi va iz tushiriladi. Bola olib boruvchi bilan bir vaqtning o'zida faoliyatni bajaradi. Boladan aytilganlarni takrorlab

borishi soʻraladi va uning har bir topshiriqni aytib bajarishiga «Toʻgʻri» bahosi berib boriladi.

5-bosqich. Varraklarga ip ulanadi.

6-bosqich. Bola bilan birgalikda kartochkada yozilgan «Varrak yasadi» jumlasini aytiladi.

7-bosqich. Yasalgan varraklar taqqoslanadi va baho beriladi: «Yaxshi».

Varraklar koʻchaga uchirish uchun olib chiqiladi.

Berilgan narsaning rasmini chizish (taqlid asosida)

Mavzu: Shar.

Maqsad: Bola ega boʻlgan «shar», «ol», «chiz», «och» soʻzlarini mustahkamlash, qalam bilan ishlash koʻnikmalarini shakllantirish, kattalar topshirigʻi boʻyicha va taqlid asosida rasm chizishga oʻrgatish.

Mashgʻulot uchun kerak boʻlgan ashyo va qurollar: 2 ta rasm daftari (biri bola uchun va yana biri mashgʻulot olib boruvchi uchun), 2 ta oddiy qalam, soʻz va jumlar yozib tayyorlab qoʻyilgan kartochkalar.

Mashgʻulotning borishi

1-bosqich. Olib boruvchi bolaga shar tasvirlangan rasmini koʻrsatib: «Bu nima?» deb soʻraydi va boladan javob oladi. Agar bola javob bera olmasa, «shar» kartochkasi koʻrsatilib, birgalikda aytiladi.

2-bosqich. Bolaga qarata: «Shar chizamiz» deb aytiladi va ushbu jumla yozilgan kartochka koʻrsatiladi. Bolaga: «Rasm daftarni ol», «Rasm daftarni och», «Qalamni ol» topshiriqlari beriladi. Olib boruvchining oʻzi topshiriqlarni bajaradi va bolani xuddi shu faoliyatni birgalikda bajarishga undaydi.

3-bosqich. «Shar chizamiz»,- deb aytiladi (yozuvli kartochka koʻrsatgan holda) va olib boruvchi shar rasmini chizishga kirishadi. Bola olib boruvchiga taqlid qilgan holda shar rasmini chizadi.

4-bosqich. Ish tugallangach, bola bilan birgalikda kartochkada yozilgan «Shar chizdik» jumlasini aytiladi.

5-bosqich. Mashgʻulot nihoyasida chizilgan sharlar taqqoslanadi va baho beriladi: «Yaxshi».

Oʻzi chizgan narsani mustaqil boʻyash

Mavzu. Shar.

Maqsad. Bola ega boʻlgan «shar», «ol», «chiz», «och» soʻzlarini mustahkamlash, narsa va buyumning rangiga mos rangni tanlash,

qalam bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, kattalar topshirig'i bo'yicha mustaqil ravishda rasmni bo'yashga o'rgatish.

Mashg'ulot uchun kerak bo'lgan ashyo va qurollar: rasm daftari, olti xil rangli qalamlar to'plami, so'z va jumlar yozib tayyorlab qo'yilgan kartochkalar.

Mashg'ulotning borishi

1-bosqich. Olib boruvchi bolaga o'zi avvalgi mashg'ulotda tasvirlagan shar rasmni ko'rsatib: «Bu nima?» deb so'raydi va boladan javob oladi: «Shar» tablichkasi ko'rsatilib, birgalikda aytiladi.

2-bosqich. Bolaga qarata: «Nima qilamiz?» deb so'raladi va ushbu jumla yozilgan tablichka ko'rsatiladi.

3-bosqich. Bolaga qarata: «Sharni bo'yaymiz»,- deb aytiladi va ushbu jumla yozilgan tablichka ko'rsatiladi.

4-bosqich. Bolaga: «Rasm daftarni ol», «Rasm daftarni och», «Qalamni ol» topshiriqlari (tablichka ko'rsatish bilan birgalikda) beriladi va boladan olti xillik rangli qalamlardan xohlaganini olish taklif etiladi: «Xohlaganingni ol».

5-bosqich. Boladan faoliyatni bajarishga kirishishi talab qilinadi: «Sharni bo'ya».

6-bosqich. Bola mustaqil ravishda shar rasmni bo'yashni amalga oshiradi. Olib boruvchi uning faoliyatni to'g'ri bajarishini nazorat qilib boradi.

7-bosqich. Ish tugallangach, boladan: «Nima qilding?» savoliga javob berilishi so'raladi. Bolaga tablichka ko'rsatilib, birgalikda: «Sharni bo'yadim» jumlasini aytiladi.

8-bosqich. Bo'yalgan sharga baho beriladi: «Yaxshi».

Bolalarning nutqiy jihatdan rivojlanishi, atrof-olam haqidagi tushunchalarning kengayishiga erishish maqsadida mashg'ulotlar mobaynida bola tomonidan yaratilgan ishlanmalar albatta o'yin jarayoniga kiritildi. Bolalarning rasm chizish, qurish-yasash jarayoni mahsuliga emas, balki yasagan narsalaridan o'yinlarida kengroq foydalanishiga erishib borilishiga alohida e'tibor qaratish lozimligi to'g'risida ko'rsatmalar berildi. Chunki ishlanmalar aynan o'yin jarayoniga kengroq olib kirilishi bola nutqining rivojlanishiga, uning keyingi mashg'ulotga qiziqish bilan yondashishiga, hayotining takomillashishiga, atrof-olam haqidagi tushunchalarining kengayishiga, shuningdek, shaxs sifatida takomillashib borishiga asos bo'ldi.

Biz shuningdek, pedagog xodimlar va ota-onalar bilan o'tkazilgan o'quv va trening mashg'ulotlarimizda surdopedagog va tarbiyachi tomonidan ota-onalar bilan hamkorlikda olib boriluvchi markazida nutq rivojlantirish jarayoni turuvchi ish yo'nalishlarini belgilab oldik hamda uni «Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqiy rivojlanish asosidagi ta'lim-tarbiyasining modeli» deb nomladik. Ko'rib turganimizdek, yaratgan modelimiz yadrosini nutq rivojlantirish ustidagi ishlar tashkil etib, u ta'lim-tarbiya jarayonining barcha jabhalarini qamrab oladi, ya'ni kengqamrovli tavsifga ega va albatta uchlik - surdopedagog, tarbiyachi hamda ota-onalar faol ishtiroki orqali ta'minlanadi. Ya'ni ushbu uchlikning hamkorlikdagi faoliyatigina zaif eshituvchi bola tarbiyasining pirovardi - ijtimoiy omili sanalgan nutqining to'laqonli rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, biz tomondan surdopedagog hamda tarbiyachi tomonidan olib boriluvchi korreksion-kompensator va rivojlantiruvchi tavsifga ega ishning mazmuni ishlab chiqildi. Ko'rib turganimizdek, surdopedagog ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida loyihalashtiruvchi sifatida maydonga chiqsa, tarbiyachi tomonidan olib borilishi lozim bo'lgan faoliyatning muvaffaqiyati bolalar nutqlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Maxsus ta'lim muassasasi pedagog xodimlari hamda ota-onalar ishtirokida o'tkazilgan trening o'quvlarida shu kabi mazmundagi mavzular ustida ishlanishi ishtirokchilarning kasb savodxonligining oshishiga, ota-onalarning farzandlari rivojlanishining istiqboliga ishonchni, shuningdek, har bir ishtirokchining ta'lim-tarbiyaga ijobiy yondoshuvini keltirib chiqardi.

Eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda maktab va oila hamkorligi

Eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilar tarbiyasining muvaffaqiyati nafaqat surdopedagogning o'z majburiyatlariga nisbatan munosabatlariga, ularning kasbiy tayyorgarligi-yu axloqiy-psixologik qiyofasiga, balki bola tug'ilib o'sadigan mikro muhitga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Oiladagi tarbiya shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishida chuqur iz qoldiradi. Bola muayyan hayotiy tajriba orttiradigan va jamiyatda qaror topgan axloq normalariga daxldor bo'ladigan dastlabki ijtimoiy muhit bu oiladir.

Bolaligida har bir inson beg'araz va cheksiz onalik mehri va g'amxo'rligini sezadi, yaxshi amallarni yomonlaridan farqlashga o'rganadi. Oilada bolaning muayyan ijtimoiy qadriyatlarga yo'naltirilgan hayotiy qarashlari shakllana boshlaydi, hayotiy maqsad haqidagi tasavvurlari paydo bo'ladi.

Maktabga inson yetti yoshida kirib keladi. Bu davrga kelib u yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik haqida o'z tasavvurlariga ega bo'ladi. O'qituvchi bolada qanday tushunchalar shakllangani haqidagina emas, balki qanday sharoitda shakllanganini ham bilishi kerak. Shuning uchun o'qituvchi ota-onalar bilan aloqa o'rnatishi, o'quvchi tarbiyasida ularning o'ziga ittifoqdosh bo'lishlariga erishishi lozim.

Maxsus maktabda eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarning ta'lim va tarbiya berish ishining maqsadi – bola shaxsining maqbul shart-sharoitlarda rivojlanishini ta'minlash (jismoniy, ijtimoiy, odob-axloq me'yorlarida, intellektual), bolaga kompleks, ya'ni ijtimoiy-pedagogik, korreksion, tarbiyaviy va psixologik yordam berish, shuningdek bolani kundalik hayotiy vaziyatlarda himoya qilishdan iborat. O'qituvchilar ham, ota-onalar ham bola ijobiy tomonga rivojlanishi va to'g'ri tarbiya topishidan manfaatdor. Maktab va oilaning o'zaro aloqalari tarbiya maqsadi va vazifalarining birligidan kelib chiqadi. Bu maqsadni maxsus o'quv muassasasining o'zi bajara olmaydi. Bunda ota-onalar, oilaning yaqin kishilari, qolaversa mahallaning ishtiroki muhim o'rin egallaydi. Bu esa o'qituvchini, o'zining ota-onaga bo'lgan munosabatlaridan qat'i nazar, ular bilan doimiy aloqa qilib turishini taqozo etadi.

Nogiron bolalarni tarbiyalash, ularning kamchiliklarini korreksiyalash va bartaraf etish, ta'limini to'laqonli tashkil qilish, pirovard natijada ijtimoiy-foydali shaxs qilib yetishtirishda oilaning roli katta ekani e'tirof etilgan haqiqatdir.

Rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bola uyda tarbiyalanayotgan paytda ham, rivojlanishdagi kamchilik chuqur bo'lgani sababli yoki yuzaga kelgan hayotiy vaziyat tufayli u maxsus muassasada bo'lgan paytda ham bola tarbiyasida ota-onalarning tutgan o'rnini hech narsa bosa olmaydi. O'z farzandining rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishda aql bovar qilmaydigan kuch sarflayotgan ota-onalar oz emas. Biroq ularga ko'p hollarda bilim va malakalar yetishmaydi, ba'zida esa soxta, hatto tasavvurlar xalaqit beradi.

Nogiron bolalarning oilada tarbiyalash masalalari bilan maxsus shug'ullangan olimlardan A.R.Maller va G.V.Sikoto faqat bir qator shartlarga rioya qilinsagina turli nogironlikka ega bolalarning rivojlanishida kutilgan darajaga erishish mumkin deb hisoblaydilar. Bular: korreksion ishning imkon darajada erta boshlanishi; maqbul oilaviy vaziyat va maxsus muassasalarning oilalar bilan yaqin aloqasi; rivojlanishi normal kechmayotgan bolalarning real yosh davriga va real imkoniyatlariga hamda ularning tarbiya maqsadlariga mos keladigan ta'lim dasturlari va metodlaridan foydalanish.

Shunday ekan, eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarning tarbiyalashda surdopedagog va oilaning hamkorlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bu faoliyat samarali kechishi uchun maxsus maktab oilalarni o'zining to'laqonli hamkori bo'lishida muayyan ishlarni amalga oshirishi lozim. Bu ishlarning asosiy maqsadi rivojlanishida muammosi bo'lgan o'quvchilar bilan oila sharoitida korreksion ishlarni yaxshiroq yo'lga qo'yish, korreksion-pedagogik ishga ota-onalarni to'g'ri yo'naltirishdan iborat. Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalarni hal qilish ko'zda tutiladi:

- oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirish;
- onaning psixologik holatini korreksiyalash;
- bola va ota-ona munosabatlarini korreksiyalash;
- bolaning ham jismoniy, ham psixologik imkoniyatlarini adekvat baholashga yordam berish;
- onaga oila sharoitida bola bilan mashg'ulotlar o'tkazish uchun maxsus korreksion va metodik usullarni o'rgatish;
- onaga bolaning shaxsini korreksiyalash uchun zarur bo'lgan maxsus tarbiya usullarini o'rgatish.

Bu esa mutaxassis zimmasiga nafaqat eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarning ta'limi, tarbiyasi va korreksiyasi bilan bog'liq vazifalarni yuklaydi, balki ota-onalar bilan hamkorlik faoliyatini rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish bilan bog'liq vazifalarni ham hal qilishni talab etadi. Avvalo surdopedagog eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarning va uning atrofida orasidagi vositachi, shuningdek bolani atrofida bilan bevosita muloqotida murabbiy sifatida ishtirok etadi. U oilalarni ijtimoiy diagnostikasini o'tkazadi, eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarning tarbiyalash bo'yicha muammolarni hal etuvchi, ota-onalarga yordam beruvchi dasturlar tuzadi. Oila va maxsus maktab

hamkorligini amalga oshirishda mutaxassis-surdopedagog qarshisida avvalambor, ota-onalar bilan ta'limiy ishlarni olib borish talabi turadi. Ota-onaga eshitishida muammosi bo'lgan farzandining psixologik-jismoniy xususiyatlari, o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari, bolaning zaif va kuchli tomonlari haqida ma'lumot berish va bunda bolaning kuchli tomonlariga ko'proq e'tibor qaratish, muhimi bu bilimlardan foydalanish malakalarini rivojlantirish bu ishning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Bu faoliyatning asosiy maqsadi onaning eshitishida muammosi bo'lgan farzandiga nisbatan dunyoqarashini o'zgartirishdan iborat. Ona o'z bolasiga nisbatan vazifalarini faqat uni boqish, parvarishlash, davolashdagina emas, balki uni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ekanini va bu vazifa muhimroq ekanini anglab yetishi lozim. Shundagina u tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tushunadi va o'z kuchini shu vazifaga ham qaratadi. Natijada ota-ona farzandining ta'limi va tarbiyasi bilan bog'liq korreksion ish sohasida ham bilim va tajribalari ortib boradi.

Eshitishida muammosi bo'lgan farzandiga onalari bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ish asosan uch bosqichda amalga oshiriladi.

Birinci bosqich onani o'quv jarayoniga jalb qilishga yo'naltiriladi. Surdopedagog bu ishda faqat uning muhabbati va xatti-harakatlariga muhtoj ekanligiga, eshitishida muammosi bo'lgan farzandining o'quv jarayoni bilan o'zidan boshqa odam bu darajada sidqidildan shug'ullana omasligiga, nihoyat, bu ishdan o'zidan boshqa kishi bu darajada manfaatdor emasligiga surdopedagog bolaning onasini ishontrish kerak.

Ikkinchi bosqich onada o'z farzandining rivojlanish jarayoniga nisbatan qiziqishni shakllantirishni ko'zda tutadi. Bunda surdopedagog onaning e'tiborini bolasida kichik bo'lsa-da, ammo uning rivojlanishida g'oyat muhim bo'lgan yutuqlar bo'lishi mumkinligiga qaratadi. Asta-sekin ona surdopedagog bergan topshiriqlar ustida uyda bolasi bilan ishlash malakalariga ega bo'lib boradi.

Uchinchi bosqichning maqsadi onaning ko'z o'ngida eshitishida muammosi bo'lgan farzand ta'limida shaxsiy ijodiy yondashuvlarni qidirish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

V.V.Tkachevaning fikricha, aynan ijodiylikni namoyon qilish onaga uzoq muddatli stress paytida salbiy ichki psixologik holatni

susaytirish, o'zining nogiron farzand bilan bog'liq hayotiy qoidalari va qadriyatlarini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

Eshitishida muammolar bo'lgan farzandga ega oilalarda mutaxassis-defektologning ota-onalar bilan olib boradigan psixokorreksion ishining shakllari turli-tuman bo'lib, Y.G.Dementeva tomonidan taklif qilingan psixokorreksion modelga ko'ra bu ishning quyidagi shakllari taklif qilinadi:

1. Ota-onalarga individual maslahatlar berish. Bu maslahatlar oilada nogiron bolaning ta'limi, tarbiyasi va muloqotida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida olib boriladi, shuningdek surdopedagog bilan ota-ona o'rtasida o'zaro shaxsiy aloqani o'rnatishda asos vazifasini o'taydi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan dastlabki suhbatlarda surdopedagog ularga quyidagi qoidalarga rioya qilishni, bu qoidalar ularning hayotini ancha osonlashtirishini qayta-qayta ta'kidlashi lozim. Avvalambor, surdopedagog ota-onalarga qo'rqinch, tushkunlik, umidsizlik tuyg'ularini yengish kerakligini, ikkinchidan, sodir bo'lgan vaziyatda aybdorni qidirish behuda vaqtni sarf qilish ekanini, bu o'rinda aybdorning o'zi yo'qligini uqtirishi kerak. Uchinchidan, ota-onalarga o'z bolasiga va oilasiga qanday yordam talab qilinishini (tibbiy yoki psixologik-pedagogik, yoki har ikkalasi) aniqlab olishni maslahat beradi.

Shunday qilib, surdopedagog ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlarda ta'limiy va psixologik ishni birga qo'shib olib boradi, ya'ni vaziyatni nazorat qilishga to'sqinlik qiladigan shubha va qo'rquv tuyg'ulariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari oila oilaviy terapiya va ta'limiy treninglar dasturlariga ham jalb qilinishi mumkin. Ularning maqsadi – oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, eshitishida muammosi bo'lgan farzandiga tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq tang vaziyatlar keltirib chiqargan yashirin muammolarni hal qilish.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishning individual maslahatlar berish shakli odatda ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan iborat bo'ladi. Maslahatlar davomida maslahatchi-surdopedagogning maxsus bilimlari maslahat oluvchilarga kundalik muammolarni hal qilish yoki bo'lajak xatti-harakatlarga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi.

Bu ish shaklidan foydalanish zarurati shu bilan belgilanadiki, nogiron bolaga ega oilalarning ko'pchiligi o'tkir yoki surunkali stress holatida bo'ladilar, o'zlarining yangi maqomlariga moslasha olmaydilar, oila ichida va atrofdagilar bilan shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuning uchun ularga ishning boshida yangi bilimlar bilan bir qatorda maxsus tashkil qilingan samimiy muloqot g'oyat zarurdir.

2. Surdopedagog tomonidan maxsus ta'lim muassasasining boshqa mutaxassislari bilan hamkorlikda o'tkaziladigan turli mavzularga oid majlislarda ota-onalarning qatnashuvi.

Bunday majlislar natijasida nogiron bolalarning korreksion-rivojlantiruvchi faoliyati sohasida hamda bola bilan o'zaro samarali aloqa o'rnatish borasida kattalarning bilim doirasi kengayadi.

Shunday maqsadlarda o'tkaziladigan majlislarning taxminiy mavzulari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- "O'z-o'zini rivojlanishida kamchiligi bor bolaning otasi yoki onasi sifatida anglash";

- "Bolalar va ota-onalar o'rtasidagi to'qnashuvlar va ularni yengib o'tish";

- "Bolalar tarbiyasida turli xil yondashuvlar va ularning tahlili";

- "Jazolash va taqdirlash – tarafdolar va qarshilar";

- "Bolani maktabga qanday tayyorlash kerak" va h.k.

3. Ota-onalar tomonidan korreksion pedagogning individual mashg'ulotlarini kuzatish. Ota-onalar bilan olib boriladigan bu ish shakli onalarning bolalari bilan birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishda hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga, "ona - bola" juftligida jipslik, fikrdoshlik va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratiladi. Ona individual mashg'ulot davomida surdopedagogning bola bilan ishlash usullarini kuzatar ekan, bu mashg'ulotlarning ishlanmasini yozib borar ekan, eshitishida muammosi mavjud bolaning ta'limi va tarbiyasi sohasida kerakli bilimlarni egallab boradi.

4. Bo'sh vaqtni birgalikda o'tkazish. Ota-onalar, bolalar va pedagoglarni yanada birlashtirish, ular o'rtasida erkin, bexijolat munosabatlarni o'rnatish maqsadida o'tkaziladi. Bunday tadbirlarning quyidagi mavzularini taklif qilish mumkin: "Yangi yilni kutish", "Onajonim-mehribonim", "Navro'z – bahor bayrami", "Eng yaxshi ota" va h.k.

5. Ota-onalar uchun stend. Stendda namoyish qilinadigan ma'lumotlar va sahifalar kamida har oyda yangilanib turishi kerak. Stend tarkibidagi "Ota-onalar universiteti" bo'limi ayniqsa katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Biron-bir sababga ko'ra defektolog bilan shaxsan uchrashib, u bilan suhbatlasha olmagan ota-onalar o'z savollarini shu bo'limda qoldirishlari va javob olishlari mumkin.

6. "Hayotimizdagi voqealar" kundaligini tutish. Ishning bu yo'nalishi Y.L.Goncharova va O.I.Kukushkina tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni Y.G.Dementeva psixokorreksion ishga moslashtirib, joriy qilgan. Bu bolaning maxsus tashkil qilingan va muntazam olib boriladigan ishi bo'lib, bunda bola o'zi uchun qulay bo'lgan belgilarda o'z hayotini aks ettiradi. Bu yozma matn, rasm, applikasiya bo'lishi mumkin. Bu yo'nalishning maqsadi ota-onalar va bolalar o'rtasida hamkorlik va birgalikdagi ijodkorlikni mustahkamlashdan iborat.

7. Ota-onalar guruhi bilan olib boriladigan ish. Uning maqsadi:

- ta'lim va tarbiya bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish;

- bola bilan o'zaro munosabatlarda mos muloqot va xulq-atvor shakllarini tanlash;

- maxsus muassasa mutaxassislari bilan konstruktiv va ishchan munosabatlarni o'rnatish.

Bu yo'nalishdagi ish ota-ona uchun bolaga pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatish vositalarini kengaytirishga, bola bilan o'zaro munosabatlarning yangi usullaridan foydalanishni mashq qilishga yordam beradi. Bunday xatti-harakatlar, o'z navbatida, eshitishida muammosi bo'lgan bola tarbiyalanayotgan oilada ichki munosabatlarning uyg'unlashuviga, oilaning ijtimoiy moslashuviga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ishning bu shaklida ota-onalarning farzandi bilan o'zaro munosabatlarida, eshitishida muammosi bo'lgan bolaning ongida quyidagi ijobiy o'zgarishlar yuz berishini kuzatish mumkin:

- eshitishida muammosi bo'lgan bola oilaviy munosabatlarni yaxshiroq idrok eta boshlaydi;

- bola o'zining oila jamoasida o'z o'rmini anglay boradi;

- ota-onalarning bolalariga munosabatlarida muayyan tartib va reja paydo bo'ladi;

- ota-onalarning eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga munosabatlarida muvozanat paydo bo'ladi, ular bolalarini qanday

bo'lsa, shunday qabul qila boshlaydilar, munosabatlarida iliqlik, tushunish yuzaga keladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolaning rivojlanish qonuniyatlari, ta'lim va tarbiyaning har xil modellari, bolalar shaxsi va xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlari haqida har tomonlama ma'lumotga ega bo'lgan oila a'zolari o'z kelajaklariga ishonch bilan qaray boshlaydilar.

8. Guruhda olib boriladigan ta'sirchan ish shakllaridan biri bu treninglardir. Psixologik va ta'limiy treninglar ayniqsa keng tarqalgan. Psixologik trening o'zida bir qator individual va guruhli ish shakllarini birlashtiradi hamda yangi psixologik malakalar va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Hozirda trening dasturlarining maqsadlari tobora kengayib bormoqda, treninglar amaliy psixologiya sohasi chegaralaridan chiqib, ijtimoiy sohada, ta'lim tizimida ham keng qo'llanmoqda.

Nogiron farzand o'stirayotgan ota-onalar uchun mo'ljallangan treninglar avvalo oilaviy mikromuhitni boshqarishga, o'zaro maqbul munosabatlarni o'rnatishga, muammoli vaziyatlardan to'g'ri yo'l topishga yordam beradigan malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Trening ota-onalarning psixologik-pedagogik ta'limi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning eng istiqbolli shaklidir. Zero bu muammoning dolzarbligi so'nggi yillarda ayniqsa ortib bormoqda. O'zlari ham nogiron bo'lgan ota-onalarga nisbatan esa uning o'tkirligi yanada ortadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan guruhli ish shakllari ularga bir-birlari bilan tajriba almashinish, o'z savollariga muammolari xuddi o'zlarinikiga o'xshagan guruhdoshlaridan javob olish imkonini beradi. Axborot almashinish jarayonida peshqadamlik namoyon qilgan ota-onaning faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi yanada ortib boradi.

Defektologlarning va maxsus ijtimoiy pedagoglarning ish tajribalarida guruhli ish shakllari, xususan ota-onalar uchun ta'limiy treninglar ijtimoiy-pedagogik ta'sirning yetakchi texnologiyalari qatoridan o'rin oladi. Ularning samaradorligi chet el tajribasida o'z isbotini topdi.

Shunday qilib, surdopedagog eshitishida muammosi bo'lgan bola va uning oilasi hayotida katta rol o'ynaydi. O'z faoliyatida u asosan maslahat berish, treninglar o'tkazish, patronaj usullaridan foydalanadi. Bu ish usullari va shakllari asosan chet el tajribasidan o'zlashtirilgan.

Shuning uchun bizda yaxlit ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar haqida soʻz yuritish hali erta. Ular hozircha shakllanish va sinovdan oʻtish bosqichidadir.

Shuni taʼkidlash lozimki, bolalarning yosh xususiyatlari tufayli notoʻgʻri tarbiya oqibatlari mustahkamlanib boradi. Boshqa tomondan, xuddi shu yosh xususiyatlariga koʻra bolalar osonroq oʻzgaradilar, tarbiyaga taʼsirchanroq, rivojlanish borasida sezitivroq boʻladilar. Faqat buning uchun bolaga koʻrsatilayotgan taʼsirlar uning imkoniyatlari va oʻziga xos xususiyatlariga mos boʻlmogʻi lozim. Bu oilaviy tarbiya kamchiliklarini erta tashxislash, oldini olish va korreksiyalashning zarurligini taqozo etadi.

Eshitishda muammosi boʻlgan oʻquvchilarni tarbiyalashda maktab va oila hamkorligining asosiy yoʻnalishlari va metodlari

Eshitishda muammosi boʻlgan oʻquvchilarni tarbiyalashda oila va maktab hamkorligini amalga oshirishda maktab oʻqituvchisi va tarbiyachilaridan kasbiy savodxonlik, delikatlik, hamdardlik, izchillik va qatʼiyat namoyon qilish talab etiladi. Maxsus maktab oʻqituvchi va tarbiyachilarini ota-onalar bilan ishlashi bola tarbiyalanayotgan maktab muassasa tipi, ular bilan muloqot imkoniyatlariga koʻra variantlanadi. Maxsus maktabga har kuni borish sharoitida ota-onalar bilan ishlash bolaning mehnat taʼlimi maktabida besh kun davomida boʻlishidagi sharoitlardan, ayniqsa ota-onalar bolasini faqat bayram kunlari va yozgi taʼtil davridagina olib ketadigan internat muassasalardan farqlanadi. Ota-onalarning farzand tarbiyasi bilan sistemali shugʻullanish, uning taʼlimida qatnash istagi koʻp jihatdan maxsus maktab pedagoglarining ota-onalar bilan shaxsiy va ish tartibida aloqalarni yoʻlga qoʻya olishi, oʻzining bolalar bilan ishlashi namunasi bilan qiziqтира olishi, turli yoʻnalishlardagi ish metod va usullarini qulay shaklda tushuntirishi va namoyish etib berishi bilan bogʻliq.

Maxsus maktab oʻqituvchi va tarbiyachilarini ota-onalar bilan maktab hamkorligida ishlashda quyidagi vazifalarni shartli ravishda ajratish mumkin:

- ota-onalarda eshitishda muammosi boʻlgan bolani tarbiyalash va oʻqitish maqsadlarini toʻgʻri tushunishni shakllantirish;

- maxsus maktab jamoasi bilan birgalikda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;

- pedagogik faoliyatning turli yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni ommalashtirish, korreksiya ishi metod va usullari bilan tanishtirish;

- oilaviy tarbiya tajribasini o'rganish, uni ota-onalar o'rtasida targ'ib qilish, maktab faoliyatida undan foydalanish.

Yuqoridagi vazifalarni qilishning shartlaridan biri har bir eshitishida muammosi bo'lgan bola o'sayotgan oilaning tarkibi, tarbiya xarakteri bilan tanishish sanaladi, bolalar o'sayotgan oila haqidagi axborot keng qamrovli bo'lishi kerak. Odatda, bu axborot bola mehnat ta'limi maktabida tarbiyalangan barcha yillar mobaynida to'planadi va to'ldirib boriladi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolaning oiladagi tarbiya sharoiti bilan tanishish jarayonida maktab pedagoglari quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur:

- oila tarkibi, kattalarning mashg'ulot turi, moddiy ta'minlanganligi, sanitar – gigiyenik sharoitlar, oilada eshitishida muammosi bo'lgan bola yoki shaxsning mavjudligi;

- oiladagi munosabatlar, ota-onaning umumiy madaniy darajasi, bolalarga, jumladan eshitishida muammosi bo'lgan bolaga ota-onasining munosabati;

- bolaning uydagi xulqi va mashg'ulotlari, sevgan mashg'ulotlari, oilada eshitishida muammosi bo'lgan bola bilan munosabat shakllari, oila a'zolari tomonidan uning faoliyati va xulqiga talablarning qo'yilishi, kun tartibining bajarilishi, bolaning uy mehnatida ishtiroki;

- ota-onalarning umumta'lim va maxsus ishlarning olib borilishiga munosabati, mutaxassis maslahatlarini olishi, oilada mashg'ulotlarning tashkil qilingani, oila a'zolarining eshitishida muammosi bo'lgan bola bilan ishlarda ishtiroki, o'z pedagogik imkoniyatlarini baholashi, eshitishida muammosi bo'lgan bola bilan ishlar samaradorligini baholashi, uning imkoniyatlariga ishonishi;

- ota-ona eshitishida muammosi bo'lgan bola tarbiyasida duch kelayotgan qiyinchiliklar xarakteri;

- ota-onalarning eshitishida muammosi bo'lgan bolaning maktab ta'limi va tarbiyasi mazmuni, turli yo'nalishlardagi ish metodlari haqida bilimlari, ota-onalarning pedagoglar bilan korreksion – pedagogik ishlarda qatnashish istagi va manfaatdorligi.

Eshitishda muammosi bo'lgan bola tarbiyasida oila va maktab hamkorligini qo'yidagi yo'nalishlari tasniflanadi: individual ish yo'nalishlari maktabga ota-ona tashrifi, oilaga o'qituvchi tashrifi, o'qituvchining individual konsultatsiyalari, ota-ona bilan yozishmalarni qamrab oladi. Jamoaviy ish yo'nalishlari ota-onalar uchun lektoriylar, tematik konsultatsiyalar, ota-onalar uchun kechalar, ochiq eshiklar kuni, konsertlar, ijodiy, o'quv ishlar ko'rgazmasi ota-onalar majlislari kabi ish turlarini o'zida jamlaydi.

Maxsus maktab faoliyatida ota-onalar bilan ishlashning jamoaviy shakllaridan ham foydalaniladi. Bularga umumiy va sinf ota-onalar majlislari, lektoriylar, «davra suhbatlari», ota-onalar konferensiyalari, bolalar bilan ishlashda tajriba almashish bo'yicha seminarlar, guruhda konsultatsiyalar, ochiq eshiklar kuni, bolalar ishlari ko'rgazmalari, bayram va ertaliklar, muassasa va guruh tadbirlarida ota-onalarning ishtirokini kiritish mumkin.

Ota-onalar majlisi keng tarqalgan ish shakllaridan biri sanaladi. Majlis umumiy maktab yoki sinf o'quvchilari ota-onalari uchun bo'lishi mumkin. Umumiy ota-onalar majlislari yiliga 2 – 3 marta, sinfda esa har chorakda o'tkaziladi. umumiy majlislarda ota-onalarni maktab ishining mazmuni bilan tanishtiriladi, ma'muriyatning ma'lum vaqt oralig'idagi faoliyat to'g'risidagi hisoboti, ota-onalar qo'mitasining hisoboti tinglanadi. Ota-onalar uchun qiziqarli mavzularda, masalan «Mehnat faoliyati-eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalash asosi» «Bolalarda mehnat qilish ehtiyojini tarbiyalash», «O'quvchilarni tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligi», «Bolalarni o'ziga xos rivojlanishidagi zaiflik va nuqsonlarni bartaraf etish yo'llari» kabi mavzularda ma'ruzalar qilinadi.

Sinfda ota-onalar yig'ilishlarida shu sinf ota-onalari uchun dolzarb masalalar muhokama qilinadi. Maxsus maktab pedagog va tarbiyachi ota-onalarni bolalar tarbiyasi va ta'limining turli yo'nalishlariga oid ishlar mazmuni bilan qulay va tushunarli tarzda tanishtiradi. Bolalarning oiladagi tarbiyasi haqidagi axborotlar, masalan, «Bolalar uchun kun tartibini tashkil qilish», «Bolalarda madaniy – gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash» mavzulari bilan chiqadigan tarbiyachilarning ishtiroki muhim sanaladi. Sinfda ota-onalar majlisida pedagoglar ta'limning natijaliligi, turli yo'nalishlardagi ish natijalari haqida ota-onalarga ma'lum qiladi.

Bolalar bilan ish samaradorligini tavsiflayotib, e'tiborni qiyinchiliklarga, bola rivojlanishidagi salbiy tomonlarga qaratmasdan, balki bolaning imkoniyatlari, uning ta'limda ilgari lab borishini ko'rsatib berish muhim. Bola bilan ishdagi qiyinchiliklarni ota-onalar bilan yakka tartibdagi suhbatlarda ochib berish, muhimi ota-onalar bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun nima qila olishlarini ko'rsatib bergan ma'qul. Sinf ota-onalar majlisi pedagoglardan jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Bunda xabarni tayyorlash, ko'rgazmali – illyustrativ materialni (tablichkalar, qo'lbola kitobchalar, didaktik o'yinlar, fotosuratlar, rasmlar, bolalarning ishlari va sh.k.) tanlash kata ahamiyat kasb etadi. Shuningdek pedagoglar muhokama mavzusiga oid ota-onalar uchun qulay, tushunarli adabiyotlarni tavsiya qilishlari, uni o'qiganda nimalarga e'tiborni qaratish lozimligini tushuntirishlari zarur. Ota-onalar majlislariga ota-onalar ishtirokida tayyorlangan bolalarning ishlari, rasmlari ko'rgazmasini tayyorlash maqsadga muvofiq. Bolalarni o'qitishning konkret masalalari ko'pincha korreksion ishlar bilan bog'liq bo'lib, tematik ota-onalar yig'ilishlarida, davra suhbatlarida, ota-onalar uchun lektoriylarda muhokama qilinadi. Ota-onalar universiteti yoki lektoriy ota-onalarni oliogfrenopsixologiya va oliogfrenopedagogikaning umumiy masalalari bilan ma'muriyat tomonidan oldindan tuzilgan reja asosida sistemali tarzda tanishtirib borish ko'zda tutadi. Ota-onalar uchun shifokor, metodist, psixolog, pedagog ma'ruzalari, odatda, oyda bir marta o'tkaziladi. Ota-onalar uchun umumiy yoki sinfda mavzuli konsultatsiyalari o'tkazilganda ota-onalar oldindan yozma ravishda savollarini berishi mumkin. Bir mavzu yuzasidan savollar to'planib qolganiga ko'ra ota-onalar uchun sinfda konsultatsiyalar mazmuni shakllantiriladi. Umumiy konsultatsiyalarda bolalar salomatligini muhofaza qilish, o'z-o'ziga xizmat malakalarini shakllantirish va ota-onalarni qiziqirgan boshqa ko'plab masalalar muhokama qilinadi. Ota-onalar uchun sinfda konsultatsiyalar shu yoshdagi bola tarbiyasi va ta'limiga oid konkret masalaga bag'ishlanadi. Pedagoglar axborotlari konkret xarakterga ega, ota-onalar uchun tushunarli bo'lishi, misollar namoyishi, turli didaktik vositalar bilan to'ldirib borilishi lozim. Ota-onalar konferensiyalarini tashkil qilish muhim va foydali ish shakli sanaladi, uning maqsadi ota-onalarning oilada farzand tarbiyasi tajribasini ommalashtirishdan iborat. Bunday konferensiyalar yilda 1-2 marotaba o'tkaziladi. Ularni maktab va ota-


onalar qo'mitasi, pedagoglar tayyorlaydi. Bu konferensiyalarda ota-onalar oilada farzand tarbiyasiga oid tajriba almashadi, turli yo'nalishlar, masalan mehnatsevarlikni tarbiyalash, oilada bola bilan o'zaro munosabatlarni shakllantirish, jismoniy tarbiya bo'yicha ish mazmunini ochib beradi. Ota-onalar bilan ish shakllaridan yana biri ochiq eshiklar kuni sanaladi. Bu kunlari ota-onalar sinflardagi frontal yoki individual mashg'ulotlarda qatnashishi, bolalarning sayr davomidagi, kun tartibi vaziyatlarini o'tkazish chog'idagi muloqoti va mashg'ulotlarini kuzatish, pedagoglar, katta tarbiyachi, mudir bilan uchrashish va suhbatlashish imkoniga ega bo'ladi. Shunday qilib, ota-onalar bilan olib boriladigan individual, jamoaviy ish shakllari maxsus maktab va ota-onalarni hamkorligini yo'lga qo'yish, maktabda, oilada eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda samarali natijalarga erishishni ko'zda tutadi. Maxsus maktab mazkur yo'ldan borar ekan, ota-onalarni hamkorlikga jalb etish, ota-onalarni pedagogik bilim, malakalari darajasini oshirish, maktab va oilaning umumiy korreksion-tarbiyaviy tizimini yaratish imkoniga ega bo'ladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi. Yosh avlodi ilm-ma'rifatli, har tomonloma sog'lom bo'lgan yurtning istiqboli charog'ondir. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 30-moddasida «Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar», deb belgilab qo'yilgan. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 3.2 bandida esa ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Bu oila, maktab, mahalla hamkorligini bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'alariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga

asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini taminlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» konsepsiyasining asosiy maqsadidir. O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlar «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» yo'nalishidagi eshitishda muammosi bo'lgan bola tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, maktabning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi. Jamiyatning rivojlanish darajasi ko'p jihatdan nogironlarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda oila va mahalla hamkorligi muammolarini o'manish maqsadida ijtimoiy so'rovnoma tuzildi. Ijtimoiy so'rovnoma ishtirokchilari mahalla oqsoqollari va faollarining, sog'lom bolalar ota-onalarining nogironlarga turli tomondan munosabati, eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarga ijtimoiy-pedagogik jihatdan munosabati, eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni qaysi ta'lim muassasalarida ta'lim olishi kerakligi, eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarning hamma bilan birgalikda ta'lim-tarbiya olishiga munosabati o'rganildi. Ijtimoiy so'rovnoma javoblari asosida oilalar ijtimoiy tavsifnomasi va ota-onalarning defektolog mutaxassislar bilan to'laqonli hamkorlikka tayyorlik darajasi tahlili ota-onalarning defektologlar bilan hamkorlikka qiziqish variantlarini aniqlash imkonini berdi. Bolalarning yoshligidagi bilim faoliyatida sodir bo'lgan yetishmovchiliklar o'z navbatida rivojlanishda ortda qolgan bolaning o'z ota-onasi bilan yaxshi o'zaro munosabatda bo'lishiga to'sqinlik qiladi, shaxslararo muloqot usullarini shakllantirishni qiyinlashtiradi, ehtirosli o'sishini to'xtatib qo'yadi. L.V.Vigotskiy ta'kidlab o'tganidek, aqlan zaif bo'lgan bolalarning tashqi muhit bilan bo'lgan salbiy munosabati asosiy kasallikni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun aqlan zaif bo'lgan bolaning tashqi muhit bilan munosabati uning shaxsiy rivojlanishida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Demak, eshitishda muammosi bo'lgan bolaning ijtimoiy moslashuvida oilaning roli benihoya katta. O'tkazilgan amaliy tadqiqotlar shu narsaga ishonch bildiryaptiki, eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ota-onalar uchun maktab va mahalla hamkorligidagi pedagogik yordam usullarini ishlab chiqish

kerak. Mazkur usullar o'z navbatida ota-onalarning ehtirosini mo'tadillashtirish, kasal bolaning to'g'ri tushunishlarini, o'z-o'ziga tasalli berish, bolaga ijobiy tarzda yondashish imkonini beradi. Barcha maxsus maktablarda "Oila-mahalla-maktab" markazlari tashkil etilishi, ularda o'quvchilar va ularning oilalari haqidagi zarur ma'lumotlar to'planishi lozim. Eshitishda muammosi bo'lgan farzandlar tarbiyasida oila, maktab va mahalla hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Chunki bolaning asosiy vaqti oila davrasida o'tsa, maktabda ustozlardan ta'lim-tarbiya oladi, mahallada istiqomat qiladi. Oila a'zolari, ya'ni ota-ona, buvi-bobo va aka-opalar o'rtasidagi munosabatlar eshitishida muammosi bo'lgan bolaga o'z ijobiy yoki salbiy ta'sirini o'tkazadi. Shunday ekan, eshitishda muammosi bo'lgan bolani tarbiyalashda ota-ona tomonidan bir xil talab qo'yilsa, unda ikkilanish bo'lmaydi. Mamlakatimizda bolalar va yoshlarning qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha barqaror tizim yaratildi. Mamlakatimizda bolalar millati, yoshi, jinsidan qat'i nazar barcha huquqlarda tengdir. Fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan bo'lgan mahalla tizimida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalashda «Oila-maktab-mahalla» konsepsiyasini hayotga tatbiq etish, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning bo'sh vaqtini ununli tashkil etish, ularning maktabda olgan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, nuqsonlarini kompensatsiyalash, korreksiyalash, kasbga yo'naltirish hamda mustaqil hayotga tayyorlashda samarali natijalarga erishish. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligi modeli bo'yicha ish olib borish bilan asoslanadi. Eshitishda muammosi bo'lgan bola bilan uy sharoitida korreksion-pedagogik ishlarni amalga oshirish, bola shaxsini rivojlantirish va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan uslubiy, pedogik yondashish, turli xil mashg'ulotlarni o'tkazish, oila a'zolari va nuqsonli bola o'rtasida o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, nuqsonli bola kelajakda o'z hayotiy o'rnini topa olishiga qaratilgan korreksion-pedagogik ishlarni amalga oshirilishida oila, maktab va mahalla hamkorligini muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlarni o'rganish va ularni tahlil etish natijasida eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash jarayoni va tarbiyada oila va maktab hamkorligi tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammodir, degan xulosaga keldik.

Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligi modeli



Eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarga tarbiya berish darajasini oshirish uzluksiz ta'lim tizimi barcha bo'g'inlarida oila va maktabning o'zaro hamkorlikda va izchil olib borishga bog'liq. Maxsus maktablar sharoitida ta'lim -tarbiyaning samarali shakl va usullarini izlab topish, yaratish hamda eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarga tarbiya berishda oila, maktab va mahalla hamkorligini yo'lga qo'yish hozirda dolzarbligi bilan muhimdir. Eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligining ish tajribalarini umumlashtirish, maxsus maktab, ota-onalar va mahalla faollarini eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni tarbiyasi borasidagi bilim, malaka va ko'nikmalarini aniqlash, maqsadga muvofiq mos xulosalar chiqarish, eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligiga oid zarur tavsiya va takliflar berish imkonini beradi. Avvalo shuni aytish kerakki, surdopedagoglar va ota-onalarning korreksion faoliyatida muntazam o'zaro aloqa yetarli emas. Bu hamkorlik sohasiga oid maxsus metodik adabiyotlar juda oz. Eshitishida muammosi bor bolalarni rivojlantirish va shaxsini shakllantirish ishlarida surdopedagoglarning oila bilan hamkorligi talab darajasida emas. Shuning uchun aksariyat ota-onalar farzandlarning ta'lim-tarbiyasini, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish mutaxassislarning zimmasida deb hisoblaydilar. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ota-onalari uchun farzandlarining ijtimoiy hayotga moslashuvi, ta'lim-tarbiyasini va rivojlanishiga oid mavzulardagi metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, ular o'rtasida bolalarning ijtimoiy moslashuvi, rivojlanishi haqidagi targ'ibot ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Maxsus ta'lim muassasalari surdopedagoglari va ota-onalar tomonidan rejali ravishda olib boriluvchi hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish orqaligina eshitishida muammosi bo'lgan bolalar umumiy tarbiyasida, xususan, ijtimoiy moslashuviga muhim ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonida hamkorlik ishlarining tashkil etilishi deganda nimani tushunasiz?

2. Ota-onalar o'rtasida psixologogik-pedagogik bilimlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari nimalardan iborat?

3. Eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda maktab va oila hamkorligi deganda nimani tushunasiz?

4. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligi modelini yoriting.

Tayanch tushunchalar:

Shakllantirish – kar va zaif eshituvchi bolalarning maxsus tashkil etiluvchi jarayon ta'siri ostida ijtimoiy me'yorlarni egallashlari va hayotga tayyorlanishlari.

Yaqin rivojlanish hududi – kar va zaif eshituvchi bolaning kattalar yordamida yoki ular bilan hamkorlikda taqlid asosida o'zi mustaqil ravishda egallay olmaydigan harakatlarni egallab, buning natijasida o'z rivojlanishida nisbatan yuqoriroq pog'onaga erisha olish imkoniyati. Bolaning dolzarb rivojlanish darajasi (bolaning mustaqil bajara oladigan vazifa va xatti-harakatlarining darajasiga ko'ra belgilanadi) hamda uning eng to'la hajmdagi (potensial, ya'ni uning kattalar rahbarligi ostida erishishi mumkin bo'lgan) rivojlanish darajasi o'rtasidagi chegara.

VI BO‘LIM. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO‘LGAN BOLALAR TA‘LIM-TARBIYASIDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

I BOB. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO‘LGAN BOLALAR TA‘LIM-TARBIYASIDAGI ZAMONAVIY YONDASHUV MOHIYATI

Surdopedagogikada integratsiya va inklyuziv ta‘lim muammosi: mohiyati, muammo va yechimlari

2015-yilning 21-may kuni Koreyaning Inchxon shahrida Butunjahon ta‘lim forumi o‘tkazilib, unda sayyoramizdagi barcha shaxslarning ta‘limi hamda zaruriy bilim va malakalarni egallashlarini ta‘minlashga qaratilgan 2030-yilga qadar Rivojlanish Deklaratsiyasi hamda Global rejasi qabul qilinib, ularda ta‘lim shaxsning rivojlanishi, o‘z-o‘zini namoyon etishi, jamiyat hayotiga uyg‘unlashuvi, ijtimoiylashuvi hamda shaxsiy hayotida muvaffaqiyatga erishishining zaruriy sharti ekanligi alohida ta‘kidlab o‘tildi. Xuddi shu yilning 29-oktabrida Fransiyada bo‘lib o‘tgan BMT Sammitida ishtirokchi davlatlar kun tartibining muhim masalasi sifatida “barcha shaxslarga maktabgacha, boshlang‘ich, o‘rta, yuqori va kasbiy-texnik tayyorgarlik pog‘onalarida sifatli ta‘lim olishlari uchun inklyuziv va teng ravishdagi sharoitlarni yaratish”ni rasman qabul qildilar. Turli jabhalarida ijobiy o‘zgarishlari bilan dunyo hamjamiyati tomonidan tobora keng e‘tirof etilayotgan mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan bolalar ta‘limiga muhim omil sifatida qaralayotganini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonida ham mamlakatimizda umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida inklyuziv ta‘limni rivojlantirish belgilangani fikrimizning yorqin dalilidir. Respublikamizda 1996-yildan boshlab maxsus ta‘limga muqobil bo‘lgan yangi yo‘nalish maktablari – inklyuziv maktablari shakllana boshladi. Amalga oshirilgan loyihalarda turli soha vakillari, hamjamiyat ishtirokchilarining yakdil sa’y-harakatlari natijasida

erishilgan yutuqlar alohida e'tiborga muhtoj bolalar abilitatsiyasi va reabilitatsiyasi darajasining yuqorilashuviga, ulardagi mavjud muammoning erta korreksiya qilinishi orqali erta ijtimoiy moslashuvlariga samarali ta'sir ko'rsatayotgani kuzatildi. Hozirgi kunga qadar qator xalqaro tashkilotlar hamda RBIMM bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyihalar asosida tashkil etib kelinayotgan inklyuziv ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya ishlari jarayonida erishilayotgan ko'pgina yutuqlarga qaramay, mazkur qo'llab-quvvatlashlar yakunlangach, maktab amaliyotida ba'zi muammolarning yuzaga kelayotgani kuzatilmoqda. Har qanday davlat siyosatining insonparvar tamoyillarga asoslanishi, jamiyatda aholining nogiron va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga yaratilgan shart-sharoitlar, ularning erkin, farovon yashashi uchun kerak bo'lgan barcha sohadagi qo'llab-quvvatlanishlari bilan belgilanadi. O'zbekiston taraqqiyotining besh tamoyilidan birining kuchli ijtimoiy siyosat sifatida belgilanishi, mamlakatimizda u yoki bu nogironlikka mansub, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishga ehtiyojmand shaxslarga bo'lgan kengqamrovli, tegishli kompleks yondashuvlarning maqsadli amalga oshirilishi orqali ular hayotini farovonlashtirib borilishi maqsadi sari qadam tashlanayotganining yorqin dalilidir. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ta'lim olish jarayonini isloh qilib borish, rivojlanish darajasidan qat'i nazar, har bir davlat va jamiyat oldida turgan masaladir. Alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarning ijtimoiy hayotda munosib tarzda o'z o'rnini topishi, shuningdek, ushbu jarayonda bevosita ishtirok etishi uchun ta'limni to'laqonli o'zlashtirishi hamda uning zamirida muayyan kasb-hunarni egallay olish lozim. Oddiy sharoitlarda, umumiy ta'lim tizimida kamol topgan tibbiy jihatdan "nogironlik" mavqeyiga ega o'quvchilar olgan ta'limining darajasi ularning ijtimoiy reabilitatsiyasi, moslashuvi hamda jamiyat hayotiga samarali uyg'unlashuvining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni bunday umumiy tarzdagi tizim sharoitida bilimlarni egallagan, ijtimoiy hayotda yashash uchun zaruriy sanalgan ko'nikmalar va kasb-hunarni egallagan har qanday nogironligi bo'lgan shaxs o'zgarishlar jarayoniga tez va qulay moslashib, shaxsiy va oilasining hayotini farovonlashtirishi orqali mamlakat aholisi turmush darajasining yuqorilashuvini ta'minlaydi. Shu jihat bilan bog'liq holda ta'lim muassasalarining bugungi vazifasi alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni o'z oilasi, mahallasida o'sib

kamol topishiga qulay sharoit yaratib berish orqali zamonaviy bilimlar, hayotga to'siqlarsiz uyg'unlashib ketishining omili sanalgan ijtimoiy malakalar bilan qurollantirish, mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga o'rgatishdan iborat etib belgilanmoqda. Istiqloq davriga qadar nogiron bolalar ta'lim-tarbiyasi yopiq mavzu hisoblanib, ular asosan "o'qitiladigan" va "o'qitilmaydigan"lar toifasiga tabaqalashtirilar edi. Hozirgi kunda maxsus ta'lim tizimiga "anomal", "nuqsonli", "aqli zaif" kabi atamalar o'rniga "nogironligi bo'lgan", "alohida e'tiborga muhtoj", "aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan", "rivojlanishida chetga chiqishlari mavjud" atamalari kirib keldi. Bu hol bunday bolalarning reabilitatsiya, korreksiya, ijtimoiy hayotga moslashuvi hamda integratsiyalashuvlari masalalariga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda mamlakatimizda alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquqlarini ro'yobga chiqirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya jarayonini ularning ehtiyoji va qobiliyatiga mos ravishda tashkil etish, jamiyatga uyg'unlashtirishning samarali yo'l va usullarini joriy etish o'ta dolzarb masalalardan biri ekanligi tobora keng anglanmoqda. O'zbekiston Respublikasida alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarning ta'lim mazmunini takomillashtirish masalalariga e'tibor davlat tomonidan ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ishlarning samarali yechimlarini nazarda tutayotganini kuzatamiz. Farmonda aholining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ro'yobga chiqirishga, ularni moddiy, ma'naviy, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berilgan bo'lib, unda nogironligi bo'lgan shaxslar hayotining farovonlashishi uchun asos bo'luvchi "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari" Qonunini ishlab chiqib, qabul qilish, har bir bolaning sog'lig'ini tiklash va ularni reabilitatsiyalash maqsadida yordamchi tibbiy va texnik vositalar bilan ta'minlanishi, ta'lim muassasasi binosini nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun

moslashtirilishi, zaruriy moddiy-texnik negizni yaratish, malakali kadrlar bilan ta'minlanishi, o'quv-metodik adabiyotlar yaratish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish, keng targ'ib qilish yo'nalishlarida talaygina ishlar amalga oshirilishi belgilanganini kuzatamiz. So'nggi yillarda jahon hamjamiyati tomonidan tobora keng e'tirof etilayotgan inklyuziv ta'lim har bir bolaning ta'lim turini tanlashida erkinligi, oilada bo'lish huquqi, o'z uyi hamda mahallasida kamol topishi, barcha qatori teng ravishda bilim olishi kabilarni ta'minlashga qaratilgan. Mazkur omillar inklyuziv ta'lim muammosini, nogironligi bo'lgan maxsus ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganish muhim ekanligini ko'rsatmoqda. Tarixiy taraqqiyot davomida maxsus ehtiyojli bolalarga bo'lgan e'tibor turli davrlarda turlicha kechgan. Ishlab chiqarish kuchlari hali rivojlanmagan, madaniy va ma'naviy qadriyatlar shakllanmagan, inson hayoti tabiat kuchlariga bog'liq bo'lgan dastlabki davrlarda bunday shaxslar jamiyat e'tiboridan chetda qolib kelgan, hatto ularga nisbatan salbiy munosabat hukm surgan. Jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi ta'lim, madaniyat, fan va sog'liqni saqlash ijtimoiy ong holati bilan bog'liq holda turli davrlarda atrofdagilarning kamolotida jismoniy yoki ruhiy kamchiligi mavjud shaxslar bilan o'zaro munosabatlari turlicha ko'rinishga ega bo'lgan. Bunda har bir xalqning milliy qadriyatlari, dunyoqarashi, an'analari, urf-odatlari ham muhim o'rin egallagan. Xususan, Qadimgi Yunonistonning Sparta shahrida jismoniy nuqson bilan tug'ilgan bola jamiyat uchun yaroqsiz hisoblanib, hayotining birinchi kunlaridanoq o'limga mahkum etilgan. Qadimgi Rimda ham xuddi shu kabi nuqsonli va zaif tug'ilgan go'daklarni o'ldirganlar.

Shu bilan birga, tarixiy manbalarni o'rganish natijasida qadimgi yunon faylasufi Arastuning inson sezgi a'zolaridan birining mavjud bo'lmasligi yoki uning buzilishi yaxlitlik va butunlikni izdan chiqarib, uning umumiy rivojlanishiga yo'l qo'ymasligini alohida ta'kidlagani haqidagi fikrlar aniqlanganini kuzatdik.

O'rta asr Yevropasida esa jismoniy yoki ruhiy kamchiligi bo'lgan shaxslar ijtimoiy hayotdan butunlay ajratib qo'yilgan, ularga bir buyum sifatida munosabatda bo'lish hollari tez-tez uchrab turar edi. Oddiy xalqning mislsiz ekspluatatsiyasi evaziga katta moddiy boylik orttirgan, ammo ma'naviy qashshoq zodagon aristokratlar tabaqasi bunday shaxslarga bir ernak sifatida qaraganlar. Boyish ishtiyoqidagi

kimsalar tomonidan bolalarni go'dakligidanoq azoblab, jismonan nogiron qilib, zodagonlarga ko'ngilxushliklari uchun sotish hollari ham uchragan.

Uyg'onish davri (XV-XVII asrlar)da inson tabiati, uning ruhiy holati va faoliyatiga nisbatan diniy-sxolastik va ijtimoiy cheklangan xudbin qarashlarga qarama-qarshi, farqli o'laroq, inson tafakkuriga ishonch, uning jismoniy-ruhiy nuqsonlari, kamchiliklar, salbiy xatti-harakatlari, gunoh hamda qilmishlariga xayrihohlik bilan qarash kabi gumanistik g'oyalar o'rtasida kechgan kurashlar bilan tavsiflanadi. Zero, bu davrda Yevropada falsafiy fikr, ilm, fan va moddiy hayotda ancha jonlanish yuz bergan edi. Shuning uchun ham, G'arbiy Yevropaga arablar orqali kirib kelgan ilg'or Sharq madaniyati va ilm-fanining ham katta ta'siri bo'lganligi shubhasizdir. Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalarning yaxshilanishi G'arbga tibbiyotning kirib kelishiga zamin yaratdi. Shu davrdan e'tiboran G'arb tibbiyotida gumanistik tendensiyalar yuzaga keldi. Vrachlar monastir va qamoqxonalariga borib, u yerlardagi ruhiy kasallar ustida kuzatishlar olib bordilar. Masalan, XVI asrda yashagan tibbiyot professori Faliks Platter (1537-1614) Fransiyaning Bazel shahrida ruhiy kasalliklarning tasnifini amalga oshirdi. Olimning tasnifi asosida inson organizmidagi turli aqliy, ruhiy va jismoniy buzilishlarning tavsifi yotar edi. XIX asrning o'rtalariga qadar G'arbda qator psixiatr, pedagog va amaliyotchilar faoliyatida bola rivojidagi kamchiliklarni aniqlash, kamchiliklarni sabablarini topish, bu bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasidagi muammolar hal etila boshladi. Nogiron bolalar uchun alohida ta'lim-tarbiya muassasalari ochila boshladi.

“Juda uzoq vaqt davomida, - deb yozadi N.N.Malofeyev, - maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berish samarali, deb hisoblanib kelindi”.

XIX asrning 60-yillariga qadar jahon miqyosida differensial ta'lim muassasalarining tarmog'i jadal ravishda o'sib, ko'plab davlatlarda, hatto, 12-15 ta turdagi maxsus muassasalari ochildi. Masalan, Qozog'iston, Rossiya va Belgiyada 8 turdagi, Niderlandiyada esa 15 turdagi maxsus muassasalar mavjud. 1970-1980- yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi. BMT tomonidan 1948-

yil qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”da: “Ta’lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi” ekanligi alohida e’tirof etilgan.

“Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi” barcha insonlarning huquq va erkinliklarini kafolatlar ekan, uning barcha bandlari maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishli ekanligini ta’kidlaymiz.

Nogiron shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida BMT 1975-yil “Nogiron shaxslar huquqlari to’g’risida”gi Deklaratsiyani qabul qildi. Mazkur Deklaratsiyaning 3-moddasida: “Nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqi ularda tug’ilishi bilan mavjud bo’ladi. Nogironlikning kelib chiqishi, tabiati va jiddiylik darajasidan qat’i nazar, fuqaro o’z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirlarki, shu bilan birga ular mumkin qadar to’laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega”ligi ta’kidlanadi.

“Nogiron shaxslar huquqlari to’g’risida”gi Deklaratsiyaning mazmunidan nogiron fuqarolarning jamiyat hayotida to’liq ishtirok etishining kafolatlanishini tushunish mumkin. Ammo mazkur Deklaratsiyada nogiron bolalar, ularning ta’lim olish imkoniyatlari va barcha davlatlar tomonidan Maxsus ehtiyojli bolalarning huquqlarini ta’minlash yo’llari batafsil yoritilmaganligi tufayli ko’pgina mamlakatlarda unga rioya qilinmayotganligini kuzatamiz. Bu xususda R.A.Suleymenova va G.A.Xakimjanova to’xtalar ekanlar: “Agarda nogiron bolalarning o’z jamoalari va butun jamiyat ijtimoiy hayotiga jalb etish imkoniyatlari rad etilsa, ularning imkoniyatlari keskin kamayadi. Shu bois, bolalarga oid barcha huquq va erkinliklar kafolatlanishi va ular alohida, qat’iy ta’minlanishi zarur. Jumladan, bolalarning ta’lim olish huquqi dunyoning ko’plab davlatlarida ta’minlanmayapti. Bu esa nafaqat o’sha jamiyat uchun, balki butun dunyo aholisi uchun chinakkam fojea bo’lishi mumkin”, -deya ta’kidlaydilar.

BMT sobiq bosh kotibi Kofi Annan 2000-yildagi “Ming yillik ma’ruzasi”da quyidagi fikrlarni bayon etgan edi: “Maktabda deyarli o’qimagan, na ishi, na bexatar boshpanasi bo’lgan maxsus yordamga muhtoj bolani tasavvur qiling... Onalari dori solingan shishaga yopishtirilgan yorliqni o’qiy olmagan uchun jon taslim qilayotgan bolani yoki yuridik hujjatni o’qiy olmagan uchun meros qolgan yerdan mahrum bo’lib qolgan kishini ko’z oldingizga keltiring. Ta’lim har doim ham qaramlik, vasvasa va qashshoqlikdan xalos bo’lish

uchun kalit bo'lib hisoblangan. Ta'lim kambag'allikka qarshi kurashadigan samarali quroldir. U ko'plab odamlarning hayotini saqlab qoladi va insonlarga ularning yashash tarzini yaxshilash uchun imkoniyat hadya etadi. U millatning qudratini va raqobatbardoshligini oshiradi, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotni rag'batlantiradi. Ta'limning uzluksizligi yangi global iqtisodiyotning kalitidir. Rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot va inson ozodligi uchun u tub ahamiyatga ega. Ammo bugungi kunda dunyo bo'yicha 113 milliondan ortiq bola ta'limdan bebahra qolmoqda. Mana bu bolaning fikrlariga e'tibor bering: "Mening otim Amerigo. Yoshim 13da. Ko'chada yolg'iz yashayman. Qachonlardir otam tashlab ketgan. Onam men bilan birga yashashni xohlamaydi. Otam juda uzoqda yashaydi. Men uning yoniga borishim mumkin, lekin u ham meni olishni xohlamaydi. Xullas, mening uyim ko'cha. Ilgarilari eski-tuski narsalarni yig'ib sotardim. Qandaydir kasallikka chalinganimdan so'ng ko'zim xiralashib, qulog'imning eshitishi ham yomonlashdi. Bir oz vaqt muzqaymoqchi bilan ishladim. Men plyajda muzqaymoq sotar edim. Ammo bu juda mashaqqatli ish. Og'ir yashik to'la muzqaymoqni ko'tarib yurishga to'g'ri kelardi. Qulog'imning eshitmasligi esa meni yanada qiyin ahvolga sola boshladi. Hozir poyafzallarni tozalayapman. Biroq hech qachon qorin to'ymaydi, keyingi kecha qayerda tunashni bilmayman. Men ham o'z uyimda yashashni, xotirjam uxlashni, maktabga borishni juda-juda istar edim. Qish kechalari juda sovuq bo'ladi. Sovuqdan ko'chada o'lib qolish ham hech gap emas".

Amerigoning ahvoli yagona voqea emas. Butun dunyo bo'yicha minglab bolalar ko'chada yashaydilar. Xavfli joylarda ishlaydilar. Ularni (ayniqsa nuqsonli bo'lsa) har doim karnsitadilar, ko'pincha, bu bolalarning oddiygina huquqlari ham yo'q".

Xuddi shunday bolalarni muhofaza qilish maqsadida BMT tomonidan 1989-yil "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ni qabul qilindi (10). "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" bolalarning huquqlarini hamma joyda amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan inson huquqlari borasidagi xalqaro shartnoma hisoblanadi. U qariyb butun jahon mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan 191 ta davlat ko'ngilli tarzda zimmalariga "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" qoidalarini ma'muriy qonunchilik, sud va boshqa chora-

tadbirlar yordamida hayotga tadbiriq etish majburiyatini oldilar. “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” kompleks va universal xarakterda bo‘lib, barcha bolalar uchun inson huquqlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy singari jabhalarni ta‘min etadigan yagona Konvensiyadir. Mazkur Konvensiya qat‘iy faoliyat ko‘rsatib, barcha hukumatlarni hamma bolalarning huquqlarini himoya etish uchun sayi harakatlar qabul etishga chaqiradi. Shuningdek, Konvensiya yaxlitdir, chunki unda ta‘kidlanishicha, barcha huquqlar muhim, mushtarak, bir-biriga bog‘liq va tengdir.

“Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” barcha bolalarning huquqlarini himoya qiladi. Mazkur Konvensiyaning 2-moddasida “Bolalar ularning ota-onalari, boquvchilarining irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e‘tiqodi, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli, sog‘lig‘i, qanday holatda tug‘ilganliklari va boshqa holatlaridan qat‘i nazar kamsitishlarga mahkum etilmasiligi kerak”, -deb qat‘iy belgilangan. Demak, bu Konvensiyadagi barcha huquqlar maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun ham tegishli bo‘lib, ularga barcha bolalar qatori teng munosabatda bo‘lish kafolatlanadi. Shunday ekan, “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” maxsus ehtiyojli bolalarning ta‘lim olish huquqini ham kafolatlaydi. Aynan 28-moddada “Ta‘lim insonning siyosiy huquqi” ekanligi, unda ishtirokchi davlatlar barcha bolalarning ilm olish huquqini e‘tirof etishlari hamda ana shu huquqni teng imkoniyatlar asosida amalga oshirishga asta-sekin erishish maqsadida, bepul va majburiy boshlang‘ich ta‘limni joriy etadilar,-deyilgan. Ushbu modda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ta‘lim olishlarini, ular uchun ham ta‘limning majburiy ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Shuningdek, “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”sining 23-moddasida maxsus ehtiyojli bolalarning ta‘lim-tarbiyasi xususida qisqa va aniq qilib quyidagicha ta‘kidlangan: “Nogiron bolaning maxsus ehtiyojlarini aniqlab, uning ijtimoiy hayotga qo‘shilishi va shaxs sifatida rivojlana olishiga yetaklovchi vosita hisoblangan ta‘lim olishga har tomonlama yordam berilishi lozim”. Bu qoidadan shu narsa ayon bo‘ladi-ki, maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etishi, madaniyatga hamohang bo‘lib o‘sishi, uning boyliklaridan, go‘zalligidan bahra olib jamiyatning rivojiga hissa qo‘shishlarining ahamiyati juda kattadir. Mana shunday imkoniyatlarga ega etishda maxsus ta‘lim muassasalarining ta‘lim

tizimi va mazmuni talabga javob bermaydi. Shuning uchun ham insonparvarlik nuqtayi nazaridan jahondagi ko'plab mamlakatlar maxsus-segregatsion ta'lim tizimini inkor eta boshlaganliklari ma'lum bo'ldi. R.A.Suleymanova va G.A.Hakimjonova "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" moddalarining mazmuni va mohiyati xususida to'xtalib: "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" maxsus ehtiyojli bolalarning ham barcha huquqlarini kafolatlar ekan, "Barcha huquqlar - barcha bolalarga" tamoyili e'tirof etilishini anglaymiz", - deya ta'kidlaydilar Juda ko'plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni yuqori darajada kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to'raligicha yo'lga qo'yish maqsadida unumta'lim maktablarida ta'lim berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritildi. Buning natijasida 1990-yil Tailandda o'ta muhim Umumjahon Konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda "Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilinib, uni dunyoning 155 ta davlat hukumatlari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari qabul qildilar. "Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Deklaratsiyasi har bir bolaning to'laqonli va mukammal ta'lim olishini kafolatlad. Ushbu Deklaratsiyada quyidagicha bayonot qilingan: "Maktablar bolalarning imkoniyatiga qarab emas, ish sifati va maktab ta'limiga javob berishi bilan xarakterlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- har bir bolaning huquqi ommaviy maktabda ta'lim-tarbiya olishni talab etadi;

- o'qitishning metod va metodikalari bolaning nuqsoniga qarab tanlanadi;

- maktabda to'raligicha korreksion pedagogik yordam tashkil etiladi;

- bolalar to'g'risidagi qaror kompleks tarzda qabul qilinadi;

- bolaning har bir shaxsiy huquqi kafolatlanadi;

- maktabda integratsiya tamoyiliga o'quv rejaning asosi sifatida qaraladi;

- inklyuziv maktablarning moddiy ta'minoti yaxshilanadi" (12).

Nazariy adabiyotlar tahlilida taniqli psixolog va defektolog L.S.Vigotskiyning qarashlari ham o'rganildi. L.S.Vigotskiy umumiy va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish, ya'ni maxsus yordamga muhtoj bolalarni inklyuziv ta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etgan. "Ta'lim tizimi shunday bo'lishi kerak-ki,-deb

yozadi L.S.Vigotskiy, - maxsus ta'lim va umumiy ta'lim uyg'unlashib ketishi uchun shart-sharoitlar yaratilsin. Buning uchun ta'lim tizimini shunday tashkil etish kerak-ki, maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlansin. Ma'lumki, bizning maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya oluvchi o'quvchilar maktab jamoasining tor doirasiga tushib qoladi. Ijtimoiy jamiyatda esa hammaning diqqati uning nuqsoniga qaratiladi. Natijada bu bolalar haqiqiy hayotdan chetlashtiriladi. O'z o'rnida maxsus maktab bolani chegarlangan dunyoga olib keladi". Shu bois L.S.Vigotskiy nuqsonli bolani tarbiyalashning vazifasi bu boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning hayotga integratsiyasini ta'minlashdir, deb hisoblaydi.

Inklyuziv ta'lim tadqiqotchilari mazkur muammolarni o'rganish, hal etish avvalida nogironlikka bo'lgan yondashuv masalasiga oydinlik kiritish lozimligini ko'rsatadilar. Ya'ni hozirgi kunga kelib, butun dunyoda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan tibbiy va ijtimoiy yondashuv mavjud.

Nogironlik masalasiga tibbiy yondashuv:

- Nogiron bolalarning muammosini hal etishning birdan-bir yo'li ularni sog'lomlashtirishdir.

- Nogiron bolalar hayotiga taalluqli muammolar tibbiyot, korreksion ta'lim tizimi orqali hal qilinadi

- Nogiron shaxslarga doimiy ravishda mutaxassislar ko'magi zarur.

- Nogiron shaxs hech qachon sog'lom insonga tenglasha olmaydi.

Nogironlik masalasiga ijtimoiy yondashuv:

- "Nogironlik" masalasi - shaxsiy muammo emas!

- Nogironligi bo'lgan shaxslar sog'lig'ida muammosi bo'lgan insonlarga yetib olishlari shart emas.

- Nogironligi bo'lgan shaxslarning hayotda o'zini topishlariga jamiyatdagi to'siqlar imkon bermaydi.

- Jamiyatdagi to'siqlar keng qamrovli yondashuv orqali bartaraf etiladi.

- Nogironligi bo'lgan shaxslar barcha fuqarolar singari teng huquqlidirlar.

Barcha insonlar, ularning erkinliklari, teng huquqliliklari tan olingan davlatlarda, albatta, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining ro'yobga chiqarilishiga ijtimoiy yondashuv asosida muvaffaq bo'linmoqda.

Jahon miqyosida maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limiy imkoniyatlarini va ularning huquqlarini ta'minlash jarayonini bosqichma-bosqich o'rganish natijasida "Ta'lim hamma uchun" maqsadlarini amalga oshirish va maxsus yordamga muhtoj bolalarning to'laqonli mukammal ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida 1994-yilning 7-10-iyun kunlarida Ispaniya davlatining va YUNESKOning yordamida Salamanka shahri (Ispaniya)da ikkinchi yirik Umumjahon Konferensiyasi bo'lib o'tganligi aniqlandi. Mazkur Konferensiya "Salamanka Deklaratsiyasi va alohida yordamga muhtoj bolalar ta'limining kelgusida ijrosini ta'minlash Ramkasi" deb atalib, shu yili "Salamanka bayonoti va Ish faoliyat Rejasi" nomi bilan uning ish mazmuni nashr etildi. Bu hujjatda huquqlar bo'yicha bayonotlar mazmunlarini yorituvchi fikrlar bayon etilgan. Salamanka bayonoti va Ish faoliyati Rejasining asosiy yetakchi tamoyili shundan iboratki, maktablar barcha bolalarni, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, hissiy, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar o'qishga qabul qilishlari lozim. Mazkur hujjatda ta'kidlanishicha: "Har bir bola ta'lim olish va o'ziga muvofiq darajada bilimga erishish huquqiga ega: maorif tizimi va ta'limiy dasturlar turli xil xususiyat va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tuzilib, shu ishga yo'naltirilsin. Maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun oddiy maktablarga borish imkoniyati yaratilsin. Maxsus yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash oddiy maktablarning ish faoliyati doirasiga kirar ekan, bu jarayon quyidagi maqsadlarga erishishning eng samarali vositasi bo'lishi lozim:

- ajratib qo'yish illatiga qarshi kurash;
- do'stona insonparvar jamoalarni yaratish, o'z tarkibiga maxsus ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni olgan jamiyatni qurish;
- barcha bolalarning ta'lim olishiga erishish".

Salamanka Bayonoti ish faoliyati rejasida "Ta'lim hamma uchun" shiori ilgari suriladi. "Ta'lim hamma uchun" shiori deganda nogiron bo'lgan yoki jamiyat ichida ajratib qo'yilgan guruhlardan kelib chiqqan bolalarning ham teng huquqlilik asosida ta'lim olishlari tushuniladi. Ushbu harakat rejasini tahlili shuni ko'rsatdiki, asoslanadigan asosiy tamoyili quyidagilardan iborat: "Maktablar jismoniy, aqliy, ijtimoiy, emotsional, tilidagi yoki boshqa nuqsonlaridan qat'i nazar hamma bolalarni qabul qilishi kerak. Ularga ruhiy va jismoniy nuqsoni bor bolalar, boshpanasiz bolalar, ko'chmanchi xalqlarga tegishli bo'lgan bolalar, etnik yoki madaniy

kamchilikni tashkil topgan oilalarning bolalari kiradi”. Salamanka Bayonoti va Ish faoliyat Rejasida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimi sharoitida inklyuziv ta’lim berish lozimligi alohida ta’kidlanib, har bir bolaning boshqalarnikiga o’xshamagan o’z ehtiyojlari mavjudligi, shuningdek, har bir bola yashash joyiga yaqin bo’lgan maktabga borish huquqi mavjudligi alohida ta’kidlab o’tilgan. Unga ko’ra maorif tizimi va ta’limiy dasturlar turli xususiyat va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tuzilib, shu ishga yo’naltirilishi, maxsus ehtiyojga ega bo’lagan bolalar uchun umumta’lim maktablariga borish imkoniyati yaratilishi deb qat’iy belgilab berildi. Bunday maktablarning asosiy maqsadi barcha bolalarga samarali ta’lim beribgina qolmay, maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan inklyuziv va iliq munosabatli jamiyat yaratib, diskriminatsion o’zgarishlarga barham berishdir. Salamanka Bayonoti va Ish faoliyati Rejasining ishlab chiqilishi jahon miqyosida “Ta’lim hamma uchun” mazmunidagi ta’lim siyosatining ilgari surilishi, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimi sharoitida o’qitishning yo’llarini belgilab berdi. Ammo bu ta’lim tizimining mazmun-mohiyatini yanada aniqroq va mustahkamroq huquqiy jihatdan asoslash, qat’iy belgilab berish lozim edi. Shuning uchun ham 2000-yilning 26-28-aprel kunlari Dakarda ta’lim to’g’risida xalqaro Forum qatnashchilari tomonidan “Dakar harakat dasturi” qabul qilindi. Anjuman ishtirokchilari 10 yil avval qabul qilingan “Ta’lim hamma uchun” Xalqaro Deklaratsiy ni qayta tasdiqlab, ratifikatsiya qildilar. Dakar harakat dasturi “2000-yilga qadar jahon miqyosida ta’lim hamma uchun amaliy faoliyatining darajasini baholash” maqsadiga asoslanildi. Bu baholashda har bir davlat o’z mamlakati ta’limini barcha bolalar uchun ta’minlanganlik rejasini tahlil qilib chiqish vazifasi topshirildi. Tahlil asosida har bir davlat 6 ta hududiy Konferensiyalarni o’tkazish davomida 1990-2000-yillarda erishgan yutuqlarini Djomtyenga yetkazib turish lozim, deb belgilanganligini ko’ramiz:

1. Sahroyi Kabirdan va Janubiy Afrika davlatlari uchun o’tkazilgan “Ta’lim hamma uchun” konferensiyalar (1999-yil – 2000-yil);

2. Butun Osiyo va Tinch okeani hududi mamlakatlarida “Ta’lim hamma uchun” maqsadini amalga oshirish darajasini belgilash uchun hududiy Konferensiya (Bangok va Tailand. 2000-yil 17-20-yanvar);

3. Kairda Arab davlatlari “Ta’lim hamma uchun” mavzusidagi hududiy Konferensiya (2000-yil 24-27-yanvar);

4. Braziliyaning Resifi shahrida bo‘lib o‘tgan –“Ta’lim-9” ko‘pmillatli davlatlarning maorif vakillarining yig‘ilishi (2003-yil 31-yanvar-2-fevral);

5. Polshaning Varshava shahrida bo‘lib o‘tgan Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlari uchun Konferensiya (2000-yil 6-8-fevral);

6. Dominikan Respublikasining Santo-Domingo shahrida bo‘lib o‘tgan Janubiy va Markaziy Amerika uchun “Ta’lim hamma uchun” hududiy konferensiyasi (2000-yil 10-12-fevral).

Yuqoridagi 6 ta harakat Ramkasi “Ta’lim hamma uchun Dakar harakat Ramkasi”ni tashkil etdi”. Shuningdek, Dakar harakat Ramkasiga kirgan barcha davlatlar 2002-yilga qadar “Ta’lim – hamma uchun” rejasini mukammal tuzib, 2015- yilga qadar bu ta’lim tizimini amaliyotga to‘liq joriy etishlari lozim, deb topildi. Ya’ni harakat Ramkasi tarkibiga kiruvchi davlatlarning barchasi “Har bir inson va har bir jamiyatga” shiori ostida barcha insonlar va bolalar ta’limini to‘laqonli ta’minlash majburiyatini oladilar. Bu harakat dasturida “Ta’lim xavfsiz, sifatli, bolaning sog‘lig‘ini himoya qilib, mustahkamlaydigan, hamma uchun birdek, inklyuziv tarzda va barcha zaruriy resurslar bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim. O‘qituvchilar saviyasi va o‘quv rejalar “Ta’lim - barcha uchun” maqsadlariga javob berishi kerak”, - deb belgilangan. Mazkur harakat Ramkasidan chetda qolgan davlatlarda “Ta’lim hamma uchun maqsadlarini amalga oshirish YUNESKO tomonidan ijrosi ta’minlana boshladi. Uchinchi ming yillik arafasida o‘tkazilgan mazkur Dakar Umumjahon Konferensiyasida xalqaro va milliy me’yoriy hujjatlarda e’tirof etilgan ta’lim olishdagi tenglik amalda keng tadbiq etilayotganligi alohida ta’kidlandi. Unda quyidagicha bayonot qilindi:

- har bir inson: bola, o‘smir va kattalarning har biri ta’lim olishlari shart va bu ta’lim uning asosiy o‘quv imkoniyatlariga ega bo‘lishi lozim;

- nuqsonli bolalarning o‘quv imkoniyatlari asosiy o‘rinda turadi. Barcha nuqsonli bolalarning nuqsonlarini erta aniqlab, ta’limga jalb qilish imkoniyatini topish lozim.

Shunday qilib, yuqorida tahlil qilingan nazariy va metodik adabiyotlar, huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida maxsus ehtiyojli

bolalar ham jamiyatning to'laqonli va tenghuquqli a'zosi ekanligi e'tirof etilib, ular ta'limida alohida yangicha yondashuv maydongan kelganligi ma'lum bo'ldi. Bu ta'lim tizimlari "Integratsion" hamda "Inklyuziv" ta'lim tizimi deb ataldi. Mazkur ta'lim tizimlarining mazmun-mohiyati qanday, ular o'rtasidagi farqlar va o'xshashlik jihatlari-chi, bu ta'lim tizimlarini qanday qilib joriy etish mumkin? Qabilidagi haqli savollarga javob topish uchun nazariy adabiyotlarni tahlil etdik. Avvalo, "Integratsiya" va "Inklyuziv" so'zlarining izohini o'rganish maqsadga muvofiq deb topildi. "Integratsiya" tushunchasi ingliz tilidan olingan bo'lib, integrative-qo'shiluvchi, birlashuvchi, integration-qo'shilish, birlashish-degan ma'nolarni bildiradi. Integratsion ta'limgan jahon miqyosida turlicha yondashishlar mavjud. "Integratsion ta'lim bu-segregatsion ta'limning aksi bo'lib, bunda maxsus ehtiyojli bolalar umumta'lim muassasalari tizimiga kiritiladi"-deb yozgan soha mutaxassislari. Ture Yonsan fikricha, ko'p hollarda inklyuziv va integratsion tushunchalari bir xil ma'noda ishlatiladi, shunga qaramasdan falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq mavjud. Bu farqlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

-integratsiyalashgan ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim maktabiga qatnashi (ya'ni diqqat markazida aynan maktabga kelib ketish turadi); -inklyuziv ta'lim: maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim maktablarida samarali ta'lim tarbiya olishi (ya'ni barcha e'tibor ta'lim sifatiga qaratiladi). Bu ikkala tushuncha o'rtasidagi tafovut yanada tushunarliroq bayon etilgan bo'lib, quyidagicha ta'kidlanadi:

Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Nogironlikning individual yoki tibbiy ko'rinishida bola maktabga yoki jamiyatga moslashishi uchun uni o'zgartirish yoki tiklash kerak, deb taxmin qilinadi. Masalan, eshitishida muammosi bo'lgan bola umumta'lim sharoitiga moslashishi uchun eshituv apparatidan foydalanib gapirishni o'rganishi kerak. O'qituvchi va me'yorda rivojlanishidagi boladan esa imo-ishora tilini va muloqotning boshqa shakllarini o'rganish talab qilinmaydi. O'qishda esa muammo bor. Bola standart talablarni bajarishi kerak. Aks holda ikkinchi yilga qoldiriladi yoki maktabni tark etishiga to'g'ri keladi.

Inklyuziv ta'lim bolani emas, ta'lim mazmunini o'zgartirishni taqozo qiladi. Inklyuziv ta'limga nogironlikning ijtimoiy ko'rinishining hosilasi sifatida qarash mumkin. Nogironlikning

ijtimoiy modeli barcha bolalarning individual-psixologik, o'zlashtirish xususiyatlari har xilligini hisobga olishni va maktab ta'limini barcha bolalarning imkoniyatlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Lekin inklyuzivlik-hamma bolani bir xil qilib qo'yish yoki "assimilyatsiya" emas. Uning mohiyati moslashuvchanlik ya'ni, bolalarning har xil tezlikda ta'lim olishini hisobga olib o'qituvchidan ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlashi uchun bilim va ko'nikmalar talab qilishdir. "Shuni qayd etib o'tish kerakki,- deb yozadi Ture Yonsan, -integratsiyaning yolg'iz o'zi maqsad emas, nogiron bolani umumta'lim sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Ammo bu ta'lim tizimi bolani o'rganish orqali aniqlangan ehtiyojlarni to'la qondirishni talab etuvchi aniq resurslar va olib boriladigan ishlardan iborat aniq reja asosida amalga oshiriladi. Inklyuziv ta'lim bolaga uning imkoniyatlariga qaratilgan ta'lim bo'lib, ta'lim barcha bolalarga bir xil beriladi, bilimlariga qo'yiladigan talab har bir bolaning imkoniyatidan kelib chiqadi". N.N.Malofeyev, R.A.Suleymanova va G.A.Xakimjanovalar integratsiyani maxsus ta'limning qonuniy bosqichi ekanligini qayd etadilar. N.I.Bukovseva esa integratsiyani ikki tur: ijtimoiy va pedagogik integratsiyaga ajratishni taklif qiladi. Ijtimoiy integratsiya turida ijtimoiy munosabatlarni Maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim tizimiga moslashtirishni nazarda tutadi. Pedagogik integratsiyada bolaning qobiliyatlarini o'quv rejaga moslashtirish nazarda tutiladi. R.Shomaxmudova "Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inklusiv, inklusion-uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) bu davlat siyosati bo'lib, nogiron va maxsus ehtiyojli bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar, oilaning faol ishtirokida, xususan bolaning ehtiyojini qondirishga va ijtimoiy hayotga moslashtirish va umumta'lim tizimiga to'liq qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir", -deya ta'riflaydi. Ma'lum bo'lishicha, adabiyotlarda inklyuziv va integratsiya ta'limlari tushunchasiga ham turli xildagi qarashlar va fikr-mulohazalar bayon qilingan. Nazariy adabiyotlar va huquqiy-me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish jarayonida integratsion va inklyuzivlik turlicha ta'riflarga ega bo'lsada, tushunchalarining o'rtasida umumiylik ham mavjudligi aniqlanib, bu umumiylik zamirida maxsus ehtiyojli bolalarni, paysalga solmaydigan vazifa sifatida, umumta'lim tizimi sharoitiga kiritish

yotadi. Buyuk pedagog A.Avloniy, har qanday bolaning avvalo bola ekanligidan chiqqan holda, tarbiya masalasiga doir: "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?" degan savol keladur. Bu savolga: "Birinchi – uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir", - kabi fikrlarni bildirgan holda, ta'lim-tarbiyada bola yashab turgan sharoit, muhit, jamoatchilikning roli katta ekanligini ko'rsatib, bu borada oila, maktab hamkorligi zaruratini, oilada bolaning sog'lig'iga alohida ahamiyat qaratilishi lozimligi, kasallangan farzandni darhol shifokorlarga ko'rsatish, kasallikning oldini olish, vaqtida davolash muhimligini ota-onalarga uqtiradi. O.Musurmonova yangi tug'ilgan bolaga ham xuddi nihol kabi parvarish zarurligini, pedagogik g'oyaning tub mohiyati oila tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish bilan bog'liqligini ta'kidlab, quyidagicha xulosalaydi: "Oila tarbiyasida hikmat (falsafiy-pedagogik yo'nalishlar) ko'p". D.D.Sharipova esa nogiron bolalarga qonunchilikda belgilangan kafolatlarni to'laqonli yetkazish, tibbiy-ijtimoiy ishlarni keng ko'lamda o'tkazish natijasida ularni kelajak hayotga, jamiyatga moslashtirish va o'z o'rinlarini topishlarida yordam ko'rsatish hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri ekanligini alohida qayd etadi. O'rganilgan adabiyotlar tahlili natijasida alohida yordamga muhtoj bolalar inklyuziv ta'limini O'zbekistonda joriy etish borasida amalga oshirilishi ozim bo'lgan jihatlar qator maqolalarda o'z aksini topgani R.Shomaxmudovaning "Maxsus va inklyuziv ta'lim" o'quv qo'llanmasi inklyuziv ta'limning jahon hamda respublikamizda amalga oshirilgan ish tajribalarining yoritilishiga bag'ishlangan yagona ish ekanligi, lekin respublikamizda mazkur ta'lim turining ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilinishi borasida yetarli darajada ish olib borilmaganini aniqladik. Adabiyotlar sharhi, inklyuziv ta'lim borasidagi qator say'i-harakatlar, chora-tadbirlarning amalga oshirilayotganiga qaramay, respublikamizda inklyuziv ta'limni keng qamrovli joriy etishning muayyan rejasi ishlab chiqilmaganini, uning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilmagani mazkur ta'lim turini sifatli tashkil etilishiga jiddiy to'siq bo'layotganligini ko'rsatadi.

Turli xil ta'lim modellarining tavsifi

Maxsus ta'lim

Alohida ehtiyojli bola

To'g'ri to'rtburchakli teshik uchun to'g'ri to'rtburchakli qoziqcha

Maxsus pedagog

Maxsus ta'lim muassasasi



Umumta'lim

Me'yordagi bola
Dumaloqli teshik
uchun dumaloqli
qoziq.

Odatdagi pedagog

Umumta'lim muassasasi

Integratsional ta'lim

Bolaning tizim talabiga moslashuvi


To'g'ri to'rtburchakli qoziqchani dumaloqli qoziqchaga aylantirish



Tizim o'zgaraydi

Bola tizimga moslashadi yoki tizim bola uchun to'g'ri kelmaydi

Inklyuziv ta'lim



- Barcha bolalar har xil (turfa)lik;
- Barcha bolalar o'qishi mumkin;
- Turli qobiliyatlar, turli etnik guruhlari, turli yosh, turli kelib chiqish, jins mavjud.
- Tizimning bola ehtiyojlariga moslashuvchanligi

S. Stabsning «Cheklangan resurslar sharoitida inklyuziv ta'lim», qo'llanmasidan (2002. Sue Stubbs, Inclusive Education Where There are few resources)

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar sharhi

Respublikamiz Hukumati, Birlashgan Millatlar tashkiloti hamda uning bo'linmalari tomonidan qabul qilingan kelishuvlarga qo'shilar ekan, mustaqillikning ilk kunlaridanoq aholining ijtimoiy himoyaga

muhtoj qatlamiga alohida e'tibor qaratgan holda, qator qonunlarda bunday insonlarning shaxsiy imkoniyatlariga mos tarzda sharoitlarni yaratish orqali jamiyatga uyg'unlashuvlarini ta'minlashga bel bog'ladi. Jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan maxsus yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunarga yo'llash davlatimiz siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (1991-yil 18-noyabr), "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997-yil), "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (1997-yil), "Kelajak avlod salomatligi uchun" Davlat dasturlarida (2000-yil), "O'zbekiston Respublikasining nogironlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha 1996-2000-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi" (1995-yil) da sog'lom avlod tarbiyasiga davlat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifa sifatida qarash lozimligi ko'rsatilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida har bir bolaning yashash, rivojlanish, ishtirok etish, himoyalinishida teng huquqliligi kafolatlanishi belgilangan. Jumladan, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, Xalq ta'limi vazirligining "Aqliy va jismoniy nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni maxsus ta'lim muassasasidan boshqasiga yoki inklyuziv sharoitlarida ta'lim olish uchun umumta'lim muassasasiga o'tkazish to'g'risida"gi Nizomi, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantririshning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5270-sonli Farmonida jamiyatning ajralmas qismi bo'lgan nogironligi bo'lgan shaxslarning yashashi, jumladan, ularning barcha bolalar kabi bekamu-ko'st kamol topishi, ta'lim-tarbiyasi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifa sifatida qaralib, bu borada hamjamiyat ishtirokchilarining yakdilligi muhimligi inobatga olingan. O'rganilgan me'yoriy hujjatlarda nogironlikning oldini olish, nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy, ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularning yashash muhitini yaxshilash va sog'lomlashtirish, erta tashxisni yo'lga qo'yish, ta'lim-tarbiya berish va korreksion pedagogik ish olib borish, kasb-hunarga yo'naltirish, nogironligi bo'lgan bolalarning sifatli ta'lim olishlariga erishish, inklyuziv ta'lim uchun qulay muhit yaratish, umumta'lim sharoitida ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash, mazkur ta'lim turini keng

✓ targ'ib qilish orqali ta'lim sifatiga erishish masalalari qayd etilgan. So'nggi yillarda ta'lim sohasida erishilayotgan ijobiy natijalardan biri sifatida bolaning rivojlanishidagi "o'zgachalik"ni erta tashxis qilish, uning oqibatlarini aniqlash, qayta tiklash, mazkur toifaga mansub ilk va erta yoshdagi bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish, shuningdek, mazkur toifaga mansub bolalarni umumta'lim muassasalariga uyg'unlashtirish ta'limimiz diqqat markazida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolayotganini e'tirof etishimiz lozim. Zero, inklyuziv ta'lim har bir bolaning ta'lim turini tanlashida erkinligi, barcha qatori teng ravishda bilim olishi, oilada bo'lishi, o'z uyi hamda mahallasida kamol topishi huquqlarini ta'minlashga qaratilgandir. Inklyuziv ta'lim jamiyatni inklyuzivlashtirish, insonparvarlashtirish borasidagi ilk bosqichdir. Bunday ta'limni rivojlantirish yangi shaklni yaratish hisoblanmay, balki ta'lim tizimini rejali tarzda sifatlilik o'zgartirishni nazarda tutadi. Ya'ni ushbu ta'lim alohida bolani o'zgartirish yoki tuzatishni emas, balki o'quv hamda ijtimoiy muhitni shu bolaning imkoniyatlariga moslashtirishni ko'zlaydigan ta'limdir. Boshqacha aytganda, u ta'limning alohida bir shakli bo'lmay, o'zining falsafasi, mazmuni va shart-sharoitlarining har bir bola imkoniyatlariga moslashuvchanligi, tanlash imkoniyatlarining erkinligi bilan tavsiflanuvchi ta'limdir.

Respublikamizda inklyuziv ta'lim g'oyasining kirib kelishini 1996-yil xalqaro ekspertlar ishtirokida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan ilk anjuman bilan bog'lasak, o'tgan davr mobaynida bunday ta'limni joriy qilishga erishish maqsadida unga erishish, "kirib borish"ning turli shakllaridan foydalanilganini kuzatishimiz mumkin:

-alohida e'tiborga muhtoj bolani to'g'ridan-to'g'ri umumta'lim muassasasiga qatnab ta'lim olishi;

-mazkur toifaga mansub bolalarning "birodarlashgan umumta'lim maktablari"da ma'lum bir darslarda qatnashishi;

-maxsus va umumta'lim maktablari o'quvchilarining turli madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlarida birgalikda ishtirok etishi;

-alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning umumta'lim maktablari qoshidagi tayanch sinflarda maxsus ta'lim olib, muassasada o'tkaziluvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda barcha bolalar bilan birgalikda ishtirok etishi;

-uyda yakka tartibda ta'lim oluvchi o'quvchilarning ma'lum vaqtlarda sinf xonasida ta'lim olishi va h.k.

✓ Respublikamizda inklyuziv ta'limning turli modellari asosida amalga oshirilgan loyihalar tahlili bu borada quyidagi muvaffaqiyatlarga erishilganini ko'rsatadi:

- alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning o'z oilasida, mahallasida rivojlanish huquqlari ta'minlandi;

- bolaning ta'lim jarayonida ishtirok etishi ta'minlandi;

- bolaning jamoada bo'lish huquqi orqali hayotga bo'lgan qiziqishi ortdi;

- bolalar o'zlarini boshqalar qatori ekanliklarini his eta boshladilar.

Olib borilgan ishlarning diqqatga sazovor bo'lgan tomoni shunda-ki, nafaqat alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar hayoti va ongida, balki ular bilan birgalikda ta'lim-tarbiya olayotgan tengdoshlari ongida ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ya'ni sog'lom bolalar bu bolalarga kasalmandlarga bo'lgan munosabatda emas, balki o'ziga xos rivojlanishni boshidan kechirayotgan do'stlariga bo'lgandek munosabatda bo'la boshladilar.

Biroq, inklyuziv ta'lim muassasalaridagi ijobiy natijalarga qaramay, qator qiyinchiliklarga duch kelindi. Inklyuziv ta'lim amaliyoti mazkur ta'lim birdaniga muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'lmagan, balki, uzoqroq tizimli o'zgarishlarni talab etuvchi jarayon ekanligini ko'rsatmoqda. Eng avvalo, bunday ta'limni joriy qilish eng murakkab sanalgan hozirgi ta'lim tizimi rahbarlari, o'qituvchilari hamda atrofdegilarning tafakkuri va ongi, psixologiyasida tub burilish yasashni taqozo etmoqda. Jamiyatda ko'p yillar davomida rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar maxsus muassasalarda tarbiyalanishlari lozim, ularning me'yorda rivojlanayotgan bolalar bilan birgalikda ta'lim olishiga yo'l qo'yish qiyin, degan fikr hukmronlik qilib keladi. Bu muammoni hal qilish uchun ijtimoiy fikrni o'zgartirish yo'lida uzoq vaqt sabr-toqat bilan ish olib borishga to'g'ri keladi. Davlatimiz siyosati bugungi kunda ham maxsus ehtiyojli bolalarga yanada samaraliroq ta'lim-tarbiya berish, ularni ijtimoiy jamiyatga tenghuquqlilik asosida to'liq va erta moslashtirish masalalari xususida keng ko'lamli ishlarini olib borish tomon qaratilgan. Mazkur yo'nalishdagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirish, alohida ehtiyojli bolalarni umumta'limga jalb qilish asoslarini pedagogika sohasi mutaxassislari, ta'lim tizimida faoliyat

✓
ko'rsatayotgan rahbar va pedagog xodimlar jamoasiga yetkazishimiz, targ'ibot qilishimiz lozim.

Inklyuziv ta'lim amaliyotida samaradorlikka erishish yo'l va omillari. Inklyuziv ta'limda ta'lim tizimini alohida yordamga muhtoj bolaga moslashtirish markaziy o'rinni egallar ekan, avvalo, nogironlik nima ekanligi, unga yondashish turlarini ko'rib chiqish lozim.

Nogironlikning tibbiy tavsifi: "Nogiron, deb har kungi me'yoriy harakatlarni bajarish qobiliyatiga jiddiy yoki uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, jismoniy kamchilik yoki ruhiy kasallikka chalingan shaxs hisoblanadi".

Ba'zi odamlarni bu tavsif o'z-o'zidan qamrab oladi: saraton, skleroz, OITV-infeksiyasi yoki jiddiy nuqsonlarga chalingan odamlar. Zo'rayadigan yoki qaytalanadigan belgilari bo'lgan odamlar uchun maxsus holatlar mavjud.

Nogironlik – ba'zi insonlardagi o'ziga xoslik bo'lib, biz bu haqida qancha ko'p bilsak, alohida e'tiborga muhtoj shaxslarni shuncha yaxshiroq tushunib, ularga yordam ko'rsata olamiz. Barcha tibbiy nogironlik ham ijtimoiy jihatdan nafaol, ya'ni ijtimoiy nogiron bo'lib qolavermaydi.

Jismoniy (tibbiy) jihatdan nogironligi bo'lgan inson o'z hayoti davomida turli-tuman to'siqlarga uchraydi.

To'siqlar – boshqalar uchun shunchaki bo'lgan narsalarni tabiiy va oson bajara olmaslik. Biz rivojlanishdagi ba'zi muammolar natijasida kelib chiquvchi to'siqlarni bayon etishga urinib ko'ramiz. Bolalar yura olmasliklari sababli: maktabga osonlikcha kira olmaydilar, sinfda harakatlana olmaydilar, turli o'yinlarda ishtirok eta olmaydilar, suhbatdoshlari va do'stlari kam. Bolalar yaxshi eshita olmasliklari sababli: O'qituvchining aytgan so'zlarini, topshiriqlarni tushunmaydilar, savollarga to'liq javob bera olmaydilar, turli o'yinlarda ishtirok eta olmaydilar, telefon orqali gaplasha olmaydilar, suhbatdoshlari va do'stlari kam, bir o'zlari begona joyda erkin bo'la olmaydilar.

Bolalar yaxshi ko'ra olmasliklari sababli: Doskada yozilganlarni o'qiy olmaydilar va yozma topshiriqlarni tushunmaydilar, daftarlariga ko'chirib yoza olmaydilar, sinf va maktabda erkin harakatlana olmaydilar, turli o'yinlarda ishtirok eta olmaydilar, suhbatdoshlari va do'stlari kam, bir o'zlari begona joyda erkin bo'la olmaydilar.

O'quvchilar sifatli ta'lim olishi huquqiga ega bo'lishi uchun, ular uchun maxsus ta'lim sharoitlari yaratilishini talab qilinadi va ular o'qishdagi qiyinchiliklarga ega bo'lgan shaxs maxsus ta'lim ehtiyojlariga (MTE) ega bo'lgan shaxs deb ta'riflanadi.

Inklyuziv ta'limni joriy qilishdagi amaliyotdagi mavjud muammolarni hal etish uchun uning mazmuniga oid masalalarni oydinlashtirish lozim:

1. Inklyuziv maktab pedagog va psixologlariga qanday talablar qo'yiladi?

2. Resurs markazlari nima?

3. Resurs o'qituvchi kim?

4. Ota-onalarning ishtiroki qanday?

5. Individual rivojlantirish reja-dasturi nima?

6. Sinf, o'qitishda nimalarga e'tibor beriladi?

Inklyuziv sinf o'qituvchilari rivojlanishida u yoki bu darajada muammolari bo'lgan bolalar rivojlanish xususiyatlari haqida keng tushunchaga ega bo'lishlari, ta'lim jarayonida interfaol usullarini qo'llay olishlari, resurs o'qituvchi hamda ota-onalar bilan mustahkam aloqa o'rnatishlari lozim.

Psixolog bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib individual va guruhlarda ishlashni rejalashtiradi. Psixologning asosiy vazifasi bolaning bilish va hissiy-irodaviy rivojlanishi bilan bog'liq reja-dastur bo'limlariga javob berishdan iborat.

Resurs markazlari har bir tuman xalq ta'limi boshqarmasi tarkibidagi bo'lim. Bu bo'limning faoliyati inklyuziv maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish, boshqarish, amaliy va moddiy yordam ko'rsatishdan iborat.

Resurs o'qituvchi bola bilan darsda va undan tashqari vaqtda dars jarayonida olganlarini mustahkamlash, korreksiya ishlarini amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi maxsus defektologik ma'lumotga ega o'qituvchi.

Ota-onalarning ishtiroki qanday? Bizning modelda ota-onalar nafaqat ko'maklashuvchi, balki asosiy figura. Ular bolani uyda bo'lgan vaqtlarida barcha faoliyatga jalb etishlari, sekin-asta nafaqat atrofda gilarining, balki barchaning uning rivojlanishidagi muammoga oddiy holdek munosabatda bo'lishlariga, turfaliklarni yengishga olib keladi. O'quvchi sifatli ta'lim olishi huquqiga ega bo'lish uchun, maxsus ta'lim sharoitlari yaratilishi, o'qishdagi qiyinchiliklarga ega

bo'lgan o'quvchi maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan shaxs deb qaralishi muhim.

Ta'lim ishtirokchilari o'quvchilarning maktabdagi barcha o'quv-tarbiyaviy jarayonda muvaffaqiyatli ishtirok etishlarini kafolatlash maqsadida har bir o'quvchi uchun individual rivojlantiruvchi reja-dastur tuzishlari lozim.

Individual rivojlantiruvchi reja-dastur imkoniyati cheklangan o'quvchilari faoliyatining mazmunini yoritishga yo'naltirilgan hujjat. Bu hujjatda korreksion-rivojlantiruvchi dasturning oxirida bola holatining kompleks bahosi beriladi. Individual rivojlantiruvchi rejani ishlab chiqishda fan o'qituvchilari, alohida e'tiborga muhtoj bola bilan individual mashg'ulotlarni olib boruvchi (mutaxassis defektologlar, psixologlar, tarbiyachilar va ota-onalar bevosita ishtirok etadi) barcha mutaxassislar ma'suldir. Individual rivojlantiruvchi dasturni yozishda maktab rahbari ham ishtirok etadi. Maktab rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Shuningdek, individual rivojlantiruvchi reja-dasturni bajarish bo'yicha mas'ul mutaxassis tayinlanadi. Mas'ul mutaxassis rejadagi har bir bo'limning o'z vaqtida bajarilishini kuzatib borishi va mutaxassis jamoasini umumiy ish faoliyatini muvofiqlashtirib borishi lozim.

Maxsus ehtiyojli bolalarni individual-korreksion rivojlantirish reja-dasturi turli ta'lim muddatiga tuzilishi mumkin. Bu muddat bolaning rivojlanishda orqada qolganlik darajasi (kamchiligini tuzilishi)ga, hamda ota-onaning intilishi va bilim darajasiga bog'liq. Odatda bolalarni individual korreksion-rivojlantirish reja-dasturi bo'yicha o'qitish muddati yarim-yildan bir yilgacha muddatni tashkil qiladi. Biroq ushbu muddat oralig'ida zaruratga ko'ra individual rivojlantirish reja-dasturiga tegishli o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Shu vaqtdan e'tiboran ushbu dastur bolaning shaxsiy yig'ma jildida va korreksion ta'limni olib borayotgan har bir pedagogda saqlanadi. Individual rivojlantirish reja-dasturi bola rivojlanishining barcha asosiy sohalarini qamrab olishi kerak:

- nutqiy;
- ijtimoiy-iqtisodiy;
- jismoniy va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish;
- davolash va tibbiy rehabilitatsiya.

Bunda mas'ul mutaxassis bolaga korreksion yordam ko'rsatilayotgan davr mobaynida, bo'lib o'tgan barcha voqea hodisalarga tavsif berib boradi, bu vaqt davomida individual rejaga kiritilgan barcha o'zgarish va qo'shimchalarni, ularning sabablarini ko'rsatgan holda yoritib boradi. Bola holatining qayta baholash jarayonida bolaning ota-onasi, uning o'zi bilan suhbat o'tkaziladi, uslubchi va tibbiy-pedagogik-komissiya mutaxassislarining fikri so'raladi. Nihoyat, dastur maqsadlari qay darajada bajarilganligini ko'rsatuvchi ballar ko'rinishidagi baho qo'yiladi.

Dasturga kiritilgan barcha o'zgarish va qo'shimchalar ularning sababini ko'rsatgan holda yozib boriladi. O'tkazilayotgan korreksion bosqichlarda sodir bo'layotgan uzilishlar sanalari va ularning sabablari ko'rsatiladi.

Pedagog bolaning bilimi va faoliyat turlari (bu o'rinda pedagog bolaning sensor rivojlanishi, atrof muhit haqidagi ma'lumot darajasi, o'yin, mehnat, tasviriy san'at sohasidagi faoliyatining rivojlanish darajasini ko'rsatib o'tadi, bolaning barcha imkoniyatlari va ehtiyojlarini qayd etadi); o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalari, pedagog bolani psixofizik rivojlanishini baholash paytida o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish darajasini aniqlaydi.

Individual rivojlantiruvchi reja-dastur asosida kundalik ish rejasi tuziladi va haftada bir marta o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Korreksion rivojlantiruvchi vazifalar: kamchilikni o'rnini to'ldirish, bolani ijtimoiy atrof muhitda moslashuviga erishish.

Ta'limiy vazifalar: bolalarni ijtimoiy tajribalarini o'zlashtirishiga o'rgatish, ularni bilish faolligini rivojlantirish, har bir bolaning yoshiga mos bo'lgan, bolalar faolligining barcha turlarini shakllantirish.

Tarbiyaviy vazifalar: bolani ijtimoiy muhitga moslashtirish, oilada mustaqilligini oshirish, maktabgacha va maktab yoshi davrida faoliyati va xulqida ma'naviy-axloqiy me'zonlarini tarkib toptirish, shuningdek ijobiy, insoniy faoliyatni tarbiyalash va hokazo.

Individual rivojlantirish reja-dasturi korreksion-rivojlantiruvchi ta'limni olib borgan mutaxassisning xulosasi bilan tugallanadi.

O'rganilgan asosida bolalar bilan kundalik faoliyatlarni rivojlantirishda pedagoglar jamoasi nimani bajarish, kim uni bajarishi kerak, qachon uni bajarish kerak va ushbu faoliyatni muntazam

ravishda bajarish uchun muhim bo'lgan omillarni belgiladik:

Birinchidan: Hamkorlikdagi ta'limni amalga oshirib borish lozim. Ya'ni bunda nafaqat pedagoglar, balki ota-onalar va albatta, o'quvchilarning faolliklariga, ularda shaxsiy javobgarlik hissini rivojlantirishimiz lozim. Barcha bolalar alohida e'tiborga muhtoj o'quvchilarga vazifa va topshiriqlarni bajarishda yordam berishda qatnashishlari lozim. Bolalar ta'limda faol qatnashishlari jarayonida, ya'ni hamkorlikka asoslangan ta'limda a'lo darajada o'rganadilar. Shuningdek, faoliyatlar haqiqiy hayotiy misol va tajribalariga asoslanganda, a'lo darajada o'zlashtiradilar, chunki ular o'z bilimlarini yanada samarali ravishda qo'llashlari mumkin. Shu bois o'qituvchilar darslarni rejalashtirayotganlarida bunday uslublarga tayanishlari lozim.

Ikkinchidan: O'qitishni samarali tashkil etishimizda o'quv materialini o'quvchilar tushunyaptilarni yoki yo'qmi, uni kuzatish muhim o'rin egallab, kelgusida nimani bajarish va o'qitishni qanday takomillashtirish haqida fikr yuritishimiz imkoniyat yaratiladi.

Hamkorlikka asoslangan guruh ishi barcha o'quvchilarga ularning tushunchalarini oshirish, rohatlanishni rag'batlantirish hamda ishga va o'zlariga nisbatan ijobiy munosabatlar orqali yordam beradi. Bunday ta'limda o'quvchilar ijobiy so'zlashish va faol eshitish mahoratlarini rivojlantiradilar. Ayrim o'qituvchilar haqiqiy ta'lim faqat o'qituvchi orqali bo'ladi, deb o'ylaydilar. Shunday ekan, biz jarayonga hamkorlikka asoslangan ta'lim uslublarini kiritishni maqsad qilgan holda, o'qituvchilar uchun mazkur mavzulardagi o'quv seminarlarini tashkil etishni yo'lga qo'yib borishimiz lozim.

Uchinchidan: Ta'lim jarayoniga turfalikni kiritib borish muhim. Turfalik - bu xuddi barcha bolalar bir xil bo'lganiday, butun sinfga o'qitishning bir xil usulidan ko'ra ma'lum bir bolaning yoki bolalarning kichik guruhining o'rganish ehtiyojlariga murojaat qilishdir. Turfalik o'qituvchilar va bolalar, materiallarni, bolalarni guruhlashni, o'rganishni baholash usullarini va sinf xonaning boshqa elementlarini shaxsiy va butun sinfning yutug'ini qo'llab-quvvatlovchi turlicha usullardan foydalanish mumkin bo'lgan yo'nalishlarni nazarda tutadi. Nimani turfalash mumkin? Avvalo, ta'lim *mazmunini*. Mazmun dalillardan, tushunchalardan, umumlashtirishlardan yoki qoidalardan, munosabatlardan va predmetga tegishli mahoratlardan hamda o'rganilayotgan mavzudan

tashkil topadi. Mazmun o'qituvchi bolalarning o'rganishi uchun nimani rejalashtirishini, istalgan bilimni, tushunchani va mahoratlarni haqiqatda bola qanday o'rganishini ham o'z ichiga oladi. Mazmunli o'rganish borasida o'qituvchi turlicha imkoniyatlarni berishi mumkin bo'lgan usullarning ayrimlari quyidagilardir:

-bolalarning yangi matematik yoki ilmiy tushunchalarni tushunishlariga yordam berish uchun o'quvchilar bilan predmet, jismlardan foydalanish;

-birgina o'qish darajasidan ko'ra ko'proq matnlardan foydalanish;

-matn materiallari bilan ishlayotgan bolalarni qo'llab-quvvatlash va qiyin bajariladigan masalalar uchun turlicha o'quvchilarning hamkorligi sharoitlaridan foydalanish;

-qiyin o'zlashtirishi kuzatilgan, namoyishga ehtiyoj sezgan bolalarga metod tanlash va qaytadan o'qitish;

-turlicha o'quvchilarga asosiy tushunchalarni yetkazib berish usullari sifatida matn, magnitofon, videolardan foydalanish (multimediya).

Agar bolalarga mazmunli bo'lgan va qiziqarli o'quv dasturlarini yaratsak, shunda ularni qiziqтира olamiz va dars jarayonlariga ishtiyoq bilan qatnashadilar. Shuningdek, agar bolalarga e'tibor berilmasa yoki ularga g'amxo'rlik ko'rsatilmasa, ular yomon xulq-atvorga ega bo'lishlari mumkin. Ayniqsa, agar ular uyda yetarli darajada g'amxo'rlik yoki e'tiborga ega bo'lmasalar, ular e'tiborga muhtoj bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, biz (kattalar sifatida) ayrim xulq-atvorlarni qabul qilmasligimiz mumkin, biroq bu bolani shaxs sifatida qabul qilmaslikni aslo anglatmasligi lozim. Boladan yomon xulq-atvorni ajratib olish muhim.

To'rtinchidan: Maktab, sinf va o'quvchilar jamoalarida bir-birini hurmat qilish qoidalariga amal qilishlari zarur.

Ma'lum bir xulq-atvor muammosiga sabab bo'luvchi narsalarni aniqlash uchun biz ajoyib kuzatish va qayd qilish mahoratlariga ega bo'lishimiz zarur.

Beshinchidan: biz bolalar faol ravishda jalb etilgan va rag'batlantirilgan muhitni yaratishimiz zarur. Bu barcha bolalarni kuchli va teng o'qitishdir. Shuningdek, bu - o'qituvchi har doim nazorat qiluvchi shaxs emasligini anglatadi, biroq u bolalar, ota-onalar va boshqa o'qituvchilarni o'z ichiga olgan muammoni yechuvchilar jamoasining a'zosi hisoblanadi.

Oltinchidan: Ta'lim metodlari umumta'lim maktabi uchun ham, inklyuziv maktab uchun ham umumiy hisoblanadi. Biroq, qo'llanilishi jihatidan bir-biriga aynan o'xshash bo'lmaydi, ularning o'zlashtirishlari o'ziga xos bo'lganligi sababli, ta'lim metodlari ham o'ziga xos mazmunga ega bo'ladi. Bitta umumiy, universal ta'lim usluli bo'lmaydi. Darsda o'qituvchi turli ta'lim metodlaridan foydalanadi. O'qitish metodlarini tanlash quyidagi bir qator omillarga: yordamchi maktabning hozirgi bosqichdagi taraqqiyoti, o'quv fani, o'rganiladigan materialning mazmuni, o'quvchilarning yoshi va ularning rivojlanish xususiyatlari hamda ularning o'quv materialini egallashga tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'qitish usullarini turfalash va uyg'unlashtirish orqali alohida e'tiborga muhtoj bolaning nuqsonini tuzatish tomon yo'nalib, o'quvchilarni muayyan kasb-hunar egallashga tayyorlash hamda ijtimoiy moslanish vazifasi o'z yechimini topadi.

Yettinchidan: inklyuziv sinflarda o'quvchilarni baholashda quyidagilarni yodda tutish lozim:

1. *Baho shakllantiruvchi (bolaning rivojlanishini nazarda tutgan) bo'lishi kerak.* O'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini rag'batlantirishi kerak. Bola nimani bilmasligini qidirmang, o'quvchi nimani bilishini topgan holda baholash lozim.

2. *Baho muvaffaqiyatga ko'mak berishi kerak.* Hech qachon o'quvchini bajarilmagan topshiriq uchun koyimaslik, sababini bilib, bolaga yordam berish, unga ishonishni aytib, unda o'ziga ishonch hosil qiling. Bolaga uning muvaffaqiyatga erishayotgani – olg'a harakatini ko'rsatish lozim.

3. *Baho "quruq" bo'lmasligi kerak:* uni tushuntirib, izohlab berish muhim. Baho qo'yishda o'quvchiga bo'lgan shaxsiy munosabatingizni unuting, o'quvchini emas, faqat ishini baholash lozim.

4. *Baho ishonchli bo'lishi kerak,* ya'ni o'quvchini har kuni ballarda baholashga imkoniyat bo'lmasa, norasmiy ravishda baholab: "balli", "qoyil", "Bugun yaxshi ishlading", "juda toza va chiroyli yozilgan", "masalani yechishning ajoyib yo'li" va hokozolar deb ta'rif berishi lozim.

5. *Baho qo'yishda o'quvchilarni qiyoslab bo'lmaydi!* Bolalarning qobiliyatlari har xil, moslashish yo'llari, uy vazifasini bajarish sharoitlari turlicha. Shuning uchun o'quvchilarni o'zaro qiyoslamay,

balki har bir o'quvchining kechagi (o'tgan chorakdagi, o'tgan yilgi) va bugungi ko'rsatkichlari (natijalari) ni solishtirish muhim shartdir.

Koxlear implantatsiya – eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nogironligini olishning samarali vositasi

Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ta'lim tizimida koxlear implantant ahamiyati katta sanaladi. Koxlear implantant tizimi ikki yo'nalishda rivojlangan. Birinchidan, koxlear implantantning bir kanalli tizimlari takomillashib borgan. Hozirga qadar taxminan 200ga yaqin kishi ulardan foydalanishda davom etmoqda. Odatda bular kar bo'lgan kishilar bo'lib, koxlear implantant ularga nutqni eshituvko'ruv idroki asosida tushunishni yengillashtiradi. Biroq, alohida bemorlar koxlear implantantning bir kanalli tizimi yordamida nutqni faqatgina eshitish orqali tushunishga qodir bo'ladilar. Mazkur tizimlarning rivoji va ishlab chiqarilishi 90-yillarga qadar davom etgan. W.House (AQSh) va G.Clark Melburn universitetidagi (Avstraliya) hamkasblari bilan birgalikda eshitish tizimini ko'plab fiziologik tadqiq etganliklari bilan mazkur tizim rivojiga sezilarli hissa qo'shganlar. Ikkinchidan, koxlear implantantning ko'p kanalli (ko'p elektrodli) tizimlari ishlab chiqarila boshlandi. Ko'p kanalli koxlear implantantni yaratish g'oyasi G. Bekesy (Bekesy, 1960) tadqiqotlari natijalariga asoslanib, mazkur natijalar chig'anoqning bazilyar membranasi tonotopik tuzilishga ega ekanligini, ya'ni bazilyar membrananing turli qismlari turli chastotali tovushlarga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Bu bir nechta elektrodlar yordamida eshituv nervining turli uchastkalarini stimulyatsiya etish va eshituv tizimiga tovushlar chastotasi haqidagi differensiallashgan ma'lumotlarni uzatish imkonining mavjudligini anglatardi. 1962-yil W.House va J.Urban birinchilardan mazkur ishni amalga oshirishga uringanlar. Biroq u davrda mazkur g'oyani ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi texnikalar mavjud bo'lmagan. Bu nutqiy signallarni murakkab tahlilini, quvvatli, kichkina hajmdagi kompyuterlarni talab etgan. Shu bois W.House Koxlear implantantning bir kanalli tizimini rivojlantirishda davom etgan.

XX asrning 70-90-yillarida ko'p kanalli tizimlarni ishlab chiqarish Avstraliya, Avstriya, Fransiya, Shveysariya va Belgiyada

qayta tiklangan. Bir nechta markazlarda ko'p kanalli Koxlear implantantlarning ilk eksperimental modellari yaratilib, ular zamonaviy koxlear implantantlarga asos bo'ldi (Cochlear implant..., 1995; Diller et al., 2005). Koxlear implantant tizimi ikki yo'nalishda rivojlangan. Birinchidan, koxlear implantantning bir kanalli tizimlari takomillashib borgan. Hozirga qadar taxminan 200ga yaqin kishi ulardan foydalanishda davom etmoqda. Odatda bular kar bo'lgan kishilar bo'lib, koxlear implantant ularga nutqni eshituv-ko'ruv idrokida asosida tushunishni yengillashtiradi. Biroq, alohida bemorlar koxlear implantantning bir kanalli tizimi yordamida nutqni faqatgina eshitish orqali tushunishga qodir bo'ladilar. Mazkur tizimlarning rivoji va ishlab chiqarilishi 90-yillarga qadar davom etgan. W.House (AQSh) va G.Clark Melburn universitetidagi (Avstraliya) hamkasblari bilan birgalikda eshitish tizimini ko'plab fiziologik tadqiq etganliklari bilan mazkur tizim rivojiga sezilarli hissa qo'shganlar.

Ikkinchidan, koxlear implantantning ko'p kanalli (ko'p elektrodli) tizimlari ishlab chiqarila boshlandi. Ko'p kanalli koxlear implantantni yaratish g'oyasi G.Bekey (Bekey, 1960) tadqiqotlari natijalariga asoslanib, mazkur natijalar chig'anoqning bazilyar membranasi tonotopik tuzilishga ega ekanligini, ya'ni bazilyar membrananing turli qismlari turli chastotali tovushlarga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Bu bir nechta elektrodlar yordamida eshituv nervining turli uchastkalarini stimulyatsiya etish va eshituv tizimiga tovushlar chastotasi haqidagi differensiallashgan ma'lumotlarni uzatish imkonining mavjudligini anglatardi. 1962-yil W.House va J. Urban birinchilardan mazkur ishni amalga oshirishga uringanlar. Biroq u davrda mazkur g'oyani ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi texnikalar mavjud bo'lmagan. Bu nutqiy signallarni murakkab tahlilini, quvvatli, kichkina hajmdagi kompyuterlarni talab etgan. Shu bois W.House Koxlear implantantning bir kanalli tizimini rivojlantirishda davom etgan.

XX asrning 70-90-yillarida ko'p kanalli tizimlarni ishlab chiqarish Avstraliya, Avstriya, Fransiya, Shveysariya va Belgiyada qayta tiklangan. Bir nechta markazlarda ko'p kanalli Koxlear implantantlarning ilk eksperimental modellari yaratilib, ular zamonaviy koxlear implantant- larga asos bo'ldi (Cochlear implant..., 1995; Diller et al., 2005).

1978-1979-yillarda G.Klark va uning ishchi guruhi tomonidan chig'anoq fiziologiyasi va gistopatologiyasi sohasidagi ko'p yillik

tadqiqotlardan so'ng Koxlear implantantning 20-elektrodlı tizimlari (10 faol elektrodlari bilan) 3 katta yoshlı bemorlarga implantatsiya etilgan.

G.Klark ishchi guruhi bilan "Nucleus" Avstraliya kompaniyasi (hozirda "Cochlear" firmasi) hamkorlik qila boshlagan va 1982-yil mazkur kompaniya tomonidan birinchi tijorat ko'p kanalli "Nucleus" koxlear implantant tizimi ishlab chiqilgan¹.

Avstriyada 70-yillardan boshlab Ingeborg Hochmair-Desoyer, Erwin Hochmair, Kurt Burian ham koxlear implantant tizimini ishlab chiqish bilan shug'ullanganlar. Ularning birinchi 8-kanalli tizimlari 70-yillarda 5 bemorga implantatsiya etilgan. Ushbu ishlanmalar "MED-EL" firmasining kodlashning CIS strategiyali "Combi 40/40+" koxlear implantant tizimlarining ishlab chiqarilishiga asos bo'ldi.

1975-yil C.Chouard (Fransiya) teflon qoplanmaga ega 5-7 elektrodlı tizimlar 21 bemorga implantatsiya qilinganligi haqidagi ma'lumotlarni nashr qiladi, biroq boshlangan teri kasalligi sabab 6-18 oydan so'ng tizim olib tashlangan. 1978-yil C.Chouard yangi 8-12 kanalli modellarni ishlab chiqdi va 22 bemorga implantatsiya qildi.

AQShning bir nechta markazlarida – Los-Anjeles, Stanford, San-Fransisko va Yutada koxlear implantatsiya tizimining ishlab chiqilishi amalga oshirilgan. Los-Anjeles universitetidan R.Michelson, M.Merzenich, R.Schindler tomonidan yaratilgan ishlanmalar "Advanced Bionics" (AQSh) firmasi tomonidan ishlab chiqilgan "Clarion" koxlear implantantlar tijorat tizimining yaratilishiga asos bo'ldi.

Hozirda uchta asosiy firmalar koxlear implantantlar tizimini ishlab chiqarmoqdalar:

- "Cochlear" (Avstraliya) firmasining – "Nucleus 3", "Nucleus Freedom", "Spectra 22", "Sprint", "ESPril", "ESPril 3G" koxlear implantant tizimlari va jarayonlari;

- "MED-EL" (Avstriya) firmasining - "Combi 40/40+", "Tempo+", "Pulsar", "Sonata", "Opus 1", "Opus 2" koxlear implantant tizimlari va jarayonlari;

¹ Ching T.Y., Psarros C., Hill M. et al. Should children who use coghlear implants wear hearing aids in the opposite ear? // Ear Hear. 2013. Vol. 22(5). P. 365-380

- "Advanced Bionics" (AQSh) firmasining "Harmony", "Auria", "Clarion 1", "Clarion 2", "Clarion C II", "Platinum", "Clarion Platinum" koxlear implantant tizimlari va jarayonlari.

"MXM" fransuz firmasi ("Digisonic" koxlear implantant tizimi) zimmasiga barcha qo'llanilayotgan koxlear implantantlarning 1% dan ziyod qismi to'g'ri keladi.

Sobiq Sovet Ittifoqida ham koxlear implantant tizimlarini yaratishga urinishlar bo'lgan. Moskvada M.R.Bogomilskiy rahbarligi ostida koxlear implantant tizimining tajriba namunasi yaratilgan, biroq uning sanoatda ishlab chiqarilishi boshlanmagan (Bogomilskiy, Remizov, 1986). 90-yillarning boshida Kiyevda ekstrakoxlear implantatsiyaga doir eksperimental tadqiqotlar olib borilgan (Bazarov va hamkor mualliflar., 1993).

"Nucleus" koxlear implantant tizimi ("Cochlear" firmasi) yordamida koxlear implantatsiyaning birinchi jarrohlik operatsiyasi Rossiyada 1991-yil Moskvaning audiologiya va eshituv protezlari ilmiy markazida amalga oshirilgan (Tavartkiladze va hamkor mualliflar., 1995). So'ng moliyalashtirishning yo'qligi sabab olti yillik tanaffus bo'ldi. 1997-yildan boshlab "MED-EL" ("Combi 40/40+", "Tempo+", "Opus 1", "Opus 2" jarayonlari, "Pulsar", "Sonata" implantantlari) va "Cochlear" ("Nucleus 3", "Nucleus Freedom" KI) firmalarining Koxlear implantant yordamida koxlear implantatsiya jarrohlik operatsiyalari Sankt-Peterburg va Moskvada doimiy tarzda amalga oshirila boshlandi.

Respublikamizda Koxlear implantant yo'li bilan eshitishni tiklash bo'yicha jarrohlik operatsiyalarining amalga oshirilishiga yaqin vaqtlardan kirishildi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Toshkent shifokorlar malakasini oshirish instituti professori, tibbiyot fanlar doktori S.S.Arifov hamda tadqiqotchilar A.A.Tulyaganov, M.U.Mahmudovlar tomonidan xorij mutaxassislari bilan hamkorlikda Toshkent, Navoiy shaharlarida istiqomat qiluvchi 25 nafar zaif eshituvchi va kar bolalar eshitishi ilk marotaba jarrohlik yo'li bilan qayta tiklandi. Aytish joizki, jarrohlik operatsiyalari muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilib kelinmoqda.

Binaural implantatsiya koxlear implantatsiya takomillashishining yo'nalishlaridan biri hisoblanib, ya'ni Koxlear implantantni o'ng va chap quloqqa kiritish demak (Litovsky et al., 2004). Binaural

implantatsiya eshituv apparati vositasida binaural protezlash singari quyidagilarni ta'minlaydi¹:

- signal balandligini umumlashtiradi;
- “bosh soyasi” effektidan xolilik;
- tovush lokalizatsiyasi, reverberatsiya, shovqin sharoitda nutqni idrok etish, bir nechta so'zlashuvchilar bilan muloqot etish uchun lozim bo'lgan binaural implantatsiya.

Uzoq vaqt koxlear implantatsiya faqat bir quloqda (monaural) amalga oshirilgan, bu ma'lum darajada koxlear implantant tizimlarining yuqori bahosi bilan shartlangan. “MED-EL” firmasi bilateral implantatsiya sohasidagi yetakchi hisoblanadi. Ilk bilateral koxlear implantant 1996-yil katta yoshli kishida, ikki-yildan so'ng esa bolada amalga oshirilgan. 2002-yilga kelib ikkita Koxlear implantantdan foydalanuvchilar soni 500dan ziyodni tashkil etdi, bu esa binaural koxlear implantatsiyaning monaural koxlear implantatsiya bilan solishtirganda katta samaradorligini, shu jumladan moddiy jihatdan ham hamyonbop ekanligini isbotlab bergan maxsus tadqiqotlarni o'tkazishga imkon berdi (Kuehn-Inachor et al., 2004; Litovsky et al., 2004; Luntz et al., 2005; Mueller et al., 2002; va b.). Binaural implantatsiyaning ustunlik jihati quyidagidan iborat:

- shovqin sharoitda nutqning tushunarligi 10-12%ga ortadi;
- fazoda tovush manbaining lokalizatsiyasi yaxshilanadi;
- reverberatsiya sharoitida, bir necha so'zlashuvchilar bilan suhbatlashishda nutqning tushunarligi ortadi (cocktail party effect);
- bolalar eshitishni va turli tovushlarni ajrata olishni tez o'rganadilar, lug'at boyligini tezroq to'playdilar, gapirishni o'rganadilar.

Katta yoshli kishilarning ta'kidlashicha, ikki KIdan foydalanishda:

- tovush va nutq nisbatan tabiiyroq jaranglaydi;
- ular tovushlarni bir tomondan emas, turli tomonlardan idrok etadilar;
- nutqni tinglash yanada qulayroq, nutq nisbatan tabiiyroq jaranglaydi;

¹ Ching T.Y.C., Incerti P., Hill M. Binaural benefits for adults who use hearing aids and cogglear implants in opposite ears// Ear Hear. 2012. Vol. 25(6). P. 565-600

-tinglash jarayoni kamroq urinishlarni va kam toliqishni talab etadi.

Natijada Yevropaning qator mamlakatlari va AQShda sug'urta kompaniyalari bemorlarga implantatsiya o'tkazish uchun lozim bo'lgan sarf-harajatlarni to'lay boshladilar. Hozirgi kunda, Germaniyada avval implantatsiya etilgan bemorlarning ko'pchiligiga istaklariga ko'ra ikkinchi quloqda implantatsiya amalga oshirilmogda, jumladan, ota-onalarning istaklari asosida ular farzandlariga ham. Germaniyadagi 80% bolalarga jarrohlik operatsiyalari binaural amalga oshirilmogda. Ikki KIni taqishni istagan yangi bemorlarga operatsiya ikki quloqda bir vaqtda yoki kichik interval bilan amalga oshiriladi. Binaural implantatsiyaning bir vaqtda amalga oshirilishi narkozning bemorga bo'lgan uzoq muddatli ta'sirining oldini oladi, bu esa bolalar uchun juda muhim. Bu shuningdek, binaural eshituv idrokining tabiiy rivojlanishini ta'minlaydi va eshituv nutqiy reabilitatsiyaning muddatini qisqartiradi.

Isbotlanishicha, agarda birinchi va ikkinchi operatsiyalar o'rtasidagi interval katta bo'lmasa, ikkinchi quloqdagi implantatsiyaning samarasi yuqoriroq bo'ladi (Litovsky et al., 2006). Ikki operatsiya o'rtasidagi katta intervalda bemor birinchi implantatsiyadan so'ng eshitishni o'rgangani kabi, ikkinchi KIda ham eshitishni o'rganishi kerak. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ikkinchi quloqda implantatsiya birdaniga o'tkazilmay, bir oz muddatdan so'ng o'tkazilsa, bemor ikki operatsiya oralig'idagi davrda implantatsiya etilmagan qulog'ida EAni taqqan bo'lsa uning natijasi sezilarli yaxshi bo'ladi (Raeve, 2008). Ikkinchi quloqdagi implantatsiya bemor endilikda foydalanayotgan Koxlear implantant modeli bilan bir xilda bo'lishi kerak. Bu har bir quloqdan miyaga borayotgan signallarning yanada yaxshiroq kelishishini ta'minlaydi.

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, ikkinchi quloqda implantatsiyani amalga oshirish, bir Koxlear implantantdan foydalanuvchi bemordagi natijalarni sezilarli yaxshilaydi. Xususan, binaural implantatsiya karlikning katta intervaliga ega kishilarga tavsiya etiladi (Portmann et al., 2007).

Biroq, bemorlarning bir qismi (yoki bolalar ota-onalari) ikkinchi quloqda implantatsiyani moddiy sababdan emas, balki boshqa qator sabablar bois o'tkazishni istashmaydi:

-nutqni idrok etish sifatidan va bir koxlear implantant bilan hayot kechirish sifatidan qoniqish;

-ikkinchi bor jarrohlik operatsiyasini o'tkazishni istamaslik;

-ikkinchi quloqda eshitish apparatidan foydalanish;

-ikkinchi quloqni koxlear implantantning yanada zamonaviy modellariga, jumladan to'laligicha implantatsiya etiladigan modellariga saqlab qolish;

-estetik o'ylardan kelib chiqib, yana bir qurilmani taqishni istamaslik.

Eshituv stimulyatsiyasining ikkinchi quloq implantatsiyasi natijalariga sezilarli ta'sirini inobatga olib, mutaxassislar va ota-onalar Koxlear implantantga ega bolani implantatsiya etilmagan quloqda eshitish apparatini taqishni davom ettirishiga maksimal darajada harakat qilishlari kerak. Bu tegishli binaural implantatsiya uchun kerakli bo'lgan eshituv markazlarining rivojlanishini, shuningdek, karlikni davolashning yangi usullarini rivojlanishini ta'minlaydi.

Koxlear implantatsiya muammolari, rivojlanish istiqbollari

Koxlear implantant tizimlarini ishlab chiqaruvchi firmalar koxlear implantantlarning turli jihatlarini yaxshilab, ularni doimiy ravishda takomillashtirib boradilar. Mazkur takomillashtirish ishlari bir necha yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- koxlear implantant hajmining kichrayishi;
- to'laqonli implantatsiya etiladigan moslamalarning yaratilishi;
- akustik signallarni qayta ishlash strategiyasining takomillashishi;
- koxlear implantant vositasida uzatiladigan nutqning tushunarlik darajasining ortishi;
- koxlear implantant yordamida musiqani idrok etishning yaxshilanishi;
- elektr manbasidan foydalanishning pasayishi;
- chig'anoqning ossifikatsiyasi yoki anomaliyasi holatida implantatsiya uchun elektrodlar modifikatsiyasining ishlab chiqilishi;
- chig'anoqning kam jarohatlanishi, tovush signallarini uzatish sifatining yaxshilanishi va b. uchun elektrodlar konstruksiyasi va elektrod nositellarining takomillashishi;

- Koxlear implantantlarning eshituv apparati bilan birlashgan modellarining ishlab chiqilishi (elektroakustik korreksiya);
- Koxlear implantant jarayonlarini sozlashning obyektiv usullarining rivojlanishi;
- binaural implantatsiyaning rivojlanishi.

Koxlear implantantlarning ilk eksperimental modellari shu qadar katta va og'ir bo'lganki, hatto bir kishi har doim ham ularni ko'tara olmagan. Koxlear implantant tizimlarining ilk tijorat tizimlari o'z hajmiga ko'ra cho'ntak eshituv apparatlariga yaqinlasha borgan. 2003-yil koxlear implantantning birinchi quloq orti modeli paydo bo'ldi. Hozirda koxlear implantantlarning quloq orti modellarining hajmi va og'irligi kichrayib bormoqda, koxlear implantantning bolalarga mo'ljallangan modellari ham mavjud bo'lib, bola qulog'iga taqiladigan koxlear implantant bir qismining og'irligi 2 grammni tashkil etadi.

Koxlear implantantning butunlay implantatsiya etiladigan modellari ishlab chiqilmoqda. Bunday koxlear implantantni yaratishdagi asosiy muammo elektr manbai vositasida oziqlanishdan holi bo'lgan holda uning ishini ta'minlab berishga qodir modellarni yaratishdadir.

Ko'p kanalli koxlear implantantlar yordamida idrok etiladigan nutqning tushunarligining yaxshilanishi avvalo signallarni tahlil etish strategiyasi bilan belgilanadi. Nutqiy belgilarni ajratish strategiyasiga ega koxlear implantantning birinchi modellarida nutqning tushunarlilik darajasi 30% ni tashkil etgan. Nutqning nozik vaqt strukturasi haqidagi axborotlarni uzatuvchi, tahlil etishning tezkor strategiyasiga ega (CIS) koxlear implantantlarning zamonaviy tizimlari 80-95% nutq tushunarligiga erishish imkonini beradi (Koroleva, 2002; Cochlear implants, 2006; Wilson et al., 1991). Hozirgi vaqtda barcha yetakchi ishlab chiqaruvchilar o'z modellarida CIS-strategiyalaridan yoki ularga o'xshash strategiyalardan foydalanadilar (Altman, Tavartkiladze, 2003; Cochlear implants, 2003b; Diller et al., 2005). "Opus-2" ("MED-EL firmasi") va "Harmony" ("Advanced Bionics" firmasi) Koxlear implantant tizimlarida mazkur strategiyaning takomillashishi musiqani uzatish

sifatini yaxshilanishiga va bemorlarda uning tabiiy idrok etilishiga imkon berdi¹.

Standart uzunlikdagi elektrod taquvchiga kiritish imkoni bo'lmagan chig'anoqning qisman ossifikatsiyasi yoki anomaliyasiga ega kishilar uchun mo'ljallangan elektrod taquvchining turli modifikatsiyalari (qisqartirilgan, qisilgan) yaratilgan.

Qisqartirilgan elektrod past chastotali diapazonda eshitish qoldig'iga ega kishilarga implantatsiya etish uchun qo'llaniladi. Bunda koxlear implantant yuqori chastotali tovush axborotlarini uzatadi, past chastotali axborotlarni esa kishi u yoki bu qulog'ida joylashgan eshituv apparati yordamida idrok etadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bunda insonda idrok etilayotgan nutqning yanada yuqori tushunariligi va tabiiy jarangiga erishiladi. Bunday bemorlar uchun koxlear implantantlarning maxsus modellari ishlab chiqilgan, mazkur modellarda bir moslamada koxlear implantant va "Duet" "MED-EL", Avstriya tizimidagi EA birlashgan.

Elektrod konstruksiyasining takomillashishi quyidagilarga qaratilgan²:

- chig'anoqning minimal darajada jarohatlanishiga (demak, eshituv qoldig'ini saqlab qolishga);

- elektrodlarni modiolysuga (demak, eshituv nerviga yaqinlashtirish, har bir elektrod bilan chig'anoq maydonini yanada lokal stimulyatsiya etish imkonini beradi. Tokning zararlantiruvchi ta'sirini, energiyadan foydalanishni kamaytiradi);

- operatsiya vaqtida uning kirishini yengillashtirish.

Ushbu maqsadda yo'naltiruvchi zondga va b. ega egiluvchan elektrod taquvchilari bo'lgan modellar ishlab chiqilgan.

Koxlear implantant yordam berishga qodir bo'lmagan eshituv nervi zararlangan kishilarda eshitishni tiklash uchun miya o'zagi implantanti yaratilgan. U miya o'zagining koxlear yadrolariga neyroxirurgik operatsiya vaqtida implantatsiya etiladi. Bunda Koxlear implantantdagi singari jarayonor qo'llaniladi. Birinchi bor miya o'zagining implantanti implantatsiyasi "Cochlear" firmasining tizimi

¹ Ching T.Y.C., Incerti P., Hill M. Binaural benefits for adults who use hearing aids and cochlear implants in opposite ears// Ear Hear. 2012. Vol. 25(6). P. 565-600

² Королева И.В., Пудов В.И., Зонтова О.В. Реабилитация постлингвальных детей и взрослых с кохлеарными имплантатами // Дефектология – Москва, 2001. – № 5. – С.21-34.

asosida 1993-yil amalga oshirilgan. Miya o'zagi implantantlaridan dunyodagi bir necha yuz kishilar foydalanadilar.

Koxlear implantant tizimlarining ishlab chiqaruvchilari takroriy operatsiyani o'tkazmay turib, koxlear implantantning eski tashqi qismini yangisiga almashtirish imkoni bo'lgan koxlear implantantning yangi, yanada takomillashgan modellarini ishlab chiqarishga intilmoqdalar. Avval implantatsiya etilgan ko'pgina bemorlarda Koxlear implantant jarayonlarining cho'ntak varianti quloq orti modeliga almashtirildi. Bemorlar endilikda eski quloq orti modellarni yanada zamonaviy, takomillashgan modellarga o'zgartirmoqdalar. Koxlear implantant ichki qismlarining yangi modifikatsiyalari ham yaratilib, ular yangi bemorlarga implantatsiya etilmoqda.

Koxlear implantatsiyani amalga oshirish jarayonidagi jarrohlik yondashuvlari va koxlear implantatsiyadan so'ng bemorlarni eshituv nutqiy rehabilitatsiya etish usullari takomillashib bormoqda. Jarrohlik yondashuvlarining rivojlanishi chig'anoq tuzilishiga jarohat ta'sirini minimallashtirishga imkon beruvchi usullarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Bu eshituv qoldig'ini saqlab qolishga imkon beradi. Jarrohlik asbob-uskunalarining takomillashishi operatsiya vaqtini qisqartirishga va o'z navbatida narkozning uzoq muddatli ta'sirini kamaytirishga imkon beradi, bu esa kichik yoshli bolalar uchun juda muhim (Cochlear implants..., 2003a). Chig'anoq rivojlanishining turli anomaliyalariga ega bemorlarni implantatsiya etishdagi jarrohlik yondashuvlarining ishlab chiqilishi ham muhim ahamiyatga ega.

Koxlear implantatsiyani rivojlantirishda, ayniqsa yosh bolalarga mo'ljallangan koxlear implantant jarayonining ishlash qobiliyati va sozlanishini baholashning obyektiv usullarini yaratishga muhim o'rin ajratilgan. Buning natijasida zamonaviy tizimlar koxlear implantant jarayonlarini sozlashda quyidagi obyektiv jismoniy va fiziologik ko'rsatkichlardan foydalanish imkonini beradi. (Cochlear implants..., 2003b):

- elektrodlarning qarshilik ko'rsatishi;
- tok darajasi;
- elektr stimulyatsiyasiga stapedial refleksi;
- eshituv nervi faoliyatining potensiali (nerv javobining telemetriyasi);
- elektr stimulyatsiyasiga miya o'zak potensialining uyg'onishi.

Uzatilayotgan nutq sifatini ta'minlovchi koxlear implantant tizimlarining takomillashishi, jarrohlik yondashuvlari va eshituv nutqiy rehabilitatsiya usullarining rivojlanib borishi sayin Koxlear implantantdan foydalanishni istovchilar soni ortib bormoqda. 2008-yilga kelib dunyoda koxlear implantantdan foydalanuvchilar soni 200 mingga yaqinlashdi. Shuningdek koxlear implantatsiya tavsiya etilayotgan bemorlar soni ortib bormoqda. Agarda avvallari mazkur operatsiyalar kech kar bo'lganlar bilan amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda mazkur operatsiyalar tug'ma kar bo'lgan bolalar bilan amalga oshirilmogda. Koxlear implantatsiya turli yoshdagi bolalar bilan, jumladan, 1 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladi. Aniqlanishicha, implantatsiya qanchalik erta o'tkazilsa, uning natijalari shunchalik yaxshi bo'ladi. Implantatsiya eshish chegarasidagi (chegara 80-90 Db), eshish neyropatiyasi bo'lgan bemorlarga, boshqa nuqsonlarga ega (ko'ruv, intellekt, bolalar serebral falaji va b.) bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladi.

Binaural implantatsiya koxlear implantatsiya takomillashishining yo'nalishlaridan biri hisoblanib, koxlear implantantni o'ng va chap quloqqa kiritish. (Litovsky et al., 2004). Binaural implantatsiya eshituv apparati vositasida binaural protezlash singari quyidagilarni ta'minlaydi¹:

- signal balandligini umumlashtiradi;
- “bosh soyasi” effektidan xolilik;
- tovush lokalizatsiyasi, reverberatsiya, shovqin sharoitda nutqni idrok etish, bir nechta so'zlashuvchilar bilan muloqot etish uchun lozim bo'lgan binaural implantatsiya.

Uzoq vaqt koxlear implantatsiya faqat bir quloqda (monaural) amalga oshirilgan, bu ma'lum darajada koxlear implantant tizimlarining yuqori bahosi bilan shartlangan. “MED-EL” firmasi bilateral implantatsiya sohasidagi yetakchi hisoblanadi. Ilk bilateral koxlear implantant 1996-yil katta yoshli kishida, ikki-yildan so'ng esa bolada amalga oshirilgan. 2002-yilga kelib ikkita Koxlear implantantdan foydalanuvchilar soni 500dan ziyodni tashkil etdi, bu esa binaural koxlear implantatsiyaning monaural koxlear implantatsiya bilan solishtirganda katta samaradorligini, shu jumladan moddiy jihatdan ham hamyonbop ekanligini isbotlab bergan maxsus

¹ Ching T.Y.C., Incerti P., Hill M. Binaural benefits for adults who use hearing aids and coghlear implants in opposite ears// Ear Hear 2012. Vol. 25(6). P. 565-600

tadqiqotlarni o'tkazishga imkon berdi (Kuehn-Inachor et al., 2004; Litovsky et al., 2004; Luntz et al., 2005; Mueller et al., 2002; va b.). Binaural implantatsiyaning ustunlik jihati quyidagidan iborat:

- shovqin sharoitda nutqning tushunariligi 10-12%ga ortadi;
- fazoda tovush manbaining lokalizatsiyasi yaxshilanadi;
- reverberatsiya sharoitida, bir necha so'zlashuvchilar bilan suhbatlashishda nutqning tushunariligi ortadi (cocktail party effect);
- bolalar eshitishni va turli tovushlarni ajrata olishni tez o'rganadilar, lug'at boyligini tezroq to'playdilar, gapirishni o'rganadilar.

Katta yoshli kishilarning ta'kidlashicha, ikki KIdan foydalanishda:

- tovush va nutq nisbatan tabiiyroq jaranglaydi;
- ular tovushlarni bir tomondan emas, turli tomonlardan idrok etadilar;
- nutqni tinglash yanada qulayroq, nutq nisbatan tabiiyroq jaranglaydi;
- tinglash jarayoni kamroq urinishlarni va kam toliqishni talab etadi.

Natijada Yevropaning qator mamlakatlari va AQShda sug'urta kompaniyalari bemorlarga implantatsiya o'tkazish uchun lozim bo'lgan sarf-harajatlarni to'lay boshladilar. Hozirgi kunda, Germaniyada avval implantatsiya etilgan bemorlarning ko'pchiligiga istaklariga ko'ra ikkinchi quloqda implantatsiya amalga oshirilmoqda, jumladan, ota-onalarning istaklari asosida ular farzandlariga ham. Germaniyadagi 80% bolalarga jarrohlik operatsiyalari binaural amalga oshirilmoqda. Ikki koxlear implantatsiyani taqishni istagan yangi bemorlarga operatsiya ikki quloqda bir vaqtda yoki kichik interval bilan amalga oshiriladi. Binaural implantatsiyaning bir vaqtda amalga oshirilishi narkozning bemorga bo'lgan uzoq muddatli ta'sirining oldini oladi, bu esa bolalar uchun juda muhim. Bu shuningdek, binaural eshituv idrokining tabiiy rivojlanishini ta'minlaydi va eshituv nutqiy rehabilitatsiyaning muddatini qisqartiradi.

Isbotlanishicha, agarda birinchi va ikkinchi operatsiyalar o'rtasidagi interval katta bo'lmasa, ikkinchi quloqdagi implantatsiyaning samarasi yuqoriroq bo'ladi (Litovsky et al., 2006).

Biroq, bemorlarning bir qismi (yoki bolalar ota-onalari) ikkinchi quloqda implantatsiyani moddiy sababdan emas, balki boshqa qator sabablar bois o'tkazishni istashmaydi¹:

- nutqni idrok etish sifatidan va bir koxlear implantant bilan hayot kechirish sifatidan qoniqish;

- ikkinchi bor jarrohlik operatsiyasini o'tkazishni istamaslik;

- ikkinchi quloqda eshitish apparatidan foydalanish;

- ikkinchi quloqni koxlear implantant ning yanada zamonaviy modellariga, jumladan to'laligicha implantatsiya etiladigan modellariga saqlab qolish;

- estetik o'ylardan kelib chiqib, yana bir qurilmani taqishni istamaslik.

Eshituv stimulyatsiyasining ikkinchi quloq implantatsiyasi natijalariga sezilarli ta'sirini inobatga olib, mutaxassislar va ota-onalar Koxlear implantantga ega bolani implantatsiya etilmagan quloqda eshitish apparatini taqishni davom ettirishiga maksimal darajada harakat qilishlari kerak. Bu tegishli binaural implantatsiya uchun kerakli bo'lgan eshituv markazlarining rivojlanishini, shuningdek, karlikni davolashning yangi usullarini rivojlanishini ta'minlaydi.

Koxlear implantantli eshitishda muammosi bo'lgan bolalar reabilitatsiyasi

Bola hayoti davomida ijtimoiy tajribani, umuminsoniy va milliy axloq-odob normalarini egallab boradi, ta'lim oladi va asta-sekin har tomonlama aqliy va jismoniy jihatdan yetilib boradi. Eshitishida muammosi bo'lgan nogiron bolalarda bu jarayon qiyinchilik bilan kechadi, ular kattalarning yordamiga ko'proq bog'liq bo'ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi ham maxsus yordamsiz sodir bo'lmaydi. Shuning uchun bunday hollarda eshitishida muammosi bo'lgan shaxslarning reabilitatsiyasi va abilitatsiyasi muammolari yuzaga keladi. Koxlear implantatsiyadan keyin bolani eshitishga va so'zlashga ilk bor o'rgatish abilitatsiya deyiladi. Abilitatsiyaning maqsadi. Koxlear implantatsiyadan keyin bolaning eshitish idrokini va nutqini shakllantirish, o'zgarar nutqini tushunish va so'zlashish, muloqot qila bilishga o'rgatish, nutqini me'yorda eshituvchi bola

¹ Ching T.Y., Psarros C., Hill M. et al. Should children who use coghlear implants wear hearing aids in the opposite ear? // Ear Hear. 2013. Vol. 22(5). P. 365-380

nutqining darajasiga yetkazishdan iborat. Abilitatsiyaning vazifalari va yoʻnalishlari: bolada kommunikativ koʻnikmalarni (yaʼni, bola uchun qulay muloqot shakllaridan foydalanib, atrofdegilar bilan oʻzaro munosabatlarga koxlear implantli rishish qobiliyatini) rivojlantirish; bolada koxlear implant yordamida atrofdan kelayotgan tovushlarni eshitib idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, yaʼni bolada koʻplab nutqiy boʻlmagan va nutqiy signallarni (soʻzlar, tovushlar, iboralarni) topish, farqlash va tanish malakasini rivojlantirish; ushbu signallarning bola xotirasida tovushli obrazlarini toʻplashga oʻrgatish; bolada til tizimini rivojlantirish, bolaga koʻplab soʻzlarning maʼnolarini, ularning tovush tarkibini, gapda soʻzlarni oʻzgartirish va qoʻshish qoidalarini oʻrgatish; ushbu hamma axborotni bola xotirasida mustahkamlash; bolaning ogʻzaki nutqini rivojlantirish, yaʼni bolada oʻzi xabar qilmoqchi boʻlgan fikrni paydo qilish hamda bu fikrni nutqiy birliklar ketma-ketligiga aylantirish malakasini hosil qilish; artikulyatsion organlarning harakatlantiruvchi dasturlarini shakllantirish va shu yoʻl bilan muayyan akustik xossalarga ega boʻlgan nutq tovushlarining talaffuz qilinishiga erishish; bolani har xil kommunikatsion vaziyatlarda nutqdan foydalanishga oʻrgatish. Bolada bu malakalarni rivojlantirish koʻp yillarni talab qiladi.

Buning ustiga yana shuni ham yodda tutish kerakki, qulogʻi eshitmaydigan kichik yoshdagi bolada kar bolalarda odatda kamchiliklar bilan rivojlanadigan boshqa koʻnikmalarni – atrof olam haqidagi umumiy tasavvurlarni, tafakkur, xotira, diqqatni, harakatlanish faolligini (yirik va mayda motorikani), hissiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirish ham zarur. Bolalarda, ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda ushbu hamma koʻnikmalar parallel ravishda va oʻzaro aloqada va asosan kun davomida oʻz atrofidagi kattalar bilan oʻzaro muloqot paytida rivojlanadi. Shuning uchun boshidanoq surdopedagogik ish ham, kun davomida ota-onalar bolalari bilan olib boradigan rivojlantiruvchi ish ham, xuddi normal rivojlangan bola bilan boʻlganidek, bu rivojlantiruvchi yoʻnalishlarning hammasini oʻz ichiga oladi. Shunday qilib, nogiron bolada har xil koʻnikmalarni rivojlantirar ekanmiz, xuddi shu yoshdagi meʼyorda rivojlangan bolalarga nisbatan qoʻllanadigan koʻrsatkichlarga tayanishimiz kerak. Taʼlim-tarbiya jarayonida umumpedagogik va xususiy tamoyillar eʼtiborga olindi. Yaʼni nutqni keng qamrovli rivojlantirish boʻyicha olib boriluvchi ishlarda quyidagi tamoyillarga rioya qilinish lozim:

1. Har bir bolaning nutqini rivojlantirishda, nutqiy rivojlanishning dastlabki darajasini hisobga olgan holda, tabaqalangan ravishda va individual yondashish tamoyili;

2. Til o'rgatishda tilni muloqot (kommunikatsiya) quroli sifatida shakllantirish tamoyili;

3. Kommunikativ tizimni amalga oshirishda asosiy: genetik, faoliyat hamda struktur-semantik tamoyillarga tayanish;

4. Nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilishning mavzuiy tamoyili;

5. Nutqni yaxlit jarayon sifatida shakllantirishda nutqiy faoliyatning turli ko'rinishlari (atrofni eshitish-ko'rish va eshitish, so'zlash, o'qish, yozish vositasida idrok etish) ni o'zlashtirishni ko'zda tutish;

6. So'zlashuv nutqini rivojlantirishning amaliy faoliyat bilan bog'liqligi tamoyili;

7. So'zlashuv muloqotiga ehtiyojni yuzaga keltirish tamoyili.

Abilitatsiya paytida koxlear implantli bolalar bilan ishlashda qo'llanadigan metodlar. Maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bola bilan olib boriladigan reabilitatsion ishda zaif eshituvchi bolalarga nisbatan qo'llanadigan hamma metodlar to'g'ri keladi. Biroq bu o'rinda o'ziga xos jihatlari ham mavjudki, (Korolyova I.V.), ularni, qaysi metod qo'llanishidan qat'i nazar, e'tiborga olish lozim. Birinchidan, abilitatsion ishning dastlabki yilida asosiy ish eshitish idrokni rivojlantirishga qaratilishi kerak va buning uchun avvalambor kundalik odatiy vaziyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, koxlear implantli bolada qisqa vaqt ichida tabiiy eshitish idrokni rivojlantirish hamda bunda bolada, me'yorda eshitadigan bolalar kabi, o'z nutqini va o'z g'alar nutqini idrok etib tushunish darajasiga erishish vazifasi turadi. Uchinchidan, koxlear implantli qilingan bola bilan olib boriladigan ishning o'ziga xos jihati shundaki, bolada eshitish ko'nikmasini rivojlantirish kerak. Buning uchun bola bilan muloqotda uning qarshisida emas, yonida (koxlear implantant qo'yilgan tomonida) o'tirgan holda suhbat olib borish, o'ynash, kitob o'qish kerak. Bunda bola nutqni yaxshi eshitadi va so'zlovchining lablarini ko'rmay turib, e'tiborini diqqat bilan eshitishga qaratadi.

To'rtinchidan, ilk yoshda implantant qo'yilgan kar bola bilan ishlashda daktil nutq shaklidan, nafaqat muloqot vositasi sifatida,

balki tovush talaffuzini shakllantirish vositasi sifatida ham foydalanish shart emas.

Beshinchidan, bolada eshitish tajribasi va diqqat buzilishining mavjudligi, ota-onalarning abilitatsiya jarayoniga tayyorligi bilan bog'liq holda abilitatsiya davri uchun 6 oydan 18 oygacha vaqt kerak bo'ladi. Shu bilan birga eshitishida muammosi bo'lgan ko'pchilik bolalarda nutq buzilishlari mustaqil buzilishlar sifatida mavjud bo'ladi. Bular yo birlamchi buzilishlar (tegishli miya markazlarining shikastlanishi oqibatida), yo ikkilamchi (ilk yoshda yuz bergan karlik tufayli harakat nutq markazlari rivojlanishining buzilishi oqibatida) buzilishlar sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun metodlar eshitishida muammosi bo'lgan bolalar bilan ishlashda katta yordam beradi. Faqat bu o'rinda logoped koxlear implantli bola bilan ishlashda shuni aniq anglab olishi kerakki, koxlear implantli bolada faqat tovush talaffuzigina emas, balki nutqning to'liq rivojlanmaganligi ham kuzatiladi. Bunda nutqning ekspressiv rivojlanmaganligi passiv va aktiv lug'atning hamda grammatik nutq tuzumining rivojlanmaganligi bilan belgilanadi. Bu bola bilan til tizimini (ona tili tizimini) shakllantirishga (passiv va aktiv lug'at to'plash, grammatik til tuzumini shakllantirish, mustaqil nutqni rivojlantirishga) qaratilgan uzoq yillarga mo'ljallangan maqsadli surdopedagogik ish olib borilishini taqozo etadi.

Koxlear implantli bolaga xos yana bir xususiyat shundaki, kichik yoshida implantatsiya qilingan bola bilan olib boriladigan korreksion ishda global o'qish metodidan foydalanish kerak bo'lmaydi. Biroq 3 yoshdan keyin koxlear implantli qilingan bolani o'qishga o'rgatishda analitik-sintetik o'qish metodidan foydalanish kerak. Koxlear implantli bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishda verbotonal metod nisbatan keng qo'llanadi. Bu metod Zagreb (Xorvatiya) shahridagi SUVAG markazida prof. P.Guberina tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, eshitishi turli darajada yo'qolgan va eshitish apparatlaridan foydalanadigan bolalar nutqini rivojlantirishda katta samara berishi amalda o'z isbotini topdi. Bu koxlear implantli bolalarga ham to'la ma'noda tegishli. Bu metod avvalambor fonetik ritmikada, koxlear implantli nutqsiz bolalarda tovushlarni keltirib chiqarish usullarida, tana harakatlari va nutq tovushlarining o'zaro aloqasiga asoslangan nutqning intonatsion-ritmik tomonini

shakllantirishda, bolada nutqiy muloqotga bo'lgan motivatsiyani rivojlantirishda katta samara beradi.

Implantatsiya qilingan bolalar bilan olib boriladigan ishda qo'llanadigan maqbul metodlardan yana biri eshituv-nutqiy (audio-verbal) metodidir. Uning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- Koxlear implantli bola eshituvining rivojlanishi tabiiy shart-sharoitda kun davomida bolaga g'amxo'rlik qilayotgan kattalar bilan muloqotda kechadi. Rivojlanayotgan eshituv asosida bolaning nutqi ham, normal eshituvchi bolaning nutqi kabi, tabiiy holda rivojlanib boradi. Bunda biz tayanadigan asosiy shior "Eshitamiz, fikrlaymiz va kun bo'yi eshitib turib gapiramiz" so'zlaridan iborat;

- ota-onalar va yaqin kishilar bolaning nutqini va ona tilini rivojlantirishda tabiiy va eng yaxshi o'qituvchilardir;

- eshitishida muammosi bo'lgan bolaning nutqini va eshituvini rivojlantirishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad uni umumta'lim maktabida o'qishga tayyorlashdan iborat.

Koxlear implantanli bolalarda eshitish darajasini rivojlantirish, nutqni me'yorda rivojlanayotgan tengdoshlari kabi, to'liq egallay olishlariga erishish, ruhiy jarayonlarining rivojlanishida hamda ijtimoiy hayotda o'z o'rinlarini topishlariga ko'maklashish masalalari surdopedagogika fanlarining oldida turgan dolzarb masalalardandir. Ushbu toifaga mansub bolalar nutqini erta korreksiyalash ularni ijtimoiy hayotga erta moslashtirish omili sanaladi. Eshitishida muammosi bo'lgan va koxlear implantatsiya qilingan bolalarning reabilitatsiya masalari Rossiya olimlaridan I.V.Korolyova, O.S.Jukova, O.V.Zontova, G.A.Tavartkoladze, A.I.Sataeva, E.V.Mironova, I.D.Frolenkova va boshqa chet ellik olimlardan R.Litovsky, A.Parkinson, J.Arcaroli tadqiqotlarida va amaliy faoliyatlarida keng yoritib berilgan. O'zbekistonda esa ushbu masalaga hozircha faqat amaliy jihatdan yondoshib kelinmoqda va bu yo'lda prof. L.R.Muminova, E.B.Amirova, U.Y.Fayziyeva, R.Sh. Kutdusova va boshqalar korreksion-rivojlantiruvchi ishlar olib borishmoqda. Ushbu defektologlarning olib borilayotgan ilmiy ishlar natijasida bolalar ham, xuddi sog'lom tengdoshlari kabi, ijtimoiy shaxs bo'lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanliklari hamda ulardagi mavjud kuchli imkoniyatlarni ishga solish nutqni rivojlantirish asosida amalga oshirilishi lozimligi isbotlandi. Bolalarning nutqni egallab borishlari sari ularda ijtimoiy (hayotiy)

malakalarning shakllanishiga oid imkoniyatlar kengayib boraveradi. Aniqrog'i, faoliyat asosida rivojlantiriluvchi nutq ijtimoiy me'yorlarni egallashning zaruriy shartidir. Ushbu jarayonning jadallashuviga xizmat qiluvchi omillardan biri bolalar nutqini ilk, maktabgacha yoshda bo'lgan davrda shakllantirish sanaladi. Koxlear implantantli bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonini takomillashtirish orqali ularning ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko'tarishning yo'l va vositalari asoslab berildi. Koxlear implantantli koxlear implantli kichik yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning mazmuni quyidagilardan iborat: bolaning eshitish idrokini rivojlantirish; lug'at zaxirasini va grammatik tuzumini shakllantirish; tovushlarni talaffuz qilish ko'nikmalari va og'zaki nutqni rivojlantirish; o'qish malakalarini rivojlantirish; eng oddiy matematik tasavvurlarni shakllantirish; atrof olam haqidagi tasavvurlarni, umumiy kognitiv malakalarni hosil qilish, diqqatni rivojlantirish; yirik va mayda motorikani rivojlantirish. Mashg'ulotlarning mazmuni, maqsadi, mavzuyi qanday bo'lishidan qat'i nazar, mutaxassis bola bilan ishlashda bir qator umumiy qoidalarga rioya qilishi shart.

Birinchidan, mutaxassisning nutqi bevosita bolaning o'ziga qaratilgan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, so'zlar va iboralar tabiiy holda, his-tuyg'u bilan, artikulyatsiyani bo'rttirmay turib va tabiiy jonli imo-ishora bilan talaffuz qilinishi kerak. Uchinchidan, agar bola o'ziga qaratilgan nutqni tushunmasa, nutqda qisqa-qisqa iboralarni qo'llash hamda ularni har kuni muayyan vaziyatlarda 2-3 marta takrorlab turish lozim. Har bir implantantli bola uchun individual ish dasturi tuzish lozim. Korreksion-reabilitatsion ish o'z ichiga bir qancha yo'nalishni qamrab oladi, bola bilan olib boriladigan mashg'ulotlar strukturasi va maqsadi shunga qarab belgilanadi¹:

1. Ta'limiy maqsad: bolalarda ta'limiy dastur hajmidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hamda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish.

2. Tarbiyaviy maqsad: bolalarni milliy istiqloq ruhida tarbiyalash, ularning shaxsiy va axloqiy sifatlarini shakllantirish, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topa olishlariga imkon beruvchi ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish.

¹ Ching T.Y.C., Incerti P., Hill M. Binaural benefits for adults who use hearing aids and cochlear implants in opposite ears// Ear Hear. 2012. Vol. 25(6). P. 565-600

3. Rivojlantiruvchi maqsad: koxlear implantli bolalarda nutqiy va ijodiy faollikni, mustaqillik va erkoxlear implantlilikni shakllantirish.

4. Korreksion maqsad: koxlear implantli bolaning birlamchi nuqsoni natijasida yuzaga keluvchi ikkilamchi nuqsonni hisobga olib, tabaqalangan holda yondashgan holda ularning sifatli korreksion ta'lim olishlarini ta'minlash.

Biroq shuni ham yodda tutish lozimki, har bir bola uchun ushbu muammo individual ravishda hal etilishi kerak, shuning uchun har bitta bolaga individual dastur tuzish lozim. Korreksion-reabilitatsion ish o'z ichiga bir qancha yo'nalishni qamrab oladi, bola bilan olib boriladigan mashg'ulotlar strukturasi shunga qarab belgilanadi. Eshitish qobiliyatining buzilishi ham bola nutqining me'yorda rivojlanishiga, uning ijtimoiy hayotga uyg'unlashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitish kamchiligini erta aniqlash va tashxis qilish, uni qayta tiklash, bunday bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish logopedni, surdopedagog va ota-onalarning vazifasiga qiradi. Ushbu defektologlarning olib borayotgan reabilitatsiya natijasida bolalar ham, xuddi sog'lom tengdoshlari kabi, ijtimoiy shaxs bo'lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanliklari hamda ulardagi mavjud kuchli imkoniyatlarni ishga solish nutqni rivojlantirish asosida amalga oshirilishi lozimligi isbotlandi. Bolalarning nutqni egallab borishlari sari ularda ijtimoiy (hayotiy) malakalarning shakllanishiga oid imkoniyatlar kengayib boraveradi. Aniqrog'i, faoliyat asosida rivojlantiriluvchi nutq ijtimoiy me'yorlarni egallashning zaruriy shartidir. Ushbu jarayonning jadallashuviga xizmat qiluvchi omillardan biri bolalar nutqini ilk, maktabgacha yoshda bo'lgan davrda shakllantirish sanaladi. Koxlear implantantli bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonini takomillashtirish orqali ularning ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko'tarishning yo'l va vositalari asoslab berildi. Maxsus ta'lim sohasida koxlear implantantli bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonida nutqini rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganilmaganligi bois ilmiy jihatdan asoslangan erta abilitatsiya va korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik tizimni yaratishni dolzarb masala hisoblanadi. Eshitishida muammosi bo'lgan bola reabilitatsiya jarayoniga qancha erta jalb qilinsa, uning ijtimoiy moslashuvi shuncha tez kechadi. I.V.Koroleva ushbu kategoriyaga mansub bolalarning ota-onalariga o'z vaqtida psixologik yordam berish muhim ekanligini ta'kidlaydi. Agar ota-onalarga

psixologik to'siqlarni yengib o'tishga amaliy yordam berilsa, agar ular farzandlariga tibbiy yordam bilan bir qatorda korreksion-rivojlantiruvchi yordam kerakligini o'z vaqtida anglab yetishsa, bu bolaning nutqni tushunish, nutq orqali muloqotga kirishish ko'nikmalari erta shakllanadi. Bu o'rinda kar bolalarda koxlear implantatsiya operatsiyasining o'tkazilishi o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi va bu muammolarni hal qilishda avvalambor ota-onalarning zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Koxlear implantatsiya muammolari bilan chuqur shug'ullanib kelayotgan olim I.V.Korolevaning ta'kidlashicha, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi uning oilasi bilan birgalikda uzviy ravishda olib borilishi lozim. Buning uchun ota-onalar avvalambor koxlear implantatsiyali bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning tuzilishi, maqsadi, vazifalari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ishlar koxlear implantatsiya bilan bog'liq operatsiya o'tkazilishidan oldin boshlanishi kerak. Bunda ota-onalar va yaqin qarindoshlarga avvalo implantatsiya bu jarrohlik aralashuvi ekanligini tushuntirish, implantatsiyaning funksiyasi haqida, koxlear implantatsiya moslamasi hamda uni ishlash prinsipi haqida to'liq ma'lumot berish kerak. Bundan tashqari, koxlear implantatsiyadan so'ng nutq eshituv reabilitatsiyasining quyidagi shart-sharoitlarini muhokama etish muhim: Bola surdopedagog, logoped zarur bo'lsa psixolog bilan doimiy ravishda shug'ullanish imkoniyatiga egami? Bolaga qanday nutqiy muhit sharoitini tashkil etgan ma'qul? (surdopedagogik yokoxlear implantli ommaviy bog'chaga borishi); Ota-ona o'z bolasining nutqi va eshitishini rivojlantirish ustida doimiy ravishda ish olib bora oladimi? Bu borada bilim va tajribaga egami hamda maxsus yordam berishga qodirmi? Ota-onalarga bola bilan uyda shug'ullanishga yordam beruvchi qanday adabiyotlar tavsiya etish mumkin?

Koxlear implantatsiya jarayonori yoqilganidan so'ng hamda keyingi reabilitatsiya davri vaqtida bolaning xulqida o'zgarishlar kuzatilishiga ota-ona va yaqinlarini tayyorlash lozim. Boshida bola tovushlarga e'tibor bermasligi, o'jar bo'lib qolishi, tez toliqib qolishi mumkinligi haqida ota-onalarni ogohlantirish kerak. Ba'zi hollarda bolaning ota-onasiga - metodik maslahatlar berish bilan bir qatorda konkret misollar ham keltirish katta samara berishi mumkin. Masalan,

I.V.Koroleva bu borada koxlear implantanli farzandi bo'lgan va boshlang'ich bosqichdan o'tgan boshqa bir ota-onaning o'z farzandi bilan muloqotini video tasmlarda ko'rsatish va tahlil qilish katta yordam berishini aytib o'tgan. Shuningdek, I.V.Koroleva korreksion-reabilitatsion ishda ota-onalarning bolada nutqiy idrokni rivojlantirish hamda talaffuzga o'rgatishning maxsus usul va vositalarini egallashlariga katta e'tibor qaratadi. Ota-onalar bolaning eshituv qoldig'ini rivojlantirish, nutqning talaffuz tomonini shakllantirish bo'yicha ishlarni yaxshi olib bora olishlari kerak. Ota-onalarga ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam berishda shifokor, logoped, surdopedagog, psixologlar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- ota-onalarga eshitish nuqsonini davolashga qaratilgan vositalar haqida, yo'qotilgan eshituvni eshitish apparati yoki koxlear implantatsiya yordamida kompensatsiyalashning zamonaviy imkoniyatlari haqida maksimal ma'lumotlar berish;

- bolani atrofidagi odamlarni tushunish va eshitish imkoniyatini chegaralanganligini inobatga olgan holda ota-onani u bilan muloqot qilishga o'rgatish;

- ota-onalarni bola bilan mustaqil va tizimli ravishda shug'ullanishga o'rgatish;

- erta eshituv protezlarining muhimligini aniqlashtirish, koxlear implantli bola ijtimoiy adaptatsiyani kuchaytirish va ish qobiliyatlarini nazorat etishga o'rgatish;

- ota-onalarga bola bilan olib boriladigan surdopedagogning mashg'ulotlari va o'zlarining mashg'ulotlari, koxlear implantatsiyadan foydalanish natijalari darrov ko'rinmasligi, ularning sabrli bo'lishlari lozimligini tushuntirish kerak;

- ota-onalarga shunday muammosi bo'lgan, bolasi bilan faol shug'ullangan, maslahatlari bilan qo'llab quvvatlay oladigan boshqa ota-onalar bilan muloqot qilish imkonini yaratish, buning uchun bunday farzandi bor ota-onalar markazini tashkil qilish lozim;

- ota-onalarni o'z bolasini qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish, uning har bitta, hatto eng kichik yutug'idan ham xursand bo'lishga da'vat etish kerak.

I.V.Koroleva qo'llanmalarida koxlear implantatsiyali bolalarning nutqi va eshitishini uy sharoitida rivojlantirish bo'yicha batafsil tavsiyalar berilgan.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishda ko'rgazmalilikka rioya qilish juda muhim, zero yuz marta eshitgandan, bar marta ko'rgan yaxshiroq. Bunday hollarda ular surdopedagog, logoped, psixologga shaxsan murojat eta oladilar, u esa bola bilan o'tiladigan mashqlarni tushuntiradi, kerak bo'lsa ko'rsatib beradi. Ota-onalar bilan ishlashning turlicha shakllaridan: maslahat-konsultatsiyalar (pedagoglarning guruh va yakka tartibdagi maslahatlari), anonim muloqot, ma'rifiy (trening, ma'ruza, davra suhbatlari, mavzuga oid muhokamalar) va amaliy tadbirlardan (ochiq mashg'ulotlar, bayram tadbirlari, bolalar bilan hamkorlikdagi faoliyat) foydalangan holda ish olib boriladi. Ularda asosiy e'tibor uy sharoitida bolalar bilan olib borilishi lozim bo'lgan korreksion-rivojlantiruvchi ish tizimining yoritib berilishiga qaratiladi.

Ota-onalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtirokiga ham alohida ahamiyat berilib, ularning uy sharoitida farzandlarining nutqini rivojlantirishni nazarda tutuvchi tavsiyalar tayyorlandi.

Koxlear implantli bolalarning nutqiy rivojlanish bosqichi eng sodda og'zaki nutq asosida amalga oshirildi:

- a) so'zlovchilar o'rtasida taqsimlangan savol-javob orqali;
- b) vaziyatning mavjudligi;
- v) me'yorida eshituvchi shaxslar nutqining ohangdorligini ta'minlovchi ovoz toni va imo-ishoralar orqali;
- g) bayon etishni yengillashtiruvchi – to'liqsiz gap shaklining mavjudligi.

Sanab o'tilgan sharoitlarning mavjudligi koxlear implantli bola nutqining takomillashishiga imkon yaratadi. Koxlear implantli bolaning bunday sharoitda ishtirok etishi, bir tomondan, ehtiyojlarini qondirishi uchun imkon bersa, ikkinchi tomondan, keyinchalik yuzaga keluvchi nisbatan kuchliroq talablarini qondirish uchun zarur bo'lgan nutqning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ta'lim tizimida koxlear implantant o'rni ko'rsating.

2. Pedagogik amaliyotga o'tish jarayonida maxsus maktab o'quvchilarining umumfoydali ishlab chiqarish mehnati nimalardan iborat?

3. Koxlear implantansiyaning xususiyatlarini izohlang.

4. Tarbiya jarayonida koxlear implantantni kompensator va korreksion-rivojlantiruvchi yo'nalishlarga misollar keltiring.

5. Koxlear implantantli eshitishda muammosi bo'lgan bolalar reabilitatsiyasi vazifalarini ko'rsating va ularning amalga oshirilishini izohlang.

6. Koxlear implantantli eshitishda muammosi bo'lgan bolalar reabilitatsiyasi ta'limiy, tarbiyaviy va korreksion rolini ko'rsating.

7. Koxlear implantantli bolalarda nutqni shakllantirish yo'llariga misol keltiring.

8. Koxlear implantantli eshitishda muammosi bo'lgan bolalar reabilitatsiyasi deganda nimani tushunasiz?

9. Koxlear implantantli eshitishda muammosi bo'lgan bolalar reabilitatsiyasi vazifalari va mazmuni nimadan iborat?

10. Korreksion-reabilitatsion ish o'z ichiga qanday yo'nalishni qamrab oladi, bola bilan olib boriladigan mashg'ulotlar strukturasi va maqsadi nimadan iborat?

Tayanch tushunchalar:

Binaural implantatsiya - koxlear implantatsiya takomillashishining yo'nalishlaridan biri hisoblanib, koxlear implantantni o'ng va chap quloqqa kiritish **"Cochlear"** - (Avstraliya) firmasining - "Nucleus 3", "Nucleus Freedom", "Spectra 22", "Sprint", "ESPril", "ESPril 3G" koxlear implantant tizimlari va jarayonlari;

"MED-EL" - (Avstriya) firmasining - "Combi 40/40+", "Tempo+", "Pulsar", "Sonata", "Opus 1", "Opus 2" koxlear implantant tizimlari va jarayonlari;

"Advanced Bionics" - (AQSh) firmasining "Harmony", "Auria", "Clarion 1", "Clarion 2", "Clarion C II", "Platinum", "Clarion Platinum" koxlear implantant tizimlari va jarayonlari.

GLOSSARIY

A

Abstraksiya – (lotincha *abstractio* (umumiy, konkret bo'lgan) so'zidan olingan) konkret predmet yoki holatning u yoki bu xususiyatini fikran (hayolan) ajratib olish va uning boshqa xususiyatlaridan umumlashtirish.

Abstraction – (taken from latin word “abstractio” which means “general”, not concrete) distinguishing specific features of an object, thing or situation by thinking, imagininh and generalize it basing another peculiarities

Avtomatizm –yunoncha *aitotatos* (o'z-o'zidan harakatlanuvchi) so'zidan olingan bo'lib, ongsiz ravishda bajariladigan xatti-harakatlar tizimini bildiradi.

Avtomate – taken from the Greek word *aitotatos* (*directly (self) acting*) has the meaning the system of action done unconsciously.

Agnoziya –bilish so'zlaridan olingan bo'lib, bosh miya po'stlog'ining zararlanishi natijasida bilish jarayonining buzilishini anglatadi. Ko'rish, eshitish, sezish agnoziyasi farqlanadi.

Agnostic – taken from a Greek words “a” – deny, *gnosis* – know, means disability (destruction) of understanding something because of the damaging the cerebra. There is distinguished feeling, hearing and sight agnostocs.

Agrammatizm – (bo'laklarga bo'linmaslik) so'zidan olingan bo'lib, tilning grammatik tizimidan noto'g'ri foydalanishda (tilning grammatik qurilishini o'zlashtira olmaslik, grammatik shakllarning ahamiyatini tushunmaslik, gap tuza olmaslik va h.) namoyon bo'luvchi nutqiy faoliyatning buzilishi.

Agrammatism – taken from the Greek word *agrammatios* (not separating into pieces), it's destruction of speech appeared in the process of inappropriately use of the grammatical system of language.

Agrafiya – yunoncha *a* – inkor qilish, lotincha *grarho* – yozaman so'zlaridan olingan bo'lib, yozuv jarayonining shakllanmaganligi bilan ajralib turuvchi nutqning rivojlanmaganligini bildiradi. A. yozish qobiliyatining butunlay buzilishi yoki bo'g'in va harflarni qoldirib ketish, ulami bir-biriga qo'sha olmaslik natijasida sodir bo'ladi. A. organik xarakterdagi og'ir nutqiy muammolarning (qarang: *alaliya*, *afaziya*) bir belgisi (simptomi) sifatida namoyon bo'lishi mumkin. A. maxsus logopedik ta'sir vositalarida bartaraf etiladi. – **Agraphia**

Adaptatsiya –lotincha *adapta* – moslashtiraman, muvofiqlashtiraman so'zidan olingan bo'lib, quyidagilarni bildiradi:

1) organizmlarning yashash sharoitlariga moslashishi;

2) analizatorlar sezuvchanligining o'zgarishi. Kuchli taassurotdan kuchsiz taassurotga o'tganda, sezuvchanlik asta-sekin oshadi, taassurotning kuchayishi esa sezuvchanlikning asta-sekin pasayishiga olib keladi. A. ko'rish jarayonida, hid bilish, maza-ta'm, haroratni sezish jarayonlarida kuzatiladi. A. da nerv tizimining markaziy va periferik mexanizmlari ishtirok etadi. Har bir kishining

moslashish imkoniyati uning irsiyati, yoshi, sog'lig'i va qay darajada mashqlana olganligiga bog'liq bo'ladi. – **Adaptation**

Adekvat – ma'lum bir narsa, buyum, hodisaga mos keluvchi, muvofiq. –

Adequate

Aks ettirilgan (aks sado) nutq – ayrim so'zlar va jummalarni defektolog ortidan (yakka holda yoki jo'r bo'lib) takrorlash. Aks sado nutqi duduqlanuvchi, kar va zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan nutqiy mashqlar turidir. Bola defektolog aytgan so'zlarni takrorlashni o'rganish orqali tutilmay, ravon gapirish malakalarini egallab boradi. – **Reflected (Echo) Sound**

Alifbo – muayyan tartibda joylashtirilgan harflar tizimi.

Alphabet – a system placed the letter in particular order.

Aleksiya – yunoncha *a* – inkor etish, *Iyego* – o'qiyman so'zlaridan olingan bo'lib, o'qish jarayonining shakllanmaganligi, o'qish jarayonini butunlay o'zlashtira olmaslikni bildiradi. A. ko'pincha alaliya, afaziya, dizartriya, duduqlanish kabi nutq kamchiliklarida kuzatiladi (qarang: *alaliya, afaziya, dizartriya, duduqlanish*). A. maxsus logopedik usullar yordamida bartaraf etiladi. – **Alexia**

Ambidekstriya – (lotincha *atbo* – ikkala, *dextez* – o'ng so'zlaridan) ikkala qo'l harakatchanligi, faoliyatining baravar rivojlanganligi. Bu holat juda kam uchraydi. Odatda insonda o'ng qo'l harakatchanligi, faoliyati yaxshiroq rivojlangan bo'ladi. Lekin chap qo'lning o'ng qo'lga nisbatan yaxshi rivojlanganligi holati ham uchrab turadi. – **Ambidextrous**

Amimiya – yuz muskullari ma'nodorligining yo'qligi yoki uning sustlashishi. A. parezlar, paralichlar, nerv tizimining turli kasalliklarida yuz muskullari harakat koordinatsiyasining buzilishi natijasida, yuz nervining parezlari va paralichlari oqibatida paydo bo'lishi mumkin. A. ba'zi bir psixik kamchiliklarda ham kuzatiladi. – **Amimia**

Amneziya – yunoncha *a* – inkor etish, *tpeme* – xotira so'zlaridan bo'lib, xotiraning avval hosil qilingan tushuncha va tasavvurlarni tiklay olmaydigan darajadagi buzilishi ma'nosini bildiradi. – **Amnesia**

Analiz – (yunoncha *apalasis* – parchalash, bo'lish so'zidan) tahlil narsa va hodisalarni fikran tarkibiy qismlarga ajratishni aks ettiruvchi aqliy operatsiya. A. (tahlil qilish) jarayonida butunning bo'laklarga nisbatan munosabati aniqlanadi. – **Analysis**

Analizator – yuksak darajada rivojlangan hayvonlar va odam organizmining tashqi va ichki muhitdan kelib chiquvchi ta'sirlarni idrok, tahlil va sintez qilishini ta'minlovchi murakkab anatomik-fiziologik tizim (nerv mexanizmlari). Organizmining anatomik va fiziologik tadqiqotlari natijasida ushbu tushuncha ilk bor I.P.Pavlov tomonidan qo'llanilishi taklif qilingan. – **Analysers (speech product)**

Analitik-sintetik tovush metodi – butun bir matndan gapni, gapdan so'zni, so'zdan bo'g'inni, bo'g'indan tovushni ajratib olish va, aksincha, tovushlardan bo'g'inni, bo'g'inlardan so'zni, so'zlardan gapni tuzish yo'li bilan savod

chiqarishni aks ettiruvchi metod. A. s. t. m. asosan, tayyorlov guruhlari hamda birinchi sinflarda alifbegacha bo'lgan davrda qo'llanib, uning yordamida bolalar harflarni taniydilar, tovushlar yordamida so'zlar tuzadilar. Bu metod bolalar nutqining rivojlanishida katta o'rin egallaydi. – **Method of Analytic-Synthetic Sound**

Anamnez –yunoncha *anamnesis* – eslash so'zidan olingan bo'lib, tashxisni qo'yish va aniqlash, korreksion-tarbiyaviy tadbirlarni belgilash maqsadida tekshirish jarayonida kasal shaxsning o'zi va yaqinlaridan kasallikning yuzaga kelishi va kechishi, o'sishi haqidagi ma'lumotlarni to'plash jarayonini anglatadi. – **Anamnesis**

Anemiya –kamqonlik qonda gemogloblin hajmining kamayishi bilan bog'liq bo'lgan kasallik. Gemogloblin eritrotsitlar tarkibida bo'lib, kislorod bilan birikib, uni o'pkadan organizm to'qimalariga yetkazib beradi. A. kelib chiqish sabablariga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. – **Anemia**

Anketa metodi –pedagogika va psixologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri. Bu metod orqali izlanish obyektini o'rganish maqsadida tuzilgan savollarga yozma ravishda tegishli javoblar olinadi. Olingan natijalar tahlil (analiz) qilingach, xulosalar qilinadi va ular asosida keyingi bosqichda bajariladigan ishlar belgilanadi. –**Method Of Questionnaire**

Anomal –yunoncha *apotalos* – noto'g'ri, notekis so'zidan olingan bo'lib, umumme'yordan o'zgacha bo'lgan holat ma'nosida qo'llanadi. Masalan: astronomiyada va unga yaqin bo'lgan fanlarda fazoda kuzatiluvchi g'ayrioddiy holatlar anomal holatlar, deb yuritiladi. – **Anomaly**

Apraksiya –odat bo'lgan xarakterlarning buzilishi. A. ga uchragan bemor hech qanday, hatto, eng oddiy harakatlarni ham o'zgalarning yordamisiz bajara olmaydi. – **Apraxia**

Artikulyatsiya –(lotincha *articulare* – aniq talaffuz etish so'zidan olingan) nutq a'zo (organ)lari – lablar, til, yumshoq tanglay, tovush paychalarining muayyan tovushni talaffuz qilishdagi faoliyati. A. nutq a'zo (organ)larining mo'tadil va me'yorini ta'minlovchi artikulyatsiya mashqlardan iboratdir. A. ning buzilishi nutq tovushlarini noto'g'ri talaffuz qilishga olib keladi. – **Articulation**

Artikulyatsiya mashqlari –nutq organlarining mo'tadil va me'yordagi holatini ta'minlovchi mashqlar tizimi. Artikulyatsiya mashqlari asosan lab, til-jag' mashqlaridan iborat bo'lib, uning asosiy maqsadi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun zarur bo'lgan artikulyatsiya organlarining erkin harakatini ta'minlashdan iborat. –**Articulation Activities**

Assotsiatsiya –(lotincha *sasio* – birlashtiraman so'zidan olingan) psixologiyada ayrim psixik jarayonlar va hodisalar (tasavvur, fikr, sezgilar)ning bog'lanishi; bu bog'lanishlar tufayli biror-bir jarayonning paydo bo'lishi bilan shunga bog'liq bo'lgan boshqa jarayon yuzaga keladi. A. ning fiziologik asosini muvaqqat nerv bog'lanishlari tashkil qiladi. A. xotira va tafakkur bilan bevosita bog'liq. A. ning 3 turi farqlanadi: yondoshlikka asoslangan A.; o'xshashlikka

asoslangan A.; qarama-qarshilikka asoslangan A. Ta'lim berish jarayonida o'xshashlikka asoslangan A. muhim ahamiyatga ega. – **Association**

Atetoz – sun'iy harakatning ko'rinishi bo'lib, asosan barmoqlarda kuzatiladi, ko'pincha tananing bir tomonida sodir bo'ladi. A. da nutq noaniq bo'ladi. – **Atetos**

Atoniya – mushaklar tonusining keskin susayishi. – **Atony**

Atrofiya – (yunoncha *atropheo* – ozyapman) to'qimalar oziqlanishining yo'qolishi, organ yoki to'qimalar hajmining kichrayishi. Bu hodisa fiziologik A. deb ataladi. Organ kasallik natijasida kichraygan bo'lsa, patologik A. deyiladi. –

Atrophy

Audiologiya – eshitish va uning buzilishlari haqidagi fan. – **Audiology**

Audiogramma – audiometr yordamida eshitishni tekshirish jarayonida olingan ma'lumotlarning maxsus qayd qog'ozida belgilar yordamida aks ettirilishi (grafik tasvirlanishi) (qarang: *audiometriya*). – **Audiogram**

Audiometr – lotincha *audio* – eshityapman va *metron* – o'lchov so'zlaridan olingan bo'lib, eshitish sezgisining kuchini aniqlaydigan, har xil balandlikdagi tovushlarga nisbatan eshitish sezgilarining quyi chegaralarini o'lchaydigan maxsus asbob. – **Audiometer**

Audiometriya – audiometr yordamida turli chastotali tovushlarni idrok etish chegarasini aniqlash orqali eshitish o'tkirligi va holatini tekshirish. A. yordamida eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning eshitish darajasi aniqlanadi. – **Audiometry**

Auditoriya shoki – yoki *sahna qo'rquvi* – o'z fikrlarini bildirishda kuchli zo'riqlik holatining yuzaga kelishi sababli atrofdegilar bilan muloqotga kirishishdagi qo'rquv. – **Auditory (Audience) Shock**

Autizm – yunoncha *auto* – o'zim (mening o'zim) so'zidan olingan bo'lib, shaxsning atrof olam (voqelik)dan o'zini olib qochishi hamda o'zining ichki dunyosida yashashi ma'nosini anglatadi. Atrofdagilar bilan muloqotga kirishishdan qochish turli ko'rinishlarda, shuningdek, turli sabablar oqibatida kelib chiqishi mumkin. – **Autism**

Afoniya – (yunoncha *a* – inkor etish, *rhape* – ovoz so'zlaridan) ovoz hosil bo'lish apparatining buzilishi natijasida fonatsiyaning kamchiligi yoki yo'qligi. A. da ovoz butunlay yo'qoladi, lekin shivirlab gapirish saqlanib qoladi. Chin (organik) A. va funksional (psixogen, isterik) A. mavjud. nevroitik bemorlarda lorintgdan keyin yoki asabiy kechinmalardan keyin yuzaga kelishi mumkin. –

Aphonia

Afferent nervlar – retseptorlarda hosil bo'lgan qo'zg'alishni tegishli markazlarga eltuvchi nervlar. – **Afferent Nervis**

B

Battarizm – haddan ziyod tezlashtirilgan nutq. B. da so'zlar juda tez sur'atda, noaniq talaffuz etilishi, gapdagi oxirgi so'zlar tushirib qoldirilishi,

qator-qator soʻz va jumalarning nafasni rostlamay, nihoyatda tez talaffuz etilishi, fikrning izchil bayon etilmasligi kuzatiladi. – **Battarism**

Bilingvizm (ikki tillilik) – ikki tilning bir xil ravishda mukammal egallanishi. Eshitmaydigan bolalar va kattalar rivojlanishida soʻzlashuv nutqi, soʻzlashuv imo-ishorali nutq va kalkirlangan ishorali nutqni qoʻllash jarayonida soʻzlashuv-ishorali ikki tillilik yoki bilingvizm yuzaga keladi. – **Bilingualism**

Binaural eshituv – quloq va eshituv tizimining simmetrik boʻlaklari yordamida nutqni idrok etish. Binaural eshituv tovush manbayini aniqlashga yordam beradi. – **Binaural Hearing**

Birgalikdagi nutq – maʼlum bir soʻz va gaplarning ikki va undan ortiq shaxslar tomonidan bir vaqtning oʻzida (birdaniga) talaffuz etilishi – **Joint Speech (Pronunciation)**

Bisensor yondoshuv – aqliy yoki jismoniy rivojlanishida muammolari boʻlgan bolalar rivojlanishidagi muammolarni bartaraf etishda ikki sogʻlom analizator faoliyatiga tayangan holda ish koʻrish. – **Bi-Sensory (Bi-Tactile) Approach**

Bolaning lugʻati – meʼyorida rivojlanayotgan bolaning lugʻati oʻzgarayotgan nutqning taʼsiri ostida uzluksiz boyib boradi. L. nofaol va faol boʻladi. Nofaol L. bola tushunadigan, lekin oʻzi ishlatmaydigan yoki kam ishlatadigan, faol L. bola oʻz nutqida keng foydalanadigan soʻzlardan iborat boʻladi. – **Child's Vocabulary**

Bosh miya – Bosh miya uch boʻlimdan: orqa miya – unga uzunchoq miya kiradi, miya koʻprikchasi, miyacha, oraliq miya va katta yarim sharlardan tashkil topgan oʻrta miya hamda oldingi miyadan iborat. – **Cerebrum**

Bosh miya nervlari – bosh miyaning pastki yuzasi (asosi)dan boshlanuvchi 12 juft nerv boʻladi. Ular bosh miyani tashqi muhit va ichki aʼzolar bilan bogʻlab turadi. (qarang: *afoniya, disfoniya, dizartriya*). –

Nerves of cerebrum

Bogʻlanmagan (poyma-poy) nutq – mantiqiy tafakkur qoida va talablari doirasida fikrlay olmaslikni aks ettiruvchi nuqson; nutqdagi jumla va fikrlarning bir-biriga toʻgʻri kelmasligi. B. n. bosh miya qobigʻidagi baʼzi nutq markazlarining zararlanishi (masalan: afaziya) natijasida (qarang: *afaziya*) yoki baʼzi ruhiy kasalliklarda ham sodir boʻlishi mumkin. – **Absurd Speech**

Bradikineziya – (yunoncha *bradus* – sekin, *kinesis* – ibora soʻzlaridan) harakatlarning umumiy sekinlashuvi. – **Bradikinesis**

Bradileksiya – yunoncha *bradus* – sekin, *lyego* – oʻqiyman soʻzlaridan olingan boʻlib, oʻqish surʼatining patologik sekinlashuvi. – **Bradilexia**

Bradifraziya – (yunoncha *bradus* – sekin, *phrasis* – ibora soʻzlaridan) nihoyatda sekinlashtirilgan nutq. Bunda tovushlar, soʻzlar juda sust, unli tovushlar choʻzib talaffuz etiladi. B. nerv jarayonlarining sustlashi, tormozlanishi natijasida sodir boʻladi. – **Bradiphrases**

Broka markazi – (fransuz antropologi va xirurgi P. Broka nomi bilan yuritiladigan atama) – bosh miyadagi uchinchi chap peshana burmasining pastki

qismida joylashgan. B. m. nutqning harakat qiluvchi markazidir. B. m. jarohatlanganda kishi soʻzlarni maʼnoli qilib talaffuz etolmaydi. Bu kamchilik motor afaziya va motor alaliyada kuzatiladi (qarang: *afaziya, alaliya*). – **Broca center**

Bronx – (yunoncha *broneh* – kekirdak, traxeya) odam kekirdagining tarmoqlari. B. oʻz navbatida tarmoqlanib, katta-kichik bronxchalarga boʻlinadi. Asosiy B. oʻpka darvozasiga kirib, oʻpka ichida oldin boʻlak bronxlariga, soʻngra segmentar bronxlarga boʻlinadi. –**Bronchus**

Burun – nafas yoʻllarining boshlangʻich qismi, hid bilish organi boʻlishi bilan birga ovoz chiqarish va soʻzlashda rezonator (ovozni kuchaytiradi va unga ohang beradi) vazifasini bajaruvchi organ. Burunning lat yeyishi, unda xavfli oʻsma paydo boʻlishi, qon dimlanishi, unga yot jismlar tushishi, yuqumli kasalliklar (gripp)da nutqiy muammolar (yopiq rinolaliya) yuzaga kelishi mumkin.

Nose – the part of a person's or animal's face used for smelling or breathing

Boʻgʻin – nutq apparati mushaklarining bir zarb bilan harakatlanishi natijasida yuzaga keladigan tovush va tovushlar birikmasi. Oʻzbek tilida unli tovushlar B. hosil qiladi. B. qanday tovush bilan tugashiga koʻra ikki turga boʻlinadi: unli tovush bilan tugaydigan B. ochiq, undosh bilan tugaydigan B. yopiq boʻgʻin hisoblanadi. B. talaffuz etishga koʻra alohida boʻgʻin bilan aytiladigan B. urgʻuli, nisbatan past, kuchsiz talaffuz etiladigan B. urgʻusiz boʻladi. Choʻziq va qisqa unlihar ishtirokiga koʻra B. lar choʻziq va qisqa boʻladi. –**Articulate**

V

Varoliyev koʻprigi – bosh miyaning uzunchoq miya va miya oyoqchalari oʻrtasida joylashgan boʻlimi. – **Varoliev bridge**

Vegetativ aʼzo (organ)lar – faoliyati soʻrish, ovqat hazm qilish, sekretiya, nafas olish, qonni taqsimlash hamda koʻpayish hisoblangan organ (aʼzo)lar. – **Vegetative organs**

Velyar tovushlar – (lotincha *velaris* – orqa tanglayga oid soʻzidan) orqa tanglay tovushlari (g, k, x). –**Velar Sounds**

Velyarizatsiya – (lotincha *velaris* – orqa tanglayga oid soʻzidan) ovoz toni va shovqinni keskin kamaytiruvchi tovush qattiqligini keltirib chiqaruvchi orqa (yumshoq) tanglay yoʻnalishiga koʻra til yuganchasi orqa qismining qoʻshimcha artikulyatsiyasi. –**Velarization**

Verbal muloqot – ikki yoki undan ortiq shaxslarning soʻz, nutqiy vositalar yordamida fikr almashishlari (munosabatga kirishishlari). – **Verbal Communication**

Vernike markazi – bosh miya chap yarim sharlaridagi yuqori chakka burmaning orqa uchdan bir qismida joylashgan eshituv-nutq markazi. V.m. shikastlanganda tovushlar, boʻgʻinlar tizmasi yigʻindisini analiz qilish qobiliyati buziladi, nutq tovushlarini bir-biridan farqlash, soʻzlarning maʼnosini tushunish

qiyinlashadi (maslan: sensor alaliya, sensor afaziya). Bu markazni, uning jarohatini ilk bor nemis olimi K.Vernike kashf etgan. – **Vernike center**

Vibratsiya sezgisi – organizmning teriga ta'sir etayotgan qo'zg'atuvchilarni sezish holati. – **Vibration sense**

G

Giperkinez –yunoncha *hyper*– haddan ziyod, *kinesis*– harakat so'zlaridan olingan bo'lib, nerv sistemasining organik va funksional buzilishlari natijasida tananing haddan ziyod ixtiyorsiz ravishda harakat qilishi. –**Hyperkinesia, Hyperkinesis**

Gipnoz –(yunoncha *hypnos* – uyqu so'zidan) bosh miya ba'zi markazlarini tormozlash natijasida kishilarda va hayvonlarda maxsus hosil qilinadigan sun'iy uyqu. – **Hypnosis**

Gipnoz uyqusi – mutaxassis tomonidan mijozda maxsus ravishda hosil qilinadigan sun'iy uyqu. **Duduqlanuvchi** shaxslar bilan olib boriluvchi tadbirlarda g. u. dan qo'shimcha davolovchi vosita sifatida foydalaniladi. – **Hypnosis sleep(slumber)**

Gippokamp – markaziy nerv tizimidagi bir bo'lim bo'lib, u axborotni qisqa vaqtli xotiradan uzoq muddatli xotiraga o'tkazadi. – **Hippocampus**

Gers (Gs) – tebranishlar chastotasini o'lchash uchun qabul qilingan xalqaro atama. Nemis olimi Genrix Gers nomiga atalgan. Tovush to'lqinlari, radioto'lqinlar, elektr toki tebranishlarining chastotalarini o'lchash uchun qo'llanadi. Sekundiga bir marotabalik tebranishga teng. –**Hertz**

Global o'qish – eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qishga o'rgatish jarayonidagi dastlabki bosqich. Taklif etilayotgan so'z va jumlar bola tomonidan yaxlit holda, ya'ni global idrok etiladi. Global o'qish, deganda so'z va gaplarning grafik obrazlarini yaxlit holda idrok etilishi va ularni tegishli predmet va hodisalar bilan bog'lanishi tushuniladi. – **Global reading**

Gu-gulash davri – bir yoshgacha bo'lgan bolalarning nutqni egallashga tayyorgarlik davrida turli xil tovushlarni, bo'g'inlarni aytishi. Masalan: 6-7 oylik bola «ba-ba-ba», «da-da-da», «na-na-na» kabi tovushlarni chiqaradi. –**Hu-hu period**

D

Daktilografiya –daktilologiyani bilmaydigan, lekin savod egallagan eshitmaydigan shaxslar bilan eshituvchilarning tildagi harflarni ma'lum tekisli yoki havoda aks ettirish orqali muloqotga kirishishlari. Shuningdek, tug'ma yoki ilk yoshda ko'rish va eshitish qobiliyati buzilgan bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonida qo'llanuvchi nutq shakli. Daktilologiyadan farqli ravishda axborot almashinuvchilar har bir harf-belgini bir-birlarining kaftlarida aks ettiradilar. – **Dactylography**

Daktilologiya (daktil alifbosi) – (yunoncha *daktylos* – barmoq, *logos* – so'z) eshitishida muammosi bo'lgan shaxslarning o'zaro va eshituvchi insonlar bilan qo'l alifbosi vositasida muloqot qilish vositasi. So'zlashuv nutqini

dastlabki o'zlashtirish, savodga o'rgatish jarayonida D. foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Daktil alifbosi ilk bor «sukut saqlash ahdi» ni qabul qilgan (bu davrda ular ovoz chiqarmasdan yurishlari lozim bo'lgan) cherkov ruhoniylari tomonidan o'ylab topilgan. – **Dactylogy (Dactyl Alphabet)**

Dars – o'qitishning vazifalari, mazmuni, nizom va metodlarini o'zida mujassamlovchi o'quv jarayonining asosiy shakli. Dars maktabdagi o'quv jarayonining asosiy ish shakli sifatida ilk bor, XVII asrda zamonaviy pedagogika sohasida ushbu kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan – «Buyuk didaktika» asarining muallifi Y.A.Komenskiy tomonidan amaliyotga joriy qilingan. –

Lesson

Dars turlari (tiplari) – ma'lum bir darslar guruhiga xos bo'lgan belgilar yig'indisi bo'lib, uning turlari asosiy maqsadlarning xususiyatlari, mazmuniy-metodik talablarga muvofiq holda belgilanadi. Darsning qaysi tomonlari (belgilari) asosiy qilib tanlanishiga muvofiq holda turli-tuman ko'rinishlari belgilanadi. Darslar mazmuni hamda olib borish usullariga ko'ra guruhlashtirilishi mumkin (I.N.Kazansev). –**Type of the lesson**

Darsga qo'yiladigan talablar – Maxsus maktab, maktab - internatlarida olib boriluvchi har qanday dars pedagogik, psixologik, gigiyenik, tashkiliy talablarga javob berishi lozim. –**Requirements for the lesson**

Deviant xulq – lotincha *deviatio* – og'ish, chetga chiqish so'zidan olingan bo'lib, xulqning me'yordan chetga chiqishi ma'nosini anglatadi. Ya'ni shaxsning jamiyatda qabul qilingan huquqiy yoki axloqiy me'yorlarga qarama-qarshi bo'lgan xatti-harakatlar tizimi yoki ba'zi harakatni sodir qilishi tushuniladi. Xuddi shunday xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi bolalar «ijtimoiy xatar guruhiga mansub bolalar» sarasiga kiritilmoqda. –**Deviate behavior**

Deduksiya – umumiy mulohazadan xususiy mulohazaga o'tib xulosa chiqarish: bilish usuli. – **Deduction**

Deontologiya – kasbiy axloq, kasbiy burch va mas'uliyat haqidagi ta'limot. Pedagogik faoliyat shunday kasbiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarga kirishishda pedagogik deontologiya qoidalariga amal qilgan holda ish ko'rishi lozim. – **Deontology**

Detsibel (Db) – (**Db**)tovush kuchi (jadalligi)ning o'lchov birligi bo'lib, karlik va zaif eshituvchilik o'rtasidagi eshitish chegaralarini aniqlashda foydalaniladi. – **Decibel**

Diagnoz – yunoncha *diagnosis* – aniqlash so'zidan olingan bo'lib, kasallikning tavsifi va mohiyati haqidagi qisqacha tibbiy xulosa ma'nosini anglatadi. Hozirda diagnoz o'rni *tashxis* atamasi ham qo'llanilmoqda. – **Diagnosis**

Diksiya – so'zni aniq, ravon tarzda ifodalash. – **Dyxia, Dyction**

Dinamik stereotip – shartli va shartsiz reflekslarning nisbatan barqaror sistemasi, D. s. bosh miya yarim sharlari hosil bo'ladigan qat'iy shartli reflektor

yoki muvaqqat perv bog'lanishlari asosida tashkil topadi. D. s. ning yuzaga kelishi kishida muayyan malaka va odatlarning tarkib topishi va ularning hayot sharoitlariga moslashuvini ta'minlaydi. – **Dynamic stereotype**

Distoniya – Mushaklar tonusining me'yordan chiqishi. –**Dystonia**

Distrofiya – (yunoncha *dis* – buzilish ma'nosini bildiruvchi yuklama, *traphé* – ovqatlanish so'zidan) organizm (a'zo) va to'qimalarda modda almashinuvining buzilishi. Ayrim organlardagi distrofik o'zgarishlar umumiy kasalliklar (yuqumli kasalliklar, zararli o'simtlar, kamqonlik) natijasida organizmning ozuqa moddalar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi natijasida yuzaga keladi. – **Dystrophia**

Diqqat – ongimizning muayyan obyektga yo'naltirishi va unga jalb etilishidan iborat psixik holat. Ongimiz yo'naltirilgan narsalar D. ning obyektii hisoblanadi. Obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalar, ruhiy kechinmalar, taassurotlar D. ning obyektii bo'lishi mumkin. –**Attention**

Dominanta – (lotincha *dominantus* – hukmronlik qiluvchi so'zidan) markaziy nerv sistemasida hukmronlik qiluvchi qo'zg'alish markazi, manbaidir. D. haqidagi ta'limot rus fiziologi akademik A. A. Uxtomskiy tomonidan yaratilgan. Bu ta'limot diqqatning fiziologik asoslarini, tafakkurning ba'zi jarayonlarini va boshqa psixik hodisalarni izohlab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. – **Dominant**

J

Jaranglanish nuqsoni – Juft jarangli – jarangsiz undosh tovushlarning (p – b, v – f, t – d, s – z, k – g, sh – j) bir-biri bilan almashtirilishi (masalan: buvi – pufi; gilos – kilos, zina – sina va h.). J. n. to'liq va qisman bo'ladi. –**Resonant Defect**

Z

Zaif eshituvchilik – eshitishning me'yordagi nutqni idrok etishga to'sqinlik qilish darajasidagi turg'un pasayishi. Zaif eshituvchilik konduktiv, neyrosensor hamda aralash turlarga bo'linishi, eshitishning pasayishi esa turli ko'rinishda bo'lishi mumkin: shivirlagan nutqni idrok etishdagi kamchilikdan so'zlashuv balandligidagi nutqni idrok qilishdagi to'siqlargacha. –**Hard of hearing (deaf)**

Zaif eshituvchi bolalar –nutqni egallashga va nutqiy muloqotga to'sqinlik qiladigan eshitishi pasaygan bolalar. Zaif eshituvchi bolalarda eshitishning pasayishi turlicha bo'lishi, ya'ni shivirlagan nutqni idrok etishdan boshlab, so'zlashuv balandligidagi nutqni idrok etishdagi qiyinchiliklar bilan ifodalanishi mumkin. Zaif eshituvchi bolaning nutqiy rivojlanish holati eshitishning pasayish darajasi va vaqti, tarbiyalash sharoiti, uning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. – **Deaf children**

I

Ideomotor harakatlar –yunoncha *idea* – tushuncha, tasavvur, lotincha *metor* – harakatlantiruvchi so'zlaridan olingan bo'lib, tana a'zolarining,

shuningdek, nutq organ (a'zo)larining ixtiyorsiz harakatlari. I. h. shu harakatlar bilan bog'liq bo'lgan biror narsani o'ylash natijasida paydo bo'ladi. Ko'pincha bunday harakatlar ko'zga ko'rinmasligi sababli ularni maxsus asboblarni yordamida kuzatish mumkin. Bosh miyaning sensor, motor hamda maxsus nutq markazlari orasidagi mustahkam nerv bog'lanishlari I. h. hisoblanadi. – **Idea-motor actions**

Idrok –Sezgi organ (a'zo)larimizga bevosiga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning ongimizda bir butun, yaxlit holda aks ettirilishidan iborat psixik jarayon.

Mind(Intelligence) – the ability to learn, understand, and think about things

Ijtimoiy (sotsial) adaptatsiya –lotincha *adaptatio* – moslashtiraman va *socium* – jamiyat so'zlaridan olingan bo'lib, shaxsning jamiyatda qabul qilingan insoniy qadriyat, maqsad, axloqiy me'yorlarni qabul qilish va egallash yo'li bilan ijtimoiy muhit sharoitlariga moslashishini bildiradi. –**Social adaptation**

Ikkinchi signal tizimi –I. P. Pavlov tomonidan so'z, nutq yordami bilan hosil bo'luvchi murakkab signal tizimini ta'riflash uchun ishlatilgan atama bo'lib, so'z, nutq ta'sirida bosh miya yarim sharlari qobig'ida hosil bo'lgan muvaqqat nerv bog'lanishlari tizimi. –**Second Signal System**

Ilg'or pedagogik texnologiya –muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq ta'lim oluvchi shaxsiga qaratilgan, faollashtiruvchi metodlar va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalangan holda o'quv maqsadiga erishishni kafolatlovchi ta'lim berish jarayoni. –**Advanced Pedagogical Technology**

Imkoniyatlari cheklangan bolalar – qarang: *aqliy yoki jismoniy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar*. – **Disabled Children**

Imo-ishora – nutq jarayonida ixtiyorsiz ravishda namoyon bo'ladigan qo'l va gavda harakatlari.

Gesture – a movement of part of your body, especially your hands or head, to show what you mean or how you feel

Imo-ishora (jest) nutqi –eshitishida muammosi bo'lgan shaxslarning o'zaro muloqotlarida imo-ishoralar asosida munosabatga kirishishlarida foydalanuvchi nutq shakli. Qo'llar harakati bilan (kinetik asosida) muloqot qilish tizimi. –**Speech by gesture**

Impressiv nutq – (lotincha *impressia* – taassurot so'zidan) o'zgaralar nutqini idrok qilish, tushunishga asoslangan nutq turi. Nofaol (passiv), ya'ni ichki nutq. – **Impressive speech**

Initiativ (tashabbuskor) nutq – Bolaning o'z tashabbusi bilan yuzaga kelgan mustaqil nutqi. Bolalar o'rtasidagi suhbatni ham I. n. ga kiritish mumkin. I. n. ni paydo qilish uchun bolaning nutqi deyarli shakllangan bo'lishi zarur. – **Initiative speech**

Me'yorda rivojlanayotgan sog'lom bolalarda I. n. 1,5 - 2 yoshda yuzaga keladi. Aqliy yoki jismoniy, nutqiy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda I. n.ning rivojlanishining buzilishi kuzatiladi. Maxsus korreksion-

rivojlantiruvchi ta'lim-tarbiya orqaligina bunday toifa bolalarining I.n. ga erishish mumkin.

Inklyuziv –ingliz tilidan *inclusive* – qo'shuvchi, *inclusion* – uyg'unlashtirish.

Inclusive – including a wide variety of people, things etc

Inklyuziv ta'lim –bolalarni bir-biridan ajratuvchi to'siqlarni bartaraf etishga, ularning yoshi, jinsi, diniy va ijtimoiy kelib chiqishi, rivojlanishdan orqada qolishi va iqtisodiy ta'minlanganlik darajasidan qat'i nazar, umumta'lim jarayoniga to'liq uyg'unlashtirishga qaratilgan davlat siyosati. Integratsiyadan farqli ravishda, «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyaga muvofiq tarzda, ta'limning yuqori sifatini ko'zlagan holda o'quv-tarbiya muhitini har bir bolaning ehtiyojlarini ta'minlashga moslashtirishni nazarda tutadi. – **Inclusive Education**

Ta'limning yuqori sifati oila, pedagogik jamoa hamda jamiyatning faol ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Bunday ta'lim muammoning yechimi bolada emas, balki tizimda ekanligini, bolalar ta'lim olish imkoniyatiga ega ekanliklarini hamda nogironlikning ijtimoiy ko'rinishini tan oladi hamda o'quv reja va ta'lim tizimi metodologiyasini barcha o'quvchilar, shuningdek, har bir bola ehtiyojiga mos ravishda ishlab chiqilishini qo'llab-quvvatlaydi. Barcha bolalarning birgalikdagi ta'limi ularning har biriga individuallashtirilgan ta'lim asosida amalga oshiriladi. Ya'ni rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar barcha sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olsalarda, ularning o'z imkoniyatlari doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollanishlari uchun sharoit ta'minlanadi. Barcha bolalarning hamkorlikdagi ta'limi ikki tomonlama ijobiy xislatlarga ega. Agar, ushbu jarayon orqali alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning o'z oilasi, mahallasida o'sib ulg'ayishlari ta'minlansa, sog'lom bolalarning rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini ko'rib, ular ham nuqsonli emas, balki o'zgacha rivojlanishga ega bo'lgan bolalar ekanliklarini anglashlari sodir bo'ladi. Shu sababli ham bunday ta'limning g'oyasi – «Inklyuziv maktablardan – inklyuziv jamiyat sari» shiori asosiga qurilgan.

Innovatsiya –sohaga yangilik, o'zgarishlar olib kirish jarayoni va faoliyati.

Innovation – a new idea, method, or invention in a particular field.

Integratsiyalashgan – ingliz tilidan *integrative* – jamlovchi (mujassamlovchi), *integrate* – jamlash (qo'shish).

Integrated – an integrated system, institution etc combines many different groups, ideas, or parts in a way that works well.

Integratsiya ta'limi – aqliy yoki jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning sog'lom tengdoshlari jamoasida ta'lim olishi. Integratsiya ta'limi imkoniyati cheklangan bolani muammo sifatida ko'radi hamda pedagoglar tomonidan alohida guruh bolalarini guruh, sinf sharoitida o'qitilish va tarbiyalash yo'l va vositalarining qo'llanilishini nazarda tutadi.

Integrative Education

Intellekt – (lotincha *intellectus* – tushunish, tushuncha soʻzidan) insonning umuman bilish faoliyati; fikrlash qobiliyati, tafakkuri, aqli.

Intellect – (from a latin word *intellectus* - understand, term) the ability to understand things and to think intelligently

Interfaol metodlar – taʼlim jarayonida oʻqituvchi tomonidan maqsadga erishish uchun qoʻllanuvchi oʻquvchilarning oʻz va oʻzaro faollashuvlariga qaratilgan yoʻl va usullar yigʻindisi. – **Interactive methods**

Intonatsiya – (lotincha *intonare* – qattiq talaffuz qilaman soʻzidan) nutqning ritmik-ohangdor tomoni. I. gapda sintaktik maʼnolarni va emotsional ekspressiv boʻyoqni ifodalash vositasi boʻlib xizmat qiladi. I. gap (jumla)ning asosiy belgilaridan biri boʻlib, uning qismlari orasidagi munosabatlarni ifodalash uchun, uning darak, soʻroq, buyruq ekanini, uning emotsional boʻyogʻini koʻrsatish uchun xizmat qiladigan vositalardan biri.

Intonation - the way in which the level of your voice changes in order to add meaning to what you are saying, for example by going up at the end of a question.

Irsiyat – organizm va nerv tizimi xususiyatlarining oʻtmish avlodlar tajribasida tarkib topib, mustahkamlanib, keyingi avlodlarga oʻtish jarayoni. Baʼzi bir rivojlanishdagi muammolar (masalan: eshitish muammosi, koʻzi ojizlik, duduqlanish) ota-onalarda, ularning bolalarida, undan keyingi avlodlarda ham kuzatilishi mumkin.

Heredity – the process by which mental and physical qualities are passed from a parent to a child before the child is born

Ichki nutq – Nutqning bu turi ongda shakllanadi va boshqalarga bayon qilinadi. I. n. ovozsiz, qisqa boʻladi. I. n. inson nutqiy tafakkurining muhim shakli boʻlganligi uchun ham aqliy yoki jismoniy rivojlanishida muammolari boʻlgan bolalarda uni toʻliq shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. –**inner speech**

Ishontirish –psixik taʼsir koʻrsatishning asosan soʻz orqali amalga oshiriladigan maxsus turi. I. bedor holatda ham, gipnotik holatda ham amalga oshirilishi mumkin (qarang: *gipnoz*). Biroq gipnotik holatda uning taʼsir kuchi ortadi. Logopediyada nutqiy rivojlanishdagi muammolarni bartaraf etish uchun (masalan: duduqlanishda) I. dan keng foydalaniladi. –**Persuasion**

K

Katamnez – (yunoncha *kata* – soʻng, *tpetainep* – eslash soʻzlaridan) bemorning oʻzi yoki uni yaxshi biladigan shaxs tomonidan davolanish tugagandan soʻng, vrachga beriladigan maʼlumotlar yigʻindisi.

Katamnesium – (from Greek words “kata”-after, “mpemainep” – remember)

Maxsus kuzatuv ostida boʻlgan oʻquvchilarning taʼlimi-tarbiyasi, mehnat faoliyati haqida davriy yigʻib boriluvchi maʼlumotlar.

Kar bolalar – tug'ma yoki ilk yosh davrda eshitish qobiliyatining chuqur va turg'un yo'qolishi oqibatda maxsus pedagogik yordamsiz nutqni egallay olmaydigan bolalar.

Deaf children –

Karlik – nutqiy muloqot va nutqning mustaqil egallanishiga to'sqinlik qiluvchi eshitish qobiliyatining og'ir darajada yo'qolishi.

Deafness –

Kech kar bo'lib qolgan bolalar – 4-5 yoshda yoki undan ham kechroq davrda eshitish qobiliyati yo'qolgan, nutqi saqlanib qolgan bolalar.

Children become deaf lately - children who become deaf later – children who have lost hearing ability at the age of 4-5 or later, but still kept their speech.

Nutqning saqlanishi karlikning yuzaga kelish vaqti hamda bolaning o'sish sharoiti bilan bog'liqdir. Bolani tizimli ravishda maxsus o'qitilishi nutqning saqlanishini ta'minlaydi.

Kinestetik (harakat) sezgilar – (yomoncha *kinema* – harakat, *aisthesis* – sezgi so'zidan) gavdaning fazodagi holatini, ayrim organlarning harakatlarini aks ettiruvchi sezgi turlari; tana a'zolarining holati va harakatining sezuvchanlik qobiliyati.

Kinaesthetic feelings – (from the Greek words *kinema* – action, *aisthesis* – feeling) the type of feeling which is reflected some organ's action, the body's state in the air; the sensitiveness static and motion ability of the parts of body.

Kommunikatsiya – (lotincha *kommunicatio* – aloqa so'zidan) fikr almashish, aloqa qilish; insonlarning bilish va mehnat faoliyatlari jarayonidagi o'zaro bog'lanishlarining shakli bo'lib, ularning birgalikdagi amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi, bilish, fikr almashishga doir yoki emotsional xarakterdagi o'zaro ma'lumotlarning almashinuvi jarayoni.

Communication – (from the latin word *kommunicatio* – connection) exchange ideas, make a contact.

Kompensatsiya – ta'lim-tarbiya jarayonida sog'lom sezgi a'zolariga tayanish yoki qisman buzilgan funksiyalarni qayta qurish orqali me'yordan chiqqan analizator o'rmini to'ldirish (qoplash).

Compensation – basing on healthy sensitive organs or complete (compensate) wrong functions of the through rebuilding analyser in the Educational process.

Kontaminatsiya – (lotincha *soptatinatio* – qorishtirish so'zidan) ikki va undan ortiq so'zlarning elementlarini qorishtirib, so'zni noto'g'ri talaffuz etish. K. ning paydo bo'lishiga so'zlarning tashqi jihatdan o'xshashligi sabab bo'ladi. K. alaliya, afaziya kabi hollarda kuzatiladi.

contamination – (taken from a latin word *contamination* – mix) wrong pronunciation by mixing the elements of two or more words.

Korreksiyalash – aqliy yoki jismoniy, nutqiy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning psixik va jismoniy taraqqiyotidagi me'yordan chetga

chiqishlarni pedagogik usul va chora-tadbirlar yordamida qisman yoki butunlay bartaraf etish.

Correction – completely or partial elimination of abnormal psychological and physical problems of children who have a defect in mental, physical and speech development by using new pedagogical methods and actions.

Korreksiya metodikasi – ta'limiy maqsadga erishishni ta'minlashda qo'llanuvchi maxsus ta'limiy shakl va vositalar majmuasi.

Correction techniques –

Korreksiya pedagogikasi – aqliy yoki jismoniy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning taraqqiyot qonuniyatlari, ularga ta'lim - tarbiya berish qonuniyatlarini tadqiq qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi fan.

Correction Pedagogy –

Korrelyatsiya – o'rganilayotgan hodisalar o'rtasida mavjud bo'lgan statistik aloqani bildiruvchi matematik tushuncha.

Correlation –

Koxlear implantatsiya (KI) – eshitish sezgilarini tiklash maqsadida jarrohlik yo'li bilan ichki quloqda (quloqning ichki bo'limida) joylashgan eshitish nervlarining afferent tolalariga bevosita elektr qo'zg'atuvchilik vazifasini bajaruvchi elektrod tizim (sistema)larni ulash.

Kokhler's implantation (KI) –

Ko'zi ojiz-kar-soqov bolalar – tug'ma yoki ilk yoshda ko'rish va eshitish qobiliyati buzilgan bolalar. Ko'zi ojiz-karlik eshitish hamda ko'rishning ilk yoshlarda qisman yo'qolishi oqibatida ham vujudga kelishi mumkin. Ko'zi ojiz-kar bolalar nutqi mustaqil ravishda shakllanmay, maxsus o'qitish jarayonidagina uning rivojlanishiga muvaffaq bo'linadi.

Blind, deaf-and-dumb children –

Ko'rish analizatori – ko'rish sezgilarini hosil qiluvchi nerv mexanizmlari. K.aning po'stloq uchi ensada joylashgan bo'lib, u yerda ko'rish sezgilari shakllanadi; o'tkazuvchi yo'llari ko'rish nervlaridir. Ushbu analizator inson nutqining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. – **Sight analyser**

Ko'rish qoldig'i – ko'rishida muammosi bo'lgan shaxslarda ko'rish qobiliyati (idroki) imkoniyatlarining saqlanganlik darajasi. – **Sight remnant**

L

Labdan o'qish – nutq organ (a'zo)larining ko'rinadigan harakatlarini qabul qilish orqali og'zaki nutqni idrok etish. Nutqni eshitish orqali idrok etishdagi muammolarni qisman to'ldiradi. – **Understanding by the action of lip**

Leksika – (lotincha *leksicos* – so'zga oid so'zidan) tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar va iboralar yig'indisi. L. ma'lum qonun-qoidaga bo'ysunadigan izchil va murakkab tizimni tashkil qiladi. Har bir tilning L. si to'xtovsiz o'zgarib turadi. – **Lexics**

Likvor – miya suyuqligi.

Liquer – Liquid of mind

Logik urg'u – soʻz maʼnosini kuchaytirish, taʼkidlash maqsadida gapdagi biror soʻzni boshqalarga nisbatan kuchliroq talaffuz etish.

Logical stress

Logonevroz – (yunoncha *logos* – soʻz, nutq, *peirop* – nerv soʻzlaridan) nevroz (asab), nutq buzilishining bir koʻrinishi duduqlanib (tutilib) gapirish. – **Logo-nervos**

Logopat bolalar – (yunoncha *logos* – soʻz, nutq va *pathos* – kasallik) eshitish yoki aqliy rivojlanish bilan bogʻliq boʻlmagan nutqiy buzilishga ega boʻlgan barcha bolalarga nisbatan qoʻllaniladi. – **Logo-pathos children**

Logopedik zondlar – talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida nutq organlarining holatini va harakatini toʻgʻrilash uchun ishlatiladigan maxsus mexanik moslamalar. – **Speech therapic probes**



Logopediya – nutqiy rivojlanishida muammosi boʻlgan shaxslar taʼlim-tarbiyasi masalalari bilan shugʻullanuvchi korreksiya pedagogikasining bir tarmogʻi (qarang: *korreksiya pedagogikasi*). Logopediya soʻzi yunoncha *logos* – soʻz, *raideiya* – oʻrgatish, tarbiyalash soʻzlaridan olingan boʻlib, nutqiy muammolarni maxsus taʼlim-tarbiya yoʻllari orqali bartaraf etish, ularni oʻrganish va oldini olish metodlarini ishlab chiqish bilan shugʻullanuvchi fandır.

Logopedics, speech therapy

Logofobiya – yunoncha *logos* – taʼlimot, *phobos* – qoʻrquv soʻzlaridan olingan boʻlib soʻz, nutqni talaffuz etishdan qoʻrqish holati.

Logo-phoby – taken from Greek words *logos* – subject (science), *phobos* – fear means the state of frightening to pronounce a word or a speech.

Lordoz – umurtqaning oldinga qavarib chiqqan qiyshiqligi.

Lordosis – sidelong of backbone push out front.

M

Malaka – mashqlarni koʻp takrorlash natijasida yuzaga keladigan avtomatlashgan harakatlar. Bolalarda yurish, talaffuz etish, oʻqish, yozish, hisoblash, mehnat qilish M.si shakllantiriladi.

Skill - an ability to do something well, especially because you have learned and practised it. The walking, pronouncing, reading, writing, counting, working skills to be formulated with children.

Makroglossiya – (yunoncha *tasros* – katta, lotincha *glossa* – til soʻzlaridan) til mushaklarining gipertrofiyasi (kattalashib ketishi). Bunda til ogʻiz boʻshligʻini toʻldiradi, ayrim paytda ogʻiz boʻshligʻiga sigʻmay, tishlarning

orasidan chiqib turadi. M. da nutq noaniq bo'ladi, sirg'aluvchi, til oldi va sonor tovushlarning talaffuzi buzilgan bo'ladi.

Macrogloss - (from a Greek word *macros* – big, large, and Latin word *glossa* – tongue) – hypertrophy (largening) of the tongue musculus. In M. the speech is unclear, fricative, sonor and front tongue sounds destructed.

Markaziy nerv tizimi –nerv sistemasining asosiy qismi. M. n. t. nerv hujayralari (neyronlar)ning yig'indisi va ularni bog'laydigan o'tkuzuvchi nerv yo'llaridan iborat.

Central nervous system – the main part of the nerve system. C.n.s. consists of a set of nerve cells(neurons) and nerve threads provided connection.

Maxsus pedagogika –qarang: *korreksiya pedagogikasi*.

Special Pedagogy – see: Correction pedagogy.

Maxsus psixologiya – aqliy yoki jismoniy rivojlanishida muammosi bo'lgan shaxslarning psixik (ruhiy) rivojlanish xususiyatlari, me'yordan o'zgacha rivojlanishlarini korreksiya qilish yo'llarini o'rganuvchi fan. Maxsus psixologiya o'z tarkibiga *surdopsixologiya* (eshitishida muammosi bo'lgan bolalar psixologiyasi), *tiflopsixologiya* (ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar psixologiyasi), *oligofrenopsixologiya* (aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar psixologiyasi), *logopsixologiya* (nutqiy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar psixologiyasi) kabi tarmoqlarni oladi.

Special Psychology – a subject deals with the study of the ways of correction the children with mental and physical problems, peculiarities of their spiritual (psychologic) development.

Maxsus ta'lim tashkilotlari – imkoniyati cheklangan bolalarni tashxislash, o'qitish, tarbiyalash va maslahatlar berish uchun yaratilgan tashkilotlar: maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, maktab-internatlar, umumta'lim maktablari qoshidagi logopedik punktlar, psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar, rehabilitatsiya markazlari va boshqa tashkilotlar.

Institutions of Special Education – The institutions and organizations established for dealing with diagnosis, teaching, educating and advising children with limited abilities: special pre-schools, schools, boarding schools, articulate therapy centers, psychological-medical-pedagogic commission (board), rehabilitation centers and other institutions.

Maxsus ta'lim shart-sharoitlari – maxsus ta'lim dasturlari va ta'lim metodlari, individual texnik ta'lim vositalari hamda yashash va faoliyat ko'rsatish muhiti, shuningdek pedagogik, tibbiy, ijtimoiy va boshqa xizmatlar.

Conditions of Special Education – pedagogic, medical, social and other services and the environment of living and acting, individual technical tools, teaching methods and syllabi of Special Education aimed at teaching and educating children with mental and physical problems..

Maxsus ta'lim muassasalari uchun o'qituvchilar (oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog va logopedlar)ni tayyorlash va qayta tayyorlash. – Mamlakatimizda maxsus ta'lim tizimi uchun malakali kadrlarni

tayyorlash dastlab Nizomiy nomidagi TDPIda boshlangan. 1967-yil Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutining pedagogika-psixologiya fakulteti qoshida defektologiya bo'limi tashkil qilindi.

Training and Retraining teachers (on subnormal pedagogy, surdopedagogics, typhlopedagogy and logopedics) for the Institutions on Special Education.

Metod – yunoncha *metodos* so'zidan olingan bo'lib, yo'l, axloq, usul ma'nolarini anglatadi.

Method – taken from a greek word “methodos” and means the way or technique and moral of doing something.

Metodika – biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi. U alohida metodlardan tashkil topadi. Korreksiya pedagogikasi har bir yo'nalish fanlariga oid ta'lim qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan: «Ko'zi ojiz bolalar maktablarida matematika o'qitish metodikasi», «Kar bolalar maktabida ona tili o'qitish metodikasi» va b.

Methodics, techniques – a set of methods, ways of delivering something accordingly to the target goal on particular subject. It consists of different, special methods. The Pedagogy of correction investigates the law of education on each direction of the subject. For instance, “Methods of teaching Mathematics for blind children”, “Methods of teaching Mother Tongue for deaf children” and etc.

Mikroglossiya – so'zlaridan (yunoncha *ticros* – kichik, *glossa* – til so'zlaridan) Tilning tug'ma ravishda rivojlanmaganligi. M. makroglossiya (qarang: *makroglossiya*) kabi kam uchraydi.

Microglosses - (taken from Greek words *ticros* – small, *glossa* – tongue). It means innate immature of the tongue. “M” can be met as macroglosses. (see: macroglosses)

Mimika (imo-ishora) – (yunoncha *mimikos* – taqlid qiluvchi so'zidan) turli his-tuyg'u va emotsiyalarning yuz muskulaturasi harakatlari orqali ifodalanishi. M. harakatlari ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi.

Body language (from Greek word “*mimikos*” - imitator) interpretation of emotions and feeling by different movement of face or body.

Monologik nutq – (yunoncha *topos* – bir so'zidan) – bir odam so'zlab, boshqalar uning nutqini idrok qilishiga asoslangan nutq turi. M. n. ning buzilishi ko'pincha alaliya, afaziya, duduqlanish kabi nutqiy muammolarda kuzatiladi.

Monologic speech – (taken from a Greek word “monos” - one) it is a type of speech based on one person speaks and the others understand his/her speech. The distruction of monologic speech to be observed speech problems like alalia, aphasia, stuttering.

Monosensor yondoshuv – aqliy yoki jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar rivojlanishidagi muammolarni bartaraf etishda bir sog'lom analizator faoliyatiga tayangan holda ish ko'rish.

Mono-sensor approach – to act targeting at one healthy speech product during the process of eliminating the mental and physical problems on development of child.

Monoton nutq (yunoncha *topos* – bir, *topos* – kuchlanish so'zlaridan) – nutqning faqat bir ohangda bo'lishi. Bunday nutq intonatsiya, urg'ularga rioya qilmaslik bilan xarakterlanadi.

Mono-tune speech – (from Greek words *monos* – one, *tonos* – tension, stress) – it expresses the speech only one tune (melody). Such type of speech characterized not to be followed the rules of intonation and stress.

Morfema (yunoncha *torrhe* – shakl so'zidan) – so'zning eng kichik, bo'linmas ma'noli qismi. M. bir yoki bir necha fonemadan iborat bo'lishi mumkin. M. xususiyatlariga ko'ra yetakchi (o'zak M. ga) M. ga va ko'makchi M. ga (affiks M. ga) bo'linadi.

Morpheme – (from a Greek word *morphe* – form) – is a meaningful segmental component of the word; the morpheme is formed by phonemes; as a meaningful component of the word it is elementary (i.e. indivisible into smaller segments as regards its significative function).

Muloqot – ikki yoki undan ortiq shaxsning o'zaro fikr almashishi (qarang: *kommunikatsiya*)

Communication – exchange the ideas two or more people interactively. (see: communication)

Muloqotning sintonik modeli – uyg'un muloqot.

Syntonic model of communication – mutual communication

Murakkab (kompleks) buzilishlar – ikki va undan ko'p muammolarning birga kelishi (masalan: eshitish-ko'rish, eshitish-ko'rish-aqliy, ko'rish-aqliy, eshitish-tayanch-harakat a'zolari faoliyatidagi me'yordan chetga chiqish).

Complex distructions – appearance (forms) two or more problems together. (For example, aural-sight, aural-sight-mental, sight-mental and etc.).

Mustahkamlash – esda qoldirilgan muayyan materialni turli usullar bilan ongimizda yanada mustahkamlashga qaratilgan xotira jarayoni.

Consolidation - to strengthen the position of power or success that we have, so that it becomes more effective or continues for longer.

Mutizm (lotincha *mutis* – coqov so'zidan) – psixik jarohat natijasida nutqning yo'qolishi. M. ko'pincha vaqtincha xarakterga ega bo'ladi.

Mute - (from the Latin word "*mutis*" - mute) Loosing the speech because of the psychological wound. Mostly it has a temporary character.

N

Nazariya bilan amaliyotning birligi – ta'limga oid ilmiy tadqiqotlar yakunini amaliyotda tatbiq etish zarurligini ta'kidlovchi tamoyil.

The unity of theory and practice – principles stated to put the results of theory into practice.

Natal – tug'uruq davriga oid.

Natal – relating to birth

Nevrozlar (yunoncha *peirop* – tomir, nerv so'zidan) – oliy nerv sistemasiga haddan tashqari kuchli hamda uzoq vaqt ta'sir etadigan qo'zg'ovchilarning ta'siri yoki nerv jarayonlarining qo'zg'alish hamda tormozlashining zo'riqishi natijasida yuzaga keluvchi funksional kasallik.

Neuroses – (taken from a Greek word *neuron* – nerve, tendon). The functional disease appeared by the highest and longest impact of arisers to the system of superior nerve or depression occurred due to the result of the arising and braking nerve process.

Neuropatologiya – yunoncha *peirop* – tomir, nerv, *rathas* – kasallik, *logos* – so'z, ta'limot so'zlaridan olingan bo'lib, nerv (asab) tizimi xastaliklarini o'rganuvchi fan.

Neuropathology - - taken from the Greek words "*neuron*" - nerve, tendon, "*pathas*" - disease, illness, "*logos*" – word, subject, means the subject studied nerve disease

Negativizm (lotincha *pego* – inkor qiluvchi so'zidan) atrofda kishilarning ta'siriga noma'qul qarshilik ko'rsatishni ifodalovchi psixik faoliyatdagi buzilishning tashqi belgilaridan biri. N. nofaol (passiv) va faol (aktiv) bo'ladi. Passiv N. bolaning atrofda qilar so'ziga kirmaslik, indamaslik bilan, aktiv N. esa atrofda qilar aytganining aksini qilish bilan xarakterlanadi. N. alaliya, duduqlanish, rinolaliya kabi nutqiy muammolarda kuzatilishi mumkin.

Negativism – (from a Latin word *nego* - reject, refuse) one of the outer sign of psychological distruction interpreted negative attitude to the impact of the people. N. may be passive and active. Passive N. characterized with not obeying, silence, active N. characterized with opposite action for surrounded people's desire. N. can be observed in the speech problems like alalia, stuttering, rinolalia.

Nerv jarayonlarining irradiatsiyasi – (lotincha *irradiare* – nur sochmoq so'zidan) – nerv jarayonlari, ya'ni qo'zg'alish va tormozlanishning dastlabki paydo bo'lgan nerv punktlaridan markaziy nerv tizimining boshqa markazlariga ham tarqalishi, yoyilishi.

Irradiation of the nerve process – (from a Latin word *irradiare* – shine) – spreading the nerve processes as provoking and braking from the early appearance in the nerve points to the other centers of the central nerve system.

Noverbal muloqot – axborot, fikrni so'zlashuv nutqidan boshqa – tana xatti-harakati vositalari yordamida yetkazish (imo-ishora, xatti-harakat va b.).

Non-verbal communication – interpretation of thoughts and inshakltion without language, but with the help of other means of speech – body language (gestures, mime and etc.).

Nutq – insonlarning tarixiy shakllangan, til vositasida yuzaga keluvchi muloqot qilishlarining shakli.

Speech – the form of communication based on language which is formed naturally by people.

Nutq apparati – nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan nutq organlarining tizimi.

Speech aid – the system of speech organs which are participated in the process of forming speech.

Nutq kartasi – bola, o'smir, katta kishining nutqiy holatini belgilovchi asosiy hujjat.

Speech card – the main document indicates the state of speech of the adult, teenager, child who enrolled to the logopedics institution.

Nutq kinesteziyalari – nutqning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi organlar holati hamda harakatini his etish.

Speech kinesthesia – feeling the action and state of the organs which is taking part in the shakltion of speech.

Nutq madaniyati – fikr almashish jarayonida nutqning to'g'ri, aniq, ravon, ifodali, mazmunli bo'lishiga erishish; so'zlamni o'z o'rnida ishlatish va to'g'ri talaffuz etish.

Speech culture – to achieve the correctness, clearness and fluience of speech in the process of exchanging ideas; ability of using words appropriately and pronounce correctly.

Nutqiy anamnez – bolaning nutqiy rivojlanishi haqida olingan ma'lumotlar yig'indisi. Nutqiy anamnez bolaning onasi bilan suhbat olib borish jarayonida aniqlanadi. Nutqiy anamnezni yig'ishda bola gugulay boshlagan vaqti, gugulashning faol yoki nofaol (onda-sonda) bo'lganligi, birinchi so'z, jumlar qay paytda paydo bo'lganligi aniqlanadi.

Speech anamnesis – inshakltion package taken about the child's speech development. Speech anamnesis defined in the conversation process with the child's mother. While collecting speech anamnesis to be defined the following situations like the time when the child start to dummy up, active or passive occurrence of dummyming (how often it happened), the first word, when the first sentences appeared.

Nutqni eshitish-ko'rish asosida idrok etish – og'zaki nutqni ko'rish va eshitish a'zolari yordamida idrok etish.

Perceiving speech through hearing-seeing – perceiving oral speech with the help of the aural and sight organs.

Nutqni harakatlantiruvchi analizator – harakat analizatorining bir qismi. Harakat analizatorining po'stloq uchi ikkita birlamchi maydondan tashkil topadi va shu xususiyati bilan boshqa analizatorlardan farq qiladi. Birinchi birlamchi maydon tana harakatini boshqarsa, ikkinchi birlamchi maydon nutq organlari harakatini boshqaradi.

Speech motion analyzer – a part of motion analyzer. The top of the bark of motion analyzer consists of two primary space and it distinguishes from othe

analyzers with this specifics. The first primary space drives the body motion and the second primary space drives speech organs motions.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligi – nutqiy rivojlanishning maxsus shakli bo'lib, bunda bolada aqliy va eshitis jihatdan me'yordan chetga chiqish kuzatilmasa-da, nutq tizimidagi (fonetik va leksik-grammatik) barcha tarkibiy qismlar (komponentlar)ning shakllanishi buzilgan bo'ladi.

Inprogress (not completely development) of speech – special form of speech development. In this process the mental and aural development disorder of the child is not observed, but the shaklition of all the speech componets (phonetic and lexic) system to be disorder.

Nutqning fonetik va fonematik tomondan rivojlanmaganligi – tovushlarni talaffuz etish va idrok qilish jarayonidagi kamchiliklar natijasida bolalarda ona tilidagi tovushlarni talaffuz qilish tizimi shakllanishining buzilishi.

Inprogress of speech on phonetic and phonematic ppint of view – distruction of the pronunciation system shaklition in the Mother Tongue due to the failings in the process of pronouncing and perceiving sounds.

O

Obturator – tanglay yoriqliklarini qoplash uchun tayyorlangan maxsus plastinalar. O. tanglay yoriqligining andozasi asosida tayyorlanadi va operatsiyagacha bo'lgan davr ichida ulardan foydalanish tavsiya etiladi.

Obturator – special plaque made for covering the holes of the palate. O. is made basing on the measure of the palate hole and recommended to use till the period of operation.

Ovoz – Nutqning barcha jarayonini bosh miya bajaradi. Undan kelgan signal natijasida ovoz va muayyan nutq tovushlari paydo bo'ladi. Energetik sistema (bunga nafas organlari kiradi) yordamida paydo bo'lgan ovoz «haydab» chiqariladi va rezonator sistemasi yordamida kuchlantiriladi.

Voice – Cerebrum rules all the process of speech. According to the result of the signal, got from it appeared a certain speech sounds and voice. The voice formed with the help of energetic system (it includes organs of breath) “blowed out” and strengthened with the help of resonator (cavity).

Ovoz modulyatsiyasi – (lotincha *modulatio* – salmoqli so'zidan) ovoz balandligining o'zgarishi. O.m. intonatsiyaga bog'liqdir. Eshitis muammosida O.m. buzilgan, nutq monoton bo'ladi.

Voice modulation – (from a Latin word *modulation* – considerable, massive) changes the tone of voice. V.m. occurred basing on Intonation. In the aural problem the V.m. distructed, speech occurred monotonely.

Ovoz mutatsiyasi – (lotincha *mutatio* – o'zgarish so'zidan) balog'atga yetish davrida hiqildoqning keskin o'sishi natijasida ovozning o'zgarishi. M. o'g'il bolalarda 14-15 yoshda, qiz bolalarda esa 12-13 yoshda kuzatiladi. Bu vaqt ichida o'g'il bolalarning hiqildog'i 1,5-2 baravar, qiz bolalarniki 1/3 baravar kattalashadi.

Voice mutation - (from a Latin word *mutation* –change) the change of voice in the period of maturity due to the sharp growth of larynx. M. occurred with boys at the age 14-15, with girls 12-13. Within this period, the larynx of boys becomes 1.5-2 times large and the girls' beomes 1/3.

Oynavon xat – optik disgrafiyaning bir turi (qarang: *disgrafiya*). O.x. harf elementlarini o'rniga ko'ra joylashtirishni farqlay olmaslikdan kelib chiqadi. O.x. da chap va o'ng tomonlar chalkashtirilishi natijasida harflar ko'zguda qanday aks etsa, shu kabi yoziladi.

Mirror letter - one of the types of optic dysgraphics (see: dysgraphy). It is appeared because of the misdistinguishing the placement of the elements of letters according to their place. In M.I. the letters are written according to the reflection in the mirror as a result of confusing left and right side.

Oligofreniya – yunoncha *oligos* – kam, oz va *phren* – aql so'zlaridan olingan bo'lib, oligofreniya bola markaziy nerv tizimining ona qomidaligi – homiladagi davrida, tug'ilish jarayonida hamda tug'ilgandan so'ng 3 yoshga to'lguniga qadar bo'lgan davr ichida shikastlanishi, shuningdek, kasallikni boshidan kechirishi natijasida yuzaga keladi. Ba'zi hollarda, turli sabablarga ko'ra, aqliy rivojlanishdagi muammoning bolalarda 3 yoshdan keyin ham sodir bo'lishi kuzatiladi. Bunday muammo «demensiya» deb nomlanadi. Demensiya oligofreniyadan tabiatan kuchayib borishi bilan farq qiladi. Oligofreniyada esa muammoning kuchayib borishi kuzatilmaydi.

Aqliy rivojlanishdagi muammoning chuqurligiga ko'ra oligofreniya uch darajaga ajratiladi: *debillik, imbetsillik va idiotlik* (qarang: *debillik, imbetsillik, idiotlik*).

Oligophrenia - taken from the Greek words *oligos* – *little, few* and *phren* – *mind, intellect*. Oligophrenia occurred due to the injury of the central nerve system of a child while in mother's belly – in the period of pregnancy, in the process of birth and in the period up to the 3 years old, and during the period of getting illness (disease). Sometimes, because of the vary reasons the occurrence of the problems related to the mind development of children to be observed after their 3 years old. Such kind of problem called "dementia". Dementia is an illness that affects the brain and memory, and makes you gradually lose the ability to think and behave normally. In oligophrenia the increase of the problem does not observed.

According to the deepest of the problems oligophrenia devided into three degrees: *subnormal, imbesil, cratin (idiot)* (see: *subnormal, imbesil, cratin (idiot)*)

Oligofrenopedagog – aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya beruvchi defektolog-o'qituvchi.

Oligophreniapedagog – defectolog-teacher who educates and teaches the children with the problems of mental development.

Oligofrenopedagogika – aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi korreksiya pedagogikasining bir tarmog'i (qarang: *korreksiya pedagogikasi*).

Oligophrenopedagogics – a brunch of Correction Pedagogy that deals with the issues on educating children who have problems with mental development. (see: *correction pedagogy*).

Oliy nerv faoliyati – Bosh miya yarim sharlarining yaxlit organizm bilan tashqi muhit o'rtasidagi o'zaro murakkab munosabatlarni ta'minlab turuvchi psixik-fiziologik funksiyalar yig'indisi; psixikaning moddiy-ilmiy asosi. O. n. f. haqidagi ilmiy ta'limot fanga ilk bor I. P. Pavlov tomonidan kiritilgan.

The function of central nerve – The total psycho-physiological function of the right and left hemisphere of the brain provided the co-relations between the outer environment and the whole organism; the material-scientific basics of psychology. For the first time the scientific term about function of central nerve was founded by I.P. Pavlov and put in as a subject.

Ontogenez – individning tug'ilganidan boshlab, hayotining oxiriga qadar rivojlanishi.

Ontogenesis – the development of the individ (creature) from its birth to the end of its life.

Ortodontiya – (yunoncha *orthos* – to'g'ri, *odus, odontos* – tish so'zlaridan) meditsina fanining jag' skeleti va tishlarning tuzilishidagi buzilishning oldini olish va davolash masalalari bilan shug'ullanuvchi bo'limi. O. da turli asboblardan, maxsus moslamalarni ishlatish orqali noto'g'ri o'sayotgan tishlarni, jag'larni tuzatish ko'zda tutiladi.

Orthodontia – (from the Greek words *orthos* - straight, *odus, odontos* – tooth, teeth) – the unit of the subject of medicine which is dealt with the treatment and preventing the distraction of the teeth structure and skeleton of jaw. In O. by using different types of tools, special instruments to be treated the injured teeth and a jaw.

Orfografiyaning fonetik tamoyili – so'zdaagi tovushlar qanday jaranglasa, yozuvda ham ularni xuddi shunday aks ettirishga asoslangan tamoyil, u orfografik qoidalarni bilishga asoslanmagan.

Phonetic principles of Orphography – the principle based on the reflection of the words in written form as the same how they pronounced. It is not based on following the rules of orphography.

Orfografiyani egallashga bo'lgan fiziologik tayyorlik – yozish ko'nikmasini shakllantirish va «qo'llab-quvvatlash» da ishtirok etadigan analizatorlarning saqlanganlik darajasi.

Physiological preparation for acquisition of orphography - the level of analyzers which are used for formulating and developing writing skills.

Orfografiyani egallashga bo'lgan funksional tayyorlik – nutqsiz psixik funksiyalar deb ataladigan hamda savodli yozuv ko'nikmalarining to'liq shakllanishini ta'minlaydigan alohida oliy psixik funksiyalar (qisqa muddatli

mexanik xotira, soʻz-mantiqiy xotira, koʻrishdagi diqqat, optik-fazoviy tasavvurlar, eshitish-motor va harakat-motor koordinatsiyalar)ning muayyan darajasi.

Functional preparation for acquisition of orthography - the psychological functions (like short-term mechanical memory, logical-word memory, attention in sight, optical-space imaginations, coordination of aural-motor and action-motor) provided complete formulation of good writing skills called speechless psychological functions.

Orfografiya koʻnikmalarini egallashga boʻlgan operatsional tayyorlik – orfografik xatti-harakatlarni taʼminlaydigan til operatsiyalarining holati boʻlib, bunday xatti-harakatlarga fonematik tahlil, morfema tahlili, soʻz yasalishi, soʻz oʻzgarishi, til birliklari (tovushlar, soʻzlar, soʻz birikmalari, gaplar)ning qiyosi kiradi.

Operational preparation for acquisition of orthographic skills - it is an operational state of language provided orthographic actions. Such kind of actions include phonetic analysis, morphemic analysis, word shakllon, word change, language units (sounds, words, word phrases, sentences).

Ogʻzaki-nutqiy tayyorlik – ogʻzaki nutq tarkibidagi tuzilmaviy komponentlar (fonetik-fonematik va leksik-grammatik tizim) rivojlanishining muayyan holati (darajasi).

Oral-speech preparation – the certain developmental level of the structural components (phonetic-phonemic and lexical-grammatic system) of oral speech.

Otolaringologiya – tibbiyotning quloq, tomoq, burun kasalliklarining etiologiyasi, patologiyasi, tashxis qilinishi, davolash va profilaktika qilish masalalarini oʻrganuvchi tarmogʻi.

Otolaryngology – a branch of medicine studied the issues making prophylaxis, diagnosis and treatment for pathology, aetiology (causation) of diseases related with ear, throat and nose.

Ogʻzaki nutq – talaffuz etiladigan va eshitish orqali idrok etiladigan (qabul qilinadigan) tashqi nutq. Ogʻzaki nutq dialogik va monologik turlarga boʻlinadi.

Oral speech – outer speech perceived through hearing and pronouncing. Oral speech divided into monological and dialogical speech.

P

Paraleksiya – (yunoncha *rara* – oldida, yonida, *lyego* – oʻqiyman soʻzlaridan) oʻqishning buzilishi. P. tovushlarni bir-biri bilan almashtirish, ulardan boʻgʻin, boʻgʻinlardan soʻz tuzib oʻqish qobiliyatining buzilishi bilan xarakterlanadi. P. ikki turga: *verbal* P. ga va *literal* P. ga boʻlinadi. Literal P. da soʻzlardagi tovushlar va boʻgʻinlar tushirib qoldiriladi yoki oʻrni almashtiriladi. Verbal P. da oʻqilayotgan soʻzlar boshqa soʻzlar bilan almashtiriladi. P. aliyada va afaziyada kuzatiladi (qarang: *alaliya*, *afaziya*).

Paralexia – (from the Greek words *para* – in front of, at, *lego* – read) destruction of reading. Paralexia characterized by the destruction the ability of reading from making words by syllable, confusing letter from one to another. Paralexia divided into two parts: *verbal P* and *letteral P*. In letteral P dropped or replaced from one to another sounds and syllable in the words. In Verbal P the reading words replaced with the others. P observed in the process of alalia and aphasia. (see: *alalia and aphasia*).

Paralingvistika – ovoznig vokal imkoniyatlari.

Paralinguistics - the vocal opportunity of voice.

Parakappatsizm – til orqa va chuqur til orqa tovushlarini boshqa tovushlarga almashtirish (masalan: koptok - toptot, gul- dul, xat - tat). P. logopedik mashg'ulotlar orqali bartaraf etiladi (qarang: *kappatsizm*).

Parakappatsizm - replace the Uzbek velar and glottal sounds by the other sounds (For example: koptok-toptot, gul-dul). P. eliminated through logopedic trainings. (see: *Kappatsizm*)

Paralambdatsizm – L tovushining r, v, u, n va boshqa tovushlarga almashtirib talaffuz etilishi (masalan: lagan - ragan, Salima - Savima, lampa - gampa, uampa). P. maxsus logopedik usullar yordamida bartaraf etiladi.

Paralambdoids – pronunciation of the Uzbek letter “L” replacing with the Uzbek letters “r”, “v”, “y”, “n” and others. (For example: lagan-ragan, Salima – Savima, lampa – rampa, yampa). P. eliminated through special logopedic techniques.

Pararotatsizm – pararotatsizm (qarang: *rotatsizm*).

Pararotation – pararotation (see: *rotation*).

Parafaziya – (yunoncha *rara* – oldida, yonida, *rhasis* – nutq so'zlaridan) ayrim tovush, so'zlarni noto'g'ri qo'llashga asoslangan nutqiy muammo. P. ning ikki turi mavjud: literal va verbal P. Literal P. so'zlardagi ayrim tovushlarning va bo'g'inlarning o'rini almashtirish bilan xarakterlanadi. Verbal P. da bir so'z tovush tizimi jihatidan o'xshash so'zga almashtiriladi. P. afaziya nutq kamchiliklarida kuzatiladi (qarang: *afaziya*).

Paraphasia – (from a Greek word *para*-in front of, *phasis* – speech) speech problem occurred by using some sounds, words wrong. There are two types of P.: *verbal P* and *letteral P*. In letteral P dropped or replaced from one to another sounds and syllable in the words. In Verbal P the reading words replaced with the others. P observed in the process of aphasia. (see: *aphasia*).

Parez – falajlikning yengil turi.

Paresis - the light form of paralysis.

Paronim so'zlar – bir tovush bilan bir-biridan farq qiluvchi so'zlar (pol - bol, sim - shim, tol - tor, ko'l - mo'l).

Paronym words – The words distinguished in Uzbek language with one sound. (pol-bol, sim-shim, tol-tor, ko'l-mo'l).

Patogenez – (yunoncha *rathos* – azoblanish, *genesis* – kelib chiqish soʻzlaridan) xastalikning kelib chiqishi va rivojlanishi sabablarini oʻrganuvchi patologiyaning boʻlimi.

Pathogenesis – (formed from the Greek word *pathos* – harm, pain, *genesis* – origin) the unit of pathology studied the origin and development of disease.

Patologiya – (yunoncha *rathos* – azoblanish, *logos* – taʼlimot soʻzlaridan) xastalik jarayonlarini va holatlarini oʻrganuvchi fan.

Pathology – (from the Greek words *pathos* – harm, pain, *logos* – subject, education) the subject studied the process and state of the disease.

Pedagogik tavsifnoma – oʻquvchi (tarbiyalanuvchi)ning oʻzlashtirishi, qiziqishlari, jismoniy va aqliy rivojlanishini aks ettiruvchi hujjat. Aqliy yoki jismoniy rivojlanishida muammosi boʻlgan bolalarga beriladigan pedagogik tavsifnomada ularning rivojlanishidagi xususiyatlar bilan bir qatorda ijobiy rivojlanish tomonlari ham koʻrsatiladi.

Pedagogical Reference - a document reflected about the student's acquisition, interest, mental and physical development. The reference given to the children who had a problem with their mental and physical development together specific features depicted positive sides of their development.

Pedagogik qarovsizlik – bola xulqining meʼyordagi rivojlanishdan chetlashishi. P. q. taʼlim va tarbiyaning yoʻlga qoʻyilmaganligi bilan bogʻliq. P. q. bolani oilada notoʻgʻri tarbiyalash, maktabdan maktabga koʻchirish va oʻqituvchilarning tez-tez almashib turishi, maktabga muntazam qatnamaslik, oʻqituvchining ulgurmovchi bolalarga eʼtiborsizligidan kelib chiqishi mumkin.

Pedagogical uncaredness – leave behind the child's behavior from normal development. P.u. related with ill set form of education. P.u. originated by child's ill education in the family, moving from school to school, often replacement of teachers, missing classes and inattentiveness of teachers to the passive students.

Polisensor yondashuv – aqliy yoki jismoniy rivojlanishdagi muammolarni bartaraf etishda uchdan ziyod sogʻlom analizatorlar faoliyatiga tayangan holda ish koʻrish.

Polysensor approach - targeting more than three healthy analysers activity for eliminating the problems with mental and physical development.

Postnatal – tugʻuruqdan keyingi davrga oid.

Post-natal – after the birth period.

Prenatal – tugʻuruqdan oldingi davrga oid.

Pre-natal – before the birth period

Propedevtika – zamin hozirlash, tayyorlash.

Propaedeutics - preparation, prevention

Propedevtik taʼlim – rivojlanishida muammosi boʻlgan bolalarda bilishga boʻlgan qiziqishlarini uygʻotish va oʻquv fanlarini oʻrganishga tayyorlashga qaratilgan mashgʻulotlar tizimi.

Propaedeutic education – the system of lessons targeted to preparation of children who had problems with development for learning school subjects and awaken their interest for learning.

Profilaktika – yunoncha *prophylaktikos* – saqlash, oldini olish soʻzidan olingan boʻlib, maxsus taʼlim tizimida aqliy va jismoniy muammolar va ularning oqibatlarini oldini olish chora-tadbirlari majmui tushuniladi.

Prophylaxis - taken from a Greek word *prophylaktikos* – take care, prevent, means the complex action for preventing the mental and physical development problems and their negative results in the field of special education.

Psixik funksiyalar – miyaning turli idrok etish faoliyati: sezish, idrok, xotira, tafakkur va h.k.

Psychological functions – the different perceiving function of brain: feeling, perceiving, memory, cognition and etc.

Psixik rivojlanishning orqada qolishi – qarang: *ruhiy (psixik) rivojlanishi sustlashgan bolalar*.

Leave behind of psychological development - see: children with weak spiritual(psychological) development.

Perseveratsiya (lotincha *persevero* – qatʼiy turaman soʻzlaridan) – ayni bir soʻz, iboralarni qayta-qayta takrorlash. P. oʻqish, yozishda va baʼzi bir afaziya kamchiliklarida ham kuzatiladi.

Perseveration (from a Latin word *persevere* – precision) –continuously repeat one word, phrase again and again.

Praksis – bexosdan, erkin ravishda, maqsadlarni amalga oshiradigan odatiy harakatlar.

Precise (Praccis) – typical attempts targeted to accomplishing the aims by a sudden and free way.

Prikus – yuqori va pastki jagʼlarning jipslashuvida tishlarning holati.

Pricks - the level of teeth in the pricks of upper and lower jaws.



Progeniya – (yunoncha *pro* – oldinda, *gepeio* – dahan soʻzlaridan) pastki jagʼning oldinga turtib chiqish va jagʼlarni biriktirganda tishlarning bir-biriga tegmasligi. P. da asosan sigmatizm kamchiligi kuzatiladi (qarang: *sigmatizm*).

Progeny – (from Greek words *pro* – in front of, *geneion* – mouth) push up the lower jaw and while clenching the teeth are not touch each others. In P. mainly observed the lack of sygmatism. (see: sygmatism)

Prognatiya – (yunoncha *pro* – oldinga, *gnathos* – jagʻ soʻzlaridan) yuqori jagʻning oldinga keskin turtib chiqishi va jagʻlarni biriktirganda tishlarning bir-biriga tegmasligi. P. da ham asosan sigmatizm kuzatiladi (qarang: *sigmatizm*).

Prognaty – (taken from Greek words *pro* – in front of, *gnathos* – jaw). push up the upper jaw and while clenching the teeth are not touch each others. In P. mainly observed the lack of sygmatism. (see: sygmatism)

Prosodika – nutqning ohang-urgʻu tomoni.

Prosodycs - Tuning-stress level of speech.

Pseudogolos – (yunoncha *rseudos* – yolgʻon, sunʻiy soʻzidan) hiqildoqni olib tashlash natijasida (koʻpincha saraton kasalligidan soʻng) hosil boʻlgan ovoz; oshqozon va qiziloʻngachning tebranishidan hosil boʻlgan sunʻiy ovoz.

Pseudo voice – (from the Greek word – lie, unnatural) the voice formed as a result of removing the larynx (mostly after the cancer); the unnatural voice formed by the vibration of stomach and larynx.

Psixoterapiya – (yunoncha *psyche* – jon, *therapea* – davolash soʻzlaridan) bemorlarga psixik taʼsir koʻrsatish yordamida davolash. Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammosi boʻlgan bolalar taʼlim-tarbiyasi jarayonida baʼzan P. ning tushuntirish, ishontrish, gipnoz koʻrinishlaridan foydalaniladi.

Psychotherapy – (from Greek words *psyche* – soul, heart, *therapea* – treatment) treating patients with the help of psychological impact. In the educational process of the children who have problems with physical and mental development sometimes used the techniques of P. as explanation, persuasion, hypnosis.

R

Reabilitatsiya – kasal yoki rivojlanishida muammosi boʻlgan shaxslar organizmi buzilgan funksiyalarining hamda mehnatga boʻlgan layoqatlarining tiklanishi yoki kompensatsiyalanishi. R. tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy tadbirlar majmuasi asosida taʼminlanadi hamda shaxsning ruhiy va jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy sharoitga moslashuvi, ijtimoiy hayot va mehnatga layoqatini nazarda tutadi.

Rehabilitation – compencation or rebuilding someone's ability of labour and helping him to live a healthy, useful, or active life again after they have been seriously ill or have aproblem with development. R. provided basing on the complex events as medical, psychological, pedagogic, social and targeted at people's adaptation to the social life taking into consideration their spiritual and physical ability, their working capability.

Respublika taʼlim markazi qoshidagi maxsus taʼlim boʻlimi – Respublikamizda mavjud maxsus taʼlim muassasalari uchun oʻquv rejalari, dasturlari, oʻquv-meʼyoriy, oʻquv va oʻquv-metodik hujjatlarni, qoʻllanma va boshqalarni ishlab chiqadi; ilgʻor pedagogik tajribalarni oʻrganadi, umumlashtiradi, pedagog xodimlarga metodik yordam koʻrsatadi, ularni zaruriy adabiyotlar bilan taʼminlaydi.

The Department of Special Education under the Republican Education Center – responsible for designing and developing curricula, syllabi, teaching and methodological Normative-educational documents, manuals and others for special educational institutions; study advanced pedagogical experience, generalize, methodologically support teachers and provide them necessary books and manuals.

Refleksiya – qayta aks ettirish (lotincha *reflection* – aks ettirish yoki orqaga nazar tashlash soʻzidan) – intellektual faoliyatning koʻrinishlaridan biri boʻlib, fikr yuritish va mulohaza qilish yoki avvalgi tajribalarga suyangan holda aloqa qilish va tahlil qilishga qaratilgan.

Reflection – (from a Latin word *reflection* – reflected or glance at (back) behind – it is one of the view of intellectual activities aimed at analyzing, careful thought, or an idea or opinion based on this: something that shows what something else is like, or that is a sign of a particular situation. Its success mostly related to clear and certain goal.

Retsidiv – bartaraf etilgan kasallik yoki korrektsiyalangan muammolarning qaytalanishi (masalan: duduqlanishning qaytalanishi va h.).

Relapse - to become ill again after someone has seemed to improve. (for example, relapse of stammering and etc.)

Retsipiyent – axborotdan foydalanuvchi.

Recipient - someone who receives something or user fo inshakltion.

Rivojlantirish – tarbiyalanuvchining organizmi va ongida sodir boʻluvchi miqdor va sifat oʻzgarishlarining jarayoni.

Development – the process of amount and quality changes that occurred in the mind and organism of the pupils.

Ritmika – (yunoncha *rhythmikos* – tekis, bir meʼyordagi soʻzlaridan) Harakatning musiqa bilan bogʻlanishi asosida tuzilgan til mashqlari tizimi. R. yordamida nutqiy muammolar bartaraf etiladi, nutqning ravon boʻlishiga erishiladi. Eshitishida muammosi boʻlgan bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida ham ritmik mashqlar tizimi muhim oʻrin egallaydi.

Rhythmics – (from a Greek word *rhythmikos* - flat, same measure, norms). The system of language exercises made basing on the connection of the action with music. Through rhythmics eliminated the problems in speech, achieved fluence of speech. In the process of developing the speech of children with aural problems, the system of rhythmic exercises play an important role.

Ritorika – uygʻun, ravon nutq nazariyasi va mahorati.

Rhetoric - the art of speaking or writing skill to persuade or influence people

Rotatsizm – (ro – «r») harfining yunoncha nomlanishi) R tovushini notoʻgʻri talaffuz etish. Dislaliyaning ogʻir turi (qarang: *dislaliya*). Pararotatsizmda R tovushi boshqa: l, y, v, d, n, g tovushlariga almashtiriladi. (Masalan: randa - landa, yanda, vanda, danda.) R. maxsus logopedik usullar yordamida bartaraf etiladi.

Rhotacism – (the name of the letter “r” – “ro” in Greek). Wrong pronunciation of the letter “r”. A strong form of dislalia. (see: *dislalia*). In pararhotacism the sound “r” confused with the sounds like l, y, v, d, n, g. (For example in Uzbek: randa – landa, yanda, vanda, danda). R. eliminated by special logopedic techniques.

Ruhiy (psixik) rivojlanish – inson hayotining turli bosqichlarida bilish faoliyati va shaxsiy xislatlarining shakllanishi va takomillashuvi.

Spiritual (psychologic) development – formulation and development of personality and cognitive skills of people different stages of his life.

Ruhiy (psixik) rivojlanishi sustlashgan bolalar – me'yordagi ruhiy (psixik) rivojlanish sur'atining buzilishi. Ruhiy (psixik) rivojlanishi sustlashgan (RRS) bolalar maktab sharoitiga ko'nikolmay, o'quv faoliyatga kirisholmaydilar, topshiriqlarni bajarolmaydilar. Lekin ushbu toifa bolalari ko'pincha aqli zaif bolalar bilan yanglishtirib yuborilsada, ulardan farqli ravishda nutqlarining nisbatan yaxshi rivojlanganligi, she'r va ertaklarni eslab qolish darajasining yuqoriroq ekanliklari, shuningdek faoliyat jarayonida ko'rsatilgan yordamdan foydalana olishlari bilan ajralib turadilar.

The children with weak spiritual (psychologic) development – destruction of the temp of normal spiritual (psychological) development. Children with weak spiritual (psychological) development (WSD) can't apt to school condition, can't adapt to the learning process, can't do tasks. Although confusing such type of children by subnormal ones, contrastly they distinguished from them with their level of remembering fairy-tails, poems, more developed speech and the ability of using support taken in the process of doing something. The positive factor for developing such type of children lately is the definite diagnosis and appropriate teaching approach.

S

Sanatoriya turidagi maktab-internat – sog'lig'ida turli muammolari bo'lgan bolalar sog'lig'ini tiklash va profilaktikalash hamda ta'lim-tarbiyasini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ta'lim muassasasi.

Sanatorium type of boarding school – Educational institution deals with implementing educational objectives, rehabilitation and prophylactics of the children who have different problems in their health.

Senzitiv davr – lotincha *sensibilitas* – sezgirlik so'zidan olingan bo'lib, bolaning u yoki bu faoliyat turini egallashi, ma'lum bir ruhiy funksiyalarning shakllanishi uchun eng qulay sanaluvchi davr. Ya'ni organizmning borliqdagi muayyan ta'sirlarga bo'lgan yuksak sezgirligi, ontogenetik rivojlanish, fiziologik jarayonlarining taraqqiy etishidagi eng maqbul davr. Ilk bor M.Montesorri tomonidan bolaning ruhiy kamolotida muhim ahamiyat kasb etuvchi maktabgacha davrni nomlash uchun qo'llanilgan.

Sensibility period – taken from a Latin word *sensibilitas* – feelingness, is a convenient period for formulation of spiritual functions and acquisition of some

type of activities of a child. That is the most suitable period of developing the highest feeling of the organism the influence of surroundings, ontogenetic development and the development of the physiological process. For the first time it was used by M. Montessori for entitling pre-school period which played very important role in the process of spiritual growth of child.

Sensor – lotincha *sensus* – sezgi, tuyg‘u, hissiyot ma‘nosini anglatadi.

Sensor – from a Latin word *sensus* - means feeling, sense.

Sensor andoza (etalon)lar – insoniyat tomonidan ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida o‘zlashtirilgan atrof-muhitdagi predmet va hodisalarning sifatлари. Sensor andoza (etalon)lar bolalar tomonidan o‘zlashtirilib, obyektlarni o‘rganish jarayonida namuna sifatida qo‘llaniladi.

Model of sensors (prototype) – the characteristics of the things and phenomenon in life obtained by people in the social-historical, practical process. Model of sensors(prototype) to be obtained by children, used as a sample in the process of studying objects.

Sensor deprivatsiya – atrof muhit bilan bog‘lanishning cheklanishi yoki sezgi organlari faoliyatining buzilishi oqibatida axborotlarning yetishmovchiligi.

Sensory deprivation - the lack of something relating to or using your senses of sight, hearing, smell, taste, or touch that you need in order to be healthy, comfortable, or happy.

Sensor tarbiya – hissiyotni shakllantirish, ya‘ni atrof olamni ko‘rish, eshitish, his qilish, paypaslash orqali idrok etishni tarbiyalash.

Sensory Education – Education for formulating feelings, seeing, hearing of surroundings through touching, palpating.

Segregatsiya – ajratish, alohidalash ma‘nosini anglatadi. Ta‘limda alohida e‘tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarni maxsus ta‘lim asosida, ya‘ni me‘yorda rivojlanayotgan bolalardan ajratilgan holda ta‘lim-tarbiyalash ma‘nosini bildiradi.

Segregation – means separate, individualize. Teaching, educating a group of children separately from others, especially who need special attention basing on special education.

Sigmatizm – «s» harfining yunoncha *sigma* nomidan olingan bo‘lib, s, z, sh, ch, j tovushlarini noto‘g‘ri talaffuz qilish; dislaliyaning bir turi (qarang: *dislaliya*).

Sygmatism - taken from the Greek name of the letter “c” - *sigma*, means wrong pronunciation of the Uzbek sounds s, z, ts, sh, ch, j (g); a type of dislalia. (see: *dislalia*)

Simptom – yunoncha *symptom* so‘zidan olingan bo‘lib, hodisa, xastalik belgilari ma‘nosini anglatadi.

Symptom – taken from a Greek word *symptom*, means phenomenon, a sign of particular illness.

Simptomokompleks – simptomlar majmuasi; xastalikka xos bo'lgan simptomlar yig'indisi.

Symptomo-complex – a set of symptoms; complex of symptoms related with illness.

Sinergiya – murakkab majmuaviy (kompleks) harakat.

Synergy – complicated complex action.

Sinkeziya – birgalikdagi harakat.

Syncesia – unity(unique) action

Skolios – umurtqa pog'onasining qiyshiqliqi. Umurtqa – inson tanasi (jasadi)ning tayanchi, bosh og'irligini ko'tarib turuvchi va umuman harakatlanishning eng asosiy manbaidir. Sog'lom umurtqa inson uzoq hayotining garovi sanaladi.

Scoliosis – Sidelongs of the backbone (spine). The spine is the row of bones down the centre of your back that supports your body and protects your spinal cord. Healthy spine is a guaretee of people's long life. There are two types of scoliosis: inborn or external according to its background.

Spontan nutq – o'z-o'zidan tashqi ta'sirsiz vujudga keladigan nutq turi.

Spontaneous speech – the type of speech that is suddenly appeared, has not been planned or organized, but happens by itself.

Surdologik xona (kabinet) va markazlar – viloyat va shahar shifoxonalari qoshida tashkil etilgan eshitish qobiliyati buzilgan bolalar va kattalar uchun maxsus xonalar va markazlar. Mazkur muassasalar mutaxassislarining faoliyati tashxis qo'yish, davolash, profilaktika chora-tadbirlari, shuningdek, kar va zaif eshituvchi shaxslarning dispanser hisobotlari hamda ularni ovoz kuchaytirgich asboblari bilan ta'minlash masalalarini hal qilishga qaratiladi.

A room and centers of Surdology – special room or centers organized under the policlinics or hospitals deal with the service for the people who have problems with their hearing ability. The main activities of these institutions are treatment, diagnosis, prophylactic measures and providing with the tools for people who have problems with their hearing.

Surdopedagog – (lotincha *surdus* – kar, *raideia*– o'rgatish, tarbiyalash so'zlaridan) Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi pedagog.

Surdopedagog – (from Latin words *surdus* – deaf, *paideia* – teaching, educating). A teacher deals with teaching the pupils who have aural problems.

Surdopedagogika – lotincha *surdus* (kar ma'nosini anglatadi) so'zidan olingan bo'lib, eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar ta'lim va tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi korreksiya pedagogikasining bir tarmog'i (qarang: *korreksiya pedagogikasi*).

Surdopedagogy – taken from a Latin word *surdus* (means deaf) is a branch of Correction Pedagogy deals with teaching and educating children with the aural problems. (see: correction pedagogy)

Surdotexnik vositalar – eshitish muammosi va uning oqibatida kelib chiquvchi nutq buzilishlarini korreksiyalash va kompensatsiyalash uchun qo'llanuvchi texnik vositalar (qarang: *korreksiya, kompensatsiya*).

Surdotechnical tools – technical tools used for correction and compensation the speech destruction occurred because of the results of the aural problems. (see: correction, compensation).

Surdotiflopedagogika – ham eshitishi, ham ko'rishida muammosi bo'lgan murakkab muammoli shaxslar (qarang: *ko'z ojiz-kar-soqov bolalar*) ta'lim-tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi korreksiya pedagogikasining bir tarmog'i (qarang: *korreksiya pedagogikasi*).

Surdo-tiphlopedagogy – a branch of the subject Correction Pedagogy (see: Correction Pedagogy) deals with the educational issues of the people with the complex problems as both aural and sight. (see: blind-deaf and dumb children).

Suhbat – ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidagi o'zaro so'zlashuv, savol-javob jarayoni. Korreksiya pedagogikasida bolalar rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda qo'llanadigan metodlardan biri. S. tekshiruvchi va tekshiriluvchi (aqliy yoki jismoniy rivojlanishida muammosi bo'lgan bola) o'rtasida savol-javob tariqasida o'tadi.

Conversation – the process of talking in which people exchange news, feelings, and thoughts with each other. One of the techniques (methods) used in Correction Pedagogy, aiming at defining the developmental problems of children and the ways of how to eliminate them.

C. delivered between examiner and examinee (a child with mental or physical problems) through questioning.

T

Takroriy nutq – biror-bir kishi tomonidan aytilgan so'z va gaplarni ketma-ket takrorlash.

Repeated speech – to repeat the words and sentences after the person who uttered.

Tanglay yoriqlari – embrion rivojlanib kelayotgan paytda turli sabablarga ko'ra (homilaning oziq bilan ta'minlanishining buzilishi, toksoplazmoz, psixik travmalar) periferik nutq apparatining rivojlanmay qolganligi natijasida paydo bo'ladigan muammo.

Cleft palate – a split in the top of the inside of someone's mouth, that they are born with and that makes it difficult for them to speak clearly

Tarbiya – shaxsni shakllantirishni nazarda tutuvchi maxsus tashkil etilgan maqsadga yo'naltirilgan jarayon.

Education – the special process of teaching and learning directed to the purpose of formulating the person, delivered usually at school, college, or university

Taxilaliya – nutq sur'atining tezligi (yunoncha *tashus* – tez, *lalia* – nutq so'zlaridan olingan). T. da nutqning boshqa barcha tarkibiy tuzilmalari

(komponentlari) saqlangan bo'ladi. T. logopedik mashg'ulotlar orqali bartaraf etiladi.

Taxilalia – the speed of speech (taken from Greek words *tachys* – speed, *lalia* - speech). In T. the other components of the speech kept. T eliminates through logopedical activities.

Tashqi nutq – fikr va his-tuyg'ularni til vositasi orqali o'zgalarga bayon qilish jarayonidan iborat bo'lgan nutq turi bo'lib, uning og'zaki va yozma shakllari mavjud.

Outer Direct)speech – a type of speech reported using the actual words for expressing ideas, emotions by means of language. There are oral and written form of speech.

Ta'lim – o'qitishning mahsuli bo'lib, o'qitish jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalar va tafakkur usullarining tizimi.

Education (Knowledge) – the system of the inshakltion, comprehension, skills and understanding that people have gained through learning or experience.

Ta'limda ko'rgazmalilik – didaktika tamoyil (prinsip) laridan biri. Ko'rgazmalilik o'quv materialini puxta va chuqur o'zlashtirishga, o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirishga, ularning tafakkuri va kuzatuvchanligini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Demonstration in Education - one of the principles of didactics. The method of demonstration help pupils to acquire learning materials perfectly and deeply, widening the scope of knowledge and develop their cognitive thinking and observation skills.

Ta'lim-tarbiyada individual yondashuv – pedagogik amaliyotda har bir shaxsning rivojlanish xususiyati, aqli, madaniy saviyasi va bilim darajasi, individual xususiyatlarini hisobga olgan holda munosabatda bo'lish tamoyili. Bu tamoyil aqliy yoki jismoniy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega.

Individual approach in Education – the principles of addressing to the children taking into consideration their cognitive thinking and development, level of knowledge, cultural awareness and individual features. It's very important using this principle in the process of teaching children with mental and physical problems.

Taqlid qilish – biror shaxsning xatti-harakatini ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda takrorlash. Maxsus ta'lim-tarbiya jarayonida keng qo'llanuvchi ish usullaridan birini tashkil qiladi. Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ta'lim jarayonida pedagogga taqlid qilishlari asosida ma'lum ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

Do imitation - copy the way someone speaks or behaves willingly or unwillingly. It is one of the widely used technique in the process of special education. In the process of Education for children with developmental problems, gain a certain knowledge, comprehension and skill through imitation.

Tetizm – «t» harfining yunoncha – *teta* nomidan olingan bo'lib, bir qancha undosh tovushlarning T tovushiga almashtirilishi bilan xarakterlanuvchi nutqiy rivojlanish muammosi. T. nutqiy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarda, alaliyada, zaif eshituvchilikda kuzatiladi.

Tetisim – taken from a Greek word *teta* - the name of the letter “T” characterized with confusing the letter “T” by several consonant letters. T. observed with the children who have speech problem, alalia and deafness. It is eliminated through logopedic activities.

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya (TPPK) – aqliy yoki jismoniy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni har tomonlama tadqiq qilish natijasida o'zlariga mos ta'lim turiga yo'naltiruvchi mutaxassislardan tashkil topgan komissi Y. TPPK o'z tarkibida turli mutaxassislar: psixonevrolog, otolarinolog, oligofrenopedagog, surdopedagog, logoped, tiflopedagoglar faoliyat ko'rsatadilar.

Medical-psychological-pedagogic commission (MPPC) – a board consists of leading specialists in the field of studying the specifics of the children with mental and physical problems. Basing on the results of analysis, they can recommend children appropriate Educational institutions. In the board of MPPC included different type of specialists as psycho-nevruologist, otolaryngologist, oligophrenie-pedagog, surdopedagog, speech therapist and tiflopedagog.

Til – odam va umurtqali hayvonlar og'iz bo'shlig'idagi mushakli organ. Ovqatni chaynash, yutish va gapirishda qatnashadi. T. uch qismdan iborat: tor qismi – til uchi, birmuncha keng va qalinroq qismi – til negizi (ildizi), bu ikki qism o'rtasi esa til tanasidir.

Tongue - the soft part inside person's and animal's mouth that one can move about and use for eating and speaking. T. consists of three parts: narrow part – top of the tongue, a bit lager and denser part – the basis (root), and the middle of these two parts is the body of the tongue. The main part of the tongue consists of real and skeleton muscles.

Til – insonlar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, jamiyat a'zolarining bir-biri bilan fikr almashishiga xizmat qiladi.

Language - a system of communication by written or spoken words, which is used by the people of a particular country or area.

Til osti nervi – bosh miya nervlarining 12-jufti, til mushaklarini inervatsiyalaydigan harakatlantiruvchi nerv. T. o. n. zararlanganda, tilning yarmi falajlanadi va nutqiy muammolar kuzatiladi.

Nerve under the tongue - the 12th pair of the central brain nerves. It is a nerve help the enervated action of the tongue muscles. The hurt of the nerve under the tongue, half part of the tongue got injured, paralyzed and observed speech problems.

Til yuganchasining (til ostini og'iz ichiga tutashtiruvchi etning) kaltaligi – tug'ma muammo. Til harakati chegaralangan bo'lib, til oldi

tovushlarining (t, d, l, r) talaffuzi buziladi. Til tagidagi et haddan tashqari kalta bo'lsa, bu kamchilik jarrohlik yo'li bilan bartaraf etiladi yoki til maxsus logopedik mashqlar bilan harakatga keltiriladi.

Shortage of tongue bridle (connector under the tongue with inside of mouth) – inborn problem. The action of the tongue is limited and it caused to destruction of the pronunciation of the sounds (in Uzbek t,d,l,r) occurred in front tongue.

Tiflopedagog – ko'rishida muammolari bo'lgan (ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi) bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi o'qituvchi.

Typhlopedagog – a teacher deals with teaching and educating children with eyesight problems.

Tiflopedagogika – yunoncha *typhlos* (ko'zi ojiz ma'nosini anglatadi) so'zidan olingan bo'lib, ko'rishida muammolari bo'lgan shaxslar ta'limi, tarbiyasi va o'qitilishi masalalari bilan shug'ullanuvchi korreksiya pedagogikasining bir tarmog'i.

Typhlopedagogy - taken from a Greek word *typhlos* (means *blind*) is a part of Correction Pedagogy deals with teaching and educating the children with the problems of eyesight.

Tovushlar avtomatizatsiyasi – tovushlarni ko'p marta takrorlash yoki maxsus mashqlar qilish natijasida ongsiz ravishda tez va to'g'ri talaffuz etish. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni tuzatishda T. a. muhim o'rin egallaydi.

Sounds automation – as a result of repeating the pronunciation of the sounds several times unconsciously pronouncing the sounds correctly and rapidly. In the process of correcting the defects with the sounds S.a. plays an important role.

Tovush atakasi – ovoz hosil qilish paytida tovush paychalarini harakatga keltirish usuli.

Sound attack – the way of moving the vocal chords in the process of forming the voice.

Tovush balandligi – tovushning chastotasi bilan, ya'ni bir sekundda tebranish miqdori bilan belgilanadigan sifati. Tovushning chastotasi qanchalik ko'p bo'lsa, uning balandligi shunchalik past bo'ladi.

The height of sound – the quality of the sound indicated with the sound frequency and the amount of timbre within a second. The more of the sound frequency, the lower will be its height.

Tovush ustida ishlash sistemasi (tizimi). T. u. i. s. to'rt davrni o'z ichiga oladi: 1-davr – tayyorlov davri bo'lib, uning maqsadi – turli mashqlar yordamida artikulyatsiya organlarini tovushni hosil qilishga tayyorlash. 2-davr – tovushni hosil qilish davri, har bir tovushni hosil qilishga taalluqli bo'lgan usullardan foydalanish. 3-davr – avtomatizatsiya (mustahkamlash) davri. 4-davr – differentsiyalash (farqlash) davri. Uning maqsadi – almashtiriladigan tovushlarni bir-biridan farqlashga o'rgatish.

The system of working at sound – SoWaS – includes four periods: the 1st period – preparation period; with the help of different types of exercises prepare the organs of articulation for forming the sound. The 2nd period – the period of forming (making) the sound, The 3rd period – automate (consolidation) period. The 4th period – differentiation (differing) period.

Tovushlarni qorishtirish – alohida-alohida talaffuz qilinadigan tovushlarning nutqda bir-biri bilan qorishtirilishi (almashtirilishi) ni aks ettiradigan nutqiy muammo (Masalan: S hamda SH tovushlari nutqda bir-biri bilan almashtirilishi mumkin: shapka – sapka).

Mixing (confusing) the sounds – Speech problem reflected confusing the sounds which are demanded to pronounce separately in speech. (For example, the sound “s” confused by the sound “sh”: (in Uzbek) shapka – sapka)

Tovushlarni hosil qilish – qarang: *tovush ustida ishlash*.

Making (forming) the sound - see: working at sounds

Tonik pay tortishish – Muskullarning tarang tortishi natijasida tonik pay tortishish kuzatiladi va uzoq vaqt saqlanib turadi. T. p. t. po'stloq osti hosilalarining qo'zg'atish holatiga xos. T.p.t. duduqlanishda kuzatiladi (qarang: *duduqlanish*).

Tonic tendon attraction - due to the tight attraction of the muscles to be observed tonic tendon attraction and it keeps its position for a long time. To be observed in stammering (see: stammering)

U

Unutish – avval idrok qilingan narsa va hodisalarni zarur paytda esga tushira olmaslikka asoslangan xotira jarayoni. Nutq buzilishining afaziya turida uchraydigan holat (qarang: *afaziya*).

Forgetting – the process of memory based on forgetting necessary things and events when they needed. It is a situation observed in the process of aphasia (see: aphasia).

F

Faoliyat – insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan harakatlari.

Activity - things that people do in order to achieve a particular aim.

Fonasteniya – (yunoncha *rhone* – ovoz, *asthenus* – kuchsiz, darmonsiz so'zlaridan) ovoz apparatida organik o'zgarishlar bo'lmagan holda ovoz hosil qilish funksiyasining buzilishi.

Phonastenia – (from Greek words *phone* – voice, *asthenus* – weak, feeble) the destruction of the voice shaktion function because of the missing organic changes in the voice mechanism.

Fonatsion nafas olish – nutqiy nafas olish, ya'ni ovoz hosil bo'lishida va nutqda ishtirok etuvchi nafas.

Phonate breathing – articulatory breathing, that is the breath participating in speech and the sound (voice) foundation.

Fonatsiya – (yunoncha *rhope* – ovoz, tovush soʻzidan) ovozning hosil boʻlishi. F. da haqiqiy tovush paychalari jipslashgan holda boʻladi.

Phonatsia – (from a Greek word *phone* – sound, voice) foundation (shaklton) of the sound. In Ph. the real vocal chords be tightly.

Fonema – (yunoncha *rhopeta* – miqdor soʻzidan) nutq tovushi. Har bir tilda fonemalarning maʼlum miqdori mavjud. Oʻzbek tilida 29 ta (6 ta unli va 23 ta tovush) fonema mavjud. F. soʻz maʼnosini farqlash uchun xizmat qiluvchi tovush tipidir.

Phoneme – (from a Greek word *phoneme* - amount), the smallest unit of speech that can be used to make one word different from another word. There are certain amount of phonemes in each language. There are 29 (6 vowel and 23 consonant) phonemes in Uzbek language.

Fonematik quvv – nutq tovushlarini eshitish orqali idrok qilish qobiliyati. Ilk davrda sogʻlom bolaning fonematik quvvi rivojlanmagan boʻlib, u soʻzni butunligicha idrok qiladi.

Phonematic skill - the ability of perceiving the speech sounds through hearing. The early stages the phonematic skill of healthy child does not develop and he perceive the whole word.

Fonematik ritmika – talaffuzni shakllantirish va korrektsiyalashga qaratilgan ish turi.

Phonematic rhythemics – the type of activity regarding to formulating and correction of pronunciation.

Fonematik eshituv – til fonema (tovush)larini qabul qilish va tahlilini taʼminlovchi eshituv holati.

Phonematic hearing – the level of hearing provided receiving and analyzing the phonemes of the language.

Funksiyalar lokalizatsiyasi – (lotincha *locus* – oʻrin, mahalliy soʻzidan) fiziologik va psixik funksiyalarning bosh miya yarim sharlar qobigʻidagi muayyan hujayralarning ishi bilan bogʻlanishi.

Localization of the functions – (from a Latin word *locus* - place, local) connection of the physiological and psychological functions with the action of the certain cells in the skin hemisphere of the cerebrum.

Har bir murakkab psixik jarayonning negizida (oʻqish, yozish, hisoblash va h. k.) oʻzaro muvaqqat bogʻlanishlari orqali birlashgan bosh miya qobigʻi tarmoqlari murakkab tizimining birgalikdagi ishi yotadi.

X

Xayol – mavjud tasavvurlarga asoslangan holda yangi obrazlarni yaratishdan iborat boʻlgan jarayon. X. inson hayotida, ayniqsa ijodiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

Imagination - the ability to form pictures or ideas in your mind. Imagination plays an important role in the life of people, especially in the process of creative activity.

Keyloplastika (yunoncha *cheilos* – lab soʻzidan) – lab tirtiqlarini tikish. Bola tugʻilgan kundan boshlab uch oy mobaynida operatsiya qilinadi.

Cheiloplastics – (from a Greek word *cheilos* – lips) – mending the lips scar. Operation made during three month after the child's birth.

Xitizm – (*xi* – «x» harfining yunoncha nomlanishi) X tovushini talaffuz qilolmaslik. X. alohida kamchilik sifatida kamdan-kam holatlarda uchraydi.

Xitism – (the name of the letter “x” – “xu” in Greek). Can not pronounce the letter “X”. X. as a special defect does not meet very often. We can observe it in the destruction of the aural ability.

Xotira – hayotiy tajribalarni esda olib qolish, esda saqlab turish va keyinchalik esga tushirish.

Memory - someone's ability to remember things, places, experiences etc.

Xulq (oʻzini tutish) – tarbiyalanuvchining barcha qilayotgan xatti-harakatlari. Tor doirada olib qaralganda, tarbiyalanuvchi tomonidan belgilangan xulq-atvor meʼyor va qoidalariga amal qilinishi.

Behavior - the things that a person does. Obedience of the pupils to the rules and policy set by the administration of the Educational Institutions.

SH

Shakllantirish – rivojlanishida muammosi boʻlgan bolalarning maxsus tashkil etiluvchi jarayon taʼsiri ostida ijtimoiy meʼyorlarni egallashlari va hayotga tayyorlanishlari.

Shakltion - the process of preparation the children with the developmental problems for the life and gaining social norms under the influence of special organizational process.

Shpatel – (nemischa *spatel* – belcha, kurakcha) plastmassa, yogʻoch yoki metallardan qilingan belchasimon moslama. Logopedik ish jarayonida tovushni hosil qilishda tilni maʼlum holatga keltirish uchun foydalaniladi.

Spatula – (from a german word *spatel* - spatula) – instrument made from metal, plastic or wood like a spatula. Used by the articulatory therapist for the purpose of making up the tongue in particular shape in the process of articulatory therapy.

E

Ekzogen – organizmdan tashqi muhitda yotuvchi sabablarga koʻra yuzaga keluvchi. Jarohat, infeksiya, notoʻgʻri ovqatlanish tartibi va b. bilan bogʻliq kasalliklar va h.

Exogen – appeared because of the influence outer environment. Diseases related with infections, injury, disorder of nutrition and etc.

Ekspressiv nutq – (*yexressio* – ifodalash soʻzidan) faol (aktiv), yaʼni tashqi nutq; fikrni oʻzgalarga bayon etish. E. n. ning ogʻzaki va yozma shakllari mavjud.

Expressive speech – (from the word *expression* – expression) active speech. Expressing the idea, thoughts. There are oral and written expressive speech.

Embolofraziya – yunoncha *yetbol* – suqilmoq, aralashmoq, ifoda so'zlaridan olingan bo'lib, qo'shimcha tovush, bo'g'in, so'zni kiritish natijasida nutqning sintaksis qurilishi buziladi.

Embolophrasia - take from Greek words *embol* – interfere, mix, due to the mixing additional sound, syllable or word destructed the syntactic structure of speech.

Endogen – organizmning ichki muhitida yotuvchi sabablarga ko'ra yuzaga keluvchi.

Endogen – appearing because of the inner environment of the organism.

Emotsiya – xissiyot, qayg'urish, ruhiy bezovtalik (qo'rquv, o'ta xursandchilik va b.).

Emotion - a strong human feeling such as love, hate, or anger, fear, joy and etc,

Enurez – noqulay tashqi sharoitlar tufayli ruhiy va jismoniy zaif bolalarda yuzaga keluvchi siydik (peshob)ning ushlana olmasligi.

Inures – occurred phenomenon related with not keeping urine due to the inconeience with the spirituality and physicaly weak children.

Ensefalit – bosh miyaning shamollashi, miya to'qimalariga kasallikni qo'zg'atuvchi mikroblarning tushishi natijasida yuzaga keluvchi infeksiyon kasallik.

Encephalitis - swelling of the brain. Infectious disease occurred with the containing bacterium in the brain caused to awaken the disease.

Erta kar bo'lib qolgan bolalar – tug'ma yoki nutqni egallashgacha bo'lgan davrda, ya'ni, 1-3 yoshida eshitishini yo'qotgan bolalar.

Children become deaf earlier - the children lost their aural ability at the age 1-3, that is till the age gaining speech or inborn.

Esga tushirish – avval idrok qilingan narsa va hodisalarni, obrazlarni keyinchalik ongimizda qayta tiklashdan iborat bo'lgan xotira jarayoni.

Remind - to remember something or events that they know or something that happened in the past.

Esda qoldirish – idrok qilingan narsa va hodisalarni esda saqlab qolish. Ayrim nutqiy muammolarda (*afaziya, alaliya*) esda qoldirish jarayonlarining buzilishi kuzatiladi.

Keep in mind - to remember something or events that perceived. Some speech problems observed destruction of remembering process.

Etika – axloqiy qonun-qoidalar haqidagi ta'limot.

Ethics - moral rules or principles of behaviour for deciding what is right and wrong

Etiket – jamiyatda umumqabul qilingan axloq me'yorlari.

Etiquette - the shakll rules for polite behaviour in society or in a particular group

Etiologiya – kasallikning kelib chiqish sabablari haqidagi ta’limot.

Aetiology - the study of what causes disease

Efferent yo’li – nerv markazidan ishchi organlarga boradigan nerv yo’li.

Efferent’s way – the way of nerve led from the center of the nerve to the active organs.

Exolaliya – (*eho* – sado, *lalia* – nutq so’zlaridan) o’zgalar gapini ongsiz ravishda bir necha marta takrorlash. E. bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida paydo bo’lgan bir qancha nutqiy muammolarda kuzatiladi (masalan: afaziya, sensor alaliya).

Echolalia - (from the words *eho*- voice, *lalia* - speech) repeating other person’s sentence several times unconsciously.

Eshitish analizatori – ovoz signallarining idrok etilishi va qayta ishlanishini ta’minlovchi analizator. Ovoz signallarini idrok etish va qayta ishlash asosida eshitish sezgilari va obrazlari shakllanadi.

Aural (hearing) analyzer - analyser provides perceiving and reflecting the sound signals.

Eshitish apparat (uskuna) lari – ovozni kuchaytirib beruvchi murakkab elektron moslama (apparat)lar.

Aural (hearing) instruments – complex electronic tools (instruments) making the sound stronger (higher).

Eshitish protezlari – shifokor-surdolog tomonidan alohida ovoz kuchaytirgich apparatlarining eshitishida muammosi bo’lgan shaxslarning eshitish qoldiqlariga moslagan holda tanlanishi.

Aural prosthesis - to chose special voice strengthening instruments with the help of surdologist appropriately to the patients aural ability.

Eshitish qobiliyati – shaxsning nutqiy va nonutqiy tovushlarni idrok eta olish imkoniyati.

Aural ability – ability of the person verbal and non-verbal speech and sounds.

Eshitish qoldig’i – eshitishida muammosi bo’lgan shaxslarda eshitish idroki (qobiliyati) imkoniyatlarining saqlanganlik darajasi.

Aural remainder – the level of storage the aural ability of the people who have aural problems.

Y

Yaqin rivojlanish hududi (Y.r.h.) – bolaning dolzarb rivojlanish darajasi (bolaning mustaqil bajara oladigan vazifa va xatti-harakatlarining darajasiga ko’ra belgilanadi) hamda uning eng to’la hajmdagi (potensial, ya’ni uning kattalar rahbarligi ostida erishishi mumkin bo’lgan) rivojlanish darajasi o’rtasidagi chegara.

Zone of proximal development (ZPD) – the border between the child's highest (potential) (which fulfilled with the help of adult people) and crucial developmental stages level (the activities that the child can do independently).

O'

O'z-o'zini boshqarish – insonning o'zining ruhiy va jismoniy holati va xatti-harakatini boshqarish jarayoni.

Self-controlling - the ability to behave calmly and sensibly even when you feel very excited, angry etc

O'yin – inson faoliyatining tarixan tarkib topgan, asosan taraqqiyotining bolalik davriga xos bo'lgan maxsus turi.

Game - an activity or sport in which people compete with each other according to agreed rules.

O'qitish – ta'limiy maqsadlardan kelib chiqqan holda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faoliyati asosiga quriluvchi maxsus tashkil etilgan, maqsadga yo'naltirilgan hamda boshqariluvchi jarayon.

Teaching - the moral, religious, or political ideas of a particular person or group which are taught to other people.

O'qitish metodlari – maxsus ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan maqsadga erishish uchun qo'llanuvchi yo'l va usullar yig'indisi.

Teaching Methods – a set of well-organized and well-planned way of doing something used by the teacher for the purpose of achieving the aim in the process of special education.

O'qitishning texnik vositalari – pedagogik jarayonni takomillashtirish, o'qitishning samaradorligi va sifatini ko'tarishga xizmat qiluvchi texnik asbob va uskunalar.

Technical Aids of Teaching - Technical tools and instruments served to improve the quality and quantity of teaching and Educational process.

O'qish va yozuv qoidasining buzilishi – nutqning rivojlanmaganligi natijasida o'qish va yozishni o'zlashtira olmaslik. O'qish va yozishni o'zlashtira olmaslik darajasi nutqning umumiy rivojlanmaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Destruction reading and writing rules (regulations) – problems with reading and writing attainment due to the developmental lack of speech. The level of reading and writing failure depends on the entire undevelopmental level of speech.

O'quv dasturi – har bir o'quv fanidan o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning mazmuni va hajmini belgilab beruvchi o'quv rejasiga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan hujjat.

Syllabus - a plan designed based on the curriculum that states exactly what students at a school or college should learn and get knowledge, comprehension and skill in a particular subject.

O'quv rejasi – ta'lim turiga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan o'quv predmetlari ro'yxati va hajmi, ularni o'tish ketma-ketligi hamda nazorat qilish shakllarini o'zida mujassamlovchi asosiy hujjat.

Curriculum – the main document designed according to the type of education including itself a list of subjects indicated allocation of hours, their order and form of assessment.

O'quv faoliyatining tashkiliy shakllari – o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum bir shart-sharoit va tartib asosida tashkil etiluvchi birgalikdagi o'zaro faoliyati.

Organizational forms of Educational activities – cooperative interaction of teacher and students organized in particular condition and regulation.

Q

Qobiq osti markazlari – bosh miya yarim sharlar qobig'i ostida joylashgan nerv hujayralarining yig'indisi. Q.o.m. bosh miyaning murakkab shartsiz reflekslarini, organizmda modda almashuvini boshqarib turuvchi qismidir.

Center of cerebral cortex – a set of nerve cells located under the cerebral hemisphere. C.c.c. is a part of the cerebrum controlled substance changes in the organism and complex natural reflexes.

Qo'zg'alish – oliy nerv faoliyatining qo'zg'atuvchilar ta'sirini qabul qilish olish va tegishli javob reaksiyasini qaytarish uchun tayyor turish holatini aks ettiruvchi asosiy jarayon, nerv tizimining faol holati.

Arise – an active form of the nerve system, the main process of the readiness of the cerebrum for accepting and reflecting appropriately to the influence of the arisers.

H

Harakat analizatori – inson va hayvonlar organizmi harakat apparati holatini tahlil (analiz) qiluvchi murakkab neyrofiziologik funksional tizim.

Action analyzer - complex neurophysiological system that analyze the state of the action of the organism of human and animals.

Harakat – maqsadga muvofiq yo'naltirib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi; ongli faoliyat komponentlari va motivlaridan biri. **Action (movement)** - the process of doing something, especially in order to achieve a particular thing: one of the components and motive of an aware action.

Harf – yozma nutqni shakllantiruvchi, boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik grafik belgi.

Letter – a small undivided sign in writing or printing that represents a speech sound.

Hiqildoq papillomasi – hiqildoq, ba'zan traxeya shilliq pardalarida paydo bo'lgan shodasimon shakldagi shishlar.

Papilloma of the trachea (larynx) – swelling appeared in the mucous membrane of the trachea (larynx).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1992-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni - T.:Sharq nashriyot – matbaa konserni, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». - T.:Sharq nashriyot – matbaa konserni, 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.– T., 2017.–B.39.
5. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni.– Toshkent, 2008.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. Toshkent sh., 2017-yil 1-dekabr, PF-5270-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni. Toshkent sh., 2019- yil 29-aprel,PF-5712-son.
8. Sh.M. Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O'zbekiston», 2016. -56 b.
9. Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
10. Alimxo'jayeva F.J. Kar bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish. P.f.n. diss...avtoref. –M., 1992.
11. Выготский Л.С. Вопросы детской психологии. – М.: СПБ. 1999.
12. Белтюков В.И. Взаимодействие анализаторов в процессе восприятия и усвоения устной речи (в норме и патологии) – М.: Педагогика 1997.
13. Богданова Т.Г. Сурдопсихология. –М., 2002.
14. Боровлёва Р.А. Родителям маленьких оглохших детей (начало коррекционной работы с детьми, потерявшими слух в 2,5 – 3 года) // Дефектология. -2004. -№.4 -с. 78-82.
15. Боскис Р.М. Письмо слабослышащих детей. - М., 2004.
16. Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушенным слухом. – М.: Просвещение, 1998.
17. Боскис Р. М., Фингерман Л.Е. Развитие письменной речи в начальных классах школы слабослышащих. –М., 1998.
18. Боскис Р.М. Развитие смысловой стороны речи у глухих и слабослышащих детей. –М., 1991.

19. Быкова Л.М. Методика обучения русскому языку в школе для глухих детей. – М.: Просвещение, 1991.
20. Быкова Л.М. Развитие связной речи глухих учащихся начальных классов. – М.: Просвещение, 1999.
21. Выготский Л.С. Вопросы детской психологии. – М.: СПб. 1999.
22. Выготский Л.С. Вопросы детской психологии. – М.: СПб. 2019.
23. Выготский Л.С. Проблемы дефектологии. – М.: Просвещение, 1995
24. Варенова Т.В. Теория и практика коррекционной педагогики. – Минск: ООО Асар. 2007.
25. Дефектологический словарь. Под ред. А.И. Дьячкова. – М.: Педагогика. 1970.
26. Дефектология. Словарь-справочник. Автор-сост. С.С. Степанов. – М.: ТЦ Сфера. 2005.
27. John Alan, Arthur Walker “Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings” Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Paris, France. (ushbu kitobning 27-42-betlaridan olindi).
28. Зыкеев А.Г. Формирование и коррекция речевых навыков и умений в употреблении сложносочиненных предложений младшими школьниками с нарушениями в развитии // Дефектология. -2005. - №3. – с. 67-75.
29. Коррекционное обучение как основа личностного развития аномальных дошкольников / Под ред. Л.П. Носковой. – М.: Педагогика, 1999.
30. Книга для учителя школы слабослышащих. Обучение русскому языку, чтению, произношению / Под ред. Коровин К.Г. – М., 1995.
31. Колшанский Г. В. Логика и структура языка. – М., 1995.
32. Комаров К.В. Методика обучения слабослышащих детей грамоте. – М.: Просвещение, 1990.
33. Комаров К.В. Методика обучения русскому языку в школе для слабослышащих детей. – М.: Просвещение, 1998.
34. Матвеев В.Ф. Трудовое обучение школьников с нарушениями слуха в современных условиях // Дефектология. -2005. - №4. – с. 31-34.
35. Mamarajabova Z.N. Ona tili o'qitish maxsus metodikasi -T., 2016.
36. Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika -T., 2017.
37. Mamarajabova Z.N. Ona tili o'qitish maxsus metodikasida pedagogik texnologiyalar - T., 2014
38. Fayzieva U., Nazarova D.A., Qodirova F. Surdopedagogika-T.: Standart, 2012.
39. Nazarova D.A. Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish Ped. fan. nomz. dis. avtoref... – T.: TDPU. 2009.
40. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomil lashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning

ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. – T., 2007. – B. 60-63.

41. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalami oilada maktab ta'limiga tayyorlash. Ota-onalar uchun metodik qo'llanma. –T.: A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2007.–

42. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 1999.

43. Николаева Л.В. Особенности усвоения первоначальных временных географических понятий слабослышащими учащимися. В кн.: «Изучение слабослышащих детей в процессе обучения». – М.: Педагогика, 1992.

44. Николаева Т.В. Комплексное психолого-педагогическое обследование ребёнка третьего года жизни с нарушенным слухом //Дефектология. – 2004. -№4 – с. 40-46.

45. Никулина Л.В. Работа с речевым материалом на уроках развития речи в начальных классах в школе слабослышащих // Дефектология. - 1990. -№ 4. – с. 32-34.

46. M. Marschark, Harry G.Lang, John Albertini - Educating deaf students - Oxford University Press, 2006, 303p

47. Новая модел обучения в специальных общеобразовательных учреждениях. / Под ред. А.М. Щербаковой. М.: Издательство НС ЭНАС, 2001.

48. Запорожец А.В. Значение ранних периодов детства для формирования детской личности / Принцип развития в психологии. Сб. науч. тр. – М., ИДП АПН, 1998 – С. 43.

49. Садовникова И.Н. Нарушение письменной речи у младших школьников. - М., 1993.

50. Садовникова И. Н. Нарушения письменной речи и их преодоление у младших школьнков. – М., 1995. - 146 с.

51. Сурдопедагогика. Под ред. Е.Г.Речицкой. – М.: Владос, 2004.

52. Шматко Н.Д., Пельмская Т.В. Если малыш не слышит.– М.: Просвещение, 2003.

53. L.Mo'minova, Sh.Amirsaidova va boshqalar Maxsus psixologiya -T.: Fan va texnologiyalar. 2013.

54. P.Po'latova, L.Nurmuxamedova, Sh.Amirsaidova Maxsus pedagogika - T.: Fan va texnologiyalar . 2014

55. Образование 2030. Инчхонская декларация и рамочная программа действий./ ООН. ЮНЕСКО. Инчхон. 2015.

56. Переосмысливая образование. Образование как всеобщее благо?/ ООН. ЮНЕСКО. 2015.

57. Qodirova F.U. Boshlang'ich sinf kar o'quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– T.: TDPU.2006

58. Fayzieva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – T.: TDPI. 1994.

59. Fayziyeva U.Yu. Nutq o'stirish. O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2001.

60. Fayziyeva U. Maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi. – T.: Ilm ziyo, 2006.

61. Fayziyeva U. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 0,1-5 sinflari uchun ona tili fanidan davlat ta'lim talablari va dasturi– T.: O'qituvchi, 2014

62. Fayziyeva U. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 6-10 sinflari uchun ona tili fanidan davlat ta'lim talablari va dasturi– T.: O'qituvchi, 2014.

63. Королева И.В., Пудов В.И., Зонтова О.В. Реабилитация постлингвальных детей и взрослых с кохлеарными имплантатами // Дефектология – Москва, 2001. – № 5. – С.21-34.

64. Королева И.В. Кохлеарная имплантация глухих детей и взрослых (электродное протезирование слуха). – СПб.: КАРО, 2009.

65. Таварткиладзе Г.А., Белянцев И.А., Фроленков Г.И. Показания к кохлеарной имплантации -М., 1995.

66. Таварткиладзе Г.А. Кохлеарная имплантация -М., 2000.

67. Сатаева А.И. Кохлеарная имплантация как средство помощи глухим людям. - Воспитание и обучение детей с нарушениями развития, №1, 2008.

68. Сулейманова Р.А., Хакимжанова Г.Д. Зарубежный и отечественный опыт включения детей со специальными нуждами в общеобразовательный процесс. Проблемы и пути решения. – Алматы. 2001.

69. Специальная педагогика. Под ред. Н.М.Назаровой. – М.: Издательский центр Академия. 2004.

70. Ching T.Y., Psarros C., Hill M. et all. Should children who use coghlear implants wear hearing aids in the opposite ear? // Ear Hear. 2013. Vol. 22(5). P. 365-380.

71. Ching T.Y.C., Incerti P., Hill M. Binaural benefits for adults who use hearing aids and coghlear implants in opposite ears// Ear Hear. 2012. Vol. 25(6). P. 565-600.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI	3
I BO'LIM. SURDOPEDAGOGIKANING UMUMIY MASALALARI	6
I BOB. SURDOPEDAGOGIKANING MAVZU BAHSI	6
Surdopedagogikaning mavzu bahsi, vazifalari	6
Surdopedagogikaning tadqiqot metodlari	12
Surdopedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlari	16
II BOB. SURDOPEDAGOGIKANING RIVOJLANISH TARIXI	27
Zamonaviy surdopedagogikaning shakllanishida muhim o'rin tutgan g'oya va yondashuvlar	27
Chet el surdopedagogikasining rivojlanishining bosqichlari	42
Rossiya surdopedagogikasining rivojlanishining bosqichlari	49
O'zbekistonda surdopedagogik nazariya va amaliyotning taraqqiy etishi	
III BOB. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFNOMASI	68
Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ruhiy rivojlanishining o'ziga xosligi	68
Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar psixologik -pedagogik tasnifi	70
Eshitish nuqsonini tashxis qilish	77
II BO'LIM. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALAR TA'LIMINING TASHKIL ETILISHI	86
I BOB. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALAR TA'LIM-TARBIYANING TASHKIL ETILISHI	86
Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim muassasalari tarmog'i	86
Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limining mazmuni (o'quv reja, dastur va darsliklari, kompetensiyaviy yondashuvlar)	118
Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonida ta'lim tamoyillarining qo'llanishi	120
Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi jarayonida qo'llanuvchi metodlar tavsifi	128
Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktablarida til o'qitish asoslari	131
Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktablarida mehnat ta'limining asoslari va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish	165
Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonida qo'llanuvchi nutqiy vositalar	180
Maxsus ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar samarasi	188
Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	219

III BO'LIM. ESHITISHIDA VA AQLIY RIVOJLANISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALAR TA'LIM VA TARBIYASINING TASHKIL ETILISHI	241
I BOB. ESHITISHIDA VA AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'QITISH	241
Eshitishida va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish mazmuni	241
Eshitishida va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish xususiyatlari	246
IY BO'LIM. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALAR TARBIYASINING NAZARIY ASOSLARI	248
I BOB. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALAR TARBIYASINI TASHKIL ETILISHI	248
Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktab-internatlarida tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishidagi o'ziga xoslik	248
Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalash metodlari	269
Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni oiladatarbiyalash	274
Y BO'LIM. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALAR TA'LIM-TARBIYASI JARAYONIDA HAMKORLIK ISHLARINING TASHKIL ETILISHI	282
I BOB. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALAR TA'LIM-TARBIYASI JARAYONIDA HAMKORLIKNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	282
Ota-onalar o'rtasida psixologik - pedagogik bilimlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	282
Eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda maktab va oila hamkorligi	302
Eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashda maktab va oila hamkorligi ining asosiy yo'nalishlari va metodlari	310
YI BO'LIM. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALAR TA'LIM-TARBIYASIDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	320
I BOB. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALAR TA'LIM-TARBIYASIDAGI ZAMONAVIY YONDASHUV MOHIYATI	320
Surdopedagogikada integratsiya va inklyuziv ta'lim muammosi: mohiyati, muammo va yechimlari	320
Koxlear implantatsiya – eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nogironligini olishning samarali vositasi	347
GLOSSARIY	370
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	413

**Nazarova Dildora Asatovna
Mamarajabova Zulfiya Norbayevna**

**MAXSUS PEDAGOGIKA
Surdopedagogika
DARSLIK**

Toshkent - "INNOVATSIYA-ZIYO" – 2019

Muharrir Xolsaidov F.B.

Nashriyot litsenziyasi AI № 023, 27.10.2018.
Bosishga 20.12. 2019 da ruxsat etildi. Bichimi 60x90.
"Times New Roman" garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 27. Nashr bosma tabog'i 26,25.
Adadi 100 nusxa.

ISBN 978-9943-6212-9-9



9 789943 621299